


# O'ZBEKISTON TARIXI

Naim Oblomuradov  
Fayzulla Tolipov



**O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**Toshkent moliya instituti  
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

**Naim Oblomuradov  
Fayzulla Tolipov**

# **O‘zbekiston tarixi**

(Darslik)

**Toshkent – 2021**

УДК: 94(419)  
ББК: 63.3 (50'z)

**N.Oblomurodov, F. Tolipov. «O'zbekiston tarixi». Darslik**  
(Nomutaxassislik oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va talabalari uchun)

«O'zbekiston tarixi» fanidan mazkur darslik nomutaxassislik oliy ta'lim muassasalari tarix fani professor-o'qituvchilari va bakalavriat bosqichi barcha yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Unda o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixining ilk davrlaridan, bugungi kungacha bo'lgan tarixiy jarayonlar davriy ketma-ketlikda yoritilgan. Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4.10. dagi № 892-sonli buyrug'i bilan ma'qullangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan.

#### **Taqrizchilar:**

**tarix fanlari doktori, professor N. Musaev**  
**tarix faulari nomzodi, F. Ziyaev**

## Kirish

O'zbekiston dunyodagi boy tarixga ega davlatlardan biridir. Insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lgan xalqimiz va uning davlatchilik tarixi kishilik jamiyatining uzoq davrlariga borib taqaladi. Unda xalqimiz tarixining ibtidoiy davridan hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'li, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti o'z aksini topgan.

O'zbekiston tarixi fani xalqimizning tarixiy taraqqiyoti, ajdodlarimiz qoldirgan boy moddiy va ma'naviy merosini, o'lkamizda davlatchilikning tashkil topishi va ularning rivojlanishi, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlarini va unda mardlik, jasorat ko'rsatgan xalq qahramonlari va davlat arboblari faoliyatlarini keng miqyosda o'rgatadi. Shu bilan birgalikda xalqimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda milliy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyati ham o'z aksini topgan.

Yurtimizdan dunyo civilizasiyasi tarixiy taraqqiyotida muhim iz qoldirgan olimu-fuzalolar, davlat arboblari, sarkardalar yetishib chiqqanlar. Biz ular bilan xaqli ravishda faxrlanamiz. Ayniqsa respublikamizning turli hududlaridan qadimgi va o'rta asrlarga oid ko'plab manzilgo'lar, shahar qoldiqlari, turar-joylar, aholi tomonidan yasalgan qadimgi ashyolar, uy-ro'g'or buyumlari topilayotganligi xalqimiz va uning davlatchilik tarixi boy ekanligini tasdiqlaydi.

Jumladan, bunday qadimgi manzilgo'lar va shahar xarobalari O'zbekiston hududidagi qadimgi **Sopollitepa, Jarqo'ton, Quva, yerqo'rg'on, Afrosiyob, Choch, Axsikent** manzilgo'hlari va shahristonlaridan topilgan bo'lib, mazkur arxeologik topilmalarga ko'ra, ushbu manzilgo'hlarda yashagan aholi turmush tarzi va madaniyati yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, o'sha kezlarda shaharlarning ma'lum qismlari o'ziga xos hunarmandchilik markazlari bo'lgan. Masalan, Quva shaharining sharqiy tomonida shisha ishlab chiqaruvchi, g'arbiy tomonida ko'zacha ishlab chiqaruvchi ustaxonalar bo'lgan. Dahalar alohida xo'jaliklardan tashkil topgan. Har bir ho'jalikda bir necha oila a'zolari birgalikda yashaganlar. Bu yerlardagi uylar atrofidan kundalik ovqat tayyorlashda ishlatilgan o'choq qoldiqlari, turli ashyolar topilgan. Demak qadimgi Quva, yerqo'rg'on, Afrosiyob, Choch, Axsikent shahristonlari qadimgi kishilar uyushqoqligining ilk manzilgo'hlari bo'lgan.

Xalqimizning boy tarixi, ma'naviy merosi va madaniyatiga bugungi kunda yangicha tafakkur va dunyoqarash asosida munosabat bildirilmoqda. Ular xususida kitoblar, monografiya va o'quv qo'llanmalari chop etish, yoshlar, unuman keng xalq ommasiga yetkazish yo'lida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tub iqtisodiy-siyosiy islohotlar bilan bir qatorda, fan va ta'lim sohaslarida ham asrlarga tatigulik chuqur, keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ulkan yangilanishlar va islohotlar davrida xalqimizning boy tarixi

VA SERVIS INSTITUTI

3 XALQYOT RESURS MARKAZI

66410

moddiy va ma'naviy merosini o'rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa xalqimizning o'lmishi, milliy urf-odatlari, qadriyatlari o'ziga qaytarildi. Sovet tuzumi yillarida oyoq osti qilingan ma'naviyatimiz mustaqillik sharofati bilan tiklanib, uni boyitish yo'lida qator hayrli ishlar qilindi. Xalqimiz o'z oldiga bugungi kunda **yangilanayotgan O'zbekiston kelajagini barpo etish** maqsadini qo'ydi. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan jamiyatni yanada rivojlantirish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun har tomonlama ma'naviy barkamol insonlarni voyaga yetkazish, ular ongida tarixiy qadriyatlariga nisbatan hurmat, o'z vataniga nisbatan milliy g'urur va iftixor hissini shakllantirish lozim.

Ayniqsa yoshlarlarga urf-odat va an'analарimiz, milliy tarbiya an'analari, tarixiy va ma'naviy qadriyatlarimiz xalqni yagona maqsad sari birlashtiruvchi bayroqdir. Yoshlar qalbida va tafakkurida yangilanayotgan O'zbekistonning buyuk kelajagini qurishga qodir, yangicha ruhni shakllantirish muhim masala va dolzarb vazifadir. Ana shu ruh qalbida barq urgan yoshlar millat va xalq manfaatini yuqori darajaga ko'tara oladi. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan barkamol avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz strategik taraqqiyotini ta'minlash uchun bugungi kunda maktabgacha ta'lim, o'rta, o'rta-maxsus va oliy ta'lim sohalarini isloh qilishning asosiy omillaridan biri, shaxs manfaati, tarbiyasi va ta'lim ustuvorligi, deb belgilandi.

Tarixiy bilimlar orqali fuqarolarda Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari shakllantiriladi. Yoshlarni tarixiy qadriyatlarimizga hurmat va milliy g'oya ruhida tarbiyalash jarayonida har bir pedagog o'quv yurtining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyatini yoshlar jamoasining umumiy tayyorgarliklariga individual yondashgan holda tashkil etishi va amalga oshirishi lozim. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ta'lim-tarbiya sifatini to'g'ri tashkil etish, ta'lim jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammoni hal etishga doir chora-tadbirlar dasturini tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda tarixchi olimlar uchun Vatanimiz tarixini har qanday mafkura va tazyiqlardan holi tarzda yoritish va xolisona o'rganish imkoniyatlariga keng yo'l ochildi. Shunday bo'lsada, bugungi kunda O'zbekiston milliy davlatchiligi tanxining vujudga kelishi va taraqqiy topishi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-ommabop adabiyotlarni tayyorlash va chop etish borasida olim va mutaxassislar bilan birgalikda ish olib borish zarurati tug'ilmoqda. Bunda ilmiy va jamoat muassasalari hamda tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlari samaradorligini oshirish, yoshlarda mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish masalalari dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan, tayyorlangan ushbu darslik ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mazkur darslik O'zbekiston tarixining qadimgi davrlaridan boshlab, hozirgi kungacha bo'lgan katta davrni o'z ichiga oladi. U O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019 yil 4.10. dagi № 892-sonli buyrug'i bilan

ma'qullangan o'quv dasturiga asoslangan holda tayyorlandi. Mualliflar darslikni yozishda har bir mavzularning tub mohiyati, tarixiy-madaniy jarayonlarning asoslari, omillari va rivojlanishi, sabablari va oqibatlari hamda natijalariga katta e'tibor qaratdilar. Shuningdek, darslikni yozishda Vatanimiz hududida sodir bo'lgan tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar haqida xolisona xulosalar chiqarishga harakat qilindi.

Mualliflar ushbu darslikni yozishda «O'zbekiston tarixi» fanini o'qitishning dolzarbligi hamda ahamiyatini bayon etish bilan birga, mazkur fanning tuzilishi, mazmuni hamda fan bo'yicha o'qitishning o'quv-uslubiy mohiyatini ochib berishga intilganlar. Fanning o'quv dasturi asosida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning matni, rejasini hamda mashg'ulotlar yuzasidan nazorat savollari, mustaqil ta'lim mavzulari va foydalaniladigan adabiyotlar ilova qilingan. Shu bois, darslikdagi har bir reja va topshiriqlar, professor-o'qituvchilar va talabalarda mustaqil fikrlashni, o'z fikrlarini asosli ravishda himoya qilishni, bahslashish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatidir.

Albatta bugungi kunda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va yangicha o'quv-uslubiy yondashuvlar asosida o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu boisdan O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'mi hamda ahamiyati, O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligi, O'zbekiston tarixining jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk, milliy g'oya ruhida tarbiyalangan yoshlarni tarbiyalashdagi o'mi katta ekanligining o'ziyiq ushbu darslikning o'mi va ahamiyati muhim ekanligini ko'rsatib turibdi. Mualliflar ushbu darslikni yozishda qator darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, tarixiy hujjatlar va boshqa manbalardan foydalandilar.

**1-mavzu. «O'zbekiston tarixi» fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati. Markaziy Osiyo - jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi**

### **Reja:**

**1.O'zbekiston tarixi fanining predmeti, ob'ekti, uni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan uyg'unligi.**

**2.O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni.**

**3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev barkamol avlod va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va saboqlari xususida**

**4.Insonlarni har tomonlama yetuk, ma'naviyatli va komil etib tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining ahamiyati**

**5.O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya beshiklaridan biri. Qadimgi davr (paleolit, mezolit, neolit va eneolit ) odamlarining turmush tarzi va madaniyati.**

**6. O'zbekiston tarixida bronza va temir davri. Ilk shahar madaniyati hamda davlatchilikning vujudga kelishidagi omillar.**

**7. Avesto qadimgi ajdodlarimiz ma'naviy hayotini o'rganishda muhim manba.**

### **1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, ob'ekti, uni o'rganishning nazariy metodologik tamoyillari. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan uyg'unligi.**

Tarix fani insoniyatning o'tmishi, aholining turmush tarzi, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga oid sodir bo'lgan voqea va hodisalarni, insoniyat jamiyatining barcha tadrijiy (evolyusion) rivojlanish jarayonlarini o'rganadi. Vatanimiz tarixi jahon tarixining ajralmas qismi bo'lib, u ajdodlarimizning bosib o'tgan tarixiy yo'li, turmush tarziga oid ma'lumotlarni ma'lum izchilikda va ketma-ketlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish orqali biz ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi xususida tushunchalarga ega bo'lish barobarida, ulaming jahon xalqlari tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Tarix xususida xolis ma'lumotlarga ega bo'lish uchun fanning predmeti va ob'ektini to'g'ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Zero, hozirgi kunda tarixchilar oldida turgan muhim masalalardan biri bu, o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixini fanning predmeti va uni o'rganish ob'ektidan kelib chiqib, ma'lum nazariy-metodologik tamoyillarga tayangan holda haqqoniylik, xolislik asosida yoritishdan iboratdir.

Tarix fani ham boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar kabi mustaqil fan hisoblanadi. U barcha fanlar qatori alohida o'z o'zini va mavqeyiga ega bo'lib, ijtimoiy-gumanitar va boshqa ayrim fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Birinchidan, u o'z xususiyatiga ko'ra, o'tinish haqida saboq beradi, insonlarni sodir bo'lgan voqeya va hodisalar haqida zarur xulosalar chiqarishga undaydi, kishilarni ajdodlarimizning o'tmishdagi hayot tarzini, ular yaratgan moddiy va ma'naviy merosini qadrlashga undaydi.

Ikkinchidan, tarix fanini o'rganishda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun xos barcha metodlarga tayaniladi, hatto uni o'rganishda matematik metoddan ham foydalanilishi, bejiz emas. Chunki, tarixiy voqeya va hodisalar qat'iy aniqlikda, davriy ketma-ketlikda, xronologik asosda o'rganiladi. Ularni o'rganishda tarixiy hujjat va dallilarning haqiqiy ekanligi, ular qachon, qayerda, qanday tarixiy muhit va sharoitda yaratilganligiga ham ahamiyat bermoq lozim. O'zbekiston tarixi fani o'tmishdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni, ularning rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, kishilarni ulardan kelajak uchun saboq va xulosalar chiqarishga undaydi. Bu esa bo'lg'usi avlodlar kamolotida katta ahamiyatga ega.

Fanning predmeti shu mintaqada sodir bo'lgan jamiki voqeya va hodisalar, ulardagi umumiylik va aloqadorlik qonuniyatlari, tarixiy hodisa va jarayonlar, umuman insoniyatning barcha tarixiy faoliyat jarayonlarini o'rganishdir. O'zbekiston tarixi fanini o'rganish ob'ekti esa **O'zbekiston tarixida sodir bo'lgan barcha voqeya va hodisalar**dir. Tarixiy ob'ekt fanning maqsadi, vazifasi va yo'nalishini belgilaydi. Ma'lum bir ma'noda ob'ekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da, ular tarix fanida tutgan o'rni va vazifasi bilan farqlanadilar.

Ob'ekt, aniq tarixiy davr, makon, zamon va geografik va umumiy mintaqaviy chegaralar, ma'lum xalqlar, mamlakatlar tarixi bilan bog'liq jarayonlar bo'lib, ular voqeya va hodisalarni bir butun va yaxlitlikda qamrab oladi. Shu boisdan ijtimoiy gumanitar fanlarning ob'ekti, aniq reallikda sodir bo'lgan va bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, o'zgarishlar, voqeya va hodisalaridir. Predmet esa mana shu ob'ekt ichidagi aniq tarixiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan iborat bo'lgan aniq voqeya va hodisalami o'rganishdir.

Yuqorida tarix fani bir qator fanlar, xususan ijtimoiy-gumanitar fanlari bilan mustahkam va uzviy aloqada o'rganiladi, dedik. Shuni ham aytish lozimki, tarix va boshqa aksariyat ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rganish ob'ekti inson, davlat va jamiyat hayotidagi o'zgarish va islohotlardir. Shuning uchun ham boshqa fanlar tarix fani taraqqiyotiga hissa qo'shadi, tarixiy haqiqat ro'yobga chiqishiga bevosita yordam beradi. Tarix fanini ya'ni, Vatan tarixini xolis o'rganish xalqimiz o'tmishi haqida zarur ma'lumotlarga ega bo'lishda muhim o'rin tutadi, xalqimiz kelajak taqdirini ravnaq topishida muhim ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi va O'rta Osiyo mintaqasida azaldan birga istiqomat qilib kelayotgan xalqlar tarixi o'zaro mushtarak bo'lib, ular insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Fanni o'qitishdan asosiy maqsad, vatanimiz tarixining



qadimgi davridan hozirgi kungacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, xalqning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish orqal: fuqarolar, ayniqsa yoshlar ongida tarixiy xotira, ular qalbida vatanparvarlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalar fanni o'rganish jarayonida o'tmishda xalqimizning, ya'ni ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu-fuzalolar faoliyatlarini o'rganadilar. Shu bilan birgalikda, talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar xususida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Endi barcha fanlarning asosiy nazariy jihatini tashkil qiluvchi "metodologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi haqida. Unuman, ushbu so'z grekcha «metodos» va «logos» kabi ikki so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, metod ya'ni usul tadqiqot olib borish usuli (yo'li), logos" esa fan ma'nolarini anglatadi. Demak, metodologiya ilmiy tadqiqot olib borish yoki biror bir masalani ilmiy-nazariy o'rganishning qulay usullari, to'g'ri va mukammal g'oyasi, nazariyasi va ta'limotlari ma'nosini anglatuvchi tushunchadir. Boshqa ma'noda esa metodologiya ilmiy bilish yoki ma'lum bir ilmiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda qo'llaniladigan usullar haqidagi fandir. Uni o'rganishda quyidagi ikki yo'nalishni keltirish maqsadga muvofiq.

Avvalombor, tarix fanini o'qitishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy hamda g'oyaviy asoslarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- *birinchidan, tarixga xalqning milliy va umumbashariy qadriyati hamda muqaddas ma'naviy merosi sifatida qarash lozim;*

- *ikkinchidan, tarix haqqoniy bo'lishi uchun, unga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish muhim;*

- *uchinchidan, tarix jamiyat va davlatlar hamda insoniyat taraqqiyotining ma'lum dialektik hamda sinergetik qonuniyatlarini asosida rivojlanishini to'g'ri anglash zarur;*

- *to'rtinchidan, tarix insonlar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantiruvchi moddiy va ma'naviy merosni vujudga keltiruvchi muhim manba, xalqni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan jipslashtiruvchi asos ekanligini tushunish muhim.*

- *beshinchidan, tarixiy haqiqat ro'yobga chiqishi uchun, u ob'ektiv va xolis o'rganilishi, har qanday g'oyaviy va mafkuraviy tazyiqlardan holi bo'lishi zarur. U ma'lum bir siyosiy, diniy uyushmalar yoki davlatlar manfaatiga emasa, balki xalq uchun xizmat qilishi lozim.*

Afsuski, so'nggi yillarda o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi xususida mutaxassislari tarixdan yiroq yoki endigina tarix faniga kirib kelib, unga to'liq

kirib ulgurmagan, fan borasida zuvalasi qotmagan, uning nazariy jihatlarini tushunib yetmagan, ayrim ziyolilar yoki tarixchilar darslik va o'quv qo'llanmalar chiqarishga qo'l urishlari natijasida, turli chalkashliklar kelib chiqmoqdaki, bu ba'zan fan mazmuni va obro'siga putur yetkazib, yosh avlodni fanga bo'lgan munosabatini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday "xilma xilliklar" yoki chalkashliklar fanning asl mohiyatiga soya solmoqda.

Endi **O'zbekiston tarixini davrlashtirish** maslasini olib ko'raylik. Darhaqiqat, tarixni to'g'ri davrlashtirish asosida maktab, o'rta maxsus o'quv yurtlari va oliy ta'lim tizimida yoshlarga fanga oid bilimlarni mukammal yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixni to'g'ri davrlashtirmasdan turib, uni xolis o'rganib bo'lmaydi.

Jumladan, mamlakatimiz tarixini yagona nazariy konsepsiya asosida davrlashtirish masalasi ancha yillar talay bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Ammo keyingi yillarda O'zbekiston tarixi fanida boy o'tmishimizni davrlashtirish masalasi o'z yechimini topdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vaholanki, har bir xalq va millat tarixi ma'lum mahalliy shart sharoitlar va qonuniyatlar asosida rivojlanadi va shu asosda davrlashtiriladi. Chunki, insoniyat tarixi dunyoning turli mintaqalarida turli tarixiy davrlarda turlicha kechgan bo'lib, biron bir mintaqadagi tarixiy jarayonlar ikkinchi mintaqadagi tarixiy jarayonlardan tubdan farq qilishi mumkin.

Aynan O'zbekiston tarixini yangicha davrlashtirish borasida o'zining nazariy konsepsiyasini ilgari surgan akademik A. Asqarov bu borada to'g'ri ta'kidlab, o'ziga xos ilmiy tavsiyalarini ilgari surib, quyidagilarni qayd etadi: "Sho'rolar davri tarix fanida kishilik jamiyati tarixini 5 ta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar (ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm)ga bo'lib o'rganish an'anaga aylangan edi. Sobiq SSSR parchalanib, kommunistik g'oya va sotsializm sistemasi barbod bo'lgandan so'ng, jamiyat ijtimoiy va iqtisodiy qonunlari o'zgardi.

Shu boisdan bugungi kunda hayot tarixga, jamiyat taraqqiyotining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishda ob'ektiv, aniq va birlamchi manbalar asosida yondashishni taqozo etmoqda. **Zero, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini 5 ta formatsiyalarga bo'lib o'rganishlik endilikda zamon talabiga to'g'ri kelmay qoldi.** Chunki, O'rta Osiyo xalqlari tarixi misolida oladigan bo'lsak, quldorlik tuzumi maxsus ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya sifatida bizda bo'lmagan. Sotsialistik jamiyat esa tarix taqozo etmagan xayoliy bir uydirma bo'lib chiqdi. O'rta Osiyo sharoitida ana shu 5 ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning faqat uchtasigina (ibtidoiy jamoa tuzumi, feodal jamiyati va kapitalistik munosabatlarning dastlabki bosqichlari) yuz berganligini ta'kidlash mumkin. Sovet davri jamiyati esa davlat monopolistik kapitalizmi shaklida rivojlandi.

O'zbekiston tarixini davrlashtirish masalasida sovet davrida mutlaqo boshqacha yondoshuvlar mavjud edi. Bunday tarixiy davrlashtirishdan farqli ravishda mintaqamizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib **akademik A.**

Asqarov tomonidan taklif etilgan nazariya e'tiborga molikdir. Olim O'zbekiston tarixini davrlashtirishda quyidagi yettita asosiy davrni ko'rsatib o'tadi:

- 1) **Ibtidoiy to'da davri (2,5 mln-40 ming yilliklar)**
- 2) **Urug'chilik jamoasi va mulk egaligining shakllanish davri (40 ming yillikdan milodiy V asrlargacha)**
- 3) **Ilk O'rta asrlar davri (IV asr oxirlari - V asrdan - IX asr o'rtalarigacha)**
- 4) **O'rta asrlar davri (IX asr o'rtalaridan-XIX asrning birinchi yarmiga qadar)**
- 5) **Mustamlakachilik va milliy uyg'onish davri. (XIX asr o'rtalaridan-1917 yilgacha)**
- 6) **Sovetlar davri (1917-1991 yillar)**
- 7) **Milliy mustaqillikka erishish, demokratik va fuqarolik jamiyati qurish davri.**

Shu o'rinda tarixiy tafakkur va tarix falsafasi ma'naviy boy, ma'rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo'lib xizmat qilishini qayd etish zarur. Ularni talabalarga yetkazishda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi.

*Birinchidan*, talabalarda tarixni anglash orqali hayotni anglash, o'zligini anglash qobiliyati shakllanadi, ularda istiqbolini belgilash tuyg'usi kuchayadi.

*Ikkinchidan*, talabalar tarixiy tafakkur orqali o'tmish va bugungi hayotni solishtirish, taqqoslash va zarur xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'tmish va bugungi kun mazmuni chuqurroq anglash falsafasi yuzaga keladi. Bu har bir insonning o'ziga xos tafakkur tarzi: shakllantirish orqali shaxs sifatidagi fe'l-atvorining rivojlanishiga xizmat qiladi.

*Uchinchidan*, yoshlar tarixni o'rganish orqali turli qirg'inbarotlar iskanjasida o'zligini yo'qotgan, o'z qadru qimmatini unutgan fuqaroni uyg'onishga, o'zligini anglashga, o'z haq-huquqini himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga da'vat etadi.

*To'rtinchidan*, ajdodlari buyuk, jahon taraqqiyoti va tamadduniga katta hissa qo'shgan madaniyatga daxldor xalq qalbida o'tmishini o'rganish milliy g'ururining uyg'onishi katta ijtimoiy-ma'naviy qudrat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayon insonning o'zini-o'zi yangilashiga yordam beradi.

*Beshinchidan*, jamiyatda insonning ma'naviy-ruhiy quvvatini yuksaltirish orqali jamiyatni yangilash, inson turmush tarzini o'zgartirish kabi chuqur, keng miqyosli islohot amalga oshiriladi. Bu bugungi Yangilanayotgan O'zbekistondagi keng qamrovli islohotlar davrida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga, shuningdek fanni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslar:ga tayangan holda

o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda tarix fanini o'rganishda ma'lum ilmiy, metodik tamoyillarga tayanish ham muhimdir. Shuningdek etnografiya, arxeologiya, antropologiya fanlarida qabul qilingan moddiy va yozma ma'lumotlarga tayangan holda ish yuritish ham fanni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarix fani talabalarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalaydi, ularda shaxsiy tashabbus va erkin ijod qilish sifatlarini shakllantiradi. Quyida biz erkin ijod uchun yo'naltirilgan metodlardan biri, ya'ni "Guruhlarda ishlash" metodi bo'yicha darslar tashkil qilish tartibini havola qilamiz:

### **Guruhlarda ishlash tartibi:**

Guruhlarda topshiriqlarni taqsimlash 1-2 min. Topshiriqlar ustida ishlash, savollarga birgalikda, navbat bilan javob berish – 15 min. Javoblar va ko'rgazmali qurollar taqdimotini o'tkazish 5-8 min.

### **Guruhlardagi ishning ko'rsatkichlari va baholash mezonlari:**

Guruh	Javoblarning aniqligi	Bayon etishning tushunarligi	Ko'rgazmalilik	Gurux a'zolarining faolligi	Ballar yig'indisi
1					
2					
3					
4					
5					

## **2. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni va ahamiyati.**

O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda tarixiy manbalarning o'rni va ahamiyati katta. Ular xalqning bebaho moddiy va ma'naviy merosi, boyligi hisoblanib, muzeylarda, arxivlarda, kutubxonalarda saqlanmoqda. Manbalar o'z mazmuniga ko'ra, moddiy va yozma turlarga bo'linadi. Yozma manbalar eng qadimgi rasmlar, yozuvlar, bitiklar, hujjatlar va kitoblardan iboratdir. O'tmishda mamlakatimiz hududida va boshqa hududlarda bitilgan qadimgi va o'rta asrlarga oid yozma manbalarni o'rganish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, bu yo'nalishda bajariladigan ishlar hali ko'p. Junlardan, mavjud manbalar ham xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini xususida to'liq, zarur va yetarli ma'lumotlarni beravermaydi. Shu boisdan ularni sinchiklab o'rganish, tarjima qilib, ilmiy tadqiq etish muhim.

Xususan, Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlari tarixida muhim o'rin tutuvchi eng qadimgi manbalar qatorida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto», qadimgi davr tarixiga oid muhim manba, Erondagi Behistun qoyatosh bitiklari, qadimgi Rim, Yunoniston tarixchilarining yozib qoldirgan ayrim

asarlarida hozirgi O'rtasiyo xalqlari tarixi, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyatiga oid zarur ma'lumotlar mavjud. Tarixiy manbalar qatorida shuningdek Abulg'oziyning «Shajari turk», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafaroma», Muhammad Yusuf Bayoniyning «Shajari Xorazmshohiy» va shu kabi boshqa asarlarni ham tarixiy manba sifatida misol qilish mumkin. Shu bilan birga, Amir Temurning «Temur tuzuklari», Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburoma» asarlarini ham muhim yozma manbalar sifatida keltirish o'rinli.

Tarixni o'rganishda arxeologik, etnografik, numizmatik va toponimik manbalar va ma'lumotlarning ham o'limi katta. Ular qatoriga qadimgi aholi manzilgozlari, shaharlar xarobalari, mozor va qo'rg'onlarning qoldiqlari, aholi turmushi va xo'jaligida ishlatilgan buyumlar, mehnat va jang qurollari, turli-tuman ro'zg'or ashyolarini kiritish mumkin. Shunday manzilgozlar bugungi kunda respublikamizning **Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent vohasi, Xorazm, Farg'ona vodiysi** hududlaridan ko'plab topilmoqda. Aslida maoddiy manbalar, bu inson qo'li va mehnati bilan yaratilgan moddiy ashyolardir. Moddiy manbalarga quyidagilar misol bo'ladi:

- uy-joylar, ro'zg'or buyumlari;
- kiyim kechaklar va oziq-ovqatlar;
- transport vositalari, mashina va jihozlar;
- turli tarixiy topilmalar, moddiy ashyolar;
- bino va inshootlar, tarixiy yodgorliklar va boshqalar.

Tarixiy moddiy manbalar bu, asosan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizgacha yetib kelgan ashyolar, narsa va buyumlardir. Moddiy va yozma manbalar asosida tarixiy ma'lumotlarni solishtirib, haqqoniy tarixni talqin etish va o'rganish bugungi muhim vazifalardan biridir. Umuman, talabalar manbalarni o'rganish jarayonida o'timishda xalqimizning, ya'ni ajdodlarimizning hayoti, turmush tarzi, ularning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Xalq qahramonlari, davlat arboblari, olimu-fuzalolar faoliyatlarini o'rganadilar.

Manbalar orqali talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishish yo'lining murakkab jarayonlarda kechganligini, unga ulkan kurashlar evaziga erishilganiga, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, fuqarolar ongida tarixiy xotira tuyg'usini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar xususida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Shuningdek, dars jarayonida muhim manbalar qatorida **arxiv materiallaridan** ham foydalanish muhim rol o'ynaydi. Zero, arxivlarda xalq tarixiga oid yozma hujjatlar saqlanadi. Arxiv materiallari barcha moddiy va ma'naviy hamda yozma manbalar qatori tarixiy jarayonlarni haqqoniy, xolis o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan fanga oid mavzuni yoritishda arxiv materiallaridan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Yuqorida qayd etilganidek, tarix fanini o'rganish ko'p jihatdan tarixiy manbalarga tayanadi,

ularsiz fanni va uning ob'ektini tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan Respublikamiz Markaziy Davlat Arxivi, viloyatlar va tumanlarda joylashgan arxivlar mamlakatimiz tarixiga oid ko'plab hujjatlar saqlanadigan muhim masaknlardir. Darsda ularda saqlanayotgan hujjatlardan unumli hamda o'z o'rnida foydalanish o'qituvchidan katta mahorta talab qiladi.

Uzoq yillik sovet tuzumi hukmronligi yillaridagi mafkuraviy tazyiqlar, tarixni soxtalashtirishga urinishlar, ma'naviy cheklashlarga qaramasdan ana shu hujjatlar va kitoblarning arxivlarda saqlanib qolganligi vatanimiz tarixini yanada to'laroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi «oq» va «qora» dog'larning barham topishiga ko'maklashmoqda.

Bugungi kunda ulardan unumli foydalangan holda oliy o'quv yurtlarida turli usulda darslar tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman arxiv hujjatlaridan ilmiy-tadqiqot, xalq xo'jaligi, ilmiy- ma'rifiy va o'quv maqsadlarida keng foydalaniladi. Hujjatli manbalar tarix fanini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, olimlar uarga asoslanib tariximizni haqqoniy yoritishga erishmoqdalar. Avvalombor arxiv hujjatlaridan nusxalar olib ko'rgazmalar va muzeylar tashkil etilishi mumkin yoki O'zbekiston tarixining ayrim mavzulari bo'yicha hujjatlar to'plami tayyorlanib, ulardan ma'ruza yoki seminar darslarida foydalanish mumkin.

Darsda **arxiv hujjatlaridan** foydalanishda boshqa idoralar bilan hamkorlikda ishlash ham mumkin. Masalan, hujjatlar ko'rgazmasini muzeylar bilan birgalikda tayyorlash, hujjatlarni gazeta va jumallar orqali e'lon qilish, ular asosida radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlar tayyorlash, gazeta va jumallar tahririyatlari, telestudiyalar, radioqo'mitalar bilan hamkorlikda amalga oshirish ham mumkin. Quyida oliy o'quv yurtlarida arxiv hujjatlaridan o'quv maqsadlarida foydalanish xususida fikr yuritamiz. Davlat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlardan darslarda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda quyidagi usullarda foydalanish mumkin:

•*Arxiv hujjatlardan foydalanishning asosiy shakllaridan biri, ulardan arxivning o'zida foydalanishdir.* Har bir arxivda o'quv xonalari bo'ladi. O'qituvchi yoki tadqiqotchi hujjatlardan talabalar ishtirokida yoki ilmiy maqsadlarda ya'ni, individual holda, bevosita arxiv o'quv xonalarida foydalanishlari mumkin.

•*Ko'rgazmalar tashkil etish, albomlar, plakatlar tayyorlash.* Muhim tarixiy sanalar, muhim voqyealarga, mashhur tarixiy shaxslarning yubileylariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilish, albomlar, stendalar, plakatlar chiqarish, ko'rgazmalarda hujjatlar, fotosuratlar, xaritalar, kitoblar, varaqalar va boshqa manbalar namoyish qilinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

•*Arxiv hujjatlariga oid ma'lumotlardan foydalangan holda maqola, ilmiy-ommabop risolalarni matbuot nashrlarida chop etish, ommaviy axborot vositalarida radioeshittirish va teleko'rsatuvlar tayyorlash.* Ilmiy xodimlar arxiv hujjatlari haqida, ayrim tarixiy mavzular bo'yicha risolalar tayyorlashlari muntazam. Ularning mavzulari muhim tarixiy voqyealarga bag'ishlangan bo'lishi

mumkin. Bundan tashqari ular matbuotda arxiv, uning hujjatlari to'g'risida maqolalar yozishi, televidenie va radioda chiqishlar qilishlari mumkin, shuningdek, muhim ahamiyatga molik hujjatlarni chop etishlari mumkin.

• *Arxivning o'zida tarix darslari o'tishni tashkil qilish.* Oliy o'quv yurtlari, xususan universitetlar, institutlar talabalari uchun tarix darslarini arxivlarning o'zida tashkil etish mumkin, ularda saqlanayotgan hujjatlardan o'sha yerda bevosita foydalanish eng samarali usuldir. Shu bilan birga tarix fani bo'yicha kichik filmlar olish, hujjatlarning foto yoki kseronusxa to'plamlarini olish ham mumkin.

Albatta, tarixchi olimlar arxiv hujjatlari asosida, qimmatli dalillarga tayangan holda izlanish olib borishlari, haqqoniy tariximizni xolislik asosida o'rganilishida katta ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonida ulardan unumli hamda o'z o'rnida foydalanish professor-o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. O'qituvchi manbalarning turi, shakli, vazifalari hamda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlari xususida talabalarga to'g'ri tushunchalar berishi maqsadga muvofiq. Shunday ekan yozma manbalar tarixni ilmiy-nazariy jihatdan, xolis o'rganishda muhim ahamiyat kasb etishi bejiz emas.

Shu bilan birga bugungi kunda yaqin va uzoq tariximiz bilan birgalikda, tarixning eng yangi davrini ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. **O'zbekistonning eng yangi tarix davrini o'rganishning ahamiyati** shundaki, bunda biz nafaqat mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohot va o'zgarishlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz yoki o'rganamiz, balki buyuk kelajak bilan bog'liq istiqboldagi strategik maqsadlarimizni ham teran anglaymiz.

Avvalombor biz bugungi tinch osoyishta kunlarning qadriga yetishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlod yaqin tariximizni chuqur o'rganishi, bunday kunlarga osonlik bilan erishmaganimizni tushunib, anglab yetmog'i zarur. O'zbekistonning eng yangi tarixi – bu tarix fanining yangi yo'nalishidir. Shu bois, u o'z institutsional xarakteriga, o'z tadqiqot metodologiyasi, tadqiqot izlanishlariga va o'quv-metodik ta'minotiga ega bo'lgan fan sifatida shakllanganligi bejiz emas.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi voqyealar ko'lami va o'sish sur'ati fan va ta'lim oldiga ularni tizimli ravishda o'rganish vazifasini qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi huzurida **O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik Kengashini** tuzish to'g'risidagi" Qarorining qabul qilinishi hamda Kengashning ishchi organi bo'lgan Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning tashkil etilishi bunday tizimli anglashning naqadar muhimligidan dalolat beradi.

Kengashning vazifalariga O'zbekistonning yangi tarixini tizimli o'rganishni tashkil etish, tarixiylik va ob'ektivlik tamoyillariga asoslanib, o'zbek xalqining o'tmishi va bugunini tarixiy baholashda dogmatizm, bir tomonlama yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik, darslik, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr qilish ishlarini muvofiqlashtirishdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixi bo'yicha o'quv-metodik, ilmiy-omtabop, ma'rifiy adabiyotlarni o'rganish, tayyorlash va chop etish borasida ilmiy, madaniy, talim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilarida, oliy o'quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish masalalari dolzarb muammo sifatida e'tirof etildi.

Prezident Qarorida **O'zbekistonning eng yangi tarixini** tizimli ravishda tarixiylik va xolislik prinsiplariga asoslangan holda o'rganishni tashkil etish, shuningdek buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslikka yo'naltirilgan bo'lib, unda O'zbekiston ilmiy jamoatchiligi oldiga o'quv, ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarni tayyorlash va yangi avlod nashrlarini chop etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqishni ta'minlash kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Ushbu masalaning yana bir jihatini alohida takidlash joiz. Ma'fura va milliy g'oya, ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha ilmiy maqolalar, nashrlar va televideniadagi ko'rsatuvlar, ma'ruzalar tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy hayot (eng yangi tarix) masalalarining, voqyealar va jarayonlarning muhokamasi ham muhim hisoblanadi.

Eng yangi tarixni o'rganishda yana bir muhim omil borki, u bugungi kun butunjahon tadqiqotlari tizimida ustuvor o'rinni egallab kelmoqda. Bu "tarixdagi inson" mavzusini tadqiq qilish, boshqacha aytganda, **shaxsning, tarixiy siymoning** hamda oddiy insonning uni o'rab turgan dunyodagi rolini o'rganish. Eng muhim vazifa eng yangi tarixni jiddiy metodologik va ilmiy asosga qurishdan iborat. Agarda biz fanning nazariy-metodologik asosni chuqur anglab yetsak, bu bir vaqtning o'zida tarixni qalbakilashtirish va buzib ko'rsatishning oldini oladi.

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida bosib o'tgan yo'lining mazmun-mohiyatini ob'ektiv baholash hamda o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, O'zbekistonning eng yangi tarixi davrini bir qator bosqichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

### **3. Insonlarni har tomonlama yetuk, ma'naviyatli va komil etib tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.**

Bugungi kunda darslarni yangicha o'quv-uslubiy yondashuvlar, yangicha manbalar va materiallarga tayangan holda o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. Zero, bu O'zbekistonning umumjahon sivilizatsiyasining qadim o'choqlaridan biri ekanligini, uning jamiyatimiz uchun har tomonlama yetuk, barkamol avlodni



tarbiyalashdagi o'zni katta ekanligidan kelib chiqib, tarix avvalombor insonlarni g'oyaviy tarbiyalab, ularda milliy g'urur va iftixorni shakllantirishga katta hissa qo'shishini ta'kidlash o'rinli.

Shuningdek, talabalar fanni o'rganish jarayonida o'tmishda xalqimizning ya'ni ajdodlarimizning hayoti, turmush-tarzi, ularning aqonbiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashlari, mardligi va jasorati haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'ladilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, olim-fuzalolar keng faoliyatlarini o'rganadilar. Shu bilan birgalikda talabalar mamlakatimizning mustaqillikka erishishi, mustaqillik yillarida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi, demokratik fuqarolik jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar xususida ma'lumotlar oladilar.

Albatta, bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozillar, olim-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Ko'plab diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha o'z ko'rkini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik, shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi.

Tarixning muhim asoslaridan biri bu, ilm va ma'rifatga intilishdir. Ma'rifiy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan kishilarda ilm – fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, hunar egallashga ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyali qilishga muhim ahamiyat qaratilgan. Taraqqiyparvar alloma Abdulla Avloniy fikricha: **“Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kbidur”**.

Alloma ilmning nazariy ahamiyatini ko'rsatibgina qolmasdan, balki amaliy faoliyat uchun tarixiy zaruriyat ekanligini ham ta'kidlab o'tadi. “Ilm bizni jaholat qorong'usidan qutqarur, madaniyat, tarix dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzuv ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog'liqdur”.

Tarixga e'tibor jamiyatga e'tibordir. Uning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, undagi uzviylik jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytirmoqda, davlatning ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlamoqda.

Tarix insonning umumiy ma'naviy madaniyati saviyasini yuksaltirishga qaratilgan ta'lim va tarbiyadir. Tarixiy bilimlar turli sohalar, uslublar orqali insonlarga singdiriladi. Bular oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari va

boshqalardir. Tarix tom ma'noda insonning bugungi va o'tmish faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Agar o'tmishga murojaat qilsak, tarixning asosiy manbalari sifatida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi **Qur'oni Karim, hadislar, Qobusnoma, Zafarnoma, Boburnoma, Temurnoma, Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abu ali Ibn Sinoning «Tib qonunlari», asarlari Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiyning tariqati, Abu Nasr al-Forobiyning falsafiy qarashlari, Sohirqiron Amir Temurning o'g'itlari** va boshqa manbalarni keltirish mumkin.

Buyuk alloima va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan joyda, avvalo, ilmu tarix, madaniyat va ma'naviyat o'choqlari rivojlangan bo'lishi kerak. Bo'm-bo'sh joyda hych qachon buyuk sivilizatsiya paydo bulmaydi. Jahon tarixi buni ko'p-ko'p misollarda isbotlab beradi.

Bunda asosiy manba sifatida xalqimizning chuqur moddiy va ma'naviy merosi, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari, Vatanimizning boy tarixiy merosiga murojaat qilish orqali ularning teran negizlarini tushuntirish zarur. Yoshlarlarda milliy qadriyatlarini o'rganish, ularni asrab-avaylash, milliy qahramonlarimiz, ulug' ajdodlarimiz hayotiga qiziqishni uyg'otish muhim. Ayniqsa ommaviy tadbirlarda, bayramlar va turli yig'inlarda, mahallalarda, ta'lim muassasalarida turli mashg'ulotlar va to'garaklarda, darslarda va darsdan tashqari tadbirlarda yuqorida qayd qilingan masalalar xususida ma'lumotlar berib borish, bugungi kunda qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimiz zahirida buyuk o'tmishimiz va ota bobolarimizning tinimsiz mehnatlari yotganligini to'g'ri tushuntirmog'imiz lozim. Shu bilan birga, mavjud yutuq va muammolarni chuqur tahlil etish, yoshlarni **shaxsiy javobgarlik, tanqidiy tahlil** asosida ish yuritishga o'rgatishimiz lozim. Ayniqsa bunda ta'lim muassasalari, xususan professor-o'qituvchining shaxsiy ibrati, ta'lim va tarbiyasi muhimdir.

Ota-bobolarimizdan bizga meros qolgan bebaho asarlar insonlarning yanada ma'naviyatli, ma'rifatlil bo'lishiga undab kelmoqda. Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Burxoniddin Marg'omoniy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek va boshqa ulug' allomalarni asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Shuningdek qadimiy yodgorliklarda xalqimizning azaliy urf-odatlarini, turmush tarzi aks etadi. Ma'naviy meros bu, madaniyatning tarkibiy qismlari: tarixiy madaniy boyliklar, yodgorliklar, qadriyatlar, adabiyot, san'at durdonalari, rivoyat va ertaklar, folklor namunalari, urf-odatlar, insonlardagi poklik, halollik, komil insonni tarbiyalash, ota-onaga hurmat-izzatda bo'lish, diniy e'tiqodli bo'lish, kiyinish madaniyatiga e'tidor va boshqalardir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ajdodlarimiz jamiyat tarqiyotidagi ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turli sohalarni o'zlarida mujassamlashtirgan va shu sohalarida o'z bilim malakalari orqali bitmas-tuganmas meros qoldirganlar.

17. FOROPIRESURS MARKA  
66410

Binobarin, Abu Nasr Forobiy falsafa, siyosat, adabiyot, musiqa, mantiq, Abu Ali Ibn Sino tibbiyot, falsafa, matematika, Abu Rayhon Beruniy mineralogiya, geodeziya, falsafa, tarix, geografiya, mantiq, matematika, Al-Xorazmiy matematika, astronomiya. Mirzo Ulug'bek astronomiya, tarix, Alisher Navoiy adabiyot, tasavvuf, Zahiriddin Muhammad Bobur tarix, adabiyot va ilm-fanning boshqa sohalarida bitmas-tuganmas meros qoldirdilarki, bu meros hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Buyuk sarkardalar, olimlar, mutafakkirlarning davlat va jamiyatni boshqarish usullari haqidagi pand-nasihatlari sifatida qoldirgan ma'naviy va moddiy merosi ma'naviyatimiz uchun muhim manbalardir. Xususan Sohibqiron Amir Temurning «**Temur tuzuklari**» o'z hukmronligi davridagi binolari, inshootlari kabi ma'naviy va madaniy meros namunalari sifatida asrlardan-asrlarga o'tib kelmoqda. Biz esa ularni ko'z-qorachig'idek asrashimiz zarur.

Sohibqiron davrida o'rnatilgan boshqaruv tizimi mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlanishiga, uning xalqaro mavqeining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuni aytish mumkinki, Amir Temur tomonidan olib borilgan adolatli boshqaruv siyosati xalq turmushining yaxshilanishiga, rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ikkinchidan esa tashqi siyosiy aloqalar, savdoga bo'lgan e'tibor tufayli xorijiy mamlakatlar bilan har tomonlama iqtisodiy aloqalar kuchayib, karvonlar qatmoyi yo'lga qo'yilgan bir sharoitda chetdan keltiriladigan mahsulotlar tannarxining arzonlashishini ta'minladi. Bu esa, o'z navbatida, xalq farovonligi va turmush tarzining yaxshilanishiga xizmat qilgan.

Demak, yuqoridagi fikrlarimizni muxtasar qilib aytganda, avvalombor o'qituvchi o'z sohasini yaxshi biladigan, fidoyi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanadigan, ularning yangi usullarini kashf eta oladigan, ijodkor bo'lishi lozim. Ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchi har qanday vaziyatda oddiy usullarda ham mukammal ta'lim va tarbiya berish yo'llarini izlab topmog'i va ularni mohirona qo'llamog'i kerak.

Ayniqsa yoshlarni mamlakatimiz poytaxtining va tarixiy shaharlarimizning diqqatga sazovor joylari, maydon va xiyobonlari, muzeylariga tashriflarini ko'proq tashkil etish lozim. Samarqand, Buxoro, Xiva, Marg'ilon, Qo'qon, Termiz, Shaxrisabz kabi qadimiy shaharlarimiz yoki poytaxt Toshkent shahridagi «Mustaqillik» maydoni, «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasi, ikkinchi jahon urushida jonini fido etgan xalqimizning munosib farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan «**G'alaba bog'i**», «**Shonsharaf**» muzeyi, «**Matonat madhiyasi**» monumenti, «**Xotira maydoni**», sohibqiron Amir Temur xotirasiga bag'ishlab barpo qilingan «**Amir Temur xiyoboni**» ga uyushtiriladigan har bir tashrif yoshlarlarda mustaqilligimiz, onayurtimizning shon-shuxratiga yuksak hurmat tuyg'ularini yuksaltirishi tabiiy.

Albatta, tarixiy merosimizning bir qancha turlari mavjudki, ular orasida muzeylar faoliyatining ham o'rni beqiyosdir. Hozirda birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud bo'lib, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta

tabiiy-ilmiy muzeylardir Madaniyat ishlari vazirligi qoshida «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi, o'zbek, ingliz, rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, rangli «Moziydan sado» jumali ta'sis etilgan. Muzeylar ham yoshlarlarda milliy g'urur va iftixomi, boy madaniy merosimizga mehr hamda muhabbat tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Ta'lim tarbiya sifati bu shaxsning, insonning jamiyatning, davlatning xilmaxil ehtiyojlari, manfaatlariga muvofiq ta'lim va tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlantirish yuzasidan, ularning ehtiyojlarini ta'minlashdir. Bunda ta'lim tarbiya olayotgan shaxsni har tomonlama rivojlanishi uchun ular ehtiyojlarini ta'minlovchi xizmatlarning, iste'mol xususiyatlari muhim xisoblanadi. Ta'lim jarayonining har qaysi sub'ekti (pedagog, ta'lim tarbiya oluvchi, ota-ona, ma'muriyat va b.) ta'lim sifatini ta'minlanishdan manfaatdordir.

Hozirgi jadal o'zgarishlar va yangilanishlar sharoitida yoshlar dunyoqarashi, fikrlash tarzida teran o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tarbiya sifati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda birinchi navbatda yoshlarga tarixiy, ma'naviy, g'oyaviy bilim va tarbiya berish hamda ularda jamiyat manfaatlariga zid zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni tarkib toptirish orqali O'zbekistonni buyuk kelajagiga erishish, har tomonlama yetuk, yoshlarni voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev barkamol avlod va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va saboqlari xususida.**

Tarix fanini o'rganishda ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy g'oya va nazariyalarning o'imi va ahamiyati katta. Ular tarix fanining mazmun va mohiyatini chuqurroq anglashga, shuningdek fanni o'rganishning maqsad va vazifalarini kengroq ochib berishga yordam beradi. Shuning uchun ham uni ma'lum nazariy-metodologik tamoyillar, ilmiy-nazariy asoslariga tayangan holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan Birinchi Prezident Islom Karimov tarixning eng muqaddas milliy va umuminsoniy xotira hamda qadriyat ekanligini ta'kidlab, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» nomli asarlarida "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, "Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir" degan g'oyalarda tarixiy haqiqatni va ma'naviy o'zlikni angalashga undovchi, teran ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surgan edi.

Ushbu tamoyillar **Prezident Shavkat Mirziyoev** tomonidan izchil davom ettirilib, mustaqillik yillarida haqqoniy tariximizni o'rganish borasida ko'plab ilmiy va nazariy xulosalarni berib kelmoqda. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida yo'l qo'yilgan ayrim xato va kamchiliklarni ro'y-rost tanqidiy tahlil qilinishi ham muhim voqeya bo'ldi. Bu borada o'z fikr mulohazalarini bildirgan Prezidentimiz quyidagilarni qayd etadi: "Afsuski, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrlarda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmadi. Shuning uchun Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari

faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarur.

**Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Shu maqsadda, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida "O'zbekiston tarixi" kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak. Mamlakatimiz muzeylarida saqlanayotgan tarixiy eksponatlarni to'liq xatlovdan o'tkazish, har bir muzeyning katalogini yaratish lozim".**

Qadimgi noyob yodgorliklar, madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy qimmatini, ularni asrab avaylash, xalqimiz, jumladan yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyatida tutgan o'rni xususida gapirgan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev, birgina Axsikent arxeologik yodgorligi misolida qayd etadi. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma" da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois, mudofaa uchun qulay sanalgan 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan Axsikent xarobalari Farg'ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o'rganilgan.

Bunday tarixiy yodgorliklar O'zbekiston hududida ko'plab topiladi. Tarix fanini o'rganish tarixiy manbalarga tayanadi. Ular siz unuman fanni va uning ob'ektlarini tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O'zbekiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan xarakterlidir".

Tarix fani va unga oid bilimlar jamiyat manfaatlariga, insonlarning ma'naviy dunyosiga ijobiy ta'sir qilishi, kishilarda tarixiy xotira, ajdodlar merosidan faxrlanish tuyg'usini uyg'ota olishi lozim. Bu borada o'z fikrlarini bayon qilgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. **Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo'lishi zarur,** degan edi.

Aynan ushbu Murojaatnomada xalqimiz tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini keng jamoatchilikka yetkazish hamda jahon miqyosida targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi negizida "O'zbekiston telekanali" ni tashkil qilish taklifini ilgari surgan edi. Mazkur taklif asosida 2019 yil 1 sentyabrdan boshlab ushbu telekanal o'z ish faoliyatini boshladi.

Davlat rahbari o'z chiqishlari va murojaatlarida 2020 yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida, ma'rifat mash'alini baland ko'tarib chiqqan alloma va adib **Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik** tavallud sanasini keng nishonlanishini bildirib o'tdi. Xususan, Prezidentimizning ta'kidlashicha, "...biz jadicilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi".

2020 yilda Oliy Majlisga qilingan Murojaatnomada Prezident Shavkat Mirziyoev "bir haqiqatni hyech qachon unutmaylik: Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hyech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli buyuk xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tarixning yangi sahifasini yaratishga qodirmiz. Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona yengib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman, deganligi yanada ahamiyatli bo'ldi.

Xalqimiz yangi tarixining muhim voqeyalaridan biri sifatida Prezidentimiz tashabbusi bilan poytaxt Toshkent shahrining Olmazor tumanida ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabaning 75 yilligiga bag'ishlab "G'alaba bog'i", "Shon-sharaf" muzeyi, "Matonat madhiyasi", "Mangu jasorat" monumenti barpo etildi. Mazkur ulug'vor majmuangin barpo etilishi xalqimiz tarixining hamda shonli o'tmishining yorqin namunasi bo'ldi. Chunki, o'zbekistonliklar ikkinchi jahon urushining g'alaba bilan yakunlanishida ulkan hissa qo'shdilar. Lekin shu paytgacha bu jasoratni bor ko'lami bilan ko'rsatib beradigan yaxlit majmua hali respublikamizda yo'q edi. Davlatimiz ilmiy-ijodiy jamoatchiligining takliflari, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tez orada alohida badiiy-me'moriy konsepsiya ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiya asosida g'alaba sharafiga ulug'vor va betakror majmua bunyod etildi.

Har jihatdan puxta ishlangan loyihlar asosida shakllantirilgan bu yerdagi majmua timsolida xalqimizning qonli janglardagi mardligi va front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoiyligi aks ettirildi. **2020 yilning 9 may kuni "Buyuk g'alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni"** ga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali tadbirda davlatimiz rahbari quyidagilarni qayd etdi: "Men avvalgi chiqishlarimda el-yurtimizning buyuk g'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'rganilmagani haqida gapirib, jaoatchiligimiz e'tiborini shu masalaga qaratgan edim. Bugun mamnuniyat bilan aytmqchimaniki keyingi yillarda shu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini ilmiy jamoachilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni o'rganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada

sobiq ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi.

Ana shunday ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtda ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Yangi topilgan ma'lumotlarga ko'ra, **O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi.** Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan. Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e'tibordan chetad qolib kelganini, albatta, adolatdan deb, bo'lmaydi.

Shuningdek o'sha davrda quloq sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma'lum bo'ldi. Shu borada yana ba'zi raqamlarni keltirmoqchiman. Ilgari 390 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilar edi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan", deya uqdiradi Prezidentimiz.

### **5. O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya beshiklaridan biri. Qadimgi davr (paleolit, mezolit, neolit ) odamlarining turmush tarzi va madaniyati.**

O'zbekiston insoniyatning qadimgi o'choqlaridan biri ekanligi, o'lkamiz hududlaridan topilgan qator moddiy yodgorliklar, xususan qadimgi aholi manzilgohlari, shaharlar va qo'rg'onlar, qadimgi qabrlar, uy-joy qoldiqlari o'rtidan topilgan ashyolar to'la tasdiqlaydi. Bular qatorida Machay, Qo'shilish, Selung'ur, Obiraxmat, Omonqo'ton, Teshiktosh, Qo'tirbuloq, Zamonbobo, Sopol'tepa, Jarqo'ton, manzilgohlari va yodgorliklari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, Farg'ona vodiysidagi **Selung'ur** (So'x tumanida joylashgan) g'ori ilk paleolit davriga oid manzilgoh bo'lib, u o'n uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan.

Bu qatlamlardan juda ko'plab ibtidoiy tosh qurollar, turli ashyolar va buyumlar topilgan bo'lib, olimlarning fikricha, ularning yoshi 1 mln. yildan ziyodroq ekanligi qayd etilmoqda. Selung'ur topilmalari orasidan eng ahamiyatli qadimgi odam jag' suyaklari, tishlari va yelka suyaklari qoldiqlari bo'lib, ushbu topilma fanda "Farg'ona odami"- "Fergantrop" deb nomlangan. Bu qazilmalar va qadimgi odam qoldiqlari O'rta Osiyo, xususan Farg'ona vodiysida ibtidoiy odamlar izlari mavjud ekanligini tasdiqlaydi. Zero, bu davrda dunyoning

boshqa mintaqalarida Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop va Neandertal kabi insoniyatning ilk vakillari yashaganlar.

Ma'lumki, odamzot birinchi bor mehnat qila boshlaganidan boshlab to dastlabki urug' jamoalari bo'lib uyushishiga qadar bo'lgan «*ibtidoiy to'da*» davrini boshidan kechirgan. Bu davr odamzotning ilk shakllanish bosqichi bo'lib, bu davrda Zinjantrop, Pitekantrop, Sinantrop va Neandertal kabi ilk inson ajdodlari tabiatdan o'z rizqini termachilik va yirik hayvonlarni ov qilish yo'li bilan topgan o'ljasi hisobiga yashaganlar. Bu davrda na ishlab chiqarish, na jamoatchilik bo'lgan edi. Aslida, «*ibtidoiy urug'chilik jamoasi davri*» tarixi urug' jamoalarining tashkil topishidan, ya'ni ona urug'i jamoasi qaror topgan davrlardan boshlanadi.

Insoniyat tarixini arehologik davrlashtirishda bu davr qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib, odamzot har tomonlama mukammal odam holiga keladi. Shuning uchun ham bu davr odami «*homo sapiens*» odami, ya'ni aql-idrokli odam deb yuritiladi. Bu davrga kelib kishilik tarixida qator ixtirolar yuz bergan. Xususan, odamzotning ilk jamoasi, jamiyatning dastlabki kurtagi-matriarxat, ya'ni ona urug'i, urug'chilik jamoasi tarkib topgan. Buyuk muzliklar erib, shimolga chekinishi bilan odamlar g'or va ungurlardan chiqib, birinchi bor o'zlariga kulbalar qurishni o'rganadilar. Aynan shu davrga kelib, insoniyatning uch irqi shakllanadi. Shu davrdan boshlab «*ibtidoiy urug'chilik jamoasi*» davri tarixi boshlanadi.

Umuman, olimlarning tadqiqotlariga ko'ra eng qadimgi davr ilk paleolit ya'ni ilk tosh davri, bundan taxminan 3-2,5 million yilliklardan, 100 ming yilliklarga cha bo'lgan davrni, o'rta paleolit bundan taxminan 100-40 ming yilliklarni, so'ngi paleolit miloddan taxminan 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy jamiyatning ikkinchi bosqichi mezolit davri deb yuritiladi. Bu davr miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklarni, neolit davri ya'ni yangi tosh davri esa miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni, eneolit ya'ni mis-tosh davri esa miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar boshlarini, bronza davri miloddan avvalgi 3-2 minginchi yilliklar oxirlarini va ilk temir davri esa miloddan avvalgi 2 ming yilliklar oxiri va 1 minginchi yillar boshlarini qamrab oladi.

Eng qadimgi odamlarning ulkan jamoasi yashagan davr bu, ibtidoiy to'da davri bo'lib, insoniyat taraqqiyotining bu bosqichida odamlar to'da tarzida hayot kechirganlar. Ibtidoiy to'da davri odam paydo bo'lganidan to urug'chilik jamoasiga qadar, ya'ni 40-35 ming yillikkacha davom etgan.

**Ilk paleolit** davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan anchagina ajralib turganlar. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o'tkazganlar. Ular tabiat oldida anchagina o'jiz bo'lib, asosan tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirish hisobiga yashaganlar. Toshkent vohasidagi **Ko'lbuloq** makonidan qadimgi yodgorliklar ochib o'rganilgan bo'lib, uning eng ostki qatlamlari ilk paleolit davriga o'g'ir.

Bu davr shuningdek o'zlashtiruvchi xo'jalik davri, deb ham ataladi. Bu davrda odamlar tabiat in'om etgan narsalardan foydalanib hayot kechirganlar.



Kishilarning eng qadimgi mashg'uloti bo'lgan termachilik va ovchilik o'zlashtiruvchi xo'jalik, deb yuritiladi. O'zlashtiruvchi xo'jalik tarzi odam paydo bo'lganidan to mezolit-neolit davriga qadar davom etgan.

Ik paleolitning oxirgi davri ko'pincha alohida davrga ajralib «o'rt» yoki «muste», deb nomlanadi. Bu qonuniy hodisa bo'lib, muste davrida neandertallar paydo bo'ldi. Neandertallar keng hududlarga tarqalib murakkab va turli xil qurollar tayyorlagan, ma'lum marosim va madaniyat ko'rinishlari shakllangan. Neandertallar yashagan g'orlarda olovdan qoraygan tosh supalarda ma'lum marosimlar o'tkazilgan. Neandertallar qabri ko'pincha Sharq - G'arb yo'nalishi bo'yicha joylashib, murda «yonbosh holatda, tizzalari engagiga qayrilgan, yoniga tosh qurollar qo'yilgan» holda ko'milgan. Bu marosim o'lumdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi dastlabki tasavvurlarning paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Neandertallar qabri O'zbekistonda **Teshiktosh** g'oridan, shuningdek, **Omonqo'ton, Zirabuloq, Obirahmat, Qo'lbuloq, Uchtut** va boshqa joylardan topilgan.

Bu davrda ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo'lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to'plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavvurlar paydo bo'lib, tafakkur va nutq rivojlanadi. Bu esa jamiyat ma'naviy rivojlanishini tezlashtirdi. Bilim va tajribaning to'planishi natijasida o'zlashtiruvchi xo'jalikdan, ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish sodir bo'ldi.

Dastlab ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o'zilarini yashayotgan muhitni yaxshiroq o'rganishi, uning tasavvurlarini oshirgan. Insonning iste'molga yaroqli o'simlik va mevalarni qidirib topishi va tabiatni kuzatishi natijasida o'simlik dunyosiga oid bilimlari to'plangan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda hayvonlar haqidagi bilimi shakllana boshladi. Bunday bilimlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy bo'lgan hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o'sha zamonning o'ziga xos tabobati bo'lib, unda o'simliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismlardan foydalanilgan. Ba'zi kasalliklarni davolashda silash, uqalash usulidan, shuningdek, folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar. Qadimgi odamlarda tabiatni, iqlimni kuzatish asosida ob-havoni oldindan bilish qobiliyati paydo bo'ldi. Tarbiya mehnat va turmush sharoiti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, odat va udumlar uning asosini tashkil etgan.

Ibtidoiy san'at odamlarning mehnat faoliyati bilan uyg'un holda vujudga kelgan. Urug'chilik jamoasi davridayoq hali ibtidoiy odamlar san'atning nimaligini to'la anglamagan holda san'at turlarini shakllantira boshladilar. Ibtidoiy san'at kishilarning dastlabki umumiy ijodi bo'lib, u odamlarning mehnat faoliyati, ichki ruhiyati va diniy tasavvurlari bilan uyg'un bo'lgan. Aytilish mumkinki, diniy tasavvur va e'tiqod shakllari madaniyatning moddiy va ma'naviy turlarining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Diniy tasavvur va e'tiqod ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi davrlarida shakllanib, ayrim unsurlari o'rta paleolit davrlarida vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar tabiatdagi turli hodisalarning sabablarini tushuna olmagan. Ular hodisalar negizida sirli, g'ayritabiiy kuchlar yashiringan, deb tushunishib, shu g'ayritabiiy kuchlarga e'tiqod qilishgan.

Ibtidoiy odamlarning tirikchilik ilinjida turli mintaqalarga tarqalishi, tabiat, sharoit va turmush tarzining xilma-xilligi turli e'tiqodlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Tabiat va jamiyat hodisalari bilan bog'liq g'ayritabiiy kuchlarga ishonish ibtidoiy e'tiqodlar - totemizm, animizm, sehrgarlik, feteshizm va boshqa diniy e'tiqodlarni keltirib chiqardi.

**O'rta paleolit.** Qadimgi tosh davrining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrga oid yodgorlik Surxondaryo viloyatining Boysuntog' etaklaridagi Teshiktosh g'oridan (manzilgohi) topilgan. Mazkur makondagi ibtidoiy bola qoldiqlari va unga tegishli buyumlar 1938 yilda arxeolog A. Okladnikov tomonidan ochib o'rganilgan. Shu bilan birga O'rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida o'rta paleolit davriga oid ko'plab makonlar aniqlanganligi va ular sinchiklab o'rganilgan. Bular qatorida Omonqo'ton, Xo'tirbuloq va Zirabuloq, Obirahmat, Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari, Xo'jakent kabi ko'plab makonlar o'rta paleolit davriga oid bo'lib, ulardagi topilmalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

O'rta paleolit darining mashhur yodgorliklaridan biri Teshiktosh manzilgohi hisoblanadi. O'rta paleolit davriga mansub ushbu makon Markaziy Osiyodagi eng ko'hna ibtidoiy insonlar manzilgohi bo'lib, uning joylashish kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m ga teng. Tadqiqotlar natijasida manzilgohdan beshta madaniy qatlam aniqlanib, bu qatlamlardan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Undan tashqari turli hayvonlar, qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari ham aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg'ich-tarashlag'ichlar alohida o'rin egallab, ularning ba'zilari keskich qurol vazifasida ishlatilgan bo'lishi ham mumkin.

Muhimi shundaki, Teshiktosh manzilgohining yuqori qatlamlaridan 8-9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. U ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib, jasad atrofiga tog' echkisi shoxlari qadab qo'yilgan, shuningdek, g'or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o'rni va atroflaridan tog' echkisining suyak qoldiqlari topilgan. Teshiktosh odami O'rta Osiyodagi neandertal qiyofadagi qadimgi odamlarning yagona vakili hisoblanadi.

Shu bilan birga o'rta paleolit davriga oid Obirahmat manzilgohi - Toshkent viloyatidagi Tyanshan-Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimidan topilgan qadimgi yashash manzilgohidir. Manzilgoh keng, yoysimon shaklda janubga qaragan bo'lib, sahni keng, quruq va yorug'. g'orda 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ushbu qatlamlar qadimgi odamlar bu yerda uzoq vaqtlar yashaganligidan dalolat beradi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari, jumladan, parrakchalar,

o'tkir uchli sixlar, qirg'ichlar, kurakchalar, turli tosh keskichlar topilgan bo'lib, ularning umumiy soni 30 mingdan oshadi.

Shuningdek, Obirahmatdan hayvon suyaklaridan yasalgan bigizlar hamda bug'u, tog' echkisi, to'ng'iz, jayron, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari, gulxan, kul, ko'mir va boshqa narsalar qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu topilmalar Obirahmatda qadimgi odamlar miloddan 120-40 ming yil ilgari yashab, terib-termachilik bilan shug'ullanib, yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilganliklaridan dalolatdir.

**So'nggi paleolit** davri uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi bo'lib, mil. avv. 40-12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Hozirgi kunga qadar O'rta Osiyoda bu davriga oid 30 dan ziyod makonlar ochib o'rganilgan. Jumladan Ko'lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog'iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

Toshkent viloyatining (Ohangaron tumani) **Ko'lbuloq** makonining yuqori uchta qatlami so'nggi paleolit davriga oid manzilgohdir. Bu qatlamlardan nisbatan takomillashgan tosh qurollar hamda ko'plab hayvon suyaklari topilgan. Shuningdek, so'nggi yillarda Toshkentning g'arbidagi Bo'zsuv makoni ham so'nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan. So'nggi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush tarzida ham turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, odamlar g'orlardan yengil turar joylar, chayla va yarim yerto'lalarga ko'chib o'tadilar. Ular endi faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylaridagi soy havzalarida joylashadilar hamda qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo'ladi, ular ayrim urug'larni birlashtirib urug'jamoasini tashkil etganlar.

Urug'jamoasi-birgalikda yashagan va hamkorlikda mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yaroqqa ega bo'lgan qon-qarindoshlar jamoasidir. Urug'jamoasi so'ngi paleolit davriga kelib (40-35 ming yilliklarda) paydo bo'lgan.

**Mezolit** (o'rta tosh) davri - O'rta Osiyoda mezolit davri mil. avv. 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga olgan. Mezolit davri qadimgi odamlarning yer yuzi bo'ylab keng tarqalish davri bo'lib, ular shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog'li hududlarga ham tarqala boshlaydilar. Kaspiy dengizi bo'ylaridan Tyanshan - Pomirgacha hamda Kopetdog' etaklarigacha bo'lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining manzilgohlari topib o'rganilgan. *Machay (Surxondaryo)*, *Obishir (Farg'ona vodiysi)*, *Bo'zsuv*, *Qo'shlish (Toshkent vokasi)* kabilar shular jumlasidandir. Mezolit davriga kelib yer yuzidagi ulkan muzlikning yana shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o'xshab qolgan edi. Buning natijasida O'rta Osiyo hayvonot olami va o'simliklar dunyosida ancha o'zgarishlar sodir bo'ldi.

**Diniy e'tiqod.** Qadimgi davrlarda oila turmushida diniy e'tiqodlar ham muhim rol o'ynay boshlagan. Arxeologlar tomonidan qadimgi davrlarga tegishli qabrlardan uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynat, ish qurollari, kiyim-kechaklar

qoldiqlari, me'morchilik, san'at buyumlari, noyob topilmalar topib o'rganilgan. Ba'zan ko'hna qabrlardan dafn qilish qoidalariga asosan qabrdagi jasad yonida ov qurollari, idish tovoqlar, taqinchoqlarga ham duch kelingan, ba'zan esa qush va hayvonlarning, ma'budalarning haykallari, turli narsalardan yasalgan shakllari, niqoblar topilganki, ularning ayrimlari diniy mazmunga ega bo'lgan. Masalan, Surxondaryo viloyatining Teshiktosh, Machay, Farg'ona viloyatidagi Sel-ung'ur g'oridan, Namangan viloyatining Pop shahridagi Munchoqli tepa manzilgohlaridan paleolit davrida to'ramizdan avvalgi II-I asrlarga oid manzilgohlarda odamlar oila turmush tarziga oid ov qurollari, idish- tovoqlar, zeb-ziynat buyumlari bilan birga dafn etilganligi ma'lum bo'ldi.

Qadimgi davr odamlarida «u dunyo» to'g'risidagi ilk tasavvurlar shakllana boshlagan. Oila turmushida mehnatning ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi tarixiy turlari, odamlarning kasb-kori bilan bog'liq holda ham shakllanib borgan. Oilaning homiysi hisoblangan turli ma'budalarga sig'inish ro'y bera boshlagan.

**Totemizm**-jamoaning hayvon yoki o'simlik turi bilan g'ayritabiiy qarindoshlik aloqasiga ishonishi bo'lib, ovchilik va termachilik rivojlangan davrda paydo bo'lgan. Bu e'tiqodda totem-hayvon yoki o'simlik nihoyatda hurmat qilingan. Totemizmning ilk bosqichida hayvon muqaddas sanalib, uni o'ldirish yoki go'shtini iste'mol qilish ta'qiqlangan. Faqat urug'ning urf-odat marosimlaridagina bu hayvon go'shti iste'mol qilingan, holos.

**Animizm** – «ruh», «jon» ma'nosini bildirib, bu dunyoda ruhlar, jonlar shaklidagi g'ayritabiiy kuchlarning borligiga ishonish kuchaygan. Tabiatdagi g'ayri-oddiy narsalar, odamlar va boshqalarning ruhlariga, shuningdek, urug'chilik jamoasining rivojlanishi bilan urug' boshliqlar, harbiy yo'l boshchilar ruhiga-ajdodlarga sig'inishi paydo bo'lgan. Matriarxat davrida tabiatdagi narsalar (quyosh, suv, yer) ning ruhiga topinish kuchaygan. Sehrgarlik – odamning g'ayritabiiylik kuchlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga asoslangan amallardir. Bu ibtidoiy san'atda ham o'z ifodasini topgan. Qoya tosh tasvirlaridagi yaratilgan hayvon ifodasida ovchilar bo'lg'usi o'vning baroridan kelishini ko'zlab, hayvonlarni sehrlashganligini kuzatish mumkin.

Qadimgi oila shakllanishi va rivojlanishi. So'nggi paleolit davriga kelib odamlarning oilaviy hayoti va turmush tarzida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Xususan, odamlar g'orlardan chiqib yengil turar joylar, chayla va yarim yerto'lalarda yashay boshlaydilar. Ular endi faqat tog'li hududlarda yashab qolmay, vohalar bo'ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko'llar bo'ylarida joylashadilar hamda qarindosh-urug'chilik jamoalariga bo'linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo'ladi hamda ular ayrim oilalarni birlashtirib oila-urug' jamoasini tashkil etadilar.

Ona urug'i davrida, ya'ni urug'chilik tuzumining birinchi bosqichida paydo bo'lgan oilaning ilk shakli, bu matriarxal oiladir. Matriarxat davri paleolit davrining so'nggi bosqichida paydo bo'lib, u neolit va eneolit davrigacha davom etgan. Bu davrda poligamiyaga asoslangan nikoh keng tarqalgan. Poligamiya -

ko'p nikohlilik, ko'p xotinlik, ko'p erlilik bo'lib, bir erkakning bir necha xotin bilan nikohda, yoki aksincha bir xotinning bir necha erkak bilan nikohda bo'lib yashashidir. Poligamiya nikoh tartibi ibtidoiy oila tuzumi davri (matriarxat) ga xos bo'lib, keyinchalik bu nikoh shakliga asta-sekin barcham berilib, monogam oilalar paydo bo'la boshlagan.

**Endogam oila** - bir oila a'zolari yoki bir urug' doirasida tuzilgan oila. "endos" (yunoncha) ichki, "gamos" nikoh ma'nolarini anglatadi.

**Ekzogam oila** - bir oila yoki, urug' doirasidan tashqari, boshqa oila yoki urug' vakillari bilan tuzilgan oila. "Ekzo" (yunoncha) tashqi, "gamos" nikoh ma'nolarini anglatadi.

**Ibtidoiy tasviriy san'at.** Ma'lumki, O'zbekiston tarixi ham jahon tarixining ajralmas qismi sifatida boy moddiy va ma'naviy madaniyati bilan umumjahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Bunda tasviriy san'at tarixi ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekiston hudularidan ushbu moddiy va ma'naviy madaniyat va san'at turiga oid ko'plab manbalar topilgan bo'lib, ular o'z navbatida tariximizning ajralmas qismi hisoblanadi.

Zero, tasviriy san'at boshqa san'at turlari kabi anchagina boy tarixga ega bo'lib, uning dastlabki shakllanish bosqichlari tariximizning ibtidoiy davriga borib taqaladi. Ushbu davrga oid ana shunday moddiy madaniyat yodgorliklari O'zbekistonning turli hududlaridan topib o'rganilgan. Ular qatorida so'nggi paleolit davriga oid tasvirlar 30 dan ortiq manzilgohlarda mavjud bo'lib, ular orasida qoyatosh rasmlari alohida ahamiyatga ega. Masalan, bunday qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabi hududlardan topilgan. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi hayvonot olami turlarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki hamda bo'rilar, bug'u va jayronlar kabilardir. Rasmlar orasida o'q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xil bo'lib, ularda o'sha davr aholisining turmush tarzi o'z aksini topgan. Bunday rasmlarda odamlarning ov mashg'ulotlari, yirtqich hayvonlar to'qnashuvlari manzaralari tasvirlangan.

Mamlakatimiz hududida ibtidoiy tasviriy san'at namunalari eng qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo'lib, ular jahon tasviriy san'at tarixining ajralmas qismidir. Bunday tasviriy san'at tarixi bir qator alohida o'ziga xosliklarga ega bo'lib, quyidagi turlarga bo'linadi. Masalan, g'orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlar hamda loy, ganch, tosh va yog'ochdan ishlangan qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlaridagi tasvirlar shular jumlasidandir.

Ayniqsa mamlakatimizning tog'li hudularida keng tarqalgan qoyatosh tasvirlaridagi rasmlarda qadimgi "petroglif" (qoya toshlarga bitilgan rasm) lar tasviri alohida ko'rinishga ega. Bunday qoyatosh tasvirlarining namunalari qadimgi O'zbekistonning hayvonot olami ifodalangan. Qoya tosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi xilma-xil bo'lib, ularda ov manzaralari, turli raqslar,

ov va mehnat qurollari tasvirlangan. Bunday tasvirlarni qadimgi odamlar o'z hayoti va turmush tarzini yanada kengroq ifodalash uchun yaratganlar. Shuningdek, bu suratlar qadimgi ajdodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini ham aks ettirgan.

Hattoki ibtidoiy odamlar bunday tasviriy san'at namunalari orqali bir-birlariga o'z fikr-munosabatlari va istaklarini chiziq, turli shakllar, sodda tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ov qurollarining tasvirlash orqali ular ovga borish zarurligini ifodalasalar, turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davrga mansub yana bir namunalaridan biri Qo'hitang tog'ining yuqori qismida joylashgan «Zarautsoy» g'ori alohida o'ringga ega. Bu yerda ov manzarasidagi turli rasmlarni ko'rish orqali ovchilik ilmining ayrim jihatlarini ham o'rganamiz. Jizzax viloyatidagi Takatoshdagi tasvirlarda fikr, sezgi, amaliy ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan bo'lsa, Zarafshon etaklaridagi Sarmishsoy darasi qoyatoshlarida silliq yuzasiga solingan turli rasmlarni ko'rish mumkin. «Sarmishsoy» tasvirlarida yovvoyi buqalar, shoxdor bug'i va kulonlar, yelib borayotgan tog' takasi, ohu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan hayvonlar, shuningdek, ovchilarning ov manzaralari tasvirlangan.

Biz bunday qadimgi tasviriy san'at namunalarini kuzatish barobarida qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, rasmlar orqali bo'layotgan voqoyalarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatlarini ham anglash mumkin. Tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqib, har bir tasvir yoki shakl o'ziga xos fikrni, hatto seyr-jodularni ifodalagan.

Umuman, O'zbekiston tarixini o'rganishda tasviriy san'at namunari, ya'ni moddiy madaniyatning ushbu komponentining o'rni beqiyos bo'lganligini ko'rish mumkin. Demak, qadimgi xalqlardan qolgan har qanday tasviriy va amaliy san'at namunalari ulkan moddiy va ma'naviy manbalar bo'lib, nafaqat tariximizni chuqur o'rganish, balki yoshlarning o'tmishga va tasviriy san'at sohasiga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshishiga xizmat qilishi shubhasiz. Bugungi zamonaviy tasviriy san'atning rivojlanishida an'anaviy amaliy san'at yodgorliklarini o'rganishning o'rni alohida ahamiyatlidir.

Mezolit, o'rta tosh davridir. O'zbekiston hududida mezolit (miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklar) davrida Farg'ona vodiysi, Boysun tog'larida Machaysoy yonidagi qoya etagidan topilgan manzilgohlarda ovchilar va baliqchilar oilalari yashaganligi ma'lum. Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid bo'lib, neolit davrida ovchi va baliqchi oilalarning Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi manzilgohlarga siljish jarayonlari kuzatiladi. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida joylashgan Zamonbobomiloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda yashagan qadimgi chorvadorlar va ziroatchilar yodgorligidir.

Birinchi yirik mehnat taqsimoti-dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Mezolit-Neolit davridan boshlab insoniyat ishlab chiqaruvchi xo'jalik

shakliga o'ta boshlaydi. Eneolit va bronza davriga kelib mehnat qurollarining takomillashuvi va yerga ishlov berish usullarining mukammallashuvi natijasida ortiqcha maxsulot paydo bo'ladi. Bu hol birinchi ijtimoiy mehnat taqsimotini yuzaga keltirdi.

Janubiy o'lkalarda, shuningdek, O'rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar ya'ni mikrolitlar paydo bo'ladi. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o'z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - **o'q-yoyni kashf etganligidir**. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O'rta Osiyoning ba'zi joylarida termachilikdan yovvoyi o'simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o'tish boshlanadi, bu jarayon ilg'or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik iqlim bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

O'lkamizdagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoydan topilgan bo'lib (Surxondaryo), bu rasmlar mezolit, neolit davrlariga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Topilgan qoyatosh rasmlari o'ziga xos san'at asari bo'lib, ular orqali biz ibtidoiy va qadimgi odamlarning san'ati, estetik iste'dodi o'sha davr nuqtai nazaridan yuqori darajada bo'lganligini bilib olishimiz mumkin. O'rta Osiyo hududlarida yozuvning kashf etilishi boshqa mintaqalar qatori, bu yerda o'z davrida ma'naviy madaniyatning xususan, yozma madaniyatning shakllanishiga turtki bo'lganligi shubhasiz.

**Neolit.** O'rta Osiyo tarixida neolit davrining (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil.avv.VI, quyi chegarasi IV-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va irmoqlari yoqasida, ko'l bo'ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik, ba'zan dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarnandchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.

Xususan Joytun makonidan qo'lda ishlangan sopol idishlar namunalari ham topilgan bo'lib, ular O'rta Osiyodagi dastlabki sopol namunalari. Joytun qishlog'i aholisi mil. avv. VI-V ming yilliklarda yashab asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug'ullanganlar. Joytunda O'rta Osiyodagi dastlabki dehqonchilik madaniyati rivojlanadi va bu makon hozircha mintaqadagi dastlabki dehqonchilik qishlog'i hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududidan neolit davriga doir ko'plab arxeologik yodgorliklar, xususan bir joyda g'uj (kompakt) holda alohida alohida oilalar yashagan manzilgohlar topilgan. Masalan, Amudaryoning qadimgi Oqchadaryo deltasi yonidagi Kaltaminor kanali yaqinidan neolit davriga doir oilalar manzilgohidir, Amudaryoning Yuqori Uzboy irmog'i va Orol dengizining shimoliy-sharqiy bo'ylaridan yana ko'plab oilaviy jamoalar makonlari topib o'rganilgan. Kaltaminor madaniyatining eng muhim manzilgohlaridan biri Jonbos-4 hisoblanadi. Jonbos-4 da o'tkazilgan qazish ishlari natijasida maydoni

300 kv.m. keladigan katta-kichik oilalar yashagan turar joylar, yarim yerto'la shaklidagi kulbalar ochib o'rganilgan.

Neolit davri mohiyatiga ko'ra arxaiik madaniyatining oxiri hisoblanib, bunda ishlab chiqarish faoliyatining yangi turi dehqonchilik va chorvachilikka o'tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyatini namoyon bo'ldi. Agar arxaiik madaniyatda jamoa fikri urug' a'zosi, urug' manfaatlari doirasida yetakchi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, endi individual ong va qiziqish kuchaya boshladi. Neolit davrining oxiri va jez asrida arxaiik madaniyat barham topdi. Bu davrda jamoa mulki o'miga xususiy mulk vujudga kelib, hunarmandchilik ajralib chiqadi va mahsulot ayr boshlash shakllandi. Endi oqsoqollar va qabila yo'lboshchilari yig'indisining ahamiyati sezilarli oshdi, bu qabila yo'ldoshchilariga sig'inishni shakllantira boshladi. Yo'lboshchilarga sig'inishda ularning jamoa hayotida tutgan o'rni, ya'ni o'z hududini qo'riqlashdan tashqari harbiy yurishga, shuningdek, muhim jamoa ishlarini bajarish uchun xonadonlarni birlashtirib, urug'doshlarini kanal qazish, muhofaza to'siqlar o'rnatishga jalb qiladi.

Odamlar dunyoqarashining oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi. Suvda suzuvchi qayiqlar, taqvim, hisob va o'lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi huquqning shakllanishiga olib keldi. Ayrimlari hozirgacha saqlanib kelavotgan an'analar va qadimgi folklor nanunalari, vujudga keladi (miflar, dostonlar, hikoyalar, marosim, qo'shiqlari), yozuvning ilk tizimi shakllandi, piktografiya (rasm-yozuv), belgi tugunli yozuvlar paydo bo'ldi.

**Kaltaminor madaniyatiga** oid makonlar dastlab Amudaryo etaklari va Xorazm hududidan topilgan bo'lib, bular orasida Xorazmdagi Jonbosqal'a makoni diqqatga sazovordir. Bu yerni qazish paytida chayla va yarim yerto'la shaklidagi makon ochilgan, bu makon yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Ustiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, usti qamish bilan berkitilgan. Chayla o'rtasidan katta markaziy o'choq qoldig'i, atrofida mayda o'choq qoldiqlari aniqlangan. Makondan nayza poykonlar, kamon o'qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan.

Ushbu makonlarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, neolit davriga kelib, mezolitning so'nggi bosqichlarida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqaladi. Parrakchalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoqlar, teshgichlar, parmalar, qirg'ichlar, yorma toshlar, o'roq va boshqa qurollar takomillashadi. Eng qadimgi davrning dastlabki davrida qo'lga kiritilgan barcha yutuqlar bu davrga kelib yakunlanadi. Neolit davri odamlari o'zlarining tinimsiz mehnati, kuzatuvchanlik qobiliyati, ibtidoiy bilimlarini safarbar qilib, xo'jalikning ilg'or, unurndor shaklini - dehqonchilik va chorvachilikni kashf etdilar. Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab ularni olovda pishirish yo'li bilan kulolchilikka asos soldilar. Shuningdek, ip yigirish asosida to'qimachilikni kashf etdilar. Odamlar yog'och va qamishdan qayiq yasab



(qayiqsozlik) suvda suzishni ham o'zlashtirdilar. Xullas, neolit davri yutuqlarga boy bo'lib, o'zidan ilgari davrlarga nisbatan yuksak rivojlanish davri bo'ldi.

**Eneolit-** tadqiqotlar natijalariga qaraganda, tosh va bronza davrlari o'rtasida mis-tosh (eneolit) davri sodir bo'lgan. Bu davrda metall qurollarning barchasi bronzadan qilinmay, sof misdan yasalganligi ma'lum. O'rta Osiyoda eneolit davri nisbiy tarzda mil. avv. IV ming yillikning oxiri-Sh ming yillikning boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davrda mis o'zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik, egiluvchanlik) tufayli xo'jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy o'rinda bo'lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis-tosh asri deb yuritladi.

Ikkinchi yirik mehnat taqsimoti-dehqonchilik va chorvachilikdan xunarmandchilikning ajralib chiqishi. Bu jarayon asosan eneolit-bronza davrlarida sodir bo'lgan. Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab, ovqat topishdan yovvoyi o'simliklarni ekish va o'tkazish yo'li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit davrida yuqori xo'jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot yetishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo'lgan. Eneolit davrida O'rta Osiyo hududlarida quyidagi tarixiy-madaniy jarayonlar sodir bo'lgan:

•*Xo'jalikning boshqa uurlariga qaraganda sug'orma dehqonchilikning ustunlik qilishi;*

•*Toshdan ishlangan qurollar bilan birgalikda mis qurollaridan foydalanishning shakllanishi;*

•*O'troqlikka o'tish jarayonlarining jadallashishi, turmushda jamoa yashash tarziga o'tilishi, qurilishda guvala va xom g'ishtning keng foydalaniishi;*

•*Rangdor sopol buyumlar, ya'ni turli tasvirlar ishlangan sopol idishlarning ishlatilishi.*

O'lkada olib borilgan arxeologik tadqiqotlar asosidagi ilmiy izlanishlar o'zining salmog'i, ko'lami, mohiyati va metodologiyasiga ko'ra oldingi davrlardagi ishlardan tubdan farq qilar edi. Jumladan, olimlar tomonidan qadimgi ajdodlarimizning xo'jalik hayotini o'rganish maqsadida mamlakatimiz hududidan neolit davriga doir ko'plab arxeologik yodgorliklar, xususan bir joyda g'uj (kompakt) holda alohida alohida odamlar yashagan manzilgohlar topilgan.

Agar masalaga davriy nuqtai nazardan yondoshsak, XX asming 40-50 yillarida birgina Amudaryoning quyi havzalari, xususan qadimgi Oqchadaryo deltasi yonidagi Kaltaminor kanali yaqinidan neolit davriga doir alohida xo'jalik turmush tarzida yashagan manzilgohlar, Amudaryoning Yuqori O'zboy irmog'i va Orol dengizining shimoliy-sharqiy bo'ylaridan yana ko'plab jamoalar makonlari topib o'rganilganligi mintaqaning yetuk bilimdonlaridan biri **S.P. Tolstov** ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

1949-1953 yillarda akademik S.P. Tolstov rahbarligida Xorazm vohasiga maxsus "Arxeologik - etnografik ekspeditsiya" uyushtirilgan. Amudaryoning quyi havzalari, Xorazm vohasining qadimgi Orol bo'yi hududlarida o'tkazilgan qazish ishlari natijasida qadimgi dehqonchilik madaniyati "O'zbekistonning

shimoliy g'arbiy mintaqalarida tabiiy iqlim hamda mintaqaning geografik xususiyatlaridan kelib chiqib anchagina ertaroq tarkib topgan hamda ovchi-baliqchilarning dastlabki jamoalari ilk o'troqlik turmush tarziga o'ta boshlagan" -, degan xulosga kelingan. S.P. Tolstov fikricha "Yuqorida qayd etilgan mintaqalarda ovchilik va baliqchilik endigina ildiz otib kelayotgan yangi xo'jalik - chorvachilikka o'z o'mini bo'shatib ulgurmagan edi. Aynan ana shu kezlarda O'rta Osiyoning markaziy viloyatlarida ibtidoiy jamoalarning xo'jalik hayotida tub o'zgarishlar yuz bera boshlagan".

S.P. Tolstovning yana muhim xizmatlari shu ediki, uning rahbarligida 1948-1954 yillar mobaynida O'zbekistonda arxeologiya fani doirasida yaratilgan ilmiy adabiyotlarning bibliografik ko'rsatkichlar tuziladi va qator ilmiy maqolalari "Sovetskaya arxeologiya" jurnali sahifalarida doimiy chop etib borilgan. Ushbu maqolalarda o'zbek xalqining madaniy xo'jalik izlari qadimgi davriga bag'ishlangan, biz tahlilga tortgan qator maqolalarni uchratish mumkin.

Taniqli arxeolog **V.M. Masson**ning Joytun madaniyati madaniy-xo'jalik an'analari asosida tarkib topgan eneolit va bronza davrining Anov-Nomozgoh xo'jalik madaniyatini tadqiq etishi O'rta Osiyo xalqlari xo'jalik hayotini qadimgi sharqning boshqa mintaqalari bilan solishtirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Uning fikricha, O'rta Osiyo markaziy mintaqalari, ayniqsa Zarafshonning quyi havzalarida tarkib topgan o'troq xo'jalik izlari janubdan mintaqaning shimoliy-sharqiy hududlari tomon, xususan shimoliy Kopetdog' bo'ylab keng yoyiladi.

Olim asarlari umumiy, tavsifiy xarakterga ega bo'lsada, uning "Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok" asari o'zbek xalqi xo'jalik hayoti o'rganish va uning dinamikasini boyitish imkoniyatini vujudga keltirdi. V.M. Masson konsepsiyasiga ko'ra O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy mintaqalarida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi ta'sirida xo'jalikda o'troq dehqonchilik madaniyatiga asoslangan hayot tarzi neolit davridan qaror topa boshlagan (Joytun madaniyati).

XX asr 50-yillaridan keyingi arxeologiya va unda xo'jalik hayotga oid tadqiqotlar orasida o'zbek xalqining xo'jalik hayoti yo'nalishlarini akademik **Ya. G'ulomov** aniq ko'rsata oldi. Olim izlanishlariga xos bo'lgan ulkan faktik manba va statistik materiallarning jalb etilganligi bir qator muhim nazariy xulosalar qilish imkonini berdi. Buni XX asrning 50 yillarida olim topib o'rgangan ibtidoiy dehqonchilik xo'jaligining ilk bosqichiga doir Zamonbobo madaniyati yodgorligi tasdiqlaydi.

Akademik olimning arxeologiya fani sohasidagi ulkan yutuqlaridan biri shunda ediki, u ilk bor Xorazm vohasidagi qadimgi sug'orish tizimlari, mavjud irrigatsiya sistemalari va magistral kanallarning dastlabki ko'rinishlari xususidagi "Xorazmning sug'orilish tarixi" nomli fundamental asrida qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ya.G'ulomovning fikricha, "vohada ilk sug'orma dehqonchilik nafaqat Amudaryoning quyi havzalarida, balki dashtli, adirli tumanlarda va jalmi vohalarda ham tarkib topa boshlagan".

**A. Vinogradov** izlanishlari esa, Xorazmning shimoliy sarhadlarida mezolit davrlarida ibtidoiy jamoalar hali ovchilik bilan kun kechirganligini tasdiqlaydi

(Kaltaminor madaniyati) Olimlar mavjud arxeologik materiallar asosida mintaq aholisi qadimgi xo'jalik hayotini o'rganar ekanlar. dehqonchilik, ovchilik, baliqchilik bilan birgalikda qadimgi chorvador va hunarmand aholi manzilgohlariga ham e'tiborni qaratadilar. Muallif tahliliga ko'ra Surxondaryo viloyatidagi Zarautsoy qoya tasvirlari mezolit davriga oid bo'lib, neolit davrida ovchi va baliqchi oilalarning Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi manzilgohlarga siljish jarayonlari kuzatiladi. Bunday xo'jalik manzilgohlar muallif konsepsiyasiga asosan "Qadimgi O'rta Osiyo ikkidaryo oralig'ining ovchi va baliqchi manzilgohlari" sifatida fanga mashhurdir.

Ayna ushbu tezis keyinchalik o'zbek xalqi tarixining yetuk bilimdonlari **Ya.G'ulomov, A.Asqarov, O'. Islomov, A. Sagdullaev** kabi mahalliy olimlar tomonidan yanada rivojlantirilgan va boyitilgan hamda o'zbek xalqi qadimgi ajdodlarining xo'jalik faoliyati o'rganilgan. Ammo o'sha kezlardagi mafkuraviy hukmronlik fanni ham shubhasiz o'sha davr talablariga moslashtirishni taqozo qilgan.

Xususan, tarix fani ham o'z davri mafkuraviy qoliplaridan chetga chiqqan olmagan bir paytda, akademik A.Asqarovning ilmiy tadqiqotlari arxeologiya tadqiqotlari talablar darajasida bajarilgani va ilmiy tahlillarga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Muallifning "Sapallitepa" va "Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzy yuga Uzbekistana" nomli asarlarida janub aholisi xo'jalik hayotida o'troqlik turmush tarzi ustun bo'lgan va dehqonchilik katta ahamiyatga ega bo'lgan va "ular Janubiy O'zbekiston hududining eng qadimgi dehqonlari edi" - deya to'g'ri ta'kidlagan edi muallif. Janub aholisining qadimgi Zarafshon vodiysi, Farg'ona vodiysi kabi mintaqalar bilan xo'jalik aloqalar o'rnatganliklari ularda o'z aksini topdi.

Shuningdek, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimgi turmush tarzining izlari Qadimgi So'g'diyona, Baqtriya tarixiy-madaniy mintaqalari misolida qator tadqiqotchi olimlar ishlarida o'z aksini topganligini ham qayd etish o'rinni. Bular qatorida mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari ham anchagina salmoqli bo'lib A. Sagdullaev, N. A Avanesovalar sobiq sho'ro davri tarixshunosligi prinsiplari va metodologiyasidan farqli o'laroq o'z konsepsiyalari va nazariyalari bilan chiqqan boshladilar.

Ya'ni, so'ngi bronza va ilk temir davrida yana bir madaniy xo'jalik markazi, ya'ni So'g'diyona viloyati tarkib topadi, uning qadimgi dehqonchilik xo'jaliklari bilan shug'illangan etnik qatlamining izlari Zarafshon vodiysining Ko'ktepa, Afrosiyob, Xo'jabo'ston, Qozimontepa yodgorliklarining quyi qatlamlari misolida **A. Sagdullaev** tomonidan o'rganilgan.

Ilk antik davrda O'rta Osiyoda mintaqaviy rivojlanishning natijasi sifatida tarkib topgan yana bir viloyat Choch o'lkasi haqida ma'lumodlarni **Yu. F Buryakov** miloddan avvalgi I-ming yillikning 2-yarmiga taalluqli ekanligini ta'kidlaydi. Muallif o'lkada yuz bergan urbanizatsiya jarayonlari zaminida yerli o'troqlashayotgan aholining burg'uluq madaniyati yotishini, ular qadimgi dehqonchilik xo'jaligi bilan ilk bor shug'ullana boshlagan Chochning qadimgi

aholisi bo'lib, uning tarixiy ildizlari O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari dehqonchilik madaniyatlari ta'sirida sekin-asta o'troq hayotga o'tib bora boshlagan. "Bu davrning ilk yodgorliklari Toshkent vohasining Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqatepa. Yangiyo'l shahridagi Qovunchitepa, "Katta Toshkent" doirasidagi Shoshtepa (Chochtepa) va boshqalar bo'lib, bu maskanlarda qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos belgilar miloddan avvalgi III-II asrlarda tarkib topa boshlagan - deya qayd etadi muallif.

## **6. O'zbekiston tarixida bronza, temir davri, ilk shahar madaniyati va davlatchilikning vujudga kelishidagi omillar.**

O'rta Osiyoda bronza davri mil. avv. III ming yillikdan II ming yillikning oxirlarigacha bo'lgan davmi o'z ichiga olgan bo'lib, u uchta katta xronologik davrga, ya'ni ilk, rivojlangan va so'nggi bronza davrlariga bo'linadi. O'zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan jamoalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda vohasida ko'plab o'rganilgan bo'lib, ulardan eng mashhuri Tozabog'yob madaniyati nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatga mansub sopol buyumlar Qozog'iston va Sibir hududlaridan topilgan sopol buyumlarga ancha o'xshab ketsada, o'ziga xos xususiyatlari bilan Sharqiy Yevropa chorvadorlari yaratgan bronza davri madaniyat namunalari hamda Qozog'iston va Sibirdagi Andronovo madaniyatidan ham farqlanib turadi. Bunga asosiy sabab, tozabog'yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalganligidir.

Miloddan avvalgi II-ming yillikning birinchi yarmida Murg'ob vohasini qadimgi dehqonchilik jamoalari tomonidan o'zlashtirilishi va ushbu makonda Kaunchitepa, Gonurtepa kabi qator aholi punktlarini paydo bo'ladi. Bu davrda Janubiy O'zbekistonda **Sopollitepa** va **Jarqo'ton** kabi o'troq aholi manzilgohlari qad ko'taradi. Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryoning Sherobod tumanida joylashgan bo'lib, bu manzilgohda ham oila jamoalari birgalikda qal'a va qo'rg'onlarda yashaganlar. **Tozabog'yob** madaniyati miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida Amudaryoning quyi oqimida yashagan zoroatchi va chorvador qabilalar madaniyatidir. Miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlaridagi Amirobod yodgorligi, **Chust madaniyati** qadimgi ziroatchi oilalarning bronza davri oxirlaridagi manzilgohi (miloddan avvalgi 2-ming yillik oxiri- 1-ming yillik boshlari) dir.

Bronza davri oxirlarida asosan shimoldan janubga chorvador oilalar o'troq dehqon jamoalari yashaydigan vohalarga siljishi ro'y bera boshlagan. Natijada etnik jarayonlar kuchayib, shimol va janub oilalarining dastlabki konsolidatsiyalashuv jarayoni yuz beradi. Ya'ni, akademik A.Asqarov qayd etganidek, bronza davriga kelganda (miloddan avvalgi II - ming yillik oxiri I ming yillik boshlari) ibtidoiy ajdodlarimiz hayotida tub sotsial-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlarning ildizi miloddan avvalgi III-ming yillikning oxirgi choragida har ikki dunyoda, ya'ni qadimgi dehqonchilik va ovchi-baliqchi qabilalar jamoalarida bir vaqtda yuz beradi.

Bronza davriga oid Sopollitepa manzilgohidan to'rtburchakli istehkom, istehkom ichida turar-joylar va xo'jalik xonalari. hunarmandchilik ustaxonalari uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan. Bronza davrining yetuk bilimdoni akademik **A. Asqarov** tadqiqotlariga ko'ra, Sopollitepada qurilish, shaharsozlik belgilari, hunarmandchilik va iqtisodiy munosabatlar ancha rivoj topganligini tasdiqlamoqda. Olim boshchiligidagi bir guruh arxeologlar manzilgohlarda asosiy qurilish ashyosi paxsa va xom g'ishtdan iborat ekanligini aniqlaydilar. Sopollitepadagi turar-joylar xarobalaridan olim tomonidan bronza davri qabrlari ochib o'rganilgan. Ko'pchilik qabrlar yakka qabrlar bo'lib, jamoa qabrlari ham uchraydi. Ayollar qabrlaridan asosan sopol buyumlar, oyna va bezaklar topilgan bo'lsa, erkaklar qabrlaridan asosan sopol, mehnat va jangovar qurollar topilgan.

Manbalarga ko'ra mil. av XVIII-X ming yillikka oid Sopollitepa va Jarqo'ton manzilgohlarida sharq tipidagi ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi. Sopollitepa labirintnoma (qasr) to'g'ri burchakli ko'cha tarmog'i va istehkom tizimi bo'lgan manzilgohlar majmuidan tashkil topgan. Jarqo'tonda ham monumental me'morchilik hom g'ishtdan qurilgan. Markazda qal'a joylashgan, ular xom g'ishtdan baland ko'tarib qurilgan. Har bir guzarda binoning o'rtasida yumaloq o'choq shaklida devor tokchasida olov mehrobdan iborat sig'inadigan markazi bo'lgan. Ikkala manzilgohda jez eritish, to'qimachilik, kulolchilik, zargarlik; suyak, tosh, yog'och ishlov berish gullab-yashnagan. Turli kulolchilik buyumlarini kulolchilik dastgohidai tayyorlanganligi, shaklining chiroyiligi bu sohasining texnologiyasi yuqoriligidan dalolat beradi.

Bronza davrida shakllangan «ko'chmanchi chorvadorlar» madaniyati Zamonbobo manzilgohida o'rganilgan. Zamonbobo aholisi katta yarim yerto'lalarda yashab, bronza va tosh qurollar ishlatishgan. Kulolchilik dastgohisiz qo'lda ishlangan tagi yumaloq, yassi sopol idishlardan foydalanilgan. Jez davrida madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning qo'yi oqimidan, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatidan topilgan. Ular chorvador qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Chorvador qabilalar jez davrida o'troq turmush tarziga o'ta boshladi, qisman dehqonchilik bilan shug'ullanadi, keyinchalik ko'chmanchi chorvadorlarga aylanishgan.

Shu o'rinda Jarqo'ton yodgorligi xususida batafsilroq to'xtalamiz. Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi Sherobod daryosining ko'lna o'zani Bo'stonsoy yoqasida joylashgan. Ushbu yodgorlikda 1973 yildan boshlab uzluksiz olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu hududlarda ro'y bergan urbanizatsiya jarayonlariga ko'plab aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo'ldi. Shaharsozlik madaniyati mutaxassislaridan biri **B. Eshov** ta'kidlaganidek, Jarqo'tondagi 100 gektardan kam bo'lmagan hududdan arki a'lo, shahriston, ulkan ibodatxona qoldiqlari, metall erituvchi pechlar, 20 gektarli qabriston, ko'plab moddiy madaniyat buyumlari topib o'rganilgan. Undan tashqari Jarqo'ton

hududida olib borilgan tadqiqotlar ko'xna shaharning sanasini aniqlash hamda ushbu hududlarda yuz bergan tarixiy-madaniy jarayonlarni bir necha bosqichlarga ajratib o'rganish imkoniyatini berdi.

Umuman, ilk shaharsozlik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

- *aholining o'troq dehqonchilikka o'tishi va keng vohalar bo'ylab yoyilishi;*
- *hunarmandchilikning rivojlanishi va ayrim sohalarga ixtisoslashishi;*
- *qadimgi savdo yo'llarining rivojlanishi natijasida iqtisodiy va madaniy aloqalar hamda savdo-sotiqning taraqqiy etishi;*
- *tabiiy-geografik shart-sharoitlar.*

Mintaqada shahar madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, uning bir mintaqadan ikkinchi mintaqaga siljishiga sabab bo'lgan. Xususan O'zbekistonning janubida, Surxondaryo hududida shakllangan madaniyat keyinchalik shimolga So'g'd, Xorazm, Shosh va Farg'ona hududlariga tarqaladi. Ularga Afrosiyob, Qiziltepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on manzilgo'klarini misol qilish mumkin. Umuman, shaharlar tarixini o'rganish jarayonida dastavval, eng qadimgi shaharlar shakllanishi va rivojlanishi, aniq hududlar va viloyatlardagi tarixiy-madaniy shart-sharoitning ta'siri, ekologik-geografik, ijtimoiy, iqtisodiy va demografik muhitlarning darajasi va ta'sir deirasi, shaharlarning vazifasi, qadimgi shahar markazlarining tarixiy-madaniy jarayonlardagi o'imi va ahamiyati masalalariga keng e'tibor qaratish lozim.

Bronza davrining oxirlari, ilk temir davrida kulolchilik charxi, naqsh bilan bezatilgan sopol buyumlar keng tarqaladi. Temirchilik bosqoni, qo'l tegirmoni vujudga keladi, metallga ishlov berish rivojlanadi. Oilada ip yigirish va matolar to'qish, kiyim tikish tobora kengayib bordi, oilalarning turar-joylari qurilishi bir muncha yaxshilanadi, 10-20 tadan xonasi bo'lgan katta maydonli uylar qurilishi bilan birga, g'ishtdan, sinchdan alohida kichik oilalarga mo'ljallangan uylar qurish keng tarqaladi.

Demak, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi shahar madaniyati tarixi bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Eramizdan avvalgi davrlardayoq bu hududlarda eng qadimgi ajdolarimiz xususan sak, massaget, so'g'diyabon xalqlar, baqtriylar, xorazmliklar istiqomat qilganlar. Ularning o'z madaniyati, san'ati, turmush tarzi, o'ziga xos ma'naviyati bo'lgan. Shaharlarda ular o'zlarining dunyoqarashi, urf-odatlarini asosida hayot kechirganlar. Shahar va shahar atroflarida daryolardan sug'orish ishlarida foydalanish, hunarmandchilikni rivojlantirish, mahsulot ayriboshlash va boshqalar takomillashgan.

Bular albatta, o'sha davr shahar madaniyatiga, ma'naviyatiga ta'sir etmay qolmagan. Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo taraqqiy etishi shahar'aming paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Natijada shaharsozlik madaniyati shakllangan, so'ngra davr talabidan kelib chiqib ular o'zgarib borgan. Markaziy Osiyo mintaqasi o'sha davrlarda ham iqtisodiy, geografik va siyosiy nuqtai

nazardan ham yuksak ma'naviyat rivoji uchun qulay hudud bo'lganligi qadimgi manbalardan ma'lum.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. II ming yillikka kelib, O'rta Osiyoning janubida Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona hamda unga qo'shni bo'lgan hududlarda Baqtriya - Marg'iyona arxeologik majmuiga kiruvchi yuqori darajada rivojlangan madaniy yodgorliklar mavjud bo'lgan. Gonur, Dashli, Sopollitepa, Jarqo'ton shahar madaniyati qoldiqlari shular jumlasidandir.

Ularning ko'pchiligi dastlabki shahar markazlari bo'lib, ularda arki a'lo, shahriston, diniy markazlar hamda shahar oldi hududlari mavjud edi. Ya'ni, ular o'sha davr nuqtai nazaridan yetarli darajada rivojlangan shaharlar edi. Ko'pchilik tadqiqotlardan bizga ma'lumki, ilk shaharlar davlatchilik paydo bo'lishining muhim va asosiy belgisi hisoblanadi.

Albatta, ilk temir davrining muhim xususiyatlari ham mintaqamiz uchun o'ziga xosdir. Jumladan, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik O'rta Osiyo xo'jaligining asosi hisoblanib, bu jarayon janubiy Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonning janubida bronza davrida, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi hududlarida esa ilk temir davrida shakllana boshladi. Tadqiqotchilarning qayd qilishlaricha, aslida ilk davlatchilikning vujudga kelishiga sun'iy sug'orishga asosan dehqonchilik hamda aholining doimiy o'troqlikka o'ta boshlashidir. Bunday jarayon qadimgi O'zbekiston hududlarida Zarafshon, Amudaryo, Murg'ob vohasi, Buxoro hamda Qashqadaryo vohalarida tarkib topdi.

Dastlabki temirga ishlov berish, hunarmandchilik, savdoning rivojlanishi, dastlabki pul muomalasining tobora kengayishi kabi omillar ham davlatchilik shakllanishining asosiy omillaridandir. Bunday jarayon ayniqsa O'zbekistonning janubiy mintaqalari. Ya'ni, **Qiziltepa, Anov, Ko'zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, Chust, Dalvarzin** va boshqa hududlarda tarkib topa boshlaydi. Vaholanki metallga ishlov berish va mehnat qurollarining metaldan ishlanishi mehnat unumdorligining yanada oshishiga hamda mehnat taqsimotining kengayishiga imkoniyatlar yaratadi. Bu shubhasiz, mulk taqsimoti, ulkan hududlarni qo'lga kiritish va o'z chegaralarini belgilash, o'zaro kurashlar uchun ham sharoit yaratadi. Shuningdek hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ladi. Natijada kichik-kichik konfederatsiyalar yirikroq davlat uyushmalariga biralasha boshlaydilar.

Shu tariqa mil. avv. II ming yillikka kelib qadimgi O'zbekistonning dehqonchilik vohalarida o'troq qabilalar rivojlanib aholinining alohida joylashuv manzilgohlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar - o'troq dehqonchilikning rivojlanishi, aholi zichligining yuqori darajasi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi, ijtimoiy tabaqalanish va boshqaruv tizimining murakkablashishiga olib keldi hamda ilk davlatchilikning paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bunday dastlabki davlat birlashmalari, bu shubhasiz Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Parfiya, Marg'iyona kabi davlat birlashmalari bo'lgan.

**7. Avesto qadimgi ajdodlarimiz ma'naviy hayotini o'rganishda muhim manba.** "Avesto"- Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy dindardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ahloqiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-ahloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan.

"Avesto"da zardushtiylarning muqaddas olovi-"azar-xurra" birinchi marta yoqilgan mamlakat, hamda Axuramazda Zardushtga nomoyon bo'lgan mamlakat sifatida "Aryonam vayjo" eslatiladiki "Avesto"da keltirilgan geografik-iqlimiy sharoitlar ko'proq Xorazmga mos keladi. Shuningdek, "Avesto"da Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o'tilgan. Birinchi o'rinda "Aryonam-vayjo" (Xorazm) turib, "go'zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi" deyiladi. Keyin "odamlarga va chorvaga boy Gava (So'g'd)", "Qudrati va muqaddas Mouru (Marg'iyona)", "Bayroqlari baland ko'tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)" ta'riflanadi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib "Avesto" Vatani O'rta Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

"Avesto"ni fransuz olimi Anketil Dyu Peron birinchi bo'lib tadqiq etgan. 1771 yilda u "Avesto"ni fransuz tiliga tarjima qiladi. Dastlabki "Avesto" 21 ta kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha "Avesto"ning Yasna -"qurbonlik keltirish", Visprat -"hamma hukmronlar", Yasht -"qadrlash", Videvdat -"devlarga qarshi qonun" qismlari saqlanib qolgan. "Avesto"da ahmoniyargacha bo'lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, siyosiy tarix, diniy falsafa va turli ma'lumotlar saqlangan.

"Avesto"da tilga olingan ko'plab mamlakatlar - Markaziy Osiyo (Xorazm, Zarafshon vodiysi) va O'rta Sharq, Afg'oniston, Eronning shimoliy-sharqiy hududlari bilan bog'liqdir. Yasht qismlari o'riylarning yerlari haqida quyidagicha e'lon qiladi: "U mamlakatning jasur sardolari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi, Uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan.

"Avesto" ma'lumotlariga ko'ra, Kayoniylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg'ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Zaratushtra yashab faoliyat ko'rsatgan davr haqida aniq fikr yo'q. Tadqiqotchilar bu davrni mil.avv. II ming yillik o'rtalaridan milodiy I ming yillik o'rtalarigacha deb belgilaydilar.

"Avesto" dastlab **21 kitobdan iborat** bo'lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan. Bu qadimgi qismlar Yasna, Visparat, Yasht va Videvdat deb nomlanadi. Zamonamizgacha yetib kelgan Avesto qismlari milodning III-VII asrlarida tahrir qilingan. "Avesto" boblari "pahlaviy"-o'rta fors alifbosi asosida 48 ta belgili yozuvdan iboratdir. Zardushtiylik dini Ahmoniyalar saltanatining (mil.avv.VI-IV asr) davlat diniga aylantirilgan. Zardushtiylikning g'oyalari matnlari miloddan avvalgi IV asrda to'planib, 21 kitob qilinadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha "Podsho Doro ibn Doro hazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxa bor edi. Aleksandar otashxonalarni



vayron etib, ularda xizmat qiluvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun ham Avestoning 3/5 qismi yo'qolib ketdi".

Sosoniylar (224-651) davriga kelib "Avesto" tili "o'lik", tushunarsiz bo'lib qolgan, ammo to'plamda eski so'zlar va tushunchalarning hammasi saqlangan. "Avesto" tili eroniy tillarning eng qadimgi shevalaridan biri bo'lgan va, olimlar fikriga ko'ra, qadimgi fors tiliga nisbatanancha oldingi bosqichda, miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri-I ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan.

Avestoga ko'ra jamiyatning boshqaruv tartibi ham alohida ahamiyatlidir. Manbada keltirilishicha, oriyalar o'lkasi quyidagi to'rtta ma'muriy hududiy birlikka bo'linadi: 1-patriarxal oilaga tegishli bo'lgan turar-joylar (nmana); 2-qishloqlar (vis); 3-tumanlar (zantu); 4-viloyat-o'lka (daxyu). Ushbu birliklarning har biri o'z yo'l boshchisiga ega bo'lgan: 1-nmanopati (uy boshlig'i); 2-vispati (qishloq boshlig'i); 3-zantupati (tuman oqsoqoli); 4-daxyupati (viloyat-o'lka yo'l boshchisi).

Eng yirik uyushma «daxyusasti» (viloyatlar ustidan hukmronlik yoki viloyatlar uyushmasi) edi. Bunday uyushmaning hukmdori «butun daxyular daxyupatasi», deb atalgan. Qiyosiy tahlillar asosida ahmoniyalar davridagi «shohlar shohi» unvoni Avestodagi unvonga borib taqalashini taxmin qilish mumkin. Avestoda shuningdek, «kavi», «sastar» va «xatra» kabi boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan unvonlar ham uchraydi. «Kavi» (forschada «kay») unvoni Avestoda ko'p uchraydi. Bu unvon nafaqat katta o'lkalar podsholari, balki kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan. Qal'alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlari «sastar» unvoni bilan atalgan. «hokimiyat», «qudrat» ma'noharini beruvchi «xshatra» unvoni tumandan tortib o'lkalar hukmdorlarigacha berilgan.

Zardushtiylarda oilaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan muomala odobi, xulqi, insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qonun-qoidalari xususida atroficha bayon etilgan. Unda bayon qilingan yaxshilik va yomonlik mezonlarini teran anglash har bir insonning halol mehnat asosida rizq topishiga, hunar va ilm olishiga, o'zgalarni hurmat qilishiga, oila va jamiyatni teran anglab yetishiga xizmat qiladi.

Shuningdek u butun insoniyatni ezgulikka chorlovchi, komillik sari yetaklovchi, tabiat, jamiyat va insonni axloqiy va estetik mezonlar asosida uyg'unlashtiruvchi har qanday ma'naviy tarbiya jarayonining tamal toshlaridan biridir. Ajdodlarimizning tabiat va jamiyatda yaxshilik va go'zallikni qaror toptirish uchun yer, olov va havoni ilohiylashtirgan holda insonda yuksak insonparvarlik fazilatlarini ko'zda tutganlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Unda oila va jamiyat, inson olamining azaldan yaxlit va bir butun ekanligini uqtirish natijasida har bir inson tabiat ne'matlaridan bo'lgan suvni tejash, bulg'amaslik, tuproqni iflos qilmaslik, hayotda doimo ozodalikka rioya qilib yashash tamoyillariga amal qilsa, uning doimo g'olib bo'lishiga ishonch tuyg'usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi.

Bu borada diniy va ijtimoiy ta'limotga ko'ra, oilada sog'lom turmush tarzi, tozalik, ozodalik, pokizalik kabi madaniyatning muhim elementlari targ'ib etiladi. Unda nafaqat xalqimizning yuksak axloqiy-estetik madaniyatining namunasi, balki umuman Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk ma'naviy xazinasidir. Zero, «Avesto» **Turon, Xuroson, Ozarbayjon, Iroq, Eron, Kichik Osiyo** xalqlarining miloddan avvalgi qadimgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va ma'naviy qadriyatlar haqida ma'lumot beruvchi manbadir.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, ayniqsa oilada farzandlarga va ota onaga bo'lgan munosabat muammolari bilan bog'liq masalalarga katta e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Zardushtiylar uchun butun tabiatni – yer, suv, daraxt, o'simlik, jonivorlarni e'zozlash, yerga ishlov berib, sug'orib, bog'-rog'lar va ekinzorlar barpo etish, chorvachilikni keng yo'lga qo'yish, suv va olovni muqaddas tutish bir so'z bilan aytganda bunyodkorlik, yaratuvchanlik hayotiy maqsad bo'lgan. Unda shaxsning axloqiy-estetik madaniyati ifodalovchi tushunchalar sifatida «go'zallik», «beg'uborlik», «yaxshilik», «ezgulik» namoyon bo'ladi. Bu esa axloqiy-estetik madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq hodisa sifatida ifolanganidan dalolat beradi.

Muqaddas manbadagi axloqiy-estetik madaniyat insonlarni mehnat qilib, o'z qo'llari bilan moddiy boyliklar yaratib to'q, farovon hayot kechirishga davlat etilganligida aks etadi. Zero inson o'z mehnati orqali tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni o'zgartiradi, ularni insoniylashtiradi va nafosatlashtiradi. Shu asnda o'zining ham axloqiy-estetik madaniyatni yuksaltiradi.

“Avesto”da «Inson uy tiklab, oilasiga, xotini va farzandlariga, podalariga o'rin ajratib bersa, yem-xashak ko'p bo'lib, chorvasi va itlari to'q yashasa, uyida noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, o'sha manzil muhtaramdir» - deyiladi. «Avesto»da ilgari surilgan axloqiy va estetik qarashlar jamiyatda har bir shaxsning yuksak madaniyatga ega bo'lish, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal g'oyasiga asoslanib farovon hayot yaratishni aks ettiradi. «Avesto»da insonning oilaviy turmush tarzi, yashashi, madaniyati, ma'naviyati nafosat dunyosi eng yaxshi insoniy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi.

Insonning oilada faoliyati uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ya'ni yaxshilik va go'zallikni tarannum etuvchi, yomonlik va xunuklikni qoralovchi o'g'itlar, pand-nasihatlardan iborat bo'lgan axloq va nafosat normalari o'z aksini topgan. Masalan “Yaxshi a'molli zotlarning eng oliy xohishi yangi dunyo qurmoqlikdir.

Mazkur muqaddas manba butun insoniyatni ezgulikka chorlovchi, komillik sari yetaklovchi, tabiat, jamiyat va insonni axloqiy va estetik mezonlar asosida uyg'unlashtiruvchi qadriyatdir. Har qanday ma'naviy tarbiya jarayonining tamal toshlaridan biridir. Insoniyat tarixi yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va buzg'unchilik o'rtasidagi tinimsiz kurashlardan iborat ekanligini ko'rsatar ekan, bunda kimki “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” tamoyiliga amal qilsa, uning doimo g'olib bo'lishiga ishonch

tuyg'usini shakllantirib, har bir insonni ana shu tamoyil asosida yashash ruhida tarbiyalaydi.

### **Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar**

O'zbekiston tarixi, fanning predmeti, ob'ekti, nazariy-metodologik asoslari, tarixiy manbalar, moddiy va yozma manbalar, sivilizatsiya, metod va metodologiya, ibtidoiy jamiyat, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, "homo Sapiens", kromanon, urug'chilik jamoasi, matriarxat, patriarxat, o'q-yoy, diniy tassavurlar, mis-tosh davri, bronza davri, temir davri.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. O'zbekiston tarixi fanini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari.
2. O'zbekiston tarixi fanini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning ahamiyati
3. Prezident Shavkat Mirziyoevning haqqoniy tariximizni o'rganish borasidagi tashabbuslari.
  1. Ibtidoiy davr va uning o'ziga xos xususiyatlari .
  2. Paleolit davri va uning rivoji.
  3. O'rta Osiyoda mezolit davri va jamiyat hayotidagi o'zgarishlar.
  4. Bronza davrining o'ziga xos xususiyatlari.
  5. Ibtidoiy san'atning shakllanishi, rivojlanishi va inson hayotida tutgan o'rnini.

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekiston tarixi fanining fan sifatidagi o'rnini va ahamiyati qanday ?
2. O'zbekiston tarixi fanining barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rnini va ahamiyati xususida gapiring.
3. Tarixiy manbalar va ularning o'tmishni o'rganishdagi o'rnini qanday ?
4. Prezident Shavkat Mirziyoev yosh avlodni ma'naviy, barkamol qilib tarbiyalashda tarix fanining o'rnini xususida qanday mulohazalarni ilgari surmoqda ?
5. O'rta Osiyoda insoniyatning dastlabki ajdodlari qae'larda yashagan va ularning turmush tarzi qanday bo'lgan?
6. Ibtidoiy jamiyatni davrlashtirish, deganda nimani tushunasiz?
7. Urug'chilik jamoasi ona urug'i (matriarxat) va ota urug'i (patriarxat) jamoasining shakllanishi va uning tarqiyotida qanday farqlar mavjud?
8. Mezolit (o'rta tosh) davrining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
9. Bronza davrida O'rta Osiyo hudularida qanday o'zgarishlar sodir bo'lgan?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil, 25 yanvar.

2. Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Buyuk g'alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. №80. T., 2020 yil. 10 may.

3. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T., 2015.

4. D. A. Alimova, Z. A. Ithomov. Tarix fani metodologiyasi. O'quv qo'llanma / Mas'ul muhar. N. Mustafoeva. – Toshkent., 2018.

5. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T.: «Universitet», 1996.

6. O'zbekiston tarixi. «Darslik» // Mas'ul muharrir t.f.d R.X. Murtazaeva. T., 2005 y.

7. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta. M., 1962.

8. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: 1994 g.

9. Kabirov A, Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T., 1990.

10. Qurbonova D. Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar ma'naviy madaniyati. // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi Avtoreferati. T., 2019.

11. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. (Birinchi kitob). T., 2019.

## **2-mavzu. O'zbek xalqi davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari**

### **Reja:**

**1. O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanishidagi asosiy omillar va boshqaruv.**

**2. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'd (So'g'diyona) va qadimgi Farg'ona davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodi va madaniy hayot.**

**3. Eron Ahamoniylari va Yunon Makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga hujumi va ularga qarshi milliy ozodlik kurashlari**

**4. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari va ular rivoji**

**5. Qadimgi savdo yo'llari va Buyuk ipak yo'lining shakllanishi hamda rivojlanishi.**

**6. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. O'zbekiston milliy mustaqilligi yillarida etnik holat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik**

### **1. O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanishidagi asosiy omillar va boshqaruv.**

Yuqorida qayd qilganimizdek, jahon tarixida ilk davlatchilikning shakllanishi masalasi hozirgi kunda tadqiqotchilar orasida eng dolzarb bo'lib turgan masalalardan biri hisoblanadi. Masalani o'rganib, unga aniqlik kiritishdan oldin talabalarni davlatchilikning ildizlari va paydo bo'lish shart-sharoitlariga diqqat-e'tiborlarini qaratish lozim.

Yuqoridagi paragraflarda qayd qilinganidek, O'rta Osiyoda Sopolli, Oltintepa, Gonur, Jarqo'ton kabi manzilgozlarda kulolchilik mahallalari paydo bo'ladi. Shuningdek, hunarmandchilikning toshga, metallga, yog'ochga, suyakka ishlov berish turlari ham keng tarqaladi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi, alohida xo'jalik tarmog'i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlatchilik paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishiga turtki bo'ladi. Aholining o'troqlashish jarayonlarining tezlashuvi, ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi, mehnat taqsimotining yangicha ko'rinishi, hunarmandchilikning o'sishi, o'troq aholi manzilgozlari atroflarining tosh va paxsa devorlar bilan o'rab olinishi kabilan ham davlatchilik shakllanishidagi ilk omillardan biridir.

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlari va I ming yillikning boshlarida ajdodlarimiz temini ishlatishni, undan qurol-yarog'lar tayorlashni o'zlashtirganlar. Shu tarzda mehnat qurollarining takomillashishi ham mintaqada davlatchilikning shakllanishiga turtki bo'lgan muhim omillardan edi. Bu esa o'z navbatida inson faoliyatining muhim mahsuli bo'lib, bu holat jamiyatning barcha sohalarida iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy sohalar rivojiga turtki bo'lgan.

Umuman, bu davrda aholi ishlab chiqarishning ma'lum bir sohalariga dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon

ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi va ularning bir yerga to'planishi uchun zamin yaratdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi o'z navbatida mahsulot hajmining o'sishiga, **qo'shimcha mahsulot paydo bo'lishiga** sabab bo'lgan. Demak, qadimgi xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o'zaro ayirboshlash va savdo-sotiq taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladi. Bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblangan.

Ko'pchilik tadqiqotlardan bizga ma'lumki, ilk shaharlar davlatchilik paydo bo'lishining muhim va asosiy belgisi hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlar mil.avv. II ming yillik oxiri I ming yillik boshlari Qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilik ko'rinishlari paydo bo'la boshlaganidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, mil.avv. II ming yillikning dastlabki asrlarida Baqtriya qudratli podsholik bo'lib, mintaqada hukmronlik mavqeyini qo'lga kiritish maqsadida Midiya va Ossuriya o'rtasidagi urushlarda ishtirok etgan.

Davlatchilik paydo bo'lishining muhim belgilaridan yana biri jamiyatning ijtimoiy tabaqalarga bo'linishi hisoblanadi. Ko'pchilik manbalardan bizga ma'lumki, Avesto jamiyati quyidagi to'rtta tabaqaga bo'lingan: 1) qohinlar, 2) harbiylar, 3) dehqon-chorvadorlar, 4) hunarmandlar. Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya'ni, zardushtiylikkacha bo'lgan a'nalarni ham aks ettiradi. Bu an'analar ayrim o'zgarishlar bilan ko'p asrlar, Avestodan keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan.

Dastlabki ikki tabaqqa ancha imtiyozlarga ega bo'lib, jamiyati boshqarganlar. Ayniqsa, qohinlar juda yuqori mavqyeda turganlar. Zaratushtra o'z g'oyalarni targ'ib etish jarayonida podsho Vishtaspning eng yaqin odami va maslahatchisiga aylanadi. O'sha davrdagi jamiyatning har bir bo'lagi - uy, qishloq, voha va viloyat - o'lka ma'lum unvoni bo'lgan o'z diniy yo'lbo'shchisiga ega bo'lgan. Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchilari va moddiy yaratuvchilari dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar edilar. Avestoda qullar ham bir necha bor eslatib o'tiladi. Ular tabaqalarga kirmagan va jamiyat hayotida unchalik katta rol o'ynamaganlar.

Mil. av. bir minginchi yillarning boshlarida ajdodlarimiz temirdan mehnat qurollari, qurol-yarog'lar, bezakli buyumlar yasashni o'zlashtiradilar va temirdan foydalanish keng tarqaladi. Odamlar hayotida temir davri boshlanadi. Temirdan yasalgan omoch, ketmon, belkurak va boshqa mehnat qurollari oila yumushini yengillashtirgan, ular bilan ancha keng maydonlarni haydash, to'g'onlar qurish, kanal va ariqlar qazib suv chiqarish imkoni paydo bo'lgan. Bu dehqonchilikning yuksalishiga olib kelgan. Temimning kashf etilishi hunarmandchilikni yanada yuqori pog'onaga ko'taradi. Temirdan qattiq va o'tkir pichoqlar, o'roqlar yasalishi mehnat umumdorligini oshirishga yordam bergan.

## **2. Qadimgi Xorazm, Baqtriya, So'g'd (So'g'diyona) va qadimgi Farg'ona davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.**

Insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti natijasida mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib, O'rta Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo'la boshlaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya (Janubiy O'zbekiston, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston) hududlarida ana shunday siyosiy birlashmalar tashkil topadi. O'sha davrda Marg'iyona va So'g'diyona qadimgi Baqtriya va Xorazmda davlatchilik shakllana boshlaganligi haqida ma'lumotlar bor.

**Qadimgi Xorazm** davlati O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlardan biri bo'lib, bu davlat birlashmasi mil. avv. VII-VI asrlarda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Orol havzalarida vujudga kelgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari o'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tganligi aniqlandi. Xorazmning yirik sug'orish inshootlari mil. avv. VII-VI asrlarga oiddir. Manbalarda qayd etilishicha VII-VI asrlarda Xorazmda ulkan sug'orish inshootlari mavjud ekanligi ma'lum.

Qadimgi Xorazmda baliqchilik, keyinroq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlangan. Iqlim sharoitidan kelib chiqib, dastlab tabiiy toshqinlar va yomg'ir suvlaridan foydalanilgan bo'lsa, keyinroq dehqonchilikda sun'iy sug'orishga o'tila boshlangan. Natijada ishchi kuchidan foydalanish shakllari ham o'zgarib borgan. Sodir bo'lgan bunday o'zgarishlarni Markaziy Osiyoning turli joylardan topilgan arxeologik topilmalar ham tasdiqlaydi.

Hatto yunon tarixchisi Strabon (mil. avv. 63-milodiy 24 y.) xorazmiylarning ajdodlari massagetlarga borib taqalishini uqdiradi. Darhaqiqat, massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy o'rinda turgan. Shuning uchun ham Xorazm tangalarida ot kultini iloxiyalashtirish bejis emas edi. Arxeologik materiallarga ko'ra, Xorazm tarixining massagetlargacha bo'lgan davrida bu zaminda Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari simbiozida tarkib topgan qovundi (kaunchi) qabilalari yashar edilar. Ular miloddan avvalgi II-ming yillikning oxirgi choragida qadimgi Xorazmning massaget nomi ostida yuritilgan ko'chmanchi qabilalarining asosini tashkil etgan.

Akademik A. Asqarovning fikricha, ularning bir qismi Amudaryoning quyi tarmoqlari havzalaridagi dehqonchilikka qulay pastqam, semam tekisliklarda ziroatchilik bilan shug'ullana boshlagan bo'lsa (Amirobod madaniyati), boshqa qismi to'qayzor jilg'alar va dashtlarda chorvachilik bilan shug'ullanishda davom etadilar (Quyi soy madaniyati). Mahalliy aholining dehqonchilik xo'jaligi bronza davrining nomozgoh va sopolli madaniyatlari sohiblarining dehqonchilik xo'jaligidan tubdan farq qilardi. Qadimgi Xorazmning amirabod madaniyatida ibtidoiy dehqonchilik endigina shakllana boshlagan, uning aholisi esa yarim yerto'la tipidagi kulbalarda yashar, qadimgi shahar madaniyatiga xos hayotdan xali juda uzoq edi. Nomozgoh va Sopolli madaniyatlari aholisi allaqachon qadimgi Sharq sivilizatsiyasi-ning ilk davlatchilik bosqichini o'tamoqda edi.

Muallifning qayd etishicha, miloddan avvalgi VI asming ikkinchi yarmiga kelganda Amudaryoning quyi havzalarida siyosiy-iqtisodiy va etnomadaniy vaziyat o'zgardi. Yarim yerto'la shaklidagi kulbalarda yashab, motiga dehqonchiligi va ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanib kelayotgan Xorazmda atrofi osmono'par mudofaa devorlari bilan o'ralgan **Ko'zaliqir va Qal'aliqir** kabi qal'a-shaharlar qad ko'tardi. Xorazm haqidagi ma'lumotlar Avestoning Mitra Yashtida, Yashtning Sharqiy Eron viloyatlari haqida yaratilgan misralarda keltiriladi.

Qadimda Markaziy Osiyo hududi, xususan Qadimgi Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Choch, Qang' davlat bilashmalari xususida jumladan, akademik S.P.Tolstov, mahalliy olimlardan akademik Ya.G'ulomov, akademik A. Sagdullaev, E. Rtveladze, K.Shoniyozov, A. Buryakovlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahsinga loyiqdir. Ular turli davrlarga mansub bo'lgan qadimiy shaharlar, qo'rg'onlar, maqbaralar, sug'orish inshootlari, turli xil istehkomlarni ochib o'rganganlar. Shu sababli, bizning davrimizga kelib bu hududlarda ko'plab ilmiy tekshirishlar olib borilganligi masalaning ilmiy tadqiq qilinishida muhim omil bo'lmoqda.

Qadimgi davrlardayoq Xorazm vohasining qirlarida Ko'zaliqir, Kal'aliqir, Qo'yqirilgan qal'a, Jonbos qal'a kabi mahobatli mudofaa devorlari bilan o'ralgan qal'a-shaharlar, kanal va ariqlar asosida rivoj topgan sug'orma dehqonchilik madaniyati shakllandi.

O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari nafaqat mintaqa davlatlari bilan, balki **Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya** kabi davlatlar bilan ham jadal savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalarni yo'lga qo'yganlar. Bunday aloqalar, shubhasiz chet ellik savdogarlar, katta yer egalari, hukmdorlar, tadqiqotchilar, hatto tarixchilarni ham o'lkaga qiziqishini orttirgan. Xususan, qadimgi grek va rimliklar O'rta Osiyoning tabiiy-geografik o'rni, aholisining turmush tarzi xususida ma'lumotlar berib o'tganlar, bu esa mintaqalar o'rtasida o'z davrida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanganligidan dalolatdir. Jumladan, ana shunday qadimgi ma'lumotlar hozirgi ikki daryo o'rtasida umrguzaronlik qilib kelayotgan xalqlarning otabobolari, qadimgi saklarga va ular yurtiga tegishlidir. Unda shunday deyiladi:

"Apasiaklar Oks va Yaksartning oralig'ida yashaydilar. Daryolarning birinchisi Girkan dengiziga, ikkinchisi Meotida ko'lga quyiladi. Ikkalasi kemalar qatnaydigan darajada salmoqlikdir. Ko'chmanchilarning otdan tushmay ulardan Girkaniyaga o'tib yurishlari juda qiziq. Bu haqda ikki xil gapirishadi. Birinchisi juda oddiy, ikkinchisi esa g'aroyib, biroq imkonsiz, deb bo'lmaydi. Oks suvlarini Kavkaz tog'laridan olib, ularning qo'shiluvi hisobiga Baqtriyada ulkan daryoga aylanadi-da, keng tekislikdan uzoq oqadi. Keyin sahroga yetib borganida katta va tik qoyalarga duch keladi. Pastga tashlanarkan, oqimning tezligidan suvi qoyalardan bir stadiyadan ortiqroq nariga borib tushadi. Apasiaklar ana shu sharsharaning tagidan qup-quruq joydan Girkaniyaga o'taveradilar. Quyidagi ma'lumot esa yanada qiziqarlidir. Daryo oqib o'tadigan yerlarda keng maydon va tekisliklar ko'p. Tog'u qoyalarga duch kelgan daryo ana shu maydonlarga



shiddat-la tushib, ularni teshib kiradi-da, bir oz masofaga yer ostidan oqib, yana yuzaga chiqadi.

Mintaqaning tabiiy-geografik o'imi, iqlim xususiyatlari xo'jalikning qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik, yer egaligi, dasht va cho'l tabiiy sharoitiga mos ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik kabi turlari muttasil rivojlanganligidan dalolatdir. Bu holat Xorazm davlatining ishlab chiqarish darajasining yuksalishiga, uning qudrati o'sishiga turtki bo'lgan. O'z o'mida bunday xususiyat doimo mamlakat byudjetini shakllantiruvchi, uning harbiy va madaniy taraqqiyoti uchun asos bo'luvchi soliq tizimini shakllantirishni taqozo etgan. Masalan o'lkada sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanganligi uchun qadimdan ulkan miqdordagi ishchi kuchlariga ehtiyoj sezilgan. Xususan, miloddan avvalgi VII – VI asrlardayoq Xorazmda ulkan sug'orish tizimlari mavjud bo'lganligi, ularni barpo etishda esa minglab chorakorlar xizmat qilganligi tarixdan ayon.

**Qadimgi Baqtriya** mil avv VII-VI asrlarda sharqdagi eng muhim harbiy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lib, aholining, qudratli shaharlar va qal'alarning ko'pligi, tabiiy xom ashyoga boyligi, muhim markaziy savdo yo'llari chorrahasida joylashganligi, hunarmandchilikning ravnaqi kabilar bilan shuhrat topgan. Qadimgi Baqtriyaga hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-G'arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlari kirgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida ko'chmanchi turkiy qabilatoxorlar keng yoyilishi munosabati bilan Tohariston, deb yuritilgan.

Tabiiy-geografik muhit, iqlim xususiyatlari xo'jalikning qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik va yer egaligi, chorvachilik kabi turlari muttasil rivojlanganligidan dalolatdir. Bu esa davlatlarning ishlab chiqarish darajasini yuksalishiga, ularning qudratining o'sishiga turtki bo'lgan. Masalan, o'lkada sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanganligi qadimdan ulkan miqdordagi ishchi kuchlariga ehtiyoj sezilgan. Xususan, miloddan avvalgi VII – VI asrlardayoq Xorazmda ulkan sug'orish tizimlari mavjud bo'lganligi, ularni barpo etishda esa minglab chorakorlar xizmat qilganligi tarixdan ayon. Sun'iy sug'orishga bunchalik katta ahamiyat berilganligi, mazkur davlatlarda ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik naqadar katta o'ringa ega ekanligidan guvohlik beradi.

Ushbu davlat xususidagi ma'lumotlar shuningdek, qadimgi yunon muarrixlari asarlarida ham uchraydi. Jumladan, Qadimgi Baqtriya podsholigi yunon tarixchilarining fikriga ko'ra, dunyoning sharqiy chegaralaridagi oxirgi davlat bo'lgan. Unga chegaradosh qadimgi Baqtriya esa oltin va la'li lojuvard tosh konlariga boy o'lka bo'lganligi ta'kidlanadi. Baqtriyaning juda ko'p istehkomlari va qal'alari to'g'risida, uning baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingan poytaxti Baqtra nomli shahar bo'lgani, unda podsho qasri joylashgani to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Olimlarning izlanishlariga ko'ra, qadimgi Baqtriya hududida miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmiga oid ikki yuzdan ortiq qishloq-

qo'rg'onlar, qal'alar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan. Aholisi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Uy-qurilishi, diniy va dunyoviy monumental binolar qurilishi, ko'p tarmoqli xunarmandchilik va savdo-sotiq, ayniqsa uning kulolchilik, metallurgiya, zargarlik, to'qimachilik va ko'ncilik soxalari Baqtriyada yuksak darajada rivojlanganligidan guvohlik beradi. Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish keyingi davrlarda yanada jadallik bilan rivojlanadi. Natijada **Mil. avv. IX-VIII** asrlarda Baqtriya hududida harbiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi.

Mil. avv. VIII-VII asrlarga kelib Qadimgi Baqtriya davlati Sharqdagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi. Ushbu jarayonni arxeologik va yozma manbalar ma'lumotlari ham to'la tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu davr Baqtriya tarkibiga Marg'iyona va So'g'diyona ham (Tarixiy-madaniy birlik sifatida) kirgan bo'lishi mumkin. Baqtriyaning tabiiy boyliklari qadimgi davrlardayoq Sharq davlatlarida mashhur edi. Buyuk Ipak yo'lidan ancha ilgariyoq qadimgi yo'llarning Baqtriya orqali o'tganligi bejiz emas.

Ushbu davlatning poytaxtidan topilgan ko'p sonli turli topilmalar bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasida hamda Yaqin Sharq va Old Osiyo bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar gurkirab rivojlanganligidan dalolat beradi.

Agar Avestoda Baqtriyani "eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli, go'zal o'lka", deb ta'riflansa, yunon mualliflari "ming shaharli davlat", deb ataydilar. Gerordotdan oldin "baqtriya xalqi" tushunchasini buyuk Esxil "Forslar" tragediyasida ishlatadi va forslarda yosh baqtriyalik jangchilardan Tenagan va Artom ismlarini tilga olib, ulami Salamin jangida (miloddan avvalgi 480 yilda) qahramonlarcha kurashib xaloq bo'lganini eslaydi.

Olimlar tomonidan o'lkamiz hududlarida bu davrga oid ko'pgina shahar va qishloqlar xarobalari ochib o'rganilgan. Ulardagi topilmalar, manzilgo'klar, xom g'isht va paxsadan qad ko'targan bo'lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik rivojlangan.

**Sug'diyona**-geografik hudud. Qashqadaryo va Zarafshon daryolari havzasi. Xozirgi Tojikistonning Panjikent tumani, O'zbekistonning Samarqand, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari o'rniga to'g'ri keladi. So'g'diyona haqida «Avesto», ahmoniy davri, mixxat yozuvlari va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlar beradilar. Qashqadaryodagi bir qator turar-joylar va uy-qo'rg'onlar qoldiqlari mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. So'g'diyonada **Afrosiyob**, **Yerqo'rg'on**, **Uzunqir** kabi yirik shahar markazlari hamda qo'shni viloyatlar va davlatlar bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlanadi. Darvoqe, o'z o'rnida o'lkaning tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlariga mos ko'plab qishloq xo'jalik ekinlari, xususan, donchilik, bog'dorchilik, polizchilik kabi sohalarda rivoj topgan.

O'lkada sun'iy sug'orishga bunchalik katta ahamiyat berilganligi ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik naqadar katta o'ringa ega ekanligidan guvohlik beradi. Ushbu davlat hukmronligi davrida chet davlatlar bilan jadal

savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatar ekanlar, harbiy yurishlar mahalida mag'lub davlat g'olib tomonga o'lpon tarzida katta miqdorda soliqlar to'laganlar. Shuningdek, o'lkada yetishtirilgan qishloq xo'jalik, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari, shisha, qog'oz, jun, qorako'l teri, qovun, tarvuz, ot, tuya kabilar chet elliklar e'tiborini tortgan.

Miloddan avvalgi II - I asrlarda rivojlangan davlatlardan biri, qadimgi **Farg'ona** (Dovon, Davan) davlatidir. Ushbu davlatning Xitoy bilan aloqalari kuchaygan. Shu maqsadda xitoyliklar ushbu o'lkaga bir necha marotaba yurishlar qiladilar. Birinchi yurish muvaffaqiyatsiz tugagach, ular miloddan avvalgi 102 yilda bu yerga ikkinchi marta yurish qiladilar, ularning e'tibori asosan ushbu davlatning poytaxtini zabt etishga qaratilgan edi. Bu yurishda qurol-aslaha va oziq-ovqat bilan yaxshilab ta'minlangan 60 ming kishilik qo'shin ishtirok etadi.

Dushman poytaxtni qamal qilish bilan bir vaqtda, yaqin atrofdagi chorvador xalqlarni ham talar edilar. Bu voqyealardan xabar topgan Guvshan oqsoqollari yig'ilib, maslahat qiladilar. Ularning fikricha, «Yu» shahrida Dovon podshosi Muguan tomonidan birinchi yurish davrida «Xitoy elchisining o'ldirilishi va Dovon otlarini bosqinchilarga bermasdan, yashirib qo'yilishi Xitoy qo'shinlarini ikkinchi marta bostirib kelishlariga sabab bo'lgan. Endi Dovon arg'umohlari ularga taqdim etilsa, xitoyliklar urushni to'xtatishlari mumkin» - deyдилar. Agar xitoyliklar bosqinchilik urushini to'xtatishmasa, o'lguncha kurashishini asosiy maqsad qilib qo'yadilar.

Shunday sharoitda Xitoy qo'mondonligi bilan muzokaralar olib borish uchun poytaxtning obro'li oqsoqollaridan birini elchi qilib yuboradilar. Elchi Xitoy sarkardasi Li Guan-li huzuriga borib, oqsoqollar yig'inida bo'lgan gaplarni unga aytib, «arg'umohlardan tashqari farg'onaliklar Xitoy armiyasini yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlaydi. Agar bu shartlar qabul qilinmasa, dovonliklar barcha arg'umohlarni o'ldiradilar, shu orada qang'uylardan kutilayotgan yordamchi kuch ham yetib keladi» - deb Xitoy qo'shinini qurshovda qolganligini bildiradi.

Shunday qilib, Qadimgi Farg'onada mavjud bo'lgan «arg'umohlar» ("samoviy nasldor otlar") hamisha xitoylik savdogarlar, harbiylarni o'z e'tibori bilan lo'l qoldirganligi ayon. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Xitoy hukmdorlari bir necha bor bu davlatni bosib o'lmoqchi bo'lsalar-da, biroq ularning harakatlari behuda ketadi. Harbiy yurishlarning birida ular Dovon davlatining poytaxti Ershini qo'lga kiritadilar, biroq aholining tazyiqi ostida o'lpon va soliqlar evaziga uni tashlab chiqib ketganlar. Ikkinchi bor yurishlarida xitoyliklar Ershi shahrini qamal qildilar, shaharga keladigan suv yo'llarini to'sib qo'yadilar. Dovon hukmdorlari qal'aga bekinib oldilar va sulh to'g'risida muzokaralar boshlaydilar, nihoyat xitoyliklarga samoviy otlardan berishga rozilik bildiriladi. Aks holda, barcha arg'umohlarni qirg'in qilmoqchi bo'ladilar. Qang' davlatidan madad yetib kelishidan cho'chib, xitoyliklar sulhga roz bo'ladilar. Ular Ershiga kirmasdan zarur miqdordagi nasldor otlardan tovon olib, vatanlariga qaytadilar.

Farg'onaning dehqonchilik vohalarida aholining o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida esa obikor yerlarga bo'lgan ehtiyoj ortadi. Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib, minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Sug'orish texnikasi takomillashadi, sug'orish tarmoqlari kegayadi. Hozirgi vaqtda ham mavjud bo'lgan yirik sug'orish tarmoqlari tarkib topishiga o'sha paytlardayoq tamal toshi qo'yilgan.

### **3. Eron Ahamoniylarining O'rta Osiyoga hujumi va ularga qarshi milliy ozodlik kurashlari (To'maris, Shiroq, Frada qo'zg'olonlari misolida)**

Mil. avv. 559 yilda Eronda podsho **Kir II** ahamoniylar davlatiga asos soladi. Mil. avv. 545-540 yillarga kelib ahmoniy podsholari O'rta Osiyodagi Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona kabi viloyatlar va ko'chmanchi qabilalar ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. O'rta Osiyo xalqlari bosqinchilarga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Xususan, ko'chmanchi massaget qabilalari ahamoniylarning katta qo'shinlarini tor-mor etdilar (mil. avv. 530 yil). Bu jangda fors podshosi Kir II ham halok bo'ldi. Shuningdek, mil. avv. 522 va 519-518 yillarda Marg'iyonada hamda saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Shunday qo'zg'olonlar **To'maris va Shiroq** boshchiligida ko'tarilgan bo'lib, uning asosiy sababi bosqinchilarning o'lkadagi zo'rvonliklari hamda mahalliy xalqlar boshiga solingan katta miqdordagi boj va o'lponlar edi.

To'maris va Shiroq haqidagi tarixiy o'g'itlar azaldan ular insonlarni ma'naviyatli bo'lishga chorlagan. Xususan, To'maris afsonasini oladigan bo'lsak, unda qabramonlik xislatlari o'z aksini topganligini ko'rish mumkin. To'maris massaget qabilalarining rahbari, hukmdor ayol. U o'z faoliyatini mamlakat tinchligiga, barqarorligiga bag'ishlaydi. Xalqparvar ayol sifatida maydonga chiqadi. Ammo ahamoniylar hukmdori Kir massaget qabilalarining barqaror turmush tarziga xavf tug'dirib, avvalo massagetlarni o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'ladi. To'maris o'z qahramonligi bilan dushmanga zarba bera oldi.

Qayd qilinishicha, sak qabilalarining vakili bo'lgan Shiroq ismli cho'pon hiyla yo'li bilan forslarning katta qo'shinlarini suvsiz sahro ichkarisiga adashtirib qo'yadi. Shiroq ham, fors qo'shinlari ham ochlik va tashnalikdan halok bo'ladilar. Umuman, o'sha davrda yashagan mahalliy xalqlar va ularning qahramonliklari, abjir va chaqqon chavandoz, mohir mergan va chayir va chabdash jangchi bo'lganliklari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Jumladan, mohir va abjir bo'lishiga intilish har bir yoshning kundalik harakat dasturiga aylanib bordi. Oqibatda ana shu jangavor harbiy ruhiyati jarayonida suvoriy oriylar tarkib topib, ular tomonidan o'zga yurtlarni bosib olish chorvador qabilalarning muhim daromat manbaiga aylandi. Ana shu chorvador qabilalarning suvoriy harbiylari hayotda o'zlarini ozod va erkin, hech kimga qaram va tobe his etmas, ular o'zlarini doimo hayotda iqtisodiy va siyosiy mustaqil his etuvchi ozodlar-oriylar edilar. Ularning Urug'-aymoqlari ham qabila an'anasiga ko'ra, o'zlarini **oriylar** deb atashgan. Chunki, o'sha davr chorvador jamoalarida harbiy demokratiya

tizimiga xos tartib-qoidalar hukmron edi. Har bir oilada tug'ilgan farzand yoshligidan qabila udumlariga sodiqlik ruhida tarbiyalanadi. Tarbiyaning maqsad yo'nalishi esa har bir nufuzli chorvador siymosida oriyni shakllanishi bilan yakunlangan.

Mil. avv. 522-yilda ahmoniyar taxtiga Doro I o'tiradi. U taxtga o'tirishi bilanoq Parfiya, Marg'iyona va saklar o'lkasida forslarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tariladi. Behistun yozuvlariga qaraganda, 522-yilning oxirida Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga **Frada** ismli kishi boshchilik qiladi. Doro I Baqtriya satrapi Dadarshish boshchiligidagi qo'shinlarni qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natadi. Qo'zg'olon shavqatsizlarcha bostirilib 55 ming marg'iyonalik halok bo'ladi. Frada ham qo'lga olinib qatl ettiriladi.

519-518-yillarda bo'lib o'tgan bu kurashda saklar forslar tomonidan mag'lubiyatga uchraydi. Saklarning ko'pchiligi o'ldirilib, ko'pchiligi asir olinadi. Ularning yo'l boshchisi Skunha asir olinib, o'miga boshqa yo'l boshchi tayinlanadi. Forslar O'rta Osiyodagi mahalliy aholining qahramonona qarshiligini qiyinchilik bilan sindirganidan keyingina bu hududlarni batamom o'zlariga bo'ysundirdilar.

Ahmoniyar davrida davlat boshqaruvi shohlar shohiga (shahanshohga) tegishli edi. Shahanshohning cheklanmagan hokimiyati nafaqat fors zodagonlariga, balki, ma'lum darajada soliqlardan ozod qilingan va ahmoniyar davlatida ko'pgina imtiyozlarga ega bo'lgan ozod fors jamoalariga ham tayangan. Shuningdek, bosib olingan viloyatlarning mahalliy zodagonlari ham hokimiyatning tayanchi hisoblangan.

Hokimiyat ierarxiyasida shahanshohdan keyin boy fors oilalarining boshliqlari turgan. Shahanshoh saroyida kengash mavjud bo'lib, uning tarkibiga boy oila boshliqlari, saroy ayonlari, yuqori lavozimdagi amaldorlar va noiblar kirgan. Davlat ahamiyatiga molik muhim masalalar ushbu kengashda ko'rib chiqilsa-da, hal qiluvchi qarorni shahanshoh chiqargan.

**Doro I** hukmronligi davrida uning avlodlaridan bo'lmish, Kurush va Kambis (529-522 yyy) o'zlariga qaram mamlakatlardan muayyan soliq olmaganlar biroq, tobe mulklardan ularga sovg'a-salomlar yuborib turilgan. Droni "forslar savdogari" deyilishiga sabab, u birinchi bo'lib soliq tizimini joriy etganligidir. Shu bilan birgalikda, bosib olingan mamlakatlardan qimmatbaho sovg'a-salomlar (o'lja, hadya tarzida) olinishi bilan birga, katta miqdorda soliqlar ham to'langan. Haqiqatda, Doro qo'l ostidagi har bir mamlakat va viloyat ularga katta miqdorda tayinli soliq to'lab turganlar. Xususan, ahmoniyarlarga tobe okrugar (satraplik) dan o'n ikkinchisiga kirgan «baqtriyaliklardan» «egllar» gacha (Xo'janda atroflarida yashagan qadimgi urug' shunday atalgan) bo'lgan hudud yiliga 360 talant (1 kg talant 30 kg kumushga teng bo'lgan) to'lab turishi kerak bo'lgan.

Mil. avv. 329 yilga kelib, makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari boshlanadi. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqamayn) o'z qo'shinlari bilan miloddan avvalgi **329 yilda Oks** (Amudaryo)dan o'tib, O'rta

Osiyo hududlariga kirib keldi. Ammo O'rtasiyoda Aleksandr va uning istilochi qo'shiniga oson bo'lmadi. Ular O'rtasiyoda, uning erksevar xalqining qattiq qarshiliklariga uchradi va katta talofatlar evaziga uni bosib oldi. Aleksandr qanchalar kuchli va tajribali qo'shin va lashkarboshilarga ega bo'lishiga qaramay, O'rtasiyo xalqidan cho'chib qoladi. Chunki, O'rtasiyoning erksevar mahalliy tub joyli aholisining tashqi dushmanga qarshi nafrati kuchli edi. Uning qo'shinlari So'g'diyona va Ustrushona yerlarida juda qattiq qarshilikka duch keladilar. Janglarda Aleksandrning o'zi ham bir necha marta yarador bo'ladi. Mil. avv. 329-327 yillar davomida mahalliy So'g'diy aholi **Spitamen** (ba'zi manbalarda Spitaman tarzida uchraydi) boshchiligida yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, ularga juda katta talafot yetkazdi. Makedonskiy qo'shinlari hych qachon So'g'diyonadagidek qarshilikka uchramagan edilar.

Yuqorida qayd qilinganidek, So'g'diyonada mil. avv. 329 yil kuzida Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Shiddatli janglardan so'ng dushmanning osonlikcha bosib olmoqchi bo'lgan rejalarini puchga chiqardi. Ammo So'g'diyona hududlarida bosqinchilar qadami yetmagan joylarda qo'zg'olonchilar yashirilib olgan edilar. So'g'diyonaning deyarli barcha aholisi Spitamen tomonida bo'lib, uning g'alabalariga katta umid bog'lagan edilar. Aleksandr esa, mil. avv. 329-28 yillar qishlovini Baqtriyada (ba'zi manbalarda Navtakada deyiladi) o'tkazar ekan, vaqtni behuda ketkazmadi. U bu yerda Xorazin hukmdori Farasman bilan muzokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasini to'xtatildi.

Mil. avv. 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal'alar, tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Yunon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ammo mil. avv. 328-yilning oxirida Spitamen janglarning birida halok bo'ladi. U tajribali sarkarda sifatida bosqinchilarni ona-yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbiri ko'rdi, choralaridan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib dushmanning kichik xatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilar edi. Ammo Aleksandr harbiy kuch-qudrat jihatdan Spitamendan ustun edi.

Mil. avv. 323 yilda makedoniyalik Aleksandar vafot etganidan so'ng O'rtasiyo yerlari Salavka hukmronligi ostiga o'tadi (mil. avv. 306 yil). Salavkiylardan bo'lgan Antiox I davrida (mil. avv. 280-261 yy.) O'rtasiyo viloyatlarida tinch hayot boshlanib, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo-sotiq anchagina rivojlanadi. Mil. avv. III asming o'rtalariga kelib, salavkiylar davlatida taxt uchun o'zaro kurashlar avj olib ketadi. Natijada dastlab Parfiya, keyin esa **Yunon-Baqtriya** davlatlari salavkiylardan ajralib chiqadi. Mil. avv. 250 yilda birinchi Yunon-Baqtriya podshosi Diodod o'zini hukmdor, deb e'lon qildi va tangalar zarb etadi.

Yunonlar mustamlaka o'lkalarni boshqarishda barcha zaruriy choralar ko'rishga kirishadilar. Birinchi navbatda istilochilar mahalliy aslzodalar bilan til topish, ular bilan qon-qorindoshlik iplarini bog'lash, shu yo'l bilan mahalliy aholiga yaqinlashish choralarini ko'rish zarur ekanligiga katta ahamiyat beradilar. Bu masalada Aleksandning o'zi boshqalarga namuna bo'ldi. Uning buyrug'i bilan barcha harbiy boshliqlar, hatto oddiy jangchigacha mahalliy aholi qizlariga uylanib, qon-qorindoshlik iplarini bog'lashlari zarur edi. To'g'ri, ko'pchilik, ayniqsa oddiy askarlar uzoq davom etgan harbiy yurishlarda charchagan, ona vatani va oilasini sog'ingan, tezroq uylariga qaytishni istar edilar. Bu masalada bo'yin tovlaganlar jazolanganlar.

Mahalliy aholi bilan yaqinlashishning yana bir zaruriy chorasi sifatida aholi ma'naviy dunyosiga yunon xudolari ta'sirini olib kirish, diniy va dunyoviy siyosatni mahkama himoyasida olib borish, ellin madaniyatini ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalariga kirib borishini ta'minlashni davlat siyosatining bosh yo'li qilib oldilar. O'rta Osiyoning janubida, Shimoliy Afg'oniston va shimoliy-g'arbiy Hindiston hududlarini o'z ichiga olgan geografik kenglikda Yunon-Baqtriya davlatini tuzilishi bu muammolarni greklar foydasiga hal etilishida muhim rol o'ynadi.

Ahamoniylar imperiyasi va Markaziy Osiyo yerlari Yunon-makedonlar tomonidan bosib olingan Markaziy Osiyo madaniyatiga elinizm elementlari kirib keldi. Ozodlik xarakatini beshafqat mahv etgan Aleksandr yerli aholini ko'magiga muhtojligini seza boshladi. Vaqt o'tishi bilan u ongli tarzda barcha etnik to'siqlarni olib tashlashga, o'z saltanati hududida turli xalqlarni qorishib ketishiga hamda yagona madaniyat va til birligini qaror toptirishga undirdi. U o'z saroyida Sharq liboslari va udumlarini joriy etdi, turli etnik guruh vakillarining nikohlarini keng yo'lga qo'ydi, armiyasida sug'dlik va baqtriyalik qismlarni kiritdi, o'ttiz ming o'g'il-bolalarga yunoncha tarbiya berishga xukm etdi.

Shunday qilib Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyo mamlakatlarinig ellinlashtarishni boshlab berdi. Ellinistik jarayon salavkiylar davlatidan mustaqil bo'lgan Parfiya va Yunon-Baqtriya davlatida yuqori darajadagi rivoji bilan ajralib turadi. Yunon xarbiy manzilgohlari aholisining turmush tarzi va madaniyatini aks ettiruvchi ellinistik uslublar Yunon-Baqtriya shaharlarida ochib o'rganildi. Inshootlar tosh va xom g'ishtdan tiklangan. Ustunlar korinf usulibida ishlangan. Yunon-Baqtriya podshohligida teatr san'ati va musiqani rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Yunon-Baqtriya podshohligida madaniyat sinkretizmi (qorishliqligi) turli tillarni yonma-yon faoliyat ko'rsatishi, har xil yozuvlar tizimi va dinlarning o'zaro singib ketishida ham ko'rinadi. Eramizdan avvalgi III-II asrlarda oromiy, yunon-baqtriya yozuvlari keng ishlatilgan, yunon alifbosi asosida unga bitta har qo'shib (jami 25 ta) baqtriya yozuvi vujudga kelgan. Zardushtiylik xukmron din sifatida aholi yunon xudolari timsoliga sig'inish alomatlari paydo bo'lgan.

Ahamoniylar, Aleksandr yurishlari va hukmronliklari davrida g'arb va sharq o'rtasida jadal ichki va tashqi aloqalar o'tatilgan, buning barobarida ikki

tomonning o'zaro roziliklari munosabati bilan garchand har bir davlatning o'z soliq tizimlari mavjud bo'lsada, yetkazilgan harbiy-iqtisodiy zararni qoplash uchun o'ljalarni taqsimlash, boj-xiroj, tovon to'lovi emas, balki o'zaro mahsulot ayriboshlanganligi haqidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Bu davrda Eron va Turon hududlari eronlik va yunon hukmdolari tomonidan qator satrapliklar hamda viloyatlarga bo'lib idora qilingan, har bir ma'muriy-hududiy birliklar ma'lum soliqlar va o'lponlar yig'ish orqali qat'iy tarzda boshqarilgan, satrapliklarni boshqaruvchi hukmdorlar eron va yunon hukmdorlari tomonidan tayinlangan, soliq yig'ib olish ham ular tomonidan idora etilgan.

#### 4. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari va ular rivoji.

Mil. avv. III asrning o'rtalarida mustaqil davlat sifatida tashkil topgan Parfiya davlati hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Bu davlatning birinchi hukmdori Arshak bo'lib, u mil. avv. 247 yili taxtga o'tirgan. Mil. avv. 235 yildan boshlab, Parfiya podsholari o'z yerlari hududlarini kengaytirib bordilar.

Ammo Parfiya davlatining ulkan imperiyaga aylanib xalqaro siyosat maydoniga chiqishi Mitridat I hukmronligi bilan bog'liqdir. R. Murtazaeva rahbarligida, hammualliflar tomonidan yozilgan O'zbekiston tarixi kitobida qayd qilinishicha, o'ttiz besh yil (mil.avv. 171-137-yy.) hukmronlik qilgan bu podsho ko'plab harbiy yurishlar qilgan. Uning hukmronlik davrida g'arbga qilingan ko'p yillik urushlar, ichki nizolar va beqarorlik tufayli Salavkiylar davlati zaiflasha boshlagan edi. Bundan unumli foydalangan Mitridat I dastlab Ekbatanni, keyin esa Hindistonni bosib oldi. Mil.avv. 141-yilda Bobil bo'ysundirildi. Shu tariqa Mitridat I Parfiyani qudratli davlatga aylantirib, Arshakiylarning ko'pgina erkinliklarini qayta tikladi.

Shu tariqa milodning III asriga qadar **Parfiya** davlatiga Arshakiylar sulolasi hukmronlik qildi. Milodning 207-222-yillarida Parfiya davlati ikkiga bo'linib ketadi (213-y.). Shu davrda Parfiyadan janubi sharqda yangi davlat-sosoniylar davlati tashkil topadi. Tez orada sosoniylar ulkan Parfiya saltanatini ag'darib tashlaydilar. Shunday qilib, milodiy III asrning birinchi choragida sosoniylar arshakiylar hukmronligini tugatib, Parfiyada hokimiyatni to'la qo'lga oldilar.

Antik davrda Parfiya qishloq xo'jaligida yollanma ishchilar mehnatidan keng foydalanilgan. Mil. avv. III asr o'rtalaridan boshlab Parfiya davlati hozirgi O'zbekiston hududlarida joylashgan qadimgi viloyatlar – Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona bilan siyosiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlarni ayniqsa rivojlantiradi. Antik davrlarda jamiyat va davlatning asosiy harakatlantiruvchi kuchini va ishlab chiqarish asosini erkin dehqon jamoa a'zolari hamda qishloq oqsoqollari va ularning xususiy mulki tashkil etgan, shu bilan birga qishloq jamoalariga tegishli yaylovlar, chorva mollari ham mavjud edi. Parfiyaliklar besh asr davomida Hindiston, O'rta Osiyo va Xitoyning G'arb mamlakatlari bilan qilgan savdo aloqalarida vositachilik qildilar. Parfiyaliklarning yozuvi oromiy (Niso hujjatlari) yozuvi bo'lib, Zardushtiylik diniga e'tiqod qilishgan.



Antik davrlarda O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari nafaqat mintaqa davlatlari bilan, balki Xitoy, Hindiston, Eron, Vizantiya kabi davlatlar bilan ham jadal savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalari yo'lga qo'yilgan. Bunday aloqalar shubhasiz chet ellik savdogarlar, katta yer egalari, hukmdorlar, tadqiqotchilar hatto tarixchilarni ham o'lkaga qiziqishini orttirgan. Xususan, qadimgi grek va rimliklar O'rta Osiyoning tabiiy-geografik o'rni, aholisining turmush tarzi xususida ma'lumotlar berib o'tganlar, bu esa mintaqalar o'rtasida o'z davrida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanganligidan dalolatdir.

Antik davrda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan davlatlardan yana biri **Yunon-Baqtriya** davlatidir. Ushbu davlat hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi, Zarafshon vohasi, Afg'onistonning shimoliy, Turmanistonning sharqiy hudularida tarkib topgan. Mil. avv. 250-140, 130 yillar davomida Yunon-Baqtriya davlati mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lib, bu davrda Diodot, yevtidem, yevkratid kabi podshohlar hokimiyatni boshqarganlar. Davlatning markazi Baqtra shahri edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari bo'lgan. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlatiga asos solgan, o'zini shoh deb e'lon qilgan Diadot va uning o'g'li davrlarida bir muncha yuksaladi.

Bu jarayon Evtidem va evtidimiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Baqtriya davlati sarhadi keyinchalik Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron, shimoliy-g'arbiy Hindiston, Sind o'lkasi hududlarigacha kengaygan. Uning xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ham ancha yuksak darajaga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Davlatning poytaxti xalqaro karvon savdosi - Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashganligidan, unda savdo-hunarmandchilik sohalari bir muncha rivoj topgan.

Mamlakatning Eron, Xitoy, Hindiston, singari o'sha davrning rivojlangan davlatlari bilan olib borgan savdo-tijorat munosabatlari asosan mana shu shahar orqali o'tgan. Shuningdek, eski Termiz, Marv, Qo'hnaqal'a, Marokanda (Samarqand) singari shaharlarning ham savdo-sotiqning yirik markazlari sifatidagi mavqeyi yuksak bo'lgan.

Yunon-Baqtriya davlati o'zining pul birligiga ega bo'lgan. Oltin, kumush va misdan tanga pullar zarb etilib muomalaga chiqarilgan. Bundan tashqari bu mamlakatda turli xil don ekinlari, serunum erlarida uzumzor bog'lar ko'p bo'lgan, sharbatli mevalar etishtirilgan. Bu hol unda dehqonchilik madaniyati o'sganligidan, sun'iy-sug'orish inshootlari tizimi keng tarmoq otganligidan yaqqol dalolatdir. Garchand Yunon-Baqtriya davlatida ayrim quldorlik munosabatlari mavjud bo'lsa-da, biroq unda erkin dehqon jamoalari mehnati salmoqli rol o'ynagan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan tez o'sishiga, shaharlar hayotining rivojlanishiga muhim turtki bergan.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib bir qator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergan keskin o'zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi. Buning muhim sabablaridan biri- qo'shni Parfiya davlatining kuchayib ketishi va o'z hududlarini Yunon-Baqtriya hisobiga kengaytirishga intilishi bo'ldi. Bu hol Yunon-Baqtriya davlatini mushkul ahvolda

solib qo'ydi. Tez orada Hind erlari hamda Sug'diyona uning tarkibidan ajralib ketdi. Mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlariga esa sharqdan kelgan ko'p sonli katta yuechji qabilalarining hujumi kuchayib, ular asta-sekin Farg'ona, Surxondaryo hududlari sari siljiy boradi.

Qadimgi davlatchilik hukmronlik qilgan kezlarda xamda antik davrlardayoq So'g'ciyona, qadimgi Xorazm, Baqtriya, qadimgi Farg'ona, Qang' davlat birlashmalari chet davlatlar bilan jadal savdo-iqtisodiy munosabatlar o'matar ekanlar, harbiy yurishlar mahalida mag'lub davlat g'olib tomonga o'lpon tarzida katta miqdorda soliqlar to'lashi bilan birga, garovga ko'plab miqdorda asirlar va qullarni ham hadya etganlar. Xususan, chet elliklarni o'lkada yetishtirilgan qishloq xo'jalik, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari, birgina shisha, qog'oz, jun, qorako'l teri, qovun, tarvuz, ot, tuya kabilar e'tiborni tortgan.

Masalan, yuqorigi paragraflarda qayd qilinganidek, qadimgi Farg'ona turli davr manbalarida Davar (Dovon), Parkana kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Ya'ni, qadimgi Farg'onada mahalliy kadxudotlar, vispati va zantupati maqoyeidagi hokimliklar siyosiy uyushmasidan iborat Davan davlati tarkib topdi.

Mil. avv. III asrlar boshlarida paydo bo'lgan **Qang' davlatining** hududlari Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar edi. Mil. avv. II-I asrlarda Qang' davlati yerlari kengayib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar va Xorazmni bir qismini o'z ichiga oladi. Antik davrida Qang' davlati ancha rivojlangan davlat edi. O'troq aholi asosan vodiylarda yashab, dehqonchilik, Bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Qang' hukmdorlarining markaziy shaharlari ikkita edi. Ular yozni O'trorda (hoz. Aris va Turkiston oralig'ida), qishloqni esa Qang'a (hoz. Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida) shaharlarida o'tkazar edilar.

Qang' davlati aholisi yarim o'troq, yarim ko'chmanchi sug'diy va turkiy qabilalarning davlati edi, ya'ni O'rta Osiyo hududlarida ikki xil tilda (turkiy va sug'diyy) so'zlashuvchi qabilalarning ilk bor tarkib topgan davlati edi. Qang' davlati doirasida, uning markaziy mintaqalari-Sirdaryoning o'rta havzasida, Toshkent vohasida yangi etnos-qang'ar elati tarkib topadi. Uning etnik asosini mahalliy sug'diylar va Sirdaryo bo'yi turkiy qabilalari tashkil etganligi tarixiy manbalarda uchraydi. Qang' aholisi asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanganlar. Ular arpa, bug'doy, tariq, no'xat, sholi va boshqa donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtzor va uzumzorlari ko'p bo'lgan. Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'arlar asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Davlat bevosita tutash bo'lgan Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, misgarlik hunarlarining rivojlanishi uchun kerakli ma'danlar bo'lgan. Bu joylardan juda ko'plab mis, temir, kumush va boshqa metallar olingan. Ustalar turli metallarni bir-biriga qo'shib, mustahkam qurollar yasashni ham o'zlashtirganlar. Shuningdek, kundalik ehtiyoj buyumlari ishlab chiqarilib ichki va tashqi savdo uchun turli mahsulotlar tayyorlangan.

Qang' shaharlari qalin va baland devorlar bilan o'ralgan. Devorlarning tashqarisida qal'a atrofi aylantirilib chuqur va keng qilib handaq qazilgan. Shaharlar ichida mustahkam istehkom (ark) va shahristonlarning ham baland mudofaa devorlari, bir necha darvozalari bo'lgan. Yirik shaharlardan tashqari, Toshkent vohasida yuzga yaqin aholi yashaydigan katta va kichik qo'rg'onlar ham mavjud bo'lgan. Bu davrda qang'arlarga xos madaniyat Qovunchi madaniyati tarkib topadi.

Antik davrda tarkib topgan yana bir viloyat **Choch o'lkasi**dir. Choch o'lkasi haqida yozma ma'lumotlar miloddan avvalgi I-ming yillikning oxiri, 2- ming yillikning birinchi yarmidan boshlab uchray boshlaydi. Ammo, Choch atamasi birinchi bor milodiy III asrda sosoniylar podshosi Shafur I ning "Zoroastra Ka'basi" da, unga tobe mamlakat va viloyatlar ro'yxatida tilga olinadi. Chochning qadimgi aholisi O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari dehqonchilik madaniyatlari ta'sirida sekin-asta o'troq hayotga o'tib borayotgan Turon turlari-saklarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi III asrga kelganda, bu o'lkada qadimgi dehqonchilik qishloqlari asosida ilk shaharlar qad ko'tara boshlaydi. Atrofi mudofaa inshootlari bilan o'rab olingan ana shunday qishloqlar dastlab Chirchiq daryosining o'rta va kuyi havzalarida paydo bo'lib, uning aholisi tarkibini sug'diy va turkiy tilli qabilalar tashkil etdi.

Mil. avv. I asrga kelib, O'rta Osiyo hududlarida o'sha davrning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan **Kushonlar davlati** tashkil topadi. Kushon davlatiga jangovar xunn qabilalarining ta'qibi natijasida Shimoliy-sharqdan Yunon-Baqriya davlatiga miloddan avvalgi 140-130 yillarda bostirib kirgan yuechji qabilalari asos solganlar. Sug'diyona va Baqriyaga kelib o'mashgan *yuechjilar* xyumi, shuanji, guyshuan, xi - se va dumi (dyumi) kabi yirik, bir-biriga qarindosh qavmlardan iborat ediki, ular o'rtasida hokimiyat uchun kurashda Guysuan qavmi (xonadoni) g'olib chiqadi va Guysuan (Kushon) podsholigiga asos solinadi.

Qadimgi xitoy manbalariga ko'ra, yuechji qabilalari miloddan avvalgi IV-III asrlar chegarasida Mongoliya hududida yashovchi xunnlarning qo'shuilari bo'lishgan. Miloddan avvalgi III asming ikkinchi yarmiga kelib, yuechjilar juda katta kuchga aylanganlar. Xunnlarning boshlig'i ularga o'lpon to'lashga majbur bo'lgan. Ammo bir oz vaqt o'tgach xunnlari sardori Maodun xunlarni kuchli hokimiyat ostida birlashtirib, bu ko'chmanchi qabilalarni qudratli kuchga aylantirdi. Miloddan avvalgi 176 yilda xunn lashkarboshilaridan biri yuechjilarni jangda mag'lubiyatga uchratadi. Maodunning o'g'li Laoshin mil. avv. 174 yilda yuechjilarni yana tor-mor keltiradi va hukmdorini ham o'ldirib bosh chanog'idan may qadaxi yasattiradi. Mag'lubiyatga uchragan ko'chmanchi yuechjilar g'arbiga-Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo hududlariga kirib kela boshlaydilar. Ammo bu hududlarda yuechjilar xitoy manbalaridan "usun" deb ataluvchi ko'chmanchi chorvador qabilalar bilan to'qnash keladilar. O'zaro urushlarda oxir oqibat usun qabilalarining qo'li baland kelib, yuechji qabilalari Tyaushan, Farg'ona va Pomir tog'lari osha Shimoliy G'arbiy Hindiston va Baqriya yerlariga kirib keladilar.

Yuechji qabilalari haqida ma'lumotlar faqat qadimgi va o'rta asr xitoy manbalarida saqlangan. Qadimgi yunon, rim tarixchilari (Strabon, Pompey Trog) asarlarida esa bu nom umuman uchratilmaydi. Chunki, ular yuechjilarni boshqa nomda atagan bo'lsalar kerak. Yuechjilarning kelib chiqishi haqida tadqiqotchilar orasida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar yuechjilarni massagetlarning avlodi, deb hisoblasalar (S.P.Tolstov), ba'zilar ularni toxarlarning avlodi deb hisoblaydilar (I.Markvart). O'zbek olimi akademik A.Asqarov fikriga ko'ra, yuechjilar skif-sak qabilalari ittifoqiga kiruvchi toxarlarning Xitoycha nomlanishidir. Yuechjilarning geografik joylashuvi, moddiy va madaniy hayot darajasiga qarab turkiy qabilalardan, deb hisoblash mumkin. Jumladan, yapon olimi K.Yenoki "miloddan avvalgi III asrlardagi yuechjilar joylashgan o'rmi va xo'jalik hayotiga ko'ra VI asrdagi turklar bilan juda o'xshash", deb qayd qiladi.

Umuman yuechji kushon podsholarining shajarasi qabila sardori Geraydan boshlangan, deyiladi. Uning vorisi Kudzula Kadfiz (15-51 asrlar) va Vima Kadfizlar davrida (51-78) kushon podsholari mustaqil davlat sifatida o'z nomlarida mis, oltin va kumush tangalar zarb etishni boshlaydilar. Kanishka davrida (78-123 asrlar) Hindistonning janubiy viloyatlari, Xorazm, Choch, Farg'ona va hatto G'arbiy Xitoy ham Kushon dvlati tarkibiga kiritiladi. Buddizm dini davlat diniga aylantiriladi. Davlatning poytaxti Dalvarzintepadan (Surxondaryo viloyatida) Peshavor(Hindiston-Pokiston)ga ko'chiriladi. Kanishka podsholik qilgan davrda Kushon saltanati Osiyodagi eng yirik davlat darajasiga ko'tarilgan.

Nuimizmatik manbalarda Kanishkadan keyin Vasishka (4 y podsho bo'lgan), Xuvishka (32 y podsho bo'lgan), Vasudeva (34 y podsho bo'lgan) kabi podsholarning nomlari saqlangan bo'lib, ular ushbu davlat tarixida keskin ajralib turadigan iz qoldirishmagan. Milodiy IV asrning oxiriga kelib ichki nizolar, g'arbdan sosoniylar davlati va shimoldan ko'chmanchi turkiy qabilalar bergan zarbalar natijasida Kushon podsholigi batamom yemiriladi va barham topadi.

Dastlabki hukmdorlar Kadfiz I va Kadfiz II lar davlat yerlarini kengaytirib, pul islohoti o'tkazadilar. Milodiy II asrga kelib Kushon davlati yerlari Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkistondan iborat edi. Kushon hukmdorlari, xususan Kanishka (II asr) davrida savdo-sotiq, ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlanadi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik ham ancha taraqqiy etadi. Bu jarayonda Buyuk Ipak yo'lining ahamiyati katta bo'ldi. Kushon davlatida asosiy din buddaviylik bo'lib, yunon, Zardushtiylik aqidalariga ham e'tiqod qilinar edi.

Antik davr O'rta Osiyo xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mil. avv. IV-II asrlar oromiy yozuvi asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ldi. Kushon davriga kelib yana bir yozuv Kushon (Baqtriya) yozuvi shakllanadi. O'rta Osiyo va Afg'oniston hududidagi arxeologik tadqiqotlar antik davr madaniyatining gullab yashnaganidan dalolat beradi. Ayritom va Ko'hua Termizda Budda ibodatxonalari ochilgan. Fayoztepa,

Quva, Holchayon, Dalvarzintepa kabi ko'hna shaharlarda ham saroylar, ibodatxonalar ochilib, ular yuksak madaniyatga ega ekanligi kuzatilgan.

### 5. Qadimgi savdo yo'llari va Buyuk ipak yo'lining shakllanishi hamda rivojlanishi.

Ma'lumki, Buyuk ipak yo'li qadimgi davr, o'rta asrlarda sharq va g'arbni bog'lovchi asosiy tarmoq hisoblangan. Davlatlarda iste'mol buyumlari, xususan, kiyim-kechak, oziq-ovqat bozori ancha taraqqiy etgan edi. Qadimgi xalqlarning har tomonlama rivojlanishida savdo va tranzit yo'llarning ahamiyati katta bo'lgan. Tarixiy adabiyotlardan ma'lum bo'lishicha, Buyuk ipak yo'li tashkil topmasdan ancha ilgariyoq Qadimgi Sharq va O'rta Osiyo hududlarida o'zaro almashinuv yo'llari mavjud bo'lgan.

Bronza davridagi (mil. avv. III—II ming yilliklar) ana shunday yo'llardan biri «*Lojuvard yo'li*» deb atalib, uning bir tarmog'i Badaxshon, Baqtriya va Marg'iyona hududlarini Xorazm, So'g'd, Markaziy Qozog'iston va Ural bilan bog'lagan. Yana bir tarmog'i esa, Baqtriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Bu yo'l Pomir tog'laridan boshlanib, Eron, Old Osiyo, Misr orqali o'tgan. Badaxshon Lojuvardining Hind vodiysi, Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaho toshning Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi yo'llardan yana biri, Eron ahmoniylarining yo'li bo'lib, bu yo'lning bir tarmog'i mil. avv. VI—IV asrlarda kichik Osiyo shaharlarini hamda o'rta yer dengizi bo'yidagi Efes, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'lagan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron-Baqtriya orqali So'g'diyona, Toshkent vohasi va Qozog'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan. Tarixiy adabiyotlarda bu yo'l «*Shoh yo'li*» deb ataladi.

Mil. avv. II-I asrlarga kelib Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li paydo bo'ladi. Bu yo'l **Buyuk ipak yo'li** deb atalib, umumiy uzunligi 12 000 km dan iborat edi. Ilk o'rta asrlarga kelib, ipak yo'lining yanada rivojlanganligini kuzatish mumkin. O'z davrida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lning dastlabki tarmog'i Xitoydan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Mesopotamiya orqali O'rta yer dengizigacha cho'zilgan.

Aslida Buyuk ipak yo'li atamasi ushbu yo'ldan tashilgan qimmatbaho tovar - ipak bilan bog'liqdir. Buyuk ipak yo'lini tarixiy, geografik va madaniy jihatlarini ilmiy o'rganish amalda ko'plab mamlakat olimlari tomonidan XIX asrning 2-yarmidan boshlangan. Uni tadqiq etishga G'arbiy Yevropa, Rossiya va Yaponiya olimlari salmoqli hissa qo'shdilar. Xususan, Yaponiyada «Buyuk ipak yo'li ensiklopediyasi» nashr qilindi. 1877 yilda mashhur nemis olimi **K. Rixtgofen** o'zining «Xitoy» nomli yirik ilmiy asarida ulkan yevroosiy materigining turli qismlarini bog'lovchi yo'llar tizimini «ipak yo'li», deb atagan, keyinchalik «Buyuk ipak yo'li» atamasi qabul qilingan.

Markaziy Osiyo va Qadim Sharq mamlakatlarining iqtisodiy-madaniy aloqalarida muhim o'rin tutgan aloqa-savdo yo'llari ilmiy adabiyotlarda turli ramziy nomlar bilan atalib kelinayotganligini ko'ramiz. Yuqorida tilga olinganidek, ular ichida xalqaro aloqalarda muhim o'rin tutgan mahsulotlar nomi bilan ataluvchi yo'llar (Lojuvard yo'li, Oltin yo'li, Ipak yo'li, Nefrit yo'li), tarixiy shaxs faoliyati (Shoh yo'li) yoki geografik hudud nomi va xususiyati (Dasht yo'li, Badaxshon yo'li, Samarqand yo'li, Kavkaz yo'li va boshqalar) bilan bog'liq nomlarni ko'rishimiz mumkin. Ahamiyatiga ko'ra transmintaqaviy, mintaqalararo va mahaliy yo'llarga bo'linadigan ushbu kommunikatsiya tizimi faoliyatini o'rganish bo'yicha bir qator ishlar olib borilgan.

Mil. avv. II asrgacha ham Sharq bilan G'arb o'rtasida O'rta Osiyo karvon yo'llari orqali amalga oshirilgan aloqalar mavjud bo'lgan. Bunga Kichik Osiyoda tayyorlangan va Tog'li Oltoydan topilgan, buyumlar, Afg'oniston va O'rta Osiyodan topilgan kulolchilik buyumlari misol bo'lishi mumkin. Aleksandr Makedonskiy saltanati tuzilishi bilan bu aloqalar to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Buyuk ipak yo'lining sharqiy qismini barpo etishda sug'diylar katta rol o'ynaganlar. Aleksandr tomonidan Sug'diyona mamlakati istilo etilishi bilan, ko'plab so'g'diylar sharqqa tomon ko'chganlar va Buyuk ipak yo'lining markaziy qismini —Markaziy Osiyodan tortib, to Xitoyning Chanan shahrigacha bo'lgan oraliq masofada savdo manzilgohlari bunyod etganlar. O'z navbatida Xan imperiyasi mil.av. I-ming yillik oxirida o'z hududini O'rta Osiyo tomon kengaytirish siyosatini yurguzib, bu yo'nalishga alohida e'tiborini qaratadi va bu yo'l haqida ma'lumot to'plash va diplomatik maqsadlarida elchi **Chjan Szyanni** yuboradi.

Chjan Szyan - Xitoyning buyuk sayoxatchisi va O'rta Osiyoga kelgan birinchi elchisi mil.avv 140 yilda "G'arbiy o'lkalar"ga ittifoqchi topish maqsadida elchi sifatida jo'natilgan. Elchilik missiyasi (a'zolari 100 dan ortiq bo'lgan) boshlangan birinchi oylardayoq xunlar tomonidan to'xtatilib, Chjan Szyan xunlar mamlakatida 10 yil davomida "asirlikda" qolib ketadi, bu vaqt davomida u xun ayoliga uylanib, o'g'illik ham bo'ladi. U safdoshlari bilan qochishta muvaffaq bo'lgach, g'arbga borib, Davon davlatiga (Farg'ona vodiysiga) yetib keladi. Bu yerda maxsus yo'lboshlovchilar (kuzatuvchilar) hamrohligida Qang' davlatiga va Baqtriyaga kelishga muvaffaq bo'ladi. Bu yerda Chjan Szyan Parfiya, Hindiston, Rim imperiyasi va boshqa mamlakatlar haqida muhim ma'lumotlar to'plashga erishadi. Baqtriyadan Pomir tog' dovonlari orqali orqaga qaytgan Xitoy elchisi Xo'tanda (Sharqiy Turkiston) yana xunlar qo'liga tushib, bu yerda 1 yil qolib ketadi. Xun podshosi o'limidan keyin boshlangan tartibsizliklardan foydalanib, xotini va yo'lboshlovchisi Tanfu bilan qochishga va mil.avv. 127 yilda yurtiga ketishga erishadi.

Shu tariqa Chjan Szyanning sayohati 13 yil davom etib, sayohat tafsilotlari mahsus xisobot tarzida Imperatorga topshiriladi (Chjan Szyan hisoboti tarixchi Sima Syanning "Tarixiy yilnomalar" asariga kiritilgan). Xunlarga qarshi kurashda ittifoqchilar topish vazifasi bajarilmagan bo'lsada, bu sayohat xitoyliklarning "G'arbiy o'lkalar" va ularga olib boruvchi yo'llar haqidagi tasavvurlarini

kengaytirdi. Bu sayohat Xitoy va O'rtasiy o'rtasida izchil aloqalar boshlanishiga va tegishli yo'llar faoliyatiga asos bo'ldi.

Ammo O'rtasiy yer dengizining sharqida joylashgan Gierapol shahridan Xitoygacha bo'lgan masofa bo'ylab tuzilgan dastlabki batafsil xarita makedoniyalik savdogar May Titsian (mil. 100 y.) tomonidan tuzilgan. Bu ma'lumotlar Klavdiy Ptolemeyning «Geografik qo'llanma»sida saqlangan. Ptolemey esa o'z navbatida bu ma'lumotlarni tarixchi Marinning taxm. 107—114 yillar oralig'ida yozilgan va bizgacha yetib kelmagan asarlaridan olgan.

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, Buyuk ipak yo'li ikki katta qismga bo'lingan Gierapoldan Toshminor (Toshqo'rg'on)gacha va Toshminordan Serikagacha borgan. Yo'lning O'rtasiy qismi Ariya (hozirgi Turkmanistonning janubi va Afg'onistonning shimoliy-g'arbida joylashgan qadimgi viloyat) dan boshlangan. Ariyadan yo'l shimolga Marg'iyonadagi Antioxiyaga (ko'hna Marv shahri harobasi) borgan, so'ngra sharqqa burilib, Baqtriya (Shimoliy Afg'onistondagi Balx shahri)ga borgan. Bu yerdan yo'l shimol tomon yo'nalib, Termiz atrofida Amudaryodan o'tgan va so'ngra ikkiga yo'nalgan.

Birinchisi, shimol bo'ylab Marokanda (Samarqand)ga va u yerdan Farg'onaga yo'nalgan. Ikkinchisi, ya'ni janubiy qismi esa Surxondaryo vodiysi bo'ylab, hozirgi Qorateginga olib borgan. Har ikki yo'nalish ham Toshminorda tutashgan. Uni ayrim olimlar Toshkent hududida, boshqalari Oloy vodiysida joylashgan, deb hisoblaydilar. Toshminordan so'ng yo'l O'rtasiy hududidan tashqariga chiqib, Irkeshtom orqali yo'l buyuk mo'g'ul sahrosi, Takla Makon cho'lidan o'tib, Dun'xuanga, so'ngra Xitoyning qadimgi poytaxtiga borgan. Bu yerdan yo'l ehtimol shimoliy-g'arbiga Koreya va Yaponiyaga o'tgan bo'lishi mumkin.

Mil. av II-III asrlarda Buyuk ipak yo'lining Yettisuv orqali Choch (Toshkent vohasi) ga, so'ngra Poykend, Marv bo'ylab Xurosonga eltuvchi shimoliy qismi muhim ahamiyat kasb etgan. Ayni shu davrda Eron orqali Vizantiyaga ipak olib o'tish taqiqanganligi munosabati bilan Sug'd savdogarlari Vizantiya va Turk xoqonlari vositachiliklarida Sug'd va Xorazmdan Kaspiy dengizini aylanib o'tib, Shimoliy Kavkazdagi donlardan oshib Qora dengiz va keyinchalik Konstantinopolgacha olib boruvchi yangi yo'l tarmog'ini ochadilar.

Qadimgi Xitoydagi Sian shahri (Shensi viloyati) «Ipak yo'lining boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Yunon muxarrirlarining ma'lumotlariga qaraganda, **Xitoy ipagi** Shimoliy Qora dengiz tumanlarida va Yaqin Sharq mamlakatlarida miloddan avvalgi II asrdan boshlab ma'lum. O'rtasiy hududlarida esa Sopollitepada olib borilgan izlanishlarga qaraganda, ipakchilik janubiy viloyatlarda bronza davridan (miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalaridan) mavjud bo'lgan.

Yuqorida Markaziy Osiyo-Xitoy o'rtasidagi ilk aloqalarga to'xtalganda, Xitoy ipak buyumlari g'arbiy o'lkalarga mil.avv. I ming yillik o'rtalaridayoq chiqarila boshlanganligini va tegishli savdo yo'llari yo'nalishlari shakllana boshlaganligini qayd etdik. Lekin ipak yetishtiruvchi asosiy mamlakat bo'lgan

Xitoyliklar "G'arbiy o'lkalar" deganda, o'z mamlakatlarining bevosita g'arbida joylashgan hududlarni, ya'ni hozirgi Sharqiy Turkiston yerlarini tushunishgan. Keyinchalik qadimgi xitoyliklarning geografik bilimlari oshib borishiga mos ravishda, "G'arbiy o'lkalar" Markaziy Osiyo (O'rta Osiyo), Hindiston va boshqa mamlakatlar hisobiga kengayib bordi.

Buyuk ipak yo'lining Shimoliy tarmog'i (Beydao) Markaziy Osiyoning ichki hududlari orqali o'tgan. Bu yo'nalish "Shimoliy tog'" - Tyanshanning sharqiy tizmalari yonbag'rlari bo'ylab daryo oqimi yo'nalishida Qashg'arga, Tyanshan tog'idagi dovon orqali Davon (Farg'ona)ga, Qang'ga va Ansiga borgan.

Xitoyning yirik strategik harbiy-siyosiy maqsadlarini, xususan, ichki va tashqi xavfni (birinchi galda, shimoldagi ko'chmanchi xun qabilalari xujumlarini) bartaraf etish, saltanat hududini bosqichma-bosqich kengaytirib borish va boshqa vazifalarni amalga oshirishda asosiy kuch sifatida foydalanish bo'lgan. Xitoy tezkor otlq qo'shinlari uchun zarur bo'lgan Farg'onaning mashhur "samoviy otlari"ga ega bo'lish rejasi ham muhim rol o'ynagan. Ammo bu reja ish bermagach, bu maqsadga kuch bilan erishish uchun **Dovon yoki Davan** (Farg'ona)ga uyushtirgan harbiy yurishlari ham bu ehtiyojning Xitoy uchun tutgan ahamiyatidan dalolat beradi.

Ammo Xitoy Farg'ona "samoviy otlar"ini qo'lga kiritishga erishadi. Tuzilgan tinchlik sulhiga ko'ra, farg'ona (dovon) liklar Xitoyga 3000 ta biya va otlarni berishga majbur bo'lishgan. "Bu qo'shinni oziq-ovqat (Xitoy qo'shini harbiy safarda, asosan, qaynatilib, quritilgan guruch bilan ta'minlangan) bilan ta'minlashda yengillik bo'lishi uchun amalga oshirilgan.

Umuman, o'tmishda ushbu yo'l chorrahasida joylashgan mamlakatlarning Markaziy Osiyo bilan aloqalari muhim siyosiy, iqtisodiy va savdo ahamiyatiga ega bo'lgan. Ammo Markaziy Osiyoga keluvchi yo'nalishlarida dastlabki hudud sifatida Farg'ona vodiysi muhim o'rin tutgan. Chunki, ushbu nuntaqa Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi etnomuloqot hududi sanalgan. Bu hudud orqali o'tgan tranzit savdo yo'llari yo'nalishlari bo'yicha keyingi yillarda qator yangi ma'lumotlar paydo bo'ldi. Ularning taxliliga asoslanib, Markaziy Osiyodagi yirik shahar va qishloqlarning bu transmintaqaviy aloqa yo'lida tutgan o'rni va ahamiyati muhim ekanligini qayd etish o'rinli.

Demak, mil. avv. II asrda paydo bo'lib, milodning XVI asriga qadar faoliyat ko'rsatgan Buyuk ipak yo'li shu davr ichida Sharq va G'arb xalqlarining keng miqyosidagi o'zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yo'l orqali aloqalar qilgan qadimgi xalqlarning o'zaro hamkorlik, almashinuv va madaniyatlarining boyib borishi, tinchlik va taraqqiyot uchun asos bo'lib xizmat qildi. YUNESKO tomonidan «Buyuk ipak yo'li-muloqot yo'li» dasturining ishlab chiqilishi Yevropa va Osiyodagi ko'plab davlatlarning ilmiy-madaniy faoliyati uchun yo'nalish bo'lmoqda.



## **6. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi xususida. O'zbekiston milliy mustaqilligi yillarida etnik holat, millatlararo do'stlik va hamjihatlik.**

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqining shakllanish tarixi juda uzoq davom etgan etnogenetik jarayonlar mahsulidir. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganishning dolzarbligi va uning ahamiyati shundaki, olingan nazariy bilimlar orqali o'zbek xalqining kelib chiqishi va uning xalq, millat bo'lib shakllanish tarixiy jarayonlari haqida talabalarga zarur tushunchalar beriladi. Ularni vatanparvar, o'z yurtiga sadoqatli qilib tabiiylash, ular ongida milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, har bir inson u ziyolimi, olimmi, talabami, oddiy fuqaromi, kim bo'lishidan qat'iy nazar o'z ota-bobolari va ajdodlarining kelib chiqishini, mintaqada uzoq davom etgan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar va ularning tub mohiyatini to'g'ri anglashlari lozim.

Zero, o'zbek xalqining kelib chiqishi ham uzoq davom etgan turli etnomadaniy omillar ta'sirida shakllangan. Bu xususda o'zbek olimlaridan akademik Ahmadali Asqarov, K. Shoniyozovlarning eng so'ngi ilmiy ishlanmalari doirasidagi ilmiy-nazariy konsepsiyalari muhim o'rin tutadi. Xususan, Ahmadali Asqarovning fikricha, etnogenetik jarayon, ya'ni o'zbeklarning etnogenezi **bronza davrining so'ngi bosqichlaridan boshlanib, XI asrgacha davom etdi va u g'arbiy qoraxoniylar davlati doirasida, XI-XII asrlar davomida o'zbek xalqi uzil-kesil shakllandi.** Shundan so'ng, o'zbek xalqining etnik tarixi boshlanadi. O'zbeklarning etnik tarixi davomida, unga keyinroq qo'shilgan etnik komponentlar uzil-kesil shakllangan o'zbek etnosi tarkibini deyarli o'zgartirib yubora olmaganlar, balki uning tarkibida etnografik guruhlar sifatida uzoq vaqtlar yashab, ma'lum bir tarixiy davrdan so'ng etnos tarkibiga singib ketganlar.

O'zbek xalqining millat tarixi esa XIX asr oxiri - XX asrning boshlaridan boshlanadi. Millatning shakllanishi xalqning tarkib topishi kabi uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo'lib, millat etnik tarixning eng yuksak yuqori cho'qqisi, kamolat bosqichiki, bu bosqichga ko'tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi. U suveren davlat sifatida o'zining ichki va tashki siyosatini mustaqil yuritadi, umum millat tili davlat tili maqomini oladi. Uning davlat chegaralari qat'iy, dahlsiz bo'lib, jahon hamjamiyati tomonidan tan olinadi, millatning o'zlikni onglash darajasi yuksak, milliy g'urur, vatanga fidoyilik, ona zamin va xalqiga sodiqlik millat fuqoralarining hayot mazmuniga, kundalik turmush tarziga aylanadi. Millatga xos milliy mentalitet shakllanadi, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat millatning hohish-irodasini bajaruvchi jonli mexanizimga aylanadi.

Akademik A. Asqarov o'zbek xalqi etnogenezigaga bag'ishlangan so'nggi yillardagi ishlaridan birida har bir xalq etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda quyidagi nazariy va ilmiy metodologik tamoyillarga amal qilish talab etilishini ko'p bora ta'kidlaydi. Ular quyidagilardir:

- **birinchidan**, etnogenez va etnik tarixni o'rganishda tadqiqotchi birinchi navbatda o'rgananyotgan xalq etnogenezi qachondan boshlanganligini aniqlab olmoq' i kerak. Chunki etnos faqat kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida paydo bo'ladi. Etnogenezning boshlang' ich nuqtasi esa etnosning qadim zamonlarda yashagan «ajdodlariga» borib taqaladi. Bu jarayon mil. avv. II ming yillik oxirlarida yuz berdi;

- **ikkinchidan**, etnos bu biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyoti ma'lum bir bosqichining hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi. yer yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko'p etnik qatlamlidir. Darhaqiqat, o'zbek xalqi etnogenezining ilk bosqichlaridan, to xalq sifatida shakllanib bo'lguniga qadar uning asosiy tarkibini tashkil etgan mahalliy (avtohton) so'g'diy-xorazmiy va qadimgi turkiyzabon qatlamlardan tashqari o'ziga turli davrda har xil miqdorda mahalliy va tevarak atroflardan kelib qo'shilgan etnik guruhlarini singdirib bordi;

- **uchinchidan**, har bir xalqning etnik tarixini o'rganish, etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichidan boshlashni taqozo etadi. Chunki etnik birlikning paydo bo'lishi, rivojlanishi va uning etnosga aylanishi qadim zamonlardan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan butun bir tarixiy jarayondir;

- **to'rtinchidan**, har bir xalqning etnik tarixi bilan shug'ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang' ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga xos etnik belgi va alomatlarini aniqlab, o'rganib borish talab etiladi;

- **besinchidan**, etnogenetik jarayonni o'rganishda masalaga har tomonlama yondoshish, ya'ni etnogenezga aloqador fan yutuqlaridan foydalanish muammo yechimiga ob'ektiv ilmiylik bag'ishlaydi. Etnogenez muammolarini hal etishda foydalanilayotgan birilamchi manbalarning nisbati va xususiyatini bilish muhimdir. Bu manbalar antropologiya, arxeologiya, etnografiya, yozma yodgortiklar, tilshunoslik, epigrafika va boshqalardir.

Agar o'zbek xalqi shakllanishining qadimgi va o'rta asrlar davriga e'tibor qaratilsa, O'rta Osiyo xalqlari tarixi hamda ijtimoiy-siyosiy hayotida turkiy etnik guruhlar juda katta ahamiyatga ega bo'lganligi va bu qatlamning ildizlari anchagina qadimiy ekanligi arxeologik ma'lumotlar asosida isbotlanganligiga guvoh bo'lamiz. Qadimgi davrning bronza bosqichiga kelib, ajdodlarimiz hayotida tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlarning ildizi miloddan avvalgi III-ming yillikning ohirgi choragida har ikki dunyoda, ya'ni qadimgi dehqonchilik va ovchi-baliqchi qabilalar jamoalarida bir vaqtda yuz beradi. Qadimgi dehqonchilik jamoalarida iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalanish yuz beradi, mintaqada yangidan yangi mahalliy markazlari paydo bo'la boshlaydi. Qadimgi Baqtriya hududlaridan ilk shaharsozlik madaniyatining kurtaklari tarkib topadi.

Shu mintaqaga xos sun'iy sug'orma dehqonchilik va nisbatan rivojlangan hunarmandchilik xo'jaligining Sopoli madaniyati vujudga keladi. Mazkur

madaniyatlar bilan bir davrda mil. avv. II–ming yillikning birinchi yarmida Murg'ob vohasida Kaunchi, Gonur manzilgohlari tarkib topadi. Janubiy O'zbekistonning Sopollitepa va Jarqo'ton kabi shahar tipidagi manzilgohlar vujudga keladi. Bunday madaniy markazlarning shakllanishi mil avv. Birinchi ming yilliklar birinchi yarmida Qadimgi Baqtriya davlatining tarkib topishiga turtki bo'lgan.

O'rta Osiyoning bronza davrida keng tarqalgan asosiy aholisi ekanligi ular tarixiy adabiyotlarda "tozabog'yob", "qayroqqum" yoki "andronova madaniyati" sohiblari bo'lgan. Ilk temir davridan boshlab (mil. avv. IX-VII asrlar), o'lkamizning qadimgi dehqonchilik vohalarida yashovchi o'troq aholi o'zlari yashab turgan hudud nomlari bilan atala boshlaganlar. Xususan, ular So'g'diyonadagi-so'g'diylar, Qadimgi Xorazmdagi-xorazmiylar, qadimgi Baqtriyadagi-boxtarlar, qadimgi Chochedagi-chochliklar, Farg'onadagi-parkanaliklar. Bu tarixiy nomlarning ayrimlarini ilk yozma manbalarda, xususan, Zardushtiylar dinining muqaddas kitobi "Avesto"da, Ahamoniylar mixxat yozuvlarida, yunon-rim mualliflari asarlarida ham uchratish mumkin.

O'rta Osiyoning qadimiy-tarixiy mintaqalaridan biri shubhasiz Xorazmdir. Ushbu mintaqada ham miloddan avvalgi VI-V asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Dastlab Xorazm vohasida Ko'zali qit, Qal'ali qir, Qo'yqirilgan qal'a, Jonbos qal'a kabi mahobatli mudofaa devorlari bilan o'ralgan qal'alar, shakllanadi. Zero, bu bepoyon hududlar Aryanam Voychahning Amudaryo etaklarida tarkib topa boshlagan vohalar Avestoda "xvari-zam", yunon muarrixlari asarlarida "xorasmiya" nomi, aholisi esa xorazmliklar deb atalganligi qayd etiladi. Ushbu madaniyat sohiblarining Xorazm hududlariga kirib kelishi so'ngi bronza va ilk temir davrining mahalliy xokimliklari konfederatsiyasining parchalanishidan so'ng, xorasmiylarning Amudaryo quyi havzalariga kirib kelishi bilan bog'liqdir. Shu davrdan boshlab massagetlar yurtining vohalari Xorazm, ya'ni "Qadimgi Xorazm" deb ataladigan bo'ldi.

Tarix fanida O'rta Osiyoning qadimgi Farg'ona, Toshkent vohasi, Sirdaryo havzalarida yashagan xalqlari etnogenezi xususida ham qator ma'lumotlar mavjud. Miloddan avvalgi III-I va milodiy era boshlarida qadimgi Farg'onada sug'orma dehqonchilik madaniyati an'analari asosida rivojlangan Farg'ona ilk davlati tashkil topadi. Ushbu davlat **poytaxti Ershi** ekanligi tilga olinadi. Manbalarga ko'ra Farg'ona davlati miloddan avvalgi II-I asrlarda O'rta Osiyoning yuksak taraqqiy etgan, aholisi ko'psonli, yaxshi qurollangan va mashq qurgan kuchlarga ega davlati hisoblangan. Aholi sholi ekish, yerga ishlov berish, bog'derchilik uzunchilik bilan shug'illanganlar.

Miloddan avvalgi III asrga kelganda o'lkada qadimgi dehqonchilik qishloqlari asosida ilk shaharlar qad ko'tara boshlaydi. Atrofi mudofaa inshootlari bilan o'rab olingan ana shunday qishloqlar dastlab Chirchiq daryosining o'rta va kuyi havzalarida paydo bo'lib, uning aholisi tarkibini sug'diy va turkiy tilli qabilalar tashkil etgan. Shunday manzilgohlar hamda saklarga tegishli

ma'lumotlar Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqatepa, Yangiyo'l shahridagi Qovunchitepa, Shoshtepa (Chochtepa) va boshqalar bo'lib, bu maskanlarda qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos belgilar miloddan avvalgi III-II asrlarda tarkib topgan.

Qadimgi va antik davr mintaqa aholisi etnogenezida muhim ikki jihat xarakterli bo'lib, akademik **K. Shoniyozovning** qayd etishicha, O'rta Osiyo qadimgi jamoalarining urbanizatsiyalashuvi ikki yo'ldan bordi. Birinchisi Amudaryo va uning irmoqlari havzalarida tashkil topgan sivilizatsiya o'choqlari; ikkinchisi Sirdaryo va uning irmoqlari havzalarida tarkib topgan sivilizatsiya o'choqlari. Amudaryo havzalari bilan bog'liq madaniy xo'jalik markazlarining shakllanish jarayoni bronza davridan boshlangan va ularning tarkib topishida Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ta'siri kuchli bo'lgan.

Birinchi yo'nalishga xos urbanizatsiya jarayoni O'rta Osiyoning janubiy-g'arbidan uning shimoliy-sharqi tomon kengayib, bu mintaqada so'ngi bronza davridan boshlab birin-ketin tarixiy madaniy viloyatlar shakllanib boradi. O'rta Osiyo hududida dastlab bronza davrida (miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida) Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya viloyatlari tarkib topadi. Ularning madaniy xo'jalik ta'sirida ilk temir davrida (miloddan avvalgi IX-IV asrlar davomida) So'g'diyona madaniy markazi tashkil topadi.

So'g'diyona madaniy markazining uch o'chog'i mavjud bo'lib, ularning shakllanishi So'g'diyonaning barcha hududlarida bir vaqtda, bir xil rivojlanishda bo'lmagan. Agar bu jarayon janubiy So'g'dda miloddan avvalgi IX-VI asrlarda yuz bergan bo'lsa, u markaziy So'g'dda miloddan avvalgi VII-V asrlarda sodir bo'ldi. G'arbiy So'g'd, ya'ni Buxoro viloyatida shaharsozlik madaniyati ulardan keyin, miloddan avvalgi VI-IV asrlarda yuz berdi.

Nisbatan kechroq antik davrida yuz bergan Qadimgi Farg'ona va Chochda shaharsozlik madaniyati, urbanizatsiya jarayoni Qadimgi Sharq sivilizatsiya o'choqlarining bilvosita ta'sirida rivojlandi. Bu nuntaqada chorvador sak qabilalariga xos hayot tarzi kuchli edi. Turon saklarining o'troqlashish jarayoni ancha sust kechdi. Sirdaryo havzalari aholisi hayotida mahalliy an'ana, tarixiy milliylik kuchli edi. O'rta Osiyoda Makedoniyalik Aleksandr harbiy yurishlaridan keyin, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya podshohlari davrida yunon madaniyatining ta'siri sezila boshlaydi. Moddiy va ma'naviy madaniyatda barobarlashuv jarayoni ko'zga tashlanadi. Qadimiy madaniy xo'jalik an'analari asosida shakllangan Farg'ona va Choch madaniy xo'jalik markazlari tarkib topadi. Bir vaqtni o'zida ana shu madaniy xo'jalik markazlarining, sivilizatsiya o'choqlari negizida mahalliy baxtariy, sug'diy, xorazmiy, Choch va Farg'ona xalqlari shakllanib boradi.

Darhaqiqat, O'rta Osiyo xalqlarining etnik shakllanishi va etnomadaniy jarayonlarda bu hududga ko'chib kelgan turli xalqlar ham faol ishtirok etganlar. Yuechjilar, xioniyalar, kidariylar, eftaliylar shular jumlasidandir. IV asrning oxirlaridan boshlab, O'rta Osiyoda yirik turkiy etnoslar xioniyalar va eftaliylarning o'troqlashuv jarayonlari kuchayadi. V-VI asrlarga kelib, eftaliylar va

xioniyning asosiy qismi turg'un hayotga o'tadilar. Bu qabilalar o'troq hayot kechirib chorvachilik bilan bir vaqtda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

VI asming o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoda eftaliylar va turk xoqonligi o'rtasida kurash boshlanadi. Tarixiy manbalardan bizga ma'lumki, VI asming o'rtalarida Oltoyda, Janubiy Sibir, Yettisuv, Sharqiy Turkistondagi bir necha qabilalar birlashuvi natijasida yirik Turkiy xoqonlik tashkil topadi. Qisqa vaqt ichida xoqonlik kuchayib, O'rta Osiyoning katta qismini bosib oladi.

Turkiy xoqonlik davrida (VI-VIII asrlar) dastlab Sharqiy Turkiston Toshkent vohasi, Zarafshon, Qashqardaryo vohalari, Surxondaryo va Farg'ona vodiylari Xorazm hududlariga turkiyzabon xalqlarning kirib kelishi yanada kuchayadi va ularning ko'pchiligi bu hududlarda turg'unlashib qoladilar. VIII asr boshlarida arablar Movarunnahr va Xorazm hududlariga bostirib kirgan vaqtlarda bu hududlarda o'troq va yarim o'troq turkiyzabon aholi, so'g'diylar, toxtarlar, chochliklar va Xorazmning tub yerli aholisi bosqinchilarga qarshi tinimsiz kurash olib borib arab xalifaligi ta'siriga tushib qoladilar.

Ma'lumki, VIII asming 2-yarmidan Sharqiy Turkiston, Yettisuv hududlarida turkiy qarluq, chigil, yag'mo qabilalari kuchaya boshlaydilar. Ular orasidan IX asming o'rtalariga kelib qarluqlarning nufuzi ortib Yettisuv, Chimkent viloyati, Toshkent vohasi, Farg'onaning shimoliy-sharqiy qismlarini o'z ichiga olgan **Qarluqlar** davlati tashkil topadi. Ko'pchilik tadqiqotchilarning e'tirof etilishlaricha, o'zbek xalqining shakllanishida turkiy Qarluq davlatining ahamiyati katta bo'lgan. Zero X asr o'rtalaridan boshlab bu davlat Tarixiy manbalarda **Qoraxoniylar** davlati nomi bilan tilga olinadi.

Yozma manbalarining ma'lumot berishicha, IX-X asrlar qarluqlar egallab turgan hududlarda 20 dan oshiq shahar, ko'plab qishloqlar bo'lgan. Qarluqlar ko'p sonli, nufuzli "xalq" bo'lib, bir qismi chorvachilik bilan, bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Qarluqlar yashagan hududlarda yirik etnoslar-chig'il (chigil) lar, yag'molar, xalachlar ham yashagan bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, ular bir-biriga qon-qarindosh bo'lib, turkiy tilda so'zlashganlar. XI asming birinchi o'n yilligidayoq janubiy hududlarning to Balx viloyatigacha bo'lgan yerlari dastlab qoraxoniy turkiylar, so'ng esa g'aznaviylar qo'lga o'tadi. Buning natijasida navbatdagi katta turkiy qatlamlarning So'g'diyona, Xorazm va Toxariston yerlariga kirib borishi sodir bo'ladi. Qoraxoniylar davrida Movarunnahrning barcha hududlarida turkiy qatlamlar yashar edilar.

Qoraxoniylar davlatida qarluq-chigil turkiy til lahjasi keng tarqaldi. Keyinchalik shu til asosida adabiy turkiy til yuzaga kelib, uni Mahmud Qoshg'ariy "eng ravon til" deb atagan edi. Turkiy tilda IX-XII asrlar mobaynida bir qator asarlar yozilgan bo'lib, **Ahmad Yugnakiyning** (775-869 yy) "Hibatul haqoyiq" (Haqiqatlar tuhfas) dostoni, **Yusuf Xos Xojibning** "Qutadg'u bilik" (Saodatga yo'llovchi bilim) asari, **Ahmad Yassaviyning** (1041-1167yy) "Hikmatlar"i hamda "O'g'uznoma", "Alpomish", "Go'rug'li" kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Somoniylar va Qoraxoniylar (IX asr o'rtalaridan 1213-yilgacha)dan keyin hukmronlik qilgan keyingi sulolalar, G'aznaviylar (997-1187 yy), Saljuqiylar (1040-1147 yy), Xorazmshoh anushtegeniylar (1097-1231 yy) ning barchasi turkiy qavmga tegishli bo'lib, o'z vaqtida nafaqat O'rta Osiyo, balki O'rta Sharqda ham hukmronlik mavqeyga ega bo'lganlar.

Ilk o'rta asrlarda Movarounnahr va Xorazm hududlariga ketma-ket bir necha turkiy qabilalarning kirib kelishi kuzatiladi. Davriy jihatdan ularni quyidagi tarzda qayd qilishimiz mumkin: Yuechjilar (mil.avv. II-I asrlar), Xioniylar (milodiy IV asr ), Kidariylar (IV-V asrlar), Eftaliylar (V asr), Turkiylar (VI-VII asrlar), Qarluq, Jikil, Yag'molar (IX-X asrlar), O'g'uzlar, Qoraxitoylar (XI-XII asrlar).

Bu jumladan, o'zbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq xalqlari ming yillar davomida azaldan hozirgi yashayotgan mintaqalarida yashab kelganliklarini tasdiqlaydi. Lekin ular bu paytda hali hozirgi nomlari bilan atalmaganlar. Ular umumiy nom bilan "turkiy", deb yoki bo'lmasada, o'z qavmlari, qabila-urug'lari nomlari bilan atalganlar. Yagona etnik nomning xalqning umumiy nomiga aylanishi ya'ni "etnonim" ma'no kasb etishi keyingi davrlarda sodiri bo'lganligi aniq. Buni o'zbek atamasining paydo bo'lishi, xalqining umumiy nomining vujudga kelishida ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, "o'zbek" atamasining kelib chiqishi xususida fanda turli yondoshuvlar mavjudligi ayon. Bir guruh olimlar "o'zbek" atamasining kelib chiqishini Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342 yy) bilan bog'lasalar, ikkinchi guruh olimlar "o'zbek" atamasi o'rta asrlarda Dashti Qipchoqda yashovchi xalqlarning boshqalarga tobe bo'lmagan, "o'ziga bek", "o'z-o'ziga bek", talqinidan kelib chiqqan, deb hisoblashadi.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, "o'zbek" atamasi qabilalar uyushmasi va shu qabilalarga qarashli yerlarning nomi sifatida O'zbekxonga qadar ham qo'llanilgan. Jumladan, Mirzo Ulug'bek o'zining "Tarixi arba' ulus" asarida "o'zbek ulusi O'zbekxonga berildi" deb qayd qiladi. Bundan tashqari O'zbekxondan oldin ham shu nomda bir necha tarixiy shaxslar o'tgan. Jumladan, XIII- asr boshlaridagi Ozarbayjon hukmdorining ismi ham O'zbek Otabek bo'lganligi aytiladi.

Masalan, ilk o'rta asrlarda Movarounnahr yerlarida yashovchi aholi hali "o'zbek" nomi bilan yuritilmay, tarixiy manbalarda umumiy nom bilan "turkiylar" deb yuritilar edi. XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq yerlarida qator o'zbek urug' va qavmlari istiqomat qilishgan. Tarixiy manbalarda "O'zbek" atamasi XIII - asr oxiriga taalluqli asarlarda ilk bor uchrasada, XV - asrda Dashti Qipchoqda (hozirgi Qozog'iston va G'arbiy Sibir cho'llariga to'g'ri keladi) Abulxayrxon (1428-1468 yy) tomonidan kuchli davlatga asos solinadi. Qudratli davlat shu davrlardan boshlab Movarounnahrda siyosiy jarayonlarga aralasha boshlaydilar.

Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1451-1510 yy) davrida Dashti Qipchoqdagi ayrim o'zbek qavmlarining temuriylar davlatiga tazyiqi yanada kuchayadi. Natijada Movarounnahrda temuriylarning siyosiy

tarqoqligidan unumli foydalangan Shayboniyxon boshliq urug'lar bu yerlarni istilo etib, siyosiy hokimiyatni qo'lga oladilar. Ya'ni Movarounnahmi o'zbek urug'lari egallab oladi, natijada mazkur yerlarni "o'zbeklar yurti", shu yerda azaldan yashayotgan turkiy aholi esa, umumiy nom bilan "o'zbeklar", deb yuritila boshlanadi.

Bundan shunday xulosaga kelish kerakki, asli Movarounnahr hududlarida azaldan o'zbeklarning ko'pgina ajdodlari yashab kelgan. Ammo Shayboniyxon boshchiligidagi turkiy qavmlar bu yerga kelib joylasha boshlagach, ular so'nggi qo'shilish bo'lganlar, holos. Ya'ni, bu yerdagi mahalliy urug' va qavmlarga o'z nomlarini berib, butun ikki daryo oralig'ida yashovchi xalqlar, umumiy nom bilan o'zbeklar, deb yuritila boshlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, XI-XII asrlarga kelib o'zbek xalqi xalq sifatida shakllanib, o'zining antropologik-etnik xususiyatini o'zlashtirib bo'lgan edi. Ana shu xalq o'zining "o'zbek" nomini XVI asrga kelganda oladi. "O'zbekiston" siyosiy atamasi va o'zbek millati atamasi 1924-1925 - yillarda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-hududiy davlat chegaralanishidan so'ng shakllandi.

**Millat** - ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanib borishi, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bilan elatlar va xalqlar millatga aylanadi. Millat kishilar uyushuvining eng oliy formasi bo'lib, u kishilarning madaniy va psixologik ongi (mentaliteti) bilan ajralib turadigan shaklidir. Millat bilan xalq ta'rifiga qo'yilgan talablar tashqaridan qaraganda bir-birlariga o'xshash ko'rinsada, ammo mohiyat jihatidan ular bir-biridan birmuncha farq qiladi. A.Asqarov fikricha, *birinchidan*, xalq uzil-kesil shakllangan feodalizm jamiyatining ijtimoiy mahsuli, millat esa kapitalistik jamiyatning ijtimoiy mahsulidir.

*Ikkinchidan*, xalq o'zaro uyushgan sharoitda uning chegaralari tarix taqozosiga ko'ra, o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin (masalan urushlar, xalqning ko'chishi, savdo, iqtisodiy aloqalar va boshqa omillar tufayli). Ammo, millat davlat chegaralari qat'iy, mutlaqo daxlsiz, jahon jamoatchiligi tomonidan tan olingan va muhofazali bo'ladi.

*Uchinchidan*, xalq shakllangan paytda hamma vaqt ham uning etnik nomi bo'lavermaydi, xalq millat darajasiga ko'tarilganda esa uning etnik nomi bo'lishi shart. Masalan o'zbek xalqi nomi uning elat (xalq) sifatida shakllanib bo'lgandan ancha keyin paydo bo'lgan.

*To'rtinchidan*, xalqning siyosiy uyushmasi ya'ni davlati tarix taqozosiga ko'ra, hamma vaqt ham etnos nomi bilan atalavermaydi, ammo xalq millatga aylanganda davlat nomi o'sha millat nomi bilan yuritilishi shart.

*Beshinchidan*, etnosning xalq darajasida o'zlikni anglash, milliy g'urur, vatan fidoisi bo'lish, o'z xalqidan faxrlanish hissi o'sha davr jamiyati tartib-qoidalariga ko'ra, ko'pchilikda bir xil, yuksak darajada bo'lavermaydi. Ammo xalq millat darajasiga ko'tarilganda bu sifatlar yuksak darajada bo'ladi.

*Oldinchi*dan, etnosning til birligi elatning xalq darajasida hamma vaqt ham davlat moqomini olavermaydi, xalq millat darajasiga chiqqanda uning tili albatta

davlat maqomini oladi. Millat o'zining tili uchun qayg'uradi va uni himoya qiladi, uning adabiy tili tarkibiga har qanday chet so'zlarni tiqishtiravermaydi. Millat vakili har joyda o'z ona tilida gapiradi.

*yettinchidan*. milliy mentalitet etnosning xalq darajasida emas, balki niilat darajasida shakllanadi va nihoyat, *sakkizinchidan*, millat uzil-kesil shakllanganda davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya'ni davlat xalq xizmatchisi, barcha sohalarda millat talabi va hohish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

O'zbek xalqining etnik shakllanishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olgan. O'zbek xalqi asosan ikki til (**turkiy va forsiyy**)da so'zlashuvchi xalqlarning aralashishi va qorishuvidan tarkib topgan bo'lib, bu ikki tilda so'zlashuvchi jamoalarning etnik jihatdan dastlabki aralashuvi so'ngi bronza davri (mil. avv. II - ming yillikning oxiri)da yuz berdi. Bu davmi o'zbek xalqi etnogenezining boshlanishi, ya'ni birinchi bosqichi deb hisoblashimiz mumkin.

So'nggi bronza davridan boshlangan assimilyasiya jarayoni antik davrga kelib (mil.avv. IV-II asrlar), o'zbek xalqiga xos iqtisodiy xo'jalik, etnomadaniy va antropologik tip birliklarini o'zida mujassamlashtiruvchi, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topdi, o'zbek xalqiga xos antropologik tipning makon va zamoni aniqlandi. Natijada miloddan oldingi II-milodiy I asrlar davomida turkiy tili elat tarkib topdi. Bu davrga o'zbek xalqi etnogenezining ikkinchi bosqichi sifatida qarash mumkin.

O'zbek xalqi etnogenezining uchinchi bosqichi ilk o'rta asrlar davrini o'z ichiga oladi (Milodiy IV-VII asrlar). Ilk o'rta asrlar davri kushonlar imperiyasi va Qang' davlatining inqirozidan boshlanadi. O'rta Osiyo hududlariga turkiygo'y xioniyalar, kidariylar, eftaliylar va Turk hoqonligi kirib keldi va ular bilan birga kirib kelgan qabilalar tarkibida qarluq, chigil, tuxsi, argun, turk, kaltatoy, musabozori kabi turkiy zamon qabilalar ko'p edi. Yu.A.Yakubovskiyning ta'kidlashicha, bu davrda O'rta Osiyoning biror joyi qolmadiki, u yerlarga turkiy qabilalar kirib bormagan bo'lsa.

Movaraunnahr yerlarini arablar egallagach, ular bu zaminga turkiy qabilalarini muntazam kirib kelishini to'xtatish yo'lini qidirdilar. Bu zaminga oldinroq kirib kelib o'rtnashib qolgan turkiylarning o'troqlashishi jadallashdi. Natijada, butun VIII - asr davomida Movarounnahr hududlarida **yaxlit turkiy etnik qadam, jonli turkiy til muhiti** vujudga keldi. Mahalliy sug'diy zamon aholi orasida turkiylashish jarayoni jadallashdi. IX-X asrlarda Movarounnahrda garchi siyosiy hokimiyat somoniylar qo'lida bo'lsada, Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo'ldi. Bu kuchli etnik asosni o'troqlashgan turg'un turklar tashkil etardi.

Bu davrga davrga o'zbek xalqi etnogenezining to'rtinchi bosqichi sifatida qarash mumkin. Qoraxoniylar davrida Movaraunnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalar qo'lga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqi etnogenezining yakunlovi beshinchi bosqichi boshlandi. O'zbekka xos turkiy etnos mintaqada qaror topdi. Elatga xos barcha etnik omillar ro'yobga chiqadi.



Demak, o'zbek elati xalq sifatida XI-XII asming birinchi yarmida uzil-kesil shakllandi.

O'zbek xalqining shakllanishi bilan uning etnik tarixi boshlanadi. O'zbek xalqining etnik tarixi ham uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo'lib, bu jarayon mintaqada kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining qaror topa boshlagan davrgacha, ya'ni XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarigacha davom etdi. XX asr boshlariga kelib o'zbek millatining uzil-kesil shakllanishi nihoyasiga yetdi.

**Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nulladararo totuvlikning ta'minlanishi, do'stlik va hamjihatlik.** Bugungi kunda O'zbekiston ham ko'p millatli mamlakatlar qatoriga kiradi. Jahon dinlarining muqaddas kitoblarida qayd etilishicha, Alloh asli insonni bir ota, bir onadan yaratgan, lekin ular bir-biri bilan muloqot qilishi, tanishishi uchun millatlarga bo'lib qo'ygan. Davlatlar bu borada ko'pmillatli (polietnik) va birmillatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlari bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekiston kabi polietnik mamlakatda turli millatlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular orasida totuvlikni ta'minlash taraqqiyotning xalq qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Zero, millatning istiqboli boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham bog'liqdir. Xalqimizning «qo'shning tinch – sen tinch» degan maqolida ana shu haqiqat nazarda tutilgan. Butun dunyoda, birinchi navbatda, qo'shni mamlakatlarda yonma-yon yashayotgan etnoslar orasida tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik, teng huquqli munosabat bo'lmasa, ulardan hech biri o'zining porloq istiqbolini ta'minlay olmaydi.

Shu bilan birga bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni to'la qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri xalq qilishga yordam beradi. *Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi.*

Birinchi Prezident Islom Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, quyidagicha ta'kidlagan: «*Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan o'zbek millatining muqaddas burchi ona tilini, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri uchun, ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir*». Bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli

muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan hisoblanadi. Bu boradagi an'analar ajdodlardan-avlodga o'tib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik g'oyasi ilgari surilgani va amalda unga erishilgani O'zbekiston rivojida qo'tga kiritilgan eng katta yutuqlardan biridir. Mamlakatimiz rahxbariyati milliy masalani oqilona, xalqaro tamoyillarga mos yo'l bilan yechish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish chora-tadbirlarini ko'rdi. Bu borada konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutildi. Yurtimizning ko'pmillatli xalqi ongida «**O'zbekiston — yagona Vatan**» degan g'oya asosida haqiqiy vatandoshlik tuyg'usini shakllantirish bu boradagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini: millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deb aniq belgilab qo'yilgan. «O'zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitutsiyamizda «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta'kidlangan.

Bu borada mamlakatimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «**Baynalmilal madaniyat**» Markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'shanda 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 150 ga yaqin markazlar ishini muvofiqlashtirib turibdi, ulardan 14 tasi respublika milliy madaniy markazi maqomiga ega. Shuningdek 11 tilda ko'rsatuv va eshittirishlar, 10 tilda gazetalar, 8 tilda jumallar bosilmoqda. Oliy, o'rta-maxsus ta'lim tizimida 7 tilda ta'lim olib borilmoqda. Qaerdaki millatlararo totuvlik g'oyasining ahamiyati anglab yetilmasa, jamiyat hayotida turli ziddiyatlar, muammolar vujudga keladi, — ular tinchlik va barqarorlikka xavf soladi. Bugungi kunda jahonning ayrim mintaqalarida sodir bo'layotgan milliy nizolar shundan dalolat berib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni bilan **2017-yil 19 mayda** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil qilindi. Qo'mita jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlash,

do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

**Qo'mitaning asosiy vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

1) jamiyatda millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish, do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

2) do'stona xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning fuqarolik hamjamiyatlari, shu jumladan, chet ellarda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimiz bilan do'stlikni mustahkamlash borasidagi ishlarni samarali muvofiqlashtirish;

3) davlat organlarining respublika hududida joylashgan milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari bilan o'zaro aloqasi va hamkorligini ta'minlash;

4) mamlakatimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarning o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlari va rasm-rusumlarini asrabavaylash va rivojlantirishga ko'maklashish;

5) xorijiy mamlakatlarda davlatimizning tinchliksevar siyosati, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurish borasida O'zbekistonning maqsad va vazifalarini, shuningdek, bugungi kunda mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilayotgan muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish;

6) millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishda ko'maklashish va bevosita qatnashish kabilar. O'zbekistondagi milliy-madaniy markazlarning 31 tasi koreys, 23 tasi rus, 10 tasi tojik, 9 tasi tatar, 8 tasi ozarbayjon, 7 tasi turkman, 6 tasi ukrain, 6 tasi qirgiz, 5 tasi turk, 5 tasi Yevropa yahudiylari, 4 tasi nemis, 4 tasi arman, 4 tasi polyak, 3 tasi uyg'ur, 3 tasi Buxoro yahudiylari, 2 tasi belorus, 2 tasi qrim-tatar millatlari vakillariga tegishlidir.

Millatlararo totuvlik g'oyasini amalga oshirishga g'ov bo'ladigan eng xatarli to'siq — tajovuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday illat, zararli g'oya tuzog'iga tushib qolgan jamiyat tabiiy ravishda xalokatga yuz tutadi. Bunga uzoq va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Birgina fashizm g'oyasi XX asrda insoniyat boshiga avvalgi barcha asrlardagidan ko'ra ko'proq kulfat, ofat-balolar yog'dirib, oxir-oqibatda o'zi ham xalokatga uchradi. Lekin xanuzgacha shovinizm, irqchilik, terrorizm g'oyalarini millatlararo totuvlik, hamjihatlik g'oyasiga qarshi yurish uyushtirishga urinayotgan kuchlar borligi barchamizni xushyor torttirmoqda. Demak, faqat millatlararo totuvlik g'oyasiga tayanib, umumiy maqsadlar yo'lida hamjihat bo'lib, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligidek olijanob maqsadlarga erishish mumkin.

## **Mavzu yuzasidan tayanch soʻz va iboralar**

Ilk shaharsozlik, Qadimgi Baqtriya, Sugʻdiyona, Xorazm, zardushtiylilik, Avesto, zardushtiylilik, qadimgi Fargʻona, Qangʻ davlati, Kushonlar davlati, Bronza davri, savdo va tranzit yoʻllari, «Lojuvard yoʻli», «Shoh yoʻli», Buyuk ipak yoʻli, savdo va madaniy aloqalar, etnogenez, etnik tarix, millat, elat.

### **Mustaqil taʼlim mavzulari:**

1. Qadimgi Xorazm davlatining oʻzbek davlatchilik tarixida tutgan oʻmi.
2. Qadimgi Baqtriya davlati va uning rivojlanishi.
3. Qadimgi Soʻgʻdiyona davlati va taraqqiyoti.
4. Eron ahamoniylarining Oʻrta Osiyoga yurishlari va ularning oqibatlari.
5. Yunon–makedon qoʻshinlarining Oʻrta Osiyoga yurishlari va uning oqibatlari.
6. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Oʻzbekiston hududlarida shakllangan ilk davlat birlashmalari qaysilar?
2. Sizningcha qadimgi Xorazm va qadimgi Baqtriya davlatlarining oʻzbek davlatchilik tarixida tutgan oʻmi qanday?
3. Kushonlar davlatining tashkil topishi va siyosiy uyushuviga turtki boʻlgan omillar nima edi?
4. Kushonlar davrida madaniy hayot rivojlanganligini qaysi sohalarda koʻrish mumkin?
5. Buyuk ipak yoʻlining tarixiy rivojlanishi haqida gapiring.
6. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi haqida gapirib bering.

### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. Asqarov A. Oʻzbek xalqining kelib chiqish tarixi. T., 2015.
2. Asqarov. A. Koʻhna tarix shodasidagi marjon // "Yangi Oʻzbekiston" gazetasi. T., 2020. 4 may, №74-son.
3. Axmedov B. Oʻzbekiston tarixi manbalari. T., 2001.
4. Oʻzbekiston tarixi. «Darslik» // Masʼul muharrir t.f.d R.X. Murtazaeva. T., 2005.
5. Usmonov Q, Sodiqov M, Burhonova S. Oʻzbekiston tarixi : oliy oʻquv yurt. (tarix yoʻnal. tashqari) bakal. uchun darslik /; OʻzR OOʻMTV. - 2-nchi qayta ishlangan nashri. - Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2016. - 496 b.
6. Eshov B. Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. (Birinchi kitob). T., 2019.

### 3-mavzu. III o'rta asrlarda davlatchilik: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (V-IX asrlar).

#### Reja:

1. Kidariylar, Xioniylar va Eftaliy (eftalit)lar hukmronligi davrida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2. Turk hoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari.
3. O'rta Osiyo arab xalifaligi davrida. O'lkada islom dinining keng tarqalishi va arablar yurishlarining natijalari.
4. Arablar bosqinidan keyin Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, soliqlar.

#### 1. Kidariylar, Xioniylar va Eftaliy (eftalit)lar hukmronligi davrida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

Milodiy 4-asr o'rtalarida, aniqrog'i 353-yilda o'lkaga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan Grumbat boshchiligidagi xioniylar nomli ko'chmanchi qabilalar bostirib kiradilar. Xioniylar Kushonlarga zarba berib, Sirdaryodan to Amudaryo havzasigacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatadilar. Ammo 359 yil xioniylarga g'arbdan ushbu davlatga Eron tajovuz qila boshlaydi. Natijada Eron shohi Shopur II bilan Suriya hududida bo'lgan jangda Grumbatning o'g'li halok bo'ladi. IV asrning 60-70 yillarda Eron bilan munosabatlar yana keskinlashib, Eron shohi Shopur II xioniylar bilan kurash olib boradi va ikki marotaba yengiladi. Adabiyotlarda bu kurashda **xioniylar kidariylar** bilan ittifoqchilikda bo'lgan bo'lislari haqida ma'lumotlar taxmin qilinadi. Chunki bu davrda Sirdaryo bo'yidan Amudaryogacha cho'zilgan hudud xioniylar ta'siri ostida bo'lgan.

Shundan so'ng IV-V asrlarda O'rta Osiyo hududiga kidariylar, eftaliy ((eftalit)lar nomli turkiy etnik guruhlar kirib keladilar. Kushonlar sulolasi ag'darilib, hokimiyat avval kidariylar, keyinroq eftaliylar qo'lga o'tadi. Kidariylar haqidagi tarixiy ma'lumotlar fanda kam bo'lib, ular xioniylar bilan ittifoqda bo'lganliklari haqida uchraydi, holos. Ammo ular Hindistonda 15 yil hukmronlik qilganliklari, 477-yil Gandxardan Xitoyga elchilar yuborganliklari ma'lum, holos. Ba'zi manbalarda ular Sharqiy Turkistondan O'rta Osiyoga kirib kelgan kushon qabilalarining ajdodlari bo'lishi mumkinligi aytiladi. Bu tarixiy jarayonda O'rta Osiyoda yana etnik aralashuv yuz beradi. Tashqaridan kirib kelgan bu turkiy etnik guruhlar mahalliy aholi tarkibiga qo'shilib ketadilar.

Tarixdan ayonki, milodning V-asr boshlari VI-asr o'rtalarigacha O'rta Osiyoda **Eftalitar davlati** hukmronlik qilgan. Bu davrga kelib eftaliy (eftalit)lar davlati ijtimoiy iqtisodiy jihatdan ancha yuksaladi. Natijada Eron bilan ushbu davlat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, ular o'rtasida bir necha marta to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Ular o'rtasidagi birinchi to'qnashuv V-asrning 30-yillardiyog sodir bo'lgan edi.

Ammo davlatning kuchayib ketishi Xitoy bilan aloqalarni yumshatishni taqozga qiladi. Natijada, 456- yildayoq eftalitar o'z elchilarini Xitoyga

jo'natadilar. Eftalitlar tobora janubga qarab siljiy boshlaydilar va o'z navbatida ularning Eron bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eron bilan hal qiluvchi kurashlar davri shoh Peroz (Feruz) davriga (459-484 yy.) to'g'ri keladi. Taxminan 457- yili Vaxshunvar Eftalon boshchiligidagi eftalitlar Chag'oniyon (hozirgi Surxondaryo vil. Termiz shahridan shimoldagi yerlar), Tohariston, Badaxshonda o'z hokimiyatlarini o'rnatadilar va uning hudulani kengayadi.

459- yilda Eron shohi Peroz va Eftalitlar o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Ammo birinchi urushda **Peroz** mag'lubiyatga uchraydi va asirga tushadi. Vizantiya imperatori Zenon o'rtaga tushib uni ozod qilib oladi. Peroz chegaradagi Talqon (Talikon) shahrini eftalitlarga topshirish chegaradan o'tmaslik majburiyatini oladi. Bu mag'lubiyatdan xulosa chiqarib olmay, u yana ikkinchi marta eftalitlar ustiga yurish boshlaydi. Bu kurashda ham mag'lubiyatga uchragach Peroz asirga olinadi va 30 xachir kumush tanga to'lash majburiyatini oladi. Biroq xazinadan 20 ta xachirga yetgulik mablag' topiladi holos. Perozning yosh o'g'li Kubod eftalitlar qo'lida garovga qoldiriladi, shundan keyin Peroz tutqunlikdan xalos etiladi. U eftalitlarga 2 yil mobaynida soliq to'lab turish majburiyatlarini ham oladi. Peroz o'lpon to'lab bo'lgach, eftalitlar bilan munosabatni yaxshilashga harakat qiladi. U eftalitlarga sulh tuzishni va o'zining tinch maqsadlarini namoyon etadi. Ammo o'rtadagi vaziyat keskinlashgach, eftalitlar va sosoniylar o'rtasida 484 yili oxirgi jang bo'lib o'tadi. Bu kurash Marv yaqinida sosoniylarning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Shundan so'ng O'rta Osiyoga Sosoniylar tajovuzi va qudratiga eftalitlar tomonidan chek qo'yiladi.

Ammo bu kezlarda Eronda boshlangan tengsizliklarga qarshi **Mazdak** qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Ya'ni mazdakchilar «z» harfi bilan boshlanadigan 4 narsaning aholi o'rtasida teng baham ko'rinishini yoqlab chiqqandilar: zamin (er), zar (oltin, boylik), zo'rlik (kuch-hokimiyat) va zan (xotin). Mazdakchilar ilgari surgan bu xil g'oyalardan shuni anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, bunda er-mulk, boyliklarni aholi o'rtasida barover taqsimlash talabini ilgari surganlar.

Ularning asosiy talabi, davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishini, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq o'sha davrda, sinfiy tabaqalanish tobora kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan bir paytda mazdakchilik g'oyalarining tantana qilishi yohud hayotga tatbiq etilishi mumkin emas edi. Shu bois ham **Mazdak** qo'zg'oloni tez orada hukmron tuzum kuchlari tomonidan bostirildi. Mazdak va uning ko'plab tarafdorlar: qo'lga olinib o'diriladi. Shunga qaramay Eron va Turon aholisining keng qatlamlari orasida Mazdak g'oyalari saqlanib, ularning haq, adolat yo'lidagi kurashlariga xizmat qildi.

Ushbu davlatda dastlab yer egaligi munosabatlari shakllana boshlagan va unga xos belgilar shakllana boshlagan. Mazkur davr ilk o'rta asrlarning boshlanishi sifatida O'rta Osiyoning barcha hududlarida yer egaligi hukmronligi davri bo'lib, ushbu soha asta-sekinlik bilan jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining asosini tashkil etgan. Shu tariqa ilk feodal munosabatlar tarkib topa boshladi. O'rta

Osiyoning qadimgi kashovarlar yer egaligi va dehqonzodalari jamiyat iqtisodiy hayotining barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydilar. Natijada, chorvachilik va hunarmandchilikning barcha jabhalarida, savdo-sotiqda yirik mulk egalari dehqonzodalar va o'rta va mayda mulk egalari—**kashovarlar** hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydilar.

Ilk o'rta asrlar O'rta Osiyoning **dehqonzodalari** va mayda mulk egalari—**kashovarlar**, ozodkorlar va guvakorlar (g'uvakor) birgalikda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim rol o'ynaganlar. Ular jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanganlar. Natijada, chorvachilik va hunarmandchilikning barcha jabhalarida, savdo-sotiq yer egaligi rivoj topdi. Jamiyatda harbiy hokimiyat o'rnatgan turkiy siyosiy kuch esa O'rta Osiyo shimoliy – sharqidan to'xtovsiz turkiy etnik guruhlarini kirib kefishini tezlatadi. Joylarda boshqaruv tizimi turk aslzodalari qo'liga o'ta boshlaydi. Eftalitlar davrida yangicha munsabatlar, ya'ni yer egaligi munosabatlarining tarkib topa boshlashi bilan sug'oriladigan yer maydonlarining ma'lum bir qismi mulkdor zodagon tabaqa vakillari—**"dehqonlar"** qo'lida to'plana boshlagan edi. Buning natijasida qishloq jamoasining erkin qo'shchilari kashovarlar sekin-asta zodagon dehqonlar asoratiga tushib, ularga qaram kadivarlarga aylana boshlaganlar.

yer egaligi munosabatlari rivojlanishi barobarida yerlar bir necha toifalarga bo'lingan. Xususan davlat yerlaridan tashqari ibodatxonalar, ya'ni diniy mahkamalarning yer-mulkleri ham tarkib topa boshlaydi. Xususan bu davrga kelib asosiy yerlar dehqonlar ya'ni qishloqning hokimlari qo'lida to'plana boshlashi barobarida, ibodatxonalarga tegishi yer-mulkler ham tarkib topa borgan. Ular **"vag'nze"** deb yuritilgan. Shu davrlarda vo'ha va vodiylarda eftalitlarning o'troqlashuvi kuchayadi. Buning oqibatida esa sug'oriladigan yerlarga bo'lgan talab ortadi. Kichik-kichik sug'orish kanallari qazib chiqarilib minglab gektar yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi.

Eftaliylar davrida hunarmandchilik ham rivoj topgan. Ayniqsa kulolchilik, shishasozlik, chilangarlik, bo'zchilik, zargarlik, qurolsozlik kasb-hunarlari ravnaq topgan. Chochda yasalgan o'q va yoy "kamoni chochiy" nomi bilan mashhur bo'lgan Katta-kichik shaharlar soni ko'paygan. Eftalitlar halqaro savdo sohasida **Eron, Vizantiya, Hindiston, Xitoy** bilan savdo-sotiq munosabatlarini olib boshgan. Eftalitlar Buyuk ipak yo'li savdo yo'lini nazoratda tutishga harakat qilganlar. Ipak yo'li savdosida va umuman savdogarlar ichida so'g'diylar yetakchi o'rinni egallashgan edi. Bu paytda O'rta Osiyodan o'tin, kumush, Badaxshon la'lisi, rangli shisha va shisha buyumlar, turli xil mevalar, ip-gazlama, qorako'l, zotdor tulportlar chetga olib chiqilgan

Shaharlardagi qalin mudofaali devorlar va qo'rg'onlar ilk o'rta asrning o'ziga xos me'morchilik namunalari bilan bo'lib, Nahshab vohasidagi Zahoki-Moron qal'asi, Xorazmdagi Fir qal'asi vohalarni tashqi dushmandan himoya qilishga xizmat qilgan. Shu maqsadda bir necha chaqirimlab uzunlikdagi qalin devorlar barpo etilgan. Samarqand vohasidagi 12 ta darvozaga ega bo'lgan

"Devori qiyomat", Buxoro vohasidagi uzunligi 336 kilometrli "Kampirak", Toshkent vohasidagi "Kampirdevor" istehkom devorlari shular jumlasidandir.

Shuningdek, shaharlarda qasrlar qurilishi ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Qasrlar odatda 2 qavatli, shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir necha xonadan iborat bo'lgan. V-asrdan saroy, qasrlar qurilishida paxsa va xom g'isht bilan bir qatorda pishiq g'ishtlar ham ishlatilina boshlangan. Saroy va ibodatxonalar devorlari odatda rangdor tasvirlar bilan bezatilgan. Bunday tasviriy san'at namunalari biri Bolaliktepa (Surxondaryo) qasri devorlarida qayd etilgan. Bu nodir tasviriy san'at asarida boshqarilgan ayol va erkaklarning ziyofat tasviri tushirilgan rasmlar katta did va mahorat bilan ishlangan. Shu davr moddiy madaniyat yodgorligi sifatida Xorazmdagi Tuproqqal'a xarobasini ham ko'rsatish mumkin.

O'sha davr me'morchiligining nodir namunalari biri Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyidir. Bu qo'rg'on ulkan kvadrat shakldagi tepa ustiga qurilgan. Devorlari ganch qilinib, devoriy suratlar bilan bezatilgan. Xonalar keng-keng bo'lib qalin devorlar bilan bir-biridan ajralib turgan. Mazkur davlat hukmronligi davrida mintaqada o'ziga xos ma'naviy, moddiy madaniyat tarkib topdi. Xususan, so'g'dcha, xorazmcha, buxorocha, eftaliycha yozuvlar bo'lganligi tadqiqotchilar tomonidan qayd etiladi.

## **2. Turk hoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari.**

Milodiy VI-asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta Osiyoda Turk hokonligi hukmronligi o'rnatiladi. Natijada mintaqada turkiy qavmlarning nufuzi o'rta boshlagan. Bu davrda mahalliy hokimliklar turkiy sulola vakillari tomonidan boshqarila boshlandi. Ba'zi bir viloyatlarda, masalan Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasida mahalliy hokimliklar deyarli turkiylar qo'lga o'tib ketgan edi.

**Turk, turkiylar** - jahondagi eng qadimgi va yirik etnoslardan biri. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu atama bundan 3,5-4 ming yil muqaddam rasmsimon ierogliflar bilan yozilgan bitiklarda "tiek" va "tiauk" shaklida uchraydi. Turk so'zi baquvvat, kuchli, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi. Bir necha ming yil mobaynida turkiy qabilalar ko'p marotaba birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi o'zgarib turgan.

Mil. avv. II-asrdan milodiy III-asrgacha bo'lgan davrda Turklar Xunn hoqonligi tarkibida bo'lganligi sababli Xitoy manbalarida syunnu, xunnu deb ham atalganlar. Mazkur hoqonlik yemirilgach, keyingi 300 yil davomida Xitoyliklar turklarni tiekle (tele) deb ataganlar. VI asrda turkiylarning Ashina avlodi kuchayib Turk hoqonligiga asos soladilar.

Ma'lumki azaldan hozirgi Janubiy Sibir, Oltoy hududlarida turkiy etnik qatlamga mansub qabilalar yashab kelganlar. VI asr boshlarida mazkur turkiy qavmlar orasida Ashin (ashina)urug'ining mavqeyi ko'tarila boshlaydi. Ashin urug'idan Asan (Ashan) va Tuular 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalarning yagona ittifoqiga asos soladilar. Tuu o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysundiradi.



Bumin mahalliy Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujan xoni qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 551 yilda Oltoyda yangi davlat - Turk hoqonligiga asos soladi. Manbalarda qayd etilishicha, uning poytaxti Oltoydagi O'tukan shahri bo'lgan. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i ortib borgan. 552 yilda Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning katta o'g'li Mug'anxon (553-572) o'tiradi. Mug'anxon 558 yilda jo'janlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib, o'z davlati hukmronligini Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi Istami (unga «**Yabg'u**» - bahodir unvoni berilgan edi) bo'lsa, bu davrda xoqonlik hududini g'arbg'a tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashqar, Ural, Volga bo'ylari va boshqa hududlarni egallaydilar.

563-567 yillar davomida Istami Yabg'u qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib uning hududlarini, ya'ni hozirgi O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida eftaliylar davlati qulatiladi. Turk xoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi..

Shu tariqa milodiy VI asming ikkinchi yarmida O'rta Osiyoda Turk hokonligi hukmronligining o'tatilishi bilan bu zaminda turkiy qabilalarning kirib kelishi jadallashadi. Natijada O'rta Osiyoning shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimoliy-g'arbiy viloyatlarida turkiy etnos jamiyatning xukmron etnik qatlamiga aylana boshlaydi. Xoqonlikning qariyb bir asrdan ziyodroq davom etgan hukmronlik davrida jamiyatning ijtimoiy tarkibida turkiygo'y etnik qatlamlar nufuzi orta boshladi.

Milodiy III-IV asrdan e'tiboran tarkib topa boshlagan mahalliy hokimliklar avval mahalliy sulolalar tomonidan boshqarilgan bo'lsa, Turk hokonligi siyosiy maydonga chiqqach, ular turk sulolalari vakillari bilan almashtirila boshlandi. Ba'zi bir viloyatlarda, masalan Janubiy Qozog'iston va Toshkent vohasida mahalliy hokimliklar deyarli turkiylar qo'liga o'tadi. Bu hol, yozma manba'larda taqidlanishicha, O'rta Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlariga ham yoyilgan edi. Turk hoqonligi ishonchiga kirgan mahalliy sulola vakillari esa o'zlariga turk nomlarini qabul qilish darajasigacha borib yetgan edilar.

Mintaqada ilk o'rta asrlarda Turk xoqonligining yana bir qismi bo'lgan **Ustrushona** davlati ham hukm surgan. O'sha davrda O'rta Osiyoning tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri bo'lgan Sug'ddan sharqda, Jizzax vohasi, Zomin, O'ratepa mazilgohlari va Sirdaryo havzasida ilk o'rta asrlar davrida Ustrushona viloyati joylashgan. Istaxri ma'lumotlariga ko'ra, uning tarkibida qator tumanlar joylashgan bo'lib, ular Kurket, Gazak, Vagket, Sabat, Zomin, Dizak, Bunjikat, Xarakana, Feknan, Fagkat, Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vavr, Shagar, Burgar, Buttam kabi rustaklar bo'lib, ular tepasida turgan xukmdorlar afshinlar deb atalgan.

Birinchi bor Ustrushona nomi ilk o'rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. (Shuaydushana, Suduyshana, Sudushina). Bunga ko'ra, Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil xokimlik sifatida tilga olinadi. Hozirgi Jizzax shahri

hududlari ham ushbu davlatning muhim markazaridan biri bo'lgan. Uning yosh, tashabbuskor xukmdori VIII asr boshlarida Samarqand ixshidining elchilari bilan o'z elchisini Xitoyga yuboradi.

Shaxristondan topilgan kumush tangalarga ko'ra, Ustrushonani dastlab Chirdmish, Satachari, Raxanch kabi mahalliy afshinlar boshqargan. VIII asr birinchi choragidan Ustrushonani turkiy sulola vakillari boshqara boshlagan. Darhaqiqat, arab tarixchisi Istaxriy 737-yil voqyealari munosabati bilan Ustrushona afshini turk Xarabug'a ekanligini eslaydi. (chunki o'sha kezlarda mahalliy hukmdorlar turklar bilan birga arablarga qarshi harbiy ittifoq tuzgan edilar). Undan so'ng yaqin 60 yil Ustrushona afshinligini turk Xanaxara egallaydi. U mashhur xalif Ma'mun ibn Xorun xizmatida bo'lib, Iroq va Misrda ko'tarilgan ko'zg'olonlarni bostirishda qatnashgan.

Davlatning iqtisodiy hayotida xom ashyo qazib chiqarish muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, Ustrushonaning Mink tumanida katta miqdorda temir rudasi, Buttamda o'tin, kumush. Zominda mis va boshqa metallar, Tuzkon ko'lida tuz, Isfara yaqinida Toshko'mir qazib olingan.

Shuningdek, toshtaroshlik, zargarlik, duradgorlik kabi sohalar ancha rivoj topgan. Ilk o'rta asrlarda mustaqil Ustrushona davlati hududida Jizzax shahri, Zomin, O'ratepa manzilgohlarining rivojlanishi dehqonchilik, hunarmandchilik, shaharlar taraqqiyotiga, o'z navbatida ichki va tashqi savdoni yanada uzviylashuviga olib keladi. Avvalo, shahar va qishloqlar o'rtasidagi savdo kengayadi, ikkinchi tomondan shahar va qishloqlarni qo'shni davlatlar bilan aloqasi rivojlanadi.

Yozma manbalarda qayd qilinishicha, bozorlar katta-kichik shaharlarda va hatto qishloqlarda ham bo'lgan. Ayniqsa, karvon yo'llari bo'ylab joylashgan hududlarda katta bozorlar bo'lgan. **Jizzax, Qizilqir, Zomin** rustaklarida bozorlar katta va gavjum bo'lgan. Istahriyning yozishicha, O'ratepa va Jizzaxda o'lkaning katta bozorlari joylashgan. Bu yerga hamma yerdan savdogarlar kelgan. Movarounnahrda tayyorlangan mahsulotlarning katta qismi Samarqandga keltirilgan va undan keyin boshqa o'lkalarga tarqalgan. Ichki va tashqi savdoda ayrim kichik shaharlarning ham o'mi katta bo'lgan. Bu borada O'ratepa shahri muhim ahamiyat kasb etadi.

Manbalarda yozilishicha, bu davrda savdogarlar Xorazm, Kaspiy bo'yidagi o'lkalar va Xitoy bilan oldi-sotiq ishlari olib borishgan. Shahar hokimlari savdogarlar uchun hamma shart-sharoitlarni tug'dirib berishga harakat qilganlar. Shaharda karvonsaroylar bo'lgan, ular hozorga yaqin joylarda joylashgan. Savdo rastalari karvonsaroyning o'zida ham bo'lgan. Karvonsaroylar yo'llarda ham qurilgan.

Qadimgi Ustrushonada sun'iy sug'orishga katta ahamiyat berilgan. Bunda avvalombor hududning tabiiy iqlim sharoitlari muhim omil bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik va chorvachilik naqadar katta o'ringa ega ekanligidan guvohlik beradi. Darvoqye o'z o'mida Ustrushona hududlarining tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlariga mos ko'plab qishloq xo'jalik

ekinlari, xususan, donchilik, bog`dorchilik, polizchilik kabi shalar rivoj topishi barobarida, ulardan olinayotgan daromad hisobidan kelayotgan soliqlar ham davlatning byudjetini boyishiga xizmat qilgan. Mintaqada sun'iy sug`orishga asoslangan dehqonchilikning rivojlanganligi uchun qadimdan ulkan miqdordagi ishchi kuchlariga ehtiyoj sezilgan. Xususan, o`rta asrlardayoq Ustrushonada ulkan sug`orish tizimlari mavjud bo`lganligi, ularni barpo etishda esa minglab xizmatchilar mehnat qilganligi tarixdan ayon.

### **3. O`rta Osiyo arab xalifaligi davrida. O`lkada islom dinining tarqalishi va arablar yurishlarining natijalari.**

Milodiy VI- asrning ikkinchi yarmi, VII-asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida ibtidoiy urug`-aymoqchilik munosabatlari endigina kurtak ochib kelayotgan feodal munosabatlar bilan chatishib ketganligi va shu tarzda bu yerda o`ziga xos ijtimoiy-siyosiy muhit shakllangan.

Islom so`zi" itoat etish". "**bo`ysunish**" ma`nolarini bildiradi. Bu dinning asoschisi **Muhammad payg`ambar**dir. Muhammad (Sav), Ahmad ibn Abdulloh (570/571 - 632) - islom dini payg`ambari va musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisidir. Musulmonlar e`tiqodiga ko`ra, Allohning oxirgi payg`ambari va uning elchisi. U zot orqali odamlarga Qur`on nozil qilingan. Islom ta`limotiga ko`ra, Muhammad nomlarini aytgan yoki eshitgan kishi "Sallallohu alayhi vasallam" (Sav) - "unga Allohning rahmat va salomi bo`lsin" yoki "alayhissalom" - "unga salomlar bo`lsin" deb salovat aytib qo`yish vojib hisoblanadi. Quraysh qabilasining hoshimiylar urug`iga mansub, Makkada uncha boy bo`lmagan, lekin Makkæ zodagonlariga yaqin oilada tug`ilganlar. Muhammad (Sav) go`dakliklaridayoq yetim qolganlar. otalari Abdulloh - payg`ambar (as) tug`ilmaslaridan avval, olti yoshliklarida esa - onalari Omina vafot etgan. So`ng Muhammad (Sav)ni o`z tarbiyasiga olgan bobolari Abdulmuttalib ham ko`p o`tmay olandan o`tadi, yetim bolani tarbiya qilishni amakilari Abu Tolib o`z zimmasiga oladi. 12 yoshlarida Muhammad (Sav) bir muddat Abu Tolib qo`lida tarbiya topadilar, keyin tijorat ishlariga jalb qilinganlar. 21 yoshlarida Abu Tolib Muhammad (Sav)ni Huvaylid ibn As`adning qizi, badavlat beva ayol Xadicha xonadoniga dastyorlikka beradi.

Xadichaning savdo ishlari bilan shug`ullangan Muhammad (Sav) Suriyaga safar qilganlar. Xususan, Xalab va Damashq Quraysh I Abd Manaf I Hoshim I Abd al -Muttolib Abdullox, Abu Tolib Abbos (Sav) Umar (xalifa) Abu Bakr (xalifa) Xafsa - (payg`ambar) - Oysha Usmon (xalifa)-Ruqiya I Abd Shams Umayya shaharlariga boradilar. Muhamaad (Sav) 595 y. 25 yoshda 40 yoshlarga borib qolgan Xadichaga uylanganlar. Xadicha hayotligada Muhammad (Sav) boshqa xotin olmaganlar. Muhammaad (Sav)dan Xadicha uch o`g`il (Qosim, Tohir, Tayyib) va to`rt qiz (Ruqiya, Zaynab, Ummu Kulsum, Fotima) ko`rgan. O`g`illari go`dakligidaeq vafot etgan. Qizlaridan Fotimagina Muhammad (Sav) avlodlarini davom ettirgan. Xadicha vafotidan so`ng Muhammad (Sav) bir necha bor uylanganlar (lekin, Oyshadan boshqa bokira qiz xotin olmaganlar), ulardan

farzand ko'rmaganlar. Faqat joriyalari Motiyadan Ibrohim ismli o'g'il bo'lgan. U ham yoshligida nobud bo'lgan.

610-yilda Muhammad (Sav) Makkada o'zlarining Xudodan vahiy olayotganlarini e'lon qiladilar. Buni birinchilardan bo'lib Xadicha, Muhammad (Sav)ning amakivachchalari Ali ibn Abu Tolib hamda o'g'illari Zayd ibn Horisa e'tirof etib imon keltirishgan. Ko'p o'tmay, Makkaning eng nufuzli savdogarlaridan Abu Bakr, Zubayr, Talha, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf va Usmon ibn Affon Muhammad (Sav)ni chin payg'ambar deb tan olishgan.

Manbalarda qayd qilinishicha, Muhammad (Sav) izdoshlari jamoasi dastlabki paytlarda 50 kishidan oshmagan. Makkaning qolgan aholisi, ayniqsa, nufuzli qurayshiyalar esa, Muhammad (Sav) talimotlarini ochiqdan-ochiq dushmanlik b-n qarshi olgan. Buning natijasida Muhammad (Sav) tarafdorlaridan 11 xonadon (50 ga yaqin odam) Habashiston (hoz. Efiopiya)ga ko'chib ketgan. Muhammad (Sav) jamoalariga jasur jangchilar sifatida tanilgan Hamza bilan Umarning qo'shilishi jamoaning mavqeini oshirdi. Ayni vaqtda **Quraysh zodagonlarining** Muhammad (Sav) va u zotning tarafdorlariga dushmanligi yanada kuchaydi. 620 y. da Xadichaning, so'ngra Abu Tolibning vafotidan so'ng Makkada vaziyat yomonlashadi, u muayyan xatar ostida qoladilar. Har yilgi an'anaviy Makka ziyoratiga kelgan Yasrib (hozirgi Madina sh.)lik Avs va Xazraj qabilalarining vakillari Muhammad (Sav) bilan uchrashib, sodiqlik bildirishadi va yordam qilishga va'da berishadi, Muhammad (Sav)ni Yasribga ko'chib borishga da'vat qilishadi.

Avval Muhammad (Sav)ning izdoshlari (as'hoblar) o'z oilalari bilan quraysh zodagonlaridan maxfiy ravishda guruh-guruh bo'lib ko'chadi. Oxirida Muhammad (Sav)ning o'zlari Abu Bakr (ra) bilan jo'nab ketadilar. 622 yilda yuz bergan bu ko'chish payti (arab. hijra) dan musulmonlar erasi - hijriy yil hisobi boshlanadi. Dastlab, ko'pchilik Makkalik musulmonlar, keyinchalik Muhammad (Sav)ning o'zlari ham Yasribga ko'chib o'tishgan (Rabiul avval oyining 12 yoki 8-sanasida yoki 622 y.ning 24 yoki 22 sent.ida). Yasrib Madinat an-Nabiy ("Payg'ambar shahri") yoki shunchaki, Madina deb atala boshlandi. Shanba o'miga musulmonlar uchun jamoa bo'lib namoz o'qiladigan juma kuni belgilanadi. Madina davrining avval boshidan jamoani jipslashtirish va uni kengaytirishning shakllaridan biri makkalik mushriklarga qarshi kurashish edi. 623-yil musulmonlarning Makka savdo karvonlariga hujumlari boshlandi.

Ka'ba ichidagi butlar va sanamlar buzib tashlandi, u yangi dinning eng muqaddas sajdagohiga aylantirildi, bu yerga ziyorat (haj) qilish bu dinning shartlaridan biri, deb e'lon qilindi. Makkaliklarning o'zlari esa Muhammad (Sav) jamoalariga qo'shildi. Bu hol Muhammad (Sav) jamoalarining badaviylarga ta'sirini yanada kuchaytirishda va ular o'rtasida islomni kengroq yoyishda muhim ahamiyat kasb etdi. 631-yilda ko'p qabilalar Muhammad (Sav)ga bo'ysundi va islomni qabul qildi. Hijraning 10-yili (632-yil martida) Muhammad (Sav) o'z oila

a'zolarini olib, Madina atroflaridagi 100 mingdan ortiq kishi bilan Makkaga birinchi va oxirgi marta ziyorat (haj)ga bordilar.

Mana shu ziyorat Makkaning islom diniy markazi sifatidagi mavqeini uzil-kesil hal etdi. O'shandan buyon o'tgan barcha asrlar davomida musulmonlar Makkani ziyorat qiladi. Ana shu ziyoratdan uch oy keyin uzoq davom etmagan kasallikdan so'ng Muhammad (Sav) Madinada vafot etadilar. Payg'ambari o'z hujralariga dafn qilishgan, maqbaralari keyinchalik u yerda qurilgan katta masjid ichiga olingan, musulmonlarning ziyoratgohiga aylantirilgan.

Muhammad payg'ambar muslim (musulmon)larning yagona Alloh oldida teng ekanliklarini, Yaratganning o'zi rizq-ro'z ulashishini, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi jazo muqarrar va har bir kishi bu dunyodagi ishlariga ko'ra taqdirlanishi, inson Yaratgan, yolg'iz Allohgagina e'tiqod qilishini targ'ib qildi. Islom ta'limoti o'z mazmunida yakka Allohga iymon keltirishni targ'ib qilgani, unda insof, diyonat, mehr-oqibat tamoyillari birinchi o'rinda qo'yilgani bois, aholi manfaatlariga mos bo'lib, tez orada barcha aholi orasida tarqala boshlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Madinaga ko'chib kelgan payg'ambar Muhammad o'z ta'limotini davom ettiradi va el orasida tezda shuhrat qozonadi. Muhammad payg'ambar vafot etgach (632 yy), **Abu Bakr, Umar, Usmon va Alilar** (661 yilgacha) payg'ambar siyosatini davom ettirib, Arabiston yarim orolida markazlashgan Arab xalifaligi davlatiga asos soladilar. Xalifa-o'rinbosar, noib, muavin. Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng vujudga kelgan Arab xalifaligining (632-1258 yy) diniy va dunyoviy boshlig'i. Birinchi to'rt xalifa Abu Bakr (632-634 yy), Umar (634-644 yy), Usmon (644-656 yy) va Ali (656-661 yy) "al-Xulafo ar-roshidun" -to'g'ri yo'ldan boruvchi halifalar nomi bilan mashhur bo'lganlar.

Islom dinining yoyilishida muqaddas kitob Qur'on karimning o'zmi kattadir. **Qur'oni karim** - musulmonlarning muqaddas kitobi. Muhammad Payg'ambarimiz 40 yoshga to'lgan vaqtlarida Alloh taolo Jabroil alayhissalom orqali payg'ambarlik vahiyini yubora boshlagan. Qur'oni karimning birinchi oyati ham shu kundan nozil bo'la boshlagan. Qur'oni Karimning sahifalarini jam qilish va to'liq kitob shakliga keltirish Muhammad Payg'ambar vafotidan keyin boshlangan. Bu ish xalifa Abu Bakr davrida boshlanib, xalifa Usmon davrida (644-656 yy) yakunlanadi. Ya'ni kitoblarning barchasi jamlanib yagona kitob holiga keltiriladi. Shu boisdan u mus'hafi Qur'on, sahihi Qur'on (haqiqiy Qur'on) deb atalgan. Bu kitob Sahibqiron Amir Temur davrida Movarounnahrda olib kelinib, uzoq yillar Samarqandda Xoja Axror madrasasida saqlangan. U hozirda Hazrati Imom majmuasida saqlanmoqda. Qur'oni Karimda 114 ta sura, 6236 ta oyatlar bor.

O'z davrida Muhammad payg'ambar ishlarini sahobalar davom ettirganlar. **Sahobalar** (arab.- hamroh, do'st)-Muhammad Payg'ambarning yaqin yordamchilari, safdoshlari hisoblanganlar. Ilk islom davrida Madinadagi musulmonlar jamoasida muxojirlar va ansorlardan bir guruhi Muhammad payg'ambarga yaqin turganlar. Shu boisdan ular payg'ambar maslahatchilari

sifatida xizmat qilganlar. Ular sahoba (ko'plikda as'hob) deb nom olgan va islom tarixida obro'li shaxslar sifatida tanilganlar.

VII asming ikkinchi yarmidan boshlab Xalifalik kengaya borib o'z chegaralarini g'arb va sharq tomon kengaytirishga harakat qildi. Yaqin va O'rta Sharqning boy viloyatlari qo'lga olinib, nihoyatda uyushgan va jangovar arab qo'shini shiddat bilan harakatlarini boshlab yuborgan edi. Arablar Amudaryodan (Jayxun) shimolda joylashgan yerlarga «Movarounnahr» ya'ni, "daryoning narigi tomonidagi yerlar" deb nom berishadi. Hozirgi Afg'onistonning shimoli, Eronning shimoli-sharqiy qismi hamda Janubiy Turkmanistondan to Amudaryogacha bo'lgan hududlar esa Xuroson deb yuritilgan. Avval boshda Xurosonning markaziy shahri Marv keyinchalik **Hirot** shahri bo'lgan.

651-yili noib Abdulloh ibn Amir hukmronligi davrida arablar Xurosondagi katta-kichik qo'rg'on shaharlarni egallaydilar. 654-yili Sug'ddagi Maymurg' qal'asiga arablarning birinchi hujumi bo'ladi. 657-yili Chag'oniyonga arablar qayta yurish qilib efitalilarga qarshi qat'iy zarba berdilar. Arablar keng miqyosdagi hujumlarga tayyorgarlik ko'ra boshlagan edilar. Xalifalik ichidagi o'zaro hokimiyat uchun ichki nizolarning kuchayishi natijasida arablarning Movarounnahr yerlariga hujumlari bir oz to'xtab qoladi. 676-yili Xurosonning yangi noibi Sayid ibn Usmonning Buxoro va Samarqandga yurishida Muhammad payg'ambarning jiyani Qusam ibn Abbos ibn Abdul-Mutallib ishtirok etadi. Samarqand yonidagi janglardan birida halok bo'lib, so'ng keyinchalik Shohi Zinda (tirik shoh) nomini olgan qabristonga dafn etiladi.

704-yilda **Qutayba ibn Muslim** Xuroson noibi etib tayinlanadi. Yangi tayin etilgan Xuroson noibi Qutayba Movarounnahrni butkul egallashni va qat'iyat bilan harakat qilishni boshlaydi. Arablarning Movarounnahrda yurishi arafasida o'lkada turli katta-kichik davlatlar hukmronlik qilgan, ularning qariyb barchasi mustaqil davlatlar hisoblanganlar. Arab qavmlarini din targ'iboti bilan birgalikda o'lkaning serunum tuproqlari, yam-yashil voha va vodiylari, katta miqdordagi yer osti va yer usti boyliklari e'tiborni tortganliklari shubhasiz. Bosib olingan mamlakatlarda arablar din targ'iboti yo'lida turli soliqlar, majburiyatlar va yig'implarni joriy etadilar, kimda-kim islom dinini qabul qilsa, ularni soliqlardan ozod etish to'g'risidagi hukumlar ham aholi e'tiboridan chetda qolmagan, albatta. Xususan, arablarning Xurosondagi noibi Ubaydulloh ibn Ziyod bosqinchiliklari davrida Poykent va Buxoro shaharlari hamda ularning tevarak atrofidagi yerlarni talon-taroj qiladilar va katta miqdordagi o'lpon, 1 mln dirham pul va 4000 asir bilan orqaga qaytganlar.

769-783 - yillarda Movarounnahrda **Muqanna** (niqobdor) boshchiligida arab istilochilariga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Qo'zg'olon rahbari Muqannaning ismi Xoshim ibn Hakim bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Xoshim ibn Hakim hokimiyat uchun kurash jarayonida zindonga tashlanadi. Zindonda u kasallikka chalilib, yuziga chechek toshib, badbashara bo'lib qolgan. Yuzini xalqdan yashirish maqsadida oq niqob taqib olgan va shuning uchun

muqanna laqabini olgan. Uni Xoshim ul a'var-bir ko'zli Hoshim deb ham atashgan.

710 yildan 737- yilgacha So'g'dda podsholik qilgan **G'urak** (Gurak) arblarga qarshi kurashlar olib borgan. Xususan Karmana bilan Kattaqo'rg'on oralig'idagi Arbinjon degan joyda jang bo'lib o'tadi. Animo kuchlar teng bo'lmaganligi sababli G'urak chekinadi. Shosh va Farg'onadan yordamga yuborilgan otryadlar ham yo'lda Qutayba tomonidan tor-mor etilgach, Samarqand qamali boshlanadi, u 6 oy davom etadi. Xususan, 712 yilda Qutayba o'zaro ichki urushlardan foydalanib, Xorazmni o'ziga bo'ysundiradi, o'sha yilning o'zida arablar O'rta Osiyoning yirik savdo, iqtisodiy-siyosiy markazlaridan biri Samarqandni ham bosib oladilar.

Islom rivoji jarayonida o'lkada sunniylik ta'limoti keng yoyiladi. Sunniylik oqimi islom dinidagi ikkita asosiy yo'nalishlardan biridir. Bugungi kunda jahondagi barcha musulmonlarning qariyb 90 % sunniylikka mansub. Bu yo'nalish VII asrning ikkinchi yarmida Arabistonda vujudga kelgan. VIII-XII asrlarча arab xalifaligidagi diniy-siyosiy kurashlar jarayonida islomdagi eng yirik yo'nalish sifatida shakllangan. Sunniylar Qur'on bilan birga sunnaga e'tiqod qiladilar. Sunniylikda 4 ta mazhab mavjud, bular **Xanafiya**, **Motikiya**, **Shofeiya** va **Xanbaliya** mazhablaridir.

Shialik - islomdagi ikkinchi asosiy yo'nalishlardan biri. O'zining keng yoyilishi jihatdan sunniylikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali hokimiyati tarafdorlarini qo'llab-quvvatlovchi guruh tomonidan vujudga kelgan. Shialar sunniylar kabi Qur'oni Karimni ilohiy deb e'tirof etadilar, lekin xalifalar davrida uning ayrim qismlari tashirib qoldirilgan deb hisoblaydilar. Ular faqat Ali nomi bilan bog'liq hadislarni tan olganlar. Shunday hadislardan iborat mustaqil to'plam "Axbor"ni tuzganlar.

Shialar sunniylar kabi Makka va Madinani "muqaddas" hisoblash bilan birga, Karbalo, Najaf shaharlarida joylashgan yirik shia imomlari qabrlarini ham ziyorat qiladilar. Shialikda ham bir nechta mazhablar mavjud bo'lib shariatida jafariya mazhabi muhim rol o'ynaydi. Hozir jahondagi musulmonlarning kam qismi (ba'zi manbalarda 5 foiz, 7 foiz, deb qayd qilingan) shialikka mansub. Shialik hozirgi vaqtda asosan Eronda hukmron e'tiqod hisoblanadi. Iroq, Livan, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Tojikiston va Ozarbayjonda, Turkiyada ham shialar bor.

O'rta Osiyo arablar qo'liga o'tgandan so'ng, bu yerlar abbosiy xalifalar nazoratida bo'lgan. Ushbu sulola arab xalifalari sulolasi bo'lib (749-1258 yy), bu sulolaga Muhammad Payg'ambarning amakivachchasi Abul Abbas as-Saffoh (749-754 yy) asos solgan. Abbasoiylar sulolasi besh asr ya'ni 749- yildan 1258-yilgacha hukm surgan. Xalifa Al Mansur xalifalik poytaxtini Damashqdan Bog'dodga ko'chirgan. Shuning uchun ham tarixiy adabiyotlarda Bog'dod xalifaligi, degan tushuncha ham keng ishlatiladi.

Movarounnahr yerlari ham xalifalikka bo'ysungan. Somoniylar davridan boshlab (874-999 yy) Movarounnahr mustaqillikka erishib xalifalik tarkibidan

chiqqan. Abbosiylardan 38 kishi xalifa bo'lgan. Oxirgi xalifa Mustasimni (1242-1258 yy) Chingizxonning nevarasi Xulaguxon 1258 yilda Bog'dodni egallab taxtdan tushirgan. Abbosiylardan bo'lgan eng mashhur haliflar: Abulabbos Saffox (750-754 yy), Mansur (754-775 yy), Mahdiy (775-785 yy), Xorun ar Rashid (785-809 yy), Amin (809-813 yy), Ma'mun (813-833 yy), Mustasim (1242-1258 yy)

Arab qavmlarini din targ'iboti bilan birgalikda, o'lkaning serunum tuproqlari, yam-yashil voha va vodiylari, katta miqdordagi yer osti va yer usti boyliklari e'tiborni tortganliklari shubhasiz. Fath qilingan mamlakatlarda arablar din targ'iboti yo'lida turli soliqlar, majburiyatlar va yig'implarni joriy etadilar. Kimda-kim islom dinini qabul qilsa, ularni soliqlardan ozod etish to'g'risidagi hukmlar ham aholi e'tiboridan qetda qolmagan, albatta.

Xususan, arablarning Xurosondagi noibi **Ubaydulloh ibn Ziyod** bosqinchiliklari davrida Poykent va Buxoro shaharlari hamda ularning tevarak atrofidagi yerlarni talon-taroj qiladilar va katta miqdordagi o'lpon, 1 mln dirham pul va 4000 asir bilan orqaga qaytganlar.

Asta-sekin Movarounnahrda arablarning to'la hukmronligi o'matila boshlagach, ilgari dehqonzodalar tasarrufidagi qishloq jamoalarining mulklari ham arab hukmdorlari va noiblari qo'lga o'tishi barobarida, mahalliy hukmdorlar faqatgina ayrim soliq turlarni to'lash orqali avvalgi hukmdorliklarini davom ettirayotgan edilar. Bosib olingan shahar va qishloqlarning islom dinini qabul qilmagan barcha toifasidan birdek **juzya** (jon solig'i) faqat mol-mulkka egalik huquqiga ega erkaklardan undirilgan. Xotin-qizlar, keksalar, yersiz, mulksiz toifa kishilar bunday soliqni to'lashdan ozod etilganlar.

Qolgan barcha toifadagi aholi esa umumiy yer solig'i **xiroj** to'lashlari shart bo'lgan. Xiroj miqdori hosilning  $\frac{1}{3}$  (ba'zi manbalarda uning miqdori  $\frac{1}{5}$ ,  $\frac{1}{10}$  ekanligi qayd etiladi) qismiga qadar yetgan edi, ba'zan undan ortiq bo'lgan. Juzya, xiroj va boshqa soliqlardan tashqari, ziroatchi aholi gardanida boshqa og'ir soliq turlari ham bo'lgan.

Dehqonlar o'z qurol-aslahalari bilan kanallar qazish va tozalash, yo'l qurish va eski yo'llarni ta'mirlash, ko'priklar, shahar qal'a devorlari barpo etish va shu kabilarni bajarishga majbur qilinganlar. Dastlabki yillarda Movarounnahrda soliqlar va ularning turlari ancha kengayishi bilan bir qatorda, arablar o'z bosqinchilik maqsadlarini oqlash uchun aholining ayrim qismlariga soliq to'lashda imtiyozlar ham berishgan. Xususan, arablar musulmonchilikni qabul qilgan kishilarni soliqlardan ozod qilishgan.

704 yilda **Qutayba ibn Muslim** davrida mahalliy hukmdorlar bilan tuzilgan sulh shartnomasiga binoan buxoroliklar har yili arablarga boj-xiroj to'lab turish majburiyatini oladilar. Shu bilan birga, arablar uchun o'tin, ot-ulov uchun yem-xashak va suv tashib berish majburiyati ham mavjud edi. Yana shunday janglar Movarounnahrning boshqa shahar va qishloqlarida ham sodir bo'lib turgan. Samarqand va So'g'diyona xalqi arablarga har yili 2 million 200 ming dirham



miqdorda o'lon to'lash va arab qo'shiniga 100 ming kishi to'plab berishga majbur etiladi

Mahalliy aholiga nisbatan arablarning jabr-zulmi yanada kuchaya boshlagach, Movarounnahming aksariyat shaharlarida ommaviy xalq qo'zg'olonlari birin-ketin sodir bo'la boshlagan. Bu esa hukmdorlarning mahalliy xalqlarga nisbatan iltifot ko'rsatishgan bo'lsalarda, shu bilan bilan birgalikda, ularning qahr-g'azabini yanada kuchaytirgan edi. Jumladan 723-yilda Xo'jandda bo'lib o'tgan yirik xalq qo'zg'oloni kuch bilan bostirilgach, arablar jamoachilarni xiroj va juzya to'lashga majburlab, ularning bo'yinlariga maxsus qo'rg'oshindan qilingan muhrlar osib yurishni talab qilganlar. Bunday muhrlarda *rustoq* yoki ma'lum joyning nomi bilan bir qatorda, to'lanadigan soliq miqdori ham qayd etilgan.

Shu bilan bir qatorda mahalliy xalqlar arablar bosib olgan yerlardan har yili xalifalik xazinasiga katta miqdorda o'lon to'lab turishlari bilan birgalikda, ma'lum miqdorda qo'shin uchun odam ham to'plab berganliklari to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi. Arablar asosan diniy targ'ibotni o'zlarining asosiy maqsadlari deb bilgan holda, «*g'ayridinlarga qarshi kurash*» niqobi ostida faol ish olib borishlari bilan birgalikda, talonchilikdan iborat istilochilikni ham asosiy maqsad qilganlar. Soliqlarning muttasil ortishi va jabr-zulmlar o'lkada qudratli xalq chiqishlarini avj olishiga turtki bo'lgan.

#### **4. Arablar bosib olgandan keyin Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. soliqlar.**

Arablar O'rta Osiyoni bosib olgach, bu hududdagi hamma shaharlar va aholi joylarida o'z qo'shinlarini joylashtiradilar. Bu harbiy kuchlar o'z vaqtida mahalliy aholi ustidan nazorat qilib turardi. Arab xalifaligining hukmronligi aholi uchun ofir yuk bo'lib qoldi. mahalliy xalqlar arablar bosib olgan yerlardan har yili xalifalik xazinasiga katta miqdorda o'lon to'lab turishlari bilan birgalikda, ma'lum miqdorda qo'shin uchun odam ham to'plab berganliklari to'g'risidagi ma'lumotlar ham uchraydi. Ayniqsa soliqlarni muttasil ortishi va jabr-zulmlar o'lkada qudratli xalq chiqishlarini avj olishiga turtki bo'lgan. Ana shunday yirik xalq harakatlaridan biri, shubhasiz Buxorodan Shaxrisabz gacha bo'lgan hududlarda keng yoyilgan Muqanna qo'zg'oloni edi.

Istilochilar avval boshda Movarounnahming hunarmandchilik va savdo shaharlari, obod viloyatlariga bostirib kirib, ularni taladilar va katta o'ljalarga ega bo'ldilar. O'lkalami bosib olish cho'rida dehqonchilik vohalari oyoq osti qilinib, shahar va qishloqlar vayron etildi. Suv irishootlari buzib tashlandi. Ko'pgina joylarda qurroqchilik yuz bera-boshladi. Shaharlardan katta miqdorda qimmatbaho o'ljalari, Buxoro, Poykand va So'g'd hukmdorlaridan esa katta miqdorda tovon olindi.

Arablar o'z hukmronligi siyosiy negizini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashda islom dinini keng yoyishga va targ'ib qilishga katta e'tibor beradilar. O'rta Osiyo aholisi ichida e'tiqod qilayotgan zardushtiylik,

moniylik, buddizm, nasroniy va boshqa dinlar soxta deb e'lon qilinadi. Ayniqsa zardushtiylikka qarshi keskin kurash olib borildi. Bosib olingan yerlarda bu dinning barcha ibodatxonalari yo'q qilindi, uning o'miga masjidlar barpo qilina boshlandi. Zardushtiy adabiyotlar, xususan diniy kitoblari, so'g'd tilidagi adabiyotlarning bir qismi yo'q qilinib yuborildi.

Ma'lumki, arablarning O'rta Osiyodagi yurishlari barobarida soliq va moliya tizimi dastlab talonchilik asosida amalga oshirilgan. Talonchilik siyosati ayniqsa arab bosqinchiligini ikkinchi davrida yanada kuchayadi. Xususan, Qutayba 707-715 -yillarda Muvorounnahrni tamoman uzil-kesil qo'lga kiritib, boylik orttirishning zo'ravonlik usuliga o'tadi. Masalan, uning tavsiyasiga binoan Samarqand hukmdori 2.200.000 dirham to'lash majburiyatini olib, barcha oltin va kumush, zeb ziynat buyumlarini tortib olishni ko'zda tutadi. Muvorounnahrni o'z mustamlakasiga aylantirishda talonchilik usuli bilan birga soliq solishni takomillashtirishga ham ahamiyat beradi.

Soliqqa tortish tizimiga ko'ra yerlar ikki guruhga. ushr va xiroj to'lanadigan yerlarga bo'lingan. Birinchi toifaga arablarga qarashli yerlar kirar edi. Qolgan yerlarning hammasi ikkinchi toifa hisoblangan. Bunda ushr alohida ahamiyat kasb etgan. Ushr yerlardan olingan hosilni 1/10 qismi, xiroj yerlardan hosilni 1/3 qismidan 1/2 qismigacha munosima olinar edi. Bundan tashqari ekin maydoniga qarab qat'iy tarzda, shuningdek uzumzorlar va bog'lardan belgilangan miqdorlarda soliq olingan. Chorvadorlardan soliq asosan mol boshi soniga qarab olingan. Hunarmandlar va savdo ahli yillik daromaddan oshgan taqdirda soliq to'laganlar. «Zakot» so'zi keyinchalik hunarmandchilik, savdo va chorvachilik solig'iga nisbatan qo'llaniladigan bo'lgan. Bundan tashqari turli foydali qazilmalardan ko'rilgan daromad va bevosita vorisi bo'lmasa, merosdan ham soliq undirish taomilga aylanadi.

Arablar o'z mustamlakachilik mavqelarini mustahkamlab olish maqsadida soliq siyosatini islom manfaatlarini yo'lida keng foydalanishga uringanlar. Soliq to'lashdan islom dinini qabul qilgan aholi ozod qilinadi. Xususan, arablar O'rta Osiyoni bosib olganlaridan so'ng xirojni mahalliy odat bo'yicha yozning o'rtasida hamda ikkinchi yarmida, g'alla pishib yetilganda va kech kuzda yoki erta bahorda yig'ib olganlar. Bu esa ayrim hollarda xalq g'alayonlarini ko'tarilishiga sabab bo'lgan. Soliqlarni to'lamagan shaxslar boy va amaldorlar yerida ishlab berish, qo'shimcha haqlar undirish, ayrim holatlarda tan jazosi berish kabi jazolarga tortilgan. Har bir fuqaro xiroj to'loviga shaxsan o'zi javobgar hisoblangan, kam yerli va yersiz dehqonlar tomonidan belgilangan soliq o'z vaqtida to'lanmasa, ushbu masalaga yer-suv jamoasi raislari va qishloq --oqsoqollari javobgar bo'lmaganlar.

718-yildan boshlab Muhammad Payg'ambarimizning amakilari Abbosning tarafdorlari o'z g'oyalarni targ'ib qila boshlaydilar. Ular **hoshimiylar** urug'i (Payg'ambarimiz shu urug'dan bo'lganlar) vakillari hokimiyatga da'vogardilar, deb hisoblashar edilar. Keyinchalik ular o'z kurashlarida shialar bilan birga harakat qila boshlaydilar. yerga egalik munosabatlarning rivojlanishi, ijtimoiy-

siyosiy vaziyatning o'zgarishi ummaviylarning siyosiy sahradan ketishlarini, ularning avvalgi mavqeyi tugaganligini ko'rsatib turar edi. Ummaviylar siyosatidan ommaviy norozilik ayniqsa Marvon II (744-750 y.) hukmronlik davrida yanada kuchayib ketadi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Xioniylar, kidariylar, eftalitlar, Eron sosoniylari, kashovarlar, kadivarlar, Mazdak ta'limoti, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, shariat, axloq-odob nomalari, hadislar, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, Muqanna, xiroj, ushr, juz'ya, mazxab.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Eftalitlar hukmronligi davrida o'lkamizda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
2. Mazdak ta'limotining asosiy g'oyalari va uning O'rta Osiyoga tarqalishi.
3. Eftalitlar davrida O'rta Osiyoda madaniyat, diniy e'tiqod.
4. Turk xoqonligining vujudga ke'ishi va taraqqiyoti.
5. Arablarning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari va ularning oqibatlari.
6. Movarounnahrda arablar hukmronligi davrida ijtimoiy, iqtisodiy hayot, soliq tizimi.

### **Nazorat savollari**

1. Kidariylar, xioniylar va eftalitlar hukmronligi davrida o'lkamizda ijtimoiy-iqtisodiy hayot qanday bo'lgan?
2. Movarounnahrda arablar bosqiniga qarshi xalq g'alayonlarining xarakteri va mohiyati nimlarda namoyon bo'ldi?
3. Muqanna qo'zg'oloni va uning tarixiy ahamiyati haqida gapiring.
4. Arab xalifaligining zaiflashuvi sabalari nimada edi?
5. Movarounnahrda arablar davrida joriy etilgan soliqlar, ularning turlari qaysilar?
6. Arab halifaligidagi ichki suloiaviy kurashning o'lkamiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri qanday edi?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Saidqulov T. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. T., 1993.
2. Mason V.M. Srednaya Aziya i drevniy vostok. M., 1964.
3. Sagdullaev A. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. T., 1996.
4. Pidaev Sh. Sirli kushonlar saltanati. T., 1990.
5. O'zbekiston tarixi. «Darslik»// Mas'ul muharrir t.f.d R.X. Murtaeva. T., 2005 y.
6. O'zbekiston tarixi xrestomatiyasi. 1-jild. Eng qadimgi yozma manbalar. Avesto. "Fan" nashriyoti. -T.: 2014.

7. Usmonov Q, Sodiqov M, Burhonova S. O'zbekiston tarixi : oliy o`quv yurt. (tarix yo`nal. tashqari) bakal. uchun darslik /; 2-nchi qayta ishlangan nashri. - Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2016.- 496 b.

#### 4-mavzu: IX–XII asrlarda o‘zbek davlatchiligi. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi

##### Reja:

1. Tohiriylar, Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr.

2. Movarounnahrda G‘aznaviylar va Saljuqiylar hukmronligi.

3. Xorazmshohlar hukmronligi davrida o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi.

4. IX–XII asrlarda Movarounnahrda uyg‘onish davri, ilm-fan, madaniyat va diniy ta‘limot.

##### 1. Tohiriylar, Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr.

Arab xalifaligi hukmronligi yillarida, ayniqsa so‘nggi hukmdorlar boshqargan 786-809 -yillarda xalifalikda ichki, sulolaviy nizolar avj ola boshlaydi. Ayniqsa xalifa Xorun ar Rashid vafotidan so‘ng xalifalik taxtini egallash uchun uning o‘g‘illari Amin va Ma‘mun o‘rtasida o‘zaro kelishmovchilik va taxt uchun talashlar natijasida kurash boshlanib ketadi. Bir necha yilga cho‘zilgan bu siyosiy mojaro nafaqat xalifalik markazini tang ahvolga solib qolmasdan, balki unga tobe bo‘lgan hududlardagi voqyealar rivojiga ham ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa xalifalikning bir qismi hisoblangan Xurosonda ham ichki siyosiy vaziyat keskinlashgan bo‘lib, bundan foydalangan Ma‘mun o‘z inisi Aminga qarshi kurash boshlaydi. Bundan unumli foydalangan Xurosonlik Tohir ibn Husayn Ma‘mun tomonida turib kurashadi. 813 yilda Ma‘mun Toxirning ko‘magi bilan Iroqning bir qismi, ayniqsa xalifalik poytaxti Bag‘dodni qo‘lga kiritadi.

Xurosonlik Tohirning ushbu xizmatlari evaziga **Ma‘mun** uni, dastlab saroyda yuqori lavozimlarga ko‘taradi, hatto o‘z qo‘shiniga qo‘mondon etib tayinlaydi. 821- yilda Tohir ibn Husayn o‘zining alohida xizmatlari evaziga Xurosonga noib etib tayinlanadi. Bu paytda O‘rta Osiyo, xususan Movarounnahrda arab xalifaligiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida mahalliy sulola vakillarining mustaqillikka bo‘lgan intilishlari kuchayib ketadi. Natijada xalifalikning ichki hududlarida ham ziddiyatlar keskinlasha boshladi. O‘sha paytda Movarounnahr ham Xuroson tarkibida edi.

Tohir ibn-Husayn Nishopur shahrini o‘zining qarorgohi etib tanlaydi. U o‘zi noiblik qilayotgan viloyatlarni xalifalikdan mustaqil boshqarishni orzu qilardi. Natijada Tohir xalifalikdan mustaqil siyosat yurgizishga harakat qiladi. Shuni qayd qilish zarurki, tohiriylar davrida armiya, ya‘ni harbiy sohada islohotlar o‘tkaziladi, qishloq xo‘jaligida islohotlar amalga oshirildi, yer suv masalalari birmuncha bo‘lsada o‘z yechimini topadi. Bu davrda islom dini butun mintaqa bo‘ylab keng yoyildi, Xuroson va Movarounnahrda mashhur diniy ulamo va

avliyolar yetishib chiqdi, din kirib bormagan shahar va qishloqlarga ham u keng yoyildi, islom dini to'la davlat diniga aylandi.

Ammo mamlakatdagi ichki nizolar, oddiy xalq turmush tarzining og'irligi natijasida aholi, ayniqsa dehqonlar og'ir ahvolga tushib qolgan bo'lib, haddan ziyod soliq-o'lponlar to'lashga majbur etilgandi. Birgina 844 yilda ulardan olingan soliq miqdori 48 mln. dirxamni tashkil etganligi tarixiy adabiyotlarda qayd qilinadi. **Ma'munga** qo'l keladi, Natijada bundan foydalangan Ma'mun xalqni **Tohiriylarga** qarshi qo'yishga intiladi. Bu esa mahalliy aholining norziligiga sabab bo'ladi, natijada Xurosonning qator viloyatlarida dehqonlar g'alayonlari sodir bo'la boshlaydi. Ayniqsa, Xurosonning sharqiy hududlarida yuzaga kelgan g'oziyalar harakati va dehqonchilik vohalaridagi g'alayonlar kengayib ketadi. Ushbu g'alayonlarning biriga asli kelib chiqishi misgar bo'lgan, aka-uka Yoqub va Amir ibn Layslar boshchilik qiladilar.

Ular dehqonlar va hunarmandlarning qo'zg'olonlari yordami bilan 873 yilda dastlab Seyistonda hokimiyatni qo'lga olgach, 873 yilda tohiriylarning qo'shinlariga katta zarba berib, Xuroson: poytaxti Nishopurni egallaydilar. Tohiriylar sulolasini ag'darib tashlashga muvaffaq bo'ladilar. Shu tariqa **Yoqub ibn Lays** boshchiligida **Safforiylar** (misgarlar) davlati tashkil topadi va yangi sulolasi hokimiyat tepasiga keladi. Tohirning hukmronligi nihoyasiga yetgach, uning avlodlaridan bo'lgan Talha (822-828 yy), Abul Abbas Abdulloh (830-844 yy), Tohir ibn Abdulloh (844-862 yy), Muhammad ibn Tohir (862-873 yy) davrlarida Tohiriylar davlatining mustaqilligi xiyla bo'lsada ta'minlandi, mamlakatda ichki vaziyat birmuncha yaxshilanadi.

Tohiriylar davlati o'miga safforiylar davlati o'rnatilgach, ahvol baribir o'zgaradi. Ya'ni hukmdor Yoqub ibn Lays davrida o'lkada qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimlarini yaxshilash, xalqning ahvolini yumshatish borasida xalqqa qanchalik va'dalar berilmasin, u o'z armiyasining jangovarligini kuchaytirish, askarlarni maosh bilan ta'minlashga urinmasin, mehnatkash xalqning ayniqsa og'ir soliqlardan tinkasi quridi. Xalq orasida ushbu sulola vakillariga nisbatan ham ishonch yo'qola boshlaydi. Bu hol oxir-oqibatda safforiylar davlatidagi ijtimoiy- iqtisodiy vaziyatni tobora keskinlashishiga olib keladi. Xuroson va Movaraunnahr ustidan hukmronlik qilib turgan tohiriylar sulolasining inqirozga uchraganligi Movaraunnahrdagi mahalliy hokimlarning o'lkani to'la mustaqilligini ta'minlash sari harakatlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi. Vaholanki, bu davrda Movarounnahrdan somonxudotlar sulolasi vakillaridan bo'lgan Somoniylar hokimiyat uchun kurashayotgan edi.

Bu davrda Movarounnahrdan Somoniylar davlati tashkil topadi, bu IX- asr boshlariga to'g'ri keladi. Bunda ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiq xizmat qilgan balxlik mahalliy hukmdorlardan Somonxudotl avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqini topshirgan edi. Shu tariqa IX- asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning katta o'g'li Nasr Somoniylar Movarounnahning ko'pchilik hududlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar.

**Somoniylar davlati.** Ushbu davlatga Somon qishlog'i (Balx yaqinida, ba'zi manbalarda esa, - Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari asos solgan. Xalifa Ma'munga bo'lgan sadoqatlari evaziga 819-820-yillarda Somonxudotning nabiralariga turli viloyatlarni boshqarish taqdim qilingan edi. Xususan, Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yahyo Choch va Ustrushonaga, Ilyos Hirotga hokim etib tayinlanadilar

Umuman, ushbu sulola O'rta Osiyoda 875-999 yillarda hukm surgan. Somoniylar sulolasi kelib chiqishi jihatidan mashhur sarkarda, turk Bahrom Chubinning avlodlaridan bo'lgan. Bahrom Chubinga o'z davrida davlat oldidagi katta xizmatlari uchun Balx va Termiz oralig'idagi yerlar iqta' (iqto) sifatida berilgan. U esa bu bu joylarga o'z yaqinlarini joylashtirgan. Somonxudot Balx atrofining yirik mulk egasi-aslzodalaridan biri bo'lib, uning nabiralari xalifa Xorun ar-Rashid (785-809 yy)ning Xurosondagi noib o'g'li Ma'munga sadoqat bilan xizmat qilganlar.

Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtini egallab, 819-yilda Somonxudotning nabiralariga Movarounnahr viloyatlarini boshqarishni topshiradi. Somoniylardan Nux ibn Asaddan boshlangan mamlakatni mustaqil boshqarishga intilish Ismoil Somoniy davrida nihoyasiga yetadi. 839-840-yillarda Nuh ibn Asad Isfijob viloyatini bosib oldi va uni mustahkamladi. U So'g'dning bir qismi va Farg'onaga hokim bo'lib oldi. Lekin somoniylar davlatini bunyod etishda Ahmadning hissasi ko'proq bo'ldi. Uning Nasr, Ya'qub. Yahyo. Asad, Ismoil, Is'hoq va Homid ismli o'g'illari bor edi. Nuh ibn Asad 842-yili vafot etgach, Samarqandni ukalari Ahmad va Yahyo boshqardi, keyin hokimlik Nasr (865-892 yy) qo'liga o'tdi.

Tez orada **Buxoro** davlat **poytaxtiga** aylantiriladi. X asrning birinchi yarmi bu davlatning gullagan davridir. Movarounnahr, Xuroson, Shimoliy va Janubiy Eronni o'z ichiga olgan hamda Xorazm, Seyston, Jurjon va Tabariston (Mozondaron) bu davlatga itoat etgan. Somoniylar davrida Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur Urganch, Xiro, Balx eng yirik va savdo-hunurmandchilik taraqqiy etgan shaharlar bo'lgan.

859-yilda Yahyo ibn Asad vafot etgach, Choch va Ustrushona Ahmadning ikkinchi o'g'li Ya'qubga nasib etadi. Keyin tashabbus Ismoil ibn Ahmad qo'liga o'tdi. Buxoroda tohiriyalar mavqeyi sust edi. 874- yilda Husayn ibn Tohir Xorazm shaharlarini talayotgan bir paytda Buxoro zodagonlari iltimosi bilan Nasr Buxoroga Ismoil ibn Ahmad (849-892)ni hokim qilib jo'natadi.

Nasr Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. Xalq bu ishda unga xayrxoh edi. 875-yilda u Sharqiy Turkistonni qo'lga kiritgach, xalifa Mu'tamid dan Movarounnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo'ladi. Bu paytda Buxoroda kuchayib ketgan Ismoil akasiga tobe' bo'lishni istamas edi. 888-yili ikki o'rtadagi jangda Nasr yengiladi, 892-yilda Nasr vafot etgach, Ismoil Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi (892-907 yy). 893 yilda u Tarozni, so'ng Ustrushonani qo'lga kiritadi.

Akasi Nasr vafotidan so'ng **Ismoil Somoniy** Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Buxoro davlat poytaxti sifatida mustahkamlanadi.

Ismoilning 893-yilda sharqdagi dashtlik qabilalarga qarshi qilgan muvaffaqiyatli yurishi, Tarozni egallab, katta o'lja va asirlar bilan qaytishi ham Somoniylar qudrati yuksakligidan yaqqol dalolat beradi. Ismoil Somoniy davlati qudratining o'sib borishidan cho'chigan, uni zaiflashtirishni va o'z ta'sirini qayta tiklashni ko'zlagan Bag'dod xalifasi Xurosondagi Safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga (879-900) Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gij-gilaydi.

Bu esa 900-yilda ikkala davlat o'rtasida katta urushga sabab bo'ladi. Urushda Somoniylar qo'li bilan keladi va Xuroson ham Somoniylar qo'li ostiga o'tadi. Shu tariqa xalq xalifalik istibdodidan xalos bo'ldi. Ismoil Somoniy bu hududda kechgan uzoq yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanib, markaziy davlat boshqaruvi tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi. Bu tizim Ahmad ibn Ismoil, Nasr ibn Ahmad, Nuh ibn Nasr davrida ham davom ettiriladi. Somoniylar davlatining boshqaruv tizimida davlat hukmdori Amir bo'lib, u Oliy dargoh hisoblangan.

**Qoraxoniylar**-O'rta Osiyoda, asosan Movarounnahr va Sharqiy Turkiston hududlarida Somoniylardan keyin 999-1212 yillarda hukmronlik qilgan musulmon turkiy sulola. Uni barpo etishda qator turkiy qabilalar ishtirok etgan, bulardan qarluq, chigil va yag'mo qabilalari yetakchi bo'lgan. Asoschisi yag'mo qabilasidan chiqqan Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (Qoraxon). Yag'molar X asr o'rtalarida islom dinini qabul qilganlar. 992- yilda Xorun ibn Muso Sotuq Buxoroni, 996-999- yillarda uning vorisi Nasr I Movarounnahrn butunlay bosib oldi. Qoraxoniylar davlati poytaxti dastlab Qoshg'ar, keyin Bolasog'un. O'zgan shaharlari bo'lib, keyinchalik yana Qoshg'arga ko'chirilgan. XI asrning 60-70 - yillarda qoraxoniylar ichki siyosiy kurash va saljuqiylar tazyiqi ostida davlati zaiflashib, kuchsiz davrlarga aylanib qoladi. 1212- yili qoraxoniylarning so'nggi vakili Qilich Arslon Muhammad Xorazmshoh tomonidan o'ldirilgan.

Sotuq zamonida Qoraxoniylar davlati ikkiga bo'linib ketadi. Birining poytaxti Bolasog'un bo'lib, oliy hokimiyat yoshi katta bo'lgan hoqon tomonidan boshqarilgan; ikkinchi davlatning poytaxti Taroz, keyinchalik: Qoshg'ar bo'lib, kichik hoqon tomonidan boshqarilgan.

996- yili Qoraxoniylar xoni Nasr Buxoroni yana bosib oladi. Somoniylar lashka:boshisi Abul Ibrohim Ismoilning Buxoroni ozod etish yo'lidagi urinishlari 1005-yilda muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Somoniylarning G'aznadagi noibi Sabuqtegin 997-yilda vafot etdi. O'miga uning o'gli Mahmud G'azna hokimi bo'ldi. Somoniylar amiri Mansur ibn Nuh uning ta'sirida edi.

1001- yilda Sulton Mahmud Qoraxoniylar xoqoni Nasr bilan shartnoma tuzib, Amudaryoni ikki o'rtadagi chegara qilib belgiladi. Somoniylar davlati o'mida ikki ulkan davlat tashkil topdi. Birinchisi Qoshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan Sharqiy Turkistonning bir qismida, Yettisuv, Shosh, Farg'onaning qadimgi hududlarini o'z ichiga olgan Qoraxoniylar davlati. Ikkinchisi Shimoliy Hindiston sarhadlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hamda hozirgi Afg'oniston va shimoliy- sharqiy Eronni o'z ichiga olgan



G'aznaviylar davlati edi. Iloq hokimlari nomigagina qoraxoniylarga qaram bo'lib, o'z yurtlarini mustaqil ravishda boshqarganlar.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi davrida ichki nizolar va turli sulolaviy urushlar, ziddiyatli jarayonlar sodir bo'lib turgan. Shu bilan birga qo'shni davlatlarning qoraxoniylar bilan aloqalari ijobiy bo'lmagan. Ayniqsa xonlikning muhim hayotiy markazlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Balx va Termiz kabi joylarni qo'lga kiritish uchun saljuqiylar, qoraxitoylar bilan ko'p bor urush harakatlari olib borilgan. Xususan, saljuqiylarning so'ngi podshohi **Sulton Sanjar** (1118-1157 yy) Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmdori Arslonxon (1102-1130 yy) ning zaiflashib qolganligidan va mahalliy ruhoniylar fitnasidan foydalanib, Samarqand va uning atroflarini bosib oladi. Shundan so'ng Qoraxoniylar sulolasiga mansub mahalliy xonlar amalda Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar.

Biroq ko'p o'tmay bu hududlar yangidan sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar ta'siriga tushib qoladi. XII asr boshlarida qoraxitoylar Bolasog'unni ham egallaydilar. 1138-yilda qoraxitoylar go'rxoni Sulton Sanjarning qarindoshi, Samarqand hukmdori Mahmudni Xo'jand yaqinida mag'lub etadi. Shahar talanib katta tovon undirilgan bo'lsa-da, bosib olinmadi. 1141-yilda qoraxitoylar yana Movarounnahrda bostirib kiradilar. Bu gal jang Samarqand yaqinidagi Qatvon cho'lida bo'ldi. Jangda sulton Sanjar bilan Mahmudning birlashgan kuchlari tormor keltirildi.

Har ikki tomondan 30 mingga yaqin kishi o'ldirildi. Sulton Sanjar va Maxmud Termiz tomon chekindilar. Qoraxoniylarda dastlab Bolasog'un poytaxt sanalib, ulug' xon shu shaharlardan birida qarorgohda o'tirgan. XI asr o'rtalariga kelib Qoraxoniylar hokimiyati 2 ga bo'linib ketdi: birinchisi markazi Samarqand bo'lgan, Movarounnahming katta hududlarini o'zida jam etgan G'arbiy qoraxoniylar davlati, ikkinchisi Markaziy Bolasog'un bo'lgan Talas, Isfijob, Shosh (Toshkent), Sharqiy Farg'ona, Ettisuv va Qoshg'ar yerlarini tarkibiga olgan Sharqiy qoraxoniylar davlati.

Aynan davlatni boshqaruvchi oliy unvon- qoraxoniylar davri kitoblarida "**tamg'achxon**" unvoni bilan yutirilganligi qayd qilinadi. Qoraxoniylar davlatining boshqaruv tizimi mahalliy hududiy boshqarish tartibiga asoslangan bo'lib, viloyatlar eloqxonlar (mahalliy hukmdorlar) tomonidan idora qilingan.

Eloqxonlar tegishli miqdordagi yillik xiroj yoki to'lovlarni markaziy xokimiyat hukmdori - tamg'achxonga yuborib, amalda o'z mulklarini mustaqil boshqarganlar. Qoraxoniylarga qarashli yerlar tamg'achxon tomonidan uning o'g'illari, qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida ota-o'g'il, amaki, jiyanlar hamda aka-uka, amakivachchalar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib bu siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan. Yettisuvdan turib Movarounnahrni boshqarish qiyin bo'lgan davrda Samarqand iloqxoni ancha kuchayib ketgan edi.

Qoraxoniylar davlatida davlatni hoqon boshqargan. Ma'muriy idoralari ikkiga bo'lingan: dargoh va devonga. Ulug' hojib xoqonning fuqarolar o'rtasidagi

vositachisi sanalgan. Hoqon saroyida og'ichi-shoyi kiyimlar xazinachisi, biruk-mehmonlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; oshichi-hoqon oshxonasi boshlig'i (bog'archi); bitikchi-munshiy; kotib-mirza; qushchi-hoqon ovining tashkilotchisi kabilar ish yuritganlar.

Hoqon harbiy qo'shinlari cherik, elchi yalavoch, oddiy xalq budun, soliq to'lovchi fuqaro rayiyat deb atalgan. Qabila boshliqlari bek deyilgan. Hoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan. Ijtimoiy tuzumda mavqeyi ancha baland hisoblangan yirik zamindorlar-dehqonlar qatlami qoraxoniylar davrida o'z ahamiyatini yo'qotdi. O'rta Osiyo ko'hna zodagon toifasining bunday ahvolga tushishiga asosiy sabab siyosat maydonida yuz bergan sulolalar o'rtasidagi taxt almashuvi, eng ta'sirli jihati esa ko'chmanchilik sharoitiga moslashgan el-uluslarining o'troq aholi hududlarining ishg'ol etishidir. Shu tariqa ilk o'rta asrlarda mavqeyi baland bo'lgan "**dehqon**" degan nom bu davrga kelib oddiy, yerda ijarachi yoki yerga ishlov berib, undan hosil oluvchi tabaqaga nisbatan ishlatila boshlangan. Chunki, katta yeming xo'jayinlari o'zlarining daromad manbai-yer-mulkdan mahrum bo'la boshlagan sari, oddiy jamoatchi ziroatkorlar ijarachilarga aylana bordilar.

Davlatda ichki va tashqi savdo birmuncha rivojlangan. Ayniqsa, Xorazm, Sharqiy Turkiston, xususan Xitoy, Xuroson (G'azna), Nishopur bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan. Aholi asosan hunarmandchilik (kulolchilik, to'quvchilik, shishasozlik, temirchilik, zargarlik), shuningdek ziroat va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi sohalar bilan shug'illangan. Tog'lardan qimmatbaho toshlar, mis, temir qazib olingan.

## **2. Movarounnahrda G'aznaviylar va Saljuqiylar hukmronligi.**

G'aznaviylar davlati - 977-1187 yillarda O'rta Sharq (Shimoliy sharqiy Eron, Afg'oniston va G'arbiy Hindiston) da mavjud bo'lgan davlat. G'aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi somoniylarning lashkar-boshisi Alp takin (Alp tegin). U 962- yil qo'l ostidagi g'ulomlariga tayanib, G'azna viloyatida o'z hokimiyatini o'matdi. O'ning vorisi Sabuqtegin (977-997) va Mahmud G'aznaviylar davrida (998-1030 yy) O'rta Sharqning eng qudrati davlatiga aylangan.

G'aznaviylar davlati ravnaq topgan davrda saroyda va shaharlarda buyuk olimlar yashab, ijod etganlar (Beruniy, Utbiy, Abulfazl Bayhakiy, Gardiziy, Firdavsiy va boshq.) Mas'ud I davri (1030-1041)da Xorazm qo'ldan ketdi. Movarounnahrning katta qismini qoraxoniylar tortib oldi. XII asrning 70-yillarida g'uriylar g'aznaviylarni Shimoliy Hindistonga siqib chiqardilar, Lahor ularning keyingi poytaxti bo'ldi. 1187 yilda g'uriylar lahorni ham bosib olib bu davlatga barham berdilar.

Mahmud G'aznaviy davrida ushbu davlat mintaqaning kuchli davlatiga aylanadi. Bu davlatning hududi Mahmud G'aznaviyning istilochlik yurishlari tufayli shimoliy va shimoliy-g'arbiy Hindistondan Chag'oniyon va Xorazmgacha cho'zilgan bo'lib, unga Eronning katta qismi ham kirgan edi. Mahmud G'aznaviy

Movaraunnahrdagi qoraxoniylar siyosatiga va ayniqsa Xorazmga katta ta'sir ko'rsatar edi. O'z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqo'l hukmdori bo'lgan Mahmud G'aznaviy 1030- yilda vafot etadi. Shundan so'ng taxtni uning o'g'li Ma'sud (1030-1041 yy) egallaydi. Lekin Ma'sud otasi tuzgan davlatni butunligicha saqlab qololmadi.

Chunki G'aznaviylar uchun asosiy xavf, bu o'sha davrning yirik turkiy davlati Saljuqiylar bo'lgan. O'zaro kelishmovchiliklar va ziddiyatlar tufayli G'aznaviylar sultoni Ma'sud Xurosonga yurish qilgan saljuqiylar bilan bir necha bor jang olib borishga majbur bo'ladi. Mahmud G'aznaviyning ruxsati bilan shimoliy Xurosonga joylashib olgan saljuqiylar bu davrga kelib, g'aznaviylar uchun katta xavf tug'dira boshlaydi. 1035-yilda saljuqiylarning Xurosonga yangi hujumi boshlanadi. Nishopurdan Niso shahriga yetib kelgan g'aznaviylar qo'shini saljuqiylarga zarba beradilar, ammo orada ikki yil o'tib, ya'ni 1037-yil aprel oyida saljuqiy turkmanlar Marv (hozirgi Turkmanistondagi Mary shahri) viloyatini uzil-kesil egallashga erishdilar va Saljuqiylar davlatiga asos soladilar.

Ammo hali g'aznaviylardan to'la qutilmagan turkmanlar sardori **Tog'rubek** boshchiligida bir necha marta Xuroson yerlariga yurishlar uyushtiradilar va zaiflashib qolgan davlatni butunlay tugatish payiga tushadilar. Natijada Xurosonning shimoliy g'arbiy hudularini ham egallaydilar. Hal qiluvchi jang G'aznaviy Ma'sud qo'shnlari bilan 1040-yilda Mari yaqinidagi Dandanakon degan joyda bo'lib o'tadi. Ushbu jangda Ma'sud boshchiligidagi g'aznaviy qo'shnlari mag'lubiyatga uchraydi. Ko'p o'tmay Ma'sud ukasi Muhammad tomonidan qat' qilinadi (1041yy). Tez orada hokimiyatni egallagan Ma'sudning o'g'li ham bir necha bor kuch to'plab saljuqiylar bilan urush olib borgan bo'lsa-da, ammo o'z qo'shinini mag'lubiyatdan saqlab qola olmadi. 1059 yilda G'aznaviylar davlatining yirik shahri bo'lgan, Balxning Saljuqiylar qo'liga o'tishi G'aznaviylarning tarix sahnasidan mustaqil davlat sifatida barham topishiga olib keldi.

**Saljuqiylar davlati.** Manbalarda keltirilishicha, ushbu davlatning tashkil topishida bosh sulton, turkiy Saljuqbek va keyinchalik Tog'rubek (1038-1063 y.) larning xizmati katta bo'lgan. Ayniqsa To'g'rubek davrida katta istilochilik yurishlari olib borilib, u Balxni, Iroqning shimoli, Ozarbayjonni, Kurdistonni va Qo'histonni ham bosib olishga erishadi. Aslida ushbu davlatning tashkil topishi uchun dastlabki asos Somoniylar hukmronligi davridayoq boshlangan.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, azaldan Orol havzasida yashagan, turkiy qavmlar o'g'uzlar, deb atalgan. Ular asosan ko'chmanchi va yarim o'troq yashab chorvachilik bilan shug'illanganlar. Ushbu qavmlarga ilk bor O'g'uzxon nomli buyuk shaxs boshchilik qilgan IX asr oxiri-X asr o'rtalariga kelib Orolbo'yi va Kaspiy dengizi shimolida O'g'uz urug'larining yangi ittifoqi shakllangan. Sirdaryo etagidagi Yangikent shahri davlatning poytaxti hisoblangan. Ammo uzoq yillik hukmronlikdan so'ng XI asr o'rtalariga kelib, bu davlat shimoliy sharqdan bostirib kelgan qipchoqlar zarbasiga uchraydi, natijada o'g'uzlar tulaming katta qismi janubga, hozirgi Qoraqum sahrolariga (hozirgi

Turkmaniston) va hududiga o'tib, yerli aholi bilan qo'shilishib, qiniq-turkmanlar, deb atalib kelingan.

Shu tariqa Qoraqum dashtlaridan Sirdaryo quyi oqimigacha bo'lgan katta hududlarda mazkur qabila va urug'lar tarqaladilar va o'zlariga yabg'u (yobg'u, podsho) sifatida Saljuqbekni saylaydilar. Uning avlodlari Tug'rulbek, Dovudbek, Chag'ribek (Chag'rilbek) va Shakarbeklar bo'lgan. Somoniylar hukmronligi davrida, ularning ruxsati bilan saljuqiy qavmlarning bir qismi Zarafshon vohasiga va katta qismi Nurota tog'ining etaklariga joylashadilar.

Keyinroq Movarounnahr hududlari qoraxoniylar sulolasi tomonidan egallanib, ularning chorvador xo'jaliklari bu yerlarni band etgach, saljuqiylar hayoti mushkullashadi. Shu bois ular janubi-g'arbga tomon siljishga majbur bo'ladilar. XI asming 20-30 yillariga kelib saljuqiy urug' - qabitalari G'aznaviylar tasarrufidagi Xuroson hududlariga kirib boradilar. Ammo urug' qavmlarning g'arbga siljishi jarayonida ularning bir qismi hozirgi Nurota tog'i atroflarida qolib ketadilar va o'zbek-turkman urug'larining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadilar. Ular tarixiy manbalarda Nurota turkmanlari tarzida qayd etiladi. Mazkur urug'lar keyinchalik 92 bog'li o'zbek urug'lari tarkibidan mustahkam o'rin egallab, mahalliy o'zbeklar tarkibiga singib ketadilar va uning mushtarak qismiga aylanadilar.

Yuqoridagi mavzularda aytib o'tganimizdek, **1038- yilda Saraxsda, 1040- yilda Dandanakonda** bo'lib o'tgan hal qiluvchi urushlar davomida Saljuqiylar G'aznaviylarni yengib, butun Xuroson yerlarini egallab, o'z davlati markazini shu hududga ko'chiradilar. Shu tariqa, Nishopur shahri Saljuqiylar poytaxtiga aylanadi. Saljuqiylar hukmdori Saljuqbekdan so'ng taxtga o'tirgan To'g'rulbek, egallangan Movarounnahr va Xuroson hududlarini o'z avlodlari - Chag'rilbek va Dovudbeklar tasarrufida qoldirib, o'zi g'arbga tomon harbiy yurishlarini davom ettiradi. To'g'rubekning 1038-1063- yillarni o'z ichiga olgan hukmronlik davri old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo'lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi. Bu davr mobaynida Saljuqiylar Gurgon, Tabariston, Xorazm, Ozarbayjon, Kurdiston hududlarini, hozirgi g'arbiy Eron viloyatlarining bir qismini, shuningdek, Fors, Kermon viloyatlarini egallaydilar.

1055- yilda u katta qo'shin bilan Bag'dodga kirib keldi. Uning hukmronligi davrida saljuqiylar Kavkazda Vizantiya qo'shinlariga ham katta zarba beradilar. U Movarounnahrda hukmronlik qilayotgan qoraxoniylar bilan do'stona munosabatlar o'rnatdi. Lekin uning vorisi Alp Arslon (1063-1072) Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlarga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtiradi. Sulton Sanjar (1118-1147) davrida Saljuqiylar davlatining poytaxti Marv shahriga ko'chiriladi.

## 2. Xorazmshohlar hukmronligi davrida o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi

Xorazmda islomdan oldin va islomdan keyin quyidagi to'rtta xorazmshohlar sulolasi hukmronlik qilgan: Afrig'iyalar, Ma'muniylar, Oltintosh sulolasi va Anushteginiylar sulolasi (1077-1231 yy). 996 yilgacha Xorazm ikki qismga-Shimoliy Xorazm (poytaxti Urganch) va Janubiy Xorazm (poytaxti Kat) ga bo'lingan edi. Shimoliy Xorazmdagi Ma'muniylar sulolasi va kili Ma'mun ibn Muhammad 995- yilda har ikkila Xorazmni birlashtirib, xorazmshoh unvoni bilan idora qila boshladi. Uning vorisi Ma'mun ibn Ma'mun davrida Xorazmning qudrati yanada oshdi. Urganchda "**Ma'mun akademiyasi**" faoliyat yuritgan.

Tarixdan ayonki, Xorazmshohlar nomi bilan hukmronlik qilgan sulola hozirgi Xorazm vohasida qadinigi Xorazm davlati hukmronlik qilgan davrdan boshlab mavjud bo'lgan. Ammo ilk o'rtta asrlar (305-995 yillar) da dastlab afrig'iyalar, so'ngra ma'muniylar (995-1017 yillar), Oltintoshiylar (1017-1034 yy) sulolalari Xorazmshohlar nomi bilan yuritilgan. Biroq mazkur hududlarda, umuman Turonzamin yerlaridagi turli davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar dastlab, Xorazmshohlar davlatining tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Masalan, 1017-1044- yillarda bu yerlarni dastlab G'aznaviylar, so'ngra Saljuqiylar bosib oladilar. XI asrning 40 yillarida sharqdan bostirib kelgan ko'p sonli Qoraxitoylar ham Xorazm yerlarini ishg'ol etgan edi.

Biroq mintaqada o'z hukmronliklarini o'rnatgan G'aznaviylar, Saljuqiylar davlatlarining ham hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. To'g'rirog'i, XI asr ikkinchi yarmiga kelib Xorazm hududlarida yangi sulola vakillari, Anushteginlar (Anushtagin, Anushtegin, Alptegin) sulolasi (1097-1231) tarix sahnasiga chiqdi. Tarixiy manbalarda va adabiyotlarda Anushteginlar sulolasi vakillari sifatida quyidagi sulola vakillari qayd qilinadi: Anushtegin (1077-1097 yy), Qutbiddin Muhammad (1097-1127 yy), Jaloliddin Otsiz (1127-1156 yy), Alp-Arslon (1156-1172 yy), Alouddin Takash (1172-1200 yy), Muhammad Xorazmshoh (1200-1221 yy), Jaloliddin Manguberdi (1221-1231 yy).

Xorazmshohlar sulolasi yangi vakillarining hukmronligi ushbu davrda bevosita 1077-yilda Anushteginning hokimiyat tepasiga kelishi bilan bog'liq. Ushbu hukmdor davlatni 1097-yilgacha boshqargan hamda ko'p o'tmay uning Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'lishi ulkan voqeya bo'ladi. 1097 yilda uning o'miga Xorazm taxtiga o'zining vorisi Qutbiddin Muhammad o'tiradi. Uning davrida Xorazmshohlar davlati o'zining to'la mustaqilligini qo'lga kiritadi. Shu bilan birga, u o'lkaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishiga o'z hissasini qo'shdi. 1127-1156 yillarda **Qutbiddin Muhammadning o'g'li Jaloliddin Otsiz** otasining o'rniga taxtga kelgach, uning asosiy vazifasi davlat yerlarini yanada kengaytirish bo'ldi. Chunki, bu davrda Qoraxoniylar va Saljuqiylar davlatlari ancha zaiflashib qolgan bo'lib, bu uning uchun katta imkoniyat edi. 1141- yilda u o'z nomidan oltin tangalar zarb ettirib, davlatning moliyaviy qudratini ham mustahkamladi. Xorazmning nafaqat ichki, balki tashqi savdo aloqalari ham yanada jonlana boshladi.

Zero, oltin tangalarni muomalaga chiqarilishi Xorazm mustaqilligini yanada mustahkamlaganligi shubhasiz. Q. Usmonov va M. Sodiqov va boshqalar hammuallifligida yozilgan O'zbekiston tarixi darsligida qayd etilishicha, Jaloliddin Otsiz Qoraxitoylar bilan kelishib, ularga har yili 30 ming dirxam miqdorda to'lov to'lash sharti bilan amalda o'z davlatning ichki mustaqilligini ta'minlagan. Ammo keyinchalik Alouddin Takash Jaloliddin Otsiz davrida va'da qilingan va qoraxitoylarga to'lanishi kerak bo'lgan o'lponni to'lashdan bosh tortadi. Unga javoban qoraxitoylar Xorazmga yana yurish qiladilar.

Biroq qoraxitoylarning Xorazmga yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi. natijada Takash o'z davlatini yanada mustahkamlaydi. Movarounnahrga, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar qiladi. U Movarounnahri egallay olmagan bo'lsa-da, Xurosonning shimoliy g'arbiy qismlarini bosib oladi. Lekin Xorazmshoh Takashning Xuroson bilan aloqalari yaxshi bo'lmaganligi qayd qilinadi. Jumladan, R.Murtazaeva rahbarligida chop qilingan O'zbekiston tarixi o'quv qo'llanmasida yozilishicha, uning asosiy raqibi hozirgi Afg'oniston hududidagi G'uriylar davlati bo'lgan. 1150-1151 yillarda g'uriylar hokimi Alouddin G'aznaviy sulolasi sultoni Bahromshoh ustidan g'alaba qozonib, G'azna shahrini vayron qilgan edi. G'aznaviylarga so'nggi zarbani 1186-1187 yillarda G'uriylar hokimi G'iyosiddin Muhammad berdi.

Zero, Xurosonda Saljuqiylarning kuchsizlanganidan foydalanib, G'uriylar sultoni G'iyosiddin Muhammad 1175- yilda Hirotni egalladi va Xurosonning markaziy hududlariga tez tez hujumlar uyushtirib turgan. Mazkur o'quv qo'llanmada qayd qilinganidek, Qoraxitoylarning vassali hisoblangan Xorazmshoh Takash esa Xorazmni qoraxitoylar qo'lidan qutqarish uchun katta kuch sarflashga majbur bo'ladi. Faqat XII asrning 80-yillarida u Xurosonni ba'zi bir hududlarini qo'lga kiritadi. 1187- yilda u Nishopumi, 1392- yilda Ray shahrini, 1193 -yilda Marvni egallaydi.

Xorazmshohlarning tobora kuchayib borayotganidan xavfsiragan Xalifa Nasr qo'shinlari Takashga qarshi chiqadilar. 1196 yilning iyul oyida xorazmliklar xalifa qo'shinlarini yengadilar. Shu tariqa Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'lga o'tadi va davlat hududi yanada kengayadi. Xorazm davlati endi Bag'dod xalifasi va G'uriylar bilan chegaradosh bo'lib qoladi. Takash hukmronlik davrida (1172-1200 yy) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz beradi. Shaharsozlik, savdo-sotiq, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligida zirotchilik rivojlandi, ko'plab kanallar, suv inshootlari barpo etiladi.

Albatta, Xorazmning yanada taraqqiy etishi, keyinchalik **Sulton Muhammad Xorazmshoh** nomi bilan ham bog'liqdir. Sulton Muhammad Xorazmshoh davlatni 1200- yildan to 1220- yil oxirigacha boshqaradi. Uning davrida markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi tizimi mustahkamlandi, ammo davlatda talay ichki nizolar bo'lib turgan. Avvalombor, bu jihat ichki siyosat va hukmdorning olib borgan tashqi aloqalarida ham aks etdi. Vahoflanki, Muhammad Xorazmshoh ham xuddi Takash kabi, o'z hududlarini kengaytirish, ularni o'z tasarruflariga kiritish borasida anchagina ishlar olib bordi. Natijada, mamlakat

hududi yanada kengayib, uning shuhratini oshirgan bo'lsa, ikkinchidan, bu hol davlatning chuqur ichki inqirozga uchrashiga ham sabab bo'ladi.

Masalan, hukmdor tezda o'zining janubiy g'arbiy qismida joylashgan va unga chegaradosh bo'lgan Xor muz, Fors qo'ltig'i, Iroqning sharqiy hududlarini qo'lga kiritdi. Adabiyotlarda keltirilishicha, uning tarkibiga 400 dan ziyod shaharlar kirgan. U 1211-yilda qoraxitoylarni o'z hududidan quvib chiqaradi. Bundan go'yoki o'zicha, Xorazm dovruq'ini baland ko'tardim, deb hisoblar edi. Bu bilan u o'zini "Iskandari Soniy", laqabi bilan ataydi. Ammo uning o'zini bunchalik yuqori darajada ulug'lashi mahalliy aholi orasida unga nisbatan ishonchni kamayishiga va ziddiyatlarga sabab bo'ladi. Chunki, olib borilayotgan tashqi urushlar, albatta avvalombor xalqning mashaqqatli mehnati va ichki moliyaviy mablag'lar evaziga bo'layotgan edi. Bu esa mamlakat miqyosidagi ichki g'alayonlar sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Ana shunday qo'zg'olonlarni 1206-1207 yillarda Buxoroda, 1212-yilda Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonlar misolida qayd qilish mumkin.

Hali Buxoro to'la Xorazmshohlar davlati tasarrufiga kirmagan 1206-yilda shaharda ko'tarilgan qo'zg'olon Buxoroning hokimi Muhammad ibn Abdulazizga qarshi qaratilgan edi. Ushbu qo'zg'olning kelib chiqish sababi, bevosita xalqdan yig'ilgan katta soliqlar xalqning tinkasining quritgani edi. Hukmdorga qarshi xalq harakatining asosiy kuchlari shahar hunarmandlari edi, qishloq aholisi-dehqonlar bu harakatni qo'llab- quvvatlaydi. Bu qo'zg'olonning boshlig'i qalqon yasovchi ustaning o'g'li Malik Sanjar bo'lgan. Qo'zg'olonchilar sadr Muhammadni shahardan quvib chiqardilar. Ammo u qoraxitoylardan yordam so'raydi. Lekin Xorazmshoh Muhammad qoraxitoylardan oldinroq harakat qilib, Buxoroni bosib oladi va shu tariqa Movarounnahr va uning yirik shahri Buxoro to'la Xorazm tarkibiga qo'shib olinadi.

Qo'zg'olonchilarning boshlig'i **Malik Sanjar** Urganchga olib ketiladi, chunki u oliy hokimiyatga xalqni qarshi qo'yganlikda ayblanadi. Bu paytda ichki kelishmovchiliklar, xususan, Xorazmshoh bilan uning onasi Turkon Xotun tarafdarlari o'rtasidagi ichki siyosiy kurash ham Xorazm davlatining ichki inqirozidan darak berar edi.

Albatta, Xorazmshohlar davlati ichida ketayotgan o'zaro bunday ziddiyatlardan qo'shni davlatlar ham xabardor bo'lganligi shubhasiz. Ayniqsa ushbu davlat bilan Sharqiy Turkiston orqali chegaradosh bo'lgan Mo'g'ullar davlati hukmdori Chingizxon o'zining josuslari va ayg'oqchilari orqali Xorazmdagi ichki muhitdan yaxshi xabardor bo'lganligi, uning katta harbiy tayyorgarlik bilan Xorazmshohlar davlatiga bostirib kirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Xorazmshohlarda davlat boshqaruvi ikki tizimdan, dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan. Dargohda ulug' xojib mansabi alohida o'rin tutgan. U hukmdorning xos kishisi sanalib, lozim bo'lgan hollarda vazirlar faoliyatini ham nazorat qilgan. Xojiblar hukmdor nomidan muhim davlat ahamiyatiga daxldor masalalarda muzokaralar olib borganlar.

#### 4. IX–XII asrlarda Movarounnahrda uygʻonish davri, ilm-fan, madaniyat va diniy taʼlimot.

IX–XII asrlarda Oʻrta Osiyo mintaqasida madaniyat yuksalishi, jahonga mashhur buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berganligi bu hududning ilm-maʼrifat, ilmiy kashfiyotlar beshigi sifatida tarixda «Musulmon madaniyati», «arab madaniyati» deb nomlangan tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. Oʻrta asr tarixchilari va sayyohlari ushbu davrda Markaziy Osiyoda iqtisod, savdo oʻsganligi, koʻrkam shaharlar qad koʻtarganligi, ilm-maʼrifat gurkirab rivojlanganligi haqida maʼlumot beradilar. Monumental meʼmorchilik, tasviriy sanʼat, musavvirlik va musiqa sanʼati beqiyos darajada rivojlangan, kutubxonalar faoliyat koʻrsatgan. Oʻsha paytda «Buxoroda baland tosh devorlar bilan oʻralgan saroylar, turli rasmlar bilan bezatilgan mehmonxonalar, mohirlik bilan barpo etilgan bogʻlar, xiyobonlar, hovuzlar» mavjud boʻlganligi haqida manbalarda qayd etiladi.

Arxeologik qazilmalar va qoʻlyozma manbaʼlardan maʼlum boʻlishicha, oʻsha davrda musiqa va musiqashunoslik ham keng rivoj topgan va u matematika ilmining tarkibiy qismi sanalgan. Mazkur davming buyuk olimi Abu Nasr Forobiy musiqaning nazariy asoslari, koʻplab asboblari, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bagʻishlangan «Katta musiqa» kitobining muallifidir. («Kitob al musiqi al Kabir»). Oʻrta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bagʻishlangan ushbu 2 qism, 3 kitobdan iborat boʻlgan. Forobiy «Katta musiqa»dan tashqari «Musiqah haqida soʻz», «Ritmlar tartibi haqida kitob», «Ritmga qoʻshimcha qilinadigan siljishlar haqida» asarlarining ham muallifidir.

Uygʻonish davrida milliy madaniyatni yuksaltirishga eʼtibor davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Mustaqillikka erishgan Somoniylar shajarasining birinchi hukmdorlari milliy madaniy qadriyatlarini barqaror etmasdan turib toʻla davlat mustaqilligiga erishish mumkin emasligini angladilar. Arab yozuvida badiiy ijodni taʼqiqlamagan holda, Somoniylar oddiy xalq anglaydigan tilda yozgan mualliflarni toʻla qoʻllab-quvvatladilar. Somoniylar nafaqat adabiyot ahliga, barcha olimlarga homiylik koʻrsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida boʻlgan ulkan kutubxonani yaratdilar. Ulugʻ alloma Ibn Sinoning yozishicha, kutubxona koʻpxonali boʻlib, xonalarning birida arab kitoblari, sheʼrlari boshqasida fikhga oid kitoblar taxlangan. Shu tartibda har bir xonada fanning maʼlum sohasiga doir kitoblar jamlangan.

Kitob yozishning kuchayishi, hattotlik sanʼatini, uni bezash, naqshlar bilan koʻrkam qilish musavvirlik sanʼatining rivoj topishiga olib kelgan. Umuman, bu davrda qoʻlyozmalarni koʻchirish, tayyorlash, toʻplash madaniy hayotning muhim sohasiga aylangan. Maʼlumki, asar faqat qoʻlda bir nusʼhadangina yozilar edi. Bosmaxona esa bir necha asrdan soʻnggina paydo boʻlgan. Yozilgan asarni nusʼhasini koʻpaytirish, boshqalarga yetkazish, undan nusʼha olish zarur edi. Shuning uchun nusxa koʻchirish, asarni koʻpaytirishga katta eʼtibor berildi. Astasekin maxsus nusʼha koʻchirish sanʼati va hunari shakllandi, shu tufayli bir joyda yozilgan asarlarni boshqa shahar, oʻlkalarda tarqatish imkoni vujudga keldi.



Maxsus nusxa ko'chirish bilan shug'ullanuvchilar, husni xat sohiblari paydo bo'lib, ular buyurtma yoki sotish uchun asarlardan nus'ha ko'chirish bilan shug'ullanganlar. Kitobdan nus'ha ko'chirish, kitob savdosining keng yo'lga qo'yilishi hamda ma'rifat ahlini tinimsiz faoliyati tufayli Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur, Bag'dod, Damashq singari shaharlarda katta kutubxonalar vujudga keldi. Bozorlarda kitob rastalari ko'paydi, kitob savdosi, uni tarqatish bilan shug'ullanuvchilar faoliyat kengaydi. Markaziy osiyo Bag'dod, Misr, Eron va Ispaniyaning turli shaharlaridan qo'lyozmalar keltirilib, yurtdoshlarimizning qo'lyozma asarlari boshqa o'lkalarga olib ketiladigan bo'ldi.

Mazkur davrda Movarounnahrda ilm-fan va madaniyat rivoj topdi. Mashhur olimlar, diniy ulamolarning yetishib chiqdi. Shu boisdan bu davr sharq uyg'onish davri deb ataladi. **Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** (783-850 yy). Mashhur matematik va astronom. Xivada tug'ilib, Bog'dodda vafot etgan. Bog'doddagi "Baytul hikma"da faoliyat yuritib, unga mulirlik qilgan. 20 dan ortiq asar yozgan bo'lib ulardan 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimiz xalqlari 1983 yilda al-Xorazmiy tavalludining 1200 yilligi tantanali nishonlangan.

**Ahmad al-Farg'oni**y - (797-865 yy). Farg'onada tavallud topgan buyuk astronom, matematik va geograf. Sharqda "Hosib" (matematik) degan laqab olgan. Ilm yo'lida Bog'dodga ketib qoladi va shu yerda yashaydi. Xalifa Ma'mun davrida Bog'dodda va Damashq yaqinidagi rasadxonalar uning rahbarligida qurilgan. "Ma'mun akademiyasi"da ko'ptab kashfiyotlar qilgan. 812 yilgi quyosh tutilishini oldindan aytib bergan, yerning dumaloqligini isbotlab bergan. Nil daryosi suvini o'lchaydigan yangi asbob "miqyos jadid" ni yaratdi. Uning astronomiyaga oid asarlari XII asrdan Yevropa tillariga tarjima qilinib bir necha asrlar mobaynida Sharq va G'arb olimlari tomonidan qo'llanma sifatida ishlatib kelingan. Bog'dodda vafot etgan.

**Abu Nasr Forobiy** - (873-950 yy). Buyuk mutafakkir-faylasuf. Sirdaryo yaqinidagi Forob shahrida turkiy oilada tug'ilgan. Uning o'tkir zehmi va xotirasini sezgan otasi Bog'dodga ko'chib keladi. Damashq, Halab, Harron shaharlarini kechib, u yerlik olimlar suhbatini oladi.

Aristotel, Aflotun (Platon) kabi qadimgi yunon faylasuflari asarlari bilan tanishadi. Natijada uning atrofiga shogirdlar to'planadi va u madrasalarda dars bera boshlaydi. Shunday buyuk mutafakkir bo'lishiga qaramay Forobiy yo'qchilik bilan faqirona hayot kechirgan, hatto yozishga qog'oz va chirog'iga yog'topa olmagan vaqtlari bo'lgan. U Aristotel asarlariga juda ko'p sharhlar yozadi va bu sharhlar Sharq olimlarini tushunish qiyin bo'lgan yunon falsafasi bilan tanishtiradi va shuning uchun ham Sharqda Forobiy "Muallim us-soniy" (Ikkinchi muallim) nomini olgan. Forobiy musiqa sohasida ham bilimdon bo'lib, juda ko'p kuylar yaratgan, hatto musiqa kuylarini harflar bilan ifodalash (nota)ni dastlab Forobiy topgan va "qonun" degan cholg'u asbobi yaratgan.

**Abu Rayxon Beruniy** -(973-1048 yy) Buyuk qomusiy olim. O'z zamonasining hamma fanlarini puxta egallab olgan va bu fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan ulkan siymo. Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida

tug'ilgan. Jahonning bir nechta tillarini bilgan. 22 yoshida Ray shahriga, 995 yildan keyin Jurjonga Qobus ibn Vushmgir saroyiga keladi va shu yerda o'zining mashhur asari "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini yozadi. 1000-1017 yillarda Xorazmdagi "Ma'mun akademiyasi"da faoliyat ko'rsatadi. 1017 yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach Beruniy boshqa olimlar bilan G'aznaga olib ketiladi va olimning bu yerdagi faoliyati ancha sermahsul bo'ladi. G'aznada vafot etadi.

Beruniyning ilmiy merosi 152 kitob va risoladan iborat. Afsuski bularning bizgacha 28 tasigina ma'lum. Eng yirik asarlari: "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Qonun al-Ma'sudiy", "Mineralogiya", "Geodeziya", "Saydana"

**Abduholiq G'ijduvoni** - (1103-1179 yy)-Tasavvuf ta'limotining yirik nomoyondasi, mashhur avliyo. Xojagon nomi bilan shuhrat qozongan O'rta Osiyo tariqatining asoschisi va rahnomasi. Buxoro yaqinidagi G'ijduvon qishlog'ida imom oilasida tug'ilgan. Otasi Abdul Jalil asli Rum (Vizantiya) diyoridan bo'lib, G'ijduvonning mashhur imomlaridan bo'lgan. Abduholiq mashhur tasavvuf Yusuf Hamadoniy (vafoti 1141 yy) ga shogird tushib, undan xalifalik firqasini oladi. Ustoz va shogird birgalikda Bog'dod, Balx, Isfahon, Marv, Samarqand shaharlarida bo'lib, tasavvuf ilmining sir-asrorlarini egallaganlar.

**Abu Ali ibn Sino** - (980-1037 yy).Jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim. U Sharqda "Shayxur rais", G'arbda Avitsenna nomi bilan mashxur bo'lgan. Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan Afshona qishlog'ida tug'ilgan. 10 yoshida Qur'onni yod olgan. Falsafa ilmini ustoz Abu Abdullox Notiliydan, tib ilmini Hasan ibn Nuh al-Qumriydan o'rganadi. 16-17 yoshida mashhur tabib bo'lib tanaladi. 1000 yilda Xorazmga boradi v Urganchdagi "Ma'mun akademiyasi"da ijod qiladi. 1017- yil Mahmud G'aznaviy Xorazmni egallagach, undan qochib Obivard, Tus, Nishopur orqali Jurjonga kelib, Qobus ibn Vushmgir saroyida tabiblik qiladi. 1019-1021 yili Hamadonda vazirlik qiladi, lekin hokim bilan kelishmay qolib 4 oy qomoqda yotadi. 1023 yil Isfahonga qochadi. O'zaro feodal urushlar natijasida Isfahon, Ray, Hamadon shaharlar orasida sarson sargardonlikda hayot kechiradi. Hamadonda 57 yoshida qulunj kasalidan vafot etgan.

Ibn Sino asarlari 280 dan ortiq. Bulardan 43 tasi tibbiyotga oid. Asarlaridan bizga 160 ga yaqini yetib kelgan. Eng yirik asarlari: "Al qonun fittib", "Kitob ash-shifo", "Kitob lison al-arab". "Kitob an-najot". Qissalari: "Donishnoma", "Salomon Ibsol", "Qissat at-Tayr".

**Burhonuddin al-Marg'iloniy** - (taxm.1116-1197 yy). Shariat qonun-qoidalarini ishlab chiqqan, ularning hayotga tadbiiq etilishiga doir yo'l-yo'ruqlarni ko'rsatib bergan buyuk a'loomadir. Rishtonda tug'igan. Movarounnahming yirik shaharlarida oliy diniy ta'lim oldi. Qur'oni karimni yodladi va hanafiya mazhabining musulmon qonunshunosligi bo'yicha buyuk nazariy va amaliy fiqh olimi sifatida shuhrat qozondi.

Burhonuddin Marg'iloniy "Nashr al-mazhab" (Mazhabning tarqalishi), "Kitob at-tajnis va-l-mazid" (Tajnis va ziyoda qilish), "Kitob al-faroiz" (Farzlar haqida kitob), "Muxtasarot an-navozil" (Nozil bo'lganlarning bayonoti), "Kitob manosih al-haj" (Haj qonunlari haqida kitob), "Muxtor al-fatvo" (Tanlangan fatvolar) va boshqa o'nab asarlar muallifidir. Marg'iloniyning "Bidoya al-mubtadiy" (O'rganuvchilar uchun boshlang'ich kitob) asari chuqur nazariy ilm asosida yozilgan yirik asar bo'lgani uchun undan hamma ham foydalana olmagan. Shuning uchun Marg'iloniy bu asarni 8 jildan iborat "Kifoya al-muntaqiy" (Oxirgi maqsadga erishuvchi uchun kifoya) nomli keng sharhni yozgan. Keyinchalik "Kifoya ul-muntahiy" asosida mashhur kitob "Kitob al-Hidoya" (To'g'ri yo'lga boshlovchi kitob) asari vujudga keldi va bu kitob "al-Hidoya" nomi bilan butun Islom olamida shuhrat topdi. 2000 yil 16 noyabrda yurtimizda Burhoniddin Marg'iloniyning 910 yillik yubileyi o'tkazildi.

**Imom al-Buxoriy** - (810-870 yy). Buxoroda tug'ilgan. 825 yili otalari va birodarlari bilan haj safariga borib, bu yerda qolib ketgan. U yerda ilmlarini takomillashtirib, payg'ambarimiz hadislarini to'plash, tartibga solish, ulardan qaysilari to'g'ri, qaysilari payg'ambarga taalluqli emasligini aniqlash maqsadida Makka, Madina, Shom, Misr, Falastin, Iroq shaharlarini kezib, ranju-mashaqqatlar bilan jami 600 ming hadis to'plab, bulardan 100 ming "sahih" va 200 ming "g'ayri sahih" hadislarini yod olganlar. 600 ming hadisdan 7265 tasini "Jome is-sahih" (Ishonchli to'plam) kitobiga kiritdilar.

Imom al-Buxoriyning mashhur asarlari 15 ta bo'lib, ulardan eng yiriklari "Jome is-sahih" (Ishonchli to'plam), "Al-Adab al-mufrad" (Adab haqida yagona kitob), "At-Tarix as-sag'ir" (Kichik tarix), "At-Tarix al-asvat" (O'rtacha tarix), "At-Tarix al-kabir" (Katta tarix) va "At-tafsir al-kabir" (Katta tafsir) asarlaridir. 1998 yil oktyabrda Imom al-Buxoriyning 1225 yillik yubileyi o'tkazildi.

**Imom at-Termiziy** - (824-894 yy). Mashhur muhaddislardan biri. Uning bobosi Marvlik bo'lgan. Keyin Termizga ko'chib kelgan. Yoshligidan ilmi va hadisga qiziqib, Hijoz, Iroq va Xurosonda o'qigan. Umriining oxirida kasal bo'lib ko'r bo'lib qolgan. 70 yoshida Termizda vafot etgan. At-Termiziydan juda ko'plab Islom olimlari dars olganlar. Abu Iso at-Termiziyning asarlari: "Kitob al-jome" (Hadislar majmuasi kitobi), "Kitob ilol" (Ilmlar kitobi), "Kitobi tarix", "Kitob ash-shamoil an-nabiyya" (Payg'ambarlik alomatleri kitobi). 1995 yilda Imom at-Termiziyning 1200 yilligi keng nishonlandi.

**Mahmud Zamaxshariy** - (1075-1144 yy). Mashhur olim, tilshunos va shoir. Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Urganch, Buxoro madrasalarida ta'lim oladi. Bu yerdan Xuroson va Isfahonga boradi. Saljuqiylar saroyida xizmat qiladi. Xorazmga qaytib, qattiq kasal bo'lib, bir oyog'idan ajraladi. Sog'aygach, ilm olish uchun Bog'dodga jo'naydi, u yerdan Makkaga o'tadi. Ikki yildan keyin vataniga qaytib, bir qancha vaqt o'tgach Shomga va yana Makkaga boradi. Makkada yashab u yerda tafsirga oid "al-Kashshof" (Oshkor qiluvchi) asarini tugatadi va "Jorullox" (Olohdning qo'shnisi), "Arablar va g'ayri arablar ustozlari" unvoniga ega bo'ladi. So'ng yurtiga qaytib Xorazmda vafot etadi.

Mahmud Zamaxshariy 50 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Eng yirik asarlari "Al-Kashshof", "Asos al-balog'a" (Balog'at asoslari), "Al-Foiq fi g'arib-il-hadis" (Hadislardagi notanish so'zlarni o'zlashtiruvchi), "Al-Mufassal" (Arab grammatikasiga bag'ishlangan), "Muqaddimat ul-adab (Xorazmshoh Otsizga bag'ishlangan), "Tog'lar, joylar va suvlar xaqida kitob", "Notiqlik asoslari", "Aruzda o'lchov".

**Mahmud Qoshg'ariy** - (XI asr). Turkshunoslik ilmi asoschisi, qomusiy olim. 1029-1038 yillar orasida Qoshg'arda tug'ilgan. Keyin Buxoro va Nishopurda ta'lim olgan. Ko'p yillar turkiy qabilalar orasida kezib, ilmiy kuzatishlar olib borgan va to'plagan boy ma'lumotlari asosida o'zining mashhur "Devon lug'ot-it-turk" asarini yozgan. Bu asarda o'sha davrda turkiy tildagi so'zlar va iboralar to'plangan va ular arabchaga tarjima qilinib, izohlab berilgan. Avval so'zlar keltirilib, keyin o'sha so'z ishlatiladigan jumla, maqol va she'rlar beriladi. Asarga Mahmud Qoshg'ariy tuzgan dunyo xaritasi, dunyoning doira shaklidagi tasviri ham ilova qilingan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. XI asr geografiya ilmining na'munasi bo'lmish bu xarita Qoshg'ariyning qomusiy olimligining dalilidir. Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi bu olimni qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan olmoqda.

IX-XII asrlarda O'rta Osiyo mintaqasida madaniyat yuksalishi, jahonni hayratga solgan buyuk mutafakkirlarni yetishtirib berganligi bu hududning ilm-ma'rifat, ilmiy kashfiyotlar beshigi sifatida tarixda «Musulmon madaniyati», «arab madaniyati» deb nomlangan tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. O'rta asr tarixchilari va sayyohlari ushbu davrda Markaziy Osiyoda iqtisod, savdo o'sganligi, ko'rkam shaharlar qad ko'targanligi, ilm-ma'rifat gurkirab rivojlanganligi haqida ma'lumot beradilar.

Monumental me'morchilik, tasviriy san'at, musavvirlik va musiqa san'ati beqiyos darajada rivojlangan, kutubxonalar faoliyat ko'rsatgan. O'sha paytda «Buxoroda baland tosh devorlar bilan o'ralgan saroylar, turli rasmlar bilan bezatilgan mehmonxonalar, mohirlik bilan barpo etilgan bog'lar, xiyobonlar, hovuzlar» mavjud bo'lganligi haqida manbalarda qayd etiladi. Abdul Vafo al Buzjoniy o'zining «Geometrik qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida» asarida turli geometrik usullar yordamida har xil naqshlar, bino bezaklari yasash yo'llari, quruvchi ustalarning tajribalari, badiiy usullari haqida hikoya qiladi. Boshqa manbalarda bu davrdagi tasviriy va musavvirlik san'ati, xususan portret chizish haqida ma'lumotlar keltiradi.

Arxeologik qazilmalar va qo'lyozma manbalardan ma'lum bo'lishicha o'sha davrda musiqa va musiqashunoslik ham keng rivoj topgan va u matematika ilmining tarkibiy qismi sanalgan. Mazkur davrning buyuk olimi Abu Nasr Forobiy musiqaning nazariy asoslari, ko'plar, asboblari, musiqa madaniyatining mezonlari, atamalari tahliliga bag'ishlangan «Katta musiqa» kitobining muallifidir. («Kitob al musiqi al Kabir»). O'rta asr musulmon sharqi musiqa nazariyasiga bag'ishlangan ushbu 2 qism, 3 kitobdan iborat bo'lgan. Forobiy

«Katta musiqa»dan tashqari «Musiqa haqida soʻz», «Ritmlar tartibi haqida kitob», «Ritmga qoʻshimcha qilinadigan siljishlar haqida» asarlarining ham muallifidir.

Uygʻonish davrida milliy madaniyatni yuksaltirishga eʼtibor davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Mustaqillikka erishgan Somoniylar shaharasining birinchi hukmdorlari milliy madaniy qadriyatlarini barqaror etmasdan turib toʻla davlat mustaqilligiga erishish mumkin emasligini angladilar. Arab yozuvida badiiy ijodni taʼqiqlamagan holda, Somoniylar oddiy xalq anglaydigan tilda yozgan mualliflarni toʻla qoʻllab-quvvatladilar. Somoniylar nafaqat adabiyot ahliga, barcha olimlarga homiylik koʻrsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat darajasida boʻlgan ulkan kutubxonani yaratdilar. Ulugʻ alloma Ibn Sinoning yozishicha, kutubxona koʻpxonali boʻlib, xonalarning birida arab kitoblari, sheʼrlari boshqasida fikhga oid kitoblar taxlangan. Shu tartibda har bir xonada fanning maʼlum sohasiga doir kitoblar jamlangan.

**Ahmad Yugnakiy** - (XII-XIII asrlar). Mashhur shoir, Yugnak qishlogʻida tugʻilgan. Bu nomdagi qishloq Samarqand atrofi, Fargʻona vodiysi va Sirdaryo boʻylarida boʻlgan. Ahmad onadan koʻzi ojiz tugʻiladi. Ahmad Yugnakiy salohiyatli shoir va odob-ahloq muallimidir. Undan bizgacha faqat “Hibat ul-haqoyiq” (Haqiqatlar tuhfası) dostoni yetib kelgan holos. Asar 484 misradan iborat. Uning hozirgacha 3 ta toʻliq qoʻlyozmasi va 2 ta ayrim parchalari saqlanib qolgan.

Dostonda turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, maʼnaviy-ahloqiy kamolot siralaridan taʼlim beriladi. Birinchi bob “Ilm manfaatı va jaholatning zarari haqida” deb atalib, unda ilm haqida juda hikmatomuz soʻzlar aytilgan. Asaming qolgan boblarida insonning yuksak fazilatlarini taʼriflash, nuqsonlarini qoralashga, sahovat, kamtarlik, insonparvarlik, kechirimlilik boʻlish targʻib qilinib, insonga xos hamma salbiy hislatlar qoralanadi. Kitobda Qurʼon va hadislardan juda koʻp misollar keltiriladi.

**Ahmad Yassaviy** - (Qul Xoja Ahmad Yassaviyy) (1041-1166)-Mashhur mutasavvif shoir, tasavvuf yoʻnalishining eng yirik nomoyondalaridan biri. Turkiston (Yassi) shahrida tugʻilgan. Buxoroda Yusuf Hamadoniydan tasavvuf taʼlimotini oʻrgangan. Turkistonga qaytib kelib, shayx, pir sifatida shuhrat qozonib, Islom, uning qonun-qoidalari, aziz avliyolariga eʼtiqodni targʻib qiluvchi diniy oqimning kuychisi, mashhur shoiri sifatida keng shuhrat qozondi. Uning sheʼrlari madjmuasi “Devoni hikmat” nomi bilan 900 yildan buyon qoʻldan-qoʻlga oʻtib, oddiy xalq orasida oʻqib kelinmoqda. Bu hikmatlar Islom mafkurasining sodda ifodasi boʻlib, ularda zolimlar tanqid qilingan. Ahmad Yassaviy ijodiga oid asarlar qadimgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda muhim yodgorlik va manbalardan biri hisoblanadi.

**Bahouddin Naqshbandiy** - (1318-1389 yy). Yirik avliyo va tariqat rahnamolaridan, naqshbandiya tariqati asoschisi va rahnamosi. Buxoro yaqinidagi Kasri Orifon degan qishloqda tugʻilgan. Buxoroda tahsil oladi. Xoja Muhammad Samosiy uni oʻziga oʻgʻil qilib oladi. Keyin Amir Kulolning qoʻlida tarbiya olib, soʻng yetti yil Maavlono Orif va 12 yil Xalil Oto degan avliyolar suhbatida

bo'lgan. Ikki marta haj qilgan. Hajdan qaytishida Nishopur va Hirotning ulug' mashoyihlari bilan uchrashib, bir muddat Marvda yashadi. So'ng Buxoroga qaytib, qolgan umrini shu yerda o'tkazdi va shu yerda vafot etdi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Movarounnahr, Xuroson, noib, tohiriylar, safforiylar, somoniylar, markazlashgan davlat, g'aznaviylar, qoraxoniylar, Dandanakon jangi, saljuqiylar, xorazmshohlar, anushteginlar, turkiy til, so'fiylik ta'limoti, yassaviya tariqati, yer egaligi, iqta' tizimi, soliqlar.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. IX asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy ahvol.
2. Movarounnahrda tohiriylar va safforiylar davlatlari.
3. Movarounnahrda siyosiy hokimiyatning somoniylar tomonidan egallanishi, o'zbek davlatchiligi tarixida markazlashuv jarayonlari.
4. Somoniylar hukmronligi davrida soliq siyosati.
5. Movarounnahrda Qoraxoniylar sulolasi hukmronligi va taraqqiyoti.
6. Qoraxoniylar davlati hukmronligi davrida soliq tizimi.
7. G'aznaviylar va saljuqiylar davlatlarining siyosiy kuch sifatida Movarounnahr hayotidagi o'rni.

### **Nazorat savollari**

1. G'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasidagi to'qnashuvlarning asosiy sababarlari nimada edi?
2. Xorazmda Anushteginlar sulolasining o'rnatilishi xususida gapiring.
3. Xorazmshohlar davrida soliq tizimi va uning ahamiyati nimalarda namoyon bo'ldi?
4. IX–XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan, madaniyat. Arab, fors, turkiy tillarining jamiyat ijtimoiy hayotdagi ahamiyati nimada?
5. Islom dinining mohiyati. So'fiylik ta'limotining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
6. IX–XII asrlarda me'morchilik, amaliy bezak san'ati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari qanday edi?
7. Siz buyuk ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy-ma'rifiy, diniy va madaniy merosning jahon fani va madaniyatida tutgan o'rini qanday izohlaysiz?
8. Yusuf Hamadoniy, Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband kabi allomalarning diniy-ma'rifiy faoliyatlari haqida gapiring.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib

etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop ko'llanma : ilmiy-ommabop / - Toshkent : Ma'naviyat, 2018. - 320 b.

2. Narshaxiy Muxammad. Buxoro tarixi. T., 1966.
3. Ibn Battuta. Sayohatnoma. (G'aroyib shaharlar va ajoyib safarlar haqida nazar sohiblariga tuhfa). T., 2012.
4. Buyuk siymolar, allomalar. T.: «Meros», 1995,1996,1998 yillar.
5. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. T.: «Sharq», 2001 y.
6. Murtazaeva R.X va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (Ma'ruzalar matni) T., 2000.
7. O'zbekiston tarixi. «Darslik»// Mas'ul muharrir t.f.d R.X. Murtazaeva. T., 2005 y.
8. O'zbekiston tarixi xrestomatriyasi. 1-jild. Eng qadimgi yozma manbalar. Avesto. "Fan" nashriyoti.-T.: 2014.
9. Buyuk yurt allomalari. T., 2018.

**5-mavzu: Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi –mard va jasur ajdodimiz**

**Reja:**

1. **Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi arafasida Mo'g'uliston va Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.**
2. **Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi, Jaloliddin Manguberdi qahramonligi**
3. **Mo'g'ullar istilosidan so'ng o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot.**

**1. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi arafasida Mo'g'uliston va Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari**

Ma'lumki dunyo tarixida shunday davlatlar va hukmdorlar bo'lganki, ular dunyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy hayotida o'ziga xos iz qoldirganlar. Ana shunday davlatlardan biri shubhasiz ulkan Gobi sahrosining shimoliy-sharqida shakllangan kuchli mo'g'ullar davlati edi. XII asr oxirlari - XIII boshlarida hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashovchi turkiy va mo'g'il qabilalarining o'zaro uyushuv jarayoni boshlangan edi. Ushbu an'ana mo'g'ul qavmlarining hukmdori Temuchin tomonidan amalga oshiriladi. Temuchin tarixda kuchli va tadbirkor sarkarda sifatida, parokanda qabilalarni turli yo'llar bilan o'z qo'li ostida mustahkam birlashtirgan shaxs edi. 1186 yilda mo'g'ul qavmlarining umumiy qurultoyida u **"xon"** deb e'lon qilinadi.

Chingizxon tarqoq mo'g'ul qavmlarini birlashtirish chog'ida kuchli harbiy tuzilmani tashkil eta oldi. Bu bilan Temuchin intizomli, sadoqatli va o'ta jangovar harbiy tuzilmalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ularni boshqarishni esa avvalo, o'z o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy, Tulilarga topshiradi. O'z hokimiyatini to'liq mustahkamlab olgach, Temuchin 1206 - yili mo'g'ullarning *«umunqurultoyi»*ni chaqiradi. Qurultoyda u oliy mo'g'ul hukmdori xon deb tantanali e'lon qilinib, unga **"Chingizxon"** degan faxriy unvon beriladi. Chingiz so'zi *kuchli, baquvvat, buyuk* ma'nolarini anglatgan. Mazkur davlatning poytaxti etib Qoraqurum shahri tanlanadi.

Sulton Qutbiddin Muhammad Oleviddin Xorazmshoh (Muhammad Xorazmshoh) (1200-1220 yy) davriga kelib mamlakatning hududlari kengaya boshladi. Sulton o'z onasi bo'lmish Turkon xotun ko'magi hamda qo'llab-quvvatlashi natijasida o'z hokimiyatini mustahkamlab olishga, zafarli yurishlar qilishga muvaffaq bo'ladi. U 1204 yili Hirotni, 1207 yili Buxoroni qo'lga kiritadi. Sulton Otsiz davridan boshlab xorazmshohlar qoraxitoylarga o'lpon to'lab turar, aks holda ko'chmanchilar mamlakatga bostirib kirib, uni xonavayron qilishlari turgan gap edi.



1218 - yili Muhammad Xorazmshoh o'zining yangi poytaxti deb e'lon qilgan Samarqand shahriga kirib keladi va xutba, tangalardan xalifa nomini chiqarib tashlash xususida farmon beradi. O'sha yili Muhammad Xorazmshoh Chingizxon huzuriga o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban Chingizxon kechiktirmasdan qimmatbaho sovg'alar va mollar ortilgan katta karvon bilan o'z elchilarini xorazmshohlar sultoni huzuriga yuboradi. Elchilarga xorazmlik taniqli savdogar **Mahmud Yalavoch** boshchilik qiladi. Sulton Muhammad bu elchilarni 1218 -yil bahorida Buxoro shahrida qabul qiladi. Xorazmshoh unga qimmatbaho sovg'alar berib, Chingizxon bilan shartnoma tuzishga rozi ekanligini bildiradi.

1218 - yili Chingizxon Sulton Muhammadga o'z minnatdorchiligini izhor etish va o'zaro shartnoma tuzish maqsadida katta savdo va elchilar karvonini jo'natadi. Ulkan savdo karvoni 450 ta musulmon savdogari va 500 tuyaga ortilgan qimmatbaho mollardan iborat edi. O'z davlati qudratini namoyon etish niyatida Chingizxon Tang'ut va boshqa davlatlardan o'lja olingan, janubiy Sibir va Xitoydan keltirilgan ajoyib, sara mollar bor edi. Ular karvonda shuningdek Xorazmshohga Chingizxon nomasini olib kelayotgan edi.

Karvon Urganch tomon yo'l olgan edi. Lekin xorazmshohlarning chegara viloyati **O'tror**ga kirib kelishi bilanoq, karvon ushlab qolinadi. O'tror hokimi Inalxon Turkon xotuning yaqin qarindoshi, Xorazmshohga yaqin bo'lgan. Inalxon, arab tarixchisi ibn al-Asir, an-Nasaviylarning yozishicha, Xorazmshoh ijozati bilan bu karvonlarni talashga buyruq berib, karvon a'zolarini josuslikda ayblaydi va ularni qirib tashlaydi. Talab olingan mollar Samarqand va Buxoro savdogarlari o'rtasida taqsimlanadi. Xorazmshohlar qo'pol siyosiy xatoga yo'l qo'yib, elchilarni qirg'in-barot qildiradilar. O'tror fojeasidan so'ng Chingizxon Ibn Kafrojij Bug'roni ikki mulozim bilan Xorazmshoh huzuriga elchi etib jo'natdi. As-Subqiyning yozishicha, Chingizxon O'tror fojeasining aybdori Inalxonni tutib mo'g'ullar qo'liga topshirishini, elchilar o'limining sabablarini keskin tarzda so'raydi.

Sulton buyrug'i bilan elchi bo'lmish **Ibn Kafroj Bug'ro** o'ldirilib, ikki mulozimning soqol-mo'ylovlari sharmandali tarzda qirib tashlanadi. Xorazmshoh mo'g'ullar bilan ertami-kechmi, urush bo'lishini yaxshi anglagan edi. Qolaversa, mamlakatda mo'g'ullar bostirib kirishi xususida turli mish-mishlar ham avj olgan edi. Nima bo'lganda sulton ham Chingizxonga shu yo'sinda dag'dag'ali javob berishga qaror qildi.

## **2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi, Jaloliddin Manguberdi qahramonligi.**

Chingizxon 1219- yili o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlari bilan anchadan beri puxta tayyorlangan Xorazmshohlar davlati ustiga harbiy yurishni boshlaydi. Bu kuchlar yozni Irtish daryosi bo'yida o'tkazib, sentabr oyida chegaradan o'tadi. Chegaradan o'tgan Chingizxon o'z qo'shini bilan janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqinida to'plab uni 4 qismga bo'ladi.

Chig'atoy va O'qtoy qo'shinning bir qismi bilan O'tromi qamal etib, egallash uchun qoldirildi. Ikkinchi qism esa Jo'chi boshchiligida Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Barching'lig'kent, Sig'noq shaharlarni bosib olish uchun yuborildi. Uchinchi qismidagi besh ming chog'li qo'shinga Uloq no'yon va Suketu Cherbi bosh bo'lib O'trordan janubga, Xo'jand va Banokatni egallash vazifasi topshiriladi. Chingizxon o'zi bosh bo'lgan to'rtinchi, asosiy qism (uning tarkibida taniqli sarkardalar Jebe va Subutoy ham bor edi) Zarafshon vodiysi tomon-Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l oldi. Chegaradagi O'tror mustahkam shahar qal'a bo'lib, mo'g'ullarga mardonavor qarshilik ko'rsatgan edi. O'tror hokimi **Inalxon** qo'lida 20.000 chog'li suvoriy bo'lib, Xorazmshoh unga yordam tariqasida 50.000 kishilik "Lashkari birun"ni ham yuborgan edi.

Chingizxon 1220 yilning fevral oyi boshlarida sharqning qadimiy go'zal shahri, sharqdagi islom dini gumbazi, "butun musulmon shaharlari onasi" nomini olgan "Islomiy ilmlar markazi" **Buxoro** yaqinida paydo bo'ladi. Uch kunlik shahar qamali boshlanadi. Buxoroda bu paytda 12 000 lik shahar garnizoni va 20.000 kishilik "Lashkari birun" mavjud edi. Lashkarlarga nufuzli sarkardalar Ixtiyotiddin Qo'shlu bosh edi, 10 - fevral kuni Buxoroga mo'g'ullar kirib keladilar.

Aksariyat shaharliklar o'z qarshiliklarini davom ettiradilar, tunda esa yashirincha askarlarga yordam berib, mo'g'ul askarlariga qarshi hujumlar uyushtirdilar. Chingizxon bunga javoban shaharni yoqib yuborishga buyruq berdi. Ko'kxon boshchiligidagi 400 ta mudofaachilar Buxoro arkida yana 12 kun qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Arknii egallash uchun qilingan mo'g'ullar hattiharakatlari zoe ketadi, mo'g'ullar shahar ahlidan 30000 chog'li kishini qirib tashlaydilar.

Buxorodan so'ng Chingizxon Samarqand tomon yo'l oldi. 1220 - yil mart oyi boshida u **Samarqandga** yetib kelib, yon-atrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qildi. Chingizxon Samarqandni egallashga alohida ahamiyat berdi. Samarqandning Movarounnahr uchun, Xorazmshohlar uchun ahamiyati beqiyos ekanligini Chingizxon yaxshi bilar edi. Shuning uchun uni egallashga katta e'tibor bilan qaradi. Shaharda 110.000 kishilik harbiy garnizon (undan 60.000 tasi turkiy, 50.000 tojiklar edi.), 20 ta harbiy ilmga o'rgatilgan fil ham mavjud edi. Sulton Muhammadning tog'asi To'g'ayxon shahar noibi bo'lib, shahar mudofaaga bosh buladi. Lekin mo'g'ullar tomoniga xiyonatkorona o'tib ketgan sobiq shahar noibi To'g'ayxon tez orada o'zining 30000 kishisi bilan Chingizxon buyrug'iga ko'ra qirib tashlanadi.

So'ngra mo'g'ullar Xo'jandga hujum boshlaydilar. Mo'g'ullar 20.000 nafar qo'shin va 50.000 ming chog'li asirga tushgan hasharchilarni Xo'jand atrofiga yig'adilar. Xo'jand hokimi **Temur Malik** asli turkiy sarkardalardan bo'lib, Xorazmshohlar davlatida nom chiqargan, sulton va uning oilasiga tanish bo'lgan shaxs edi. Temur Malik 1000 chog'li askari bilan Xo'jand yaqinidagi Sirdaryoning kichik orolchasida joylashadi. Bir necha kun Temur Malik 12 ta

qayiq yasatilib, o'q o'tmasligi, yonib ketmasligi maqsadida bu qayiqning usti namat bilan qoplanib, sirka bilan shimdirilgan loy bilan suvaladi. Temur Malik uzoq vaqt mudofaa uchun endilikda orolchada turish maqsadga muvofiq emasligini tushunib, bor oziq-ovqat zahirasi va askarlarini 70 ta kemaga joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi.

Mo'g'ullar ikki sohil bo'ylab Temur Malik kemalariga to'xtovsiz hujumni uyushtiradilar. Hatto Banokat bo'yida daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortib qo'yadilar. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandga qadar yetib keladilar. Mo'g'lil sarkardasi Ulus Idi Borchilig'kent va Jand yaqinida manjaniqlar (tosh otar zambaraklar) o'matib, qayiqdani bir-biriga tutashtirib, jasur sarkarda yo'lini to'sadi. Uzoq janglardan so'ng Temur Malik Urganchga yetib keladi va Urganch himoyasida qatnashib, Jaloliddinning ozodlik kurashida faol ishtirok etadi. Keyinroq, uzoq sargardonliklardan so'ng sarkarda Temur Malik o'z yurtiga kelib, qahramonlaracha ravishda mo'g'ul harbiylari qo'lida halok bo'ladi.

1220 - yilning kuzida Chingizxonning Termizga yurishi boshlanadi. Shahar butkul talon-taroj qilinib, xonavayron etildi. Shahar ahli esa dashtga haydab chiqilib qirib tashlandi. Movaraunnahrning asosiy qismlari-Sirdaryo havzasi, Zarafshon, Qashqadaryo vodiylari, Buxoro vohasi, Shosh va Farg'ona vodiysi egallangach, Chingizxon endilikda o'zining asosiy e'tiborini Xorazmshohlar davlatining markazi Xorazm o'lkasiga qaratdi. Bu yurishga o'g'illari Jo'chi, Chig'atoy, O'qtoy (Ugedey)larni mas'ul qildi.

Shunday sharoitda uning otasi **Muhammad Xorazmshoh** plevrit (o'pkaga suv yig'ilish) kasali bilan og'rib taxminan 1220-yilning oxirlarida quvg'inlikda Kaspiy dengizidagi Ashuradi orolida vafot etadi. O'limi oldidan sulton Jaloliddinni taxt vorisi deb e'lon qilib, sultonlik mansabini unga topshiradi. Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn etgach, 70 ta kishisi bilan to'g'ri Urganchga keladi. Tez orada unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qo'shiladilar.

Xalq Jaloliddin Manguberdini shod-u-xurramlik va katta umid bilan kutib oladi. Lekin inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna tayyorlayotganidan xabar topgach, bu alfozda mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmastigini tushungan Jaloliddin 300 ta kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Hozirgi davrdagi yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, Jaloliddinning mo'g'ullar bilan ilk to'qnashuvi avval boshida Jand viloyatidagi Irg'iz dashtida bo'lgan ekan. Jaloliddin 16 kun ichida Xorazmdan Xuroson yerlaridagi Niso qo'rg'oni atrofiga yetib keladi.

Bu paytda, ya'ni 1221 - yil boshlarida Jo'ji, Chig'atoy va O'qtoy askarlari Gurganchga hujum boshlaydilar. Gurganch qamali 6 oy davom etdi, anchagina qurbonlar beriladi. Shahar egallangach, barcha erkaklar, bolalar qilichdan o'tkaziladi. Hyech kimga shafqat ko'rsatilmadi. Shaharning o'zini suvga g'arq qilish uchun Amu to'g'oni ochib yuborilib, Gurganch suv ostida qoladi.

Talon taroijlar oqibatida shahardagi uzoq asrli ma'naviyat durdonalari, qimmatli qo'lyozmalar, kitoblar saqlanib kelgan kutubxonalar, barcha noyob

asori-atiqalar yer bilan yakson etiladi. Muhammad Xorazmshohning o'g'illari **O'zloqshoh** va **Oqshohlar** ham mo'g'ullar tomonidan asir olinib, qiynab o'ldiriladi. Podshoh bilan ko'p yillar muholafatchilikda bo'lib, yurtning parokandalikka, chuqur ziddiyatlarga yo'liqishiga sababchi bo'lgan, o'ziga haddan ziyod bino qo'ygan, saltanat ichida saltanat qurgan Turkon Xotun qismati ham oxirida fojiali yakun topadi. U ham mo'g'ullar tomonidan asir olinib, behisob molu dunyosi talanib, o'zi Mo'g'ulistonga haydab ketiladi. Tarixiy manbalarda Turkon xotun Chingizxon xotinlaridan biriga cho'ri sifatida tortiq qilinadi.

Chingizxon esa bu vaqtda asosiy kuchni janubga, ya'ni Xurosonga qaratadi. u ulkan qo'shin bilan Xurosonga qarab otlangan Jaloliddin oridan tushadi, ya'ni u Jaloliddin orqasidan kelayotgan edi. Jaloliddin G'aznaga yetmasdan yaqin orada Hirot hokimi hamda qayinotasi bo'lmish Amin Malik bilan uchrashadi va ular birgalikda Qandahor qal'asini qamal qilayotgan mo'g'ullar ustiga yurish qiladilar. Jaloliddin bu kurashda harbiy ilm tarixida ilk bora "piyoda chavandozlar"ni mo'g'ullarning otliq askarlariga qarshi qo'yadi. Chingizxon Jaloliddinning kuch-qudratini oshib borayotgani va mo'g'ullar undan Qandahorda zarbaga uchraganligidan g'azablanib, no'yon Shiki Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni uning ustiga yuboradi. U 1221-yilning kuzida Jaloliddin yerlariga yaqinlashib keladi. Bu vaqtda mo'g'ullarning Tekechuk va Molgor boshchiligidagi ilg'or guruhi Chorikordan shimolroqdagi Valiyon qo'rg'onini qamal qilishni boshlagan edi.

Kichikroq qo'shin bilan hujumga otlangan Jaloliddin bir hamladayoq mo'g'ullarni zarbaga uchratishga muvaffaq bo'ladi. Bu jangda mo'g'ullarning 1000 dan oshiq kishisi halok bo'ladi. Ko'plab tarixchilar jumladan, ibn al-Asir, Juvayniy, Rashiddin bu jangga yuqori baho bergan edilar. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi muhim janglaridan biri 1221 - yilning kuzida shimoliy Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi **Parvona** dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Parvona jangi mo'g'ullarning mutlaq mag'lubiyati bilan tugab, Shiki Xutuxu qolgan qo'shini bilan Chingizxon huzuriga bazo'r qochishga ulguradi. Parvona yaqinidagi jang Movarounnahr va Xurosen ahli uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu paytgacha mo'g'ullarning ilohiy, yengilmas kuch-qudratga egaliklari xususidagi gap so'zlarga, afsonalarga chek qo'yildi. Jaloliddin qo'shini Parvona jangidan so'ng katta o'ljani kiritgan edi. U Chingizxonga qarshi ozchilik qo'shin bilan kurasha olmasligini anglab, Sind (Hind) daryosi bo'yiga chekinishga qaror qiladi.

Nihoyat **1221 - yil 25 noyabr kuni** Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang boshlanadi. Bir qator o'rta asr musulmon tarixchilarining ta'kidlashlaricha, bunday qonli, keskin va dahshatli jang tarixda ro'y bermagan ekan. Jaloliddin va uning qo'shini misli ko'rilmagan darajada jasorat va bahodirlik namunalari ko'rsatdilar. Faqat uchinchi kunga kelib, Chingizxon qo'shini ustunlikka erisha boshladi. Jaloliddinning taxminan 7-8 yoshli o'g'li Chingizxon qo'shini qo'lga tushib qolib o'ldiriladi. Jangda mardonavor kurashgan Amin Malik va boshqa ko'plab sarkarda, navkarlar halok bo'ladilar.

Chingizxon qanday qilib bo'lmasin Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga buyruq beradi.

Jaloliddin esa uni qo'lga olishga intilayotgan mo'g'ul qo'shini qurshovini shaxsiy bahodirligi bilan yorib chiqib, Sind daryosi bo'yiga yetib kelishga muvaffaq bo'ladi. Daryo bo'yida onasi Oychechak va haramdagi boshqa ayollar uni kutib turishar edi. Shundoq ham bu jangdan ruhiy va jismonan ezilgan Jaloliddinga ular "bizni o'ldiring va mash'um asirlikdan qutqaring" deya murojaat qilishadi. Jaloliddin barcha haram ayollarini suvga cho'ktirishga ko'rsatma berishdan boshqa iloji qolmaydi. O'zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi beti Hindiston tomonga suzib o'tadi.

1231-yil bahorida u Ganjaga kelib yana mo'g'ullarga qarshi ittifoq tuzish uchun musulmon hukmdorlariga murojaat etdi. Lekin uning taklifi javobsiz qolib ketdi. Shunda Suriyadagi Amida qal'asi hokimi uni o'z oldiga chorlaydi. U Iroqqa borib yana qo'shin to'plamoqchi bo'ladi. Amida yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qilib qolishadi (1231 yil avgust boshi). Uni 15 chog'li mo'g'ul navkarlari ta'qib etishadi. Jaloliddin o'z sheriklaridan ajralib, Turkiyaning Silvan viloyati yaqinidagi bir qishloqqa keladi. Ushbu tog'lik qishloqda u kurdlar qo'lga tushadi. O'zini sulton deb tanishtirgandan so'ng uni kurdlar o'ldirishga jazm etmaydilar. Uni tegishli joyga yetkazib qo'yish evaziga mukofot va'da qiladi. Lekin kurdlar rahbari xonadonidan joy olgan horib-tolgan Jaloliddinni, boshqa bir kurd kishisi o'lgan inisi xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqeya taxminan **1231-yilning avgust** oyi 17-20 sanalari oralig'ida ro'y beradi. Jaloliddin Manguberding murdasi Mayafriqninga dafn etilib, mo'g'ullar kirib kelgudek bo'lsa, haqoratlanmasin, degan maqsadda go'ri yer bilan tekislab yuboriladi.

### **3. Mo'g'ullar istilosidan so'ng o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.**

#### **Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot.**

1219–1221 yillardagi mo'g'ullar bosqini va istilosidan so'ng Movaraunnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar aholisining barchasi ona shaharlarini yo tark eldilar yoki qirib tashlandilar.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'il Chig'atoyga beriladi.

**Chig'atoy ulusi**-Chingizxon tomonidan 1224 - yilda ikkinchi o'g'li Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlar. Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Sharqiy Turkistondan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi mo'g'ullar o'troq aholini boshqarish uchun tajribaga ega emas edilar. Shuning uchun ham Chig'atoy ulusini boshqarish xorazmlik Mahmud Yalavoch (1225-1238 yy) va uning o'g'li Mas'udbekka (1238-1289 yy)

topshirilgan. O'zleri esa ulusdan keladigan daromadlarning asosiy qismini olish bilan qanoatlanganlar.

Mo'g'ullar bosqini va istilosidan so'ng Movaraunnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharqda dong'i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch, Xo'jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko'pchiligi, Urganch va Marv kabi ulkan shaharlar aholisining barchasi ona shaharlarini tark etdilar bir qismi qirib tashlandilar.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o'z o'g'illariga mulklarini ulus qilib bo'lib berishni boshlagan edi. Oltoy tog'larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo'lgan yerlar ikkinchi o'g'il Chig'atoyga beriladi. Rashiddinning ma'lumotiga ko'ra, Chingizxon vafotidan so'ng Chig'atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish o'lkada mo'g'ullarga qarshi g'alayon bo'lishini oldini olish ma'suliyati yuklatilgan edi. Ko'pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o'z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o'ta boshladilar.

Yangi hukmdorlari bosib olingan yerlar aholisidan boj-xiroj olish va undirishni, istilo etilgan yerlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llarini belgilash vazifasi turar edi. Mo'g'ul zodagonlari mazkur masala bo'yicha yagona fikrga ega emas edilar. O'troq hayot muholiflari barcha yerlarni yaylovga aylantirishni, shaharlarni vayron qilishni taklif etishadi. Boshqalar esa talon-tarojni to'xtatish, hunarmandchilik, savdo va qishloq xo'jaligiga homiylik qilish, soliq va majburiyatlar hajmini belgilab qo'yishni tavsiya etadilar.

Shu tariqa Mo'g'ulistonda Chingizxon tomonidan taklif etilgan tadbirlar hayotga tatbiq etila boshlanadi. Asosan ikki xil soliq belgilanadi - **kalon** (yer solig'i) va **qopchur** (chorvadorlar va ko'chmanchi xalqlardan olingan soliq). Birinchi soliq hosilning 10 foizi, ikkinchisi podadagi tuyoqlar sonining 1 foizi miqdorida to'lov sifatida undirish ko'zda tutiladi. Chingizxon va uning avlodlarini o'lpon va bo'ysundirilgan mamlakatlardan soliqlarning muntazam kelib turishi qo'proq qiziqtirar edi. Ular ko'proq qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va naqd pulni uzluksiz olib turishlari lozim bo'lgan.

Markaziy Osiyoning bosib olingan viloyatlarini boshqarishda mo'g'ullar musulmon savdogarlarni jalb eta boshlaganlar. O'z davrida Movarounnahrda soliqlarni yig'ish yirik savdogar Mahmud Yalavochga topshiriladi. U dastlab soliqlarni ijara yo'li bilan undira boshlaydi. U soliq undirishda eng vahshiy usullardan ham qaytmagan. Xususan aholi bironchi talab bilan soliq to'lamasa, jismoniy chora-tadbirlar ko'rilgan, hatto ularning bolalari ham soliq hisobiga tortib olingan.

Bu ishda savdogarlar va ruhoniylar, amaldorlar yaqindan yordam berganliklari uchun ularga **payza** lar berib, ularni zarur narsalar bilan ta'minlash soliq to'lovchilar zimmasiga tushgan. Bunday sharoitda o'lkada mo'g'ullarning

soliq tizimiga qarshi yirik xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tadi. Ana shunday qo'zg'olonlardan biri **1238-yilda Maxmud Torobiy** boshchiligida qo'zg'olon edi. Qo'zg'olonchilar dastlab jiddiy muvaffaqiyat qozonadilar. Karmana shahri tevaragida 10 mingga yaqin mo'g'ul sipohlarini qirib tashlaydilar. Qo'zg'olon bostirildi, lekin u mahalliy hukm-dorlarni o'z moliya siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur etdi.

Lekin qo'zg'olon xalq ommasining kelgindi bosqinchilar zulmidan sabr kosasi to'lib - toshib, birgalikda xarakat qilib, mustaqillik yo'lida muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini ko'rsatdi. Mazkur qo'zg'olondan so'ng mo'g'ul xoni Manguxon (1257-1259 yy) chiqargan yorliqqa asosan, belgilangan tartibdagi soliq turidan tashqari aholidan oziq-ovqat, yem-xashak olinmasligi, soliq to'lashda jismoniy kuch ishlatilmasligi va boshqa yengilliklar ko'zda tutilgan edi. XIV asrning birinchi yarmiga kelib mo'g'ul xonlari o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar, feodal tarqoqlik oqibatida mo'g'ullar Movarounnahrda mahalliy hokimliklarni va mahalliy aholini boshqarishni uddasidan chiqa olmay qoladilar. Soliq masalasidagi qarama-qarshiliklar, ayniqsa kuchayib ketadi.

Ayniqsa dehqon va hunarmandlarning ahvoli yil sayin yomonlashib bordi. Chunki yer solig'ini to'lashdan tashqari, dehqonlar turli majburiyatlar va xizmatlarni bajarishga majbur qilinardi. Hunarmandlar ayniqsa, qurolsozlarni ham natura majburiyatini o'tash tartibida ishlashga majbur etildi. Manguxon zo'rvonlik va suiste'mol qilish tizimi mo'g'ullarga qarshi harakatni kuchaytirganini tushunar, shu sababli u bo'ysundirilgan xalqlar uchun soliqlarni yumshatishni taklif qildi.

Saltanatning butun aholisi (o'troq va ko'chmanchi) daromadlari va boyligiga mutanosib ravishda soliq va o'lponlar to'lashi kerak edi. Soliq har yili undirilishi shart bo'lgan. Boy kishi bir yilda 10 dinor, kambag'al toifa esa 1 dinor to'lashi shart bo'lgan. Chorva solig'i har yuz tuyoqdan bir bosh miqdorida olingan. **Mahmud Yalavoch** Mahmud Torobiy qo'zg'olonidan so'ng o'z lavozimidan bo'shatiladi va Movarounnahrda chiqarib yuboriladi. Soliq oluvchi va noib etib uning o'g'li Mas'udbek tayinlanib, u bu lavozimda 51 yil xizmat qiladi. U mo'g'ullarga o'lpon va soliqlarni o'z vaqtida to'lab turdi, natijada keyinchalik mo'g'ullar Movarounnahrni boshqarish ishiga deyarli aralashmaganlar.

Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyoda mo'g'ul zodagonlarining yer egaligi va mulk egaligi borasida amalga oshirayotgan islohotlari mahalliy xalqlar turmush tarziga og'ir yuk bo'lib tushgan edi. Har yili mo'g'ul zodagonlari va hukmdorlari ishtirokida o'tkazilayotgan qurultoylarda yer egaligi va soliq xususidagi masalalar ham muhokama etib borilgan. Qurultoyda taklif qilgan tadbirlar O'rta Osiyo hududida amalga oshirila boshlandi.

Ayniqsa mahalliy dehqon va hunarmandlarning ahvoli yanada og'irlashib, ular yer, mol-mulk solig'ini to'lashdan tashqari turli majbu-riyatlarni ham bajarishga majbur edilar. Natijada o'lkaning katta-kichik qishloqlarida jabr-zulum va zo'rvonliklarga qarshi xalqning qarshilik harakatlari kuchayib bordi.

bu holat, ayniqsa, hukmdorlar tomonidan yig'ib olinadigan soliqlar va ularning turlarida yanada ko'proq qo'zga tashlanar edi.

Mo'g'ullarning Movarounnahrdagi uzoq yillik boshqaruvi davrida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan inqirozli holat-ning vujudga kelishi, soliqlar tizimini takomillashishi baroba-rida, ularni undirib olishda ham shafqatsizlarcha usullar amalga oshirilgan. Bu holat jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchayi-shiga va yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasida sinfiy kurash-ning avj olishiga olib keldi.

Feodal yer egaligining kuchayishi, mulkdor mo'g'ul zodagonlar-ning muttasil jabr-zulmlari barcha turdagi iqtisodiy to'lovlar, soliqlar va yig'imlarning butun yukini oddiy xalq yelkasiga ag'dardilar. Ular mumkin qadar tezroq boshqaruvni qo'lga olish hamda bo'ysundirish ilinjida haddan tashqari soliqlarni ko'paytirib, oddiy xalqni qashshoqlarga aylantirdilar, ularni iskanjalar bilan qiynab, azoblay boshladilar, to'lashdan qochgan, yashiringanlarni tutib olib o'ldirar edilar. Hatto bolalarini tortib olar edilar, ayrim mahalliy amaldorlar bu ishda ularga ko'maklashib, tovlamachilik orqali boyib olar edilar.

1251-yili hokimiyat tepasiga Botuxon va Berkaxonlarning qo'llab-quvvatlashlari bilan **Munqa** (1251-1259 yy) ulug' xon sifatida saylanadi. U dastlab Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatadi va uni **Botuxon** bilan bo'lib oladi. Keyinchalik Munqaning o'limidan so'ng Chig'atoyning nabirasi Olg'uxon (1261-1266 yy) Oltin O'rdaga qarshi kurashib, Chig'atoy ulusini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi. XIII asrning 60-70-yillariga kelib, rasman yagona hisoblangan mo'g'ul imperiyasi aslida Erondagi Xulagiylar, Movarounnahrdagi Chig'atoylar va Oltin O'rda deyatli mustaqil qismlariga bo'linib ketgan edi.

Ayniqsa, xo'jalik-iqtisodiy hayomi bir me'yorga tushirish, savdo va pul muomalasini izga solishda Chig'atoy ulusi noibi Ma'sudbekning xizmati va islohotlari katta o'rin tutgan. Ma'sudbek mo'g'ul qoon (xon) lariga shaxsan yaqinligi ham uning islohotlar o'tkazilishga imkon ham bergan edi. 1271 - yili mo'g'ullarning madaniy, o'troq hayot tarafdorlari madadi, Talas qurultoyi (1269-y.) qarorlariga tayanib, Ma'sudbek yangi pul (moliyaviy) islohot o'tkazishga kirishdi. Unga ko'ra, har qanday shaxs o'ziga kerakli tangalarni zarbxonalarga olib borib, uni xohlagan tarzda, lekin bir xil hajm, qiymat, vaznda zarb etish mumkin edi. Avval boshida qiyinchilik bilan kechgan bu jarayon XIII asrning 80-yillariga kelgandagina faollasha bordi.

Tez orada 16 ta yirik shahar va viloyatlarida bir xil vazn va yuqori qiymatga ega sof kumush tangalar zarb etilib, muomalaga kiritildi. Garchi atrofdagi islohotlarga qarshi mo'g'ul harbiylari Erondan, Yettisuvdan Movarounnahrga vayronagarchilik keltirib chiqaruvchi kurashlarni amalga oshirib tursalarda, lekin islohotlar borishiga to'sqinlik qila olmadilar.

**Tang'a** – mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo, Eron, Oltin O'rda hududlarida joriy qilingan hunarmandlar va savdogarlardan undirilgan va xon xazinasini uchun yig'ilgan soliq. Ushbu soliqni joriy etilishi natijasida mo'g'ul hukmdorlari katta foydalar ko'rganlar. Ushbu soliq mahalliy xalq, hususan savdogarlar va hunarmandlar zimmasiga og'ir yuk bulib tushgan. Mazkur soliqqa



ko'ra, har bir soliq to'lovchi o'z daromadidan kelib chiqib, uni ma'lum muddatda to'lashi shart bo'lgan. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida esa yerdan olinadigan soliqlarni kamaytirish hisobiga ushbu soliq turi saqlanib qolgan bo'lsada, sohibqiron savdo va hunarmandchilik masalasida savdogarlar va hunarmandlarga boshqa bir qancha imtiyozlar yaratib bergan. Chig'atoy ulusining hukmronligiga Amir Temur hokimiyatga kelgach barham berilgan.

Mamlakatdagi talonchiliklar mahali mo'g'ullar shahar va qishloqlarga turli talonchiliklar qilib turganlar va u **chopg'in** deb atalgan. Ya'ni, mo'g'ullarning harbiy yurishlari mahalida talafot ko'rgan armiya, qo'shin va boshqa kichik harbiy bo'linmalar ehtiyojlarini qoplash maqsadida shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlariga talonchilik maqsadida qilingan yurish (chopg'in) lar shunday atalgan. Chopg'in paytida talon-taroj qilingan aholi punktlarida aholidan so'ramasdan hayot uchun zarur bo'lgan barcha mol-mulk, yegulik, kiyim-kechak, o'tin va boshqa narsalar o'lja sifatida olib chiqib ketilgan. Bunday holat ko'plab sodir bo'lganligi tarixdan ayon. Birgina mo'g'ullar bosib olgan mamla-katlarda xuddi shunday chopg'inlar ko'plab amalga oshirilgan. Amir Temuming Eron, Mozandoron, Hindiston va Kurdistonga harbiy yurishlari mahali qishloqlarga uyushtirilgan yurishlar ham shunday atalgan.

Chingizxon o'zining xon, sulton va uning yaqinlariga yozgi yaylovlardan yaylovga ko'chish paytida shibag'ular qilib turgan. Ya'ni, alohida in'om sifatida berilgan sovg'a shunday atalgan. Shibag'u asosan oziq-ovqatdan iborat bo'lib, favqulodda hollarda pishirilgan go'shtni aholiga tarqatishda o'z ifodasini topgan.

XIII asr II-yarmida XIV asr I-yarmida xo'jalik, iqtisodiy hayotdagi siljishlar, savdo-sotiqning rivojlanishi, qolaversa, Chig'atoy mo'g'ullarining tobora o'troq hayotga moslasha borishi, bosqinchilik vaqtida tanazzulga yuz tutgan madaniy hayotning nisbatan jonlanishiga olib keldi. Avvalo shaharsozlik bilan bog'liq binokorlik va me'morchilik yo'lga qo'yila boshlandi. Mahalliy diniy ulamolalar va dunyoviy zodagonlar, gohida mo'g'ul zodagonlarning ba'zilari qurilish ishlariga homiylik qila boshlashdi. Me'morchilikda alohida o'rin tutgan ganchkorlik, g'isht o'ymakorligi, koshinpazlik, me'moriy hattotlik qayta tiklandi. Movaraunnahr, Xorazmda mahalliy binokorlar ishtirokida xonaqo, maqbara, masjid, madrasa, saroy, minoralar qad ko'tara boshladi. Shu davrlarda barpo etilgan ko'pgina me'moriy obidalar u yoki bu ko'rinishda hozirgi kunlargacha yetib kelgan.

Jumladan, Buxorodagi **Sayfiddin Boxarziy** maqbarasini birinчилardan barpo etilgan me'moriy bino sifatida ko'rish mumkin. Taniqli buxorolik shayx Sayfiddin Boharziy nufuzli diniy ulamolardan biri bo'lib, u 1258-yili olamdan o'tgan edi. Uning qabri ustida tez orada katta maqbara va honaqa barpo etildi. 1333-yili Buxoroda bo'lgan arab sayyohi ibn Battuta ushbu maqbaraga yuqori baho bergan edi.

Shuningdek, mana shu davrlarda barpo etilgan Qusam ibn Abbas maqbarasi, ya'ni ziyoratgohi, Xo'ja Ahmad maqbarasi, Qo'hna Urganchdagi

Najmiddin Kubro va To'rabekxonim maqbarasi, masjid va 2 ta baland minoralar (minoraning hozirgacha saqlangan qismi 62 metrni tashkil etadi, minoralarning bittasi XX asr boshlarida qulab tushgan), Xo'janddagi Duvaxon maqbarasi (keyinchalik vayron bo'lgan) va boshqalarni tilga olib o'tish mumkin. Qarshidagi buzilib ketgan saroy, Ma'sudbek hukmronligi davrida Buxoroda barpo etilib, 1000 tacha talabaga mo'ljallangan "Ma'sudiya", "Xoniya" madrasalari va boshqalar to'g'risida manbalarda ma'lumot berib o'tiladi.

XIII asr-XIV asming 2-yarmida fors-tojik adabiyotida ayniqsa **Jaloliddin Rumiy** (1207-1272), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1219-1293), **Amir Xusrav Dehlaviylarning** (1253-1325) o'mi va mavqei ko'tarilib, ular jahon adabiyoti olamiga taniladilar. Asli Balx shahridan bo'lgan Rumiy 14 yoshligida o'z oilasi bilan mo'g'ul bosqinidan qochib Kichik Osiyoning Ko'niya sultonligiga borib qoladi. Ko'niya, Halab, Damashqda tahsil olib, buyuk tasavvuf ilmi shoiri va faylasufi bo'lib taniladi. U she'riyatda so'fiy-falsafiy janrni rivojlantirib, o'zining 36 ming baytdan iborat "Masnaviyi-ma'naviy" degan dostonini yaratadi. Sa'diy esa islom olamida o'zining "Guliston" va "Bo'ston" asarlari, g'azallari, ahloqiy fikrlari bilan keng shuhrat qozonadi.

Turkiy tilda ijod qilgan yana bir shaxs, bu nomi bizga hati yaxshi tanish bo'lmagan **Nosiriddin Burhonuddin Rabg'uziy**dir. U XIII asr oxiri-XIV asr boshlarida yashab, ijod qilgan. Bizgacha uning birgina "**Qissayi Rabg'uziy**" (Qissasul anbiyo) asari yetib kelgan. Bu asarda muallif o'zini "Rabot o'g'uzining qozisi Burhon o'g'li Nosiriddin" deb tanishtiradi. Ushbu asar islom dinini qabul qilgan mo'g'ul beklaridan biri bo'lmish Nosiriddin To'qbug'aning iltimosiga ko'ra hijriy 709 (milodiy 1309-1310) yilda yozilgan. Ushbu asar 72 qismdan iborat bo'lib, payg'ambarlar (Dovud, Sulaymon, Muhammad) haqidagi qissalar, diniy rivoyat va hikoyatlar, xalq og'zaki ijodi, tarixiy asarlar, diniy kitoblar asosida bayon etilgan diniy-falsafiy, tarixiy, ahloqiy asardir.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Mo'g'ul davlati, feodal munosabatlar, Urganch qamali, turk-mug'ul qavmlari, bosqinchilik, Xorazmshohlar davlati, Jaloliddin Manguberdi, Maxmud Yalavoch, Temur Malik, Mahmud Torobiy, Chig'atoy ulusi, Jo'chi ulusi, xulagular davlati, suyurg'ol tizimi, Oltin O'rda davlati, soliq, kalon, qopchur.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Mo'g'ul feodal davlatining tashkil topishi va uning kuchayishi.
2. Oltin O'rda davlati va Movarounnahr.
3. XIII asr oxiri - XIV boshlarida Movarounnahrda madaniy hayot.
4. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari va ularning oqibatlari.
5. Mo'g'ullar hujumi arafasida Xorazmshohlar davlatidagi ichki siyosiy vaziyat.
6. Jaloliddin Manguberdi - vatanparvar, yurt himoyachisi.

### **Nazorat savollari**

1. O'lkada mo'g'ullar istilosining oqibatlari nimalarda namoyon bo'ldi?
2. Movarounnahrda Chig'atoy ulusining tashkil topishining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
3. Mahmud Torobiy qo'zg'aloni va uning tarixiy ahamiyati qanday.
4. Chig'atoy ulusining parokandalikka uchrash sabablari nimalarda edi?
5. XIII asr oxiri XIV boshlarida Movarounnahrda madaniy hayot yuksalishini misollar tariqasida isbotlang?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Narshaxiy Muhammad. Buxoro tarixi. T., 1966.
2. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya. Soch. I. M., 1963.
3. Bunyodov Z. Anushtegin xorazmshohlar davlati. (1097-1231). T.: «G'afur G'ulom nashriyati» 1998.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: «Sharq», 2000.
5. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: «Sharq», 1998.
6. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T.: «Sharq», 2000 y.
7. O'zbekiston tarixi. «Darslik» // Mas'ul muharrir t.f.d R. X. Murtazaeva. T., 2005 y.
8. Usmonov Q, Sodiqov M, Burlonova S. O'zbekiston tarixi : oliy o'quv yurt. (tarix yo'nal. tashqari) bakal. uchun darslik /; 2-nchi qayta ishlangan nashri. - Toshkent : "Iqtisod-Moliya", 2016.

## 6-mavzu: Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot

### Reja:

1. XIV asr birinchi yarmida Movarounahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashlari.
2. Amir Temur Movarounnahr hukmdori.
3. Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot.
4. Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan va madaniy hayot.

#### 1. XIV asr birinchi yarmida Movarounahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashlari.

Talabalarga mazkur mavzu doirasida mashhur sarkarda davlat va jamoat arbobi, sohibqiron Amir Temur haqida, uning shaxsi, sarkardalik faoliyati, davlat va hukumatni boshqarish yo'lidagi amalga oshirgan ishlari, harbiy yurishlari, temuriylar davrida Movarounahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, fan va madaniyat sohalaridagi o'zgarishlar xususida ma'lumotlar beriladi. Ma'lumki **Amir Temur 1336 - yil 9 aprelda** Kesh tumaniga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'ida, barlos beklaridan biri Amir Tarag'ay oilasida dunyoga keladi. Onasi Takinaxotun Keshning obro'li bekalaridan biri bo'lgan, Temurning bolaligi va o'spirinlik yillari Keshda o'tadi. Unga sohibiqiron nisbati ham berilgan.

**Sohibqiron** - quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to'sishi (qiron) paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofatli yulduz-Zahro va Mushtariy sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjimlarning fikriga ko'ra, bunday odam baxtli, ulug' martabali bo'lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi, "qiron sohibi", "baxtiyor podshoh", "qudratli podshoh" demakdir.

**Sarbadorlar**-XIV asrda Xuroson va Movarounnahrda mo'g'ullar va mahalliy feodallarga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati qatnashchilari. So'zma so'z ma'nosi "o'z boshini dorga tikkanlar". Sarbadorlar harakati dastavval Xurosonda boshlandi. Xurosonning g'arbiy qismida ular mo'g'ullar hukmronligini tugatib, mustaqil Sarbadorlar davlatini barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo'lib, 1337 yildan 1381 yilga qadar qariyb 45 yil hukm suradi.

Amir Temur shaxsi hukmdor sifatida anchagina murakkab bo'lib, o'z davrida va bugungi kunda mashhur fohih haqida anchagina ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, kitoblar, risolalar yozilgan hamda yozilmoqda. Bular orasida Nizomiddin Shomiyning «Zafamoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafamoma» asarlari, shuningdek Kastuliya qiroli Genrix III tomonidan Amir

Temur saroyiga elchi qilib yuborilgan Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklarini muhim manbalar sifatida keltirish mumkin. Shuningdek Ibn Arabshohi qalamiga mansub «Amir Temur tarixi», yirik tadqiqotchi olimlardan N.Ostroumov, V.V. Bartold, A.Yakubovskiy, I.Umnyakov, I.Mirokova, Alixonto'ra Sog'uniy, I.Mo'minov, B.Ahmedov, A.O'rinboev, A.Ahmedov, O.Bo'riev, H.Bobobekov va boshqalarning tadqiqotlarini keltirish mumkin.

Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy hayot maydoniga kirib kelishi mo'g'ullar hukmronligi va zulmidan aziyat chekkan, shu tariqa mo'g'ullar hukmronligi tanazzulga uchray boshlagan bir davrga to'g'ri keladi. Mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyatning keskinlashganligidan xabardor Amir Temur Movarounnahr hukmdorligiga tayinlangan so'ngi mo'g'ul hukmdori Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Shu tariqa oradan bir yil muddat o'tmasdanox Balx hokimi **Amir Husayn** bilan do'stlashib, u bilan birgalikda Movarounnahrn mo'g'ullar zulmidan ozod qilishga kirishadi. Shu maqsadda 1362-1364 yillarda Mo'g'ul qo'shinlariga bir necha marotaba zarbalar beradi. Tug'luq Temur o'z o'g'li Ilyosxo'jni Movarounnahrda hukmdor etib tayinlaydi. Mustaqil bo'lishga harakat qilgan Amir Temur yangi hukmdorga itoat etmadi, oqibatda yangi ziddiyatlar yuzaga kela boshlaydi. Amir Temur 1362 yilda Seyistonni bosib oladi.

Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365- yil bahorida Chinoz va Toshkent oralig'ida sodir bo'lgan «**Loy jangi**»da Amir Temur va amir Husayn Ilyosxo'ja boshliq Mo'g'ul qo'shinlariga qarshi jang olib borishga majbur bo'ladi. Ammo bu jangda kuchlar teng bo'lmaganligi va harbiy tajribaning kamligi bois Amir Temur va amir Husayn Ilyosxo'jadan yengiladilar.

Qayta urinish behuda ekanligini anglab yetgan Amir Temur jang maydonini tark etib, qolgan askarlari bilan Samarqand tomon qaytib ketadi. Samarqand shahriga kelganda bu yerda ham uzoq turmasdan avvaliga Keshga, so'ngra Amudaryo orqali Xuroson poytaxti Balxga o'tib ketishga majbur bo'ladi. Tez orada Ilyosxo'ja qo'shinlari Samarqandga tomon yurish qiladi. U yerda sarbadorlar harakati boshlanib, Samarqand bu harakatning markaziga aylanadi. Harakatga Mavlonzoda Keleviy (paxta savolovchi) va mohir mergan Xo'rdaki Buxoniyar boshchilik qiladilar. Jome' masjidida to'plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonzoda da'vati bilan mug'ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo'ja Samarqandda katta zarbaga uchiab Movarounnahrda chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Samarqandda hokimiyat sarbadorlar qo'liga o'tadi. Ular xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ko'radilar, mo'g'ullarga tarafdorlik qilganlarning yer va mulklari musodara etilib, xalqqa bo'lib berila boshlanadi. Samarqand sarbadorlari g'alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366 yil bahorida Samarqandga keladilar va hiyla bilan Sarbadorlar boshliqlarini qo'lga olib, o'ldiradilar. Amir Temurning sa'y-harakatlari tufayligina Mavlonzoda tirik qoladi.

### 3. Amir Temur Movarounnahr hukmdori

1366-1370-yillar oralig'ida Amir Temur o'z e'tiborini ichki harbiy yurishlarga qaratadi. Shunday sharoitda Amir Husayn va Amir Temur o'rtasidagi taxt uchun kurashlar va ziddiyatlar tobora kuchaya boshlaydi. Bunday qarama-qarshilik 1370 yilda Amir Husaynning o'ldirilishi va Amir Temurning **Movarounnahr hukmdori**, deb e'lon qilinishi bilan yakunlanadi. Movaraunnahr aslida xon avlodidan bo'lmish Suyurg'otmish qo'lida bo'lsada, davlatni boshqarish amalda Amir Temur qo'lida edi. Shu boisdan u tezda Keshdan Samarqandga o'tib, uni o'z davlatining poytaxtiga aylantiradi.

Bu paytda Amir Temurning Movaraunnahmi birlashtirish siyosati boshlangan edi. Xususan Xorazmni ham qaytadan Movaraunnahrga kiritishga intiladi. **1372 - yilda** u birinchi marotaba yurish qilib u yemi fath eta olmadi. Oradan bir yil o'tgach Amir Temur Xorazmga ikkinchi marotaba yurish qiladi. Shu tariqa Janubiy Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kiradi.

Shundan so'ng Amir Temur Xorazmga yana uch marta yurish qiladi. Buning sababi Oltin O'rda xoni To'xtamishning Xorazmga da'vosi edi. 1387-1388 yillarda To'xtamish, Amir Temurning Movaraunnahrdagi yo'qligidan foydalanib, Xorazmga hujum qiladi. Xorazm hokimi bo'lgan Sulaymon So'fini Amir Temurga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga undaydi. Sulaymon So'fi bunga rozi bo'ladi. Bu voqeyalar Amir Temurni 1388 - yili Xorazmga yana yurishga majbur etdi. Temur Urganchni ishg'ol qiladi va sufiylar sulolasini tugatishga muvaffaq bo'ladi. Shu tariqa Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga, keyin esa Temuriylar davlati tarkibiga kirgan. Shunday qilib, Yettisuvdagi va Sirdaryo etaklaridagi yerlardan tashqari, Turkiston yerlarining hammasi Amir Temur qo'liga o'tadi.

Amir Temur doim jangda jasorat ko'rsatgan amirlar va askarlarga alohida e'tibor bilan qaragan. Natijada Sohibqiron uyushqoqlik hukm surgan ko'p sonli qo'shinida intizomni mustahkamlashga muvaffaq bo'ladi. Mo'g'ullar zulmidan aziyat chekan hudularga harbiy yurishlar qiladi. U tarixda "**uch yillik**" (1386-1388) "**besh yillik**" (1392-1396) "**yetti yillik**" (1399-1405) urushlar deb nom olgan edi. Shu bilan birga XIV asrning 80 yillar o'rtalariga kelib Xuroson ham Amir Temur ixtiyoriga o'tadi. Shu yillar mobaynida u Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G'ilonni bo'ysundiradi. Shundan keyin u Kavkazga yurish boshlab, Tiflis, Arzurum va Van qal'asini egallaydi. Bu paytda fursatdan foydalangan To'xtamish Movaraunnahrga qo'shin tortadi.

Ta'kidlash joizki, Temurning bu g'alabalari tarix sahnasida ulkan ahamiyat kasb etdi. Amir Temur **1398 - yilda** Hindistonga qilgan yurishida Dehli shahrini, 1400 yilda Suriyaga qilgan yurishida Xalab va Bayrut shaharlarini, **1401 -yilda** Damashq shahrini egallaydi. To'xtamish qo'shinining Terek daryosi bo'yida tormor etilishi va 1395-yilda Saroy Berkaning xaroba qilinishi Oltin O'rdaga juda kuchli zarba bo'ldi. Shundan keyin u o'zini o'nglay olmadi. Amir Temurning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borganligini urush voqeyalari ko'rsatib turadi. Amir Temur Ozarbayjonga bir necha marotaba hujum qilib bordi va 1387 - yildagina uni

bo'ysundirishga muvassar bo'ladi. Armaniston va Gruziyani Amir Temur 1392 yilda bo'ysundiradi. Temurning uzoq Hindistonga yurishi 1398- yilda g'alaba bilan tugaydi.

Shundan so'ng Amir Temur 1402 yilca usmoniylik imperiyasining sultoni Yildirim Boyazidga qarshi yurishida uni mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alaba bilan Temur Yevropaning usmoniylik asoratiga tushishini bir necha o'n yillar orqaga surib yuboradi. Oradan bir yilcha vaqt o'tib Temur 1404 yilda kichik Osiyodan Samarqandga keladi va Xitoyga yurish uchun harbiy taraddud ko'radi. Shubhasiz, u bu yurishi uchun uzoq yillar tayyorlanib, jang uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni yillar davomida to'plagan edi. 1404 yilda Temur 200 minglik qo'shin bilan Xitoy safariga o'tlanadi. Ammo Temurning qattiq betobligi tufayli uning qo'shinlari 1405 yilning yanvar oyida Xitoyga yaqin bo'lgan chegara shahar O'torda to'xtaydilar va shu yerning o'zida, ya'ni **1405 - yilning 18 fevralida** O'tor hokimi Berdibek saroyida vafot etadi.

Ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davrida boshqa sohalar qatori soliq tizimi uchun muhim manbalardan biri "**Temur tuzuklar**"dir. Albatta bu davrda soliqlar tarixning oldingi davrlariga nisbatan ham shaklan, ham mazmunan birmuncha o'zgargan. Biz uchun Amir Temur va temuriylar davrida soliq tizimi haqida batafsil ma'lumot beruvchi birdan-bir manba bu «Temur tuzuklari» dir.

«Agar – deyiladi «Temur tuzuklari» da – xarob bo'lib yotgan yerlarning egasi bo'lsa-yu, lekin obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan va kerakli narsalardan bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin». Unda yana shunday deyiladi: «Kimki, biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'tarsa, yoki biron-bir xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hych narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa (oliq-soliq) qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'olsin».

Ko'rinib turibdiki, davlat fuqarolardan tegishli narsani undirib olishdan oldin ularga albatta zarur shart-sharoitlar yaratib berganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Temur tuzuklarida qayd qilinishicha, avvalambor, oddiy xalq manfaatlarini turganligini anglash qiyin emas. «Negaki, - deyila-di «Temur tuzuklari»da, - raiyat xonavayron qilinsa, (davlat) xazina kambag'allashishiga olib keladi... (bu esa o'z o'mida) saltanaming kuchsizlanishiga olib boradi».

Bu davrda katta yer egalari, mirshkorlar, dehqonlar, bo'g'bonlarga yaratib berilgan shart-sharoitning o'ziyoq sohibqiron davrida boshqaruv tizimida ma'lum imtiyozlar shakllanganligidan dalolatdir. Bu haqda «Tuzuklar» da shunday deyiladi: «Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan raiyatdan molu-jihot olinmasin. Hosil yetilgach, soliqni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yuborilmasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga solik to'plovchi yubormasinlar. Agar soliq yig'uvchi yuborishga majbur bo'linsa, ular soliqni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak-arqon ishlatib ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni band etib zanjir bilan kishanlamasinlar».

Amir Temur devonida maxsus vazirliklar faoliyat olib borgan, ulardan uchinchisi «Mulkchilik va soliq ishlari devoni» (vazirlik) deb atalgan. To'rtinchisi ham moliya hamda xarajatlar tizimi bilan shug'illangan vazirlik bu, «Kirim-chiqimlar va xazinadan sarf qilinayotgan barcha xara-jatlar hisobini olib boruvchi moliya vazirligi» deb atalgan.

Shu jumladan «Tuzuklar» da moliya vaziriga tegishli diqqatga sazovor jumalalar ham uchraydi. Unda, jumladan shunday deyiladi: «Moliya vazirlari moliya ishlarida xiyonat qilib o'zlashtirib olgan bo'lsalar, agar o'zlashtirib olgan mablag'i o'ziga tegishli ulufa (ya'ni maosh) miqdoriga teng bo'lsa mazkur mablag' unga sovg'a – in'om o'mida berilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki baravar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan maoshidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch baravar ko'p mablag' olingan bo'lsa, hammasi saltanat xazinasiga tortiq sifatida olinsin».

Shunday qilib, Amir Temur (1336-1405 yy.) mintaqani mo'g'ullar hukmronligidan ozod etdi. Yarim asr davomida u Kashmirdan O'rta yer dengizigacha, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar cho'zilgan ulkan saltanatni barpo etdi. Yurishlar uchun Temurga moliya resurslari kerak edi, egallab olingan boyliklar, o'z daromadlari, infratuzilma va soliqlar ularning manbai bo'ldi.

Qayd etilganidek Amir Temur boshqaruv siyosatining asosiy qoidasi «Temur tuzuklari» uning o'z farzandlariga qoldirgan vasiyatidir. «Hokimiyatni boshqarishda xalqni va viloyatlarni xonavayron qilishdan ehtiyot bo'lish zarur, zero xalqning xonavayron bo'lishi davlat xazinasining qashshoqlashi-shiga olib keladi. Xazinaning nochorligi oqibatida esa harbiy kuchlar parokanda bo'lib, bu esa o'z navbatida hokimiyatni zaitlashtiradi». Qonunni ishlab chiqishda, deb hisoblardi Temur, avvalo xalqning manfaatlarini hisobga olish, uning to'lovga qobilligidan kelib chiqish zarur, asos qilib har bir alohida xo'jalikda boy-badavlatlilikning erishilgan darajasi olinishi kerak bo'lgan.

### 3. Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot.

Ma'lumki Movarounnahr va Xurosonda temuriylar hukmronligi davrida avvalgidek yer va mulkchilikning asosan 4 shakli mulkiy devoniy – davlat yerlari, mulki xos-xususiy yerlar, mulki vaqf – madrasa, masjidlar va diniy ulamolar tasarrufidagi yerlar va nihoyat jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilgan. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish keng tarqaladi.

Amir Temur davlat boshqaruvida **soliq va moliya tizimi** o'zining muhimligi bilan boshqa masalalardan ajralib turgan. Moliya davlat pul resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini vujudga keltirish, taqsimlash va qayta taqsimlash, ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarni ifoda qiladi. Bu davrda pul munosabatlari yetarli rivojlanmaganligi sababli natura holidagi davlat resurslarining harakati ham Temurning diqqat markazida bo'lgan.



Moliya davlat resurslarining markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan fondlarini vujudga keltirish, taqsimlash va ulardan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlarnigina emas, balki tovar-pul munosabatlari yetarli rivojlanmagan sharoitda moddiy (natura) resurslari to'lovini tashkil etishi Amir Temur boshqaruvining diqqat markazida bo'lgan. Uning davlat moliyasini rivojlantirishga qaratilgan xizmatlari ko'p qirralidir.

Birinchidan, u davlat moliyasining mo'g'ul va boshqa bosqin-chilarga qaramligini uzil-kesil tugatdi, mustaqil davlat moliyasini yaratdi. Ikkinchidan, markazlashtirilgan davlat tarki-biga kirgan 27 mamlakat moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma'muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy qildi. Uchinchidan, Qur'oni Karim talablarini o'zida ifoda qiluvchi shariat tavsiyalari asosida qurilgan soliq tizimini shakllantirdi. To'rtinchidan, davlat xazinasi resurslarini saqlash va ulardan foydalanish tizimini qaytadan tashkil qilib, markazning mahalliy uluslar, tumanlar bilan munosabatlariga aniqlik kiritdi.

Amir Temur avvalo, ulkan davlatning mustaqil davlat moliyasini yaratdi va uni muttasil takomillashtirib bordi. Markazlashtirilgan davlat tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar moliyasini bir tizimga birlashtirdi va ularni ma'muriy boshqarish talablari asosida idora qilish usullarini joriy etdi. Shu bilan birga soliq tizimida ham bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Bunda har bir mamlakat va aholining xususiyatlarini e'tiborga olib, qator imtiyozlar joriy qildi. Davlat xazinasi resurslari va mahalliy ulus hamda tumanlar ixtiyorida mablag'lar tarkibiga aniqlik kiritdi. ularning markaz bilan moliyaviy munosabatlarini takomillashtirdi.

«Temur tuzuklari»da har qanday jamiyat uchun iqtisodiyot ustuvorligi ifodalaniib, quyidagicha xulosa berilgan. «...davlatu saltanat uch narsa bilan: mulk, xazina va lashkar bilan tirikdir. Dono vazir bulaming har uchalasini yaxshi ahvolda saranjom tutadi». Amir Temur soliqlarni davlat xazinasini kerakli moddiy resurslar bilan ta'minlovchi asosiy vosita sifatida qarash bilan birga, soliqlarni davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ham ko'rgan edi hamda bu borada bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Soliq sohasidagi islohotlarni umumiy tarzda quyidagi-cha ifodalash mumkin.

**Birinchidan,** Amir Temur tarixda birinчилardan bo'lib davlat, xalq va sipoh o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda munosabatni to'g'ri anglab yetgan. Buni biz uning quyidagi fikrlardan bilishimiz mumkin. Raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. U xazinaning kamayib qolishi esa sipohning kamayib ketishiga sabab bo'ladi, sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib kelishini uqdiradi.

**Ikkinchidan,** Amir Temur davrida soliqlarni tartibga soluvchi qonun-qoidalarini yaxlit holga keltiriladi. Bu tartib qoidalar «Temur tuzuklari» asosida kafolatlab qo'yilgan.

**Uchinchidan,** soliqlardan faqatgina davlat xazinasini boyitish emas, balki davlat boshqaruvi va xalq manfaati uchun ham keng foydalanila boshlaydi.

**To'rtinchidan,** soliqqa tortishda soliqlarning rag'batlan-tiruvchi funksiyasidan foydalangan holda bir qator soliq imtiyoz-lari joriy etiladi.

**Beshinchidan,** soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaligiga chek qo'yishga imkon qadar harakat qilinadi. Bu xususiyatlar esa o'rta asr hukmdorlarining o'zboshimchalik bilan davlat xazinasini o'zlashtirish va o'z manfaati yo'lida turli ishlarni amalga oshirayotgan bir davrda soliqlarga nisbatan butunlay yangicha qarash edi.

Amir Temur viloyatlar va mamlakatning bir qismi ularning ilgari sohiblariga yohud o'zining amirlari, o'g'il va nabiralari suyurg'ol qilib, ya'ni aholisidan davlat soliqlari va o'lponlarini undirish huquqi bilan umrbod egalik qilish va boshqarish huquqi berildi. Soliq yig'imlarini butunlay yoki qisman suyurg'ol egalari amalga oshirishgan. Bu bir tomondan soliq yig'imini samarali tarzda amalga oshirish uchun imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Amir Temur tomonidan barpo etilgan ulkan markazlashgan mamlakatda soliq yig'imlarini amalga oshirish nihoyatda qiyin va murakkab kechgan.

Shuning uchun ham, sohibqiron har bir ulusga soliq va boj to'lovlarini nazorat qilib boruvchi vazir lavozimi tayinlaydi. Bu boradagi adolatsizlik uchun suyurg'ol egasi va vazir lavozimidagi shaxs javobgar qilib belgilangan. O'z faoliyatining so'nggi yillarida Amir Temur butun mamlakat bo'yicha yagona soliq tizimi bo'lishi mumkin emas degan xulosaga keladi. Albatta, islom diniga katta e'tiqod qo'ygani uchun u shariat tavsiyalari tarafdori edi.

Arab va Kavkazorti mamlakatlari, Movarounnahrda soliq tizimi Temur tomonidan belgilangan qonunlar bo'yicha shakllandi. Biroq soliqqa tortishning tarixan shakllangan tizimlariga ega bo'lgan mamlakatlarda Temur avval hukm surgan soliqlarni qoldirishga harakat qildi. Shuning uchun ham, biror hududni o'z davlatiga qo'shib olganda yangidan-yangi soliq turlarini joriy qilmaydi. «Agar-deb yozgan edi- Tuzuklarda - yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda, (xirojni) tuzuklarga muvofiq yig'sinlar». Bu, o'z navbatida, bir tomondan, o'sha hududni boshqarishga yengillik yaratsa, ikkinchi tomondan bu borada oldindan mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga ko'mak bergan. Shuningdek, bu tadbir tuzuklardagi soliq to'lovchilar soliqni «yaxshi so'z bilan olsinlar, kaltak, arqon ishlatib, ishni urush va so'kishgacha olib bormasinlar, ularni bandi etib, zanjir bilan bog'lamasinlar» - deb ko'rsatilgan holatning oldini olishga xizmat qilgan.

Temuriylar hukmdorligining so'ngi davrida Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi suyurg'ol egalari qo'lida to'planib, Movarounnahrda ular g'oyat katta kuchga ega edi. Mamlakatning siyosiy

hayotida ularning nufuzi kuchli bo'lgan. Hatto o'zaro nizolar vaqtida suyurg'ol egalari qo'llab-quvatlashi biror bir viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba'zan hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

**Suyurg'ol(t.o'zb.)** – in'om etilgan, sovg'a, marhamat qilingan yer, suv, mol-mulk shunday atalgan. O'rta asrlardan boshlab, ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar hamda o'zbek xonliklari davrida davlat va hukumat oldidagi alohida xizmatlari uchun boy-badavlat kishilar, amaldorlar, yuqori lavozim egalari hukmdorlar tomonidan in'om etilgan yer, mol-mulk. Bunday toifa kishilar olayotgan daromadlari uchun barcha soliq va majburiyatlardan ozod etilgan bo'lib, mol-mulkdan o'z ixtiyorlaricha foydalanib kelganlar. Hatto ular egalik qilgan boyliklar ajdodlardan avlodlarga meros tarzida o'tgan.

O'rta Osiyoda suyurg'ol tizimi Amir Temur hukmronligi davrida ancha kuchaygan bo'lib, hukmdor, davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun sarkardalar, viloyat hokimlari, beklar va boshqa hurmat-etibordagi alohida toifa kishilarga dehqonchilik yerlari, yaylovlar, ariq va kanallarni suyurg'ol tarzida in'om etgan. Ushbu tizimning yana bir o'ziga xos tomoni shundan iborat bo'lganki, ularni boshqargan yer egalari o'zlariga tortiq qilingan joylardagi aholidan olinadigan davlat soliqlarini to'lagicha yo ma'lum bir ulushini o'zlariga olishlari nazarda tutilgan. Bu borada me'yorida chiqish, aholi noroziligiga sabab bo'luvchi ishlarga qo'l urish ba'zan saltanat qudratiga putur yetkazgan.

Zodagonlar yerga egaliklarining shartli suyurg'ol shakli temuriylarning mulklarida keng tarqalgan va Oltin O'rdada ham ma'lum bo'lgan. Suyurg'ol XIV asrning ikkinchi yarmida Oq O'rdada ham mavjud bo'lgan. Nizomiddin Shomiyning hikoya qilishicha, Oq O'rdaning lashkarboshilaridan biri To'xtamish bilan Samarqandga qochganida (1377-1378 y.) Urusxon uning suyurg'olini tortib olib, Toycha ismli odamga hadya qilgan. Abul-hayrxon davrida Janubi-g'arbiy Sibir hukmdorlari Baxshibek va Qyepakxo'jalar tarxon bo'lishgan. Shayboniyxon davrida Arquq va uning atrofidagi yerlar ham tarxonlik mulki bo'lgan. Mahmud ibn Valining yuqorida eslatib o'tilgan asarida ham amir-tarxonlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Suyurg'ol yerlar hajmi, sharti hamda yer va yorliqqa ega shaxslarning tabaqasiga in'om etish jihatidan turlicha bo'lgan. Odatda shahar yoki viloyatlardan tortib to alohida qishloqqacha suyurg'ol shaklida in'om etilgan. Butun bir shahar yoki viloyat ko'pincha hukmron sulola namoyondalari yoki yirik harbiy va davlat mansabdorlariga berilgan. Suyurg'ol egasiga o' suyurg'oli doirasida amaldorlar tayinlash, soliqlar va turli to'lovlarni to'plash hamda aybdorlarni jazolash huquqi berilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Shoxrux davrida Xorazm – Shox Malikka, Farg'ona – Mirzo Ahmadga, Tus, Mashhad, Obivard, Nisoni o'z ichiga olgan Xuroson – Boysunqur mirzoga berilgan, Qobul, G'azna, Qandaxor viloyatlari Mirzo Qaydu Baxodimning suyurg'oli edi. Suyurg'ol yorlig'iga ega bo'lgan viloyat hukmdorlari markaziy hokimiyatga faqat nomigagna qaram bo'lib, odatda ular deyarli mustaqil edi.

Suyurg'ol egalari tobeligini kuchaytirish maqsadida markaziy hokimiyat ba'zan ular tasarrufidagi yer maydonlarni qisqartirar yoki ularning ma'muriy va adliya jihatidan haq huquqini cheklab qo'yar edi. Temuriylar davrida maydoni jihatidan mayda va haq-huquqi jihatidan ancha muncha cheklangan suyurg'ol yerlari ham bo'lgan. Bunday mayda suyurg'ol yerlari, odatda xizmat ko'rsatgan kichik mansabdagi harbiylardan tortib, oliy hukmdorning muntazam gvardiyasidagi harbiylargacha berilgan. Boburning yozishicha Husayn Boyqaroning 14 minglik gvardiyasi va 40 minglik muntazam qo'shini (g'ul) ning har bir askariga 80 jarib, ya'ni 40 tanobdan yer berilgan. Navkarlarga berilgan bu yerlarda soliq va to'lovlar olinmagan. Bunday hollarda shubhasiz oliy hukmdorlar o'rtasida yer va toj-taxt uchun kurashlar bo'lib turgan. Ayniqsa bu Amir Temur o'limidan so'ng kuchaygan.

Xususan, 1405-1406 yillarda Xalil Sultonning Shohruh, Pirmuhammad qo'shinlari bilan Movaraunnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to'qnashuvi bunga misoldir. Shu tariqa toju-taxt, yer-mulk talashishlar eqibatida Xuroson, Balxdan to Hind yerlarigacha bo'lgan yerarga hokim Pirmuhammad, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo'lgan Mironshoh va uning avlodlari yerlariga bo'linib ketadi. Movaraunnahr Xalil Sultonga rasman qarashli deb hisoblansada. Turkiston, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, Farg'onada esa Amir Xudoydod hukmronlik qilishar edi.

**Tarxonlik** mulki va yorliqlari esa suyurg'ollarga o'xshab toj-taxt uchun qilingan eng katta xizmatlar evaziga berilgan. Tarxonlik yorliqlarini faqat lashkarboshilar va harbiy mansabdorlarga emas savdogarlar ham olishlari mumkin bo'lgan. Tarxonlikning aksariyati juda boy bo'lgan. Masalan bu davrda Xirof atrofidagi mulklar Darveshali Tarxon, Samarqand va Buxoro atrofidagi juda katta yerlar Abu Ali Tarxon qo'lida to'plangan edi. Bobur Abu Ali Tarxonning shoxona hayotini tasvirlab, uning xashamatli saroyi, xizmatidagi uch ming kishidan iborat xizmatkoru navkarlari, o'tkazgan dabdabali to'y tomoshalari, berilgan qimmatbaho sovg'a salomlari va xalqqa qilgan jabr - zulmlari to'g'risida yozilgan.

Temuriylar hukmdorligining so'ngi davrida Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz va boshqa viloyatlarning dehqonlaridan hamda shahar aholisidan yig'iladigan davlat daromadlarining anchagina qismi tarxonlar co'lida to'planib, Movaraunnahrda ular g'oyat katta kuchga ega edi. Mandakatning siyosiy hayotida tarxonlarning rufuzi kuchli bo'lib, ular juda katta siyosiy huquqdan foydalanar edilar. Hatto o'zaro nizolar vaqtda tarxonning qo'llab-quvatlashi birorta viloyat hokimining taqdirini belgilashda ba'zan hal qituvchi ahamiyat kasb etgan.

Tarxonlikda oddiy ko'chmanchilar esa xojasining chorvasini o'z chorvasi bilan birga boqar, unga ko'chish va qo'ylar yungini olish davrida yordam bergan. Harbiy yurishlar vaqtda xojasining huzuriga o'z otlari va qurollari bilan kelib, turli xizmatlarni o'tagan. Bundan tashqari, u turli soliqlar to'lardi va majburiy

xizmatlarni ado etgan. Bir soʻz bilan aytganda Amir Temur yerga egalik qilish va davlatni boshqarishning oʻziga xos usulidan foydalanganligi bejiz emas.

Movaraunnahrda **Mirzo Ulugʻbek hukmronligi**. Oʻzaro taxt uchun kurashlar olqibatida 1407-yil 22 fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad oʻzining vaziri Piral Toz tomonidan suiqasd natijasida oʻldiriladi. Mironshoh esa Ozarbayjon va Iroq uchun boʻlgan janglarda oʻldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqadi. Shohruh esa bu paytda oʻziga qarashli boʻlgan Xurosonda oʻz hokimiyatini mustahkamlaydi, butun eʼtiborini Movaraunnahrga qaratadi. U 1409-yil 25 aprelida Amudaryodan oʻtib Samarqand tomon yoʻl oladi hamda u yerdagi ichki urushlarga chek qoʻyib, 1409-yilning dekabriga qadar Movaraunnahrda tinchlik osoyishtalik oʻrnatadi. Shohruh Mirzo temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida eʼtirof etiladi, uning 40 yillik barqaror hukmronlik davri boshlanadi.

Movaraunnahr yerlarining boshqaruvi esa Mirzo Ulugʻbek qoʻliga topshirilgan boʻlib, u umrining oxiriga qadar 40 yil mobaynida bu yerlarni boshqarib keladi. Mirzo Ulugʻbek (Muhammad Taragʻayy) Amir Temurning Iroqqa yurishi mahali yaʼni, **1394- yilda** Sultoniya shaxrida tavallud topgan. U Movaraunnahr taxtini egallaganida endi 15 yoshga toʻlgan edi. Mirzo Ulugʻbek hukmronligi (1409-1449 yy) temuriylar saltanatining anʼanaviy rivoji va muhim ijtimoiy oʻzgarishlar yoʻlidan ilgari lab berishida alohida davmi tashkil etadi. Negaki, bunda donishmand hukmdorning katta saʼy-harakatlari, toʻgʻri yoʻnaltirilgan siyosati tufayli mamlakat dahlsizligi, tinchligi va osoyishtaligi nisbatan taʼminlandiki, bu esa uning iqtisodiy, madaniy va maʼnaviy ravnaqiga sezilarli ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Manbalarda qayd etilishicha, Ulugʻbek Amir Temur davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib-qoidalarni toʻla saqlashga harakat qilgan. Soliq va moliya sisatida ham bunga amal qilgan. Toʻgʻri, Ulugʻbek Amir Temur singari jangu jadallarga qiziqmagan boʻlsada, baʼzan el-ulus tinchligi yoʻlida harbiy yurishlarga oʻtlangan. Masalan, 1414-yilda Sharqiy Turkiston yerlarini ham oʻz davlati tarkibiga qoʻshib olishga muvaffaq boʻlgan.

1424- yilning noyabr oyida Mirzo Ulugʻbek Moʻgʻuliston ustiga yurish boshlaydi. 1425- yilga kelib Ulugʻbek Mirzo Issiqkoʻl tarafga yurish qilib, u erdagi isyon koʻtargan mahalliy muholifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakatning sharqiy chegaralarini ancha mustahkamlashga erishadi. Biroq hukmdorning 1427-yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sigʻnoq va uning atrofida hududiy daʼvolar bilan bosh koʻtargan Dashti Qipchoq aslzodalaridan sanalgan Baroqxonga qarshi yurishi uning uchun kutilmaganda muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Bu magʻlubiyat Ulugʻbekni hokimiyatdan mahrum boʻlishiga ham olib kelayozgandi. Otasi Shohruhning katta qoʻshin bilan etib ketishigina uni yana oʻz hukmronligini qayta tiklashiga imkon berdi. Shundan soʻng Ulugʻbek Mirzo urush harakatlaridan koʻra koʻproq oʻz faoliyatini mamlakat ishlari, uning ichki siyosati masalalari bilan shugʻullanishga qaratadi.

Uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnagiga oid masalalar asosiy o'rin egallaydi. Mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik va ziroatchilik avvalgidek rivojlanishda davom etadi. Ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari barpo etiladi. Mamlakat Buyuk ipak yo'li orqali halqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlarda ko'plab hasharati madrasalar, masjidi maqbaralar, karvonsaroylar qad rostlaydi. Uning bevosita rahnamoligida qurilgan tenggi yo'q me'moriy inshoot - rasadxona o'sha davr ilm-fani va texnikasining eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan edi. Ulug'bekning 1428-yilda o'tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo'lga qo'yishda muhim voq'ea bo'lgan.

Ammo tez orada shi moldan yana boshqa bir xavf paydo bo'ladi. Ulug'bek yordami bilan avval Dashti Qipchoq, so'ngra Oltin O'rda hokimiyatini qo'lga olgan Baroqxon Movarounnahr sultonining muruvvatini yoddan chiqardi. U Sirdaryo bo'yidagi yerlar va shaharlarni (O'tror, Sabron, Sig'noq) talab, u yerlarga o'z da'vosi bilan chiqadi. 1427-yilning boshida Ulug'bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurish qiladi. Bu yurishda Ulug'bek qo'shini mag'lubiyatga uchrab, o'zi Toshkentga chekinadi. Ushbu mag'lubiyatdan so'ng Ulug'bek bundan buyon boshqa harbiy yurishlar qilmadi. U **1449-yilda** fojiali tarzda halok bo'lad.

Abusaid Mirzo o'linidan so'ng hokimiyatga kelgan Husayn Boyqaro (1438-1506 yy) davrida bu o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ko'plab muhim o'zgarishlaru siljishlar yuz berdi. Buning boisi shundaki, Temuriy shahzodalar ichida ja'sur va tadbirkor, salohiyatli va ma'rifatli hukmdor bo'lgan Husayn Boyqaro o'zining salkam 40 yillik hukmronligi davrida Xurosonda katta xayrli ishlarni amalga oshirish, saltanat qudratini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Bu ulug'vor ishlar va sa'y-harakatlarda uning maktabdosh do'sti, buyuk donishmand siymo, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari (1441-1501 yy)ning roli beqiyosdir. Ulug' Navoiyning Boyqaro saroyida birinchi vazir sifatida katta mavq'ea va nufuzga ega bo'lishi, albatta, ko'plab muhim davlat masalalarini oqilona, raiyat foydasiga hal etishda qo'l kelgan. Ayniqsa poytaxt Hirot va uning tevarak-atroflarida qanchalab obodonchilik ishlarini ro'yobga chiqarishda, ko'plab salobatli me'morchilik obidalari, xalq xo'jalik inshootlarini barpo etishda bu ikki ulug' zotning bahamjihat sa'y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Mizo Ulug'bek davrida **soliq va vaqf - mulkchilik tizimi**. Vaqf- islom dini yoyilishi barobarida davlat hukmdorlari tomonidan joriy qilingan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyar qilib qoldirilgan mulk, ya'ni yer-suv, mol-mulk, bino va boshqalar. Vaqfdan tushgan daromadlar o'sha diniy muassasalar faoliyatini yaxshilash va ularda xizmat qiladigan dindorlarga berilgan. Vaqf yerlari bu, masjid, madrasa, xonaqo, mozor va shunga o'xshash joylarga tegishli bo'lgan. O'rta asrlarda yer,

suv, tegirmon, juvoz, bozor, saroylarni ham vaqf qilingan. Bunday mol-mulkdan foydalangan sayidlar, eshonlar avlodlari hamda xo'jalar ham katta imtiyozlarga ega bo'lganlar.

Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida ham jamiyatda vaqf mulklarining o'ziga xos o'rni bo'lgan, ayrim toifa kishilar umumdavlat va mahalliy soliqlardan batamom va qisman ozod etilganlar. Bunday kishilar toifasi oliy musulmon jamoasi a'zolari va Muhammad Payg'ambar avlodlaridan bo'lgan sayidlar va xo'jalar edi. Tarixiy adabiyotlarda Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror Valiy, Buxoroda Muhammad Islom xo'ja Sa'd (Jo'ybor xo'jalari) va ularning avlodlari shunday katta imtiyozlarga ega bo'lganliklari keltirib o'tiladi.

Ana shunday diniy ulamolardan biri temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bek davrida yashagan **Xoja Ahror Valiy**dir. U o'z davrining badavlat, obro'li, diniy ulamo hamda avliyosi sifatida tanilgan bo'lib, butun Movarounnahrda davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta nufuzga ega ekanligi bilan shuhrat qozongan. Uni shu darajaga yetkazgan narsa, avvalambor, diniy ilmi, pir va avliyolik jihati bilan birga, qo'li ostida katta miqdordagi vaqf mulklari, ya'ni yer-suv, mol-mulkning to'planganligi edi.

Tarixiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, uning yirik-yirik shaharlarda ulkan miqdordagi vaqf mulklari, xususan karvonsaroylari, sardobalari, bozorlari, timlari, savdo rastalari, do'konlari, hammomlari, tegirmonlari, moyjuvozlari bo'lgan. Ul piri murshid va avlodlari garchand soliq va boshqa to'lovlardan ozod etilgan bo'lsada, o'z ixtiyori bilan davlat xazinasiga va hukmdorlarga sovg'a va ehson tariqasida doimo mol-mulkidan bir qismini har yili o'tkazib turgan. Uning g'alla, don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari bilan bog'liq har yili davlatga to'laydigan solig'ining o'zi 80 ming botmonni tashkil etgan.

Xoja Ahror o'sha davrning ma'rifatli va raiyatparvar kishisi hisoblangan. U vaqfdan tushgan daromadning ma'lum qismini xayrli ishlarga sarflagan, oddiy xalq, beva-bechoralar, miskin-vaqirlarga xayr-ehson tariqasida tarqatgan. Xalq manfaatini himoya qilgan, ko'plab masjidlar, ko'priklar, tim va sardobalar, bozorlar qurdirgan, yo'llar va qabristonlarni obod qilgan.

O'z davrida turli ichki nizolar va o'zaro urushlarni oldini olgan, to'lanmagan oliq-soliqlarni o'z hisobidan to'lab, odilona siyosat bilan sulhparvarlik qilgan. Masalan 1463-yili temuriy zoda Umarshayx mirzo Toshkent ahlidan katta miqdorda xiroj talab qilganda, Xoja Ahror uni o'z hisobidan to'lagan, hunarmandlar va bozor ahlidan olinadigan tang'a solig'iga qarshi chiqqan. Hazrat eshon barcha soliqlardan ozod qilinganiga qaramay, ayrim yillari hamma qatori xiroj, ushr va boshqa soliqlarni (ma'unoti devoniya va navobi sultoniya) to'lab turgan. Xoja Ahror xar yili Sulton Ahmad mirzo (1458-1494 yillari Movarounnahr hukmdori) ning devoniga 80 ming man (botmon) g'allani xiroj o'mida yuborib turgan, yiliga unga xirojning bir qismi sifatida 10 ming kumush tanga berib turgan.

Birgina eshonning sulhparvarlik ishi bilan bek va hokimlar o'rtasidagi o'zaro nizolar va qirg'inbarot urushlarga chek qo'yilgan. Masalan, 1463 yili uch hukmdor (Farg'ona podshosi Umarshayx mirzo, Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon, Samarqand podshosi Sulton Ahmad mirzo) Xoves yonida bir-biriga qarshi lashkar saflaganda Xoja Ahror tadbir ishlatib, qon to'qilishiga yo'l qo'ymay podsholarni yarashtirib qo'ygan.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida xuddi Amir Temur hukmronligi davridagidek yuqori martabali insonlarga, xususan, din peshvolari, ulamo va avliyolarga biror mulkdan o'z foydalari hisobiga soliq yig'ib olish huquqi ham berilgan. Bunday huquq Xoja Ahror Valiy va uning avlodlariga ham berilganligi qayd etiladi. Ularga bunday huquqni beruvchi xon tomonidan tasdiqlangan maxsus hujjat «barot» deb atalgan.

Bu davrda **Muhammad Islom** avlodlarining ham katta miqdordagi vaqf mulklari bo'lib, bu xususda Mirzo Ulug'bekning soliq, mol, xiroj masalasida hеч kim uni bezovta qilmasligi to'g'risidagi farmoni yanada qiziqarlidir. Unda quyidagi ma'lumotlar keltirilgan. «Ushbu xalifamishon xonadonga doimo esh bo'lgan zafarlar xojaning marhamati va orqasidandir. Shuning uchun ham, ul hazratning bu karami saxovatleri va mushohadalarini o'zirnizga qonun, deb hisoblaymiz. Bu muqaddimadan muddao shulki, mazkur qishloqlar nahru ziroatleri ul hazratning mulki va suyurg'oli ekanligini inobatga olib molu, jihat, muqar'ariy, ixrojat, mirobona, koh, tarh, sobun va shu singari oliq-soliqlar xususida bezovta qilmasliklerini buyuramiz; ul zotdan odam so'ramagaylar, raiyyatlarini boshqa tarflarga ko'chirmagaylar. Mirzo Ulug'bekning ulamo Xoja Tojiddinning ham Buxoro viloyati va tumanotida joylashgan 20 ming tanob vaqf mulklaridan soliq olmaslik haqidagi buyruqlari ham tahsinga sazovordir.

Shuningdek, Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida aholining barcha qatlamlari tarixning oldingi davrlarida bo'lgani kabi barcha uchun majburiy bo'lgan yer solig'i **xiroj** to'lashlari shart bo'lgan. Xiroj miqdori hosilning  $\frac{1}{3}$  (ba'zi manbalarda uning miqdori  $\frac{1}{5}$ ,  $\frac{1}{10}$  ekanligi qayd etiladi) qismiga qadar yetgan edi, ba'zan undan ortiq bo'lgan. Juzya, xiroj va boshqa soliqlardan tashqari, ziroatchi aholi gardanida boshqa og'ir soliq turlari ham bo'lgan.

Dehqonlar o'z qurol-aslahalari bilan kanallar qazish va tozalash, yo'l qurish va eski yo'llarni ta'mirlash, ko'priklar, shahar qal'a devorlari barpo etish va shu kabilarni bajarishga majbur qilinganlar. Dastlabki yillarda Movarounnahrda soliqlar va ularning turlari ancha kengayishi bilan bir qatorda, mahalliy hukmdorlar o'z bosqinchilik maqsadlarini oqlash uchun aholining ayrim tabaqalariga soliq to'lashda ayrim imtiyozlar ham berishgan.

Bu davrda xiroj aholining etnik, ijtimoiy mansubligidan qat'iy nazar barcha uchun majburiy to'lov turiga aylangan. Soliq miqdori aholining boy-kambag'alligiga qarab, yer, mol-mulk miqdori hamda oila a'zolarining nufuziga qarab belgilangan. Undirilgan soliq maxsus tayinlangan soliq xodimlari tomonidan quyi boshqaruv vakillari, ya'ni yer-suv jamoasi raislari, qishloq



oqsoqollari, diniy mahkamalarning hamda vaqf mulklari egalari guvohligida amir va bek xazinasiga tushirilgan.

Soliqlarni to'lamagan shaxslar boy va amaldorlar yerida ishlab berish, qo'shinch haqlar undirish, ayrim holatlarda tan jazosi berish kabi jazolarga tortilgan. Har bir fuqaro xiroj to'loviga shaxsan o'zi javobgar hisoblangan. Kam yerli va yersiz dehqonlar tomonidan belgilangan soliq o'z vaqtida to'lanmasa, ushbu masalaga yer-suv jamoasi raislari va qishloq oqsoqollari javobgar bo'lmaganlar.

### **Temuriylar hukmronligi davrida Mavarounnahr va Xurosonda ilm-fan va madaniy hayot.**

Temuriylar hukmronligi davrida Mavarounnahr va Xurosonda ilm-fan va madaniy hayot oldingi davrlarga qaraganda anchagina taraqqiy etgan. Ayniqsa adabiyot, san'at, arxitektura yanada rivojlandi. Bunda ayniqsa, qator adibullomalarning o'z o'zini bo'lgan.

**Alisher Navoiy** (1441-1501 yy) - buyuk o'zbek shoiri, adibi mutafakkir va davlat arbobi. Hirotida tug'ilgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi. Alisherning she'riyatdagi ilk ustozlari Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar bo'lgan. 1452-yil otasi vafot etadi va shu yili Xirotda taxtiga chiqqan Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Xusayinni saroyga, o'z tarbiyasiga oladi. 1466-1468 yillarda Samarqandda ta'lim oldi. Yoshligida yurtiga iste'dodli shoir sifatida tanilgan Alisher Navoiyni - Xusayin Boyqaro Hirot taxtiga o'tirgach, 1469 -yilda uni Samarqanddan chaqirib olib, muhrdorlik vazifasiga, 1476 - yilda vazirlik lavozimiga ko'tarib, unga "Miri Kabir" (Ulug' amir) unvonini beradi. Bu lavozimdan Navoiy xalq manfaatini, mamlakat obodonligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun foydalanadi.

Hirotida "Ixlosiya" madrasasi, darveshlar uchun "Xalosiya" xonaqohi, bemorlar uchun "Shifo'iya" kasalxonasi, "Dor ul-huffaz" (Qorixonona) "Safoiya" xammomini qurdirgan. Xondamirning yozishicha, Navoiy o'z mablag'iga 52 ta rabot, 19 ta hovuz, 9 ta hammom, Astrobodda "Mir saroyi" va "Jome' masjidi", Marvda "Xusraviya" madrasasini qurdirgan. Uning kutubxonasida 70 dan ortiq hattot va musavvirlar qo'lyozmalarni ko'chirish va ularni bezash bilan shug'ullangan. Navoiy o'zi qurdirgan muassasalardagi mudarris va talabalarni ma'osh bilan ta'minlashni o'z zimmasiga olgan. O'z huzuriga ilm ahlini chorlab, yosh iste'dodlarni tarbiya qilib, ularga sharoit yaratib bergan. 1487 yili Navoiy Astrabod hokimi etildi. Bu yerda ikki yil hokimlagi davrida Xirotdagi savobli ishlarini davom ettirdi.

**Kamoliddin Behzod** (1455-1537 yy) - buyuk musavvir va minatyurasoz, Alisher Navoiyning shogirdi. Nafis san'at tasvir (miniatyurasozlik) sohasida "Behzod maktabi"ni yaratgan ulug' siymo. Uning miniatyuralari tirikligidayoq va undan so'ng musulmon Sharqida va G'arbda qimmatli san'at asarlari deya baholanib. "Sharq Rafaeli" degan nom olgan. U Hirotida tug'ilgan. Ota-onadan juda erta yetim qolib, bolalikdan mashhur hirotlik musavvir Amir Ruhulloh

(Mirak Naqqosh) qo'lda tarbiya topadi. 1487 yili Behzod Xusayin Boyqaro farmoni bilan Hirotidagi saltanat kutubxonasiga boshliq etib tayinlanadi. 1507-yili ko'chmanchi o'zbek qabilalari xoni Muhammad Shayboniyxon Hirotni egallaydi. Behzod uning saroyida ijodiy ishini davom ettiradi. Shayboniyxon ham unga shart-sharoitlar yaratib beradi.

1510-yil Hirot Safaviylar tomonidan bosib olindi. 1512 yilda Ismoil Safaviy Behzodni bir necha shogirdlari bilan saltanat poytaxti Tabrizga olib ketadi va unga ijod qilish uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. 1514-yili Tabriz yaqinida Usmoniy turklar bilan bo'lgan jangda safaviylar mag'lubiyatga uchraganidan keyin, Behzodni turklar o'lja qilib olib ketmasin deb, atoqli hattot Shoh Mahmud Nishopuriy bilan birga bir g'orga yashirib qo'yganliklari haqidagi ma'lumotlar mavjud.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483-1530 yy) - o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, tarixchi olim, davlat va jamoat arbobi. U Hindistonda 332 yil hukm surgan Bobiriylar saltanatining asoschisi, temuriy hukmdorlarining so'nggi nomoyondalaridan biri. Otasi Umarshayx Mirzo Amir Temurning nabirasi. Bobir Andijonda saroy muhitida o'qib, tarbiyalandi. Otasi vafotidan so'ng 1494 yil o'n ikki yoshida Farg'ona taxtiga o'tirdi. Amir Temur davlatini qayta tiklash uchun 1495-1496 yillarda Samarqandga muvaffaqiyatsiz yurish qildi. 1497-1498 yillarda Samarqandni egalladi. Keyin Andijonda unga qarshi isyon ko'tarilgach orqaga qaytishga majbur bo'ldi. 1500 yilda Samarqandni ikkinchi marta egalladi. Alisher Navoiy bilan xat yozishdi. Shayboniyxon bilan kurashda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi.

Shayboniyxon 1504 - yilda Andijonni egallagach, Bobur janubga yo'l olib, Qobulda o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505-1512 yillarda Movarounnahrqa qaytishga urinib ko'rdi, ammo muvaffaqiyatga erisha olmadi. 1519-1535 yillarda Hindistonni qo'lga olish maqsadida janglar olib bordi. 1526 yili Panipat jangida Hindiston sultoni Ibrohim Lodiy bilan va 1527 yilda Chitora hokimi Rana Sanga bilan bo'lgan janglarda g'alaba qozonib, Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatdi.

Bobur 1530 yil dekabrda Agra shahrida vafot etdi, keyinchalik uning hoki vasiyatiga binoan 1533 yilda Qobulga olib kelib dafn etildi. Uning ilmiy-adabiy merosi "Bobumoma", "Xatti Boburiy", "Mubayyin" (Bayonot beruvchi), "Harb ishi" va "Muxtasar" kabi asarlardan iborat.

**Lutfiy**-(1366-1465 yy) atoqli o'zbek shoiri, mutafakkiri, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi. Hirotning Dehikanor mavzeida tug'ilib, shu yerda yashab, ijod etgan. Qur'oni karim va hadislarini, arab va fors tillarini, adabiyotni chuqur o'rgangan. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyilar bilan yaqin muloqotda bo'lgan. O'z asarlari bilan Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitida chuqur iz qoldirgan Lutfiyi Navoiy "Malikul-kalom" (so'z podshosi) deb atagan.

Lutfiy o'zbek hamda fors tillarida ijod etgan. U bir qancha dostonlar bitgan bo'lsa ham, bizga faqat "Gul va Navro'z" dostoni yetib kelgan. Navoiy Lutfiyning

masnaviy bilan yozilgan o'n ming baytdan ortiq "Zafarnoma" nomli dostoni borligini, lekin u oqqa ko'chirilmay, shuhrat qozonmaganini yozadi. Manbalarda Lutfiy axloq-odobga oid "Mashkun ul-haqoiq" nomli asar yozgani ham qayd etiladi.

**Qozizoda Rumiy** - (1360-1437 yy) - yirik matematik va astronom. Xuroson va Movarounnahrda tahsil olgan. Taxminan 1400 yillarda faoliyatini davom ettirish uchun Samarqandga keladi. Amir Temur saroyida astronom Mavlono Ahmaddan ta'lim olgan, Qozizoda Rumiy Mirzo Ulug'bekning aniq fanlarga qiziqishiga ta'sir ko'rsatgan va unga ustozlik qilgan. Ulug'bek astronomik maktabining yaratilishida Qozizoda Rumiyning xizmati katta bo'lgan. Uning tashabbusi bilan Griyosuddin Jamshid Koshiy va boshqa olimlar Samarqandga taklif qilinganlar. Ulug'bek madrasasida matematika va astronomiyadan ma'ruzalar qilgan va "Aflotuni zamon" nomini olgan. Mirzo Ulug'bek uning darslarida ishtirok etgan. Qozizoda Rumiy Ulug'bek rasadxonasi qurilishining rahbarlaridan biri bo'lgan. Koshiy vafotidan so'ng madrasaning boshqaruvchisi bo'lgan. Ulug'bekning barcha ilmiy tadbirlarida, jumladan "Ziji Ko'ragoniy"ni tuzishda ishtirok etgan.

Qozizoda Rumiy "Risola fi-l-hisob" (Hisob haqida risola), "Sharhi Mulaxxis fi-l-hay'a" (Astronomiyaga oid Qisqacha risolaning sharhi), "Sharhi ashkol at-ta'sis" (Asoslangan jumalarga sharh), "Risalat ul-jayb" (Sinus haqida risola), "Misoha" (O'Ichash), "Sharh at-tazkira", "Risola fi ilm il-hay'a" (Astronomiya ilmi haqida risola) kabi o'nlab asarlarining muallifidir.

Albatta, Amir Temur davrida O'rta Osiyoning qudratli davlat ostida birlashtirilishi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va me'morchilik ravnaq topdi. Mamlakat va poytaxt Samarqandning obodonchiligi yo'lida mahalliy va chet mamlakatlardan ko'plab fan va san'at ahlari, hunarmand me'morlar va musavvirilar to'plandi.

Temur markazlashgan davlat tuzish jarayonida ishlab chiqarishga, xususan qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor berdi. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orishga bog'liqligini yaxshi tushungan Temur Angor kanalini qazdirdi va Murg'ob vodiysida sug'orish ishlarini yo'lga qo'ydi. Samarqand va Shahrisabz shaharlari oqar suvlar bilan ta'minlandi. Lalmikor yerlarda ariqlar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir, bo'yoq uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan. Uzum, olma va boshqa mevalar ko'plab yetishtirilgan.

Temur Samarqand atrofida Bag'dod, Sultoniya va Sheroz nomli qishloqlar qurdirgan. Temur va Ulug'bek davrida chorvachilikka alohida e'tibor berilgan. Ulug'bek davrida Bog'i maydonda turli o'simliklar ekilib, Bog'cha nomli bog' barmo etilgan.

Obodonchilik va sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi iqtisodiy hayotda muhim soha-hunarmandchilik, savdo va tovar pul munosabatlarining taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Hunarmandchilik tarmoqlarining ko'payishi

tufayli shaharlarda hunarmandchilik mahallalarining soni ortib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar qurildi. Tog'-kon ishlariga e'tibor kuchaytirilgan. Bu davrda turli ma'danlar qazib olinishi tufayli hunarmandchilik rivojlangan. To'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik, temirchilik va binokorlik sohalari asosiy o'rin tutgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida yangi hunarmandchilik mahallalari bunyod etilib, ular savdo markazlariga aylandi. Ip, jun, kanop tolasidan gazmollar to'qilgan. Ipakdan shoyi gazlamalar atlas, kimxob, banoras, duhoba, xoro, debo kabi gazmollar to'qilgan.

XV asrda metall buyumlar – uy-ro'zg'or buyumlari, asbob-uskunalar, qurol-yarog'lar ko'plab ishlab chiqarilgan. Samarqand qurolsozlik markaziga aylanib, sovutsozlar mahallasi qurilgan. Shaharlarda mis va jezdan buyumlar va mis chaqalar zarb qilingan. Temur farmoni bilan Usta Izzoddin Isfahoniy yasagan jez qozon va shamdon hozirgacha saqlanib qolgan. Misgar va chilangarlar metallarni toblash, quyish, sirtiga naqsh solish, oltin va kumush suvi yuritish kabi murakkab ishlarni bajarganlar.

Masalan, Bibixonim masjidi eshiklari yetti xil ma'dan qotishmadan tayyorlangan. Zargarlar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziyat buyumlari yasaganlar. Oltin va kumush gardishli, qimmatbaho toshlar qadalgan idishlar sirtiga naqsh va yozuvlar ishlangan.

Kulolchilik eng sertarmoq soha bo'lgan. XIV-XV asrlarda sirli sopol badiiy rang-baranglikda turli sohalarda ishlatilgan va turli buyumlar yasalgan. Tosh-taroshlikda naqsh, hattotlik keng qo'llanila boshlangan. Binokorlikda g'isht teruvchilar «Banno», peshtoq, ravoq hamda toqlarga parchin va chiroq qoplovchi pardoqchilar «Ustoz» deyilgan. Samarqandda shishasozlik rivojlanib turli idish va buyumlar yasalgan. +tirilishda rangli oynalardan foydalanilgan. Yog'och o'ymakorligi naqshin binolar qurilgan va buyum jihozlar yasalgan. Samarqand qog'ozi hatto chet o'lkalarda mashhur bo'lgan.

Temuriylar davlati **Xitoy, Hindiston, Eron, Rusiya, Volga bo'yi, Sibir** bilan munozaravali savdo-sotiq aloqalari olib borilgan. Chet davlatlar bilan savdo aloqalarini kengaytirishda temuriylarning elchilik aloqalari muhim ahamiyat kasb etgan. Temur savdo rastalari, bozorlar va yo'llar qurdirgan, karvonsaroylarni ko'paytirgan. Ayniqsa, Samarqand va Buxoroda bozor, chorsu, tim, toq, kappon kabi savdo hunarmandchilik inshootlari qad rostladi. Shahar bo'ylab o'tgan keng ko'chening ikki tomoniga do'konlar joylashtirilgan.

Samarqand va Buxoro savdo maydonlarining kengligi va ixtisoslashtirilgan bozorlarga egaligi bilan ajralib turgan. Bozor savdo markazi va hunarmandchilik ishlab chiqarish joyi edi. Shuningdek, bozorlarda qo'lyozmalar kitoblar, yozuv qog'ozi sotilgan, ariza yoki maktub yozuvchi mirzalar ham o'tirgan. Savdo rastasi unda sotiluvchi tovar nomi bilan atalgan. Bozorlarda adabiyot, she'riyat, ilm-fan haqida suhbatlar bo'lgan. farmonlar e'lon qilingan va aybdorlar jazolangan. Turli tomoshalar shu joyda ko'rsatilgan, masjid, madrasa, hammom bozorga yaqin joyga qurilgan.

XIV-XV asr ohirlarida Movarounnahri chet mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ba'zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo'lgan karvon yo'llari bog'lagan edi. Bu yo'llar bir-biridan iqtisodiy, xalq turmush tarzi, dini, ma'naviy va moddiy madaniyati jihatidan farqlanuvchi mamlakatlarning o'zaro aloqasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Karvon yo'llari savdo, diplomatik aloqalarning amaliy vazifasini, ayni vaqtda mamlakat va xalqlarning o'zaro iqtisodiy va madaniy ta'sirini mustahkamlashga xizmat qildi.

O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilmi-fan, adabiyot, san'at sohalarida kamolot bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda namoyon bo'ldi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan «Qudratimizni ko'rmoq istasang binolarimizga boq» degan yozuv Temur davlatining ma'naviy qudratini ham anglatar edi. Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Oqsaroy va atrofida rabotlar, bog'-rog'lar qurildi.

Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda «Hisori», qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligi Cho'pon ota maqbarasi Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib, bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda mo'g'ullar davridagi ichki va tashqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori va handak bilan o'ralib (1371 yy) Hisor deb ataldi. Hisor 500 gektar bo'lib devor bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kirilgan.

Shahar mahallalardan iborat bo'lib, guzarlarga birlashgan. Shaharda me'moriy majmualar shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutuqi bo'ldi. Me'morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarildi, inshootlar ko'lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me'morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo'ydi. Temur davrida gumbazlar tuzilishida qirralar oralig'i kengaydi. Ikki qavatli gumbazlar qurishda ichkaridan yoysimon qovurg'alarga tayangan tashqi gumbazni ko'tarib turuvchi poy gumbazning balandligi oshdi. Ulug'bek davrida gumbaz osti tuzilmalarning yangi xillari ishlab chiqildi. Aniq fanlarda erishilgan yutuqlar me'morchilik yodgorliklarida aniq ko'rinadi (**Shohizinda, Ahmad Yassaviy, Go'ri Amir** maqbaralari, **Bibixonim** masjidi, **Ulug'bek** madrasasi). Ularning old tomoni va ichki qiyofasi rejalarini tuzishda me'moriy shakllarning umumiy uyg'unligini belgilovchi geometrik tuzilmalarning aniq o'zaro nisbati bor. Bezak va sayqal ishlari ham bino qurilishi jarayonida baravar amalga oshirilgan.

Temuriylar davrgacha va unidan keyin ham Movarounnahr va Huroson me'morchiligida bezak va naqsh bu qadar yuksalmagan. Temur va Ulug'bek davri me'morchiligida bezakda ko'p ranglilik va naqshlar xilma-xilligi kuzatiladi. Epigrafik bitiklarni binoning maxsus joylariga, hartotlik san'atini mukammal egallagan ustalar olti xil yozuvda ishlagan.

Koshin qatlamlarida tasvir mavzui kam uchraydi. Oqsaroy peshtoqlarida Sher bilan Quyoshning juft tasviri uchraydiki, bu ramziy ma'noga ega. Temur va Ulug'bek davrida bino ichining bezagi ham xilma-xil bo'lgan. Devor va shift, hatto gumbaz ham naqsh bilan ziynatlangan. Temur davrida qurilgan binolarda ko'k va zarhal ustun bo'lib, dabdabali naqshlar ishlangan, Ulug'bek davrida Xitoy chinnisiga o'xshash oq fondagi ko'k naqshlar ko'p uchraydi.

Bu davrda diniy inshootlar, hukmdor saroylari, aslzodalarning qarorgohlari ko'plab qurilgan. Temur Hindiston yurishidan so'ng (1399 y.) Samarqandda jome masjidi qurdiradi. Uning ro'parasida Bibixonim madrasasi va maqbara bunyod ettirdi. Ulug'bek Buxoro Jome masjidini kengaytirib, qayta qurish ishlarini boshlagan, biroq u XVI asrda qurib bitkazdi.

Temur davrida Saroy Mulk xonim Go'ri Amir majmuasida madrasalar qurilgan. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi. XV asrda madrasa me'morchiligi o'zining uzil-kesil qiyofasiga ega bo'ldi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra har biri o'z qiyofasiga ega edi. Temuriylarning ikki san'at durdonasi – Samarqanddagi Ulug'bek va Hirotdagi Gayharshodbegim madrasalari yagona tizim rejasi bo'yicha qurilganiga qaramay, bir-biridan farq qiladi.

Temuriylar davridan qolgan maqbara, din arboblari va ruhoniylar qabrimi o'z ichiga oluvchi to'siq-xazira, avliyolar qadamjolari, dahma alohida guruhni tashkil qiladi. Samarqandda Temur davrida shayx Burxoniddin Sag'orjiy xilxonasi – **Ruhobod maqbarasi va Temuriylar xilxonasi – Go'ri Amir**, shuningdek, **Shohizinda majmuida** peshtoqli maqbaralar guruhi quriladi. Ulug'bek davrida ijobiy izlanishlar samarasi dahmalarning me'moriy ko'rinishiga ham ta'sir o'tkazadi. Shohizinda majmuasida sakkiz qirrali maqbara va hozirgacha to'zizoda Rumiy maqbarasi deb kelinayotgan («Sultonning onasi» uchun qurilgan, asli noma'lumi) maqbara qurilgan. Ulug'bek Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Termiz, Toshkentda ham noyob obidalar qurdirgan. Ammo qurilish miqyosi va bezaklar bo'yicha Samarqanddagi obidalar ustunlik qiladi. Toshkentda Zangi ota maqbarasi va Shayxontoxur majmuasi bo'lib, Qaldirg'ochbiy maqbarasi XV asrning birinchi yarmiga mansub.

Temur davrida ulkan inshoot – Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasi barpo qilindi. Bu maqbara musulmon Sharqining me'moriy yodgorliklari orasida eng noyobidir. Qadamjolar me'morchiligi ham o'ziga xos tuzilishga ega. Temur Buxoroda Chashmai Ayub (1380 y.) yodgorligini qurdiradi. Shuningdek, Temur Shahrisabzda ziyorat va dafn marosimlari uchun «Hazira», «Dor us-Siyozat» (1389-1400 yy) xilxonasini qurdirgan. O'g'li Jahongir vafot etgach Shahrisabzda maqbara (hazrati Imom) qurdirgan. Unda Xorazm me'morchiligi an'analarini ko'rish mumkin. Samarqanddagi Ulug'bek rasdaxonasi me'moriy san'atning noyob yodgorligidir. Rasdaxona diametri 48 metrli aylana shaklda bo'lib, uch qavatlidir.

Temuriylar davrida qurilgan saroylar ikki xil bo'lgan. Birinchisi-ma'muriy-siyosiy maqsadda bo'lib, qal'a yoki shahar ichida qurilgan. Ikkinchisi-shahar tashqarisidagi bog'larda qurilgan qarorgohlarda qabul marosimlari, majlislar o'tkazilgan va xordiq chiqarilgan. Shahrisabzdagi Oqsaroy gumbazining diametri 22 metr bo'lib, toq va ravoqlari beqiyos bo'lgan. Temur va Ulug'bekning asosiy qarorgohi Samarqanddagi Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy deyiladi. Shuningdek, shahar tashqarisida Temur o'n ikkita bog' va saroylar bunyod ettirgan.

Ulug'bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandi, «Masjidi Muqatta'», 210 gumbazli Ko'kaldosh jom'e masjidi qad ko'tardi. Shohzindada ayrim maqbaralar, Shahrisabzda Ko'kgumbaz masjidi, «Chilustun» va «Chimixonon» saroylari uning davrida qurildi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo'ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari bunyod qilindi.

Amir Temur va Ulug'bek davrida tasviriy san'at turli yo'nalish bo'yicha yuksaldi. Islomda jonli narsalar tasviriga sig'inmaslik tasviriy san'atda naqshning ravnaqiga sabab bo'ldi. O'rta Osiyoda arablar bosqini tufayli to'xtab qolgan devoriy suratlar va umuman tasviriy san'at Temur davrida yangi shakl va mazmunda tiklandi. Hattotlik - qo'lyozma adabiyotning ajralmas bir qismi hisoblangan. Miniaturaga - tasviriy san'atga ham avvalo naqsh sifatida qaralgan. Temuriylar davrida tiklangan devoriy suratlar esa XVI asrda yana to'xtab qoldi. Samarqanddagi Temuriylarning saroy-qarorgohlarida qabul marosimlari, jang voqeyalari, ov manzaralari, xalq bayramlari tasvirini tushirilgan devoriy suratlar bo'lgan. Temur davrida qurilgan Shirinbeka og'a, Bibixonim, Tuman og'a obidalarida naqqoshlik va hattotlik bilan birga tasviriy lavhalar ham mavjuddir. Shirinbeka opa maqbarasida tasvir ko'p ranglarda, qolgan ichki bino devorlarida oq va moviy rangdagi tabiiy manzaralari tasvirlanadi.

Hattotlik san'ati taraqqiyotiga XV asrda an'anaviy nasxi, kufiy, devoriy xatlar bilan birga peshtoqlarni bezovchi suls va tezkor-nastaliq noyob qo'lyozma asarlar ko'chiriladigan maxsus ustaxonalar kitobchilikning ravnaqiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temur davrida Samarqandda miniatyura rassomchilik maktabi tashkil topdi. Hozir Turkiya va Berlin kutubxonalarida saqlanayotgan ko'chirma-xomaki miniatyura nusxalari XIV-XV asrlarga oid bo'lib, ularda alohida shaxslar, daraxtlar, gullar, kichik kompozitsiyalar, naqshlarda chiziqlar uyg'unligi, harakatlar aniqligi, qiyofalarning o'z o'rnida joylashtirilishi bilan ajralib turadi.

Tarixiy shaxslarning qiyofalari ham miniatyuralarda aks etgan. Amir Temur qiyofasi tiriklik vaqtida aks etgan miniatyuralar hali topilmagan. Asl holatiga yaqin suratlar «Zafarnoma»ning dastlabki ko'chirilgan nusxalarida uchraydi. Uning bir muncha yorqinroq qiyofasi Hirotda (1467 y.) ko'chirilgan «Zafarnoma»da keltiriladi. Dastlab Mirak Naqqosh boshlagan va Behzod yakunlagan ushbu miniatyurada boy kompozitsiya va serjilo bo'yoqlar uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Miniatyura rassomchiligining taraqqiyoti adabiyotning rivoji bilan bog'liq bo'lgan. Musavvirilar Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, so'ngra Jomiy va Navoiy asarlariga rasmlar ishlagan. XIV asrda «Jome' ut-tavorix», «Tarixi Rashidiy» kabi tarixiy asarlarga ham miniatyuralar ishlangan. Bu an'ana Temuriylar davrida ham davom ettirilib, «Zafarnoma» va «Temurnoma» asarlarida jang lavhaları tasvirlanadi. Ayrim hollarda diniy asarlarga ham Makka va Madina tasviri tushirilgan. Badiiy asarlarning ba'zilarida Muhammad Payg'ambarning odamlar orasida turgan holati va me'rojga chiqishlariga oid lavhalar uchraydi.

XV asr miniatyuralarining aksariyatida sharq she'riyatining qahramonlari Layli va Majnun, Xusrav va Shirin, Rustam, jang lavhaları tasvirlanadi. Umuman miniatyura san'ati bu davrda Iroq, Eron, Xuroson, Movarounnahr va Hindistongacha bo'lgan hududda badiiy-estetik hodisa edi. Bu hodisa Temuriylar bilan bog'liq bo'lib, temuriylarning Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Hirot, Samarqand, Dehli kabi markazlarida bir necha miniatyura maktablari vujudga keldi.

Samarqand miniatyura maktabi XIV-XV asming birinchi yarmida qaror topgan bo'lib, turli turkumda yaratilgan bu miniatyuralarda Sharqiy Turkiston san'atiga xos bo'lgan turkiy obrazlarda Xitoy rassomchiligi ta'siri sezilib turadi.

1420-yildan keyin Boysunqur Mirzo Hirotida hattotlik va naqqoshlik ustaxonasi tashkil qilgach, bu rassomlarning ayrimlari Hirotga ko'chirilgan. Abul Hayya asarlariga ishlagan miniatyuralarda Amir Temur va temuriylarning qiyofalari aks etsa, badiiy asarlarga ishlagan rasmlarida ham ular turli holatlarda tasvirlanadi. Xalil Sulton davrida ishlangan ayrim miniatyuralar grafik tarzda, badiiy jihatdan o'ziga xos «siyohi qalam» uslubida ishlangan.

Temur hayotlik davrida uning saroy devorlariga shoh va shahzodalar bor bo'yida tasvirlanib, haqiqiy portret janrini Kamoliddin Behzod shakllantirdi. Umuman, Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko'plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyatida rasm chizilgan davr yoki rassom, joy, maktab ko'rsatilmagan. Biroq, bu miniatyuralarda nur sohib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug'-Temurning gerbi-uning saroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug'bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to'q yashil va jigarrang ko'pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo'lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir. Samarqand maktabi miniatyurachilari vakillari kompozitsiya yaratish va manzara tasvirida mahoratlidir.

Ulug'bek davrida mashhur bo'lgan hattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari chiziqning keskinligi, ranglarning yorqinligi bilan o'ziga xosdir. Samarqand maktabiga xos bo'lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning «Hamsa» asariga va 49 ta miniatyura «Shohnoma» asariga ishlangan bo'lib, ular hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Ulug'bek davrida as-So'fiyning «Siljimas yulduzlar ro'yxati» asariga ishlangan miniatyuralarda xaritalar qizil va qora doiralari bilan katta va kichik yulduzlarning joylashishi ko'rsatilgan bo'lib, grafik



tarzida rang bermay, qora siyohda chizilgan. Sharq miniatyurachiligida oddiy xalq hayoti mavzui temuriylar davrida paydo bo'lgan. Masalan, «Samarqand masjidi qurish», «Iskandar devorini bunyod etish», «Ko'chmanchilar turmushi», «Jamshidning oddiy xalqqa hunar o'rgatishi» mavzuidagi miniatyuralar bunga misoldir.

Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'yimakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlariga qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda hattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan. Bu yozuvlar chuqur o'yiqlarda bitilgan. qabrtoshlar sag'ana yoki supa shaklida bo'lib, bo'z rangli marmardan, ayrim hollarda o'ta noyob toshlardan tantana idishlari ishlangan. Yog'och o'yimakorligi Go'ri Amirda, Shohi Zinda, Ahmad Yassaviy maqbaralari eshiklarida keng qo'llanilgan. Shuningdek, XV asrga oid ustunlar naqshlar bilan ishlangan. Temur va Ulug'bek davrlarida metall o'yimakorligi taraqqiy etadi. Idishlar oltinsimon bronza, latun, qizil misdan ishlangan. Naqshlar o'yib, bo'rtna usulda, qimmatbaho toshlar qadab tayyorlangan. Yassaviy maqbarasi ulkan-shamdonlar, ayniqsa ikki tonnali qozon bronza qo'yish san'atining yuksak namunasi.

Amaliy san'atning kulolchilik idishlariga yashil, zangori tusdagi yorqin, sodda o'simliknoma naqshlari qora bo'yoqlar bilan tushirilgan. Bu davrda paydo bo'lgan oppoq idishlarga sir ustidan kobalt yordamida naqsh berilishi yangilik edi. Sopol buyumlardagi naqshlar mo'yqalamda chizilgan. Oldingi asrlarda sopol buyumlariga chiziq naqshlar chizilgan, temuriylar davrida mansub sopol buyumlarda kulol-rassom turli uslubda och havo rangdan to'lojuvardga qadar ranglarni qo'llagan. Temur va temuriylar davrining amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtalik yuksak san'at darajasiga ko'tarildi.

Shu tarzda uzoq hukmronlikdan so'ng Amir Temur va temuriylar davlati shimoldan kirib kelgan, yangi davlat birlashmasi shayboniylar tomonidan qo'lga kiritiladi. Ya'ni 1499 - yildan boshlab Muhammad Shayboniixon (1451-1510 yy) temuriylar ichidagi ichki nizodan foydalanib, Movarounnahrda istilochilik harakatlarini boshlaydi. Temuriy shahzodalardan, shu vaqtdagi yagona Movarounnahrlik buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530 yy) sa'y-harakatlari ham o'z natijasini bermadi.

1505-1506 yillarga kelib Shayboniixon Xorazm va Movarounnahni to'liq egallaydi. Shayboniixonga qarshi kurashish uchun yo'lga chiqqan Xuroson hukmdori Sulton Husayn (1469-1506 yy) 1506-yilning bahorida vafot etadi. Sulton Husaynning vorislari o'rtasida toju-taxt uchun kurash avj olib, natijada hokimiyat ikkita shahzodaga-Badiuzzamon Mirzo bilan Muzaffar Mirzolarga o'tadi. Qulay vaziyatdan foydalangan Shayboniixon 1507-yili shahzodalarni tormor etib, qattiq janglardan so'ng poytaxt Hirot va butun Xurosonni o'z qo'lga oladi. Movarounnahrda shayboniylar davlati o'tmatiladi.

### **Tayanch soʻz va iboralar:**

Movarounnahr, Amir Temur, sohibqiron, sarbadorlar, «Temur tuzuklari», markazlashgan davlat, Samarqand, saltanat, suyurgʻol, iqtaʼ, soliq tizimi, temuriylar, turkiy til, adabiy oʻzbek tili, Dashti Qipchoq, falakshunoslik, rasadxona, fan va madaniyat, raiyat.

### **Mustaqil taʼlim mavzulari**

1. XIV asr birinchi yarmida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Movarounnahrdagi sarbadorlar harakati va uning yakunlari.
3. Amir Temur Movarounnahr hukmdori. Samarqand - Temur davlatining poytaxti.
4. Amir Temurning Movarounnahrdagi moʻgʻullar zulmidan ozod qilishda va markazlashgan davlat tuzish yoʻlidagi xizmatlari.
5. Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
6. Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrdagi madaniy hayot.

### **Nazorat savollari**

1. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun olib borgan kurashlarining asosiy sababi nimada?
2. «Temur tuzuklari»ning muhim tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini qanday izohlaysiz?
3. Amir Temur va temuriylar davrida soliq siyosatida adolat tamoyili haqida gapiring.
4. Nima uchun Amir Temurni Yevropa davlatlari xaloskori deb ataymiz?
5. Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar oʻrtasida toju taxt uchun ichki kurash sabablari nimada edi?
6. Alisher Navoiy va Mirzo Ulugʻbeklarning ilm-fanga qoʻshgan hissalarini haqida gapiring?

### **Adabiyotlar roʻyxati**

1. Amir Temur. Tuzuklar. / Nashrga tayyorl., red. Sh. Minovarov. - Toshkent: , 2016.
2. Mirzo ulugʻbek. Toʻrt ulus tarixi. T., 1994.
3. Klavixov R.G. Dnevnik puteshestviya v Samarqand ko dvoru Timura. M., 1970.
4. Moʻminov I. Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni. T., 1993.
5. Ahmedov B. Ulugʻbek. T., 1989.
6. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. T., 1996.
7. Azamat Ziyov. Oʻzbek davlatchiligi tarixi. T.: «Sharq», 2000 y.
8. Buyuk siymolar, allomalar. T.: «Meros», 1995, 1996, 1998 yillar.

9. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T.: «Sharq», 2000 y.
10. Oblomurodov N. Hazaratqulov A, Tolipov F va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T., 2011.
11. Amir Temur chet elliklar nigchida=Amir Temur from foreigners' perspective : kitob-albom / - Toshkent , 2015.

## **7-mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonlikdarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari**

**1. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shayboniylarning Movarounnahrda yurishi va bosib olinishi**

**1. Buxoro xonligi va amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ashtarxoniylar sulolasi**

**1. Xiva xonligining tashkil topishi va ravnaqi**

**4. Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli**

**1. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shayboniylarning Movarounnahrda yurishi va bosib olinishi**

Amir Temur vafotidan so'ng Movarounnahrda temuriy shahzodalarning taxt uchun o'zaro kurashlari avj oladi. Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik avjiga chiqadi. Har bir viloyatda temuriy shahzodalar o'zlarining mustaqil hukmronligini o'rnatishga harakat qilar edilar. Ular hokimiyat uchun o'zaro kurashlarda Dashti Qipchoqning turkiy qavmlari kuchlaridan foydalanishga intilishar edilar. Masalan, 1451-yilda Urusxonning nabiralari Abdusaid Mirzoga hokimiyatni egallash uchun yordam bergan bo'lsalar, oradan uch yil o'tgach, Abulhayron Muhammad Jo'kiyga hokimiyatni egallashga o'zaro ko'maklashdi. Bu o'zaro kurashlar Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni yanada chigallashtirib, ahvolni yanada yomonlashishiga olib kelar edi.

**Dashti Qipchoq**-Sirdaryoning quyi oqimi hamda Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda qipchoq qabilalari yashagani uchun shunday nom olgan. Dashti Qipchoqda yashovchi o'zbek urug'lari bilan Movarounnahr va Xuroson xalqi o'rtasida doimo aloqalar bo'lib turgan. Ammo turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida hamma vaqt ham doimiy aloqalar, bordi-keldilar bo'lmagan, ulami katta masofadagi bo'sh, sahroli hududlar ajratib turgan.

Shu bois ularning turmush tarzi, mashg'ulot turlari, kasb-korlari, urf-odatlar, udumlari qisman bir-biriga o'xshasha bo'lsada, ayrim hollarda boshqacha ko'rinishda bo'lganligi ham tabiiydir. Buning ustiga Dashti Qipchoq aholisining aksariyat qismi keng yaylovlarda chorvaçilik, yilqichilik xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Buning aksicha, Movarounnahr aholisi uzoq asrlar davomida o'troq hayotga o'rganib, asosan o'troq yashab kelgan. Ular azaldan mirishkor bobodehqonlar, mohir hunarmandlar, savdogarlar sifatida nom qozonganlar. Ulaming sa'y-harakatlari, mehnati, zahmati bilan yurt obod etilib, bir biridan ko'rkam, gavjum shahar va qishloqlar bunyod topgan.

**Muhammad Shayboniixon** (1451-1510 yillar) - XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Dashti qipchoq qabilalariga boshchilik qilib kelgan Abulxayrxonning nabirasi bo'lib. Dashti Qipchoqda dasht urug'larini birlashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. U temuriylar davlatidagi inqirozdan foydalanib qisqa muddat

ichida hokimiyatni o'z qo'liga olishga erishadi. Nasabi jihatdan Shayboniylar bir tomondan mo'g'ullarga borib taqalgani uchun o'zlarini xon deb ataganlar. Davlat ham tarixiy adabiyotlarda XVI asrning 60-yillaridan boshlab Buxoro xonligi deb yuritila boshlangan. Shayboniylar Movarounnahrda deyarli bir asr (1500-1599 yillar) hukmronlik qiladilar. Keyin hokimiyat Ashtarxoniyalar sulolasi qo'liga o'tadi.

Shayboniixon boshchiligidagi Dashti qipchoqlik ko'p sonli urug'lar Movarounnahr hududlariga kirib kelar ekanlar, ular, eng avvalo, mahalliy qardoshlari, elatdoshlari bilan yaqinlashib, ularning turmush tarziga moslashib bordilar. Eng muhimi, kirib kelgan urug' va qavmlar bu yerning tubjoy aholisi tarkibiga singib bordilar.

Shayboniylar sulolasining vakillari: Shayboniixon (1500-1510), Ko'chunchixon (1510-1530 yy), Abu Said (1530-1533 yy), Ubaydullaxon (1533-1539 yy), Abdullo (1539-1540 yy), Abdulatif (1540-1550 yy), Navro'z Ahmadxon (1551-1556 yy), Pirmuhammad (1556-1561 yy), Iskandarxon (1561-1583 yy), Abdullaxon II (1583-1598 yy), Abdulmo'min (1598-1599 yy), Pirmuhammad (1599-1601 yy).

XV asrning 80-yillariga kelib, Abulxayrxonning nabirasi, Budoq Sultonning o'g'li Muhammad Shayboniixon bobosining davlatini qayta tiklab, shayboniylar sulolasiga asos soladi. Yoshligida yetim qolgan Muhammad Samarqand, Buxoro shaharlarida saboq olib, o'z davrining bilimdon, o'qimishli kishisi bo'lib yetishadi. Muhammad Shayboniixon kuchli davlat tuzish faoliyatini dastlab lashka: to'plash va yollauma qo'shin lashkarboshisi sifatida temuriylarga xizmat qilishdan boshlaydi. Shayboniixon yollauma qo'shin boshlig'idan hatto xon darajasigacha ko'tariladi.

Dastlab u temuriy amirlardan biri, Turkiston hokimi Muhammad Mazid tarxon homiyligida bir qancha vaqt Turkistonda yashadi. Turkiston urushlar girdobida qolgan bir vaqtda Shayboniixon ukasi bilan Sulton Axmad Mirzo panohida Buxoroda yashadi va ilm oldi.

XV asr 90-yillarida Muhammad Shayboniixon Dashti qipchoqqa boradi va siyosiy kurashlarga qo'shilib ketadi. U bir necha yil davomida kurash olib bordi va Toshkentdagi hukmdorlar yordamida Dashti qipchoqda mustahkam o'rmashib oldi. Keyinchalik, Sayram va Yassini qo'lga kiritgach, butun Turkistonda hokimiyatni qo'lga kiritadi. 1498-yilda Sulton Axmad Mirzo vafotidan so'ng Samarqandga yurish qildi, uni qo'lga kiritma olmagach, Qarshiga yurish qildi va uni Shahrisabz bilan birga talon-taroj etdi. 1499-yilda Samarqandga qilgan yurishi yana muvaffaqiyatsizlikka uchragach, Buxoroga yurish qildi va uch kunlik qamaldan so'ng uni qo'lga kiritdi. 1500-yilda Muhammad Shayboniixon yana Samarqandga yurish qildi va uni bosib olib, to'rt oy davomida talon-taroj qiladi.

Tez orada harbiy harakatlar olib borib markazlashgan davlat tuzish maqsadida Boburdan 1501-yilda Samarqandni tortib olgan Shayboniixon 1503 yilda Toshkentni, 1504-yilda Xisomi, 1505-yilda 10 oylik qamaldan keyin Urganchni, 1507-yilda Hirotni, 1509-yilda Marvni o'ziga bo'ysindiradi. Natijada

Dashti Qipchoq, Xorazm, Movarounnahr, Xurosonni birlashtirgan Shayboniyxon Mashhad va Tus shaharlarini egallab, nafaqat Eronda Shoh Ismoil asos solgan Saffaviylar davlatiga xavf soladi, balki butun e'tiborini Samarqandga ham qaratadi.

1501-yilda Bobur Shayboniydan yengilgandan so'ng yashirincha Toshkentga chekinishga majbur bo'ladi. Biroq Samarqandda, Buxoro va Toshkentda o'z hukmronligini qo'lga kiritgan Shayboniyxon Xuroson yurishiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Temuriylar garchi shahzoda Xusravshoh boshchiligida Shayboniyxonga qarshi birlashgan bo'lsalarda, bu hiyech qanday natijaga olib kelmadi. 1505- yil Urganch ham bosib olinadi va Xorazm Shayboniyxonga tobe bo'ldi. 1506-yil Xusayn Boyqaro vafotidan so'ng boshlangan taxt uchun kurashlardan foydalangan Shayboniyxon temuriylardan Xirotni tortib oldi. Xirot bosib olingan 1507 yil birin-ketin Astrobod va Jurjon ham bosib olindi va Kaspiydan Xitoygacha, Sirdaryo etagidan Afg'onistonning markaziy hududlarigacha bo'lgan yerlar Muhammad Shayboniyxon hukmronligi ostiga o'tdi.

Shayboniyxon hukmronligi o'rnatilishi bilan Movarounnahrda uzoq vaqt davom etgan temuriylar o'rtasidagi o'zaro taxt talashishlarga chek qo'yildi va tinchlik o'rnatildi. Shayboniyxon siyosiy jihatdan markazlashgan davlat tuza olishga erishishi bilan o'zining ilm-fan va adabiyotga moyilligi, bu soha vakillarini hurmat qilishi va homiylik qilishi bilan katta hurmatga sazovor bo'ldi.

Shayboniyxon qo'lga kiritilgan hududlarni boshqarish uchun o'z yaqinlariga bo'lib berdi. Bu hol markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib keldi va Shayboniyxon Eron shohi **Ismoil Safaviy** bilan kurashga kirish oldidan ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ldi. O'z vaqtda yetib kelmagan qo'shinlar oz sonli Shayboniyxon qo'shinlarining Ismoil Safaviy qo'shinlari tomonidan mag'lub etilishi va Shayboniyxonning o'ldirilishiga olib keldi.

Ya'ni, 1510-yil hozirgi Turkmanistonning Marv shahri yaqinida Eron shohi Ismoil bilan bo'lgan jangda uning qo'shinlari tor-mor etiladi va Shayboniyxon o'ldiriladi. Taxtga Shayboniyxonning amakisi, **Ko'chukchixon** (1510-1530 yy) chiqadi. Biroq shayboniy sultonlar, beklar jipslashib Ismoilshohga qarshi kurashish o'miga Shayboniyxon tirikligidayoq suyurg'ol sifatida taqsimlab berilgan viloyatlar va yerlarga egalik qilish bilan o'ralashib qoldilar, ular o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o'lkalarini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda esa shayboniylar xukmronligi saqlanib qoldi. Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi. qirg'inborot urushlar, o'zaro ichki kurashlar davom etdi.

Shayboniylar hukmronligi davrida bir tomondan safaviylar, ikkinchi tomondan boburiylar siquvi ostida qolgan shayboniylar davlatida bir qancha sohalarda islohotlar o'tkazilib, xo'jalik hayotni tiklashga va davlat boshqaruvini mustahkamlashga intilishlar bo'ldi. Masalan, temuriylar davrida joriy qilingan davlat boshqaruvi sohasidagi **suyurg'ol** tizimi saqlanib qoldi, bosib olgan

hududlarda boshqaruv ishining farzandlari, qarindosh-urug'ları, qabila boshliqlariga topshirilishi uning vafotidan keyin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilishlarni kuchaytirdi. Xo'jalikni tiklash uchun bo'sh yotgan yerlar, vafot etgan yoki soliqlar og'irligidan ko'chib ketgan mahalliy mulkdorlar yerlari qayta taqsimlandi. Bu esa ijtimoiy hayotni tartibga solishga yordam berdi.

Iqtisodiyotni tartibga solish, savdo sotiqni jonlantirish maqsadida 1507-yilda pul islohoti o'tkazilib, markaziy shaharlarda vazni bir hil bo'lgan (5,2 gramm) kumush va mis chaqa pullar zarb qilindi. Asosan markaziy hokimiyatning siyosiy, iqtisodiy mavqeyini kuchaytirish, shayboniy xonlari va beklari hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan bu islohot Shayboniyxon vafotidan keyin kuchayib ketgan o'zaro urushlar natijasida yaxshi natija bermadi va pul qadrsizlandi.

Bu paytda Movarounnahrda boburiylar sulosaning shakllanish jarayoni ketayotgan edi. Yuqoridagi satrlarimizda aytilganidek, Shayboniyxon o'limidan so'ng Shoh Ismoiy qo'llab-quvatlashi bilan Bobur 1511-yilda Hisor, Ko'lob, Qunduz, Badaxshon, Qarshi, yerlarini fatx etib, Samarqand taxtini uchinchi marta egallaydi. Tarixiy manbalarda qayd qilinishicha, Bobur va boburiylar saltanatining vujudga kelishi va rivoji xususida quyidagi ma'umotlar uchraydi. Aslida ushbu sulola tarixi 1494-yil 10 iyunda 12 yoshli **Boburning Farg'ona** taxtiga o'tirishi bilan boshlangan. Ya'ni Bobur amakisi Sulton Ahmad (1469-1494 yy. Samarqand hokimi), Toshkent hokimi, tog'asi Sulton Mahrudlar hujumlarini qaytarib, 1496-yilda Samarqand shahrini qamal qiladi, lekin qish yaqinlashib qolgani uchun qamalni to'xtatadi.

Aslida 1497-yil mayida Bobur Samarqandni ikkinchi bor qamal qilganida Shayboniyxon bilan birinchi marta yuzma-yuz bo'lgan. Boysunqur Mirzoning Shayboniyxonga Samarqand darvozasini ochmagani sababli, u Bobur bilan jang qilmasdan maydonni tashlab ketdi, 7 oylik qamaldan keyin Samarqandni egallagan Bobur poytaxtda 100 kun hukmronlik qiladi.

Farg'onada ukalari sabab kelib chiqqan nizoni bartaraf etish uchun Bobur Samarqandni tashlab chiqdi va 1500 yil yerda tinchlik o'rnatdi. Uning asl maqsadi Movarounnahrni birlashtirish maqsadida Farg'onani ham ikki qismga bo'lib, ukasi Jahongirga Sirdaryoning shimoliy qismini berishga majbur bo'ladi. Bundan foydalangan Shayboniyxon Buxoro, Samarqand, Qarshi, G'uzor, Shohruxiya shaharlarini egalladi. Bu shaharlardagi dasht o'zbeklarining qirg'in va talonchiliklari mahalliy xalq ichida Shayboniyxonga qarshi harakatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bundan foydalangan Bobur 1501-yilda Samarqandni ikkinchi marta egallaydi.

Uning Samarqandga navbatdagi hukmronligi samarasiz tugaydi. Uning ittifoqchilari shia mazhabidagi Eroniy qizilboshlilarning talen-tarojlari sababli mahalliy aholi Boburni qo'llab-quvvatlamadi. 1512 yil oxirlarida Ubaydulla sulton qo'shinlaridan Buxoro yaqinida mag'lubiyatga uchragan Bobur Movarounnahrda butunlay umidini uzadi. Qobul atrofida o'z hukmronligini to'la mustahkamlab, **1525-1526 yillarda Hindistonga** yurish boshlaydi. Dehli yaqinida Ibrohim Lo'diy qo'shinlarini to'la tor-mor keltirib, u yerda yangi

saltnat **Boburiylar** saltnatiga asos soladi. Bu saltnat Hindistonda 332 - yil (1526-1858-yillar) hukmronlik qiladi. 1858 yilda so'ngi boburiy Bohodirshoh II (1837-1858 yyy) ni ingliz mustamlakachilari taxtdan ag'darib, Hindistonni o'z mustamlakasiga aylantiradilar.

Shayboniyxon vafotidan so'ng shayboniylar davlati taxtini Ko'chkinchixon va o'g'li Abu Sa'id boshqaradilar. Ammo Maxmud Sultonning o'g'li **Ubaydulla Sulton** hukmronligi yillarida hokimiyat ancha mustahkamlandi. Poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirildi. Ubaydullaxon davlatni mustahkamlash va eronliklarni mamlakat hududidan haydab chiqarishga katta e'tibor berdi. 1512-yil kuzida u g'alaba qozongach, katta o'ljaga ega bo'lgan edi va bu mablag'ni u Buxoro shayxulislomi Mir Arabga topshirdi va bu mablag'larga mashhur Mir Arab madrasasi qurildi.

Shayboniylar orasida eng katta ta'sirga ega bo'lgan hukmdorlardan yana biri **Abdullaxon II** (1534-1598 yy) edi. 1556-yil jo'ybor shayxlaridan Muhammad Islom yordamida taxtni egallagan Abdullaxon umrining oxirigacha davlat hududlarini kengaytirish va markaziy hokimiyatni kuchaytirish, iqtisodiy ahvolni va davlatning harbiy qudratini yuksaltirish borasida harakat qildi. Abdullaxonning sa'y-harakatlari natijasida XVI asr oxirlarida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylandi. Biroq, Abdullaxon vafotidan so'ng hukmronlik qilgan Abdu'lmo'min va Pirmuhammadxonlar (1599-1601 yy) davlatni boshqara olmadilar va ularning o'limidan so'ng, shayboniylar sulolasi to'la barham topdi. Movarounnahrda ushbu davlat tarkibida shakllangan Buxoro xonligi davri boshlandi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** Shayboniy xonlari tomonidan Movarounnahrda bir qator sohalarda islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar qisman ijobiy natijalar bersa, ayrimlari davlatning zaiflashuviga olib keldi. Shayboniyxon tomonidan joriy etilgan suyrug'ol tizimi eng yaxshi xizmat ko'rsatgan va Shayboniyxonga yaqin bo'lgan amaldorlar yoki xon xonadoni vakillariga turli viloyatlar ustidan hukmronlik qilishga imkon bersada, biroq ular markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intildilar va oqibatda bu hol ichki kurashlarni keltirib chiqardi. Bu salbiy holat Shayboniyxon Ismoil Safaviydan mag'lubiyatga uchrashida ham ta'sir ko'rsatgan edi. Shuningdek, Shayboniyxon yer egaligi va yer-suv sohasida 1507 yilda pul islohoti va keyinchalik ta'lim sohasida ham islohotlar o'tkazgan edi.

Ta'lim islohotiga ko'ra ta'lim ko'p bosqichli etib belgilandi. Bunga ko'ra bolalar 6 yoshda maktabga, 8 yoshda madrasaga o'qishga o'tganlar. Madrasada o'qish uch bosqichli bo'lib, har bir bosqich 8 yildan davom etgan. Shayboniylarda ham iqtisodiyotning asosini qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik tashkil etardi. Mamlakatning asosiy boyligi yer bo'lib, uning quyidagi shakllari bo'lgan:

1. Mulki sultoniylar-davlatga qarashli yerlar,
2. Mulki xolis yoki hususiy shaxslarga qarashli yerlar;
3. Vaqf-diniy mahkamalarga qarashli yerlar;
4. Qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar.



Dehqonchilik asosan lalmikor va obikor-sug'oriladigan yerlarda bo'lgan. Bug'doyning o'n ikki navi yetishtirilgan va boshqa an'anaviy ekinlar ekilgan. Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan va hosildor yerlar yirik amaldorlar va harbiylar hamda din peshvolariga qarashli bo'lgan. Shayboniylar davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan Jo'ybor xo'jalari katta ta'sirga ega edi. Ular siyosiy hokimiyat boshqaruv ishlariga ta'sir ko'rsatish bilan birga, katta yer mulklariga ham egalik qilardilar.

Shayboniylar davrida amalga oshirilgan islohotlardan biri qarovsiz yotgan yerlarni o'zlashtirishga ham qaratilgan edi. Chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikning 60 dan oshiq turi mavjud bo'lgan. Ichki savdoga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdoda Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. 1588-yilda Buxoroda bo'lgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson ham o'z ma'lumotlarida Buxoro shahrida har yili yirik savdogarlar quruftoyi bo'lishi, bu yerga Hindiston, Eron, Balx, Rossiya va boshqa mamlakatlardan katta-katta savdo karvonlari kelishini yozib qoldirgan edi.

Shayboniylar davlatida 40 dan ortiq soliq va to'lovlar mavjud bo'lgan. Asosiy soliq turlari xiroj va zakot bo'lgan. Asosiy soliq yer haydab ekin ekiladigan yerlarning 30-40% ni tashkil etuvchi **xiroj solig'i** hisoblangan.

Xususan, davlat devoni qo'shim va xon saroyi sarf-xarajatlari uchun «ixrajat» yig'ilgan, bog'lar, polizlar, bedazorlardan alohida soliqlar olingan. Davlat pul va mol-mulka muhtoj bo'lganda favqulotda soliqlar to'plangan. Bu ayniqsa, urushlar mahali yanada avjiga chiqqan. Aholi soliq va o'lponlar to'lashdan tashqari, majburiy mehnatga ham tortilgan. Ommaviy hashar, majburiy ariq va zovurlar qazish, qurilish ishlariga barcha bekklik va tumanlardan aholi jalb etilgan. Ular o'zlari bilan birga zarur yegulik, oziq-ovqat, zarur asboblari bilan kelishi shart bo'lgan. Ular shu orqali davlatga tekin ishlab berishib, bu ayrim paytlarda qaysidir ma'noda hukmdorlar uchun qo'shimcha boyish manbai bo'lib xizmat qilgan. Doimiy va muvaqqat soliqlarning olinishi aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatganligi shubhasiz.

Bu davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, adabiyot sohalarida ko'zga ko'rinarli ajoyib asarlar yaratilgan. Shayboniylar davrida qurilgan **Mir Arab madrasasi** (1535-1536 yy), **Masjidi Kalon** (1540-1541 yy), **Toqi Zargaron** (1559 yy), **Toqi Sarrofon** (1559 yy) kabi inshootlar va Modarihon madrasalari shular jumlasidandir. Shayboniylardan Abdullaxon II davrida markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo'lida olib borilgan urushlar natijasida temuriylar davridagi ko'pgina inshootlar vayron qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan u ko'plab rabot, sardoba, madrasa, masjid, ko'prik, suv omborlarini qurdirib, mamlakat obodonchiligiga katta hissa qo'shganlar.

Shayboniylar davrida ham iqtisodiyotning asosini qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, hunarmandchilik tashkil etardi. Dehqonchilik asosan lalmikor va obikor-sug'oriladigan yerlarda bo'lgan. Bug'doyning o'n ikki navi yetishtirilgan va boshqa an'anaviy ekinlar ekilgan. Dehqonchilik uchun qulay bo'lgan va hosildor yerlar yirik amaldorlar va harbiylar hamda din peshvolariga qarashli bo'lgan.

Shayboniyalar davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayotida Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'idan chiqqan Jo'ybor xojalarai katta ta'sirga ega edi. Ular siyosiy hokimiyat boshqaruv ishlariga ta'sir ko'rsatish bilan birga, katta yer mulklariga ham egalik qilardilar.

Bu davrda chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Hunarmandchilikning 60 dan oshiq turi mavjud bo'lgan. Ichki savdoga katta e'tibor berilgan. Tashqi savdoda Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan savdo aloqalari olib borilgan. 1588-yilda Buxoroda bo'lgan ingliz sayyohi Antoni Jenkinson ham o'z ma'lumotlarida Buxoro shahrida har yili yirik savdogarlar qurultoyi bo'lishi, bu yerga **Hindiston, Eron, Balx, Rossiya** va boshqa mamlakatlardan katta-katta savdo karvonlari kelishini yozib qoldirgan edi.

Shayboniyalar davrida Dashti Qipchoqda istiqomat qilgan xalqlar ham shariatga asoslangan zakot to'laganlar. Bu o'sha davrda mazkur mintaqa tabiiy sharoiti va aholi turmushi bilan bog'liq ravishda chorva miqdoriga qarab yig'iladigan soliq bo'lib, xon va sultonlar foydasiga har bir chorvadorlar jamoasi va yakka shaxslardan olingan. Bunday zakot (hunarmandchilik va savdo zakotidan farqli ravishda) savoiimi zakot deb atalgan (o'tlab yurgan chorvaga qarab zakot) va unga asosan chorvaning qirqdan biri to'langan.

Ayniqsa qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining pastligi, qishloq xo'jaligida saqlanib qolgan ibtidoiy agrotexnik an'analar, mehnatkashlarning talab darajasida hosil yetishtirishlariga to'sqinlik qilib kelgan. Shunday bo'lsada, mahalliy boy va hukmdorlar tomonidan joriy etilgan soliqlar, to'lov va yig'implar majburiy xarakterga ega bo'lgan. Natijada birgina soliqlarning o'ziyoq xalqning gardaniga og'ir yuk bo'lib tushgan.

Albatta, xalq xo'jaligining notekis rivojlanishi va ijtimoiy hayot taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omil-lardan biri - soliqlar va turli majburiyatlarning betartib tizimi edi. Hukmdorlar doira ayrim vakillarining bu boradagi o'zboshimcha xatti-harakatlari aholi turmush darajasining pasayi-shiga, uning ba'zi qatlamlarining kambag'allashuviga olib kelar edi.

O'zaro nizolar oqibatida shaharlar qishloqlar va kichik shaharlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar uzilib qolar edi. Bu holat, ayniqsa, savdo sohasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Alohida ta'kidlab o'tmoq darkorki, hajm jihatidan kichikroq bo'lgan ba'zi shaharlarda savdo muntazam emas, balki haftaning ma'lum bir kunlarida bo'lgan. Qishloqlar va kichik shaharlar turli toifadagi olib-sotarlar, katta savdogarlar ko'rsatmasiga binoan xom ashyoning yalpi xaridini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan tez-tez qatnab, savdo-sotiq qilinadigan yerlar bo'lib, ular o'z faoliyati bilan tovar ayirboshlash handa mahalliy ishlab chiqarish taraqqiyotiga katta hissa qo'shganlar. Ayrim davrlar mobaynida kuzatilgan siyosiy ixtiloflar natijasida bu aloqalar izdan chiqib, iqtisodiyot, xususan savdo ravnaqining susayishiga olib kelgan.

**2. Buxoro xonligi va amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ashtarxoniyalar sulolasi.** Buxoro xonligi rasman 1510-yildan 1920-yilgacha mavjud bo'lgan. Buxoro xonligida uchta sulola, dastlab Shayboniyalar (1510-1601 yy),

Ashtarxoniylar (1601-1753 yy) va Mang'itlar sulolasi (1753-1920) hukmronlik qilgan. Shayboniylar va Ashtarxoniylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar nasl-nasabi jihatidan Chingizxon (1151-1227 yy) ning uzoq avlodlari hisoblanganlar. Shuning uchun ham ular "xon" unvoni bilan yuritilganlar. Buxoro poytaxt qilib belgilanishi tufayli davlatning rasmiy nomi tarixiy adabiyotlarda Buxoro xonligi nomini oladi.

Hududiy jihatdan Buxoro xonligi, keyinchalik amirlikning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni ishg'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafirnigon vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Xonlik, so'ngra amirlikning poytaxti Buxoro edi. Yirik shaharlardan **Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Nurota, Termiz, Sherobod, Dushanbe, Ko'lob** va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turgan.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina etnoslar va etnik guruhlardan iborat bo'lgan. Ularning katta qismini o'zbeklar tashkil etgan. Sharqda Hisor, Dushanbe, Sharqiy Buxorodagi Vaxsh, Kafirnigon va Panj daryolari vodiylarida esa tojiklar tashkil qilar edi. Janubiy va g'arbiy qismida turkmanlar, shimoliy-sharqiy tomonida qozoqlar va qirg'izlar ham yashar edi. Shuningdek, amirlik hududida afg'onlar, eronilar, arablar, yahudiylar, hindlar va boshqa xalqlar ham mavjud edi.

Shayboniyxon o'limidan so'ng 1512 - yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydullo sulton 1533 - yilda Shayboniylar davlatining Oliy hukmdori etib ko'tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko'chkhunchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi va Buxoroni davlat poytaxti deb e'lon qiladi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539 yy) davrida Buxoroning mavqeyi ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Ammo tarqoqlik davom etardi, Movarounnahr XVI asr o'rtalarida ham mustaqil hokimliklardan iborat edi. Buxoroda Abdulazizxon, Samarqandda Abdulatifxon hukmdor edilar.

Samarqand hukmdori Abdulatifxon bilan Buxoro xoni Abdulazizxon (1540-1550 y.) o'rtasidagi kurashni Toshkent va Sirdaryo bo'yidagi shaharlarning hukmdori Baroqxon (Navro'z Ahmadxon, 1540-1556 yy) yanada kuchaytirdi. U hatto 1551 -yilda Samarqandni bosib oldi. Karmana va Miyonqol hukmdori Abdulla Sulton Baroqxonga qarshi kurash olib bordi. Bu kurashlarda Iskandar Sultonning o'g'li Abdullaxon (1534-1598 yy) o'zining qat'iyatliliigi, yaxshi

siyosatchi va sarkardalik qobiliyati bilan ajralib turdi. U 1561-yilda otasi Iskandarxonni oliy hukmdor deb e'lon qildi.

Tarqoqlikka barham berish, mamlakatni birlashtirish dolzarb bo'lib turgan bir paytda Abdulla sultonni mahalliy juybar shayxlari qo'llab-quvvatladilar. **Abdullaxon II** Buxoro taxtini egallaydi. Abdullaxon II (1557-1561-yillarda) amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada, u amalda hukmdor edi. 1557-yilda Buxoroni davlat poytaxti, mamlakatning siyosiy-ma'muriy markaziga aylantiradi. Shu boisdan davlatning o'zi ham Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi.

Buxoro xonligidagi muhim o'zgarishlar Abdullaxon II davrida yuz berdi. Xususan, Abdullaxon II markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573 yy), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574 yy), Samarqand (1578 yy), Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582 yy), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595), Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. U otasi nomidan, rasmiy xon sifatida davlatni boshqardi. U Xorazmni o'ziga bo'ysundirishi uchun, to'g'on qurib, Amudaryo oqimini o'zgartiradi.

Ammo 1598-yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li **Abdulmo'min** taxtga o'tiradi. U uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. Buning boisi, Abdullaxonning yagona o'g'li Abdulmo'min 1598- yil 8 fevralda amir Muhammad Boqiy bilan kelishib, o'z otasini zaharlab o'ldirtiradi. So'ngra u Balxdan Movarounnahrğa yetib kelib otasining qarindoshi Qulbobo ko'kaldoshni, amakisi Do'stim Sultonni, uning o'g'illarini ham o'ldirtiradi.

Lekin olti oy o'tgach, Zomindan Samarqandga kelayotganda otasining amirlaridan biri Abdulvose tomonidan uning o'zi ham o'ldiriladi. Shundan so'ng taxtga chiqarilgan Pirmuhammad ham 1601- yilgacha taxtni boshqaradi. Tarixda so'nggi Shayboniy hukmdori sifatida Pirmuhammadxon (1599-1601 yy) o'z faoliyatini olib boradi. Taxtga chiqqan so'nggi Shayboniy Pirmuhammad ham 1601-yilda Samarqandda Boqi Muhammad bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi va shu tariqa shayboniylar sulolasi butunlay tugatiladi. Uning o'miga hokimiyatga yangi sulola vakillari, ashtarxoniyalar keldi.

Ashtarxoniyalar (Joniyalar) sulolasi -Buxoro xonligida Shayboniylar sulolasining o'miga kelgan ikkinchi sulola. **Ashtarxoniyalar** hukmronligi davrida O'rta Osiyoda ichki va tashqi siyosat borasida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ashtarxoniyalar XIV asrning 80- yillaridan boshlab Astraxan shahri (Hoji Tarxon, Ashtarxon) atroflarida hukmronlik qilganlar.

1556- yilda Astraxan (Hojitarxon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Jo'jixon nasliga mansub bo'lgan Astraxan xoni Yormuhammad o'z oila a'zolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandarxon (1561-1583 yy) Yormuhammad va uning hamrohlariga o'z mamlakatidan boshpana beradi. Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek Sultonga o'z qizi Zuhaxonimni xotinfikka beradi. Shu nikohdan uch o'g'il (**Dinmuhammad, Boqimuhammad,**

**Valimuhhammad)** tug'ilgan. Buxoro xoni Abdulmo'min o'ldirilgandan so'ng shayboniylar naslidan valiahd yo'qligi uchun Jonibekning o'g'li 1601- yilda Boqimuhhammad xon taxtiga o'tiradi. Shundan so'ng Buxoro xonligida ashtarxoniyalar (joniyalar) sulolasining hukmronligi boshlanadi.

O'zbek davlatchiligi tarixida Ashtarxoniyalar davri davlatchilik asoslarining yemirilishi, feodal tarqoqlik va parokandalikning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Ubaydullaxon (1702-1711 yillar) markaziy hokimiyatni mustahkamlash, mustaqillikka intilgan bebosh amirlarni bo'ysundirish, ko'tarilgan qo'zg'olonlarni bostirish uchun tinimsiz urushlar olib bordi. U yirik zodagonlar, qabila boshliqlarining mavqeini pasaytirish, siyosiy tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ularni markaziy hokimiyatdan chetlashtirdi, hatto diniy-siyosiy hokimiyatga katta ta'siri bo'lgan Jo'ybor shayxlarini soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etdi.

Ubaydullaxon faoliyati yuqori tabaqa vakillarining noroziligiga sabab bo'ladi. Ya'ni, 1708-yilda markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun o'tkazgan pul islohoti aholining o'rta tabaqasi orasida ham xonning ta'sirini ancha pasaytiradi. yerlarning ko'pchiligi feodallar tasarrufida bo'lgani uchun xon xazinasiga davlat o'ljalarning juda oz qismi kelib tusha boshlaydi. Masalan, zodagonlarni zaiflashtirish uchun Ubaydullaxon ularning yer mulklariga daxl qiladi. U feodallardan yer («mulk»)ni tortib olib ularni saroy ayonlariga bermochi bo'ladi. Biroq u meros yerlarni tortib olib darveshlar uyushmasi madadidan mahrum bo'ladi, natijada unga qarshi fitna uyushiriladi va 1711 yili o'ldiriladi.

Bu paytda Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi **Nodirshoh XVIII** asrning 30-40-yillarida Buxoro xonligiga yurishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Ubaydullaxon o'miga taxtga o'tirgan Abulfayzxon (1712-1747 yy) hukmdorligi davrida mamlakatda boshbodoqlik vujudga kelib, viloyat hokimlarining markaziy hokimiyatga qarshi chiqishlari yanada kuchayadi. Amaldorlar fitnasi avj oldi. Boisi, Buxoroda markaziy hokimiyat amalda bir guruh saroy amaldorlari qo'lida edi. Bu davrda ularning Shahrisabz viloyati hokimi bilan munosabatlari keskinlashib ketadi.

Buxoroda hokimiyat egasi bo'lib qolgan Hakimbiy mang'itlar bilan dushmanchilik kayfiyatida bo'lgan Ibrohim Miroxur kenagas boshchiligidagi Shahrisabzliklar 1716 va 1719 yillarda Qarshiga va Buxoroga hujum qiladilar. Bu hujumlar natijasiz tugagach, Ibrohim kenagas tarafdorlari Niyoz xoja qatag'on, qoplon qipchoq, Avaz To'qsoba va boshqalar bilan birlashib, 1722 - yil Samarqandda Xiva xonlari avlodidan bo'lgan Rajabxonni shahar hukmdori lavozimiga o'tkazishadi va u 1730-1731 yillargacha boshqaradi. Buning sababi Samarqand hukmdori tarafdori bo'lgan Ibrohim kenagas Buxoro xonligini butunlay tugatishga intilayotgan edi.

Bu paytda mamlakatda yuzga kelgan qo'shhokimiyatchilikdan qozoqlar unumli foydalanadilar. Ular Movarounnahr yerlariga hujumlar qilib, yetti yil davomida Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini talon-taroj qildilar. Buxoroda

ham Samarqandda ham ularni qaytarishga qodir kuch topilmadi. Natijada Samarqand va Shahrisabzda bir necha yil davomida hayot izdan chiqadi. Buxoroda Arqdan tashqari ikkitagina mahallada aholi qolgan edi.

Mamlakat iqtisodiy va siyosiy inqiroz yoqasiga kelib qoladi. Yuqorida qayd etganimizdek, bunday siyosiy parokandalikdan boshqa bir tashqi dushman-Eron shohi Nodirshoh foydalanadi. Ya'ni, 1736- yil Nodirshohning o'g'li Rizoquli boshchiligidagi Eron qo'shinlari Amudaryodan o'tib, Qarshiga yurish qiladilar. Bu vaqtda Qarshi hokimi bo'lgan Muhammad Hakimbiy Abulfayzxon yordam so'raydi va katta qo'shin yetib kelgan Abulfayzxon jangda yengilib, Qarshi shahri qal'asiga berkinib oladi. G'uzor va boshqa joylarni egallagan eronliklar Qarshini qamal qiladilar, biroq Nodirshoh buyrug'i bilan yana Eronga qaytib ketadilar.

Oradan uch yil o'tib, 1740 - yilda katta qo'shin bilan Nodirshohning o'zi yurish qilib keladi va **Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand va Xisorni** egallaydi va katta o'ljalarni olib ketdi. Bu yurish vaqtida Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh hizmatiga kirgan edi. 1747 - yilda Nodirshoh yana Movarounnahrda hujum qilib, Toshkent, O'tror, Turkistonni egallaydi. Shu yili saroy fitnasi oqibatida Abulfayzxon o'ldiriladi va hokim, ya'ni amalda Muhammad Rahim mang'it egallaydi. So'nggi ashtarxoniyalardan Abulmo'min, Ubaydullaxon II (1751-1754 yy) va Sherg'ozii (1754-1756 yy) Buxoro taxtiga rasman o'tkazilgan bo'lsalarda, amalda davlat boshqaruvi butunlay Muhammad Rahim, ya'ni Mang'itlar qo'liga o'tib qolgan edi. U 1756 yil dekabrda rasman Buxoro taxtiga o'tkaziladi va shu tariqa Buxoro xonligida yangi sulola-mang'it (amirlik) sulolasi hukmronligi boshlanadi.

Buxoroning xonlik emas, balki amirlik deb atalishining boisi shu ediki, Muhammad Rahimbiy asli xon avlodidan emas, balki amir avlodidan bo'lganligi edi. Buxoro amirligidagi jadal islohot va o'zgarishlar shuningdek 1785-1800 yillarda Amir Shohmurod davrida sodir bo'ldi. Jumladan, u bir qancha soliqlarni kamaytiradi, katta yer egalari tarxon yorlig'ini berib, ba'zi to'lovlardan ozod qiladi. 1800-1826 yillarda Buxoro taxtini amir Haydar boshqaradi. Uning hukmronligi davrida o'zaro ichki nizolar va tashqi yurishlar bo'lib turdi. Bular asosan Xiva xonligi va Xurosonga uyushtirilgan yurishlar edi.

Ana shunday qo'zg'olonlardan biri **Miyonqol qo'zg'oloni** edi. 1826 yilda amir Haydarning o'g'li Nasrullo taxtga o'tiradi. U o'z davrida "qassob amir" degan nomni olganligi to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy adabiyotlarda uchraydi. U amalga oshirilgan urushlar paytida bo'ysunmagan shahar va qishloqlar aholisiga nisbatan zulm ham o'tkazar edi. Amir Nasrullo 1842 yilda Qo'qon xonligi poytaxtini ham egalladi. Amir Haydar hamda Nasrullo hukmronligi davrida Rossiya va Angliyaning manfaatlari O'rta Osiyoda to'qnashdi. Bu davrda Hindistonni egallagan Angliyaning Buxoro amirligiga qiziqish orta boshlagan.

Jumladan, 19- asrning 20-40 yillarida amirlikda bir qancha ingliz razvedkasi xodimlari Murkroft, A.Berns, Mayor Volflar, amir Nasrullo tomonidan qatl etilgan polkovnik Stoddart va mayor Konnolinilar bo'lishib, bu

yerda Rossiyaga qarshi Buxoro-Xiva ittifoqini tuzishga urinib ko'radilar. Biroq bu urinish natijasiz yakunlandi. Amir Nasrullo davrida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari chegaralariga yaqinlashishi davom etdi. Rossiya hukumati ham Buxoroga o'z ta'sirini o'tkazishga urinib ko'radi.

XIX asrning 60 - yillariga qadar Rossiya imperiyasining maxsus elchilari ham o'z manfaatlarini ko'zlab 4 marotaba Buxoroga yuboriladilar. Buxoroga yuborilgan bu rus maxfiy xizmati vakillariga mahsus topshiriqlar berilgan bo'lib, ular mamlakatning siyosiy-iqtisodiy ahvoli, shaharlar va mudofaa qo'rg'onlari, qo'shin tuzilishi, qurol-yarog'lar va boshqa shu kabi strategik ahamiyatga ega holatlarni o'rganishlari lozim edi. Bu ma'lumotlar keyinchalik Rossiya imperiyasining xonliklarni istilo qilishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi.

Buxoro amirligida yerga egalik munosabatlari dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari edi. Avvalgidek yer egaligining **amlak, xususiy, vaqf** kabi turlari amalda edi. Xalq xo'jaligida dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq sohalari katta ahamiyat kasb etgan. Aholidan xiroj, zakot, boj, yaksara, nimsara, alaf puli, bo'nak puli, bozorlardan esa tagi joy puli kabi soliqlar undirib olingan. Bunday soliqlarning betartib tizimi aholi turmushining yomonlashishiga olib kelar edi.

Chorvachilik bilan amirlikda bepoyon dasht va cho'llar, tog' va tog' oldi hududlarida shug'illanilgan. Cho'l hududlarida xususan, Buxoro va Qarshi atroflaridagi dashtlarda qorakul teri yetishtirish kengaygan. Tashqi bozordagi qorakul teriga talabning kuchliligi qorakul qo'ylar yetishtirishni kengaytirishga olib kelgan edi. Shuningdek, chorvachilikda yilqichilik, bunda ham asosan Buxoro qorabayir otlarini yetishtirish taraqqiy etgan edi. Bundan tashqari yirik qoramollar yetishtirish va chorvachilik mahsulotlari tayyorlash ham ancha taraqqiy etdi.

Hunarmandchilik asosan yirik shaharlar bilan bir qatorda yirik qishloqlarda ham keng tarqalib bordi. Hunarmandchilikning barcha sohalorida o'z kasb uyushmalari mavjud bo'lib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan va barcha ishlab chiqarish jarayoni nazorat qilingan. Chetdan shogird yollash kam uchraydigan holat bo'lib, hunarmandchilik sirlari asosan otadan o'g'ilgan meros sifatida qoldirilgan. Hunarmandchilikdagi yetkachi tarmoq to'qimachilik bo'lgan. Bunga sabab bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kuchli bo'lsa, ikkinchi tomondan to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xom ashyolarning mahalliy ekanligi va yetarli bo'lganligi edi.

Buxoro amirligida qishloq aholisining bir qismi yersiz bo'lib, ijaraga yer olib kun kechirishlari bilan birga, yollanib ishlashga majbur bo'lganlar. Shaharlarda yashovchi hunarmandlar ham ma'lum miqdorda soliqlar, ya'ni zakotdan tashqari yana bir qancha mol-mulk soliqlarini to'lab turganlar. Bunday holat Xiva xonligida ham ko'zga tashlangan.

Xonlikda biz yuqorida qayd etgan yer egaligi turlaridan tashqari ma'lum urug'-jamo'a oqsoqollariga tegishli yerlar ham bo'lib, bunday yerlar, shubhasiz, ajdodlardan-avlodlarga meros tarzda o'tib borgan. yersiz va kam yerli kambag'al

aholi boy-badavlat zamindorlarga yollanib ishlashga majbur bo'lganlar. yerlar **Shohobod, Yarmana, G'azovot, Polvonyob, Qilich, Niyozboy, Dovdan** va boshqa kanallar orqali sug'orilib, suvni boshqarish va taqsimlash katta yer egalari qo'lida to'plangan. Xonlikda soliq va o'lponlarning 25 ga yaqin turlari bo'lgan

Amirlikda qator madrasalar bo'lib, u yerda o'zbek va fors tillarida mashg'ulotlar olib borilgan. Fanda va maktabda arab tili muhim o'rin tutgan. Madrasalar uch (boshlang'ich, o'rta va yuqori) bosqichli bo'lib, ularda arab, fors va o'zbek tili mukammal o'rgatilgan. Shuningdek, fiqh, xisob, xandasa, astronomiya, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, geografiya, tarix, tabobat o'qitilgan. Buxoro shahrining o'zidagi 103 ta madrasadan 60 tasi asosiy ta'lim maskani sifatida mashhur bo'lgan.

Bu davrda matematika, astronomiya, tibbiyot, tarix, adabiyot sohalarida ko'zga ko'rinarli ajoyib asarlar yaratilgan. Shayboniylardan Abdullaxon II davrida markaziy hokimiyatni mustahkanlash yo'lida olib borilgan urushlar natijasida temuriylar davridagi ko'pgina inshootlar vayron qilingan bo'lsa, ikkinchi tomondan u ko'plab rabot, sardoba, madrasa, masjid, ko'priklar, suv omborlarini qurdirib, mamlakat obodonchiligi katta hissa qo'shganlar.

XIX asr adabiy hayotining ko'zga ko'ringan namoyandalari Mirzo Sodiq Munshiy, Muhammad Sharif Shavqiy, Mulla Qurbon Xiromiy, Ahmad Donish (1827-1897 yy), Ochildi Murod, Meri Kattaqo'rg'oniy (1830-1899yy) va boshqalar o'z asarlari bilan adabiyot rivojiga katta hissa qo'shganlar. "Mang'it hukmdorlari tarixi" she'riy usulda bitilgan asarlar, "Chor darvesh", "To'tinoma", "Poraxo'r qozilar", "Murid ovlovchi" kabi asarlar bu davr adabiyotining ajoyib namunalaridir.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham o'rta asr tarixnavisligining yetakchi an'analari saqlanib qolganligini quyidagi asarlarda ko'ramiz. Xususan Mullo Ibodullo va Muhammad Shariflarning "Tarixi amir Haydar" va "Dostoni amironi mang'it", Mirolim Buxoriyning "Fathnema-yi-Sultoniyy". Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya", "Dahmayi shohon" kabi asarlari, Ahmad Donishning "Mang'itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola" asarlari shular jumlasidandir.

Umuman, amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi. Ammo Muhammad Rahimni beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. U barcha qavmlarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdar chetlashtirilib, er-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Mang'itlar sulolasi mahalliy urug'laran bo'lib, Chingizxon avlodlariga qarindosh xisoblanmagan. Shuning uchun ham sulola vakillari o'zlarini "xon" emas, balki "amir" deb ataganlar.



Bu davrda madaniyat, ayniqsa adabiyot rivoj topdi. Xususan, ashtarxoniyalar hukmronligi davriga oid yozma manbalar ichida Maxmud ibn Vali (1595-1640 yy) ning «Baxr ul-asror fi manoqib ul-axyor» (Olijanob kishilarning shon shavkati haqida sirlar dengizi), Mir Muhammad amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Yusuf Munshining «Tarixiy Mukimxoniy», Xo'ja Samandar Termiziyning «Dastur al-Mulk», Abulg'azi Bahodurxonning «Shajarai Turk», Muhammad Amin Buxoriyning «Muhit ut-tavorix», Muhammad Vafu Karmanagiyning «Tuhfat ul-xoniy», Abdurahmon Tole' (Abdurahmon Davlat) ning «Tarixi Abulfayzxon» asarlari muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Shuningdek, 1605 yilda yozilgan Muhammadyor ibn Arab qalamiga mansub «Musaxxir ul-bilod» (mamlakatlar fatxi), 1569 yilda yozilgan. Sulton Muhammad Balxiy qalamiga mansub «Majma'ul-g'aroyib», 1616-1629- yillarda yozilgan Iskandarbek munshiy qalamiga mansub «Tarixi olamaroyi Abbosiy», Juybor shayxlari tarjimai holidan iborat, Juybor xojalaridan biri Tojiddin Xasanning o'g'li Abulabbos Muhammad Tolib Siddiqiy tomonidan 1663-yilda yozilgan «Matlab ul-tolibin» (Toliblar matlabi), Ashtarxoniyalar sulolasiga mansub shahzoda xoja Mir Muhammad Salim tomonidan 1730-yilda yozilgan, hozirda yagona hisoblangan nusxasi Buyuk Britaniyadagi kutubxonada saqlanayotgan «Silsilat us-salotin» kabi asarlari ham ashtarxoniyalar davri tarixi, siyosiy va iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o'rganishda katta yordam beruvchi asarlar va muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** Ashtarxoniyalar davlatida poytaxt Buxoro shahri bilan birgalikda valiahd tomonidan boshqariladigan Balx shahrining ham nufuzi ortdi va mamlakatning siyosiy hayotiga kuchli ta'sir eta boshladi. Rasman oliy tabaqa hisoblangan xon va yirik saroy amaldorlari ko'p hollarda harbiy-ma'muriy mansabdorlar, viloyat hokimlari, yirik qabila boshliqlari fikri bilan hisoblashishga majbur bo'lib, bu ularning ijtimoiy ahvolini deyarli tenglashtirib qo'yardi. Bu davrda juybor xojalarining avlodlari bo'lgan ulamolalar va boshqa diniy amaldorlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeyi yanada oshdi.

Shu bilan birga muttaasil davom etib turgan o'zaro ichki kurashlar va fitnalar halqni iqtisodiy jihatdan og'ir ahvolga solib qo'yish bilan birga mamlakatdagi iqtisodiy holatni ham inqirozga olib keldi. Shuningdek, tashqi hujumlar, talon-tarajlar natijasida dehqonchilik vohalari harob holga kelib qoldi, savdo karvonlarini talash hollari ko'payib ketdi. Bu esa o'z navbatida tashqi savdo aloqalarining cheklanishiga olib keldi. Ashtarxoniy xonlaridan **Imomqulixon** bu holatlarning oldini olishga harakat qildi va 1614-1615- yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazdirdi. 1633-1634 - yillarda esa Qo'shqo'rg'onda kanal qazdirdi. Biroq bu ham inqirozli holatlarning oldini ololmadi.

Bu davr dehqonchiligida o'rta asrlarga xos yer egaliga hamda iqtisodiy munosabatlari maqlanib qolindi. Garchi avvalgi xonlar davrida iqtisodiy ahvol birmuncha yaxshi ahvolda saqlangan bo'lsada, XVII asr ikkinchi yarmiga kelib, mamlakatdagi iqtisodiy ahvol tanazzuliga uchray boshladi. yerlarning eng

hosildor qismi avvalgidek yirik amaldorlar va din peshvolari qo'lda saqlanib qoldi. Asosiy soliq va yig'imlar qishloq kambag'al dehqonlaridan yig'ib olinardi. Ashtarxoniyalar davrida sug'oriladigan yerlarda O'rta Osiyo mintaqasi uchun an'anaviy bo'lgan bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari, dashti yerlarida va tog' oldi hududlaridagi lalmi yerlarda bug'doy, arpa, kunjut, tarvuz, qovun va boshqalar ekildi, dehqonchilik qilingan.

Manbalarda qayd etilishicha, o'zaro urushlar dehqonchilik taraqqiyotini bir muncha orqaga surib turgan bo'lsada, tinchlik davrlarida dehqonchilik orqasida yerlardan ancha yuqori hosil olingan. Dehqonchilik mahsulotlari ichki talabni to'la qondirib, tashqi bozorga ham chiqarilgan. Bu mamlakat iqtisodining butunlay inqirozga tushib saqlab turgan asosiy omil edi.

Amirlikda yerami sug'orishga ham alohida ahamiyat qaratilgan. Chunki sug'orish tizimlari ulkan hududlarda qishloq xo'jaligi va chorvachilikni rivojlanishiga turtki bergan. Vohalarda sun'iy sug'orishga bunchalik katta ahamiyat berilganligi avvalombor hududning tabiiy iqlim sharoitlari muhim omil bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan ajdodlarimiz hayotida dehqonchilik va chorvachilik naqadar katta o'ringa ega ekanligidan guvohtlik beradi. Darvoqye, o'z o'rnida amirlik mintaqalarining tabiiy sharoiti, iqlim xususiyatlariga mos ko'plab qishloq xo'jalik ekinlari, xususan, douchilik, bog'dorchilik, polizchilik kabi sohalar rivoj topishi barobarida, ulardan olinayotgan daromad hisobidan kelayotgan soliqlar ham davlatning byudjetini boyishiga xizmat qilgan.

**Sardoba**-quduq yoki hovuz ustiga pishgan g'ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan sun'iy inshoot bo'lib, unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa muzdek bo'lgan. Sardobalar asosan karvon yo'llarida qurilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, ilk o'rta asrlarda hozirgi Jizzax, Sirdaryo va Mirzacho'l hududlarida o'nlab sardobalar qurilgan bo'lib, ularning ayrinilarining o'rni hozirgacha yaxshi saqlangan.

Vaholanki, azaldan amirlikning tabiiy iqlim sharoiti shu mintaqaga xos sug'orish tizimlaridan foydalanishni taqozo etgan. Mintaqa aholisi qadimda turli sug'orish usullaridan foydalangan holda dalalarga suv chiqarib kelganlar va ekinlarni sug'orib dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'illanib kelganlar. Ana shunday sug'orish tizimlaridan biri bu korizlardir. Xususan, qadimgi Jizzax (Ustrushona) davlatining ayrim lalmikor (dasht-adir mintaqa) yerlarida yerni sug'orishda korizlardan keng foydalanilganligi barchaga ayon.

**Koriz**- o'tmishda, ayniqsa o'rta asrlarda lalmi dehqonchilik yerlar va dasht hududlarda dalalarni sug'orish uchun qazilgan sun'iy sug'orish inshooti. Aslida bu atama gidronim bo'lib, qish va bahorda yoqqan qor va yomg'ir suvlarining tekislik hududlarda yer ostidan sizib chiqishi va to'planishidan hosil bo'lgan va uni jamlash orqali yig'iladigan suv inshooti. Bunday suvni dalalarga chiqarish uchun korizlar yer osti zovurlari orali o'zaro bog'langan. Sug'orishning bunday an'anaviy turi Buxoro amirligining Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Nurota hududlarida keng tarqalgan.

Koriz kovlash, shuningdek korizni tartibli saqlash uchun ta'mirlashda bajariladigan qo'l mehnatining og'irligi tufayli korizdor dehqonlar bunday yer osti inshooti bilan bog'liq barcha ishlarni jamoa a'zolarining ko'magida bajarganlar. Korizdan oqib chiqadigan suv miqdori unchalik ko'p bo'lmaganligi bois, undan foydalanuvchi oilalarning navbati qishloq dehqonzodalari yoki oqsoqollari tomonidan qat'iy belgilab qo'yilgan va boshqarilgan.

Qadimda amirlikning tog' qishloqlarida ham bog' va ekinzorlar aynan koriz suvlari bilan sug'orilgan. Sug'orish tizimining bunday ko'rinishi O'zbekistonning boshqa hududlarida ham uchraydi. Jumladan, Qashqadaryo, Nurota vohasi tog' qishloqlarida koriz, soy va buloq suvidan bedazor, poliz yerlari, bog'lar hatto sholi, paxta ham sug'orilganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Qishloqlar ham yerlarning sug'orma va lalmikor yerlarning holatidan kelib chiqib belgilangan. Masalan, nafaqat amirlikda, balki undan oldingi davrlarda, jumladan Amir Temur davrida soliqlarni hisoblab chiqish qoidalari o'ziga xos edi. Soliqlar yerning unumdorligi va tegishli ravishda belgi-langani baholarga muvofiq hisoblangan. Masalan agar dehqon doimiy ariqlar, suv quvurlari yoki oqimlar bilan sug'oriladigan yerlarga ega bo'lsa, faqat ana shu suvlar uzluksiz oqib tursagina, mazkur yerlardan olinadigan daromad uch qismga taqsimlangan. Bunda uchdan ikki qismi yer egasiga qolgan, uchdan bir qismini soliq yig'uvchi olgan. yerlar faqat yomg'ir suvi bilan sug'orilsa, ular ikki qismga taqsimlangan va faqatgina lalmikor yerlardan hosilning uchdan bir qismi soliq sifatida olingan.

Amirlikda eng yirik kanallardan biri, Angor kanalini bo'lgan. Undan Murg'ob vodiysini sug'orishda keng foydalanilgan. Samarqand va Shahrisabz shaharlari oqar suvlar bilan ta'minlandi. Lalmikor yerlarda ariqlar qazildi. Dehqonchilikda donli ekinlar, paxta, zig'ir, bo'yoq uchun ro'yan o'simligi, shuningdek pillachilikda tutlar ko'p ekilgan. Uzum, olma va boshqa mevalar ko'plab yetishtirilgan.

Chorvachilik ham mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biri sanalgan. Chorva mollari yetishtirish bilan bir qatorda ularni tashqi savdoga ham chiqarganlar, transport va yer haydash ishlarida xo'kizlar, otlar, ikki urkachli tuyalardan keng foydalanganlar.

Hunarmandchilikning markazi shaharlar bo'lgan bo'lsada, bu davrda inqirozli holatlarning kuchayishi oqibatida qishloqlarda ham hunarmandchilik va kerakli buyumlarni ishlab chiqarish birmuncha kengaydi. Hunarmandchilikda asrdan-asrga o'tib kelayotgan yetakchi an'analar saqlanib qolindi va ularning rivojlanirilishi bilan birga mahalliy xususiyatlarning ham ta'siri ortib borgani kuzatiladi.

Mamlakat ichki va tashqi kurashlar iskanjasida qolgan bo'lishiga qaramay, savdo-sotiq ishlari birmuncha saqlanib qolindi. Asosiy savdo markazlari Buxoro, Samarqand, qarshi, Toshkent, Balx va boshqa yirik shaharlarda savdo-sotiq ishlari ancha kengaydi. Shuningdek, bu davrda tashqi savdo aloqalari ham birmuncha rivojlandi. Hususan, Rossiyaning turli savdo shaharlari, **Hindiston, Eron,**

**Qushg'ar, Turkiya** bilan savdo-sotiq ishlari olib borildi. Tashqi bozorga asosan turli qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va boshqalar chiqarilardi. Paxta, teri, jun, turli matolarning eng asosiy haridori Rossiya hisoblanardi. Shuningdek, Rossiya va Hindiston o'rtasidagi savdo-sotiq ham O'rta Osiyo savdogarlari katta o'rin tutardilar. Buxorolik savdogarlar alohida imtiyozlarga ega edilar. Tashqi savdo ishlarida hukmdorlarning o'zlari ham faol ishtirok etardilar va chet mamlakatlarga karvonlar yuborib, undan foydalar olishgan.

### 3. Xiva xonligining tashkil topishi va ravnaqi.

Yuqorida qayd etganimizdek, Xorazm hududlarini Shayboniyxon 1505-yilda egallashga muvaffaq bo'ladi. Shayboniyxon vafot etgach (1510- yy) Xorazmning aslzoda kishilari tashabbusi bilan mamlakat taxtiga Shaybon avlodlaridan bo'lgan Berka Sultonning o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qiladilar. Berka Sulton Muhammad Shayboniyxon xonadoniga qarindosh hisoblangan. O'zbeklar sulolasining birinchi vakili Elbarsxon davrida (1511-1516 yy) poytaxt Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chiriladi. Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirib shimolga-Orol dengiziga qarab oqa boshlagach, Arab Muhammadxon (1602-1621 yy) poytaxtni Qo'xna Urganchdan Xiva shahriga ko'chiradi. Poytaxt Xiva shahri qilib belgilanishi munosabati bilan davlatning rasmiy nomi tarixiy adabiyotlarda **Xiva xonligi** deb yuritila boshlangan.

Xiva xonligi 1511- yildan 1920 yilgacha hukmronlik qilgan. Unda ikkita sulola vakillari Dashti qipchoq o'zbeklari sulolasi va mahalliy Qo'ng'irotlar sulolasi edi. Hududiy jihatdan Xiva xonligi janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh bo'lgan. Suvsiz cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib turar edi. Ma'muriy hududiy jihatdan Xiva xonligi *Xozarasp, Gurlan, Xonqa, Ko'na-Urganch, Qo'shko'pir, Pitnak, Gazovot, Qiyot, Shoxaboz, Shavot, Toshhovuz, Ambor-manok, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'irot* kabi bekkik yoki viloyatlarga bo'lingan.

Xivada shayboniyalar sulolasi xukmronligi 1770-yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. XVII asr oxiri – XVIII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqeyi pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko'chib borib joylashadi va bu erda Yangi Urganch shahri paydo bo'ladi. Bu orada Xiva shahrining mavqeyi ko'tariladi. 1556 -yilda **Avaneshxon** Xivani davlat poytaxti deb e'lon qiladi, biroq u o'z hukmronligini faqat Xivadagina o'tkaza olar edi. Arab Muhammadxon (1602-1623) davrida Xivaning mavqeyi kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylandi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dehiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi.

Xiva xonligi taxti uchun kurashlar XVII asrda yanada avj oladi. Xususan 1602-1621 yillarda taxtga Arab Muhammadxon o'tiradi. Ammo bu paytda Xiva xonligida davlat porakandaligi yuqori cho'qqiga yetadi. Xonlikka qozoqlar va

qalmlar talonchilik yurishlari qilib, mamlakat aholisining tinchini buzishga sabab bo'lgan bo'lsa, manbalarning guvohlik berishicha, hatto rus qozoqlaridan 1000 kishi shaharda qo'shin yo'qligidan foydalanib Urganchga bostirib kiradilar, katta o'lja va ko'pgina kishilarni qul qilib, olib ketishga harakat qiladilar. Lekin o'z vaqtida yetib kelgan xon qo'shinlari bu bosqinchi to'dani butunlay tor-mor etishga muvaffaq bo'ladilar.

Xonlikda katta ta'sirga ega Darvish shayxlarning aralashuvi bilan Arab Muhammadning o'g'illari-Xabash va Elbarslar hokimiyat uchun otasiga qarshi kurash boshlaydilar. Natijada Arab Muhammadxon taxtdan tushiriladi va Xivada qatl etiladi. Taxtga esa **Elbarsxon** o'tiradi. Mamlakat ichida mavqeyi kuchaygan darvesh shayxlari ta'siridagi Arab Muhammadning o'g'illari Habash va Elbarslarning otasiga qarshi chiqishi parokandalikni avj oldirdi va qatl ettiradilar. So'ngra taxt 1621-1623 yillarda Elbarsxon va Habash sultonlar tomonidan, 1623-1643 yillarda **Isfandiyor** tomonidan boshqarilgan.

Isfandiyor hukmronligi davrida Xiva xonligida siyosiy vaziyat ancha keskinligicha qoldi. Ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Orol hokimligi (bu yerda o'zbek qo'ng'irotlari katta siyosiy ta'siriga ega edi) markaziy hokimiyatga bo'ysunmay, Xorazmning siyosiy hayotida muhim o'rin tutardi. Turkman qabilalarining ham bu xonga ta'siri kuchli edi. Ular yordamida taxtga o'tirgan Isfandiyor o'zbek qabilalari vakillarini davlat boshqaruvidan chetlashtira boshladi. Bu xonlikdagi siyosiy vaziyatning yanada chigallashuviga olib keldi.

1643-1663 yillarda Abulg'ozixon taxtni boshqaradi. Bu davrda Xiva va Buxoro o'rtasidagi o'zaro yer va mulk uchun kurashlar davom etaveradi. Bu hukmdorning hayot yo'li juda og'ir kechadi. Arab Muhammadning o'g'li bo'lgan Abulg'ozixon o'z akalari Elbars va Xabashlar bilan kelisha olmaganligi uchun Xorazmni tashlab chiqib ketadi. U bir qancha muddat Buxoroda Imomqulixon saroyida yashaydi. Taxtni egallagan Isfandiyorxonning taklifi bilan 1623-yilda Xorazmga keladi va Urganchga hokim etib tayinlanadi. Lekin tez orada Isfandiyor bilan kelisha olmay Turkistonga Eshimxon huzuriga ketadi.

U yerdan Toshkentga kelib, bu yerda 2 yil istiqomat qiladi. Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg'ozixonni o'ziga jiddiy raqib, deb bilishi Isfandiyorxon uni bosqinchilikda ayblab, hibsga oldiradi va Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo'natiladi. Isfaxon yaqinidagi Taborak qal'asida 10 yil tutqunlikda yashashga majbur bo'lgan Abulg'ozini 1639 yili o'z nazoratchilari yordamida yashirincha Erondan chiqib ketishga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng u 3 yil davomida turkmanlar orasida yashaydi. 1642 yilda Orol o'zbeklari huzuriga keladi va ular yordamida taxtni egalaydi.

**Abulg'ozixonning** hukmronligi yillarida (1643-1663 yy) markaziy davlat hokimiyati birmuncha mustahkamlandi. Ko'chmanchi turkman qabilalari va qalmlarga qarshi muvaffaqiyatli janglar olib borildi. Abulg'ozining hukmronligi yillarida Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari uyushtirildi. Xiva qo'shinlari Chorjuy, qorako'l, Karmana va qarshi vohasiga hujumlar uyushtirib, bu yerlarni talon-taroj qildilar. 1662 yilda tuzilgan sulhga

qaramasdan, Xiva va Buxoro o'rtasidagi nizoli vaziyat keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi. Abulg'ozixon og'ir dardga chalilib qolgach, 1663 yilda taxtdan voz kechdi.

Ammo uning hukmronligi davrida markaziy hokimiyat nisbatan kuchaydi. Turkman, qalmlqlarga qarshi muvaffaqiyatli urush Olib borgan Abulg'ozihon Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari qildi. Xiva askarlari Chorjo'y, Vardanza, Qorako'l, Karmanagacha bo'lgan yerlarni bir necha bor talashdi. 1662 yilda Abdulg'ozni Buxoro xoni bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi.

1663-1687 yillarda Anushaxon hukmronligi davrida ham Buxoro va Xiva o'rtasidagi urushlar yana avjiga chiqadi. Masalan, Xiva qo'shinlari Buxoro, Samarqand, Qarshiga hujum qilib turdilar. 1685-yilda G'ijduvon yaqinidagi mag'lubiyatdan keyin Buxoroning Xivadagi ta'siri kuchaydi. Subhonqulihon Anushaga qarshi fitna uyushtirib, uning o'g'li Emakka taxtni egallashga yordam beradi. Otasini ko'r qilib, taxtni egallagan **Ernak** hokimiyatni uzoq vaqt saqlab qola olmadi. Subhonqulihon Xivadagi tarafdorlari yordamida taxtga Shohniyozni o'tkazib, amalda Xivani vassal davlatga aylantiradi.

1687-yilda taxtni Emak, 1688-1702 yillarda Shohniyoz boshqaradi. Biroq, uning davrida ham xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shahzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inborot urushlar bo'lib turar, bu hududlar qo'ldan-qo'lga o'tardi.

Ammo Anushaxon hukmronligi davrida Xiva qo'shinlari Buxoroga, Samarqand, qarshiga yana hujumlar qilib turdilar. 1685-yilda Xivaliklar G'ijduvon yaqinida qattiq zarbaga uchragandan so'nggina bu talonchilik yurishlariga barham berildi. Buxoroning yangi xoni Subhonqulixon nafaqat Xivaliklar hujumini to'xtatishga balki, Xivada o'z ta'sirini o'rnatishga ham muvaffaq bo'ldi. Uning yordamida Anushaxonning o'g'li Emak 1687-yilda Xivada hokimiyatni egallash uchun fitna uyushtirdi. Lekin o'z otasi Anushaxonni ko'r qilib, taxtni egallagan Emak taxtda uzoq qola olmadi. Subhonqulixon 1688-yilda Xiva taxtiga o'z amaldorlaridan biri **Shohniyozni** o'tkazib (1688-1707 yy) Xivani amalda Buxoroga vassal davlatga aylantirildi.

Xonlikdagi keyingi siyosiy voqyealar bu qaramlik qisqa vaqt davom etganligini ko'rsatadi. Buxoro ta'siridan qutilish uchun Shohniyoz Rossiya hukmdori Pyotr I ga xat yo'llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo'shib olishini so'raydi. O'z siyosatida Sharqni ham egallashni ko'zlayotgan rus podshosi uchun bu ayni muddao edi. 1703-yilda Pyotr I ning Xiva Rossiya tarkibiga qo'shib olinganligi to'g'risidagi yorliqni Xivaga yuboradi. Bu yorliq Xivaning yangi xoni Arab Muhammadga topshirildi. Lekin Xivani o'ziga tobe etush hali Rossiyaga nasib etmagan edi.

Xiva xoni Sherg'ozixon davrida Rossiya Xiva munosabatlarida birmuncha yengilik sodir bo'lgandek edi. Aynan shu davrda Rossiya podshosi Petr I Xiva xonligini o'rganish va tobe qilish maqsadida Aleksandr **Bekovich-Cherkasskiy**

rahbarligida Xivaga harbiy ekspeditsiya yuboriladi. Xiva xoni Sherg'ozixon davrida xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakatning iqtisodini izdan chiqaradi. Sherg'ozixon 1717 yilda xonlikka tashrif buyurgan rus ekspeditsiyasini yaxshi kutib oladi. Ammo uning maslahati bilan qo'shinlar butunlay qirib tashlanadi.

Elbarsxon davri (1728-1740 yy) da o'zaro nizolar birmuncha susaydi, lekin qo'shni hududlarga talonchilik yurishlari yana jonlanib ketdi. Uning davrida Xiva qo'shinlari Xuroson sarhadlariga harbiy yurishlar uyushtirib, katta o'ljalarni qo'lga kiritdilar. Bu o'z navbatida Eron shohi Nodirshohni Xorazmga yurishga undadi. Xazorasp va Xonqa yonida bo'lib o'tgan janglarda g'alabaga erishgan eronliklar 1740 yilda Xiva xoni Elbarsxonni o'ldirib, Xorazmni butunlay bo'ysundirdilar. Xorazmda yana siyosiy parokandalik boshlandi. Xiva taxtida kichik qozoq juzidan bo'lgan, rus fuqaroligini qabul qilgan **Abulxayrxonning** qisqa hukmronligidan so'ng Nodirshoh Xorazmga ikkinchi marta yurish qilib, Xivani egaladi. Shahardagi barcha eron va rus millatiga mansub qullarozod qilindi. Xorazm halqiga katta miqdorda soliq solinib, Xiva Nodirshohning noibi tomonidan idora qilina boshlandi.

1741-yilda Xivada qo'zg'olon ko'tarildi va Nodirshohning noibi o'ldirilib, Eronliklarning harbiy qo'shini qirib tashlandi. Taxtga Nuralixon o'tirdi. Lekin Nodirshohning o'g'li Nasrullo Xorazmga katta kuch bilan kirib kelgandan so'ng, u taxtni tashlab Dashti qipchoqqa qochib ketdi. Shundan so'ng Xiva taxtida xonlar tez-tez almashib turdilar. 1747-yilda qozoq sultoni Taibxon taxtga o'tkazildi (1747-1757 yy). U xonlikda katta nufuzga ega bo'lgan Otaliq Xuzurbekni davlat boshqaruvidan chetlashtirib, davlatdagi yirik mansablarni qozoqlarga bo'lib bera boshladi. Bu esa Xivada yana qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Xon taxtni tashlab, qozoq dashtlariga qochib ketgandan so'ng, hokimiyatni uning ukasi Abdullaxon egallaydi.

Shu bilan birga hali qo'shni davlatlarning Xivaga tajovuzi davom etardi. Jumladan, xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib falokatlar keltirar edi. XVIII asr o'rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o'z boshqaruvini o'rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko'chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo'lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar bo'lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek qabilalaridan Qo'ng'iro't urug'ining boshlig'i Muhammad Amin inoq 1770 yilda hokimiyatni qo'lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola - **Qo'ng'iro'tlar sulolasiga** asos soldi (bu sulola 1920-yilgacha hukm surdi). Muhammad Amin Inoq turkmanlar qo'zg'olonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi.

Ammo rasmiy hokimiyat esa chetdan chaqirilgan qozoq sultonlari qo'lga topshirib qo'yilgan va Muhammad Amin ham uning o'g'li Avaz ham (1790-1804 yy) inoq unvonida davlatni boshqarib kelgan edilar. Bu mavqe inoqlardan Eltuzargacha davom etdi va Muhammad Amin inoqning nabirasi bo'lgan Eltuzar 1804 yilda hokimiyatga erishgach, qozoq sultonlaridan bo'lgan soxta xon

Abulg'ozini taxtdan tushirib, o'zi rasman xon unvonida Xiva hukmdori bo'lib qoldi (1804-1806 yy). Shu tariqa 1804 yildan boshlab Xiva xonligi taxti rasman Xiva qo'ng'irot qo'liga o'tdi.

**Eltuzarxon** o'z hukmronligi yillarida Xiva xonligining barcha hududlarini birlashtirishga va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga harakat qildi. Biroq u 1806 - yilda Buxoro amirligi qo'shinlari bilan bo'lgan janglardan birida halok bo'ldi. Taxtga Xiva qo'ng'irotlarining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan, **Eltuzarxonning ukasi Muhammad Rahim I** o'tirdi. Muhammad Rahimxon taxtga chiqishi bilan avvalgi soxta xon Abulg'ozni mavqeyini tikladi va shu yo'l bilan o'z nufuzini oshirishga harakat qildi. Muhammad Rahimxon hukmronlik qilgan davr Xiva xonligida siyosiy keskinliklar bilan davom etdi. U shavqatsiz kurash olib borishi yo'li bilan Xiva xonligini birlashtirish va xonlik hududlarini kengaytirishga harakat qildi.

Muhammad Raximxon I davlat boshqaruvini mustahkamlash borasida ham ma'lum ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, ma'muriy tartibda devon joriy qildi, mamlakat iqtisodiy hayotini yo'lga qo'yish maqsadida soliq islohoti o'tkazdi, muntazam soliqlar yig'ib olish bilan davlat xazinasini boyitdi, iqtisodiy sohani yanada mustahkamlash maqsadida bojxona va zarbxona tashkil etdi va oltin hamda kumush zarb qildirga boshladi.

Markaziy hokimiyatni birmuncha mustahkamlashga erishgan Muhammad Rahimxon asta-sekin mayda beklidlarni ham bo'ysundirish siyosatini olib bordi. qattiq kurashlardan so'ng 1811-yilda Orol bo'ylarida yashovchi urug'larni xonlikka bo'ysundirdi. Qo'ng'irot shahri vayron qildi va XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar bo'ysundirildi.

Muhammad Rahimxon turkmanlarni itoatda tutib turish uchun turli siyosatlarini yuritardi, goh ularni Eron bilan urushga jalb qilib kuchsizlantirsa, goh o'zi harbiy yurishlar qilib ularni asirlarga olardi, gohida esa turli qabilalarga galla va boshqalar sotib olishdi imtiyozlar berardi. Muhammad Rahimxon Sirdaryo bo'ylarida yashovchi qozoqlarni ham o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, biroq ruslar bu vaqtda qozoqlarni o'z tobeliklarga olgan edilar. Eron va Afg'oniston bilan munosabatlar bu davrda nisbatan mo'tadillashdi.

Shuningdek, Rossiyaning Xiva xonligi bilan ayrim munosabatlarni yaxshilashga intilib, diplomatik aloqalar olib bordi. Jumladan, 1819 yilda kapitan Muravev boshchiligidagi elchilar Kaspiy dengizi sohillarida qal'a qurish va Xiva karvonlarini Mang'ishloqqa emas, balki Krasnovodsk portiga yo'llash masalasida Xiva xonligiga keladi. Biroq Muhammad Rahimxon bunga ko'nmadi. Hukmronligining oxirgi davrlarida 1822-yilda Muhammad Rahimxon Marvni o'ziga bo'ysundirdi va vafot etadi.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng Xiva xonligi taxtiga uning o'g'li **Olloqulixon** (1825-1842 yy) chiqdi. Olloqulixon hukmronligi davri o'zaro urushlarga va to'qnashuvlarga boy va shiddatli bo'ldi. Xonlikning shimolida yashovchi yarim ko'chmanchi turkman qabilalaridan taka, sariq, salor va boshqalar kuchayib ketdi. Bu esa xonlikning ichki siyosiy ahvoli keskinlashuviga



olib keldi. Bundan tashqari xon deyarli har yili Xurosonga yurishlar uyushtirdi, turli talonchiliklardan tashqari Olloqulixonning o'zi Xurosonga 5 marta yurish qilgan edi.

Olloqulixonidan so'ng taxtga o'tirgan **Muhammad Aminxon** (1845-1855 yy) ham Xuroson va Marvga 10 martadan ko'p yurish qildi. Saraxsni qamal qilishda qatnashgan xonning o'zi ham shu jangda halok bo'lgan edi. Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasida bu davrda ham o'zaro dushmanlik va raqobat kayfiyati saqlanib qolgan edi.

Xiva xonligining nisbatan gullagan davri ham xon, ham shoir sifatida faoliyat olib borgan Muhammad **Rahimxon II (Feruz)** davriga to'g'ri keladi. Ya'ni, u hokimiyatni boshqaradi. Bu davrda xonlik madaniy muhitida, adabiy muhitda ijobiy siljishlarga erishilgan. osoyishtalik birmuncha hukm surgan. Ammo Muhammad Rahimxon II davrida Xiva-Rossiya munosabatlari keskinlashadi, bu esa 1873-yilda Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishi bilan yakun topadi. U Rossiyaga vassal ammo mustaqil davlat sifatida 1920 yilgacha hukmronlik qiladi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** Xiva xonligi iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi alohida muhim o'ringa ega edi. Xonlikda yer egaligi uch huj shaklda bo'lib, davlat yerlari, vaqf yer egaligi va hususiy yer egaligi shakllaridan iborat bo'lgan. Davlat yerlari odatda xon va uning yaqinlariga tegishli bo'lib, odatda ular suv manbalariga yaqin hosildor yerlardan iborat bo'lgan. Hatto xalq orasida davlat xazinasiga xonning shaxsiy mulki sifatida qarash hukmron edi.

Hususiy yer mulklar ichida yirik mansabdor, harbiy-ma'muriy va diniy amaldorlarga tegishli yer-mulklar katta foizni tashkil etardi. qishloq jamolari egalik qiladigan yerlar dehqonlarga odatda 8-12 tanobdan bo'lib berilgan.

Vaqf yerlariga odatdagidek, masjid va madrasalarga, diniy Mahkamalar va qabrisonlarga tegishli yerlar kirgan va ulardan olinadigan daromad shu joylarning sarf-harajati uchun ishlatilgan.

Voha iqtisodining asosini dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etib, dehqonchilikda Amudaryoning quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Chunki kanallardan xonlikda yerlarni sun'iy sug'orishda foydalanilgan. Masalan xonlikda ma'lum urug'-jamoalarga tegishli yerlar ham bo'lib, bunday yerlar, shubhasiz, ajdodlardan-avlodlarga meros tarzda o'tib borgan. yersiz va kam yerli kambag'al aholi boy-badavlat zamindorlarga yollanib ishlashga majbur bo'lganlar. yerlar Shohobod, Yarmana, G'azovot, Polvonyob, Qilich, Niyozboy, Dovdan va boshqa kanallar orqali sug'orilib, suvni boshqarish va taqsimlash katta yer egalari qo'lida bo'lgan. Kanallarni tozalash, yangilarini qazish uchun bahorda o'z yeriga ega bo'lgan har bir xonadondan bir kishi jalb etilib, ular zamindor yerida 15 kun ishlab berishi shart bo'lgan.

Birgina Xiva xonligida dehqonchilikda Amudaryoning quyi oqimidan olingan ko'plab kanallar va ariqlar muhim o'rin tutgan. Bu ariq va kanallar orasida eng yiriklari quyidagi 11 ta sug'orish shaxobchasi mavjud edi. Bulardan

tashqari yana ko'plab o'rtacha kattalikdagi va uzunlikdagi sug'orish kanallari va ariqlari ham voha dehqonchiligi uchun qo'l kelgan.

Bulardan tashqari yana ko'plab o'rtacha kattalikdagi va uzunlikdagi sug'orish kanallari va ariqlari ham voha dehqonchiligi uchun qo'l kelgan. qishloq xo'jaligida paxta, sholi va ekinlar yetishtirish, bog'dorchilik va poliz ekinlari ekish keng tarqalgan va rivojlangan edi. Biroq xonlik hududlarida ipakchilik yaxshi rivojlanmagan edi. O'troq ahvoli ham o'z xo'jaliklarida chorva mollari boqsalarda, biroq chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan asosiy talablarini chorvadorlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar yordamida qondirganlar. Chorvachilikda asosan bir urkachli tuyalar, ot va qo'y boqilgan.

Hunarmandchilik ham xonlik iqtisodiy hayotida alohida o'ringa ega bo'lib, hunarmandchilik va hal amaliy san'atning Xiva xonligi hududlarida o'ziga xos maktabi yaratilgan edi. Xonlikda har bir shaharda ko'plab hunar turlari bilan shug'ullanuvchi hunarmandlar mavjud edi. Ular faqatgina ichki bozorni o'z mahsulotlari bilan ta'minlabgina qolmasdan, balki tashqi savdoga ham ajoyib hunarmandchilik mahsulotlarini chiqarar edilar. Tashqi savdoda chetdan qo'rg'oshin, mis, temir, chuyon kabi metallar va metall buyumlar asosan Rossiyadan, oltin, kumush, hunarmandchilik mahsulotlari hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari Buxoro, qo'qon, Eron va Rossiyadan keltirilgan va o'z navbatida Xiva xonligida ham chetga shunday mahsulotlar va nafis hunarmandchilik mahsulotlari chiqarilgan.

R.X. Murtazaeva rahbarligida chop qilingan O'zbekiston tarixi o'quv qo'llanmasida qayd qilinishicha, Xiva xonligi boshqaruv tizimi, asosan, Buxoro va Qo'qon davlatlaridagidek bo'lib, farqi XIX asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) bo'lgan. Eng yuqori amaldorlar a'zo bo'lgan kengash vakolati cheklangan bo'lib, asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo'lsa-da, amaldorlarning xonlik boshqaruvida mavqeyi baland bo'lgan. Mansab va unvonlar xonliklarda harbiy-ma'muriy, harbiy va diniy toifalarga bo'lingan. Inoq, otaliq, biy, amir ul-umaro, mehtar, qushbegi, beklar begi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o'rin tutgan. Xonlikda sud ishlari asosan diniy ulamolar qo'lida bo'lib, ularning mamlakat hayotida ta'siri kuchli bo'lgan.

Xonlik hayotida xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqeyi yuqori bo'lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham asosan ular qo'lida bo'lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ahvoli juda og'ir bo'lgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mamlakat iqtisodida muhim o'rin tutgani uchun Amudaryodan chiqarilgan kanallarni qazish davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. Shuningdek, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ham iqtisodiy hayotda muhim o'rin tutgan. Soliqlar barcha musulmon davlatlaridagidek xiroj, zakot, boj vajizyadan iborat bo'lgan. Shu bilan majburiy mehnatning ba'zi turlari amalga oshirilgan.

Xonga tegishli mol-mulk omboriga hamda xazinaga tushuvchi narsa ya'ni mol-mulk, qimmatbaho buyumlar, pul, tanga kabilarni nazorat qiluvchi va

xazinaga tushuvchi mablag'ni hisob-kitob qiluvchi mas'ul kishilar bo'lib, ular ham xon devonining mas'ul shaxslaridan hisoblanganlar.

Masalan Qo'qon xoni saroyida xizmat qilgan **mirzai daftardor** soliqlar va tushumlar asosida xon xazinasining ahvoli haqida daftarga qayd etib borgan. Sarkor va inoq esa xonlik xazinasiga qabul qilinadigan mahsulotlarni saqlovchi hisoblangan. Agar ular pullardan iborat bo'lsa, uni **mehtar** yoki xonning **g'aznachisi**, ya'ni kassiri qabul qilgan. Shuningdek u xonning barcha qimmatbaho buyumlarini boshqaruvchisi ham hisoblangan. Shunday qilib xonliklar davrida yer egaligi munosabatlarining yanada rivojlanishi soliqlarning turlari va shakllarining ortishi va o'zgarishi ham olib kelganligini qayd etish zarur.

Shuni alohida qayd etish zarurki, o'z davrida xon, amir, bek va davlat xazinasini to'ldirishda umumdavlat byudjeti va mahalliy byudjetlar muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, Qo'qon xonligida xon xazinasiga kelib tushadigan soliqlar xossachi deb, mahalliy byudjet esa *bek xazinasini* deb atalgan. Xon xazinasiga barcha turdagi natira soliqlari va pullar, qimmatbaho buyum va boshqa mollar kelib tushgan. Ular asosan Qo'qon va uning atroflaridagi qishloqlardan to'plangan.

Hammualiflarning yozishlaricha, fan va ta'lim sohasida ta'lim tizimida boshlang'ich maktabda o'qish-yozishni o'rgangan bolalar madrasalarda o'qitilgan. **XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 130 ta madrasa** mavjud bo'lgan. Xiva shahrining o'zida 22 ta madrasa bo'lgan. XIX asrda Xiva xonligida adabiyot, tarixnavislik, hattotlik, musiqa san'ati, me'morchilik va madaniyatning boshqa sohaslarida kattayituvlar qo'lga kiritilgan.

Madaniyat sohasida Shermuhammad Munis Xorazmiy, Muhammad Rizo Emiyozbek o'g'li Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Kamron, Bayoniy, Xusraviy, Murodiy kabi adiblar yashab ijod qilganlar. O'sha kezlarda Abulg'oziyxon "Shajarayi Turk", "Shajarayi tarokima" asarlari Munis va Ogahiy tarixnavislik va tarjimonlik maktablari yuksak rivojlangan. Adiblarning "Firdavs ul-iqbol", "Zubdat ut-Tavorih", "Riyozi ud-davla", "Gulshan ul-davlat", "Jomiy' ul-voqeyoti sultoniy", "Shohid ul-iqbol" asarlari bilan tarix sohasini rivojlantirdilar. Bayoniyning "Shajarayi xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" asarlari yuqoridagi asarlar kabi Xiva xonligi tarixini o'rganishda asosiy manbalar hisoblanadi.

#### **4. Qo'qon xonligida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Xonliklar davrida madaniyat.**

Qo'qon xonligi hududiy jihatdan sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoza, Sho'g'non singuri tog'li hududlarni o'z ichiga olgan. Bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan o'zaro urushlar bo'lar, ular doimo qo'ldan-qo'lga o'tib turgan. Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan, Toshkent, Chimkent,

Turkiston, Avliyo-Ota, Pishpak, Suzak, Oq-machit kabi yirik shaharlar uning tasarrufida edi.

**1710-yilda** ancha kuchli ta'sirga ega bo'lgan, o'zbeklarning ming urug'i boshlig'i **Shohruhbiy** hokimiyatni qo'lga oladi. Shohruhbiy o'z hukmronligi davrida Qo'qon, Namangan, Marg'ilon, Konibodom, Ist'ara atroflarini bo'ysundirib, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi. Uning davomchisi Muhammad Abdurahimbiy 1721-1733 yillarda Xo'jand, O'ratepa, Samarqand, Jizzax, hatto Shahrisabzni o'ziga bo'ysundirib, mamlakat hududlarini ancha kengaytiradi. Uning vafotidan so'ng ukasi Abdukarimbiy taxtni boshqaradi. So'ngra Qo'qon taxti Abdurahmonbiy, Erdonabiy, Bobobeklar tomonidan boshqarilgan. 1755 yilda Erdonabiy 2 chi marta hokimiyatga keladi. U 1758-1769 yilgacha hokimiyatni boshqaradi. Shu tariqa Qo'qonda sulolalar almashishi davom etdi.

Shu o'rinda minglar sulolasi asoschisi Shuhruxbiydan so'ng taxtga kelgan sulolalar to'g'risida ma'lumot berish lozim, albatta. Masalan Shuhruxbiydan so'ng taxtga Muhammad Abdurahimbiy o'tiradi. Uning hukmronligi yillarida davlat hududlari ancha kengaydi. U Andijon va Xo'jandda o'z hukmronligini o'rnatadi. O'ratepani qo'lga kiritadi. qisqa vaqt Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlarini egallab, Shahrisabzga ham tahdid soladi. Abdurahimbiy qo'qon qishlog'i yaqinida katta shahar qurdira boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda bu shahar «qal'ai Rahimbiy» deb atala boshlagan. U vafot etgach, taxtga uning ukasi Abdukarimbiy o'tiradi. Abdukarimbiy yangi shahar qurilishini tugallab, poytaxtni Tapaqo'rg'ondan Qo'qonga ko'chirib keltiradi va Qo'qon shahri davlatning poytaxtiga aylanadi.

Abdukarimbiyning hukmronligi yillarida markaziy davlat hokimiyati ancha mustahkamlanadi va xon tomonidan halqning farovonligiga e'tibor beriladi. Ammo uning davrida ham ichki va tashqi urushlar bo'lib turganligi tarixdan ayon. Masalan, 1745-1746 yillarda Farg'ona vodiysiga qalmoqlar hujumi sodir bo'ladi va ular O'sh, Andijon, Marg'ilon va boshqa joylarni egallab oldilar. Shu vaqtda O'ratepa hokimi Fozilbek yordami bilan qalmoqlar xonlikdan quvib chiqariladi va bosib olgan yerlari yana qaytarib olinadi. Tez orada Abulkarimbiy ham vafot etgach, bir qancha muddat Qo'qon xonligi taxti qo'lidan qo'lga o'tib turadi. Abulkarimbiydan so'ng taxtga o'tirgan o'g'li Abdurahmonbiy olti oygina taxtni boshqaradi va taxtdan tushirilib, Marg'ilonga 1751 yilda hokim etib tayinlanadi.

Abdurahmonbiydan so'ng Qo'qon taxtini **Erdonabiy** egallaydi (1751-1753 yy). U o'zining dastlabki qisqa vaqtlik hukmronligi yillarida xonlikni mustahkamlashga harakat qiladi va O'sh hamda O'zgandni bo'ysundiradi. Biroq Erdonabiy ham tez orada taxtdan tushiriladi va o'miga Bobobek o'tkaziladi. Biroq qalmoqlar tomonidan taxtga chiqarilgan Bobobek 1754 -yilda Beshariqda o'ldiriladi va o'miga qaytadan **Erdonabiy** o'tkaziladi. Erbonabiyning keyingi hukmronligi yillarida siyosiy vaziyat ancha keskin bo'lib turadi va oddiy melmatkash aholining ahvoli birmuncha og'irlashdi.

Erdonabiy vafotidan so'ng taxtga Shohruhbiyning uchinchi o'g'li Shodibiyning o'g'li Sulaymonbek o'tkaziladi. Biroq u 1769- yilda bor yo'g'i olti

oygina hukmronlik qilib, fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. 1770-1800-yillarda Qo'qon xonligi **Norbo'tabek** tomonidan idora etiladi. Norbutabiy markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun ko'p harakat qiladi. Dastlab u o'zboshimchalikka intilgan beklarni markaziy hokimiyatga bo'ysundiradi. Chust va Namanganda ko'tarilgan isyon va g'alayonlarni bostirgach, u yerlarda o'ziga sodiq kishilarni qoldiradi va Xo'jandni ham egallaydi. Hukmronligining oxiriga yillarida Toshkentni bosib olishga ham intilgan Norbutabiy muvaffaqiyatsizlikka uchraydi va u yuborgan Xonxo'ja boshchiligidagi lashkar Toshkent yaqinida mag'lubiyatga uchraydi. Norbutabiy vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Olimbiy (Olimxon) o'tiradi

**Olimxon** taxtni 1810- yilga qadar boshqaradi. Uning hukmronligi yillarida Qo'qon xonligining siyosiy mavqei birmuncha yuksaladi. Olimxon harbiy islohot o'tkazib, qo'shinni kuchaytirgach, harbiy yurishlar qilib, Angren vohasi, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundiradi va Rossiya imperiyasi bilan bevosita aloqalar o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xonlikning mavqei kuchayib bordi va 1805 yilda Olimxon tomonidan «xon» unvoni joriy etilgach, xonlikning maqomi ham o'zgarib, endi u Qo'qon xonligi va hukmdorlari xon unvoni bilan yuritiladigan bo'ldi.

1810-yilda Olimxon o'ldirilgach, taxtni ukasi Umarbek egallaydi. Umarxon davlat tepasiga kelgach, mamlakatda ko'plab g'alayonlar va isyonlar avj oldi. Chimkent va Turkistonda g'alayonlar ko'tariladi, masalan, O'ratepa hokimi unga bo'ysunishdan bosh tortadi. Ammo davlatni boshqarishda katta ta'sirga ega bo'lgan din peshvolari va harbiy sarkardalar bilan ittifoq bo'lib ish tutgan Umarxon bu g'alayonlarni bostirib, xonlik hududlarini bo'linib ketishdan saqlab qoldi.

1818- yilda Qo'qonda u o'zini «**Amir ul-muslimin**» deb ataydi. Ammo uning hukmronligi yillarida mamlakatda ichki inqiroz kuchayib, soliqlar oshirilib yuboriladi, mahalliy hokimlarning xonga ishochi kamaya boshlaydi, vaziyat ancha og'irlashib qoladi. Amir Umarxon 1822-yilda kasallanib vafot etadi va taxtni o'g'li Muhammad Alixon egallaydi. Shuni alohida aytish lozimki, Umarxon davriga nisbatan Madalixon davrida Qo'qon xonligi iqtisodiy va siyosiy jihatdan ancha yuksaldi va bir qancha unga chegaradosh hududlar, jumladan, Dorboz, Qorategin, Ko'lob hududlari xonlikka qo'shib olib, unig chegarasi yanada kengayadi.

Madalixon davrida Buxoro amirligi bilan ham tez-tez to'qnashuvlar bo'lib turdi. Bu urushlarning hammasi mehnatkash halq zimmasiga yangi soliqlar solinishi va aholi turmushining og'irlashuviga olib keldi. Halq g'alayonlari kuchaydi. Hukmronligining so'nggi yillarida davlat ishlaridan ko'ra ko'proq ayshu-ishratga berilib ketgan Madalixondan norozi bo'lgan kuchlar unga qarshi fitna tayyorlaydilar. Davlat boshqarishda katta tajribaga ega bo'lgan va xonning yaqin maslahatchisi Mingboshi haqqulining o'ldirilishi ularga yanada qo'l keldi. Fitnaga bosh qo'shgan qozi Kalon Toshkent hokimi va boshqalar Madalini taxtdan ag'darib tashlamoqchi bo'ldilar. Ular Buxoro amiri Nasrulloqa elchi

yuborib, o'z niyatlarini amalga oshirishda undan yordam so'radilar. 1842 yil aprelda katta qo'shin bilan qo'qonga bosib kelgan Nasrullo shahar yaqinida joylashdi.

O'ziga qarshi norozolikning kuchayib borishidan havfsiragan **Madalixon** 1841 yil noyabr oyida ukasi Sulton Maxmud foydasiga taxtdan voz kechgan bo'lsada, sulh so'rab Nasrullo huzuriga elchi yuboradi. Biroq uning barcha takliflari rad etiladi va Madalixon oilasini va o'ziga sodiq ming kishini hamda xazinani olib, Namangan tomonga qochadi. Biroq ular Amir Nasrullo farmoni bilan tutib keltiriladi va Madalixon, uni onasi Nodirabegim, Sulton Maxmudxonlar qatl etiladi. Qo'qonda 12 kun turgan amir Nasrullo bu yerda Ibrohim dodxohni qoldirib o'zi Buxoroga qaytadi.

Ibrohim dodxohning shahar aholisiga zulmni haddan oshirib yuborganligi bois, 3 oy o'tgach unga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi va Ibrohim dodxoh va uning ukasi Isxoq Xo'jand orqali Buxoroga qochadi. qo'zg'olonchilar tomonidan Sheralixon Qo'qon xoni deb e'lon qilinadi.

Sheralixonning katta xizmati shundan iborat bo'ldiki, u Buxoro amirligi hujumlarini qaytarib, mamlakatta birmuncha tinchlik o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Ya'ni, 1842-yil kuzida **Nasrullo** Qo'qonni egallash maqsadida katta qo'shin bilan kelganida u Musulmonqul mingboshi rahabarligida amir Nasrullo qo'shinlarini to'xtatib qoladi. Buning yana bir boisi shunda bo'lganki, amir Nasrullo Xiva qo'minlarini Qo'qon hududiga yurishidan xavfsiragani bo'lgan.

Alohida xizmatlari uchun Musulmonqul "mingboshi" unvoniga sazovor bo'ladi. 1845-yil yozida Murodbek Sheralini taxtdan tushirish maqsadida Buxoro amiri qo'shinlari yordamida Qo'qonga bostirib keladi. Musulmonqulning shaharda yo'qligi sababli Murodbek Sheralixonni o'ldirib, taxtni egallaydi va o'zini Buxoroning vassali deb e'lon qiladi. Bundan habar topgan Musulmonqul darhol qo'shin bilan keladi va Murodbekni qatl qiladi. Taxtga Sheralixonning 13 yoshli o'g'li Xudoyorxon o'tkaziladi. **Xudoyorxon** hali yosh bo'lganligi sababli, hokimiyat amalda Musulmonqul qo'lida edi.

Ammo Musulmonqulning hokimiyat egasi bo'lib qolganligi va qipchoqlarning mavqeyi oshganidan norozi bo'lgan amaldorlar birlashib, Musulmonqulga qarshi kurashlarga tayyorlana boshladilar. 1852- yil xazinani talon-taroj qilishda aybangan dasturxonchi va risolachi Toshkentga qochib ketganligi uchun 40 ming kishilik qo'shin bilan Toshkentga yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi.

1852- yilning yozida Musulmonqul Toshkentga yurish bolaydi. Lekin bu vaqt Xudoyorxon Chirchiq bo'yida jang bo'layotgan vaqtda Toshkentliklar tomonga o'tib ketadi. Musulmonqul tor-mor etiladi. Kuz oyilarida butun qipchoqlarga qarshi qirg'in boshlanib ketadi. 1853- yil kuzida esa Musulmonqulning o'zi tutib olinadi va Qo'qonda dorga osiladi. Xudoyorxon o'z hokimiyatini mustahkamlaydi.

1858- yilda Qo'qon xonligining shimoliy qismida Turkiston, Chimkent, Toshkent viloyatlarida qo'zg'olonlar boshlanadi. Toshkent hokimi Ahmad

Parvonachining soliq yig'ishida haddidan oshib ketganligi xalq harakatining yuz berishiga sabab bo'ladi. U har bir qo'y uchun 1 so'm, bir bosh qoramol uchun 2 so'm, tuya uchun 3 so'm, bo'talog'i uchun 2 so'm, har bir qiz turmushga chiqqani uchun 20 so'm to'lashni shart qilib qo'ygan. Qo'qon xonligida soliqlarni yig'ish birmuncha boshqacha bo'lib, xirojning miqdori, bug'doy, jo'xori va boshqa donli ekin hosilining beshdan bir qismi tariqasida soliq sifatida undirilgan.

Xirojning yana bir turi, tanabona solig'i edi. Masalan, terak, qayrag'och ekilgan bir tanob yerdan 50 tiyin, uzum, mevazordagi har tanob yerdan 2 so'm, piyoz, sabzi ekilgan bir tanob yerdan 1 so'm soliq olingan. Xiroj dastlab mahalliy hokim xazinasiga tushgan. Shu hisobdan bek ma'muriyatni maosh bilan ta'minlab turgan, xon talab qilganda qo'shin to'plab, ularga xizmat haqi to'lagan. Soliq to'lovchining ro'yxati qat'iy yuritib borilgan. Aholi rasmiy soliqlardan tashqari mirob va mulla uchun ham g'alladan ma'lum miqdorini berishi lozim bo'lgan.

Xonlikda madaniyat bu davrda oldingi davrlarga nisbatan ancha rivojlandi. Jumladan, 19 asr oxirlarida Qo'qonda 40 ta madrasa, 120 ta maktab. Marg'ifonda 10 ta madrasa, 80 ta maktab bo'lgan. Xassos shoir va davlat arbobi amir Umarxonning umr yo'ldoshi, mashhur shoira Nodirabeginnlar ijod qildilar. Bu yerda **Amiriy Boqixon to'ra, Gulxaniy, Zavqiy, Maxmur, Mushrif, Nodira, Uvaysiyar** o'z davrida samarali ijod qilganlar. **Fazliy Namangoniyning** «Majmuat ush-shuaro», qori Raxmatullo Vozexning «Tuxmat ul-axbob fi tazkirat ul-ashob» tazkiralari 200 nafarga yaqin shoir va olim ijodiga to'xtab o'tiladi. Ana shu adabiy jamoani amir Umarxonning o'zi boshqargan.

Umarxon o'z davrida adib, musavvir, hattot va musiqa bilimdonlariga homiylik qilgan. Uning xukumronligi davrida ko'plab masjid, madrasa, maktablardagi kitoblar iste'dodli davrida ko'plab masjid, madrasa, maktablardagi kitoblar iste'dodli hattotlar tomonidan ko'chirilgan. Amiriyning o'zbek va fors tillarida yozgan g'azallar devoni 1881 yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etildi. Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri Maxmur 18 asr oxirida tug'ilib 1844 yili vafot etgan. Uning she'riy devoni mavjud.

**Gulxaniy (Muhammad Sharif)** – 1770- yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib qolgan. U yerda mardikorlik qilgan. Ayni paytda ijod bilan ham shug'ullangan. Keyinchalik u qo'qonda istiqomat qiladi. Bu yerda hammondada gulxat (o't yoquvchi) bo'lib ishlaydi. U «Gulxaniy» tahallusi bilan ijod qilgan. Gulxaniydan katta adabiy meros qolgan. U o'zbek tili adabiyotida poeziyaga masalani mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor edi. Ayni paytda u ham o'zbek tilida ham tojik tilida ijod qilgan.

Gulxaniyning mashhur asari «Zarbulmasal» edi. Asardagi «Maymun va Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan Chayon» kabi masallari chuqur ahloqiy ta'limiy ahamiyatga ega. Asarlarida Yapaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rqush, Xudxud, Kalonqir sulton, Malik shohi va Kardonlarning bir-birlari bilan qudanda bo'lish jarayonida bir-birlariga aytgan so'zlari, masal-maqollari va

hikoyatlari Gulxaniy yashagan davrdagi siyosiy tuzumining haqiqiy manzaralarini ifodalab beradi.

Albatta o'sha davrda Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin Uvaysiy va **Moxlaroyim Nodiral**ar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmazdi. Masalan, Uvaysiy 1780-yilda Marg'ilonda tug'ilgan oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalari edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oilasidagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Xofiz va Joniy ijodlarini qunt bilan o'rganadi. O'zbek shoirlardan ma'rifatparvar davlat arbobi moxlaroyim Nodira Andijonda tug'ilgan. Otasi Raxmonqulibiy Andijon hokimi bo'lib, qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi. Umarxon Marg'ilonga hokim etib tayinlagandan keyin Nodiraga uylangan. Nodiraning o'zbek va tojik tillarda ijod qilgan. Uning she'nyati asosini lirika tashkil etadi. She'rida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda sharq xotinqizlarining dard-alamlari, ox-fig'onlari kuylanadi. Bundan tashqari Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muhammaslar yozgan.

**Boboraxim Mashrab** - (1640-1711 yy) u Namanganda tug'ilgan, 7 yoshligida xat-savodi chiqqan. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ifmini egallay boshlagan. 18 yil mobaynida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan. U ruxoniylarning eshonlarning avom halq ruhini do'zax va ohiirat azoblari bilan daxshatga solayotganligini, aslida, bu dunyoning azob-uqubatlari do'zoh azobu-uqubatlaridan kam emasligini ularga qarata baralla ayta olgan jasoratli inson ham edi. Ana shu jasorati uchun Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711 yili g'animlari ig'vosi bilan Balx hokimi Maxmudbiy qatag'on tomonidan o'limga hukm etiladi.

Abdukarim **Faziliy Namongoniy** - amir Umarxonning topshirig'iga binoan «Shohnoma» masnaviysini yozib tugatgan. U 5000 bayonatdan iborat tarixiy manzuma, yana «Majmuai shoiron» tazqirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo qalandar Mushrif bilan «Shohnomai Umarxon» tarixiy asarini yozgan. Avaz Muhammad Atton Qo'qondiy 1822-yili «Tarixi Jahonnumai» asarini yozgan. Amir Umarxon davrning ko'zga ko'ringan tarixchisi Muhammad Xakimxon to'ra ibn Sayid Ma'sumxon (1802-1870 y ) dir. U ona tomonidan qo'qon xoni Norbutabekning nabirasi Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab, Rossiyaga Sharq mamlakatlariга sayohat qilishga majbur bo'lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o'zining «Muxtaxab uttavorix» asarini yozdi.

Bu davrda xonlikda Norbutabiy madrasasi, Muhammad Alixon madrasasi, madrasayi Kalon qozi, madrasai Tunqator, Madrasai Moxlaroyim, madrasai Haqquli Mingboshi, madrasai Mityon Xazrat, madrasai Xakim To'ra, Madrasai Xonxoja eshon, Madrasai Buzruqxo'ja, madrasai Pirmuhammad Yasovul, Madrasai Xojabek, madrasai Oxund devonbegi Jome', madrasai Norbutabiy shular jumlasidandir.

Umuman, Qo'qon xonligida ham O'rta Osiyo mintaqasiga xos bo'lgan yer egaligi bilan birga hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan. Barcha yirik



hunarmandchilik turlari, to'qimachilik, kulolchilik, temirchilik, miskarlik, duradgorlik va boshqalar ancha rivojlangan. Qo'qon o'z temirchilari, misgarlari, Chust do'ppido'zlari, Rishton kulolchilik mahsulotlari, Marg'ilon ipak va shoyi buyumlari bilan shuhrat topgan bo'lib, xonlikdagi yuqori sifati hunarmandchilik buyumlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. O'rta Osiyo xonliklaridagi moliya mahkamasi, ya'ni o'z mamlakati mehnatkashlarini talash mahkamasi soliq yig'uvchi-larning ko'p sonli shtatlariga ega edi. Rossiyaga qo'shilishga qadar bu yerda soliq undirishning arxaiik usullari va dehqonlarni iqtisodiy majbur qilishning og'ir usullari saqlanib qolgan.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Muhammad Shayboniyxon, Movoraunnahr, Bobur, «Boburnoma» asari, Xuroson, Shayboniyalar sulolasi, sulton, bek, amaldor, Abdullaxon, Ashtarxoniylar (joniylar) sulolasi, mang'itlar, amirlik, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Elbarsxon, qo'ng'irotlar, minglar, Shohruhbiy, Qo'qon xonligi, soliqlar.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. Temuriylar davlatining inqirozi, Movoraunnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi.
2. Boburning davlat arbobi, olim sifatida jahon tarixidagi o'rni. «Boburnoma» asarining ahamiyati.
3. Shayboniylar sulolasining boshqaruv tizimi.
4. Xiva xonligida yer egaligi va soliq tizimi.
5. Buxoro xonligining tashkil topishi.
6. Buxoro xonligida Ashtarxoniylar (joniylar) sulolasining o'rnatilishi.
7. Ashtarxoniylar sulolasi davrida ijtimoiy-siyosiy hayot, soliq tizimi.

### **Nazorat savollari**

1. Movoraunnahr va Xurosonning shayboniylar tomonidan bosib olinishi va Temuriylar davlatining inqirozining bosh sablari nimada?
2. Buxoroda hokimiyatning mang'itlar qo'liga o'tishi va xonlikning amirlik deb atalishining boisi nima?
3. Xiva xonligining tashkil topishi xususida gapiring.
4. XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligining tashkil topishi xususida nimalarni bilasiz?
5. Xonliklarda yer egaligi va soliqlar tizimi haqida gapiring.
6. XVI-XIX asrlarda xonliklardagi ijtimoiy-siyosiy ahvol qanday edi?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma - Toshkent: Ma'naviyat, 2019. - 312 b.

2. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarining tarixi. T.: 2001
3. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar. T., «Sharq» 1999.
4. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. T.: «Sharq», 1998y.
5. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq», 2000 y.
6. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. // Mas'ul muharrirlar D.A. Alimova, E.V. Rtveladze. T., 2001.
7. O'zbekiston tarixi. «Darslik» // Mas'ul muharrir t.f.d R.X. Murtazaeva. T., 2005 y.
8. Oblomurodov N. Hazaratqulov A, Tolipov F va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T., 2011.
9. Usmonov Q, Sodiqov M, Burhonova S. O'zbekiston tarixi : oliy o'quv. yurt. (tarix yo'nal. tashqari) bakal. uchun darslik / O'zR OO'MTV. - 2-nchi qayta ishlangan nashri. - Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2016. - 496 b.

**8-mavzu. O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy - ozodlik harakati. Jadidchilik.**

**1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati**

**2. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi**

**3. Rossiya imperiyasi tajovuziga qarshi Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari**

**4. O'lkada jadidchilik harakati va milliy uyg'onishning shakllanishi.**

### **1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati.**

Rossiya imperiyasining Turkistonda mustamlakachilik idora usulini joriy etishga intilishi bir muncha oldinroq boshlangan edi. Hatto Rossiya podshosi Pyotr I davridayoq «Sharqni egalla» siyosati yuritib kelindi. Shu maqsadda o'lkani Rossiya imperiyasi tobeligiga qaratish maqsadida katta harbiy ekspeditsiyalar uyushtirilgan edi. 1715-yilda sharqiy o'lkaning chegaralarida Buxgols rahbarligidagi, 1716-1717 yillarda Xiva xonligiga Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida harbiy ekspeditsiyalar tajovuzkorona harakatlar natijasi edi. 1721-1724 yillarda Florio-Beneveni boshliq elchilar Buxoroda josuslik faoliyatini yuritdilar XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg'izlarning Kichik Juz, O'rta Juz, Katta Juz hududlarini o'zilariga bo'ysundirib olgan edi. XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ikki davlat bir- biridan yashirin ravishda O'rta Osiyoga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar bilan til topish yo'llarini qidirar edilar.

Chor hukumatining Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo'lgan Angliya hukumati Rossiya rejalarini barbod qilish choralarini ko'rar edi. **Ost-Indiya** kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlari to'plash maqsadida yuborilgan ye.K Meyendorf 1824- yildayoq Buxoroda bo'lgan, ammo maqsadiga erisha olmay halok bo'lgan edi. 1831-1833 yillarda mazkur kompaniya leytenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga sayyoh sifatida keladi. Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qilarg edi.

XIX asr 30 - yillaridan boshlab O'rta Osiyo xonliklariga o'z elchilari va missionlarini yubora boshlaydi. A. Berns, Stoddart, Konnolini, Abbot kabi bir qancha ingliz missionerlari XIX asrning 30-50 yillari davomida bir necha bor o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun kelgan bo'lsalarda, ularning hammasi o'z maqsadlariga yeta olmadilar.

XIX asr o'rtalariga kelib, Rossiya va Angliya o'rtasidagi raqobat va keskinlik chuqurlashdi. 1856-yil 19 martda har ikki davlat o'zaro keskinlikni

yumshatish maqsadida bitim imzolaydi. Biroq bu bitim ham vaziyatning yumshashiga ta'sir ko'rsata olmadi. 1858 -yil mart oyida Angliya parlamenti Hindistonda mustamlaka siyosatini amalga oshirish va Turkiston xonliklari bilan savdo aloqalarini kengaytirish ko'zda tutuvchi qarori va mahsus qo'mita tashkil etdi. Bu esa rus hukumatining qattiq tashvishga soldi va o'zbek xonliklarini bosib olish masalasini kun tartibidagi birinchi o'ringa olib chiqdi. Dastlabki harbiy harakatlar qo'qon xonligiga qarshi qaratildi.

Rossiya imperiyasining keyingi yillaridagi olib borgan tashqi siyosati Angliya bilan keskin vaziyatning yuzaga kelishiga olib keldi. Har ikki davlat ham yuz berishi muqarrar bo'lgan harbiy to'qnashuvning oldini olib, 1869-yilda muzokaralar o'tkazdi. Bu muzokaralar ikki davlat o'rtasidagi betaraf hududni aniqlab berishi lozim edi. Biroq Rossiya hukumati Angliyaning betaraf hudud Afg'oniston va O'rta Osiyo bo'lishi kerak degan talabiga qarshi chiqib, betaraf hudud Afg'oniston bo'lishi, O'rta Osiyo esa Rossiya imperiyasi ta'sir doirasida bo'lishi kerak degan siyosatni ilgari surdi.

Yuqorida qayd qilinganidek, **1841-1842 yillarda Angliya hukumati** mayor Konnolinini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yuboradi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchala xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar. Biroq ularning rasmiy hujjatlari bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlaydi. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida mayor Volf Buxoroga yuboriladi, ammo uning 1843-1845 yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmadi, zindondagilar qatl etiladi, Volfning o'zi qochib qutiladi. 1843-yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlari yo'lida ishlagani ma'lum.

Xonliklarning shimoliy-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori graf **V.A.Perovskiy** katta qo'shin bilan hujumga tayyor turar edi. U 1834-yilda Kaspiy dengizi qirg'og'idagi Mang'ishloqda harbiy istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovska deb nomi beriladi. 1845 yilda Orenburg va Yoyiq, 1847-yilda Sirdaryoning Orol dengiziga qo'yilish joyida Raim harbiy istehkomlari quriladi.

Bu davrda shuningdek, O'rta Osiyo xonliklarining chet ellar bilan savdo diplomatik aloqalari ham mavjud bo'lgan. Masalan, xonliklarda xonij fuqarolarning o'tishi uchun maxsus karvonsaroylar, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi chorsular, savdo rastalari, tim va toqlar barpo etilgan. Bu yerda ko'plab usti yopiq bozorlar va bojxon markazlari mavjud bo'lgan. Ayniqsa, Abdullaxon Timi (ustu yopiq bozor) anchagina mashhur bo'lgan. Savdo yo'llarida tuya karvonlari to'xtatilib, savdogarlardan ma'lum to'lovlarni amalga oshirish uchun karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar qurilgan.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham o'z davrida Rossiya hukmdori Ivan Grozniy bilan elchilar almashib diplomatik va savdo aloqalarini yo'lga qo'yadi. Moskvadan morj tishlari, ko'n, ov qushlari, oshlangan teri, asal, mum, yog'och idishlar, oyna, baxmal keltirilgan, harbiy qurol, metallardan tayyorlangan

buyumlar, sovut xarid qilingan. Turkistondan Rossiya va Sibirga ipak, paxta va ulardan to'qilgan gazmollar, qorako'l teri, gilam, quruq meva, attorlik mollari chiqarilgan.

Toshkentdan charmdan ishlangan buyumlar, ot terisidan baland egarlar, o'qdonlar, chodirlar, choponlar, joynamozlar, yelkapo'shlar, kamonlar, qog'ozlar, g'alla sotilgan. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga kelib o'lkadagi ipak yo'li markazlarida Rossiyadan kelayotgan savdogarlardan boj-xiroj undirilmagan. Qo'qon xonligida savdo karvonlaridan viloyat hokimlarining davlatning maxsus chegara o'tish joylari (ipak yo'li)da turgan mas'ul shaxslar boj undirganlar. Masalan, chet eldan kelgan savdo karvonlari bir marta umumiy narxda 2,5 foiz soliq to'laganlar. Yahudiy va xristianlarga tegishli tovarlardan esa 5% zakot olingan.

Yevropa va sharqda o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman savdogarlari "**musulmon savdogarlari**" deb atalgan. Ular ayni vaqtda musulmon madaniyatini tarqatuvchilar ham edi. Ya'ni O'rta Osiyo va Rossiya orasida savdo aloqalari ancha kuchayadi. Bu paytda Rossiyadan O'rta Osiyoga esa ingliz movuti, mo'yna, teri, yog'och idishlar, igna, har xil to'g'nog'ichlar keltirilgan. Ikki tomonlama mol ayirboshlash har ikki tomon uchun ahamiyatga ega edi. Buxoro va Xiva bilan savdo aloqalarining o'rnatilishi Rossiya hududlariga bo'lishi mumkin bo'lgan tajovuzlardan saqlashni bilan birga, O'rta Osiyo shaharlarida savdogarlardan olinadigan boj soliqlari va mablag'lari boshqa hududlardagiga qaraganda ancha arzon bo'lgan. Ikkinchidan, Rossiya hukumati Buxoro va Xiva xonligiga kelgusida Hindistonga o'tadigan arzon ipak yo'li punktlariga ega maxsus tranzit yo'li sifatida qaray boshlagan.

XVIII asr 30-40 yillarida Rossiyaning janubga ilk yurishlari amalga oshirila boshlanganligi tarixdan ayon. Jumladan, 1731-1740 yillar davomida Kichik va Katta qozoq juzlarining Rossiya tobeligiga o'tishi Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoning ichki hududlariga bostirib kirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirdi. Yuqoridagi hududlarni qo'lga kiritganlaridan so'ng, Rossiya davlati chegaralari bevosita o'zbek xonliklari chegaralari bilan tutashib qolgan edi. Biroq Rossiyaning Yevropada yuzaga kelgan siyosiy vaziyat va tashqi davlatlari bilan harbiy harakatlarning olib borilishi O'rta Osiyo xonliklariga qarshi qaratilgan harbiy harakatlarini yana bir asr kechiktirishga majbur qildi. Bu davr mobaynida bosib olingan hududlarda erkparvar qozoq sultonlari ozodlik kurashlari olib boradi.

Bu qo'zg'olonlarni bostirish uchun minglab qurolli kuchlarga ega bo'lgan general Obruchev, polkovnik Lebedev, Dushikovskiy, podpolkovnik Gorskiylar hych qanday natijaga erisha olmadilar. Bunda xulosa chiqargan rus hukumati bepjyon qozoq dashtlarida ko'plab harbiy qal'alar va istehkomlar ko'rishga kirishdi. Natija XIX asr o'rtalariga kelib Qozog'iston hududlarida 60 ga yaqin harbiy va 100 dan ortiq kichikroq istehkomlar barpo etildi. Bu ishlarning hammasi kelgusida o'zbek xonliklariga qarshi kurashga puxta tayyorgarlik ko'rilganligini bildirar edi. Chor Rossiyasining xonlikarga qarshi harbiy yurishlardan

dastlabkilaridan biri 1839 yilda Xiva xonligiga qarshi Orenburg general gubernatori **graf Perovskiy** tomonidan amalga oshirildi. 1839 - yil 16 fevralda tasdiqlangan rejaga ko'ra Xivagacha bo'lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o'tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligiga duch keldi va 1045 kishi o'ldirildi, 609 kishi yarador bo'ldi. Harbiy yurish esa to'laligicha mag'lubiyatga uchradi.

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini egallash uchun o'zining diplomatik, iqtisodiy mustamlakachilik niyatlarini amalga oshirishga kirishadi. Buning uchun birinchi navbatda Rossiya gubernyalaridagi sanoat korxonalarini muntazam ravishda xom ashyo bilan ta'minlab turuvchi temir yo'llar qurilishi mo'ljallanadi. O'rta Osiyoda temir yo'llar qurilgandan so'ng ularda yo'lovchilar tashilmaganligi bois, poezdlar orqali yuk tashish ancha arzon hamda ulardan hych qanday boj olinmaganligi ma'lum.

#### **4. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi.**

Ma'lumki, 1839-1840 yillarda graf Perovskiy boshchiligidagi Xiva xonligiga harbiy yurishlar muvaffaqiyatsizlikka uchragan edi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmi davomida rus hukumati Pyotr I orzularini amalga oshirish yo'lida uning vasiyatlarini bajarib, Qipchoq dashtlarini o'ziga bo'ysundirdi va u yerda harbiy istehkomlar bunyod etdi. Bu davrda Rossiya uchun sanoatni rivojlantirish, uni xom-ashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun yangi bozorlar izlash kechiktirib bo'lmas vazifa edi.

Agar graf Perovskiy yurishlariga to'xtaladigan bo'lsak, shu yili 16 fevralda tasdiqlangan rejaga ko'ra, Xivagacha bo'lgan 1300 chaqirim masofa uch oy ichida bosib o'tilishi lozim edi. 5333 kishilik armiya mahalliy aholining kuchli qarshiligiga duch keldi va 1045 kishi o'ldirildi, 609 kishi yarador bo'ldi. Harbiy yurish esa to'laligicha mag'lubiyatga uchradi. Keyingi yillarda ruslar xonliklar bilan chegaralarda kichik-kichik harbiy to'qnashuvlar bilan cheklangan bo'lsalarda, bu hududlarda o'z harbiy imkoniyatlarini kengaytirish va endi qo'qon xonligiga qarshi harbiy harakatlarni boshlashni maqsad qilib qo'ygan edilar.

Albatta, XIX asrning 50 - yillariga kelib Rossiya mohiyatiga ko'ra adolatsiz va bosqinchilik xususiyatiga ega bo'lgan mustamlakachilik yurishlarini Qo'qon xonligiga qarshi faollashtirib yubordi va xonlikka qarshi rosmana urush harakatlarini boshlab yubordi. Deyarli o'rta asrlarga xos qurollanishga ega bo'lgan qo'qon xonligi zamonaviy quro-yarog'larga ega bo'lgan va Yevropadagi urushlarda katta tajriba orttirgan dahshatli dushmanga qarshi urushga kirdi. Bu vaqtga kelib qozog'iston hududlarini egallab olgan Rossiya imperiyasi harbiy qo'shinlari qo'qon xonligi hududlariga ikki yo'nalishda Orenburg harbiy okrugi va /arbiy Sibir harbiy okrugi tomonidan harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

1851-1852 yillarda polkovnik Karabashev boshchiligidagi harbiy otryad Ili daryosidan kechib o'tib, To'ychibek qal'asini bosib oldi, Orenburg yo'nalishida

mayor Engman Yoqubbek Badavlat boshchilik qilgan Qo'qon xonligi sarbozlarini mag'lubiyatga uchratdi va yordamga yetib kelgan polkovnik Blaramberg otryadlari yordamida Qushqo'rg'on, Chimqo'rg'on va Kumushqo'rg'on istehkomlarini qo'lga kiritib, vayron qildi.

1852 yilda xonlikning **Oqmachit** qal'asiga qilingan dastlabki hujumda mag'lubiyatga uchragan rus qo'shinlari 1853 yilda general-ad'yutant Perovskiy rahbarligida Oqmachitga ikkinchi marta hujum qildi. Shiddatli o'tgan janglardan so'ng Oqmachit qal'asi bosib olindi va unga "**Perovskiy forti**" deb nom berildi. 1854-1855 yillarda ham shiddatli janglar bo'lib o'tadi. Bu janglarda Sulton Kenasarining o'g'li Sulton Sodiq katta jonbozlik ko'rsatib, ruslarga qarshi qaqshatqich zarbalar beradi. Biroq yordamga yetib kelgan general Kolpaokvskiy boshchiligidagi rus qo'shinlari hujumi natijasida Vatan himoyachilari mag'lubiyatga uchraydi. Shu vaqtda Ili vodiysini egallab olgan ruslar avvalgi Olma-Ota o'rmasida **Verniy** istehkomini ko'rtdilar. 1858-1860 yillar davomida podpolkovnik Peremilskiy, polkovnik Simmerman boshchiligidagi otryadlar **To'qmoq va Pishpek** qal'alarini bosib oldi va vayron qildi.

1861-yil podsho Aleksandr II ishtirok etgan saroy kengashida Qo'qon xonligiga qarshi hujum harakatlarini kuchaytirish va uning ichkari hududlarga kirish masalalari ko'rib chiqildi. Xonlikni bosib olish uchun yanada ko'proq harbiy kuchlar safarbar etiladi. Natijada shu yilning o'zidayoq Oqsuv, Pishak, Choldevor qal'alari ruslar tomonidan bosib olinadi.

Xonlikning ichkari hududlariga suqulib kirayotgan rus mustamlakachilari oldida Avliyo ota, Turkiston, Chimkent, Toshkent kabi qudratli harbiy kuchga va muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar turardi.

Shu maqsadda maxsus belgilangan reja asosida Rossiya qo'shinlarining hujumi endi Qo'qon xonligiga qaratiladi. Zamonaviy qurollar bilan to'la ta'minlangan 2 mingdan ortiq rus qo'shini mag'lubiyatga uchragan general Perovskiy boshchiligidagi **1853-yil yozda Oqmachit qal'asiga** hujum qiladi. Oddiy qurollar bilan qurollangan 400 ga yaqin qal'a himoyachilari 20 kun davomida dushman hujumini qaytarib, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik timsoli bo'lib tarixga kirgan edilar. Aynan shu paytda ya'ni 1853-1856 yillardagi Qrim urushi sabablari Rossiya O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini to'xtatishga majbur bo'ladi. Qo'qon xonligidagi faol harakatlar 1860 yil yozidagina qayta tashkil qilinadi.

Shu tariqa 1860-yilda zamonaviy harbiy texnika bilan qurollangan chor qo'shinlari Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni bosib oladilar. Perovskiy va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda Rossiyaning O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi. Turkistonni bosib olish masalasi podsho Aleksandr II tomonidan 1859- va 1861- yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokama qilinadi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqlik qilish, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi.

Angliya Rossiyaning harbiy kuch bilan O'rta Osiyoni egallashga qaratilgan harakatlarini to'xtatib qola olmadi. Shu maqsadda 1864- yil may oyida Qo'qon

xonligi hududiga Sharq tomondan polkovnik Chernyaev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, G'arbdan polkovnik Verevkin qo'shinlari bostirib kiradi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari Avliyoota, So'zak, Turkiston shaharlari egallanadi. **Bosqinchlar 1864- yil 14 iyulda Chimkentga yurish boshlaydilar.** Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida uch kun davomida qattiq janglar bo'lib o'tdi. Jangda Mulla Aliquli qo'shinlari g'olib chiqadi, Chernyaev qo'shinlari orqaga chekinishga majbur bo'ladi.

Mulla Aliquli o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi to'g'risida xabar olinadi. Mulla Aliquli o'z qo'shinlari bilan Qo'qon himoyasiga otlanishiga majbur bo'ladi. Vaziyat Chernyaevga qo'l keladi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shib, 1864 yil 14 sentyabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtiradi va shaharni bosib oladilar. Chernyaev **1864-yil 2 oktyabr kuni Toshkentga hujum boshlaydi.**

1860-1864 yillarda Pishpak, To'qmoq, Avliyo-ota, Turkiston, Chimkent shaharlari va ular atrofidagi qishloqlarni bosib oladilar. Bu janglarda ko'ngilli himoyachilar, Qo'qon xonligi sarkardasi mulla Alimqul va boshqalar o'z qahramonliklari bilan vatanparvarlik namunalarni ko'rsatadilar.

Manbalarda keltirilishicha, 1864-yilning kuzida Qo'qonga qaytgan **Aliquli (Amirlashkar)** oktyabrda general Chernyaevning Toshkentga hujum qilganligi haqidagi habar Qo'qonga yetib borishi bilanoq, 10 ming kishilik qo'shin bilan Toshkent mudofaasiga otlanadi. Bu vaqtda esa toshkentliklar ruslarga qattiq zarba berib, ularni Chimkentga qochishga majbur qiladi. Toshkentga yetib kelgan Aliquli Amirlashkar bu yerda bir muncha vaqt bo'lib, Toshkent qal'asini mustahkamlash va ta'mirlash ishlarini amalga oshiradi. 4-6 dekabr kunlari esa ruslarni g'aftarda qoldirib, 10 ming kishilik qo'shin bilan bu vaqt ruslar qo'lida bo'lgan Turkistonga yurish qilib, yuz boshi Serov boshchiligidagi otryadni mag'lubiyatga uchratadi.

Aliqulining bu yurishi rus generallari tomonidan urushlar davridagi eng ajoyib harbiy san'at sifatida e'tirof etilgan edi. Keyingi oylarda Amirlashkar tashqi siyosat va elchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lib turgan vaqtda rus harbiylari Toshkentni bosib olishga tayyorgarlik qurayotgan edilar. Avvalgi mag'lubiyatdan alamzada bo'lgan rus generali M.G.Chernyaev 1865-yilning aprelida Toshkent bekligiga qarshili va shaharni suv bilan ta'minlovchi **Niyozbek** qal'asiga hujum qiladi. Ruslar bilan hozirgi Qibray tumanidagi Do'rmon, Uymovut atroflarida bo'lib o'tgan qisqa to'qnashuvlardan so'ng Niyozbek qal'asi bosib olinadi. Bu voqeya 29 aprelda sodir bo'lgan va bunda shaharlik ayrim xoin kimsalar ruslarga yordam ko'rsatgan edilar.

Bosqinchilar shaharga kiradigan suvni Chirchiq daryosiga burib yuboradilar. Bu habar qo'qonga yetishi bilanoq Aliquli Amirlashkar barcha harbiy kuchlarni olib Toshkent mudofaasiga otlanadi. U Toshkentning Mingo'rlik mavzesiga 8 may kechasi yetib keladi va ortiqcha tayyorgarliklarsiz 9 may erta tongdanoq



ruslarga qarshi janglarni boshlab yuboradi. Salor arig'i atroflarida bo'lib o'tgan jangda mudofaachilar dastlab ruslarga qattiq zarba berib ularni chekinishga majbur qiladilar, kunning o'rtalariga yaqin ruslar zambaraklardan o'q otib jangni boshlaydilar. Aliquli ham keyingi yillarda takomillashtirilgan xonlik zambaraklarining ruslarga qarshi o'q otishlarini shaxsan o'zi boshqarib boradi. Shu vaqtda uning yaqinida ruslarning zambarak snaryadi portlaydi va Amirlashkar og'ir yarador bo'ladi. Kunning ikkinchi yarmida u vafot etadi va bundan habardor bo'lgan fitnachi qirg'iz va qipchoq sarbozlari jang maydonini tashlab ketadilar.

Mudofaa ishlarining butun og'irligi shahar aholisi ustiga tushadi. Shahar ulamolarning say-harakatlari bilan Buxoro amridan so'ralishi ham natijasiz tugaydi. Shaharliklar bosqinchilarga qarshi qattiq kurash olib boradilar. Biroq kuchlarning teng emasligi, oziq-ovqat va suvsizlik, qurol-yarog'larning kamligi mudofaachilarning mag'lubiyatiga sabab bo'ladi. Imperiya vakillari **1865-yilning 16-17 iyun kunlari** shiddatli janglar qilib, Toshkent shahrini to'liq bosib oladilar.

Toshkent uchun bo'lgan janglardan so'ng 1865-yili bosib olingan hududlarda Turkiston viloyati tashkil qilinadi, 1867- yil iyul oyida **Turkiston general gubernatorligi** tashkil etiladi. Markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyati, markazi Verniy bo'lgan Yettisuv viloyatlari general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi. General-gubernator va okrug qo'mondoni etib general-ad'yutant **K.P. fon Kaufman** tayinlanadi. Unga biror davlatga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan, shu boisdan u «yarim podsho» deb atalgan.

Toshkent bosib olingach, general Chernchev Buxoro amirligiga qarashli Jizzax qal'asiga yurish qildi. Jizzax himoyachilari rus qo'shinlariga qarshi qattiq zarba berib ularni mag'lubiyatga uchratdi. 1866 yil yanvarda ro'y bergan bu voqeyadan so'ng general Chernyaev harbiy harakatlar olib borish ta'qiqlab qo'yildi. Shunga qaramay Jizzaxdagi mag'lubiyatdan so'ng Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasidagi ziddiyatlar keskinlashib ketdi.

General Chernyaev o'miga tayinlangan yangi qo'mondon F.I. Romanovskiy amirlikka qarshi harbiy harakatlarni davom ettirdi va 1866-yil 8 mayda Erjar yaqinida Amir Muzaffar qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. U keyingi yurishlarini Xo'jandga qaratib, 17-24 may kunlari bo'lib o'tgan janglardan so'ng qal'ani bosib oldi. Shu yilning 2 oktyabrda O'ratepa bosib olindi. 11 oktyabrda esa ruslar Jizzaxni qamal qiladilar. Jizzahliklar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashib, dastlabki janglarda ruslarga zarba berdilar. Shiddatli janglar va 5 kunlik qamaldan so'ng Jizzax qal'asi 18 oktyabr kuni bosqinchilar tomonidan egallandi. 1867- yilning 27 may kuni esa qattiq janglardan so'ng Yangiqo'rg'on qal'asini bosib olindi.

Rus hukumati bosib olingan joylarda mustamlakachilik boshqaruvini joriy qilish va bosib olingan yerlarda Rossiya imperiyasi hokimiyatini mustahkamlash

maqsadida qo'qon xonligi va Buxoro amirligidan tortib olingan yerlarni Rossiya mulki deb e'lon qildi.

General-gubernatorlikning markazi etib Toshkent shahri belgilandi. Jizzaxning bosib olinishi va Erjar yonidagi mag'lubiyat amir Muzaffarxonning K.P. Fon Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzish fikriga olib keldi va u Kaufmanga sulh shartnomasi imzolashni taklif qildi. Biroq, Kaufman amir Muzaffar oldiga og'ir shartlarni qo'ygach, sulhdan umidini uzgan amir Muzaffar Turkiya sultoni Abdulazizxonga, Afg'oniston amiri Sheralixonga va Turkmanlarga o'z elchilarini yuborib, Rossiyaga qarshi kurashda harbiy madad so'radi. Biroq bu elchiliklar ijobiy natijaga erisha olmadilar.

Fon Kaufman Buxoro amiriga qarshi harbiy harakatlarni davom ettirib 1868 - yil 1 may kuni Samarqandga qarshi kurash boshladi. Amirlik Rossiya imperiyasi harbiy qo'shinlari o'rtasidagi jang Samarqand yonidagi Cho'ponota tepaligida bo'lib o'tdi. qattiq va shiddatli tarzda kechgan harbiy to'qnashuvdan so'ng, 2 may kuni Samarqandda shahri ruslar tomonidan bosib olindi.

Shu tariqa Turkistonning yirik shaharlari Rossiya imperiyasi qo'liga o'atdi. Turkiston General gubernatorligi dastlab ikkita viloyat (**Yettisuv va Sirdaryo**) dan iborat bo'lgan. Keyinchalik **Farg'ona (1876), Samarqand (1868 y) va Kaspiyorti** viloyatlari (1881 yy) ham tashkil etiladi. Gubernatorlikning markazi Toshkent shahri edi. Turkiston general gubernatori podsho tomonidan tayinlanib unga o'lka boshqaruvida mutlaq hokimiyat vakolatlari berilgan bo'lib, mahalliy aholi uni "yarim podsho" deb atardi.

1886-yil 12 iyulda imperator Aleksandr III tasdiqlagan Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi yangi Nizomga ko'ra o'lka boshqaruvi to'rtta asosiy bo'limgan tarkib topgan edi (ma'muriy tuzilish, sud tuzilishi, yer tuzilishi, soliqlar va yig'implar). Turkiston General gubernatorligi Rossiyada podsho hokimiyati ag'darilguniga qadar amalda bo'ldi. Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng uning o'mida 1918-yil aprel oyida RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (TASR)tashkil etiladi.

Rossiya imperiyasining Turkiston xonliklariga yurishi dastlab Buxor amirligiga qaratiladi. Buxoro amiri Muzaffarning ko'rgan tadbirlariga, xalqning qahramonona qarshiliklariga qaramasdan **1868-yil** may-iyun oylarida **Zirabuloq**da bir necha bor to'qnashadilar. Amir qo'shinlari tor-mor etiladi. Bu orada istilochilarga qarshi Samarqandda qo'zg'olon ko'tariladi. Shaxrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27 may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qiladilar. Jang 8 kun davom etadi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldiriladi va yarador qilinadi.

**1868 yil 23 iyunda** Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh shartnomasi imzolanadi. Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatiga aylantiriladi. Sulhga binoan

Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi imperiyasi tarkibiga kiritiladi. Amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon to'lash, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oladi. Rossiya hukumati o'zining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakati bilan G'arb mamlakatlari jumladan, Angliya bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik tadbirlarini ham ko'radi.

Xiva xonligiga qarshi harbiy harakatlar 1873 yil bahorida boshlandi. Bu yurishda ishtirok etayotgan barcha harbiy kuchlarning bosh qo'mondoni etib general-gubernator Fon Kaufman belgilandi. Bu harbiy harakatlarda ishtirok etayotgan Orenburg harbiy okrugi qo'shinlariga general Verevkin, Mingqishloq otryadiga polkovnik Lomakinlar boshchilik qilishdi. "Orol" flotiliyasiga qarashli "Samarqand", "Perovskiy" kemalari va uchta barchja ham yurishlarda ishtirok etdi. General Kaufman urush harakatlarini boshlar ekan bunga bahona qilib Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan xonlik hududlarda mavjud ruslardan iborat quhlarni ozod qilmasligini ko'rsatadi.

Ruslarning hujumi haqida habar eshittish bilanoq xon amaldorlar bilan mashvarat o'tkazadi va Kaufmaning yo'lini to'sish uchun Matmurod devonbegini qo'shin bilan jo'natadi. qo'ng'iroq yo'nalishi bo'yicha hujum qilayotgan general Verevkinga qarshi esa E'tuzar inoq jo'natiladi.

Xiva xonligi sarbozlari va ruslar o'rtasida dastlabki to'qnashuv 10-11 may kunlari Uchuchoq yaqinida bo'lib o'tadi va devonbegi qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi. 18 mayda esa Kaufman qo'shinlari Amudaryodan kechib o'tadi. Bosqinchilar hujumini kuchaytirib borib, 23 may kuni Xazorasp qal'asini egallab oladilar. qattiq janglardan so'ng birin-ketin qo'ng'iroq, Xo'jayli va boshqa qal'alar bosib olinadi. 1873- yil 29 may kuni esa xonlik poytaxti Xiva shahri ham ruslarga taslim bo'ladi. Bu vaqtda mag'lubiyatga uchrayotganligini payqagan Muhammad Rahimxon II Izmiqshur tarafga qochib ketgan edi. Xonning nomidan muzokaralar olib bormoqchi bo'lgan Otajon to'ra va Amir to'ralarni Kaufman qaytaradi va faqatgina xon bilan muzokaralar olib bormoqchi ekanligini bildiradi. Bu erada xon saroyi talon-taroj qilinib, ko'plab qimmatbaho boyliklar, nodir qo'lyozmalar imperiya markaziga jo'natiladi.

**Gandimiyon shartnomasi** deb nom olgan bu hujjatga asosan Xiva xonligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylantiriladi va xon huzurida saroy amaldorlari va rus qo'mondonlaridan iborat kengash (devon) tuziladi. Bu devon Xiva xonligining barcha sohalari faoliyatini kuzatib borishi va nazorat qilishi lozim edi.

Shuningdek, shartnomaga ko'ra Xiva xoni siyosiy huquqlaridan va tashqi mustaqil siyosat yuritishdan mahrum etildi, quyi Amudaryoning o'ng sohilidagi yerlar Rossiya mulki deb e'lon qilindi va bu yerda Rossiyaga qarashli Amudaryo bo'limi tashkil etildi. Xonlikka 2 million 200 ming so'm miqdorda tovon puli to'lash yuklatildi. Shu tariqa Xiva xonligi ham Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi siyosati yo'lida bo'ysundirildi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon bosqinchilarga qarshi o'z qo'shinlarining bir qismini Muhammadmurod devonbegi boshchiligida Chorjo'y tomonga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'iro't tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazaraspga, Inoqbek boshchiligidagi qismini Xo'jayliga safarbar etadi. Xon Rossiya imperiyasi qo'shirlariga bas kelolmasligini anglab yetgan edi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ladi. 1873 yil 18 may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazaraspni egallaydilar, Qo'ng'iro't va Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etiladi.

Shu tariqa **1873 yil** 12 avgustda Xivaga yaqin **Gandimiyon** qishlog'ida Kaufman bilan Muhammad Rahimxon o'rtasida shartnoma imzolanadi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantiriladi. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritiladi, xonlikka oltin hisobida 2 million 200 ming so'm tovon to'lash majburiyati yuklatiladi. Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida bojsiz savdo qilish, xonlik hududida yer olish, sanoat korxonalarini qurish xuquqini oladilar. Xon o'zini Rossiya podshohining itoatkor xizmatkori, deb tan olishga majbur bo'ladi.

Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqtda Qo'qon xonligida hokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868-yil 13 fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdogarlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hechqanday moneliksiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Rossiya imperiyasi Buxoro va Xiva xonliklariga qarshi urush olib borayotgan yillari Qo'qon xonligida chuqur siyosiy va iqtisodiy inqiroz hukm surmoqda edi. Bu vaqtda xonlik yerlarining yarmi rus davlati tomonidan bosib olingan edi.

Xonlikning hududi asosan Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, Xudoyorxonning so'nggi hukmronlik yillari (1865-1875 yy) edi. Xudoyorxonning qattiq zulmi, og'ir iqtisodiy hayot hamda uni Rossiyaning itoatli xizmatkoriga aylanishi xalq g'azabini qo'zg'atadi. Xonga qarshi xalq bilan birgalikda saroy harbiylari va amaldorlari, ruhoniy va savdo vakillari ham bosh ko'tardi. Bunda o'zbeklar, qirg'izlar va tojiklar faol qatnashib Xudoyorxon va rus davlatining tajovuziga qarshi kurashadilar.

1873-yilda Farg'ona vodiysida **Xudoyorxon**ga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Qo'zg'olonchilarning bir qismiga qirg'iz mulla Is'hoq Hasan o'g'li boshchilik qiladi. U Qo'qon xoni Olimxonning nevarasi Po'latxon deb e'lon qilinadi va u Namanganga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlaydi. Ayni paytda xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari **Nasriddinbek va Muhammad Aminbek**, Sherali dodxoh, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'taradilar. Ular bir tomondan, Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxon va qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qo'zg'olonchi kuchlarga ergashadi.

Qo'zg'olonchilar 1875 yil 9 oktyabrda Qo'qonni egallaydilar. Xudoyorxon ularni bostirishga o'jizlik qilib, 1875-yil 22 iyulda Qo'qondan Toshkentga qochib ketadi. Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi qimmatbaho boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi.

1873-1876 yillardagi Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar xalqning ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qo'zg'oloni deb e'tirof etgan edi. **1876-yil fevralida** Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoni bilan Qo'qon xonligi tugatiladi, uning o'rnida **Farg'ona viloyati** tuzilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi. Viloyatga M.D.Skobelev harbiy gubernator etib tayinlanadi.

**Boshqaruv, moliya va soliq tizimi.** Vaholanki, o'lkaning ma'muriy bo'linishiga e'tibor qaratsa, 1886 yilda qabul qilingan «Turkiston general-gubernatorligini boshqarish to'g'risida» gi Nizomga muvofiq uning tarkibida uездlar, volostlar, qishloq oqsoqolliklari va ovul jamoalari faoliyat yuritgan. XIX asr 80 - yillari oxirida Gubernatorlik tarkibida 5 ta viloyat, 23 ta uезд, ularning tarkibida volostlar mavjud bo'lgan. Umuman, XX asming birinchi choragiga kelib, Turkiston general-gubernatorligi beshta - **Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand, Yettisuv, Kaspiyorti viloyatlariga** viloyatlar uездlarga, uездlar bo'lislarga, bo'lislar uchastkalarga bo'linib boshqarilgan.

Ayniqsa tarixan shakllangan yer egaligi munosabatlari bilan birga, mustamlaka boshqaruv tizimining, o'lka iqtisodiyotiga faol aralashuvning shakllangani o'lkaning ijtimoiy iqtisodiy hayotidagi stabiy o'zgarishlardan biri bo'ldi. Bu shubhasiz imperiyaning o'lkadagi daromad va foyda olish manbalari, turlari hamda ularning shakllariga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Bunday siyosat o'z o'rnida Rossiya imperiyasining ko'chirish siyosatida ham o'z aksini topdi.

Chor hukumatining «Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan yerlardan» foydalanish borasida yaratgan imkoniyatidan foydalangan kam yerli yoki ersiz rus xonadonlari, kazaklar ma'muriyatning ijzatisiz Turkistonga boyish maqsadida oqib kela boshladi. Shu tariqa, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 1910-yilga kelib har birida 20 tadan 50 tagacha oila bo'lgan 124 ta rus qishlog'i vujudga keladi. Ushbu oilalarda 70 mingga yaqin ko'chib kelganlar yashardi. Ko'chib kelganlar mahalliy aholiga qarashli sersuv va hosildor erlarni ham egallay boshlaydilar, er-suv masalasida ular o'rtasida norozilik, to'qnashuvlar bo'ladi.

Shu narsa alohida xarakterliki, ko'chirib ketirilgan oilalar asta sekinlik bilan oshib borgan, Xususan, XIX asr oxiriga kelib o'lkada ruslarning umumiy aholi tarkibidagi salmog'i 1.9% ni tashkil qilgan bo'lsa, keyinchalik Markaziy Rossiyadan o'lkaga doimiy yashash uchun kelayotganlar soni ko'paya boshlaydi. Shu boisdan Turkiston shaharlarida Yevropaliklar yashovchi shahar kvartallari va qishloqlari tashkil etiladi. Jumladan, 1875-yildan to 1890-yilgacha Turkistonga **1300 oila ko'chib kelib, 19 ta rus qishlog'i** vujudga keladi. 1891-1892-yillarda Rossiyada ocharchilik kuchaygan vaqtda Turkistonda bu qishloqlar soni 25 taga yetadi. 1906-yilga kelib o'lkada 266 000 ruslar ro'yxatga olingan, ya'ni ular

umumiy aholining 4,5 % ni tashkil qilganlar. Chorizm har qanday yo'l bilan bo'lsa ham mahalliy oilalarga mansub unumdor yerlarni rus oilalariga ajratib berishga harakat qilgan va yer soliqlarini oshirib, mahalliy oilalarni o'z yerlarini sotishga majbur etgan.

Bunday «bo'sh turgan yerlar», birinchi navbatda, harbiy xizmatdan bo'shagan askarlarga, Rossiyadan ko'chirib kelayotgan rus oilalarga beriladi. Ana shunday o'troq rayonlardan tortib olingan yerlar Sirdaryo viloyatida 47600 tanob, Farg'ona viloyatida 75000 tanob, Samarqand viloyatida 3000 ming tanob, Kaspiyorti viloyatida 7000 tanobni tashkil etgan. Chor Rossiyasining O'rta Osiyoni zabt etishi o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va uning xarakterini tubdan o'zgarishiga olib keldi. Ayniqsa tarixan shakllangan yer egaligi munosabatlari bilan birga, mustamlaka boshqaruv tizimining, o'lka iqtisodiyotiga faol aralashuvning shakllangani shubhasiz. Bu daromad va foyda olish manbalari, turlari hamda ularning shakllariga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Bu o'z o'mida mahalliy oilalarga qo'shimcha yuk bo'lganligi shubhasiz.

Rossiyaning Markaziy qismi, Povolje, Ural, Volgabo'yi hudularidan Yevropalik oilalarning yoppasiga ko'chishi asosan 1906-1910 yillarda o'tkazilgan Stolypin agrar reformasi hamda 1891-92-yillardagi, 1912, 1914 yillardagi ocharchilik va qurg'oqchiliklar davrida ham kuchaygan. Garchand o'lkada alohida rus qishloqlari va shaharlarda dahalar tashkil topgan bo'lsada, ko'chirib keltirilgan aholining bir qismi qishloqlarga ham joylashtirilgan. Birgina Farg'ona oblastida 1907 yilda 24 346 ta sharqiy slavyan millatiga mansub aholi yashagan bo'lsa, shaharlarda ularning soni 14 722 ta bo'lgan, Toshkent uezdining o'zida 1917 yilga kelib 28 ta rus qishloqlari mavjud bo'lgan. Aholining yana talay qismi Semirechinsk va Sirdaryo oblastlari qishloqlariga joylashtirilgan, 1913 yilga kelib Sirdaryo oblastida ularning soni taxminan 161 861 tani tashkil qilgan.

Turkiston boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy omillari va jadal siyosiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ayniqsa o'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng sotsialistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tartib-qoidalariga mos jamiyat yaratish boshlab yuboriladi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab davlatning Turkiston xalqlari yaratgan boyliklarini metropoliya manfaatlari uchun foydalanishning muhim vositalaridan biri bo'lib keldi.

Turkistonda imperiya hukumati soliq tizimini nazorat qilish uchun bir qancha islohotlarni amalga oshirdi va bir qancha moliyaviy tuzilmalarni shakllantirdi. Ular qat'iy asosda markaz nazorati ostida bo'lgan. O'lkada Rossiya imperiyasi hukmronligi yillarida bevosita, soliqlar va moliya masalalarini nazorat qiluvchi maxsus uyushmalar faoliyat yuritgan bo'lib, bular Moliya vazirligi va Davlat Nazorat kengashi hisoblanib, ularga **Davlat Nazorat palatasi va Davlat Xazina palatasiga** bo'ysungan. Davlat Nazorat va Xazina palatasining asosiy vazifasi, davlat byudjetini shakllantirish, xazinaga tushadigan soliqlar, tushumlar va boshqa mablag'larni va ulardan foydalanishni nazorat qilish bo'lib, ular bo'yicha cheklanmagan vakolatlar berilgan.

Davlat Nazorat Palatasi ma'muriy, byudjet va taftishga oid vazifalarni bajargan. U Toshkentda Turkiston Xazina palatasi va Moliya vazirligining maxsus ko'rsatmasiga binoan tuzilgan. Palata tarkibida devonxonona, xazina va taftish bo'limlari faoliyat ko'rsatgan. Uning tarkibida joylardagi 12 ta mahalliy xazina boshqarmalari faoliyat ko'rsatgan. Uning raisi soliq va tushumlar, daromad va xarajatlarga oid u yoki bu masalalarni hal etishda ishtirok etish orqali Turkiston general-gubernatorligining kengashi a'zoligiga to'g'ridan-to'g'ri a'zo bo'lgan. Ayrim hollarda mazkur tuzilmaning markaziy ijroiya organi Omsk va Kaspiyorti viloyatlari Xazina palatalari bilan birgalikda ish olib borganlar.

Soliqlarning davlat byudjetiga tushishi, avvalambor joylarda, ya'ni uezdlarda faoliyat ko'rsatgan xazina palatasining ish faoliyat bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Uezd boshqarmalari har oyda ikki-uch marta tegishli tushumlar, yig'imlar, kirim-chiqimlarga oid ma'lumotlarni Xazina palatasiga yuborib turganlar. Mahalliy boshqarmalardan tushgan barcha kirimlar, yig'imlar va tushumlar hujjatlar asosida umumlashtirilib, Nazorat palatasiga u orqali Moliya vazirligiga yuborib turilgan.

## **5. Rossiya imperiyasi tajovuziga qarshi Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.**

Tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida Rossiya imperiyasi qo'shinlarining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi bilan, unga qarshi xalq ozodlik harakatlari boshlanganligi va bu chor hukumatining ag'darilishiga, qolaversa mustaqillikka erishganimizga qadar davom etganligi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar asosida O'rta Osiyo xalqlarining chorizmga qarshi olib borgan quyidagi eng yirik va ommaviy tus olgan kurashlarini qayd qilishimiz mumkin:

1837-1846 yillarda Sulton Kenesarin rahbarligidagi, keyinchalik Buxoro amirligining, Shahrisabz bekligidagi harakatlar, 1871 yilda Eshon Eshmuhammad boshchiligida Sirdaryo viloyatidagi chiqishlar; 1871-yildagi Farg'onada Yetimxon qo'zgoloni; 1872 yilda Chirchiqdagi isyonlar, 1873-76 yillar Qo'qondagi Pulatxon qo'zg'oloni; 1892 yildagi Toshkent qo'zgoloni, 1898 yildagi; Andijonda Dukchi Eshon qo'zgoloni; 1899 yildagi Sirdaryo viloyatidagi harakatlar, 1916 - yildagi Jizzax qo'zg'olon va boshqalar.

XIX asr 70-yillar boshlaridagi Farg'onadagi xalq harakatlarini alohida qayd etish lozim. 1868 yilda Kaufman bilan sulh shartnomasi tuzib, Qo'qon xonligining katta hududlarini Rossiya ixtiyoriga bergan va Rossiya hukmronligini tan olgan Xudoyorxon siyosatidan nafaqat oddiy xalq, balki yirik yer egalari ham norozi edilar. Qo'qon xonligida elchi va josus vazifasini bajargan polkovnik Shaufus ma'lumotlariga qaraganda norozi beklar tepasida Abdurahmon oftobachi turgan.

1872- yilda xon siyosatiga qarshi xalq harakati ayniqsa kuchaydi. Bundan foydalangan Abdurahmon oftobachi o'z tanishi mulla Is'hoq qirg'izlar orasida **Polatxon** nomi bilan qo'zg'olon ko'tarishga undaydi va o'zi ham bu harakatga qo'shiladi. 1873-yilda boshlangan bu qo'zg'olonda oddiy xalq, dehqonlar,

hunarmandlar faol ishtirok etdilar va bu harakat butun Farg'ona vodiysi bo'ylab yoyildi. Xudoyorxonning o'g'li Nasriddinbek boshchiligidagi xon qo'shinlari ham qo'zg'olonchilarni qo'llab-quvvatladilar. Bu voqyeadan qo'rqib ketgan Xudoyorxon rus hokimiyatidan boshpana so'rab, Toshkentga qochdi. Qo'qon taxtiga uning o'g'li **Nasriddinbek** xon qilib ko'tarildi.

Qo'zg'olonchilar kelishuviga binoan esa Po'latxon xon etib saylanishi kerak edi. Nasriddinbekning xonlikka ko'tarilishi va uning ham ruslar bilan kelishuv siyosatini olib borishi, kuzgonlochilar o'rtasida norozilik keltirib chiqardi. Natijada Marg'ilon, Namangan, Andijon hududlarida Po'latxon tarafdorlari yerlarni kambag'allarga bo'lib berib, xon siyosatiga qarshi chiqdilar. Qo'qon xonligining ruslarga qarashli bo'lgan yerlarida ham norozilik chiqishlari avj ola boshladi. Bu rus hukumatini xavotirga solib qo'ydi va Kaufman Qo'qon xonligini tugatish to'g'risida podshonning roziligini so'rab, iltimosnoma jo'natdi. Qo'qon xonligi hududiga esa Skobelev boshchiligidagi harbiy jazo o'tryadi kiritildi. Bu vaqtda Nasriddinxon hokimiyatdan chetlashtirilib, vodiya Pulatxonning mavqeyi oshib ketgan edi.

Harbiy jihatdan ustun bo'lgan rus qo'shinlari kuzgolonchi-larni tezda maglubiyatga uchratdi. Po'latxon qo'shinlari harakatining ikkinchi bosqichi 1875-yili Ohangaron, Telov, Pskent va Toshkentda bo'lib o'tgan harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu harakatlarda qattiq zarbaga uchragan kuzgolonchilar 1876 yili Andijonda, Oloy vodiysida kurashni davom ettirdilar. Ammo harbiy jihatdan kuchlar teng emas edi. 1876-yil 1 martda Pulatxon tutib olinib Marg'ildonda osib o'ldirildi. Boshqa kuzgolonchilar ham qattiq jazolandi. Podshoning buyrug'i bilan Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati tashkil etilgan edi.

Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan 70-80-yillardagi xalq harakatlarida qurbonjon do'xoh, yetimxon, Darvishxon to'ra, Yoqubbek boshchiligidagi kuzgolonchlarni alohida qayd qilishimiz zarur. **Qurbonjon do'xoh** rus qo'shinlariga qarshi kurashda sharq ayollarining qahramonligini, jasoratini namoyon etdi. Manbalarning ma'lumot berishicha, general Skobelev sulh tuzish uchun mayor Ivonovni Qurbonjon do'xoh huzuriga jo'natadi. Ammo Qurbonjon do'xoh mayorni qabul qilmay faqat o'z mavqeyi bilan teng bo'lgan sarkarda bilangina muzokaralar olib borishi mumkinligini bildiradi. Chorasiz qolgan rus generali Skobelev u bilan sulh tuzishga va uni «**Oloy malikasi**», deb tan olishga majbur bo'ldi. Qurbonjon do'xohning nabiralari 1898 yilgi milliy ozodlik qo'zg'olonida ham faol qatnashganlar Rus amaldorlari doimo Oloy malikasidan hayqiqishgan. Shuning uchun gubernatorlar uning oldiga tez-tez kelib turishgan. 1901-yilda Rossiya imperiyasi Qurbonjonga maxsus sovg'ani topshirgan. Qurbonjon do'xoh 1907 yilda 96 yoshida vafot etgan.

O'rta Osiyo xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida Yoqubbek va u boshqargan yettishahar ham muhim o'rin egallaydi. Chunki ular Qo'qon, Buxoro, Xiva vatanparvarlarining rus bosqinchilariga qarshi kurashlarida yordam berib turishgan. Shu sababli Turkistondagi so'nggi mustaqil davlatni tugatish Rossiya uchun kechiktirilmas vazifa bo'lib qoldi. 1877 yil 22 iyunda rus



qo'shinlarining bostirib kirishi shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan edi. Amir Yoqubbekning to'satdan vafot etishi uning qo'shinining mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi. Oqmachit, Chimkent, Toshkent mudofaalarini tashkil qilishda jonbozlik ko'rsatgan Yoqubbek Turkiston ozodligi uchun kurash yo'lida jon baxshida etgan qahramonlarimizdan biridir.

1878- yili Mingtepada chorizmning siyosiy- iqtisodiy zulmiga qarshi yetimxon boshchiligidagi g'alayon ko'tarildi. Bunday g'alayon 1879- yilda Farg'ona viloyatida ham sodir bo'ldi. Bu qo'zg'olonlar kuch bilan bostirilsa ham aholining qahr-g'azabidan xavfsiragan Farg'ona viloyati gubernatori g'ayri-qonuniy soliq yig'uvchilarni ishdan olib tashlashga majbur bo'ldi.

1889-1890 yillarda Farg'ona vodiysi va Toshkent hududlarida ko'plab xalq harakatlari, qurolli to'qnashuvlar bo'lib o'tdi. Shulardan biri Darveshxon qo'zg'olonidir. Audijon uzdining Qo'rg'ontepa vilostida yuqori tabaqaga mansub bo'lgan vatanparvar Darveshxon qo'shin to'plashga kirishdi. U mustamlakachilik tuzumiga qarshi ochiqdan-ochiq qurolli kuzgolonga tayyorgarlik ko'rdi, ammo Farg'ona viloyati harbiy mamurlari katta kuch yuborib Darveshxon kuchlarini tor-mor etdi, uning yordamchisi Mo'minboy ushlab olinib, dorga osildi.

1892-yilgi qo'zg'olon ko'plab tarixiy adabiyotlarda rus hukumatini o'lkaning bir qancha shaharlarida vabo kasali tarqalishining oldini olish uchun Toshkent shahrida ko'rilgan chora-tadbirlariga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon, deb ta'riflangan bo'lsa-da, aslida bu qo'zg'olon Rossiya imperiyasining o'lkada ko'p yillar davomida olib borgan mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan edi.

Ushbu isyon **1892 yil 24 iyunda** Toshkentda boshlangan qo'zg'olon bo'lib, 7 iyunda Toshkentda vabo bilan kasallanish qayd etilgach, epidemiyaning oldini olish maqsadida mustamlakachi mamurlar shaharga kirishni cheklab qo'yadilar. Vafot etganlarni tibbiyot xodimi ko'zdan kechirgandan so'ng maxsus mozorga ko'mish to'g'risida buyruq chiqariladi. Biroq shifokor feldsherlar yetishmasligi tufayli keltirilgan o'liklar uch-to'rt kunlab tekshirilmay qolib ketdi, xalq esa o'z ajali bilan o'lganlarni yashirincha o'zlarining qabristoniga ko'ma boshlaydi. Bundan xabar topgan shahar mamurlari o'liklarni go'rlaridan oldirishni buyuradilar. Bu esa mahalliy xalqning keskin noroziligiga sabab bo'ladi.

Norozilik harakati dastlab aholining boy-badavlat zodagonlariga qarshi, hokimiyatni suiiste'mol qilish bilan tanilgan shahar bosh oqsoqoliga qarshi namoyish tarzida tinch holatda bo'lgan. Namoyish ruslarga qarshi qaratilmagan bo'lib, birorta rus idorasi, rus do'koniga bostirib kiritilmagan, birorta ham rus kishisi aziyat chekmagan. Namoyishchilarga qarshi shahar boshlig'i polkovnik Putinsevning kuch ishlatish to'g'risidagi buyrug'idan keyin qo'zg'olon tusini olib, uning devonini tor-mor etishadi va o'zini kaltaklashadi. Qo'zg'olonni bostirish uchun kazaklar polki va bir to'da askar chaqirildi. Ular qurolsiz olomonga o'q uzib, qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar.

Rus hukumatining vaboni oldini olish uchun ko'rgan chora-tadbirlari davomida mahalliy aholining diniy e'tiqodlari, urf-odatlari hisobga olinmaganligi

natijasida sabr kosasi to'lgan xalq ommasining noroziligi kuchaydi. Natijada bu quzg'olonda Toshkent shahri aholisining barcha qatlamlari ishtirok etdi. Bu qo'zg'olon, tezda imperiya askarlari tomonidan bostirilib, quzg'olonchilardan 8 kishi dorga osib o'ldirilishga, 15 kishini 2 yil muddat bilan mahbuslar rotasiga yuborilishiga, 2 kishini olti oydan qamoq jazosini o'tashga hukm qilishdi. Lekin Rossiya imperiyasi dunyo matbuotchilari oldida bu jazolar shov-shuvga sabab bo'lishidan chuchib, o'lim jazoni umrbod surgun bilan almashtirdi. Bu qo'zg'olon Toshkent shahrining o'zida yuz bergan bo'lsa-da, uning aks sadosi butun Turkiston o'lkasi bo'ylab tarqaldi.

1898-yil Andijonda Muhammad Ali (1846-1898) **Dukchi Eshon** boshchiligida Farg'ona vodiysida chor mustamlakachilariga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakati ko'tariladi. Aslida Muhammad Ali yoshligida Buxoro va Samarqandda yirik eshonlar xizmatida bo'lib, diniy bilimlarni o'zlashtirdi. 1882-yilda Sultonxon To'ra eshon o'limidan so'ng, marhumning vasiyati bilan uning o'rniga Muhammad Ali eshon etib tayinlanadi. 1887-1893-yillarda Makkayu madinaga borib haj qiladi. Qaytishida Eron, Hindiston, Afg'oniston va Rossiyaning qator shaharlarida bo'lib, zamonaviy bilimlar va Yevropa fan-texnikasi yutuqlaridan habardor bo'ladi.

Muhammad Ali ota kasbi yirikchilik, ya'ni dukchilik bilan mashg'ul bo'lgan, shuning uchun ham uni Dukchi eshon deb atashgan (duk-eski davrlarda paxta yoki jundan ip yigiradigan moslamaning, ya'ni charchaning ip o'ralib boradigan qismini). Eshonning yaxshi fe'l atvori, kamtarona turmush tarzi, boy hayotiy tajribasi va keng dunyoqarashi uning muhlislari sonini tobora oshirib bordi. U yashab turgan Mingtepa qishlog'i tezda ko'plarning qutlug' ziyoratgohiga aylandi.

Chor mustamlakachilarining zulmi ortib borar ekan Dukchi Eshon uyida Farg'ona vodiysining turli burchaklaridan kelgan vakillar ishtirokida maxsus kengash o'tkazilib, unda qo'zg'olon masalasi muhokama qilanadi va Muhammad Alining unga rahbar bo'lishi kelishiladi. U qo'zg'olonga hali fursat yetmaganligini tushuntirsa-da, chorizm zulmidan norozi xalq g'azab-ehTROSga berilib, stixiyali tarzda **1898-yil 17 mayda** ochiq kurashni boshlaydi. Qo'zg'olonchilar Andijondagi rus gomizoniga hujum qilib, 22 nafar soldatni o'ldiradilar, ko'plarini yarador qiladilar. Lekin kuch mustamlakachilar tomonidan bo'lganligi uchun qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchraydilar. 546 kishi qamoqqa olinadi. Shulardan 18 kishi, shu jumladan Dukchi Eshon osib o'ldiriladi, 15 kishi surgunga, 147 kishi 20 yil, qolganlari 4 yildan 15 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinadilar.

Ayniqsa qo'zg'olon olib borish usullaridan bexabarlik, o'zaro birlikning yo'qligi, uyushmaganlik, qurol-aslaha va moddiy bazaning yetishmasligi kuzg'olonning tezda mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'ldi, ayniqsa qo'zg'olonning kelishilgan muddatdan oldin boshlanishi, harakat mag'lubiyatining asosiy sabablaridan biri bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilib, uning rahbarlari **qattiq jazolandi**. Qo'zg'olon natijasida Farg'ona viloyatida va butun Turkiston general-gubernatorligida harbiy politsiya rejimi kuchaytirildi.

Manbalarda qayd etilishicha, qo'zg'olonchilar soni 500 ga yaqin bo'lgan. Dukchi eshon o'lkadagi mustamlaka siyosatiga qarshi aholini birlashtirishga harakat qildi. Qo'zg'olon stixiyali tarzda boshlanadi. 1898 yil 17 may kuni eshon boshliq qo'zg'olonchilar Qutchi, Qoraqo'rg'on va Oqchi, Qo'yli qishloqlariga kirib borishib, ularning soni tobora ortib borgan. Qo'zg'olonchilar Andijonga kirganlarida ularning soni taxminan 2000 kishiga yetadi. Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradilar va kazarmadagi multiqlarni qo'lga kiritib, harbiy qismdagilarni o'qa tutadilar. Yuqorida qayd qilinganidek, tezda harbiy garnizon shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradilar.

**1916 yil 25 iyunda** qabul qilingan podsho farmoni chorizm mustamlaka siyosatining mudhish natijalaridan biri bo'ldi. «Chekka o'lka xalqlari»ni armiyaga olib, qo'llariga qurol berish loyihasidan xavfga tushgan chor hukumati, buning o'miga ularni qonli, adolatsiz jahon urushi ehtiyojlarini qoplash uchun front orqasidagi og'ir ishlarga majburan safarbar qildi. Bu farmonning mazmuni mahalliy aholi o'rtasida «oq podsho urushga odam olarmish» yoki «urushga mardikor olinarmish», degan gaplar tarqalishiga sabab bo'ldi.

Farmonga muvofiq, «chekka o'lka xalqlari» ning 19 dan 43 yoshgacha bo'lgan erkak aholisi safarbar qilinishi mo'ljallandi. Shuning uchun bu tadbiming yerli xalqlar uchun naqadar mashaqqat ekani ko'rinib turibdi. Safarbarlik yozda, qishloq xo'jalik ishlari ayni qizigan paytda o'tkazilishi lozimligini hisobga olsak, mehnatkashlar ommasi juda og'ir ahvolga tushganligini payqash qiyin emas.

Farmonga ko'ra, Sirdaryo viloyatidan 87 ming, Samarqand viloyatidan 38 ming, Farg'ona viloyatidan 50 ming mardikor yuborish belgilandi va bu vazifalarni zudlik bilan amalga oshirish Turkiston general gubernatori zimmasiga yuklatildi. Viloyatlarda darhol farmonni ijro etishga kirishildi. Farg'ona viloyati harbiy gubernatori A. Gippius Farg'ona viloyatidagi sharoitni hisobga olib, bu farmonni birdaniga bajarish noto'g'ri ekanligi haqida hokimiyatni ogohlantiradi. Biroq u farmonni ijro etishni ataylab buzganlikda ayblab ishdan olib tashlashdi va uning o'miga shovinist harbiylaridan biri polkovnik P. Ivanov tayinlanadi. Mardikorlikka olishga qarshi o'lkaning turli hududlarida qo'zg'olonlar boshlanib ketadi.

Noroziлик harakatlari dastlab aholi zich joylashgan markazlaridan biri **Xo'janda** boshlanadi. 1916-yilning 4 iyul kuni 6000 dan ortiq erkaklar va ayollar ma'muriyatga qarshi ochiqdan-ochiq mardikorlikka farzandlarimizni bermaymiz, deb qo'zg'olon ko'tardilar. qo'zg'olon harbiylar tomonidan bostirildi va namoyishchilar o'qqa tutildi. Xuddi shunday harakat Samarqand viloyatining Urgut tumanida 5 iyul kuni bo'lib o'tdi. Mardikorlar ro'yxati yo'q qilindi, mahkama hizmatchilari kaltaklandi.

Mardikorlikka olish ishlariga qarshi bo'lgan va faqatgina kambag'allarning bolalari ro'yxatga kiritilganidan norozi bo'lgan Toshkent aholisi ham 11 iyulda ma'muriyatga qarshi norozilik namoyishi va qo'zg'olon boshladi. G'azablangan halq politsiyachilar va kazaklarga qarshi chinakam urush boshlab yubordilar.

Oqibatda, chor askarlari politsiya boshqarmasi ichiga kirib yashirinib olishga majbur bo'ldi. qo'zg'olon kechgacha davom etdi va general Galkin hamda podpolkovnik Savitskiylar boshchiligidagi jazo otryadlari tomonidan bostirildi.

Butun o'lkada chorizm siyosatiga qarshi qo'zg'olonlar kuchayib bordi. 9 iyul kuni Andijonda, Toshkent shahri atrofidagi bir qator qishloqlarda 10 iyul kuni eski Marg'ulonda, Shahrixon va boshqa joylarda dehqonlar va hunarmandlar, kosiblار va boshqalarining chiqishlari umumhaliq qo'zg'oloni va kurashiga aylanib ketdi.

Mardikorlikka qarshi olib borilgan norozilik harakatlarining asoiy markazi **Jizzax shahri** edi. Jizzahliklar dushmanga qarshi g'azovot e'lon qildilar. Qo'zg'olonga **Nazirxo'ja** eshon va **Abdurahmon jevachi** boshchilik qildilar. Qo'zg'olon 13 iyulda shahar oqsoqolining o'ldirilishi bilan boshlandi. Halq mingboshi mahkamasiga bostirib kirganda, jazo uchun yetib kelgan otryadlar qo'zg'olonchilarni o'qqa tuta boshladi. Biroq qo'zg'olonchilar chor askarlariga zarba berib, Fukin va uning yordamchilarini o'ldirishga muvaffaq bo'ldilar.

Yordamga yetib kelgan polkovnik Afanasevning jazo otryadi ham Yangi Jizzax stansiyasida turib qolishga majbur etildi. Atrofdagi qishloqlardan kelayotgan halq qo'zg'olonchilar safini kengaytirdi. qo'zg'olonchilar temir yo'l stansiyalari, ulardagi neft zaharlari, aloqa simlarini vayron qildilar va yo'q qildilar. Afanasev qo'shinlari o'z marraalaridan chekina boshladilar.

1916 yil 14 iyulda qo'zg'olon **Bog'don, Forish, Sintob** bekliklariga ham tarqaldi. Bog'dondagi qo'zg'olonga rahbarlik qilgan Abdurahmon jevachi Jizzahliklar bilan qo'shilishga qaror qildi. Biroq bu paytda Jizzaxga Toshkentdan 2,5 ming kishilik jazo otryadlari to'p va boshqa qurollar bilan birgalikda kelayotgan edi. Nazirxo'ja eshon boshchiligidagi jizzahliklar jazo otryadlari tomonidan ayovsiz o'qqa tutildi va ulardan omon qolgan 600 kishilik guruh Abdurahmon jevachi kushinlari safilariga qo'shildi.

Abdurahmon devachi 20-21 iyul kunlari Afanasev qo'shinlariga zarba berib, uni chekinishga majbur qildi va mag'lubiyatga uchratayotgan vaqtda polkovnik Ivanov otryadlari yordamga yetib keldi va qo'zg'olonchilarga zarba berdi. Qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchratilgach, qo'zg'olon bo'lib o'tgan barcha shahar va qishloqlarda ayovsiz jazo ishlari, xunrezliklar amalga oshirildi. Abdurahmon jevachi va u bilan bir safda turib kurashgan 12 kishi osib o'ldirildi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa ham, chor harbiylaridan kattagina qismi Jizzaxda o'lim topdi. Qo'zg'olon davomida rus harbiylaridan 260 ga yaqin, rus aholisidan esa 4000 ga yaqin kishi o'ldirildi va bedarak yo'qoldi.

Imperiya mamurlari Turkiston o'lkasining yerli aholisini yanada iskanjaga olib, urush ehtiyojlari uchun bu yerdan mumkin qadar ko'proq foyda undirishga qaratilgan qattiqqo'l siyosat o'tkazdilar. Bu esa mahalliy mehnatkashlarning hukmron tuzumga nisbatan g'azab va nafratini oshirib yuboradi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol.** Agar raqamlarga murojaat qilinsa, o'sha davrda mahalliy aholi ahvoli yanada og'irlasha boshlagan. Masalan, ma'lumotlarga ko'ra, "Turkistonda yig'iladigan yer solig'i 1914 yildagi 6859021 so'mdan 1916 yilda

14311 771 so'mga yetdi, ya'ni 2 barobarga ortadi. Hunarmandlardan olinadigan soliq esa 1, 149676 so'mdan 2, 839 240 so'mga ko'payadi. Urush paytida chor xukumati bir temir yo'l stansiyalari va pristanlarida oldisotdi qilinadigan bir pud paxta tolasiga 2 so'm 50 tiyin miqdorida qo'shimcha soliq belgilagan. Bu avvalombor dehqonlarga yanada ko'proq kulfat keltirdi.

Urush davrida aholidan turli hil yig'imlar to'plash kuchayadi. Masalan, 1916 yilda Namangan uezdi aholisidan majburiyat tariqasida 3360 ot va 119640 so'm pul, Skobelev (Frg'ona aholisidan yesa 4325 ta ot, 200 o'tov, 178656 so'm pul olingan. Farg'ona oblasti aholisidan urush yehtiyoblari uchun qo'shimcha ravishda 302545 so'm soliq to'plangan. Umuman, rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1914-1916 yillarda Turkiston o'lkasidan "urush ehtiyoblari uchun" 70 ming ot, 13441 o'tov, 30 ming metr namat, 300 ming tonna go'sht, 3 mln. pud paxta moyi, 12 ming tuya va boshqa narsalar musodara qilingan edi. Chor mamlurlari tashabbusi bilan 1915 yilda paxtaning bir pudiga to'lanadigan o'rtacha bozor narxi sun'iy ravishda 30 so'mdan 24 so'mga tushirilgandi. Bu o'zbek dehqonlarining moddiy axvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Buning natijasida mahalliy aholi o'rtasida norozilik ortib, turli korxonalar ishchilarining ish tashlashlari sodir bo'la brshlaydi. Masalan, 1915- 1916 yillarda Chelekan neft konlari xodimlari va Andijon paxta zavodi ishchilari hamda 1916-yilda **Toshkent** va **Qizil Arvat** temir yo'l parovoz-remont korxonalari xizmatchilarining ko'targan stachka harakatlari o'lkada inqilobiy jarayon chuqurlashib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Ayniqsa Turkiston Rossiyaning markazi bilan temir yo'l orqali bog'langach, rus kapitali (sarmoyalari) o'lkaga oqib kela boshladi. Turkiston xom ashyo bazasida savdo-sanoat yuritish, zavod-fabrikalar qurishga intiluvchilarga Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki, Rossiya davlat banki pul qarz berib turar edi. Natijada bir qator zavodlar, savdo shoxobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi. 1913 yilda tuzilgan «Beshbosh» degan paxta-yog' shirkati Turkistonda 29 ta paxta zavodi qurdi, o'lkada yetishtirilgan paxtaning 30 foizini xarid qilardi, 80 ming tonna paxta tolasini tashib ketar, 160 ming tonna chigit tayyorlardi. Katta sarmoyador **Vodyaevlar** Turkistonda «**Vodyaevlar- 200 savdo uyi**»ni tashkil etib, 30 ta paxta zavodi quriladi.

1912-yilda Farg'ona vodiysi ham Rossiya bilan temir yo'l orqali bog'lanadi. Mustamlaka Turkistonda temir yo'llarni qurib bitirilishi o'lkani Rossiya sanoatining g'ildiragiga yanada mahkamrok bog'laydi. O'lkaning xom ashyo yetkazib beruvchi manba sifatidagi o'mi mustaxkamlangach, bu yerga turli firma va birjalar kirib kela boshladi va ular Turkistonning iqtisodiy hayotida jadallik bilan o'z ta'sirini kuchaytirib boradi. Ular o'lkadan xom ashyo olib ketish, Rossiyadan sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari olib kelib sotish bilan cheklanmay, sug'oriladigan yerlarni sotib olib paxta ekishni kengaytiradilar.

Paxtachilikning rivojlanishi bunday firma, birjalar, mahalliy sudxo'r va savdogarlar uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Ular asosan xom ashyo yetishtirish yo'liga o'ub olgan dehqonlarga kelasi yil oladigan hosili xisobidan

pul qarz berganlar. Dehqonlarning moddiy ahvoli og'irlashgan sari ularning hosildan tushgan daromadi qarzini to'lashga, yerga ishlov berishga, oilasiga oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga ham yetmagan, ikkinchi tomondan, katta yer maydonlari mahalliy boylar va sudxo'rlar qo'liga o'tib kera boshlagan.

Ayniqsa XIX asrning birinchi yarmi va o'lkada Rossiya imperiyasi bosqini arafasida va undan so'ng qishloq xo'jaligidan olinadigan daromadlar o'lkada xalq daromadlarining 65-70 foizdan ziyodrog'ini tashkil qilgan. Qolgan qismi ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlari - sanoat, hunarmandchilik korxonalari, savdo, transport va boshqa sohalarga to'g'ri kelib, ular ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash yoki unga xizmat ko'rsatishga asoslangan edi.

Ayniqsa XX asr boshlariga kelib, Turkiston ijtimoiy, iqtisodiy xo'jalik, moliyaviy hamda siyosiy hayotida tubdan o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bunday o'zgarishlar ayniqsa o'lkaning siyosiy, xo'jalik, moliyaviy tizimidagi o'zgarishla bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Ayniqsa o'lkada sovet hokimiyati o'matilgandan so'ng sotsialistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tartib-qoidalariga mos jamiyat yaratish boshlab yuborilgan edi. Bunday o'zgarishlar 1914 yil avgust oyida boshlangan birinchi jahon urushi aholining hayotini misli ko'rilmagan darajada yomonlashtirib yubordi.

Bu birinchi navbatda, oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi va narxning ko'tarilishi, turli kasalliklarning avj olishi va zulmning tobora kuchayishiga olib keldi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, birinchi jahon urushi vaqtida go'shtning bir qadog'i 20 tiyindan 50 tiyinga, shakaming bir qadog'i 14-15 tiyindan 30-35 tiyinga, unning bir pudi 2 so'm 10 tiyindan 4 so'm 20 tiyinga ko'tarilgan. Sigir va qo'ylarning ham narxi oshgan. 50 so'mlik ot 100-200 so'mgacha sotilgan. Otlarning narxini oshirishga ularning frontga jo'natilishi sabab bo'lgan. Narxnavo tez-tez oshib borgan. Bir gazi 10-12 tiyin turgan chit 30-40 tiyingacha ko'tarilgan. Ko'rsatilgan narxlar oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha 80-100 foizga, gazlamalar esa 300-400 foizga qimmatlashgan.

O'rta Osiyo xalq xo'jaligining paxta monokulturasiga ixtisoslashishi ichki asosiy xo'jalik tarmoqlarini paxta bilan bog'lanib qolganligini anglatar edi. Rossiya imperiyasining kapitalistik sanoat mahsulotlari O'rta Osiyo bozorlarini egallay borishi bilan mahalliy hunarmandlar, to'qimachilar, ipakchilar, temirchilar va boshqalarning xo'jaliklari tushkunlikka uchradi. O'lkada paxta ekish ko'paytirilib, g'alla va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish kamayib ketadi. Rossiya imperiyasi to'qimachilik sanoatini arzon bahodagi Turkiston paxtasi ta'minlab keldi. Amerika Qo'shma Shtatlaridan tilla hisobiga paxta sotib olish cheklab qo'yildi.

Natijada Turkistonda don ekinlari maydonlari qisqartirilib, o'lkaga rus pomeschiklarining g'allalari keltirilib, yuqori narxda sotilar edi. Jumladan, 1914-yil oxirlarida **Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand** viloyatlarida 709 ta rus sanoat korxonasi mavjud bo'lib, ulardan 220 tasi paxta tozalash, 76 tasi ko'n-teri, 32 tasi pilla quritish zavodlaridan iborat edi. Bularning ko'pchiligi kichik va juda oddiy uskunalar bilan qurollangan, mavsumiy ishlaydigan korxonalar bo'lgan.

O'lkada sanoat asta-sekin rivojlanishi bilan milliy burjuaziya va ishchilar sinfi vujudga kela boshladi. Mahalliy xalq orasidan paxta tozalovchi, moy va ko'n-teri zavodlari xo'jayinlari yetishib chiqdi. Turkiston o'lkasidagi 220 ta paxta tozalash zavodidan 117 tasi, shu jumladan, Farg'ona, oblastida 94, Samarqandda 15 ta va Sirdaryo oblastida 8 ta zavod milliy burjua vakillari qaramog'ida edi, 75 ta ko'n-teri zavodidan 54 tasi, 34 sovun tayyorlash zavodidan 20 tasi ularniki edi. V. V. Zaorskaya va K.A. Aleksandring keltirgan ma'lumotlariga qaraganda, Turkistondagi hamma sanoat korxonalarida 20925 ishchi bo'lib, ulardan o'zbeklar 12702 kishi, tojiklar 1142, qirg'izlar va qozoqlar 944 kishi edi.

Mahalliy aholidan ishchi kadrlarning yetishib chiqishi katta voqeya bo'lganligi shubhasiz edi. Mahalliy ishchilar korxonalarda ishlash barobarida xo'jalik, ishlab chiqarish va ijtimoiy ehtiyojlar uchun to'lanadigan soliqlarni to'lashga majbur etilar edi. Shaharlarda sanoat korxonalari kam bo'lga-nidan ish topolmay, sargardon bo'lib yuruvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ular asosan mardikorlik bilan band bo'lar edilar. Qishloqlarda esa katta yer egalari yangi agrotexnikani joriy qilish uchun mablag' sarf qilishdan ko'ra chorikor va mardior-larning arzoniga tushadigan kuchidan foydalanishni afzal ko'rar edilar. Natijada yirik xo'jaliklar yerlarni bo'lib, chorikor dehqonlarga ijaraga berib, ulardan undirilgan yer rentasi hisobiga boyib borganlar.

Qishloq mehnatkashlarining ahvoli soliqlar va yig'im to'lovlar bilan yanada mushkullashgan. Soliqlar yildan-yilga ko'paya borgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida bunday soliqlar 1916 yilda 425 ming so'mga oshgan. Yana o'sha ma'lumotlarga ko'ra, ikki yil ichida qishloq soliqlarining ko'lami **Toshkent uezdida** 2 marta, **Qo'qonda** —2,5, **Jizzaxda** — **3**, **Xo'jand uezdida**—4 marta ko'paygan. Umumiy soliqlardan tashqari, dehqonlar ko'p xil qo'shimcha soliqlar to'lashi, har xil natural majburiyatlarni bajarishi (ariq qazishi, volostnoy, oqsoqollarga haq to'lashi va boshqalar) kerak edi.

Urush davrida dalalarga biron-bir ofat kelsa yoki tabiiy ofatlar sharoitida ham soliq to'lash oddiy xalq zimmasida edi, jumladan, ekinzorlarni yoppasiga bosgan turli hasharotlar, chigirtkalar bilan kurashish va xarajatlarni qoplash ham tub aholi zimmasiga yuklatilgan edi. O'lka bo'yicha bu mushkul ishga har yili 1.442.340 ish kuchi, Farg'ona viloyatida 229.784 ishchi kuchi safarbar qilingan. Xulosa qilib shuni qayd etish lozimki, birinchi jahon urushi Turkiston xo'jalik moliyaviy hayotiga salbiy ta'sir qildi. Ayniqsa o'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng sotsialistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tartib-qoidalariga mos jamiyat mezonlari o'lka xalqlari hayotini butunlay o'zgarishiga olib keldi.

#### **4. O'lkada jadidchilik harakati va milliy uyg'onishning kuchayishi**

Jadid (arabcha "jadid"—yangi)-yangilanish, yangi ma'nolarini anglatib, zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo'llari tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida turkiy musulmon o'lkalarida (Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy Ural

havzasi, Turkiston) shakllanib kelayotgan milliy burjuaziya muxitida vujudga kelgan. U o'sha davrdan Turkistondagi milliy-ozodlik xarakatining mafkurasi-Turkiston milliy mustakillik mafkurasi vazifasini bajardi.

O'sha davrda musulmonlar, qolaversa, turkiylar dunyosining jahon taraqqiyotidan uzilib qolganligini, buni G'oyat hafvli holga barham berish kerakligini hamda umumturkiy qavm, el-yurtlaridagi jaholatni yo'q qilib, ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlari tenglashish zarurligini birinchi bo'lib grim-tatar halqi farzandi Ismoil Gaspirinskiy (1851-1914 yy) tushunib yetdi.

U jadidchilik harakatining butun turk dunyosidagi «g'oyaviy otasi»dir. **Ismoil Gaspirinskiy (Ismoil G'aspirali)** ilmga qattiq berildi. Jahon madaniyati durdonalarini mashaqqat bilan o'rgandi. Natijada turli ilmlardan boxabar bo'ldi. Bir necha tillarni mukammal egalladi. Bu esa uning jahon ilm-fan yutuqlari bilan tanishuviga keng yo'l ochdi. Ana shu tufayli Ismoil Gaspirinskiy (Ismoil G'aspirali) Sharq bilan g'arb olamini taqqoslash va yakdil bir hulosaga kelish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Musulmon turkiy olamini jahon ma'rifati, ilm darajasiga ko'tarish G'oyasi unga kecha-kunduz tinchlik bermadi. Rossiyaga mustamlaka bo'lgan barcha musulmon hududlar maorifini mutlaqo isloh qilish, ularda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tardi. Maktab va madrasalarda diniy ta'limot, arab, fors va rus tillarini o'rganish bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, nabotot, nujum, handasa fanlarini o'qitish zarurligini ilgari surdi va uni amalga oshirishga kirishdi. U 1884 yilda frimdagı Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi. O'zi dastur tuzib darslik yozdi. Ana shu darslik yordamida 40 kun ichida 12 o'quvchini savodini chiqardi va bu usul «usuli savtin» - harf tovushi usuli, ya'ni «usuli jadid» nomi bilan tezda shuhrat topdi.

Ismoil Gaspirinskiyning g'oyalarini yoyishda «Tarjumon» gazetasi ning hizmati juda katta bo'ldi. 1888 yilda Ismoil Gaspirinskiyning «**Rahbari muallimin**» yoki **muallimlarga yo'ldosh** kitobining nashrdan chiqishi muhim voqeya bo'ldi. Unda jadid maktabining qurilishi, dars o'tish va tashkil qilish mazmuni, jihozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imuhonlar hammasi lo'nda va qiziqarli bayon etilgan edi. Shu tariqa jadidchilik maktabi yo'riqnomasining mukammal ishlab chiqishi ham Ismoil Gaspirinskiy zimmasiga tushdi.

1892-yilda Ismoil Gaspirinskiy musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini Turkiston general gubernatori Rozenbaxga yubordi. Turkiston hukmdori uni mutlaqo rad qildi. Undan javob ololmagach, Ismoil Gaspirinskiy 1893 yilda Turkistonga keldi. U Turkistonning yirik shaharlaridan birida bo'lib, taraqqiyparvar ziyolilar bilan uchrashuvlar o'tkazib, jadid maktablarining ahamiyatini yoritib berdi.

Hatto **Buxoro** amiri **Abdulahadni** o'z g'oyasini qabul qildirishga bir necha bor urinib ko'rdi. Amir buyuk mutafakkir maqsadini tushunishdan o'jiz mutaasib edi. Ismoil Gaspirinskiy so'ngra Samarqandga, undan Toshkentga keldi. Turkiston general gubernatorini amaldorlari uni dushmanlik nazari bilan kutib



oldilar. Chunki ularning Turkistondagi maorif siyosati halqni qorong'ulikda ushlab turishdan iborat edi.

1893-yil 8 iyunda u Buxoro amiri huzurida bo'ldi. Amir zo'rg'a bitta jadid maktabi ochilishiga rozi bo'ldi. Adolatli ko'z bilan qarab, umuman olganda, Ismoil Gaspirinskiyning musulmon turkiy dunyosi oldidagi xizmatlari buyukdir. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, u o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, yo'lida katta qarshiliklarga duch keldi va ko'p qiyinchiliklarni yengib o'tishga majbur bo'ldi. Lekin u oldiga qo'ygan maqsadlaridan qaytmadi va o'z niyatiga yetdi. Jadidchilik harakati nomiga sazovar bo'ldi va tarixda ulkan, o'chmas iz qoldirdi.

Ismoil Gaspirinskiy amir bilan murosa-madora qilib Buxoroda zo'rg'a yagona jadid maktabi ochgan bo'lsa-da, uning uchqunlari Turkiston hududlari bo'ylab sachrab ketdi. Uning Buxorodagi sadoqatli shogirdlari jadid maktablarini ko'paytirishi va xazinadan ularga mablag' ajratish maqsadida amirni qistay boshladilar. Bunday hayrli ishning boshida buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1819), g'ijduvonlik domla Fozil, Mo'minxo'ja Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va ularning tarafdorlari turar edilar. Bundan xabar topgan Ismoil Gaspirinskiy 1904 yilda Buxoroga yana kelib amir bilan muzokaralar olib bordi. Natijada amir uning otasi bilan ataluvchi «**Muzaffariya**» jadid maktabiga ruxsat beradi, holos.

Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxoniy, Ubaydullaxo'ja Asadulla Xo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qigan musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi.

Jadidlarning halqaro aloqalari juda keng qamrovli bo'lgan. Ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlarning jadidchilik oqimlari dasturlaridan habardor bo'lganligi o'zaro aloqalar, safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar.

1906-yilgi Rossiyadagi inqilobiy harakatlar Turkistonga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Faol kuchlar jinslasha boshladilar, jadidlar ma'rifatchilik faoliyatchiligini jadallashtirdilar va faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchiligini jumladan, ro'znomalarning ko'plab vujudga kelishida ham ko'rindi.

Chunonchi, 1906 yilda Ismoil Obidov muharrirligida «Taraqiy» shu yili Munavvar Qori muharrirligida «Xurshid» 1907-1908 yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida «Shuhrat», Ahmadjon B. Muharrirligida «Osiyo» ro'znomalari chop etilgan. Ma'rifatchilikning yangi to'lqinida 1913-1915 yillarda «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadon Farg'ona», «Buxoroi Sharif», «Turon», 1917 yilda esa «El bayrog'i», «Kengash», «Hurriyat», «Ulug' Turkiston» gazetolari «Oyna» jumali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi.

Turkiston jadidchiligi va ma'rifatchiligi to'g'risida gap borganda, uni an'anaviy Sharq ma'rifatchiligidan, shuningdek, o'sha davrdagi islom diniy islohatchiligidan farqlash zarur. An'anaviy Sharq ma'rifatchilini (Turdi, Donish,

Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Nodira, Zavqiy) jadidlar ma'rifatchiligi uchun ma'naviy, ruhiy zamin bo'lgan. Islomdan boshlangan islohcilik urinishlari jadidlar harakati uchun islom, shariat nuqtai nazaridan diniy, qonuniy jihatdan yo'l ochib bergan. Biroq jadidchilik harakati, undagi ma'rifatchilik mayllari o'zining hayotga yuz burganligi, umummilliy ijtimoiy, siyosiy vazifani hal qilishga yo'naltirganligi bilan an'anaviy Sharq ma'rifatchiligi va diniy islohcilik jarayonlaridan tubdan farq qilgan.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan halq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay, xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalari bilan targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929-1937-38-yillarida ommaviy qirg'in qilinishiga olib keldi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligida jadidchilik harakati Turkistondagi kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllangan vaqt ham bu hududlardagi kabi tarixiy sharoit, undagi jadidchilik harakatiga ham o'ziga xos xususiyatlar baxsh etdi. Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tqizib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan edilar, keyinchalik xon va amir yakka hukmronligini (cheklash, mavjud) har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar.

Chunki 1917 yilda podsho Asfandiyorxon ruxsati bilan tuzilgan **“Yosh xivaliklar”** dan iborat majlis va nozirlar kengashi, ularning ta'qiqlanishi va Rashidxon davridagi yosh xivaliklarning qattiq ta'qib qilmishi, Buxoro amiri Said Olimxonning o'zi qabul qilgan islohatlar o'tkazishi haqidagi farmonini bekor qilish va 1918-1919 yillarda **“Yosh buxoroliklar”** ning quvg'inga uchrashi shunga olib keldi. Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida jadidlar birgalikda ishlab mamlakatni taraqqiy qildirish va mustaqillikni saqlab qolishga intildilar. Biroq sovet rejimi avval, Buxoro va Xorazm davlatlarida mavjudligiga chek qo'yilgan bo'lsa, keyinchalik barcha jamiyat namoyondalarini jismonan mavh qildi.

Umuman olganda, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati Turkiston halqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakasiga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Turkistonda jadidlarning mavqeyi ko'tarilib yangi - yangi jamiyatlar tashkil topa boshladilar. Qo'qonda «g'ayrat», Andijonda «Taraqqiyparvar» kabi jamiyatlar tuzdilar. ularning faoliyatida ilg'or rus demokratiyasi vakillari ham ishtirok qila boshladilar.

Bu g'oya va maqsadlar 1917-1924 yillarda **“Turkiston muxtoriyati”** (1917 yil noyabr-1918 yil fevral), Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalari davrida (1920-1924 yillar), qisqa muddatda va qisman bo'lsada amalga oshirilgan edi.

Qrim, Kavkaz, Volgabo'yi-Bulg'or va Janubiy Uraldagi jadidchilikka Ismoilbek Gaspirali rahnamolik qilgan. Turkistonda bu harakatga Maxmudxuja Behbudiy va Munavvar Qorilar, Buxoroda jadidchilik harakatiga Abdurauf Fitrat, Xiva jadidlariga esa Polvonniyoz xoji Yusupov va Bobo'xun Salimovlar yetakchilik qilganlar. Jadidchilikning Turkistondagi taraqqiyotini quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

Birinchi davr 1885-1895 yillar, ikkinchi davr 1895-1905 yillar, uchinchi davr 1905-1914 yillar, to'rtinchi davr 1914-1917 yillar, beshinchi davr, oltinchi davr 1918-1924 yillar, yettinchi davr Turkiston parchalanib (1924), jadidchilikning keyingi taraqqiyoti "milliy respublikalar" doirasida bordi. Jadidchilik asosan madaniyat-maorif, maktab va matbaa ishlarida "Chig'atoy gurungi" g'oyalari amalga oshirishga, milliy ozodlik xarakatini jonlantirishga urindi. Sakkizinchi davr 1931 yildan to 1937-38 yillar orqali 50-yillarning birinchi yarmigacha qatag'onga uchrash davrigacha.

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan:

- yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
- umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
- turli ma'rifiy jamiyatlarni tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarini chop etish.

Ushbu dasturni amalga oshirish borasida **Mahmud Xo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'ja Asadulla Xo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon** va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi.

Rossiyadagi fevral inqilobidan keyin Turkiston jadidlarining «taraqqiyparvarlar» oqimini tashkil qilgan radikal qismi ancha keng qamrovli, bir qator siyosiy talablarni ilgari surdi. Fevral demokratik inqilobi Rossiyada yangi davlat tuzumi o'rnatilgandan so'ng federativ davlat shaklida muxtoriyat olishga umid bog'lagan jadidlarni ruhlantirib yubordi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan, jadidlar tomonidan «**Sho'roi Islomiy**», «**Ittifoqi muslimin**», «**Turon**» kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatnashlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar. Ular Turkistonning Rossiya Demokratik Federativ Respublikasi tarkibida milliy-hududiy muxtoriyat olish uchun astoydil harakat qilishga kirishdilar. Demokratik huquq va erkinliklar berilgan va konstitutsion jihatdan kafolatlanishi lozim bo'lgan demokratik jamiyatni shakllantirish-ustuvor maqsad qilib belgilandi.

Buxoro va Xiva jadidlari dastlab amir va xon hukmronligini cheklash, mavjud tuzum sharoitida islohotlar o'tkazib, jamiyat taraqqiyoti va milliy mustaqillikni qo'liga kiritishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsalar, keyinchalik xon va amir vakka hukmronligi har qanday taraqqiyotga to'siq ekanligini tushunib yetdilar. Bu davrga kelib jadidlar nafaqat musulmon balki, rusizabon xalq orasida

ham rahbar kuch sifatida katta nufuz va obro'-e'tiborga ega bo'ldi. Ular milliy demokratik va ozodlik harakatlariga rahbarlik qildilar. Demokratik inqilob g'alabasidan so'ng to'la demokratlashgan Rossiya tarkibida demokratik Milliy Muxtoriyat hukumati tashkil etib, milliy davlatchilikni tiklash uchun jadidlar omma orasida tashkiliy-targ'ibot ishlarini jonlantirdilar. Buni boshqa xalqlar va ko'pchilik rus sotsial-demokratik partiya va tashkilotlari ham qo'llab-quvvatlaydilar.

XIX asr Turkiston adabiyoti ikki yo'nalishga ajralgan bo'lib, biri saroy muhitini kuylovchi, manfaatdorlik va maddohlikka moyil adabiyot, ikkinchisi zulm va zo'ravonlikka qarshi norozilik hamda qoloqlikni tugatishga qaratilgan taraqqiyparvar xalq adabiyoti. Umuman, rus va Yevropa madaniyati ta'sirida Turkistonda milliy madaniyatning rivojlanishi jarayoni kuchayib bordi.

Ma'lumki, 1898 yilda Qo'qonda Salohiddin domla jadid maktabiga asos soladi. Shu yili To'qmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899 yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. **1903 yilda Turkiston o'lkasida 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari bor edi.**

Asr boshida jadidlar ziyolilarning butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og'ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, A.Avloniy, S.Ayniy, A.Fitrat, Munavvar qori, Boboovun Salimov va boshqa ko'plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar. Ular doimo quvg'in, qamoq, surgun kabi xavf-xatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishga majbur bo'ldilar. Shulardan Toshkent jadidlarining otasi sifatida ziyoliylar orasida katta obro'-e'tibor qozongan Munavvar Qori Abdurashid-xonovning xizmatlari juda katta bo'ldi.

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab «ustuli jadid» maktablari ochildi. Uni bitirgantar orasida Turkiston ma'naviy-ma'rifiy dunyosini milliy uyg'onishiga kuchli ijobiy ta'sir qiladigan zabardast namoyondalar yetishib chiqdi. Uning birinchi qaldirg'ochlari Mahmudho'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohidiy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadriiddin Ayniy, H.H.Niyoziy kabilardir. Jadidlar maktab va ma'rifatdan boshlangan faoliyatini siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar davom qildirib, Turkistonda milliy mustaqil davlat barpo etishga unish bilan eng yuqori pog'onaga ko'tarildilar.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati feodal tuzum va tartiblarni tanqid qilish, madaniy yangiliklarni egallash, Yevropaning turli tillarini o'rganish targ'ib qilish, yangicha ilm-fanning ahamiyatini ko'tarish kabi masalalar olg'a surildi. Ahmad Donish, Avaz O'tar, Furqat, Muqimiy, Zavqiy singari ma'rifatparvarlar yetishib chiqdilar.

O'sha davr madaniyati va fani haqida so'z yuritilsa, ayniqsa 19 asr oxiri - XX asr boshlarida o'lka tabiiy boyliklarini o'rganish ishiga rus olimlari ham qiziqqa boshlaydi. 1870-yilda tabiat, antropologiya va etnografiya havaskorlari rus

janiyatining Turkiston bo'limi ochildi. N.A.Severson. I.V.Mushketov, V.P.Fedchenko, V.F.Oshanin singari olimlar bu janiyat a'zolari edi. Rus jug'rofi F.P.Lirko 1873 yilda Toshkent falakiyotshunoslik va tabiatshunoslik rasadxonasi tashkil etilishga hissa qo'shdi.

P.P.Semyonov Tyan-Shanskiy Tangritog' tizmalari tarkibi va tuzilishi haqida ma'lumotlarni chop ettirdi. A.P.Fedchenko Farg'ona vodiysining o'simlik dunyosini tadqiq qildi. I.V.Mushketov va G.D.Romanovskiy Turkiston o'lkasining yer ustki xaritasini tuzdilar. I.V.Mushketov oltin, temir ma'dani, neft, ko'mir kabi qazilma boyliklarni aniqladi. Akademik V.V.Barold o'lk tarixi va el-elatni o'rganish asosida ko'plab kitoblar chop ettirdi.

Rus madaniyati ta'sirida o'zaro madaniy va ijodiy aloqalar shakllandi. Mahalliy ziyolilar V.I.Gersen, N.T.Chernishevskiy, N.V.Dobrolyubovlar kabi xalq ozodligi masalasini ko'tarib chiqdilar. Jumladan, Zokirjon Holmuhammad o'g'li Furqat (1858-1909 yy) o'z asarlarida o'lkada hukm surgan o'rta asrlarga xos qeloqlikni tugatish, rus maktablarida joriy etilgan ta'lim-tarbiyaning ilg'or usullarini mahalliy maktablarda ham keng qo'llashni targ'ib qildi. U A.S.Pushkinning bir qancha she'rlarini o'zbekchaga tarjima qildi. Muqimiy (1850-1909 yy) o'zining hajviy she'rlarida xalq ommasining burjuaziya tomonidan ezilishini fosh etdi. Zavqiy (1853-1921 yy) o'z she'rlarida ijtimoiy adolatsizlikni qoraladi.

### **Tayanch so'z va iboralar**

Rossiya imperiyasi, Qo'qon xonligi, xonliklar, Turkiston general-gubernatorligi, vassal, Kaufman, shartnoma, Po'latxon, Nasriddinbek, rus-tuzem maktablari, adabiyot, fan, san'at, ijtimoiy-falsafiy fanlar, milliy ozodlik harakati, Andijon qo'zg'oloni, jadidlar, Xiva, Buxoro, Xorazm.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1 XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va o'zaro munosabatlari.

2 O'rta Osiyo masalasida Angliya va Rossiya o'rtasidagi raqobat.

3 Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligiga hujumi va uning oqibatlari.

4 Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi va siyosiy faoliyati.

5 Rossiya imperiyasining Buxoro amirligini bosib olinishi va oqibatlari.

6 Samarqandning zabt etilishi. Buxoro amirligining Rossiya vassaliga aylantirilishi.

7 Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishlari.

8. Xalq qo'zg'olonlari va ularni harakatlantiruvchi kuchlar.

### **Nazorat savollari**

1. Rossiya imperiyasi tomonidan o'lkada mustamlakachilik siyosatini o'ratilishining oqibatlarini qanday edi ?
2. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining o'ratilishi xususida gapiring.
3. Rus-tuzem maktablarining tashkil topishi va faoliyati haqida sining fikringiz ?
4. Turkiston xalqlarining chorizm mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati va uning bosqichlari nimalardan iborat edi ?
5. Turkistonda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari haqida gapiring.
5. XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.
6. Turkistonda jadidlar harakatining yuzaga kelishi va omillari.
7. Birinchi jahon urushining o'lkamiz hayotiga salbiy ta'siri.
8. 1916-yildagi xalq qo'zg'oloni va uning xarakteri qanday edi ?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi: "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2020. 25 yanvar.
2. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.: «Sharq», 1998 y.
3. Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. T.: 2001.
4. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq», 2000 y.
5. Alimova D.A. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy. borba za nezavisimost.-T., "O'zbekiston", 2000.
6. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti.// Avtor proekta d.i.n D.Alimova. T. «Sharq». 2000.
7. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. //Davriy to'plam. (Tahrir hay'ati t.f.d D.A.Alimova, t.f.d S.S.A'zamxo'jaev va boshqalar) T., 1999.
8. Murtazaeva R.X va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (Ma'ruzalar matni).T., 2000.
9. Oblomurodov N. Tolipov F. O'zbekistonda soliq tarixi. T., 2009.
9. Holiqova R. E. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Mas'ul muhar. R. H. Murtazaeva. - Toshkent: "Fan va Texnologiya", 2017. – 164.

**9-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi.  
Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirigan ijtimoiy-siyosiy,  
iqtisodiy siyosati**

**Reja:**

1. 1917- yil fevral burjua-demokratik inqilobining va oktyabr davlat to'ntarishining Turkistonga ta'siri, o'lkada ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.
2. «Turkiston Muxtoriyati»: milliy davlatchilikda yangi bosqich. TASSR davrida Turkiston.
3. Turkistonda fan, adabiyot, ma'rifat va uning rivoji.
4. XX asr 20-30 yillarida Turkistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot.
5. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston. O'zbekistonliklarning front va front ortidagi jasoratlari.

**1. 1917- yil fevral inqilobining va oktyabr davlat to'ntarishining  
Turkistonga ta'siri, o'lkada ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.**

Birinchi jahon urushi tugagach, Rossiyada fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Rossiya imperiyasining tarkibiy qismi bo'lgan Turkiston ham chuqur inqiroz davrini boshdan kechirdi. Ammo fuqarolar urushi bolsheviklar g'alabasi bilan yakunlandi. Chunki ular sovet hokimiyatini himoya qilish uchun ommani birlashtiradigan yangi mafkurani (jahon urushidan chiqish, yer haqidagi Dekretni amalga oshirish, 8 soatlik ish kunini joriy etish kabilarni) shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edilar.

**1917-yil oktyabrda** bolsheviklar hokimiyati o'rnatilgach, ular an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumni o'zgartirib, turli islohotlarni amalga oshira boshladilar. Katta yer maydonlari, zavod-fabrikalar ilgari egalardan tortib olinib, davlat foydasiga o'tkazildi. Lekin yangi hukumat ularni ishlab chiqarishga joriy etishni uddalay olmay qoldi. Musodara etilgan mol-mulklar egasiz qolib, sanoat korxonalarining aksariyati to'xtab qoldi. Qishloq xo'jaligi va sanoatdagi inqiroz aholi turmush darajasini keskin va battar yomonlashtirdi. Oziq-ovqat yetishmasligi, narxlarning keskin oshishi kuzatildi. 1918-yil bahorida qishloqdan donni majburiy olish boshlandi. Favqulodda oziq-ovqat guruhlari qishloqlarga yuborilib, xalqdan donni tortib ola boshladi. Mamlakatdagi an'anaviy bozor munosabatlari izdan chiqqanligi sababli jamiyatda ilg'or fikrli aholi qatlamlari o'rtasida bolsheviklar hokimiyatiga qarshi norozilik asosida muholidat kuchlari shakllandi.

**1917-yil fevralda** Rossiyada **burjua - demokratik inqilobi** sodir bo'ldi. Mavjud chor hokimiyati boshqaruv tizimining tugatilishi Rossiya imperiyasi va uning turli hududlarida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashishiga olib keldi. Rossiyadada ikki hokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni, milliy burjuaziya vakillaridan iborat **Murvaqqat hukumat** va **ishchi, askar deputlari sovetlari** tashkil topdi. Turkiston o'lkasidagi

siyosiy o'zgarishlardan ruhlangan jadidlar 1917-yil mart oyida «Sho'roi Islomiy» tashkilotini tuzdilar. Uning tarkibidan Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abduvohid Qori, Mirkomilboy Mo'minboev, Ubaydillaxo'ja Asadullaxo'jaev, Salimxon Tillaxonov singari sinalgan yurt rahnamolari o'rin olgan edilar.

Bu paytga kelganda jadidlar tub yerli aholi ijtimoiy tarkibining turli qatlamlarini o'z ortlaridan ergashtira oldilar. Ular ongida musulmonlarni milliy manfaatlarini nazarda tutish, ular birligini mustahkamlash, jipslashtirish masalasini hal etish vazifasi turar edi. Ammo ular tez kunlarda tushundilarki, Rossiyadagi Muvaqqat hukumat va uning Turkiston Qumitasi ham o'lkada avvalgidek mustamlakachilik siyosatini davom ettirish yo'lini tutmoqda edi. Bu esa jadidlar uchun mustaqillik va muxtoriyat yo' hayot, yo mamot muammosiga aylandi va siyosiy kurashlar boshlandi.

Butun Rossiyada jadal ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan bir sharoitda **1917-yil yil 25 oktyabr**da bolsheviklar tomonidan Petrogradga davlat to'narishi sodir bo'ladi. Sovetlarining II qurultoyi chaqirilib, Petrogradga V.I. Lenin boshliq Sovet hukumati tuziladi. Turkistondagi bolshevik tashkilotlar, ularning ta'sirida Toshkent soveti tuziladi. 1917 yil 27 oktyabrda Toshkentda boshlangan Qo'zg'olon natijasida 1 noyabrda Muvaqqat hukumatining Turkiston qo'mitasi ag'dariladi. Toshkentda hokimiyati sovetlar qo'liga o'tdi. 1917-yil 15-22 noyabr kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III o'lka qurultoyi hokimiyat masalasini hal etdi. Unda bolshevik, Kolesov boshchiligida Turkistonning ishchi-dehqon hukumati, xalq Komissarlar Soveti tuziladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta menshevik vakillar kiritiladi. Uning tarkibiga mahalliy millat aholisidan birorta ham vakil kiritilmadi.

Ammo bolsheviklar tomonidan ishlab chiqilgan "Rossiya xalqlari xuquqlari Deklaratsiyasi", "Ezilgan va ekspluatatsiya qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi", "Rossiya va Sharq musulmonlari" xitobnomasi hamda boshqa hujjatlarda millatlarning erki, huquqlari, vakolatlari belgilab berilgan edi. Unda shunday so'zlar bor edi: "Bundan buyon sizlarning urf - odatlaringiz, milliy va madaniy muassasalaringiz ozod va daxlsiz deb e'lon qilinadi. O'z milliy xatlaringizni erkin va bematol qura beringiz, sizlarning bunga haqqingiz bor", - deyilgan edi.

## **2. «Turkiston Muxtoriyati»: milliy davlatchilikda yangi bosqich.**

### **TASSR davrida Turkiston.**

Turkiston xalqlarining 1917-yil oktyabr davlat to'ntarishidan keyin bolsheviklar tomonidan e'lon qilingan millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi to'g'risidagi dekretiga muvofiq e'lon qilgan mustaqil davlat shunday nom bilan atalgan. 1917-yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida Turkiston o'lka musulmonlarining favquodda IV qurultoyi (sezdi) bo'lib o'tdi. Qurultoyda 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorda shunday deyiladi: "Turkistonda yashab turgan turli millatlarga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini nomoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibidagi hududiy jihatdan muxtor deb e'lon



qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi". 28 noyabrda tarkib topayotgan yangi **Turkiston Muxtoriyati** (Qo'qon muxtoriyati) davlatning 8 kishidan iborat tarkibdagi hukumati tuziladi. Ular quyidagilar edi:

1. Muhammadjon Tinishpaev (Tinishboev) – Bosh vazir, ichki ishlar vaziri, II-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, muhandis.
2. Islom Sulton Shoahmedov (Shagiahmedov) – bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya musulmonlari kengashi Markaziy qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.
3. Mustafo Cho'qaev – tashqi ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Sho'rosi Markaziy qo'mitasining raisi, huquqshunos.
4. Ubaydulla Xo'jaev – harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi MQ a'zosi, huquqshunos.
5. Yurali Agaev – yer va suv boyliklari vaziri, agronom.
6. Obidjon Mahmudov – oziq-ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasining rais o'rinbosari, tog'-kon sanoati muhandisi.
7. Abdurahmon O'razaev – ichki ishlar vazirining o'rinbosari, huquqshunos.
8. Solomon Abramovich Gersfeld – moliya vaziri, huquqshunos.

Turkiston Muxtoriyati atigi **72 kun faoliyat ko'rsatgan** bo'lsa ham u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqbol uchun kurashga da'vat etdi. 1918- yilning erta bahoridan avval Farg'ona vodiysida, so'ngra butun Turkistonda istiqbolchilik harakati boshlanib ketdiki, bu harakat bolsheviklarning zo'ravonligiga qarshi kurash sifatida 20 yilcan oshiqroq davom etdi.

Turkistodagi sovet hukumati 1918- yil 14 fevralida Farg'ona viloyati hududida favqulodda harbiy holat joriy etadi. Ular muxtoriyat vakillarini taslim bo'lishga da'vat qiladilar. Ayni vaqtda Toshkentdan Perefilev boshchiligida qurollangan ko'p sonli qo'shinlar yetib kelib Qo'qon shahari bombardimon qilinadi. Bolsheviklar qizil armiya vakillari va armanlarning dashnoqlar harakati a'zolaridan tuzilgan qurolli kuchlardan ham foydalanadilar.

Shu tariqa Turkiston Muxtoriyati hukumati qizil askarlar va dashnoqlarning qonli hujumlari oqibatida ag'darib tashlanadi. Ammo Qo'qon va uning atrofidagi tinch aholini talash, o'ldirish avjiga chiqadi. Faqat Qo'qonning o'zida uch kun davomida minglab kishilar o'ldiriladi. Hukumat boshlig'i Mustafo Cho'qaev shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo'ladi. Sodir bo'lgan barcha holatlar o'lkada milliy istiqbolchilik harakatini boshlanib ketishiga sabab bo'ladi. Aholi orasidan yetishib chiqqan mahalliy mirshabalar, sarbozlar boshchiligida dastlab Qo'qon va uning atroflarida, so'ngra butun Farg'ona vodiysida ozofik harakati kuchayib ketadi. Ushbu harakat keyinchalik butun Turkiston hududlariga tarqalib ketadi.

1918- yilning 20 aprelidan 1 mayigacha Toshkentda bo'lib o'tgan o'lkada Sovetlarining V qurultoyida **TASSR Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi** tuzilganligi e'lon qilinadi. Turkiston Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti tuzilganligi e'lon qilinadi. Turk MIQ ning tarkibi 26 kishidan iborat qilib belgilanadi. Undan 9 nafari mahalliy millat vakillari edi. MIQ ning raisi etib Bolshevik P. A. Kobozevni saylanadi. 1918 yil oktyabrda bo'lgan

o'ika sovetlarining VI qurultoyida TASSR Konstitutsiyasi qabul qilinadi va Turkiston RSFSR ning tarkibiy qismi ekanligi qonunlashtiriladi.

Turkiston muxtoriyatining ag'darilishi natijasida Turkistonda o'rnatilgan sovet hokimiyatiga qarshi harakat markazi Farg'ona vodiysi bo'ldi. Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikcha tuzumga qarshi istiqloqchilik harakati 1918- yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi. Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari dehqonlar, chorakorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo'lgan.

**Milliy istiqloq harakati**- milliy harakatning boshlanishi Kichik Ergash faoliyati bilan bog'liqdir. 1918- yil 27 fevralda Qo'qon atrofidagi **Bachqir qishlog'**ida bo'lgan janglarning birida **Kichik Ergash** shahid bo'lgach, uning o'miga **Katta Ergash** ozodlik bayrog'ini o'z qo'lga oladi. O'lkada vaziyat yanada chigallashgan bir sharoitda milliy harakatda bo'linish sodir bo'ladi. Qo'qon atroflarida Katta Ergash kurashga otlangan bo'lsa, Marg'ilonda esa militsiyaning sobiq boshlig'i Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li Madarminbek kurash boshlaydilar.

1920 yilda Buxoro amirligiga qarshi qizil armiya harakatlari boshlanadi, Buxoro shahri bombardimon qilinadi. Said Olimxon Buxoroni qizil askarlardan tozalab, ag'darib tashlangan amirlik tuzumini qayta tiklash va hokimiyatni qo'lga olishga intiladi. Ammo kuchlar teng emasligi bois barcha ozolik harakatlari zoe ketadi. Amir Olimxon 1921 yil sentabrda bo'lgan Buxoro qo'rboshilarining qurultoyida **"Islom lashkarboshisi"** unvoniga sazovor bo'ladi va Buxorodagi barcha istiqloqchilarning Oliy bosh qo'mondoni qilib saylanadi. 1921- yil oktyabrda Turkiyaning sobiq harbiy vaziri Anvar Podsho Buxoro shahriga keladi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo'shiladi. Anvar Podsho Buxoro respublikasidagi istiqloqchilik harakatining haqiqiy a'zosiga aylanadi hamda uning boshchiligida Turkiston umumiy fronti tashkil etiladi. Ayovsiz janglarning birida 1922 yil avgust oyida Anvar Podsho halok bo'ladi. 20 yillar boshi va o'rtalariga kelib harakatning ikkinchi bosqichida Ibrohimbek harakatlari ham e'tiborga molikdir. Ammo uning tomonidan ko'rsatilgan qarshilik harakatlari ham yetarli samara bermaganligi tarixiy adabiyotlarda qayd etiladi.

Milliy istiqloqchilik harakati Xorazmda ham jiddiy tus oladi. Qurolli kurashga asli kelib chiqishi turkman Junayidxon boshchilik qiladi. 1918 yil oktabr oyida, Yosh xivaliklar aralashuvi natijasida Junayidxon va Asfandiyorxon o'rtasiga nizo kelib chiqadi. Bundan foydalangan Junayidxon Asfandiyorxonni o'ldirib, uning o'miga akasi Sayid Abdullonni xon deb e'lon qiladi. Junayidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo'lgan davlatni saqlab qolishga harakat qilar edi. 1918 yil noyabr oyida Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarda tashkil qilingan sovet hukumatiga qarshi Junayidxon bir necha marotaba urushlar olib boradi. 1919 yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junayidxon o'rtasida Xiva yaqinidagi **Taxta** qishlog'ida shartnoma tuziladi. Ammo unga ikkala tomon ham amal qilmadi.

Quyida biz Turkistonning ozodligi hamda istiqloli uchun kurashgan vatandoshlarimizning ayrimlarining faoliyati xususida so'z yuritamiz:

**Junayidxon-** (1857-1938 yy) uning asl ismi Qurbon Ma'ned (Muhammad) sardor bo'lib, Xiva shahridan 30 chaqirim shimoliy-g'arbda joylashgan Badirkent qishlog'ida (hozirgi Toshhovuz viloyatida) turkman yovmutlari urug'ining junayid tarmog'iga mansub mulkdor Xojiboy oilasida tug'iladi. Junayidxon 1873 yilda Xiva xonligiga xujum boshlagan Rossiya generali Golovachev qo'shiniga qarshi kurashgan yovmut yigitlari safida bo'ldi. U uzoq yillar davomida o'z urug'ining mirob, qozi va oqsoqoli bo'lgan. 1912 yildan Xiva xonligiga qarshi qaratilgan turkmanlarning turli chiqishlariga rahbarlik qildi. Xiva xoni Asfandiyorxon (1910-1918 yy) uni o'z tomoniga og'dirib olish maqsadida 1915-yilda butun turkman qabilalarining sardori-harbiy qo'mondoni unvonini beradi.

Turkman urug'larining oqsoqollari uni junayid urug'ining xoni-Junayidxon deb e'lon qilishadi. Turkmanlarning mustaqil davlatini tuzishga uringan Junayidxon 1916-yil fevral oyida poytaxt Xiva shahri ustiga yurish qiladi. Toshkentdan yordamga yetib kelgan Galkinning jazo otryadlari Junayidxonni Qoraqumga chekinishga majbur etadi. U qisqa muddat Eron va Afg'onistonda bo'ladi. U 1918-1920 yillarda Xivani o'ziga bo'ysundirib, Xiva xonligining mutlaq hukmdoriga aylanadi. 1920 yil mart oyida qizil askarlar tomonidan Xiva xonligi tugatilib, uning o'rniga XXSR tashkil etilganidan so'ng, Junayidxon sovet hukumatiga jiddiy xavf sola boshlaydi. Bu davrda Junayidxon qo'lda 30 ming kishilik qo'shin bor edi.

1924-yil noyabrda sovet hokimiyati bilan Junayidxon vakillari o'rtasida muzokaralar bo'ladi. Turkmaniston SSR sovetlarining I s'ezdida (1925 fevral) Junayidxon va uning safdoshlari afv etiladi. Biroq u 1927-yil 19 sentyabrda Toshhovuz okrugidagi Oqtepada sovet hokimiyatiga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Lekin uning qo'shinlari qizil askarlar tomonidan mag'lubiyatga uchratiladi. U 1931-yilda Eron orqali Afg'onistonga o'tib ketadi va 1938 yilda Hirot yaqinida vafot etadi. Uning avlodlari hozir Eronning Hamadon shahrida yashashi qayd qilinadi.

**Ibrohimbek** (1889-1932) – Sharqiy Buxorodagi qizil armiya qismlariga qarshi kurashgan istiqlolchilar qo'shinining bosh qo'mondoni. Mulla Muhammad Ibrohimbek 1889-yilda Dushanbe yaqinidagi Ko'ktosh qishlog'ida o'zbek laqaylari urug'ining eshonxo'ja shaxobchasiga mansub amir amaldori Chaqaboy to'qsabo xonadonida tug'ildi. U mahalliy madrasada saboq oladi. Ibrohimbek 1919-yilda Hisor beki huzurida qilgan xizmatlari evaziga qorovulbegi darajasiga, keyinchalik Buxoro amiri tomonidan mir devonbegi, to'pchiboshi, lashkarboshi lavozimiga ko'tarilgan.

Ibrohimbek 1920-yil sentyabrda amirlik tuzumi ag'darilgach, Sharqiy Buxorodagi qo'rboshi guruhtariga rahbarlik qildi, sovet tuzumiga qarshi kurash olib bordi. U Buxoroda amir rejimini qayta tiklashga bel bog'lagan edi. 1921-yil sentyabrda bo'lgan Buxoro qo'rboshilarining qurultoyida "Islom lashkarboshisi" degan unvonga sazovor bo'ladi. "Ibrohimbek-butun Sharqiy Buxorodagi

markaziy siymo", deb tan olinadi. 1925-1926 yillarda u hozirgi Tojikiston va O'zbekistonning tog'liq viloyatlarida kurash olib boradi. 1926-yil 21 iyunda keskin janglardan so'ng Afg'oniston hududiga o'tib ketishga majbur bo'ladi. 1926-1929 yillarda Qobul yaqinidagi Qal'ai Fotuda sobiq amir Said Olimxonning qarorgohida yashaydi. Biroq Ibrohimbek boshchiligidagi buxorolik muhojirlar Afg'onistondagi siyosiy kurashga tortilishadi, harbiy mojaralarda qatnashishga majbur bo'lishadi (1928-1929 yillar).

Ibrohimbek uzoq sayyorgarlikdan so'ng, 1931- yil 30 martda SSSR chegarasidan o'tib, Tojikiston SSR hududiga kiradi. Bu yerda u qizil askarlarga qarshi jang qiladi. Ibrohimbek 1931-yil 23 iyunda sovet chekistlari tomonidan Bobotog'da qo'lga olinadi va Toshkentga olib kelinadi. U 1932 y. 31 avgustda qatl qilinadi.

**Katta Ergash** – Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining dastlabki taniqli namoyandasi. U Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ida tug'ilgan. Qo'qonning eng mashhur mullalaridan biri bo'lgan, shuning uchun uni Mulla Ergash ham deyishgan. Katta Ergash Rossiya imperiyasining Turkistonga qilgan bosqinchiligini kechira olmadi, ularga qarshi kurashdi. U Turkiston Muxtoriyatining tarafdori, uning himoyachilaridan biri edi. U 1921-yil 19 dekabrda o'z qarorgohi Xonobodda qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan.

**Madaminbek** (1892-1920 yy) – Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakatining eng mashhur namoyandasi. Madaminbekning asl ismi Muhammad Aminbek bo'lib, u 1892-yilda Marg'ilon yaqinidagi So'kchilik qishlog'ida (hozirgi Toshloq tumani) o'rtaohol Ahmadbek oilasida tug'ildi. Madaminbek chor Rossiyasiga qarshi harakatlari qilganligi uchun qamoqqa olinib, 1914-1917 yillar davomida Sibirming Nerchinsk degan joyida surgunda bo'ladi.

1917- yildagi fevral inqilobidan keyin u siyosiy mahbus sifatida ozod qilinadi va Marg'ilonga qaytib keladi. "Sho'roi Ulamo" jamiyatining rahbarlari Madaminbekni shahar mirshablari boshlig'i lavozimiga tavsiya etishadi. Madaminbek bu lavozimda 1917- yil martdan 1918- yil yanvar oyining oxirigacha xizmat qiladi. Sovet hokimiyatiga nisbatan ishonchini yo'qotgan Madaminbek 1918- yilning erta bahoridan istiqloqlilar safiga o'tadi. U Turkistonda milliy demokratik davlat barpo qilish tarafdori edi. "Farg'ona Muvaqqat Muxtor hukumati" boshlig'i sifatida 1919- y 22 oktyabrda ish boshlaydi. Ammo o'zaro kelishmovchiliklar tufayli Holxo'ja Eshon tomonidan Qoravul qishlog'ida 1920- y 14 mayda o'ldiriladi.

**Monstrov boshliq krestyanlar armiyasi** - Jalolobodagi rus qishloqlarida (bular chorizm davrida ko'chirib keltirilgan rus krestyanlari edi) joylashgan rus krestyanlaridan tashkil topgan bo'lib, 1918-yil kuzida ularga sovet hokimiyati (o'zlarini himoya qilish uchun) qurol-yarog' tarqatgan edi. Dastlab krestyanlar armiyasi qizil askarlar dashnoqlar qatorida turib istiqloqlilarga qarshi kurashdilar, tinch aholini qirishda qatnashdilar. Ularning Farg'onadagi Bozorqo'g'on, Qo'qon qishloq, So'zoq qishlog'ida tinch aholiga nisbatan qilgan

xunrezliklari bunga dalildir. Biroq bolsheviklar yuritayotgan siyosat krestyanlar armiyasi rahbarlariga, yoqmayotgan edi. Chunki ular xususiy mulkning tugatilishiga qarshi edilar. Buning ustiga ko'chib kelingan vaqtda mahalliy aholidan tortib olingan yer-suvni sovet hokimiyati qaytarib olayotgan edi.

1919- yil yozida Madaminbek taktik maqsadlarni ko'zlab, bolsheviklarga qarshi Farg'onada yagona kuch tashkil qilish uchun krestyanlar armiyasi rahbarlari bilan muzokaralar olib bordi va 1919- yil 2 sentyabrda Madaminbek qo'mondonligida istiqolchilar qo'shini bilan K.Monstrovning krestyanlar armiyasi o'rtasida o'zaro ittifoq tuzildi. Madaminbek birlashgan qo'shinning oliy bosh qo'mondoni qilib tan olindi. Bu ittifoq bolsheviklar tomonidan ataylab tarqatigan Madaminbek "ruslarga nisbatan xunrezlik qilmoqda"- degan gaplarning asossiz ekanligini, Madaminbekning maqsadi bolsheviklarning rejimi va bosqinchi qizil armiyaga qarshi istiqol kurashi olib borishdan iborat ekanligini isbotladi.

Biroq, keyingi voqyealar Madaminbek krestyanlar armiyasi bilan ittifoq tuzib, xato qilganligini ko'rsatdi. Chunki eng qaltis, vaziyatda krestyanlar armiyasi rahbarlari istiqolchilarni tashlab, qizil armiya tomoniga o'tib ketishgan edi.

**Shermuhammadbek** (1893-1970 yy) – Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakatining taniqli arbobi. U Farg'onadagi Toshloq tumanining Garbobo (Karbobo azizlar) qishlog'ida beklar avlodidan bo'lgan Qo'shoqvoy hoji xonadonida 1893- yilda tug'ildi. A.Z.Valdiy To'g'onning yozishicha, Shermuhammadbek 1916- yilda chor Rossiyada tomonidan mardikorlikka olingan va Polsha fronti ixtiyorida ishlagan. 1918- yildan istiqolchilar safida turgan. Uning asosiy maqsadi Turkistonda islom jumhuriyatini tashkil qilish bo'lgan.

U xorijda 1942- yilda tuzilgan turkistonlik muhojirlarning "Vatanni ozod qilish" (ba'zi manbalarda "Faol") nomli yashirin tashkilotining asoschilaridan biri hisoblanadi. Din peshvəsi Muboshirxon Taroziy bu tashkilotning boshlig'i, Shermuhammadbek esa harbiy qo'shinlar bosh qo'mondoni edi. 1943- yil mart oyida Afg'oniston hukumati tashkilot rahbarlarini, shu jumladan, Shermuhammadbekni ham qamoqqa oladi. U ikki yil davomida Qobul qamoqxonasida tutqunlikda turadi. Qamoqdan chiqqanidan so'ng u ma'lum muddat Xindistonga ketadi. 1951-1959 yillarda Pokistonda yashaydi. 1959- yildan to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechiradi. Shermuhammadbek 1970- yil 10 martda, ukasi Nurmuhammadbek 1983- yil 10 yanvarda Adana shahrida vafot etishadi. Ularning farzandlari hozirgi kunda AQSh va Turkiyada yashaydilar. Shermuhammadbek muhojirlikda Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakati va o'zi boshchilik qilgan mujohidlar faoliyati haqida o'zining xotiralarini yozib qoldirgan.

**Mustafó Cho'qaev** (Mustafó Cho'qay o'g'li, 1890-1941 yy) – Turkiston mustaqilligi uchun taniqli kurashchi. Qizilo'rda shahrida aslzoda qozoq urug'iga mansub bo'lgan, volost boshlig'i oilasida tug'ildi. Maktabda o'qidi, so'ngra

Toshkentdagi rus gimnaziya-sida ta'lim oldi. Peterburg dorilfununining yuridik fakultetini imtiyozli tugalladi. Dorilfununni bitirib chiqqandan keyin Davlat Dumasining musulmonlar fraksiyasida Turkiston ishlari kotibi bo'lib ishladi, bu vazifani 1917- yilning fevraligacha ado etdi. Peterburgdan Turkistonga qaytib kelganidan so'ng siyosiy faoliyatga faol kirishdi; musulmon deputatlarining o'лка Sovetiga rais etib saylandi. "Ulug' Turkiston" ro'znomasi tahrir hay'atining xodimi, qozoq tilida chiqadigan "Birlik tug'i" ro'znomasining bosh muharriri bo'lib ishladi.

M.Cho'qaev Qo'qonda tashkil qilingan Turkiston Muxtoriyati hukumatining asoschilari va rahbarlaridan biri edi, u dastavval Muvaqqat hukumat tashqi ishlar vaziri qilib saylandi. Tinishpaev iste'foga chiqqandan keyin Turkiston Muxtoriyati hukumati raisi bo'ldi. Turkiston Muxtoriyati tor-mor qilingandan so'ng u Qo'qondan qochib, istiqlolchilarga qo'shildi.

1919- yilda Turkistonnı tark etib, 1921- yilgacha Gruziyada yashadi, keyin chet elga ketdi. Turkiyada, Birlinda, Parij yaqinida yashadi. Quvg'ında Mustafa Cho'qaev musulmon muhojirlarining shubhasiz milliy rahbari sifatida tanildi. Parijda 1929- yildan to 1939- yilgacha "Yosh Turkiston" majmuasini chiqardi. Boshqa nashrlarda, shu jumladan, "Jurnal Korolevskogo obshestva Sredney Azii", "Aziatskoe obozrenie" (London) kabi nashrlar bilan muntazam ravishda hamkorlik qildi. U XX asrdagi Turkiston tarixiga oid ko'plab maqolalar va monografiyalar e'lon qildi. "Istiqlol jallodlari (1917- yil xotiralari)" kitobi o'zbek tilida nashr qilingan. U Berlinda vafot etganligi qayd qilinadi.

**Amir Said Olimxon-** 1881- yil Karmanada tug'ilgan. U 1883-1896 yillarda Peterburgdagi Nikolaev nomidagi suvoriylar maktabida ta'lim oladi. 1898- yili Nasaf (Qarshi), so'ngra valiahd sifatida Kamana viloyatida hokim bo'ladi. 1910- yil dekabrda otasi Abdulahadxon vafotidan keyin Buxoro taxtiga o'tiradi. Uning davrida amirlikdagi taraqqiyparvar kuchlar, jumladan, yosh buxoroliklar-jadidalar qattiq ta'qib qilanadi.

1920- yil avgust oyining oxirida M.Frunze qo'mondonligida qizil armiya qismlarining Buxoro amirligiga bosqinchilik yurishlari natijasida Amir Olimxon taxtni tashlab, Sharqiy Buxoroga ketadi. U yerda xalqni qizi' askarlarga qarshi ommaviy qo'zg'olonga boshlashga urinadi. Biroq, bu ozodlik kurashini o'z yurtida qoldirib, unga bevosita rahbarlik qilish o'miga Afg'onistonga butunlay o'tib ketishni afzal ko'radi (1921- yil 4 mart). Said Olimxon Qobuldan turib, Buxorodagi muholifat kuchlariga rahbarlik qiladi, qimmatbaho sovg'alar yuborib, ularni kurashga chorlaydi. U muxojirlikda o'zining "Buxoro xalqining hasrati tarixi" nomli esdaliklarini yozadi. Said Olimxon 1944- yil 28 aprelda Qobulda vafot etadi.

Agar milliy istiqlolchilar faoliyati tarixiga nazar tashlansa, Xorazmda olib borilgan milliy ozodlik harakatlari alohida diqqatga sazovordir. XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Xiva xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy muncasabatlar, boshqaruv tizimi chor bosqiniga qadar shakllangan holatda qolgan edi. Mamlakatda xon boshliq feodal amaldorlar,

dindor ruhoniylar mamlakat boshqaruvida cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, iqtisodiy hayotda esa yerga egalik munosabatlari ham avvalgidek saqlanib qolgan edi.

XX asr birinchi choragida butun Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi kabi Xiva xonligida ham xalq harakatining mafkuraviy asosini jadidchilik harakati, jadidchilik g'oyalari tashkil etar edi. 1920- yil 1 fevralda Junayidxon qo'shinlarini tor-mor qilgan qizil armiya Xiva shahriga kirib boradi, 2 fevral kuni so'nggi Xiva xoni **Sayid Abdullaxon** taxtdan voz kechadi. Xivada Jumaniyoz Sultonmurodov raisligida Muvaqqat inqilobiy qo'mita tashkil etiladi. 1920- yil 26-30 aprel kunlari Xorazm mehnatkashlarining birinchi qurultoyi bo'lib o'tadi, unda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilinadi. **XXSR** ning Polvonniyoz Hoji Yusupov raisligida Xalq Nozirlar kengashi tuziladi.

### **3. Turkistonda fan, adabiyot, ma'rifat va uning rvoji.**

Bu davrga kelib o'lkada adabiyot, san'at, tarix, arxeologiya sohalarida ma'lum yutuqlarga erishildi. Ayniqsa gazeta va jurnallar chop etish va xalqni ma'rifatlil qilish jadidlarning azaliy orzusi edi. Shu maqsadda ular Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "Sho'roi islom", Samarqandda "Oyna", "Xurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona" nomli gazetalarini chop ettira boshladilar.

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan gazetalar va jumallarda o'zbek milliy ziyolilari va jumalistlari katta jonbozlik bilan mehnat qildilar va ular orasida Behbudiy, Xurshid, Munavvar qori, Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhammedov va boshqalar eng sermahsul jumalistlar bo'lib yetishdilar. Birgina Behbudiyning o'zi turli ro'znomalarda 300 ga yaqin maqolalarini chop ettirgan edi. Shu tariqa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy adabiyot va jurnalistika, matbuot sohalarida yetuk kishilarning yetishib chiqishi va ularning milliy ong hamda o'zlikni anglash borasida qilgan mehnatlari milliy qadriyatlarimiz va an'analarimizning butunlay yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymadi. Ayniqsa tarix ilmi va falsafiy qarashlarga bo'lgan qiziqish zarracha susaymadi. Chunki halqalarimiz qadimgi davrlardan oq tarix ilmini g'oyatga qadrlaganlar tarixni buzib ko'rsatishga aslo yo'l qo'ymaganlar. Bu davrda ham tarix ilmini rivoj toptirilganligi yozilgan ko'plab tarixiy asarlar misolida yaqqol ko'rinadi.

Bu davrda Turkistonda tarix, arxeologiya, o'lkashunoslik sohalari ham taraqqiy eta boshladi. Biroq bu davrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga pala – partish va asosan talonchilik, mahalliy halqlarning milliy boyliklarini o'marish maqsadida amalga oshirila boshlandi. Rossiya Fanlar Akademiyasi orqali bu yerga arxeologik tadqiqotlar olib borish uchun yuborilgan har bir mutaxassisning oldiga ular aynan qaysi soha va nimalarni qo'lga kiritish lozimligi haqida mahsus ko'rsatma berilardi. Natijada, XIX asr oxirlariga kelib o'lkadan juda ko'plab nodir va qimmatli bo'lgan ashyolar va boshqalar Rossiya markaziga tashib ketila boshlandi.

Arxeologiya sohasida Vyatkin tomonidan Ulug'bek rasadxonasining topilishini bu sohadagi chinakam yutuq, deb hisoblashimiz lozimdir. Rossiya fanlar Akademiyasi sharqshunos olimlari tomonidan to'plangan barcha noyob badiiy tarixiy ilmiy asarlar 1870 yilda tashkil etilgan Turkiston general gubernatorligi huzuridagi kutubxona ixtiyoriga topshirildi va ular orasidan eng nodirlari tanlab olingach, Rossiya markaziga jo'natildi. Turkiston o'lkasida rus olimlari geografik va tabiiy sohalarda ham keng ko'lamli tadqiqotlarni olib borishga kirishdilar. Ular jiddiy ravishda ilmiy mazmundagi izlanishlarni amalga oshirdilar.

Ammo bundan rus olimlari Turkiston uchun foydali maqsadlarni ko'zlab tadqiqotlar olib bordilar, deb bo'lmaydi. Masalan, haritalashtirish ishlari eng birinchi navbatda rus harbiylari uchun, nihoyatda, zarur bo'lgan. Tog' - kon ishlari esa rus harbiy sanoati yoki sanoat ishlab chiqarishi uchun foydali xom-ashyolarni qo'lga kiritish maqsadida amalga oshirilgan. Shuning uchun ham bu yerda tadqiqot olib borayotgan rus olimlarini harbiy vazirlik yoki manfaatdor sanoatchilar mablag' bilan ta'minlaganlar.

Ilmiy tadqiqotlar turli sohalarda amalga oshirildi. Mashhur rus zoologlaridan biri N.A.Serevsov (1827-1886 yy) katta tekshirishlar olib bordi. U «dunyo tomi» hisoblangan Pomir tizimlarini o'rganib chiqdi va zoologiya, botanika, minerologiya sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Semenov Tyanshanskiy (1827-1914 yy) Tyanshan tog' tizmalarida muzliklar va vulqonlar to'g'risida qimmatli manbalarni qo'lga kiritdi. Tabiatshunos A.P.Fedchenko (1844-1873 yy) Farg'ona vodiysi va Oloyini, shuningdek, Zarat'shon vodiysi bilan Qizilqum cho'llarini ham tekshirib chiqib, tabiatshunoslik sohasida katta ma'lumotlarni fanga ma'lum qildi.

Geologiya va geografiya sohasida tadqiqot ishlari olib borgan I.V. Mushketov (1850-1902 yy) shimoliy Tyanshan tog' tizmalarining geologik asoslarini aniqladi. Shuningdek, Turkistondagi mavjud bo'lgan foydali qazilmalar haritasini tuzib chiqdi. Bundan tashqari G.D. Romanovskiy bilan birgalikda Turkistonning birinchi minerologik haritasini tuzdi. I.V.Mushketov o'z ishlarining barchasini umumlashgan holda «O'rta Osiyoni o'rganish tarixi» asarida ko'rsatib berdi. Tabiatshunos olimlardan yana biri V.V.Dokuchaev O'rta Osiyo tuproqlarini tarkibini o'rganish sohasida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordi.

XIX asming oxirgi choragida Turkistonda bir qancha ilmiy muassasalar ham tashkil etildi. Jumladan, 1867 yilda Toshkentda birinchi meteorologiya stansiya ish boshladi. Bu yerda o'lkaning iqlimi keng ko'lamda o'rganila boshladi. 1870-yilda esa Toshkentda Turkiston halq kutubxonasi tashkil etildi. 1874- yilda observatoriya ochildi. Shu yili Osiyo olimlari jamiyati tuzildi. Bu jamiyat o'z oldiga tarix, geografiya, etnografiya, statistika, iqtisodga oid ma'lumotlarni o'rganishni maqsad qilib qo'ygan edi. Turkiston o'lkasida jami 15 ga yaqin ilmiy jamiyatlar ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ulangan bo'lib, ularning izlanishlari natijasi o'lkadagi ilmiy sohadagi ishlar ham sezilarli darajada ijobiy natijalarga



erishdi. Biroq rus olimlarining olib borgan tadqiqotlari natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar Rossiya foydasiga o'zlashtirildi va ko'p hollarda mahalliy halqlarning bu yutuqlaridan manfaatdor bo'lishlariga yo'l qo'yilmadi.

**Jadid ma'rifatparvarlari va adiblari.** XX asr boshlari va birinchi yarmida Turkistonda milliy adabiyot va ma'rifatparvarlik ham taraqqiy topdi. Bu davrga kelib jadidchilik harakati jamiyatni ham siyosiy ham ma'rifiy isloh qilish yo'lidan bordi, xalqni milliy uyg'onishga chorladi, ularning orzu istaklarini namoyon qilish uchun shart sharoitlar yaratish uchun kurashdilar. Natijada talaygina ma'rifatparvar namoyondalar va adiblar yetishib chiqdi. Ulardan bir tanikli ma'rifatparavar **Abdulla Avloniy** dir (1878-1934 yy)-atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va murabbiy. Toshkentda kosib oilasida tavallud topgan. O'z tarjimai holida yozishicha 12 yoshidan O'qchi mahallasidagi madrasada o'qiy boshlagan. 13 yoshidan yoz kunlari mardikorchiilik qilib, oilasiga yordam bergan. Qish kunlari esa dars o'qigan. 14 yoshidan boshlab har xil she'rlar yoza boshlagan. Qrimning Bog'chasaroy shahrida chiqadigan "Tarjimon" gazetasini o'qib borib, zamona voqyealaridan xabardor bo'lgan.

Madrasani bitirib, o'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etdi. Yoshlarga zamonaviy bilimlar berishi, Sharq va G'arb tillarini o'rganish bilan shug'ullandi. A.Avloniy 1913- yilda "Turon" teatr guruhini tashkil etdi.

Maktab o'quvchilari uchun "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" (1912-yy), "Tarix", "Turkiy Guliston yohud axloq" kabi zamonaviy darsliklar yozdi. Abdulla Avloniy she'rlari eski urf-odatlarga qarshi, muhabbat mavzuida, tarbiya, maktab-maorif, oxloq-odobga bag'ishlangan. "Maktab" nomli she'rida maktabni inson uchun zulm, nohaqlik, adolatsizlikdan xalos etuvchi najot yo'li deb ataydi. Abdulla Avloniy 20-yillarda nafaqat o'zbek xalqi madaniyati va ma'rifat faoliyatida faol ishtirok etdi, balki qo'shni afg'on xalqi ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muayyan xizmatlar qildi. U ma'lum muddat Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng sovet hukumatining Afg'onistondagi konsul-elchisi lavozimida xizmat qildi. Umrining oxirgi yillarida O'rta Osiyo kommunistik universitetida dars berish bilan birga, o'zbek adabiyotidan qator darsliklar yozdi. U 1934- yil 56 yoshida vafot etdi.

Tanikli adib va qator romanlar muallifi, jadid ma'rifatparavr **Abdulla Qodiriy** (taxallusi Julqunboy, 1894-1938 yy) – o'zbek romanchiligining asoschisi, Turkiston jadidlari vakilidir. Qodiriy Toshkentdagi Eshonguzar mahallasida tug'ildi, eski usul maktabida o'qidi, "rus-tuzem maktabi"ni imtiyozli guvohnoma bilan tugalladi, madrasada arab va fors tillarini o'rgandi, Sharq klassiklarining asarlarini o'qidi. U o'zining she'riy tarzda yozgan dastlabki – "Bizning holimiz", "Mening millatim" asarlaridayoq Turkiston jadidchiligi g'oyalari sadiq ekanini bildirdi.

Abdulla Qodiriy o'zining butun ijodi davomida ana shu g'oyaga sodiq bo'lib qoldi. U o'zining ko'pgina hikoyalarida, hajviy asarlarida, adabiy-tanqidiy ishlarida, "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlarida o'z xalqining yaqin

o'tmishini gavalantirdi, mamlakatni idora qilishning o'z umrini yashab bo'lgan tartibini, millat va jamiyat manfaatlariga zararli ishlarni ko'rgan xon va uning atrofidagi eng yaqin shaxslar istibdodini keskin qoraladi, xalqning siyosiy qoloqligidan nihoyatda tashvishlanar edi. Qodiriy o'z asarlari bilan xalq orasida vatanparvarlik, vatanga muhabbat urug'ini sochdi, milliy birlikni mustahkamlashga da'vat etdi. U ommaviy milliy ongini uyg'otishda muhim rol o'ynadi. Qodiriy "Mushtum" jumalining ta'sischilaridan biri edi. Abdulla Qodiriy 1937- yilda qamoqqa olinib, "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. 1938 yilda qatl etildi.

**Abdurauf Fitrat** (1886-1938 yy) – olim, yozuvchi, Turkiston jadidchiligidan eng taniqli namoyandasi, Buxoro jadidlarining mafkurachisi va rahbari edi. U Buxoroda tug'ildi, shu yerdagi madrasada ta'lim oldi, Istanbulda ham o'qidi va u yerda "Buxoro ta'limi maorif jamiyati"ni tuzadi. Buxorodagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy ahvolding eng yaxshi bilimdoni edi.

Fitratning taqdiri jadidchilik bilan chambarchas bog'liqdir. U oktyabrgacha bo'lgan davrda Turkiston xalqlari adabiyoti, ijtimoiy va falsafiy tafakkurining juda muhim yodgorligi bo'lmish "Rahbari najot" asarini yaratdi. Bu asarda o'lka xalqlarini nodonlik va qoloqlikdan taraqqiyot va yanada rivojlanish yo'liga olib chiqish ko'rsatib berilgan edi. 1917- yil fevral inqilobidan keyin u Buxoro amirligida tuzilgan Yosh buxoroliklar tashkiloti markaziy qo'mitasining muassislaridan biridir. U Buxoroda huquqiy davlatchilikni joriy etishni, o'rta asr istibdodini tub madaniy va iqtisodiy yangilash, Yevropa namunasiidagi ma'rifatli mustaqil hokimiyat bilan almashtirishni ko'zda tutuvchi islohotlar loyihasining muallifi edi.

1920- yilda, amir hokimiyati ag'darib tashlanganidan keyin, Fitrat Buxoro hukumatida vaqf boshqaruvining mudiri, tashqi ishlar va maorif noziri lavozimini egalladi. 1923- yilda uni hokimiyatni suiiste'mol qilishda nohaq ayblaganlaridan keyin siyosatdan uzoqlashib, o'zini ilmiy, muallimlik ishiga bag'ishladi. O'sha yillarda u bir qancha badiiy asarlar ("Bedil", "Chin sevish", shu jumladan, "Qiyomat", "Abulfayzxon" "Hind ixtilolchilari", "Shaytonning tangriga isyoni", "Munozara", "Sayyohi hindiy", "Sharq siyosati", "Sayha", "Arslon" asarlarini yaratdi, ularda u totalitarizm (zulmkor tartib) kurtaklarini shafqatsiz ravishda savalaydi. Fitrat 1938- yilda qatag'on qilingan.

**Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875-1919 yy) – XX asrning boshlarida o'zbek ziyolilarining eng ko'zga ko'ringan namoyandasi, jadidchilik harakati rahbarlaridan biri. U Samarqandda mulla oilasida tug'ildi. Samarqand va Buxoro madrasalarida ta'lim oldi, o'sha yerda arab va fors tillarini o'rgandi. Ko'p sayohat qildi. Uzoq vaqt Turkiyada va Misrda yashab, xalq ta'limining ahvoli – yangi usul maktablari, oliy o'quv yurtlari bilan batafsil tanishdi. O'zining Peterburg, Moskva, Qozon va Orenburgda bo'lishini u yangi usul maktablari ish tajribasini, ularning ta'lim-tarbiya tizimini, adabiyoti va matbuot namunalarini o'rganish bilan qo'shib olib bordi. Samarqandga qaytib kelganidan keyin u faol ish olib boradi: yangi usul maktablarini ochadi, yangi o'quv qo'llanmalari yozadi.

“Samarqand” ro‘znomasi va “Oyna” jaridasini chiqara boshlaydi. O‘sha yillarda uning adabiy iste’dodi namoyon bo‘ldi.

U “Padarkush” pesasini yozadi. Behbudiy ko‘pgina jadid nashrlari – “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Xurshid” va boshqa shu kabi ro‘znomna va oynomalarda faol hamkorlik qiladi. O‘zining “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Turkistonda maktab jaridasi”, “Turkiston idorasi”, “Sayohat xotiralari” sarlavhali maqolalarida va boshqa chiqishlarida u qadimiy urf-odatlariga, madrasadagi quruq safsatadan iborat eski ta’limga, xurofot va nodonlikka, mahalliy hokimlarning savodsizligiga islohotchi-ma’rifatchi nuqtai nazaridan tanqidiy baho beradi. U ilg‘or millatlarning tajribasi va bilimlari bilan boyigan hamda bulani o‘z xalqi orasida joriy etishga qodir bo‘lgan yangi milliy ziyolilarni tayyorlash qoloqlik, jaholat va nodonlikdan keyin Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etdi. U 1917- yilning aprelidan boshlab musulmon deputatlari o‘lka soveti rayosati a‘zosi, “Hurriyat” ro‘znomasi tahririyati hay’ati a‘zosi bo‘ldi. Samarqandda dastlabki milliy siyosiy tashkilotlar barpo etilishi M.Behbudiyning nomi bilan bog‘langandir. U o‘lka musulmonlarining I-IV s‘ezdlarida qatnashdi. Turkiston Muhtoriyati tor-mor qilinganidan keyin u faoliyatdan chetlashdi. Behbudiy 1919- yilda fojiali halok bo‘lishiga qadar Samarqand soveti xalq maorifi bo‘limining noziri vazifasida ishladi.

**Munavvar Qori** (to‘liq nomi Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, 1878-1931 yy) – yozuvchi, ma’rifatparvar pedagog, Turkiston jadidlarining rahbarlaridan biridir. U Toshkentda mudarris Abdurashidxon oilasida tug‘ildi. Dastavval domla Usmon maktabida o‘qidi, so‘ngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida tahsil ko‘rdi, 1898- yildan e’tiboran esa Buxoro madrasasida ta’lim oldi. Toshkentga qaytib kelganidan keyin bir oz vaqt Darxon machitida imon bo‘lib ishladi. U o‘z mustaqil faoliyatining dastlabki qadamlaridanoq vujudga kelayotgan taraqqiyparvar-vatanparvarlar (jadidlar) haraqati safiga kirdi va qisqa vaqt ichida uning rahbarlaridan biri bo‘lib qoldi.

Maktab ta’limini isloh etish, xalqni ma’rifatli qilish va taraqqiyot yo‘liga olib chiqish to‘g‘risida Ismoil Gasprinskiyning g‘oyasini so‘zsiz ma’qullab, qabul qildi. U o‘zining butun hayotini ana shu g‘oyani Turkistonda amalga oshirishga bag‘ishladi. Yangi usul maktablarini ochish, shu maktablar uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlash hamda nashr etish, “Jamiyati xayriya” tashkil qilish uning nomi bilan bog‘liqdir.

Bu jamiyat o‘quvchilarga moddiy yordam berdi, ulardan eng yaxshilarini o‘qish uchun Rossiya va Turkiyadagi oliy o‘quv yurtlariga yuborishni tashkil qildi. U “Xurshid” ro‘znomasining (1906- yil) noshiri va muharriri, keyinchalik esa “Najot” (1917- yil), “Kengash” (1917- yil) nashrlarining bosh muharriri bo‘ldi; “Sadoi Turkiston” ro‘znomasi (1914-1915 yillar) bo‘lim muharriri bo‘lib ishladi; u ana shu nashrlarda bosilgan redaksion maqolalar, ocherklarning muallifidir. U milliy teatr va dramaturgiyaning vujudga kelish sarchashmalarida

turdi, artistlar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shdi, ko'pgina milliy adabiyot va dramaturgiya namoyandalariining ma'naviy murabbiysi bo'ldi.

Munavvar Qori taniqli jamoat arbobi bo'lib, uning siyosiy faoliyati 1916 yildagi voqeyalar jarayonida, ayniqsa, fevral inqilobidan keyin faollashdi. "Sho'roi Islom" jamiyatining asoschilari va rahbarlaridan biri bo'ldi, u musulmonlarning I-IV o'lka s'ezdlarida qatnashdi. Oktyabr to'ntarishidan keyin faol siyosiy faoliyatdan chetlashdi, maorif sohasida shug'ullandi. U 1929- yilda 51 yoshida sobiq jadidlar guruhi (78 kishi) bilan birga qamoqqa olindi va uzoq vaqt davomida tergov qilindi.

**Cho'lpon** (1897, Andijon – 1938, Toshkent) – jadid adabiyotining yirik namoyandasi, istiqloq kuychisi, yangi o'zbek she'riyatining asoschisi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li (taxallusi Cho'lpon) 1897- yil Andijon shahridagi Qatorterak mahallasida savdogar oilasida tug'ildi. Uning otasi zamonasi peshqadam ziyolilaridan bo'lib, "Rasvo" taxallusi bilan g'azallar yozgan. Cho'lpon eski maktab va madrasada saboq olgan, rus-tuzem maktabida o'qigan. Cho'lpon 16 yoshidan boshlab ijod qila boshladi. Uning dastlabki asarlari "Sadoi Turkiston" va "Sadoi Farg'ona" kabi jadid gazetalarida hamda Orenburgda chiqayotgan "Sho'ro" jurnalida bosila boshladi. Cho'lponning nomi tez orada Turkiston mintaqasidan tashqarida ham mashhur bo'lib, u jadid adabiyotining yirik vakillaridan biriga aylandi.

"O'zbek yosh shoirlari" to'plamida Cho'lponning 14 ta she'ri bosilgan. Uning "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" kabi 4 ta she'riy to'plamlari nashr qilingan. Uning "Yorqinoy" va "Gunoh" dramatik asarlari, "Kecha va kunduz" romani mashhurdir.

Cho'lpon o'z ijodida iste'dod va jaholat millatning taraqqiyot va hurligini bo'g'uvchi illatlar ekanini badiiy aks ettirdi. Cho'lpon Turkiston Muxtoriyati hukumatini olqishlab, otashin satrlar yozdi. U o'z ijodida chorizm va sovet istibdodiningbutun dahshatlarini, bosqinchi qizil armiyaning talonchiliklarini ko'rsatib berishdan cho'chimadi. Cho'lponning "Ozod turk bayrami", "Buzilgan o'lkaga", "Go'zal Turkiston", "Qurbon" she'rlari va "Vayronalar orasidan", "Chimkent xatlari", "Yo'l esdaligi" kabi publitsistik maqolalarida Turkiston istiqloli kurashchilarining yorqin obrazi chiziladi, mustabid sovet rejimining kirdikortari fosh qilinadi. Xususan, uning Anvar posho o'limiga bag'ishlab yozgan "Baljuvon" (1922) marsiyasi tillarda doston bo'ldi. Cho'lpon ijodining asosiy mezonini Turkiston istiqloli uchun kurash va milliy g'oya tashkil qilgan edi. Cho'lpon sovet rejimi tomonidan 1937 yil qamoqqa olinadi va 1938 yil 4 oktyabrda Toshkentdagi Bo'zsuv bo'yida Fitrat va Qodiriy bilan birgalikda otib tashlanadi.

**Ubaydulla Xo'jaev** (to'liq nomi Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'ja o'g'li 1882-1938) – birinchi o'zbek advokati, jurnalist, jadidlar harakatining yetakchisi. U Toshkentdagi "Qoryog'di" mahallasida bog'bon oilasida tug'ildi. Rus-tuzem maktabida o'qidi, advokatlar idorasida tarjimon bo'lib ishladi. Saratov dorifununda oliy yuridik ma'lumot oldi. Toshkentda advokatlik sohasida olib

borgan faoliyati uni taniqli huquq himoyachisi sifatida jamoatchilik orasida keng mashhur qildi. O'z vatani, o'z xalqi taqdiriga beparvo qaramaydigan, bu kishi o'lkada jadidlar harakatining faol qatnashchisi bo'ldi. "Sadoi Turkiston" ro'znomasining muharriri, "Turkiston ovozi" ro'znomasining muxbiri lavozimida ishlab, "Taraqqiyparvarlar" deb atalgan jadidlar tashkilotining tarkib topishi va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi, bu tashkilot faoliyatida muhim rol o'ynadi.

Fevral inqilobidan keyin u Toshkentdagi "Sho'roi Islom" tashkilotining raisi, Turkiston o'lkasi musulmonlari Markaziy Sho'rosining kotibi va a'zosi, Butunrossiya musulmonlari I va II s'ezdlarining delegati, Butunrossiya musulmonlar Kengashi ("Milliy Sho'ro")ning a'zosi etib saylandi. U musulmonlar barcha to'rtta o'lka s'ezdlari rayosatining raisi qilib saylangan. Turkiston Muhtoriyati Muvaqqat hukumati tarkibida harbiy vazir lavozimini egalladi. Turkiston Muhtoriyati hukumatining dasturiy hujjatlari mualliflaridan biri bo'ldi. Istiqlolchilik harakatiga xayrixohlik bilan qaragan. Sovetlar davrida bir necha marta qamoqqa olindi va surgun qilindi. So'nggi marta u 1937- yil bahorida surgundan qaytib keldi. Biroq 1938- yilda u yana qamoqqa olindi va surgun qilindi, ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etdi.

Bu davrda yashab ijod qilgan eng mashhur tarixchilardan biri **Axmad Donish** edi (1827-1897 yy). Garchi Axmad Donish fanning bir qancha sohalarida ijod qilgan bo'lsada, uning qoldirgan tarix ilmiga mansub asarlariga asoslangan holda uni haqli ravishda tarixchi, deb atashimiz mumkin. Chunki bu davrda yashagan tarixchilar orasida Axmad Donish o'zining Buxoro amirligini tarixini mukammal bilishi bilan ajralib turadi. «Navodur – ul vaqoe» hamda «Buxoroyi sharif az amir Doniyol to amir Abdulaxad» asarlari Axmad Donish qalamiga mansubdir.

Buxoro amirligi tarixining bilimdonlaridan yana biri Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniydir (1833-1914 yy). U amir Muzaffar davrida amiming shaxsiy munshisi bo'lgan bo'lsa, amir Abdulaxad davrida amirga qarshi fikrlari uchun saroydan chetlashtirilgan edi. Somiyning tarix sohasida yozgan «Tuhfai shohiy» va «Tarixi solotini mang'itiya» asarlari mashhurdir. Tarix fani moziy ilmiga ma'rifat va haqiqat chirog'i deb qaragan, Xorazm tarixshunosligi maktabida yirik namoyondasi Muhammad Yusuf Bayoniy o'z davrini yirik muarrixlaridan sanalgan. Tarixni faqatgina rostgo'ylik va haqqoniy yozish lozimligini qattiq talab qilgan muarriqdan «Xorazm tarixi» va «Shajarai Xorazmshohiy» asarlari bugungi kunda qimmatli manbalar hisoblanadi. Bu asarlarda Bayoniy Xorazm tarixini yoritish bilan birga chor Rossiyasining mustamlakachilik urushlari tarixini ham yoritib bergan.

XIX asr ikkinchi yarmida va XX asrda yashab ijod qilgan tarixchilar qatoriga Mirzo Salimbek «Tarixi Salimiy», Abu Toxirxoja «Samariya», qo'qon tarixshunoslik maktabi vakillaridan Mullo Olim Maxdumxoja «Tarixi Turkiston», Muhammad Solix Toshkandiy «Tarixiy jadidi Toshkand», Mulla Niyoz Muhammad «Tarixi Shohruxiy», Muhammad Yunus Toib «Tarixi Aliquli

Amirlashkan», Muhammad Aziz Marg'iloniy «Tarixi Aziziy», Fozilbek Otabek o'g'li «Mukammal tarixi Farg'ona», Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy «Tarixi Jahonnamoi», Ibrat «Tarixi Farg'ona» kabi tarixchilarni va ular tomonidan yozilgan tarixiy asarlarni kiritish mumkin. Bu asarlarning aksariyatida qo'qon xonligi, tarixini yoritib berish bilan birga chor Rossiyasining mustamlakachilik istilolari va mahalliy halqlarning mustamlakachilarga qarshi erk va ozodlik uchun olib borgan kurashlari haqqoniy va tarixiylik nuqtai – nazaridan xolisona yoritib berilgan. Shuning uchun bu asarlar bugungi kunda o'sha davr tarixini o'rganishdagi eng muhim manbalar sanaladi.

### XX asr 20-30 yillarida Turkistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot

1918- yil 20 aprelda sovetlarning V o'lka s'ezdida RSFSR bilan Turkistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari rasmiylashtirilib, Turkistonning Rossiya tarkibidagi avtonom respublika deb, e'lon qildi. Qabul qilingan Turkiston ASSR Konstitutsiyasi Turkistonga RSFSR doirasida o'z byudjetini belgilash, soliqlar tayinlash va zayomlar chiqarish huquqlarini berdi.

Birinchi jahon va fuqarolar urushi tugugandan so'ng o'lkadagi harbiy, iqtisodiy vaziyat juda murakkab edi. Fuqarolar urushi tufayli Turkiston ham harbiy xalqa ichida qolgan, xo'jalik sohalari izdan chiqqan, aholining turmush tarzi yanada og'ir ahvolda edi. Yangi o'rnatilgan sovet hukumatini mustahkamlash uchun markaz ijtimoiy, iqtisodiy tadbirlarini amalga oshirish, soliq masalalari va moliyaviy masalalarni ko'rib chiqa boshladi. Eng og'ir muammo oziq-ovqat muammosi bo'lib, 1918 yilda Turkiston Xalq Komissarligining oziq-ovqat bo'limi ochiladi. Shu maqsadda 1918 yil iyun oyida oziq-ovqat masalalarini hal etish uchun "Oziq-ovqat direktoriyasi" tashkil etiladi.

Bu jarayonlar ob'ektiv tarzda 1919- yilda joriy etilgan «**Harbiy kommunizm**» siyosati bilan bog'liq edi. Bunday tadbirning amalga oshirilishi natijasida harbiylashgan jamiyat vujudga keldiki, uning asosiy belgilari quyidagilarda aks etdi:

1. Butun sanoat ishlab chiqarishi davlat qo'lida to'planib, u qattiq markazlashtirish asosida boshqariladigan bo'ldi;
2. G'alla monopoliyasi va oziq-ovqat razvyorstkasi (taqsimot) joriy qilindi, ya'ni dehqonlar ortiqcha oziq-ovqatni davlatga topshirar, taqsimot esa davlat qo'liga o'tdi;
3. Oziq-ovqatning me'yor bilan taqsimlanishi joriy qilindi;
4. Xususiy mulkka egalik qilish va xususiy savdo bekor qilindi;
5. Pul muomalasi natura bilan almashtirildi;
6. Mehnatga yaroqli aholining barchasi majburiy mehnatga tortildi. Xo'jalik yuritishning mehnatga majbur qilish musodara usullari joriy qilindi.

Bu favqulotda chora-tadbirlar bevosita Rossiyani tezroq fuqarolar urushidan chiqarish uchun amalga oshirilib, butun jamiyatda harbiycha nazorat o'rnatildi. Shunday sharoitda aholi turmush tarzini yaxshilash, eng avvalo, ularni oziq-ovqat

bilan ta'minlash muhim muammolardan biriga aylangan edi. Hukumat esa aholi(asosan boy-badavlat mulkdorlar) qo'lidagi g'allani va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tortib ola boshladi.

Hokimiyat vakillari o'z holicha moliyaviy tadbirlarni amalga oshira boshladilar. Musodara qilingan fabrika va zavodlar, banklardagi resurslar va kontributsiya kutilgan natijani bermadi. Soliqlarni to'plash va undirish bilan shug'ullanuvchi mahkamalar o'z vaqtida ish olib bormaganligi tufayli hatto RSFSR da joriy qilingan 10 mlrd. so'mlik favqulodda inqilobiy soliq ham yig'ib olinmedi. Faqat 1919- yil oxiridagina Turkistonda (**Turkkommissiya**) soliqlar bo'yicha boshbodoqlikni tugatish maqsadida qator tadbirlar o'tkazishga kirishdi, holos.

Aslida "Harbiy kommunizm" siyosati mavjud tuzumning haqiqiy ijtimoiy ahamiyatini yo'qqa chiqardi. Tovar ayriboshlash bilan bir qatorda natural soliq ham joriy qilindi. Bu soliq TMIK va Turkiston XKS ning 1918- yil 2 avgustdagi qarori bilan joriy qilingan bo'lib u 1919- yilda yana oshiriladi. Uzoq yillar mobaynida soliqlardan ozod etilgan masjidlar va madrasalari uchun hamda vaqf mulklari uchun ham soliqlar joriy etiladi. Bu esa xalqning noroziligiga sabab bo'ladi. Shu sababli 1921- yil 9 fevralda Moliya xalq komissarligi Turkiston a'zo bo'lgan RSFSR hududida har qanday soliq olishni vaqtinchalik to'xtatib turishga ko'rsama beradi. 1921 yil 21 martdan boshlab Oziq-ovqat razverstkasini **oziq-ovqat solig'i bilan almastirilish** va 1921- yil 24 maydagi "Ayriboshlash to'g'risida" gi qonunlar qabul qilinishi o'lkada harbiy kommunizm siyosatidan "Yangi iqtisodiy siyosat" ga o'tish uchun asos bo'ldi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, oziq-ovqat razvyorstakasi aholini ochiqdan-ochiq talashga aylanib ketadi. Jumladan, Turkiston Respublikasidagi oziq-ovqat to'plovchi maxsus otryad ("prod otryad") lar faqat 1920-1921 xo'jalik yilida mahalliy aholi qo'lidan 9708703 pud g'alla, 6358144 pud yem-xashak, 1606210 pud go'sht va boshqa mahsulotlarni tortib olgan. Buni Butunrossiyada boshlangan g'alla monopoliyasi va oziq-ovqat razvyorstka (oziq-ovqat taqsimoti) natijasida Turkistonning mahalliy aholisidan quyidagi turdagi va miqdordagi mahsulotlar natural soliq sifatida yig'ib olinganligi ham tasdiqlaydi:

a) 1918-1919 yillarda zo'rlik va tovar ayriboshlash (aslida dehqonga hyech narsa berilmagan edi) yo'li bilan 4500000 pud g'alla;

b) 1920-1921 yillarda tovar monopoliyasi va tovar ayriboshlash yo'li bilan 5250000 pud g'alla;

v) 1920-1921 yillarda oziq-ovqat razvyorstkasi vositasida belgilangan 22500000 pud o'miga 97 00000 pud g'alla;

g) 1921-1922 yillarda oziq-ovqat solig'i hisoblangan 125 00000 pud o'miga 4000 0000 pud g'alla tortib olingan.

"Harbiy kommunizm" siyosati fuqarolar urushi yillariga to'g'ri kelganligi bois, Roosiyaning boshqa hududlari qatori Turkiston halqa ichida qolib, harbiy jihatdan har tomonlama qamrab olinib, joylarda o'matilgan sovet hukumatini mustahkamlash moliyaviy masalalar bilan bog'liq edi. Mavjud iqtisodiy va

moliyaviy vaziyatni yumshatish uchun hukumat tomonidan joriy qilingan tovar almashinish bilan bir qatorda oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash uchun natural soliq ham joriy qilinadi. Bu soliq muhim iqtisodiy dastak bo'lib, u asosan dehqonlarga va hunarmandlarga joriy qilinadi. Ushbu soliq Turkistonda Rossiyadagidan ko'ra kengroq tarqaldi, chunki u o'lkadagi o'ziga hos milliy hususiyatlarni hisobga olgan edi. Bu soliq Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti va Xaq Komissarlari Sovetining buyrug'i bilan hosildan ajratiladigan foizlar hisobida belgilandi, bir yildan keyin esa yana oshirildi.

Buni quyidagi misol ham tasvirlaydi. Ya'ni o'lkada "G'alla monopoliyasi to'g'risida" gi, "Sinfy non payogi to'g'risida" gi, "Turkiston Respublikasida oziq-ovqat siyosatini amalga oshirish yuzasidan Oziq-ovqat komissariga favqulodda vakolatlar berish to'g'risida" gi dekretlar bilan 1919 yil 4 iyunda Turkistonda oziq-ovqat solig'i bo'yicha maxsus diktatura joriy qilinadi.

Mahalliy aholi ijtimoiy kelib chiqishi, millati, e'tiqodidan qat'iy nazar barcha soliq va to'lovlarni to'lashga majbur bo'lganlar. Ya'ni, "Harbiy kommunizm" davrida o'lkada quyidagi soliq turlari amalda bo'lgan:

- yer soliqlari (pozemelnye podati i nalogi),
- diniy muassasalardan olinadigan soliqlar (zemskie sborы, zemstvo soliqlari);
- ijtimoiy soliqlar (nalogi na obshchestvennye nujdы)
- natural soliqlar;
- ma'muriy organlardan olingan soliqlar;
- ishlab chiqarish (daromad soliqlari) soliqlari va "o'tov soliq" lari shular jumlasidandir.

O'z o'rnida yer soliqlari va daromad solig'i bir qancha turlarga bo'lingan. Xususan, har bir qishloq jamoasi, ovullar, volostlardagi xususiy yerlar, amlok yerlari, vaqf yerlaridan, ishlab chiqarish korxonalaridan, maktablardan, miroblardan, qishloq xo'jalik qurollaridan ham tegishli yig'im (soliqlar) olingan.

Bolsheviklar esa go'yoki, kambag'allar manfaatiga qarab ish olib borganliklarini ko'rsatish uchun natura shaklida soliq undirish bahonasida ortiqcha g'allani yashigan kishilar monopoliya to'g'risidagi dekret bilan "respublika dushmanlari", "proletariatga qarshi og'ir jinoyatga aybdor" kishilar, deb hisoblanib, bunday vakolat kambag'allar va nochor kishilarga tegishli emasligini isbotlashga intilar edi.

Yana muhim tadbirlardan biri, 1919- yil 4 iyunda o'lkada "Sinfy non payogi to'g'risida" gi dekretga muvofiq kartochka tizimi joriy qilinadi. Ya'ni, barcha istemolchilar 3 toifaga bo'lindi: ishchiga kuniga 1 qadoq (mas'ul xodimlar ham ishchi bilan tenglashtirilgandi), burjuaziyaga – ¼ qadoq non berilishi kerak edi. Temir yo'lichilarga ¼ qadoq miqdorida qo'shimcha payok berilar edi. Nonni shu tariqa adolatsizlik bilan taqsimlash mahalliy aholida norozilik uyg'otdi. Masalan, aholisining soni har xil bo'lgani holda Toshkentning yangi (asosan Yevropalik aholi vakillari yashovchi qism) va eski qismiga tarqatiladigan maxsulotlar miqdori va sifatida turlicha farqlar bo'lgan.



Ammo "Harbiy kommunizm" ning dastlabki yillarida oziq-ovqat, mulk va soliqqa tegishli bunday yondashuv uzoq saqlanib qolmadi. Shu bois, hukumat davlatga qarashli bo'lmagan, mahalliy boy-badavlat mulkdorlar qo'lidagi mol-mulki: majburiy undirish yo'liga o'tadi. Buning yaqqol isboti sifatida 1918- yil 26 fevralda **"O'lkada paxtani musodara qilish to'g'risida"** gi dekretni misol qilish mumkin. Natijada, Turkistonda mavjud shirkatlar, shaxsiy yerlardagi butun paxta xom ashyosi va maxsulotlari musodara qilina boshlandi. Go'yoki ular ayrim kishilarning emas, balki, davlatning, Turkiston o'lkasi "ishchi-dehqon hukumatining mulki", deb e'lon qilindi.

O'lkada paxta monokulturasini o'zining yuqori cho'qqisiga chiqib, paxtaga faqat bir yoqlama yondashish, uni yetishtirishni "rekord daraja"ga ko'tarish siyosati natijasida qishloq xo'jaligi, ekologiya, aholi turmush tarzida salbiy iz qoldirdi. Paxta yetishtirilayotgan xo'jaliklar va yerlarga solinayotgan soliq ortib bordi, Paxta yetishtirishdagi biryuqqlamalik natijisida paxta monokulturasini yoki "paxta mustaqilligi uchun kurash sotsializm uchun kurash" shiori ostidagi g'ayriekologik siyosat oqibatida o'lkada meva sabzovot yetishtiriladigan yerlar kamayib ketdi.

1918- yil oxirlari va 1919- yil boshlarida 140 dan ortiq zavod va yirik paxtacilik firmalari, 400 ga yaqin kichik korxonalar mulki davlat tasarrufiga o'tkazildi. Ya'ni, 2 mln. 657 ming pud paxta tolasi, 413,09 pud urug'lik chigit, 476,8 pud go'sht va boshqa narsalar tortib olindi. Birgina 1917- yildan 1919- yilgacha natural soliq sifatida undirilgan kamida 1 mln. puddan ortiq don Rossiyaga jo'natilgan.

Xuddi Rossiyadagidek respublikada savdo-sotiqqa qarshi ma'muriy choralar bilan kurashishga urinib ko'rildi. "Harbiy kommunizm" talablari asosida tez orada esa bozorlar butunlay bekitildi. Aholining ko'p asrlik savdo, maishiy, ma'naviy an'analari hisobga olinadigan bo'lsa, iqtisodiy jihatdan bema'ni bo'lgan bu chora unchalik to'g'ri kelmas edi. Xususiyl savdoni yo'q qilishga hatto ishchilarning bir qismi qarshi chiqdi. Natijada, ayniqsa shaharlarda sanoat korxonalari kam bo'lganligidan ish topolmay, sargardon bo'lib yuruvchilar ko'paya boshladi. Ular asosan mardikorlik bilan band bo'lar edilar. Qishloqlarda esa katta yer egalari yangi agrotexnikani joriyl qilish uchun mablag' sarf qilishdan ko'ra chorikor va mardikordlardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanishni afzal ko'rar edilar. Natijada yirik xo'jaliklar yerlarni bo'lib, chorakor dehqonlarga ijaraga berib, ulardan undirilgan yer rentasi hisobiga boyib borganlar.

Qishloq mehnatkashlarining ahvoli soliqlar va yig'im to'lovlar bilan yanada mushkullashgan. Soliqlar yildan-yilga ko'paya borgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sirdaryo, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida bunday soliqlar 1919- yil oxirlarida 425 ming so'mga oshgan. Yana o'sha ma'lumotlarga ko'ra, ikki yil ichida qishloq soliqlarining ko'lami Toshkent uezdida 2 marta, Qo'qonda —2,5, Jizzaxda —3, Xo'jand uezdida—4 marta ko'paygan. Umumiy soliqlardan tashqari, dehqonlar ko'p xil qo'shimcha soliqlar to'lashi, har xil natural

majburiyatlarni bajarishi (ariq qazish, volost boshliqlari, oqsoqollarga haq to'lashi va boshqalarni bajarish) kerak edi.

Bunday sharoitda hokimiyat vakillari o'z holicha ma'iyaviy tadbirlarni amalga oshira boshlaydilar. Natijada musodara qilingan fabrika va zavodlar, banklardagi resurslar va kontributsiya tadbirlari kutilgan natijani bermaydi. Soliqlarni to'plash va udirish bilan shug'ullanuvchi mahkamalar o'z vaqtida soliqlarni yig'ib olmaganligi tufayli hatto RSFSR da joriy qilingan 10 mlrd favqulodda inqilobiy soliq ham to'liq to'plab olinmaydi. Hukumat 1919- yil oxiridagina Turkistonda "Turkkommissiya" soliqlar bo'yicha "boshbodoqlikni tugatish" shiori ostida qaror tadbirlar o'tkazishga kirishadi.

Bu 1921- yilda RKP (b) Markaziy Qo'mitasining X s'ezdida qabul qilingan «**Yangi iqtisodiy siyosat to'g'risi**»dagi yangi Dasturda o'z ifedasini topgan va u yangicha tizimga o'tishni taqozo etar edi. Yangi iqtisodiy siyosatning muhim tartiblari quyidagilar edi:

- oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almash-tirilishi;
- savdo-sotiqni erkinlashtirilishi, sanoatda va xizmat ko'rsatish sohaslarida xususiy tadbirkorlikka qisman ruxsat berish;
- bozor mexanizmlaridan qisman foydalanish;
- vaqtincha ijaraga olish va yollanma mehnatni yana qaytadan joriy qilish va hokazolarda o'z aksini topdi.

Yuqorida qayd etilganidek, "Yangi iqtisodiy siyosat"ga o'tilishi munosabati bilan Turkiston iqtisodiy hayotida jonlanish sodir bo'lishi bilan birga, aholi ijtimoiy turmushida birmuncha o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ammo xalq xo'jaligi ishlab chiqarishida qishloq xo'jaligi asosiy o'rin egallagan bo'lib, davlat daromadining asosiy qismi ya'ni soliqlar ham asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olinayotgan edi. Mayda tovar ishlab chiqaruvchilar esa endigina shakllangan talablarga to'la moslasha olmagan, imtiyozli soliq imkoniyatlariga ega emas edilar.

G'alla monopoliyasi va oziq-ovqat razverstkasining joriy etilishi mahalliy rahbarlar, kata yer egalari o'rtasida anchagina norziliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Bu esa aholining turmush tarzini yanada og'irlashtirib yuboradi.

"Yangi iqtisodiy siyosat"ga o'tilishi munosabati bilan Turkiston iqtisodiy hayotida jonlanish sodir bo'lishi bilan birga, aholi ijtimoiy turmushida birmuncha o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ammo xalq xo'jaligi ishlab chiqarishida qishloq xo'jaligi asosiy o'rin egallagan bo'lib, davlat daromadining asosiy qismi ya'ni soliqlar ham asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olinayotgan edi. Mayda tovar ishlab chiqaruvchilar esa endigina shakllangan talablarga to'la moslasha olmagan, imtiyozli soliq imkoniyatlariga ega emas edilar.

1920- yilda yangi tipdagi XXSR va BXSР tashkil topishi arafasida va undan so'ng hukumat oldida turgan eng muhim masalalardan biri, yer-suv masalasini hal qilish edi. 1920- yil 30 sentyabrda Buxoro Markaziy Revkomi «**er to'g'risida**» **gi dekret**ni qabul qildi. Dekretga muvofiq sobiq amir, uning qarindoshlari va amaldorlari qo'lida to'plangan yer, mol-mulk musodara qilinishi kerak edi.

Shuningdek, dekretga ko'ra, «amlok» yer egaligi va ayrim soliqlar bekor qilinadi. Manbalarda qayd etilishicha, faqatgina eski Buxor va Chorjo'y bekligida sobiq amir va beklarga qarashli 10000 tanob yer musodara qilinadi.

Agrar o'lkaga xos tizimni yaratish maqsadida ushbu davrda qishloq xo'jaligida sovet tuzumi talablariga javob beradigan yagona soliq tizimi joriy qilinadi. Unga ko'ra, 10 tanob yerga ega bo'lgan yuqori hosilli yerlardan 2 so'm 50 tiyin, o'rtacha hosilli yerlardan 2 so'm, kam hosilli yerlardan 1 so'm 50 tiyin soliq olingan, 10 tanobdan ortiq yerga ega bo'lganlar 2 so'mdan 3 so'mgacha soliq to'lashlari zarur edi. 1923- yilga kelib qishloq xo'jaligida yagona soliq tizimi tarkib topdi.

“Yangi iqtisodiy siyosat” sharoitida sodir bo'lgan qisman o'zgarishlar va islohotlar tufayli 1922-1923 yillar davomida qishloq xo'jaligidagi 4 xil soliq (natural, fuqarolik pul va mehnat soliqlari) o'miga yagona qishloq xo'jalik solig'i joriy etildi. Yagona qishloq xo'jalik solig'i joriy etishdan maqsad tushumlar miqdorini oshirish bo'lib, 1923- yildayoq ularning ulushi umumiy 62,3 foizni tashkil etgan.

Guvohi bo'lganingizdek, XX asr birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning dastlabki yillaridan boshlab davlatning soliq va moliya tizimi Turkiston xalqlari yaratgan boyliklarini metropoliya manfaatlar uchun foydalanishning muhim vositalaridan biri bo'lib keldi. Soliq va moliya munosabatlarini yangi sharoitlarga moslashtirish, davlat ahamiyatidagi tadbirlardan biriga aylanib ketdi hamda u o'zining iqtisodiy va moliyaviy natijalarini ko'rsatdi.

XX asr 20 yillaridagi siyosiy jarayonlar Buxoro amirligidagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan ham bog'liqdir. Jumladan, 1920- yil 25 avgustda Turkiston fronti qo'mondoni M.V. Frunze qizil askarlarga Buxoroni bosib olish uchun buyruq beradi.

1920- yil 29 avgustda Chorjuyda amir tuzumiga qarshi “xalq qo'zolari” boshlanishi sovet qo'shinlarining qo'zolonchi kuchlarni himoya qilib, Buxoroga qarshi urush harakatlarini boshlashiga bahona bo'ladi. Amir lashkari son jihatidan ko'p bo'lgani bilan, uning qurollanish darajasi nisbatan ancha zaif edi. Sovet qo'shinlari amirlikning Chorjuy, Qarshi, Kitob, Shahrisabz va boshqa hududlarini egallab, Buxoroga tomon siljiydilar. Buxoro va uning aholisi sovetlar hujumi choida misilsiz zarar ko'rdi. Shahar ko'p bor havodan bombardimon qilinib, vayron etiladi. Amir Olimxon 1920- yil 2 sentyabrda Buxoroni tark etishga majbur bo'ladi. Hokimiyat Muvaqqat Butumbuxoro Inkilobiy qo'mitasi qo'lga o'tadi. 1920- yil 14 sentyabrda BKP MQ Muvaqqat Umumbuxoro inqilobiy qo'mitasi va Xalq Nozirlar Kengashi qonun chiqaruvchi olim organ - Umumbuxoro Inqilobiy qo'mitasi tuzilganligini e'lon qiladi. **Fayzulla Xo'jaev** Xalq Nozirlar Kengashi raisi etib tayinlanadi. Bolsheviklar tomonidan amir hokimiyati ag'darilgach, F.Xo'jaev BXS Rning tashqi ishlar noziri (1920-1924 yy), harbiy ishlar noziri (1921-1924 yy) lavozimlarida ham ishlaydi.

1920- yil 6-8 oktyabrda amirning yozgi saroyi-Sitorayi Mohi Xosada chaqirilgan Butun Buxoro xalq vakillarining 1- qurultoyida **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)** tuzilganligi e'lon qilinadi. Bu davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi, Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi hukumat tarkibini 1920- yil oktyabr-noyabr oylarida BXSR bilan RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuziladi.

1921- yil 4 martda har ikki davlat o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Bunga ko'ra Buxoro davlatining Rossiyaga tobeligi va ayniqsa harbiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan unga har tomonlama bog'liqligi o'z qonuniy ifodasini topgandi. Bu esa Rossiya Federatsiyasi va uning Turkistondagi vakolatli organlariga Buxoro Respublikasi ichki ishlariga bevosita aralashish, u yerdagi o'zgarishlarni nazorat etish va uni aniq sotsialistik maqsadlar sari yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Markaz tashabbusi bilan 1923- yil martda O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi tuziladi va unga Buxoro davlati ham jalb qilinadi. Shu tariqa respublika hududida sotsialistik o'zgarishlar izchil amalga oshirila boshlandi. Bu esa asta-sekinlik bilan Buxoroning mustaqil davlat sifatida tugatilishi uchun quyilgan dastlabki qadam edi.

Sovet hukumati «sotsialistik qurilish» taktikasini yangilab, 1921- yildan e'tiboran "Yangi iqtisodiy siyosat"ga o'tgandan so'ng mazkur jamiyat rejalarini ro'yobga chiqarishning muayyan imkoniyatlari paydo bo'ldi. RKP (B) O'rta Osiyo byurosi «mehnatkash dehqonlar» orasida sovet hukumatining obro'sini oshirishga intildi. Umuman sovet jamiyatiga xos boshqaruv siyosatining tobora takomillashib borishi, ishlab chiqarishning markazda to'planishi, davlatning ishlab chiqarish va xalq xo'jaligi mollariga nisbatan markazlashtirilgan siyosati olib berildi.

Shu maqsadda 1920-1921 yillardagi yer-suv islohotining amalga oshirilishi Yangi Iqtisodiy Siyosat (NEP) bilan birga olib borildi. Yangi iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan maqsad - mahsulot ishlab chiqaruvchi yakka dehqonlarning manfaatini oshirish, uning yerga egalik qilishini ta'minlash, imtiyozli soliq olish va bozor iqtisodiyoti, tovar-pul munosabatlariga o'tish edi. Uning asosiy bo'g'inlarini, g'aplla monopoliyasining bekor qilinishi, oziq-ovqat razvyortkasining oziq-ovqat solig'i bilan almashtirilishi, erkin savdo, sanoatda xususiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikning joriy qilinishi tashkil etdi.

Ma'lumki, 1922- yil 30 dekabrda SSSR tashkil topgan edi. Uning tarkibidagi respublikalar suveren huquqlar va real mustaqillikka ega emas edilar. O'zbekiston ham SSSR tarkibidagi ittifoqdosh respublika hisoblangan. Tarixan tarkib topgan uchta xonliklarni tugatib, o'rniga yangi tuzilmalarni vujudga keltirish markaz va o'lkadagi bolshevistik rahbarlar tashabbusi edi. 1920- yil boshidayoq, Turkkommissiya Turkiston ASSRni bo'lib tashlab, milliy til belgisiga qarab muxtor respublikalar tashkil qilish masalasini qo'ygan edi. Bu o'sha yili iyun oyida RKP (b) ning Turkistonga oid qabul qilgan hujjatlarida o'z aksini topdi. V.I Lenin

Turkistonning "O'zbekiya, Qirg'iziya, Turkmaniya" ga bo'lingan xaritasini tuzish kerakligini bir necha bor uqtirgan edi. Turkistonni milliy jihatdan qayta chegaralash markaz va RKP(b) O'rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqildi va 1924- yilda qat'iylik bilan amalga oshirildi.

1925- yilning 13 fevralida O'zSSR Sovetlarining Buxoroda ochilgan Umumo'zbek qurultoyida "**O'zbekiston SSR** tuzilgani to'g'risida deklaratsiya" qabul qilinadi. 1925- yil 13 mayda Ittifoq sovetlarining 3 qurultoyida O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kiritildi. O'zbekiston SSR sovetlari MIQning raisi etib **Yo'ldosh Oxunboboev** saylanadi. O'zbekiston XKS raisi etib **Fayzulla Xo'jaev** tayinlandi. O'zbekiston SSR tarkibiga Turkiston ASSR taribidagi Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining katta qismi, Buxoro respublikasidan uning markaziy va g'arbiy qismi (Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari), shuningdek XXSR dan Xorazmning kata qismi kiritiladi.

Bu paytda respublika iqtisodiyoti asosan agrar tushga ega bo'lib, sanoati asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat bo'lib, uning uchdan ikki qismini paxtachilik sanoati tashkil qilar edi. 1927-28 yillarda iqtisodiyotda qishloq xo'jaligining hissasi 61,60%, sanoatniki esa 38,4% tashkil qilardi edi. Respublikadagi mavjud sanoatning 90% qishloq xo'jalik xom-ashyosini ishlashga ixtisoslashgan edi, mahsulotlarni qayta ishlash korxonalaridan iborat bo'lib, uning 2 dan 3 qismini paxtachilik sanoati tashkil qilardi.

Respublikada sanoat ishlab chiqarishi ko'larining yil sayin o'sib borishi mutaxassis kadrlarga, malakali ishchilarga zarur ehtiyoj sezgan edi. Masalan, 1926- yildan 1940 yilga qadar O'zbekiston aholisi Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Boltiq buyi va Shimoliy Kavkazdan ko'chirilganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10 foizga ko'paygan. Respublika sanoatining asosiy quvvati markaz qulida to'plana bordiki, bu ham O'zbekistonning unga tobeligi, qaramligini kuchaytira bordi. Masalan, 1928 yilda O'zbekistondagi mavjud korxonalarining 81,7 foizi Ittifoqqa tegishli, 14,5 foizi respublika va 3,8 foizi mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 30 yillar o'talariga kelib Ittifoq tasarrufida bo'lgan korxonalar 90 foizni tashkil qilgan.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi ham o'ziga xos murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Alohida ta'kidlash lozimki, o'lkaning qishloq xo'jaligi oldiga mustabid rus chorizmi hukmronligi davrida qo'yilgan bosh vazifa-kimmatli sanoat xom ashyolari paxta, pilla kabilar bilan ta'minlash vazifasi Sovet hokimiyati yillarida yana ham qat'iyroq qilib kun tartibiga qo'yildi. 1925-1929 yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida barcha yer resurslarining umumdavlat monopoliyasiga olinishi, irrigatsiya-melioratsiya ishlarini qat'iy rivojlantirishga intilish sobiq Ittifoqning paxta mustaqilligini ta'minlashga erishish yo'lidagi dastlabki qadamlar edi.

O'zbekistonda o'tkazilgan yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi O'zbekiston hukumatining 1925- yil 2 dekabrda «er va suvni natsionalizatsiya qilish to'risida» va «er va suv islohoti to'g'risida» ga dekretlari asosida joylarda

yer va suv islohotlarini o'tazishga yo'l tutildiki, bu jarayon to 1929 yilga qadar davom etadi. 1925- yili respublikadagi xo'jaliklarning deyarli 10 foizi kam yerli yoki yersiz bo'lganidan ekin eka olmasdi. yeri kam xo'jaliklar, 2 desyatnagacha yerga ega xo'jaliklar ta'xminan 72 foizni tashkil etar edi.

Dehqonlarga qarashli yer maydoni o'rtacha olganda 2 desyatnadan 3 desyatnagacha borar edi. Qishloqdagi yer mulklarining katta qismi boylar qo'lida to'plangan edi. Chunonchi, bu islohot davrida boylarning yerlari (Farona viloyatida 40 desyatnagacha va bundan ham ko'proq yerlar, Toshkent va Samarqand viloyatlarida - 50, Zarafshonda - 35 desyatnadan boshlab, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda - sug'oriladigan yer ar 20 desyatina va bundan ham ko'proq, lalmikor yerlar esa 45 desyatnadan boshlab) keyinchalik taqsim qilish uchun butunlay tortib olinib, davlat fondiga o'tkazildi. yer bilan birga hamma ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilindi.

Shuningdek yer-suv islohoti muayyan ijobiy jihatlari bilan bir qatorda qishloqda ko'plab jiddiy murakkablik va ziddiyatliklarni ham keltirib chiqardi. U qishloq ma'naviyatining asosiy negizi - ruhoniylar ahliga sezilarli zarba berdi, mulk daxlsizligini tugatdi. 1929- yilning ikkinchi yarmi va 1930- yilning boshlarida respublikada mavjud reallik hisobga olinmay kolxozlar tuzish boshlab yuboriladi. Masalan, O'zbekiston partiya va hukumatining 1930- yil 17 fevraldagi «Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorida respublikaning 17 rayonida ya'pisiga kollektivlashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan edi. Vaholanki, mazkur rayonlarda buning uchun hali mutlaqo sharoit yetilmagandi. Ko'pgina joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o'rtacha hol, hatto kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm qilindi. Buning natijasida 1930- yilda respublikada 2648 ta quloq va boylar xo'jaliklari deb atalgan xo'jaliklar tugatiladi. Ko'pgina joylarda aholi jamoalashtirish xavfidan qo'rqib o'z mol-chorvatarini keragidan ziyod so'yib yuboradi yoki sotib yuborishga majbur bo'ladi. Bu esa aholining o'z mulkiga bo'lgan ishonchini ancha pasaytirib yuboradi.

1930- yilda quloq xo'jaliklarini aniqlash va ufarga turli majburiyatlar yuklash bilan bir qatorda kolxoz ichidagi «yot unsurlar»ga qarshi kurash ham olib borildi. Kolxozlarda o'ziga xos «tozalash» o'tkaziladi. 1930- yilda bunday tozalashlar natijasida 4910 kishi kolxozlardan chiqarib tashlanadi. Chiqarib yuborilganlarning 74 nafari quloqlar, 173 tasi badavlat dehqonlar, 145 tasi ruhoniylar, 215 tasi savdogarlar, 55 tasi "bosmachilik harakati" qatnashchilari, 583 tasi kolxoz tartib-qoidalariga bo'ysunmaganlar toifasiga mansub kishilar va 528 nafari esa boshqa turli sabablar bilan, qolgan 2336 nafari noma'lum sabablar bilan kolxozdan chiqarib tashlangan.

Sovet tuzumining butun mamlakat xalqlariga nisbatan olib borgan qatag'onlik siyosati hukumatning ichki mohiyatidan kelib chiqqan holda olib borilganligi ma'lum. Aslida 20- yillarda maxsus to'qib chiqarilgan va uyushtirilgan "O'n sakkizlar guruhi", "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik", "Badriddinovchilik". guruhlari 30- yillardagi ommaviy

qatag'onliklar uchun o'ziga xos tayyorgalik edi. Xususan o'sha davrda avj olgan "18" lar guruhi amalda Sho'rolar hukumati va Kompartiyaning O'zbekistonda olib borayotgan ulug' millatchilik va mahalliy kadrlarga nisbatan nopisandlik siyosatiga qarshi chiqqanlikdan kelib chiqqan edi. 1927- yilda "Inog'omov guruhi" fosh etiladi. O'zbekiston SSR xalq maorifi kommissari lavozimida ishlagan Raxim Inog'omov o'z davrida «mahalliy millatchilikda» ayblanib uning faoliyati cheklanadi va qatag'on qilinadi. O'zbekistonda siyosiy qatag'onlik 1937- yilda F.Xo'jaev, A.Ikromov, D.Manjara, S.Segizboev, A.Karimov, R.Islamov, Sexer va I.Xudoykulov, M.Shermuxammedov, M.Usmonov, T.Risqulov, I.Ortiqov, A.Islomov, M.Tursunxo'jaev, U.Eshonxujayev va boshqalar xibsga olingach ayniqsa kuchli tus olgan.

1939- yil martida bo'lib o'tgan VKP(b) XVIII s'ezdining «nazariy xulosasi» asosida Sovet Ittifoqida sotsializm asosan qurib bo'linib, o'zining taraqqiyotida sotsialistik jamiyat qurishni tugallash va asta-sekin kommunizmga o'tish pallasiga kirgan edi. Yuqorida aytib o'tilganidek, 20-yillarning boshlarida o'lka partiya davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga milliy kadrlar jalb qilingan edi. Ular orasida taniqli davlat va jamoat arbobi Q. Otaboev ham bor edi. O'z siyosiy faoliyati davomida Q. Otaboev. Markazning ayirmachilik, shovinistik siyosatiga qarshi bir necha bor o'zining dadil fikrlari bilan chiqadi.

20- yillar oxiri 30 yillar boshida o'lkada milliy harakatga tazyiq kuchaygan edi. 1929- yilda O'zbekiston Oliy sudi raisi Qosimov bilan bog'liq «qosimovchilik», «Munavvarqori to'dasi» «ishi»larini ko'rish boshlanadi. Jumladan, «Munavvar qori to'dasi» «ishi» ga 87 kishi jalb etiladi. Tergov materiallari 18 jildni tashkil qilgan. Shulardan - 18 kishi otishga, 21 kish 10, 13 kishi 5 yilga qamaladi, 3 kishi 3 yilga qamoq jazosiga, 1 kishi Omskka surgunga, jami 56 kishi jazolanadi.

Qatag'onlik qurboniga aylanganlar qatorida Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, G'ozim Olim Yunusov, Abduraxim Yo'ldoshov, Naim Said, Mashriq Yunusov (Elbek), Usmon Nosir, Otajon Hoshim, Usmonxon Eshonxo'jaev, Salimjon Tillaxonov, Fozilbek Otabek o'g'li va boshqalarning nomlarini keltirish mumkin. Ana shunday siyosiy arboblardan biri Fayzulla Xo'jaevdir. **Fayzulla Xo'jaev** (1896-1938 yy) - atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchilik harakatining taniqli nomoyondasi, yosh buxoroliklar partiyasining asoschilaridan biri. U Buxoro shahrida yirik savdogar Ubaydullaxo'ja Qosimxo'ja oilasida tug'ildi. Buxoro madrasalarida ikki yil ta'lim olgach, 1907-1912 yillarda Moskvada xususiy muallimlar qo'lida o'qidi. Buxoroga qaytgach, 1912- yil yosh buxoroliklar partiyasining, 1913- yilda partiya MQning a'zosi bo'ldi. U otasidan qolgan boyliklarni jadid maktablari ochishga, yosh buxoroliklar faoliyatini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turishga sarfladi.

1917- yildan boshlab F.Xo'jaev va A.Fitrat yosh buxoroliklardan ajralib chiqqan "so'l qanot" ga rahbarlik qilishdi. Buxoroda avval konstitutsion

monarxiya, so'ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. 1918- yil martida Buxoro amiri tomonidan yosh buxoroliklar qirg'in ostiga olinganidan so'ng F.Xo'jaev, uning safdoshlari Buxoroni tark etishga majbur bo'ldilar. Rossiya bolsheviklari yosh buxoroliklar va uning rahbari F.Xo'jaevdan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga, kelgusida yosh buxoroliklar negizida Buxoro kompartiyasini tuzish, amirga qarshi bo'lgan, bolsheviklar ta'siridagi hukumetni Turkiston Respublikasida tashkil etishni maqsad qilib qo'ydilar. Uning zaminida Buxoro davlatini yo'qotib, asta-sekin uni Sovet davlatiga qo'shib olishdek makkorona reja yotardi.

1918- yilning yozida Toshkentda turgan F.Xo'jaev amirlikni ag'darish uchun birdan-bir to'g'ri yo'l M.Frunze qo'mondonligidagi qizil qo'shnlardan "yordam so'rash", deb bildi. U 1920- yil yanvarda Toshkentda tashkil topgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosi raisi, "Uchqun" gazetasining muharriri (1920- yil, aprel-sentyabr) bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan amir hokimiyati ag'darilgach, 1920- yil 14 sentyabrda F.Xo'jaev boshchiligida Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi tuzildi. F.Xo'jaev BXSРning tashqi ishlar noziri (1920-1924 yy), harbiy ishlar noziri (1921-1924 yy) lavozimlarida ham ishladi. BXSР hukumati boshlig'i bo'lgan F.Xo'jaev birinchi kundanoq mustaqil siyosat yurguzishga, sovet Rossiyasi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o'rnatishga harakat qildi. 1922- yil u Germaniyaga chet el savdo kompaniyalari va banklari bilan mustaqil shartnoma tuzishga bordi. F.Xo'jaev Turkistondagi istiqloqlchilik harakatiga hayrixohlik bilan qaradi.

U 1925- yil fevralda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashiga raislik qildi. Markazning Turkbyuro, Turkkomissiya, RKP(b) MQ O'rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlardan cho'chimadi. F.Xo'jaev "o'n sakkizlar guruhi"ning g'oyaviy ilhomchisi edi. U Buxorodagi jadidlik tarixiga bag'ishlangan "Buxoro inqilobining tarixiga materiallar" (1926 yy) asari uchun kompartiya tomonidan tanqidga uchradi. U O'zbekistonda yoppasiga paxta eqilishi - paxta yakkahokimligini yuzaga keltirishi mumkinligini ochiq aytgan edi. F.Xo'jaev 1937- yil yozida O'zSSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida turgan chog'ida Moskvada qamoqqa olinib, 1938- yil 13 martda otib tashlanadi.

Inog'omjon Xidiraliev (1891-1929 yy) – davlat va jamoat arbobi. Farg'ona viloyati Namangan uezdi Pop volosti Iskovat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildi. 1903-1905 yillarda Popdagi, 1906-1907 yillarda Qo'qondagi rus-tuzem maktabida o'qidi. 1909-1917 yillarda O'sh va Jalolobod shaharlaridagi pristavlarda kotiblik va tilmochlik qildi. 1917- yil noyabrda uni O'sh shahar dumasiga a'zo qilib saylashadi. 1919 yildan turli Sovet idoralari da ishlaydi. 1920- yil Qo'rg'ontepa tuman inqilobiy qo'mita raisi, Farg'ona viloyati partiya qo'mitasi raisi bo'lib ishlaydi. 1922- yil fevralda Turkiston ASSR yer-suv ishlari komissari etib tayinlanadi. TASSR MIK raisi (1922-1924 yy), TASSR MIQ va XKKning RSFSRdagi Muxtor vakili (1924- yil yanvar-noyabr) bo'lib ishladi. **I.Xidiraliev** 1924- yil aprel-avgustda Londonda bo'lgan Sovet-Angliya muzokaralarida ishtirok etadi. F.Xo'jaev, T.Riqulov, Q.Otaboevlar bilan



hamkorlikda bolsheviklarning shovinistik siyosatini izchillik bilan fosh qildi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga hayrixohlik bilan qaradi. U "o'n sakkizlar guruhi"ning tashkilotchilaridan biri edi (1925 yy). 1926- yilda O'zbekiston qishloq xo'jalik banki pravleniyasi raisi lavozimida ishladi.

I.Xidiraliev O'zbekistonda yer-suv islohotlari jarayonidagi "quloqlarni sinf sifatida tugatish" siyosatiga qarshi chiqan edi. Biroq mustabid tuzumning unga o'tkazgan ruhiy tazyiqlari va doimiy ta'qib ostiga olishlari ta'sir qilmasdan qolmadi. I.Xidiraliev 1928- yil 31 dekabrda Moskvadagi "Natsional" mehmonxonasida o'z joniga suiqasd qiladi.

Sauningdek o'sha davrda o'zbek xalqining mashhur yozuvchilaridan Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir Stalin istibdodining begunoh qurboni bo'ldilar. 30-yillarda o'zbek adabiyotining Fitrat va Cho'lpon kabi "keksa" avlodi vakillarining erkin ijod etishiga yo'l qo'yilmadi. Fitrat 1938- yil 4-oktyabrda "...sovet hokimiyatiga qarshi aksi inqilobiy, panturkistik ishlar olib borganlikda" ayblanib, otib tashlanadi.

**Qoraqalpog'iston.** Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik-madaniy yaqinligi tarixan yagona muhitda shakllangan bo'lib, ularni tarixiy mushtaraklik bog'lab turadi. Shu ma'noda azaldan o'zbek, qoraqalpoq xalqlari birgalikda bir tanu, bir jon bo'lib yashab kelganlar. 1924- yilda milliy-hududiy chegaralanishi natijasida Qoraqalpog'iston muxtor viloyati tuziladi. Ushbu viloyat Qirg'iziston (Qozog'iston) ASSR tarkibida bo'lib, unga volostlardan iborat To'rtko'l, Chimboy, Xo'jayil va Qo'ng'iro't okruglari kirgan. 1925- yil 12-19 fevralda viloyat markazi To'rtko'l shahrida bo'lib o'tgan Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Sovetlarining birinchi qurultoyi "Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil topganligi to'g'risida Deklaratsiya" qabul qildi va "qoraqalpoq milliy davlatchiligi" tashkil etilganligini qonuniy rasmiylashtirdi. Qoraqalpog'iston avtonom viloyati Ijroiya Qo'mitasining raisi etib A. Qudaboev saylandi.

Qoraqalpog'iston Muxtor viloyati tashkil etilgandan so'ng, sovetlar bu yerda ham sotsialistik qurilishni avj oldirib yubordilar. Jumladan ovul va qishloqlarni sovetlashtirish keng miqyosda olib borildi. Sovetlarga batrak va kambag'allar saylanib, ularning asosiylarini kommunist va komsomollar tashkil qildi. Mamlakatda vayron bo'lgan sanoatning turli sohalari, qishloq xo'jaligi va sug'orish ishlarini tiklash amalga oshirildi. Qoraqalpog'iston iqtisodiyotining taraqqiyoti bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, SSSRning markaziy mintacalari sanoatini rivojlantirish ihtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan edi.

Masalan, 1933- yilning 3 oktyabrida SSSR yer ishlari Xalq Komissarligi Qoraqalpog'istonni mamlakatni beda urug'i yetkazib beruvchi asosiy baza deb tan olgan edi. Buning asosiy sababi mamlakat xalq xo'jaligida ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi mehnat taqsimotida Qoraqalpog'istonga oliy sifatli paxta, beda hamda baliq bilan ta'minlab turish yuklatilganligida edi.

1930- yilda Qoraqalpog'iston muxtor viloyati RSFSR tarkibiga kiritiladi. 1932- yilning 20 martida esa, SSSR MIQ Rayosati "Qoraqalpog'iston avtonom viloyatini Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish va uni RSFSRga

kirishi to'g'risida" qaror qabul qiladi. O'sha yilning may oyida avtonom respublika Sovetlarining I Ta'xis qurultoyi xukumatni tuzdi. Unda QQASSR MIQ raisi etib, K. Nurmuhamedov, Xalq Komissarlari Kengashi raisi etib esa Qosim Avezovlar saylandilar. 1936 yilda SSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi va unga ko'ra QQASSRning O'zbekiston SSR tarkibiga kirishi ko'zda tutilgan edi. Buning asosiy sababi, hududiy yaqinlik, yagona tarixga ega bo'lganligi deb e'tirof etildi. 1937- yil 12 fevralda O'zSSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. O'sha yilning 6 martida esa, QQASSRning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinadi. Qoraqalpog'iston O'zbekiston tarkibida bo'lganida, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi do'stlik yanada mustahkamlandi.

### **5. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston. O'zbekistonliklarning front va front ortidagi jasoratlari.**

Ikkinchi jahon urushi 1939- yil 1 sentyabrda Fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan boshlangan. Ushbu urushni aslida fashistlar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va militaristik Yaponiya boshlagan edi. Ular orasida Germaniya fashistlari uyushtiruvchi, yetakchi rol o'ynagan. Fashistlar bloki davlatlari tomonidan olib borilgan urush bosqinchilik, adolatsizlik urush edi. Fashizmga qarshi urushgan davlatlar adolat uchun kurashdilar. Ma'lumki urushining dastlabki davridayoq fashistlar Germaniyasi g'arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni to'la qo'lga kiritadi.

Germaniyaning SSSR ga hujumi 1941- yil 22 iyunda boshlandi. Germaniyaning ittifoqchilari Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Sovet xalqining fashizmga qarshi urushi boshlanadi. Urush harakatlari va front liniyalarida 110 millionga yaqin kishi ishtirok etdi. Mazkur urush 6 yil davom etib, unda 55 milliondan ortiq kishi halok bo'lgan. Eng ko'p Sovet Ittifoqidan 27 milliondan ortiq kishi o'ldirilgan. Shuningdek, Germaniya 13,4 million, Polsha 6 millionga yaqin kishi, Xitoy 5 million, Yugoslaviya 1,7 million, AQSh 400 ming, Buyuk Britaniya 370 ming kishidan ajralgan. Birgina Sovet-German frontida 10 million kishi o'ldirilgan bo'lib, shulardan Germaniyaning o'zidan 2,5 milioni kishi fronting o'zida halok bo'lgan. Mazkur urushda eng katta yo'qotish sobiq SSSR da bo'lgan ya'ni, 27 milliondan oshiqroq aholi halok bo'lgan. Ular orasida yuz minglab o'zbekistonliklar ham bor.

Ikkinchi jahon urushi asosan yer yuzidagi 12 ta davlatlar hududida olib borilib, 60 ga yaqin davlatlarni o'ziga qamarab olgan. Shu tariqa u yer shari aholisining salkam 80 foizini, ya'ni 1,7 milliard kishini o'z girdobiga tortdi.

Urushning asosiy tashabbuskorlari Germaniya, Italiya va Yaponiya ikkinchi tomondan SSSR, AQSh va Angliya davlatlari o'rtasida dunyoning qaytadan bo'lib olish siyosatining oqibatida yuzaga keldi. G'arb davlatlari Angliya, Fransiya, AQSh hukmron doiralarning "kelishtirish" siyosati Avstriyaning 1939 yil mart, Chexoslaviyakani 1939- yil mart Germaniyaga qo'shib olinishiga va Myunxen bitimiga yo'l ochib bergan edi. Yuqorida qayd

qilinganidek, 1939- yil 23 avgustda SSSR bilan Germaniya o'rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik tug'risida shartnoma imzolanganligi, shartnomaning maxfiy qo'shimcha ah'domasiga muvofiq Germaniya va SSSR, sharqiy Yevropada o'zlarining tasirini bo'lib oldilar. Bu kelishuvga muvofiq Polsha Germaniyaga berildi, g'arbiy Ukraina, g'arbiy Belorussiya va Boltiq buyi mamlakatlari berildi.

SSSR tarkibidagi barcha respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston ham urush girdobiga tortiladi. Shu tariqa ikkinchi jahon urushi jahondagi 60 dan ortiq mamlakatni, yer shari aholisining 80 foizini, ya'ni 1.7 milliard kishini o'z girdobiga tortadi.

1941- yilda O'zbekiston aholisi jami 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Buyuk g'alabaning 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi da qayd etilishicha, yangi ma'lumotlarga ko'ra, **O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgan.** Ma'lumotlarga ko'ra 1941- yilning oxrigacha 300 ga yaqin korxonalar harbiy izga solindi, jangovar texnika, qurollar, o'q dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'zini keksalar, xotinqizlar egalladilar. Urush bulatgan va dushman yaqinlab kelatgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini kolxoz, sovxoz va MTS laming mulklarini madaniy boyliklar va o'quv yurtlarini Sharqqa, jumladan O'zbekistonga ko'chirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Fashistlar tomonidan yondirilgan, vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, otalari, urushning dastlabki kunlaridanoq halok bo'lganlarning bolalari, yuz minglab kishilar ulkan oqim bo'lib ko'chib kela boshladilar.

Urush yillari O'zbekiston haqiqiy insonparvar o'lkaga aylangan edi. Xususan, 1941-1942 yillarda O'zbekistonga 15649 nafar bola ko'chirib keltirilgan. Bu jarayon undan so'ng ham davom etdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalatiga oladilar. Jumladan, Toshkentlik **Shomahmudovlar** 14 bolani o'z bag'riga oldilar. Kattaqo'rg'onlik **Hamid Samadov** oilasi 12 bolani asrab olgan bo'lsa, F. Qosimova 10, M. Jo'raeva va Ashurxo'jaevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943 yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945- yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. O'zbek xalqi urushning dastlabki yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalaridan ko'chirilib keltirilgan bir milliondan ko'proq kishilarni, shu jumladan 200 mungdan ko'proq yetim bolalarni o'z bag'riga oldi.

Xalq front hududlaridan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan aholiga haqiqiy insonparvarlik, bag'rikenglikni namoyish etdi. Urushning dastlabki kunlarida

O'zbekistonga 1 mlndan ortiq kishi ko'chirib keltirilgan bo'lsa, shulardan 240 000 dan ko'prog'i bolalar edi.

Urush yillaridagi haqiqiy insonparvarlik va matonatning yana bir isboti va ramzi sifatida shuni alohida qayd qilish joizki, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida yashab o'tgan, o'sha suronli yillarda turmush o'rtog'i Holmat aka vafot etgach, Zulfiya aya yolg'iz o'zi 5 o'g'il va 1 qizni tarbiyalab, voyaga yetkazgan bir mahalda urush boshlanib, u o'zining navqiron 5 o'g'lini ham frontga jo'natgan edi. **Zulfiya aya Zokirovaning Isoqjon, Ahmadjon, Mahamadjon, Vahobjon, Yusufjon** ismli beshta o'g'li urushga ketib, ularning birortasi ham frontdan qaytib kelmadi. Ayaning 4 kelini, besh nabirasi yetim bo'lib qoladi. Onaizor umrining oxiriga qadar, suv kelsa -simirib, tosh kelsa-kemirib, qahramon o'g'illarining aziz xotirasi bilan, kelinlari, nabiralarning hayoti, yurtning tashvish va quvonchlari bilan yashadi.

Zulfiya ayaning mehr-oqibatli kelinlari undan o'rnak olib, unga madad bo'lib, barchasi o'z yoriga, oilasiga sodiq qoldi, boshqa turmush qurmadi. Bir umr barcha ruhiy qiyinchiliklarni boshdan o'tkazib yashadilar.

Ushbu jasoratni o'z vaqtida anglagan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019- yil 9 may bayramida metin irodali Zulfiya ayaning har qanday odamni hayratga soladigan, qalblarni yakson qilib tashlaydigan bunday og'ir zarbaga chidash bergan insoniy jasorati haqida so'z yuritib, o'zbek ayollari, o'zbek xalqining shunday buyuk jasorati, sabre bardoshiga bag'ishlab, "Matonat madhiyasi", degan monument barpo etishni taklif qilgan edi. **2020- yil 9 may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev** ishtirokida Toshkent shahrining Olmazor tumanidagi so'lim joyda ushbu monument xalqimizga tuhfa etildi.

Yana tarixiy jasoratlar haqidagi ma'lumotlarga murojaat etadigan bo'lsak, birgina 1941- yil dekabrga qadar O'zbekistondagi shahar va qishloqlarga 525 ming nafar aholi keltirilishi va joylashtirilishi rejalashtirilgan. Amalda ularning soni 665419 nafarni tashkil etgan. 1942- yil yanvar oyining o'rtalarida Toshkent tumani mahallalariga 2712 kishi evakuatsiya qilingan. Ularning 1252 nafari erkaklar. 1460 nafarini ayollar tashkil etgan. Ular ruslar - 1913, ukrainlar - 126, beloruslar-33, yaxudiyalar -569, armanlar -9, tatarlar - 13, polyaklar - 6, nemislar - 3, greklar - 2, latishlar - 7, moldovanlar - 8, shvedlar-1, chuvashlar - 6, estonlar - 5, boshqa millat vakillari 8 nafarni tashkil etgan.

Jami Toshkent viloyatiga 1942- yil yanvar oyining o'rtalarigacha kelganlarning soni 5414 kishini tashkil etgan. Ulardan 2341 nafari erkaklar, 3073 nafari ayollar bo'lgan.

1941- yilning noyabr oyi davomida Ukrainadan O'zbekistonga 54029 nafar (jumladan, Odessa oblastidan -9508, Kievdan- 7528, Dnepetrovskdan -4238, Xarkovdan -3490, Vinnitskdan -2810, Jitonirdan -2082 kishi) kishi evakuatsiya qilingan edi. Urush yillarida birgina Surxondaryo viloyatiga 20 mingdan ortiq aholi keltirilib joylashtirilgan bo'lsa, ularning 3.5 mungtasi yosh bolalar edi. Evakuatsiya qilingan aholi uchun Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Narpay, Pastdarg'om va boshqa tumanlarida ham bolalar uy'lari tashkil etiladi.

Ularda 4270 nafardan ortiq bola tarbiya'angan, Buxoro viloyatiga esa 150 mingdan ortiq evakuatsiya qilingan aholi joylashtirilgan.

1941- yilda Namangan viloyatiga Ukraina, Belorusiya, Boltiq bo'yi respublikalaridan 19 ming kishi evakuatsiya qilingan. Ulaming 1674 nafari ish bilan ta'minlangan. To'raqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Pop tumanlarida maxsus bolalar uylari tashkil qilinadi. Qoraqalpog'istonga esa 3891 nafar kishi ko'chirib keltirilgan. 900 oila ota-onasidan ajralgan yetim bolalarni o'z tarbiyasiga oladi. Shuningdek harbiy xizmatchilarning va ko'chirib kelinganlarning 20,3 ming nafar bolalari bolalar bog'chasiga, yasli'larga va bolalar uyiga joylashtiriladi.

Respublikaning barcha xalqlari qatori qoraqalpog'istonliklar ham evakuatsiya qilingan aholiga o'zlarining yordamini ayamadilar. Shuningdek, O'zbekistonga ko'chib keltirilgan va tashkil qilingan bolalar uylariga va o'nlab harbiy gospi'tallarga respublika tashkilotlari, mahallalar tasarrufiga birlashtirib qo'yiladi. Ayniqsa tashkilotlar bilan hamkorlikda otaliq sifatida bolalar uyi va gospi'tallarni ozoq-ovqat, meva-chevalar bilan ta'minlab turganlar.

Urush yillarida katta yo'qotishlar sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga ham ta'sir etganligi shubhasiz. Front hududlaridan minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklar mamlakat ichkarisiga ko'chirish boshlab yuboriladi. Ulardan 104 ta korxonaga O'zbekistonga ko'chirib keltiriladi. Ular orasida Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, "Krasnyy-Aksoy", "Rosselmash", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karborund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yomnik" zavodlari, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasniy put" zavodi, Kievdagi "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqa ko'pgina korxonalar bor edi.

Ulardan 55 tasi Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 tasi Samarqandga, 22 tasi Farg'ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtiriladi. Ko'chirib keltirilgan zavod va fabrikalar qisqa muddatlarda, ya'ni "Rosselmash" 25 kunda, "Krasniy Aksoy" zavodi bu yerga yetib kelganidan keyin oradan 29 kun o'tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941- yil dekabrda kelib evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushiriladi. 1942- yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

Urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonaning qurilib ishga tushirilishi natijasida 1945- yilga kelib, sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barobar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'mir qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 bora ko'paygan.

O'zbekiston temir yo'llarining fidokorona mehnati natijasida 1941-1942 yillar davomida ko'chirilgan sanoat korxonalarining asbob-uskunalari ortilgan 17,5 ming vagon tashib berildi. Front orqasi bilan front o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilgan temir yo'l tarmoqlari 1941-1945 yillarda 2 barobar uzaydi. Avtotransport vositasi ham urush yillarida yuk tashish va aloqa vositasi

sifatida muhim o'rin tutdi. 1945-yilda respublika avtotransportida tashilgan yukning hajmi 1940-yildagiga nisbatan 2 barobar o'sdi.

O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. **"Hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun"** shioriga qarata javob bergan ko'pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar. Ular orasida O'zbekistonning mashhur olimlaridan *U.A. Orifov, A.X. To'raqulov, I. Ismoilov, X. Usmanov va boshqalar bor edi. T.N. Qori-Niyozov, V.I. Ramonovskiy, T.Z. Zohidov, L. A. Raykova, O.S. Sodiqov* kabi olimlar natijasi xalq xo'jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.

Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940-yilda tashkil etilgan SSSR FAning O'zbekiston filiali (O'zFAN), keyin **1943-yil noyabrda** ochilgan **O'zR FA** amalga oshirdi. O'zFA ning birinchi prezidenti qilib T.N. Qori Niyoziy saylandi. Bu o'zbek xalqi hayotida muhim voqea bo'ldi. 1943-1945 yillarda qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O'zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O'zFAning faoliyatida ko'chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o'ziga xos hissasi bo'ldi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O'zbekistonda Oliy va o'rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to'xtab qolmadi. O'zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o'rta maxsus o'quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko'chirib keltirilgan 31 ta oliy o'quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o'quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi.

O'zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Oybek, Hamid Olimjon, Shayxzoda, G'ofur G'ulom, Uyg'un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she'rlari va maqolalari bilan xalqni g'alabaga ruhlantirdilar. Oybekning "Yovga o'lim" she'ri, "Navoiy" romani, «Men yahudiy», Hamid Olimjonning "Yigitlarni frontga jo'natish", "Jangchi Tursun", "Roksananing ko'z yoshlari" va boshqa asarlar urush yillaridagi o'zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrahim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, "Qizil armiya", "Front haqiqati", "Qizil askar haqiqati", "Suvorovchi", "Vatan sharafi uchun" kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A. Umaniy, G'afur G'ulom, Ra'no Uzoqova va boshqa shoir, ham yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marra-lariga borib, o'z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo'yib berib, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, **Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov** kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A. Abdullaev, Ch. Ahmarov, O. Tansigboev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

**O'zbekistonlik jangchilarning frontdagi jasoratlari.** Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish voqyealardan biri sifatida tarixga kirdi. Barcha xalqlar singari urush yillarida minglab o'zbekistonliklar ham frontning birinchi qatorlarida dushmanga qarshi janglarda faol ishtirok etdilar. Bunday jasorat xalqimizning chinakam qahramonligi va mardligining namunasi edi. O'zbekistonliklar keng front bo'ylab Belorusiyani, Ukrainani, Rossiyaning g'arbiy mintaqalari, Shimoliy Kavkazni ozod qilishda, Leningrad qamalini yorib o'tishda, Stalingradni ozod qilishda, Brest qal'asi mudofaasida, o'zbekistonliklarning ko'rsatgan jasoratlari haqiqiy qahramonlik namunasi edi.

Harbiy muvafaqiyatlarga erishida Turkistonda, xususan O'zbekistonning o'zida tuzilgan harbiy tuzilmalar katta rol o'ynadi. Jumladan general-mayor I.V. Panfilov qo'mondonligidagi 316-o'qchi diviziya Volokolamsk, Dubosekovo, Novo-Petrovsk yonidagi janglarda qahramona kurash olib bordi. O'zbekistonlik **Abdulla Tog'ayev, Mamadali Madaminov, Leytenant Pilyugin** boshliq jangchilar jasoratlarini alohida qayd qilish mumkin. Moskva uchun olib borilgan janglarda o'zbek xalqining qahramon qizlarining jasorati namunasini ko'rsatgan Zebo G'anieva Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlandi. Moskva ostonasida fashist qo'shinlarini tor-mor qilishda ko'rsatgan jasoratlari uchun 1753 O'zbekistonlik jangchi «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi. S. Qosimxo'jaev «Qahramon» unvoniga sazovor bo'ldi.

Moskva yonidagi g'alaba sovet rahbarlarida 1942- yildayoq urushni yakunlash, mamlakatni ozod qilish fikrini vujudga keltirdi va butun front bo'ylab hujum qilish haqida buyruq berildi. 1942- yildagi qishki hujumlarda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatib, mahorat bilan jang qilgan **Qo'chqor Turdievga** 1942- yil may oyida «Sovet Ittifoqi Qahramoni» unvoni berildi. Jangchilarimizning jasorati ham o'z harbiy kuchining asosiy qismini saqlab dushman qo'shinlarini tamomila yo'q qilishga, sovet rahbarlarining xatolari o'mini qoplashga kamlilik qilar edi. Buning uchun dushmannikidan kuchli harbiy-texnika yarog' va taktika kerak edi.

1942- yil may-iyun oylaridagi sovet qo'shinlarining hujumkor operatsiyalarini to'xtatgan dushman 25 iyunda Volga va Shimoliy Kavkaz yo'nalishida hujumga o'tdi. Mamlakatda yana qaltis vaziyat vujudga keldi. Ana

shunday bir paytda o'zbek xalqi o'zbek jangchilariga ochiq maktub bilan murojaat qilib, o'z farzandlarini vatanga sodiqlik va jangda qo'rqish nimaligini bilmaslikka chaqirdi. Bu chaqiriqqa o'z qahramonliklari bilan javob bergan jangchilarimizdan 1974 nafari "Kavkaz mudofaasi uchun" medali bilan mukofotlanadilar.

Stalingrad mudofaasini yorib, dushman ustidan katta g'alabani qo'lga kiritilishi urushning borishida tub burilishga asos bo'ldi. Bu janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun 2733 ta O'zbekistonlik jangchilar "Stalingrad mudofaasi uchun" medaliga sazovar bo'ldi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda Toshkentda tuzilgan **Sobir Rahimov** qo'mondonligidagi diviziya jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, 8 mingdan ortiq dushman jangchilarini qirib tashladilar.

Sobir Rahimov o'zbeklardan chiqqan birinchi General hisoblanadi. General Sobir Raximov o'z polk komandiridan soqchilar bo'linmasi komandiriga qadar 10 marta yaralangan. U 2 chi darajali Suvorov ordeni va 4 ta Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangan. Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlarida 27 chi mexanizatsiyalashgan korpus tarkibidagi diviziya 27 iyundan boshlab frontga yuborila boshladi. 15 iyulga kelib u G'arbiy frontning general-leytenant V.Ya.Kachalovning 28 armiyasining tarkibiga kirdi. Keyin diviziya 104chi Panzer diviziyasiga aylantirildi va mayor S.Raximov xizmat qilgan polk 104 chi mototsikl polkiga aylandi. 1941- yil 21 iyulda u yelniyda zarba berish buyrug'ini bajara turib, Smolensk jangida jangga kirdi. 1 avgust kuni Putisheva qishlog'i uchun bo'lgan jangda jiddiy yaralangan. Kasalxonadan keyin frontga qaytadi va 31 oktyabrda u Shimoliy Kavkaz harbiy okrugida 1149 miltiq polkining komandiri qilib tayinlandi. 1941- yil noyabr-dekabr oylarida polk boshlig'i Rostov mudofaasi va Rostovdagi hujum operatsiyalarida qatnashdi. U yerda uning ismi butun armiyaga ma'lum bo'ldi. 1941- yil 28 noyabrda uning polklari birinchi bo'lib Rostov-Donni ozod qilishda qatnashib, Qizil Bayroq ordeni bilan taqdirlangan.

Keyinchalik armiya va diviziya janubiy frontning bir qismiga aylandi va 1941-1942 yil qishda Taganrogga qarshi yana bir hujumda qatnashdi, bu muvaffaqiyatsiz tugadi. 1942 yil may oyida podpolkovnik Raximov 353-piyodalar diviziyasi komandirining o'rinbosari qilib tayinlandi, u 1942- yil yozida Donbassdagi mudofaa operatsiyasining og'ir janglarida qatnashadi.

1942- yil 1 avgustda u Shimoliy Kavkaz fronti Kuchlari 18- armiyasining 395-otliq diviziyasining komandiri vazifasini bajaruvchisi tayinlandi. Bo'lim boshlig'i Kavkaz jangida Armaviro-Maykop va Tuapsening mudofaa harakatlarida qatnashgan. 1942- yil 15 sentyabrda Tuapse yaqinidagi janglarda polkovnik Sobir Raximov ikkinchi jarohatni oldi, ammo tezda xizmatga qaytdi. 1943 yil boshida diviziya boshida, Shimoliy Kavkaz va Krasnodar hujumida qatnasadi. Kavkaz uchun jangda diviziyaning mohir qo'mondonligi uchun Raximov ikkinchi Qizil Bayroq ordeni bilan. 1943- yil 8-martda 2-darajali harbiy qo'mondon unvoni bilan taqdirlangan.



Unga 1943- yil mart oyida unga **General-mayor unvoni** berilgan. 1943- yil Moskvaga Harbiy Akademiyaga o'qishga chaqiriladi va 1944 yilda uni yakunlab Gereneral mayor unvoniga sazovor bo'ladi. Sobir Rahimovning harbiy faoliyati Shimoliy Kavkazdan boshlanib, Polshagacha yetib bordi. Polshaning Gdansk va Dansig shaharlarini ozod qilishda qatnashadi. Stalingrad mudofaasini yorib, dushman ustidan katta g'alabani qo'lga kiritishda janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun 2733 ta O'zbekistonlik jangchilar "Stalingrad mudofaasi uchun" medaliga sazovor bo'ldi. Kavkaz uchun olib borilgan janglarda Toshkentda tuzilgan Sobir Rahimov qo'mondonligidagi diviziya jiddiy muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritib, 8 mingdan ortiq dushman jangchilarini qirib tashladilar.

Bu diviziya Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan jangovar yo'lni bosib o'tdi. Keyinchalik Polsha yerlarini ozod qilishda Sobir Umarovich Rahimov rahbarligidagi 37-gvardiyachi Rechitsk o'qchi diviziyasi alchida ajralib turdi. Dansig shahriga birinchilardan bo'lib kirishdi, janglarning birida og'ir yarador bo'lgan S.U. Rahimov 1945- yil 26 martda halok bo'ldi. 1965- yil 6 maydagina tarixiy haqiqat tiklanib, o'zbek xalqining mard o'g'li S.U. Rahimovga o'limidan so'ng **Sovet Ittifoqi Qahramoni** unvonini berildi.

1943- yilda Oryol-Kursk yo'nalishi bo'yicha olib borilgan shiddatli janglarda ko'rsatgan jasoratlari uchun Ahmadjon Shukurov, V. Shalandin, M. Abdulin, A. Solihovlar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar. Dnepmi kechib o'tishdagi qahramonliklari uchun 100 ga yaqin O'zbekistonliklar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandilar. Ulardan J. Usmonov, V. Nabiev, X. Aminov jasoratlarini alohida qayd etish mumkin,

1944-1945 yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiq bo'yi respublikalari va Rossiya Federatsiyasining g'arbiy viloyatlarida faoliyat ko'rsatgan O'zbekistonlik jangchilar faoliyati ikkinchi jahon urushi tarixi sahifalariga bitilgan bo'lib, ularning nomlari dushman ko'ngliga qo'rquv solgan edi. Bular orasida **Mamadali Topiboldiev, J. Otaboev, I. Musaev, A. Hakimov, I. Qosimov** va boshqalarning mardlik namunalari ta'kidlash mumkin.

Ayniqsa Fashistlar Germaniyasi "yashin tezligidagi urush" rejasi bilan to'satgan SSSRga bostirib kirganida, 22 yoshli, oddiy askar Mamadali Topiboldiev o'z qurol-doshlari bilan fashistlarning birinchi xujumini qaytargan. O'sha birinchi jangda u yarador bo'ldi. Urushning dastlabki kunlarida polk qurshovga olingan kichik bir otryad bilan birgalikda u dushmanning qurshovidan o'tib, Mogilev viloyati o'rmonlariga kiradi. Ratsevsykiy o'rmonida Aleksandr Smetyankin boshchiligidagi partizan otryadiga qo'shiladi.

1941- yil noyabrda Mamadali Topivoldiev qurol-doshlari bilan fashistlar bosib olgan Borisov shahri chekkasidagi harbiy lagerdan 146 nafar asirni ozod qilishchi. Har bir operatsiyadan keyin Topivoldiev daraxtlarga "**Kazbek**" ismini xanjar bilan o'yib yozardi va shu bilan nemislarni qo'rqitib, o'z izini qoldirardi.

Tarixiy man'abalarga ko'ra, Mamadali Topivoldiev yolg'iz o'zi dushman kazarmalarini vayron qilgan, 5 ta harbiy esholonni portlatgan, 76 fashist askarini va 1 ta nemis generalini qo'lga olgan. Adolf Gitler Mamadali Topiboldiev

(Kazbek) ning boshi uchun **50 ming marka** (ya'ni 825.000 AQSh dollari) miqdorida "mukofot" va'da qiladi. Ammo dushman botir, qo'rqmas va tutqich bermas jangchini tuta olmaydi. Ular vatandoshimizni tutish uchun anchagina harbiy kuch sarflab, kattagina yo'qotishlarga ham uchraydi. 1944-yil 15 avgustda Mamadali Topivoldiev Belorussiyada partizanlik harakatini rivojlantirishda, hukumatning maxsus topshiriqlarini bajarishda ko'rsatgan xizmatlari uchun "Qahramon unvoni" beri-adi.

Bu davrda SSSR chegaralari butunlay tiklangach, sovet qo'shinlari Polsha, Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Chexoslovakiya, Avstriyani ozod qilib, Berlinni egallashda sovet qo'shinlari tarkibida O'zbekistonlik jangchilar ham o'zlarining bayramlikliklarini namoyon qildilar. Yevropa xalqlarining fashistlar asoratidan ozod bo'lishlariga o'z hissalarini qo'shdilar. Bu mamlakatlarni ozod qilishdagi jasoratlari uchun B. Boboev, P. Nurpeksov, T. Nazarov, A. Rahimov, M. Fayozov va boshqalar Sovet Ittifoqi Qahramoni unvon, 2430 nafar hamyurtimiz "Budapeshtni ozod qilish uchun" medali, 1706 kishi "Berlin olingani uchun", 109208 kishi "Germaniya ustidan g'alaba qozonganligi uchun" medali bilan taqdirlanganlar.

Ikkinchi jahon urushining g'olibona yakunlanishida O'zbekistonliklarning front va front orqasidagi jasoratlari katta hissa bo'lib qo'shildi. 120 mingdan ortiq O'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldilar. 301 O'zbekistonliklarga «**Sovet Ittifoqi Qahramoni**» unvoni beriladi, 82 ta jangchi «Shuhrat ordeni» bilan taqdirlandilar. O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. 1939-1945 yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan 1433230 kishidan 263005 kishi halok bo'ldi, 132.670 kishi nogiron bo'lib qaytadi.

**O'zbekistonliklarning front ortidagi mehnat jasoratlari.** Urushning boshlanishi millionlab xalqlar boshiga og'ir kulfatlarni soldi, mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqardi, minglab insonlarni yostig'ini quritdi, u tufayli minglab insonlar o'z vatanidan, oilasidan, farzandlaridan ajraldi. Dunyo urush iskanjasida qoldi, mamlakatlar va xalqlar o'rtasida siyosiy, harbiy ixtiloflar boshlandi. Urush bo'layotgan va dushman yaqinlab kelgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini kolxoz, sovxoz va MTS larning mulklarini madaniy boyliklar va o'quv yurtlarini Sharqqa, jumladan O'zbekistonga ko'chirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi.

Shunday og'ir sharoitda O'zbekistonliklar urushning og'ir sinovlariga dosh berib, uni g'alaba bilan yakunlanishiga o'z hissalarini qo'shdilar. Urushga yordam ko'rsatish harakati butun O'zbekistonni qamrab oldi. Butun urush davomida O'Z KP MQ ning plenularida ushbu masala doimiy ravishda kuni tartibiga qo'yilib, muhokama etib borildi va to'liq nazorat ostiga olindi. Barcha tashkilotlar, ishlab chiqarish korxonalari, birlashmalarda urush ketayotgan hududlarga va mamalkatning ozod qilingan g'arbiy tumanlariga har tomonlama ko'mak berish, fashist bosqinchilariga qarshi kurashda vatandoshlariga yelkadosh bo'lish borasida ommaviy mitinglar va tadbirlar boshlab yuborildi.

O'zbekistonliklar ozod qilingan hududlar xalq xo'jaligini tiklash va rivojlantirish, frontga zarur xalq xo'jaligi mollari, uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy anjomlar, oziq-ovqat, meva-sabzavotlar, harbiy qurol-yarog'lar yetkazib berishda haqiqiy namuna ko'rsatdilar. Jumladan, 1942 yilda O'zbekiston sanoat korxonalarining ko'plab jamoalari ozod qilingan hududlarga insonparvarlik yordamlari ko'rsatib, frontni zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlash hamda rejani ortig'i bilan bajarishi uchun dam olish kunlari ham ishlashga qaror qildilar. Korxonalarining ishchilari 1941-1942 yillar mobaynida yana qo'shimcha ishlashga va'da berib, davlat rejalarini ortig'i bilan bajardilar.

Nemis-fashist istilochilaridan ozod qilingan mintaqalar aholisiga ko'p miqdordagi uy-ro'zg'or anjomlari, jumladan metall buyumlar (stakanlar, chelaklar, yuvinish anjomlari) turli xil trikotaj buyumlarini yuborib, kundlik rejalarini ortig'i bilan bajardilar. Bir qancha yengil sanoat korxonalarining ishchilari 1942 yil iyul oyida turli xil kiyim-kechak, teri, charm-poyabzal maxsulotlari va boshqa anjomlarini ishlab chiqarishni hamda 2-3 smenada ishlash majburiyatini oldilar. Mahalliy sanoat korxonalari ishchilarining ushbu vatanparvarlik tashabbusi respublikamizning boshqa korxonalarida ham ko'tarinki ruh bilan kutib olindi.

Bunga yaqqol misol sifatida Surxondaryodagi Denov paxta zavodi jamoasi fashistlar tomonidan vayron qilingan hududlarga iqtisodiyotni qayta tiklash va front uchun ikki kundlik ish haqlarini yuborishga qaror qildilar. Qo'qon vagon deposi ishchilari ozod qilingan hududlardagi temir yo'llarni tiklash uchun 1942 yilning fevral oyida qisqa muddatda 50 vagon meva-sabzavot, issiq kiyim-bosh, shaxsiy gigiena vositalari yuborgan bo'lsalar, shahardagi teridan tayyor maxsulotlar tayyorlovchi korxonalar 600 poy oyoq kiyim, 2 tonna xo'jalik sovuni, 10 ming dona yuvuvchi vositalarni yubordilar.

Birgina Toshkentdagi **"Qizil tong"** fabrikasi ishchilar Kursk va Oryol viloyatlariga 250 ming so'm pul to'plab bergan bo'lsalar, 1944 yilda Toshkent mexanika zavodi ishchilari tez orada yog'ochga ishlov beruvchi stanoklar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, ularni Podmoskove viloyatidagi xom ashyo qazib oluvchi shaxtalarga yubordilar. Respublika yoshlari, ayniqsa komsomollar ish va o'qishdan tashqari paytlarida yana qo'shimcha ishlar tashkil qilishib, 1 vagon turli inventarlar hamda kerakli jihozlarni Stalingrad shahridagi FZO maktablariga jo'natib, haqiqiy vatanparvarlik namunalari ko'rsatdilar.

Urushning suronli yillarida issiqni issiq, sovuqni sovuq demasdan jasorat bilan mehnat qilgan respublika yengil sanoat korxonalari ishchilari qo'shimcha ish kunlari evaziga 500 ming komplekt bolalar va erkaklar issiq kiyim-boshlari, 5000 poy oyoq kiyimlar ishlab chiqarib, 1,5 mln so'm pul mablag'larini frontga yuborib, jangchilarning ruhini ko'tarib, ularni jasorat bilan jang qilishga chorladilar. Shu bilan birga O'zbekiston sanoat kooperatsiya ishlab chiqarish birlashmalari Ukrainaning fashistlardan ozod qilingan tumanlariga yordam

tariqasida 30 vagon xom ashyo va tayyor maxsulotlar, 500 ming so'm qo'shimcha mablag' alarni yuborib, davlat Mudfaa jamg'armasini boyitdilar.

Nemis-fashistlar vaqtinchalik okupatsiya qilgan hududlarda xalq xo'jaligi, zavod va korxonalarni tiklashda yordam ko'rsatish uchun "Tashselmash" zavodi ishchilari Rostovdagi "Selmarsh" zavodiga yuborilgan bo'lsa, respublika energetiklari Ukraina va Belorusiyadagi elektr stansiyalarini qayta tiklash ishlariga bosh-qosh bo'ldilar, Angren shahri shaxtyorlari Donetskdagi "Tekstilmarsh" zavodini qayta tiklash ishlarida haqiqiy jasorat namunalarni ko'rsatdilar. Toshkentdagi paravoz-vagon ta'mirlash korxonasi ishchilari Xarkov va Dnepropetrovsk shaharlariga 20 vagon turli kundalik ehtiyoj mollarini, mutaxassis kadrlari, jumladan elektromontyorlar, santexniklar, injener-texnik xodimlarini jo'natdilar. 1944 yilda Toshkent tog'-kon mexanika zavodi esa Podmoskove viloyatiga yog'ochga ishlov beruvchi stanoklari va ko'mir shaxtalariga suv purkagich nasoslarini yuborib, ozod qilingan tumanlar xalq xo'jaligini tiklashda yordam ko'rsatdilar.

Urushning eng og'ir va musibatli onlarida o'zbekistonlik temiryo'lchilar ozod qilingan **Stalingard shahriga** birinchilardan bo'lib yordam qo'lini cho'zdilar. Toshkent temir yo'li korxonasi Volga bo'yidagi shaharni fashist bosqinchilaridan ozod qilishda va ozod qilingan shaharni tiklashda ko'mak berish uchun 33 vagonga yuklangan turli xildagi tibbiyot buyumlari, harbiy gospitallar uchun koykalar, telefon aloqa simlari, maxsus kiyim-bosh, xo'jalik buyumlarini yubordilar.

Respublikaning yosh va o'smirlardan iborat bo'lgan quruvchi va remont brigadalari shaharga 93 ta paravozni qayta ta'mirlab jo'natgan bo'lsalar, Xarkovga-40 ta, Donbassga-30 ta shunday paravozlarni va turli texnik qurilmalarni qayta ta'mirlab jo'natdilar. Bunday qaxramonlik uchun Ittifoq aloqa va yo'l tarmoqlari Xalq Komissarligi Toshkent temir yo'li korxonasi ma'muriyati yoshlariga alohida minnatdorchiilik bildirib, bunday qahramonlik haqidagi xabar Ittifoqning barcha gazeta va jurnallarida bosilib chiqdi.

Uzoq davom etgan janglardan so'ng ozod qilingan qahramon shahar Ukrainaning Xarkov shahriga ko'mak berish uchun Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Surxondaryo va Qoraqalpog'istonlik mehnat jamoalari hamda mehnatkashlari labbay, deb javob berib, qardosh o'lkaga turli xildagi oziq-ovqat, kiyim-bosh, quruq meva va xo'jalik sovunlarini yetkazib berdilar. Moddiy ko'makning amaliy tasdig'i sifatida insonparvar o'zbek xalqi 1943 yilda shahar aholisi va jangchilar uchun bir eshelonda, ya'ni 22 vagonda yuk stanoklari, elektr buyumlari, qurilish materiallarini jo'natdilar.

O'zbeklarga xos yuksak mehr-oqibat va bag'rikenglikning namunasi sifatida Buxoro shahrida o'tkazilgan ommaviy miingda so'zga chiqqanlar shahardagi korxonalar ishchilari ixtiyoriy ravishda yakshanba kunlari ham qo'shimcha ishlash hisobiga, bir kunlik ish haqlarini Xarkov shahridagi mudofaa fondiga o'tkazishga qaror qildilar. Xarkov shahridagi bolalar bog'chasi uchun esa bir kunda 100 ta

matrats, 100 ta odeyal va ko'rsa to'shaklarni yuborishga qaror qilganliklari xalqimiz bag'rikenligi va mehnat jasoratiga yaqqol dalildir.

Agar tarixiy raqamlarga e'tibor qaratisa, 1942 yilda o'zbekistonliklar Ukraina SSR ning bosib olingan hududlariga **10 ming bosh qoramol, RSFSR ga 22 ming traktorlar, 3 ming kombayn, 7 ming dona** turli mashina va texnika motorlari yetkazib berdilar. 1942 yil fevral oyi oxiriga kelib, RSFSR ning viloyatlarida 2990 traktor, 109 kombayn mavjud bo'lgan bo'lib, o'zbekistonliklar shu yil bosib olingan hududlarda bahorgi ekin-tikin ishlarini yakunlashda yordam qo'lini cho'zish majburiyatini oldilar.

Urush yillarida respublikada vaqtincha harbiy izga ko'chirilgan sanoat korxonalarida front uchun va ozod qilingan hududlar mudofaa qobiliyatini ko'tarish uchun 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 dona aviabomba, 12100 ta minomyot, 22 million dona mina, 560 ming dona snaryad, 1 million dona granata, 2200 ta ko'chma oshxonalar ishlab chiqarilib, ayniqsa ozod qilingan hududlarga yetkazilganligining o'ziyoq front ortida ko'rsatilgan misilsiz jasoratdir.

Yoki respublikaning barcha korxonalar va muassasalarida o'tkazilgan omamaviy mitinglarda ishchilar qamalda qolgan Leningrad shahri harbiy tuzilmalariga homiylik qildilar. "Biz frontga 1942 yilning 1 iyuliga qadar barcha turdagi yordamlarni berishga va'da beramiz, bu yil qahramon Leningrad va Leningrad viloyati uchun 120 ming so'm yig'ildi", deyiladi front uchun jo'natilgan maxsus xatda. O'zbekiston mehnatkashlari RSFSR, Ukraina, Belorusiya hududlaridagi xalq xo'jaligini tiklash ishlarida, ayniqsa ishchi kuchi yetishmayotgan hududlarda, jumladan **Moskva, Gomel, Brest, Sverdlovsk, Orenburg, Kuybishev, Perm, Gorkiy** va boshqa viloyatlarning sanoat korxonalarida hamda qurilish maydonlarida haqiqiy jasorat ko'rsatib, mehnat qildilar. Mazkur mintaqalardagi korxonalar va zavodlarda, qishloq xo'jaligi sohalarini qayta tiklash va rivojlantirishda 61 mingdan ortiq o'zbekistonliklar ishladilar.

Urush yillari, ommaviy safarbarlik va xo'jalikning harbiy izga ko'chirilishga qaramasdan, urush yillarida respublikamizda 280 ta yangi korxonalar ishga tushurilib, ularning aksariyati bir oyda, uzog'i bilan 45 kunda maxsulot bera boshladi. Natijada 1945 yilga kelib, respublikada sanoat ishlab chiqarishi urush arafasidagiga nisbatan deyarli ikki barobar ortdi, neft qazib olish 4, metall ishlab chiqarish 4,8, mashinasozlik mahsulotlari 13,4 barobar, ko'nur qazib chiqarish 30, energiya ishlab chiqarish 2,42 bora ko'paygan. Respublika sanoati 1940 yilga nisbatan ikki barobar ko'paygan.

Respublika qishloq xo'jaligi xodimlari ham urush yillarida haqiqiy jasorat namunalari ko'rsatdilar. Bu borada 1942 yil bo'lib o'tgan Ittifoq Mudofaa qo'mitasi plenumi O'zbekistondan RSFSR, Ukraina, Belorussiya respublikalariga oziq-ovqat xom ashyosi mahsulotlarining katta qismini frontga jalb etish bo'yicha chora-tadbirlar belgiladi. Bundan ruhlangan respublika mehnatkashlari urush yillarida soha xodimlari birgina Kursk va Voronej

viloyatlariga 12 vagon quruq meva, 2 vagon don, 3 vagon ko'rpa-to'shak, 5 vagon sanoat maxsulotlari, 31 vagon turli maxsulotlar, 118 ming poy erakalar va ayollar kiyim-kechaklari, 3352 poy oyoq kiyim, 3703 dona mo'yna, 4 ming dona issiq kiyim, 7313 ta ko'rpa to'shaklar, 136 dona krovat yetkazib berildi.

1943 yilda Samarqand va Namanagan viloyati qishloq mehnatkashlari ozod qilingan tumanlardagi kolxoz va sovxozlarga 1538 ta qo'y-ko'zi yuborgan bo'lsalar, xorzamlik chorvadorlar 184 ta qoramol, Surxondaryolik chorvadorlar esa 10 ming bosh chorva mollari, Qoraqalpog'iston ASSR Nukus, Chimboy va Kuybishev tumanlaridan minglab qo'y va echki jo'natilgan. 1944 yilning 20 yanvaridan 17 martigacha O'zbekistonlik mehnatkashlar o'z shaxsiy pullari evaziga ozod qilingan tumanlar uchun 122147 chorva mollari sotib olib, beg'araz yordam tariqasida yubordilar.

Agar ushbu raqamlarni viloyatlar kesimida olsak, RSFSR, Ukraina, Belorusiya respublikalariga Qashqadaryo viloyatidan (22700 ta), Samarqand viloyatidan (21600 ta), Buxoro viloyatidan (21567 ta), Toshkent viloyatidan (19669 ta) hamda yana boshqa viloyatlardan yana minglab chorva mollari aholidan olingan va ular 1944 yil 1 iyungacha 176 148 boshni tashkil etgan. Tezda ular respublika hukumatiining maxsu qarori asosida dushmandan ozod qilingan hudud arga yuborilgan.

Bu borada arxiv manbalariga oid tarixiy raqamlarga murojaat qilinsa, umuman urush yillarida O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari fashistlar okupatsiya qilgan hududlarga jami **4 mln 306 ming tonna paxta xom ashyosi, 54, 1 ming tonna pilla, 432 ming tonna kartoshka va sabzovotlar, 57, 5 ming tonna meva-sabzovot va uzum, 1,66 000 tonna g'alla, 231 ming sentner guruch, 153 ming tonna go'sht va go'sht maxsulotlari, 36 ming tonna quritilgan meva yetkazib berganlar.** Ya'ni, og'ir urush damlariga qaramasdan O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlari qishloq xo'jaligining barcha maxsulotlarini, ayniqsa don-dun, paxta, pilla xom ashyosi va tayyor maxsulotlarini yetkazib berishni o'z zimmasiga oldilar.

Urushning dastlabki yillaridan e'tiboran Sobiq ittifoq Davlat bankining barcha bo'limlarida Mudofaa fondi tashkil etildi. Xalq o'zining qimmatbaho buyumlari, ish haqlari va jamg'argan pullarining bir qismini mana shu bankka topshira boshladilar. Urushdan avvalgi yillarda aholidan soliqlar undirilgan bo'lsa urush yillari mahalliy aholi o'z ixtiyori bilan mablag'larni olib kelib topshirdilar. Masalan, 1942 yil 1 iyulga kelib, qahramon shahar Leningrad va Leningrad viloyati uchun 120 ming so'm to'pab berilgan.

Urush yillari Mudofaa fondiga **17,6 mlrd. rub naqd pul, 13,2 kg. platina, 131,4 kg oltin, 9,519 kg. kumush, 1,7 mlrd rublik** qimmatbaho taqinchoqlar kelib tushgan. O'zbekistonda ham urushning dastlabki kunlaridan mudofaa jamg'armasini tashkil etish maqsadida ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar bir kunlik ish haqlari, kommunistik shanbaliklardan ishlab topilgan pullarni, fuqarolarning shaxsiy jamg'armalari, qimmatbaho boyliklar, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-

ovqat mahsulotlari topshirdilar, deya o'zbekistonliklarning urush yillaridagi matonatini qayd etadi R. Duschanov.

Urushning dastlabki kunlarining o'zidayoq respblik aholisidan 30 mln. rubllik miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho boyliklar tushdi. O'zbekiston aholisi urush yillari mudofaa jamg'armasiga jami 649,9 mln. rubl pul, 22 kg. oltin va kumush topshirdi. Umuman, mamlakatda mudofaa fondi va Qizil Armiya fondi uchun aholidan undiriladigan soliqlar muntazam o'zgarib va oshib bordi. Urush yillari aholidan olinadigan soliqlar 4.2 martaga o'sdi. 1941-1945 yillarda byudjetga 111,7 mlrd. rubl mablag' kiritildi

Undan tashqari davlat zayomlari orqali ham byudjetga pul tushirib turildi. Davlat zayomlari orqadi byudjetga 113,9 mlrd. rubl tushdi va bu harbiy davrda byudjet daromadining 10,2 foizini tashkil etdi. Davlat muassasalaridan kelib tushadigan soliqlar urush yillari 21,4 foizga o'sdi. Umuman, urush yillari aholi tomonidan davlab byudjetiga **133 mlrd. rubl mablag'**lar to'plab berildi. Bu byudjet daromadining 11,9 foizini tashkil etdi. Shu tariqa sovet moliya va soliq tizimida dalat hisoyasi uchun soliqlarni undirish siyosati qattiqqo'llik bilan amalga oshirib, davlat byudjetining haqqoniy to'ldirishiga xizmat qildi.

Front hududlaridan minglab aholi, sanoat korxonalari, o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar va boshqa moddiy boyliklar mamlakat ichkarisiga ko'chirish boshlab yuborildi. Ular orasida Leningrad to'qimachilik mashinalari zavodi, "Krasnyy-Aksoy", "Rosselmash", Sumsk kompressor va Dnepropetrovsk karbonund zavodlari, Moskvadagi "Elektrokabel" va "Pod'yomnik" zavodlari, Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "Krasnyy put" zavodi, Kievdagi "Transsignal" zavodi, Stalingrad kimyo kombinati va boshqa ko'pgina korxonalar bor edi.

Ulardan 55 tasi Toshkent va Toshkent viloyatiga, 14 tasi Samarqandga, 22 tasi Farg'ona vodiysiga, ikkitasi Buxoro viloyatiga joylashtirildi. Ko'chirib keltirilgan zavod va fabrikalar qisqa muddatlarda, ya'ni "Rosselmash" 25 kunda, "Krasnyy Aksoy" zavodi bu yerga yetib kelganidan keyin oradan 29 kun o'tganda ishga tushirilib, mahsulot bera boshladi. 1941 yil dekabrga kelib evakuatsiya qilingan korxonalarining qariyb 50 tasi ishga tushiriladi. 1942 yil birinchi yarmida esa barcha keltirilgan sanoat korxonalari mahsulot chiqara boshladi.

Ko'pgina olimlar, adiblar, shoirlar urushning birinchi kunlaridayoq tinisiz mehnat qildilar. Ya'ni, O'zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g'alabaga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. 1942 yil davomida fashistlar istilosiga duchor bo'lgan hududlardan 31 ta ta'lim muassasalari O'zbekistonga ko'chirildi. Jumladan Nevskiy sanoat instituti, Odessa, Farmatsevtika instituti, Odessa frezlash sanoati va lift iqtisodiyoti muhandislari instituti ilmiy xodimlari respublikada faoliyat olib bordilar. Xususan, Ukrainadan ko'chirilgan Xarkov kimyo-texnologiya instituti vaqtincha Chirchiq shahrida joylashtirilib, ushbu ilmiy muassasada qator mahalliy va Yevropalik olim va mutaxassislar ish olib bordilar.

Dahshatli urush qiyinchiliklariga qaramasdan urushning dastlabki yillaridayoq, Samarqandga qator ilmiy muassasalar ko'chirildi. Jumladan, 1941 yilning ikkinchi yarmi va 1942 yil boshlarida Badiiy Akademiya, Qishloq xo'jaligi Akademiyasi ko'chirib keltirildi. A.Timiryazev nomidagi Kursk zooveterinariya instituti, Leningrad kino muhandislar instituti, Ukraina rassomlik instituti, Odessa suv transporti instituti kabilarning ilmiy xodimlari O'zbekistonda ish faoliyatlarini vaqtincha davom ettirdilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalari tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo'yib berib, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g'alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg'unboeva, Sora Eshonto'raeva, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov kabi san'atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo'r ko'tarinkilik baxshida etgan. A. Abdullaev, Ch. Ahmarov, O. Tansiqboev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning ozod qilingan hududlarga fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Alabatta, urushining g'olibona yakunlanishida o'zbekistonliklar ko'rsatgan jasorat ham e'tiborsiz qolmadi. Ya'ni, 120 mingdan ortiq O'zbekistonliklar SSSRning orden va medallariga sazovor bo'ldilar. 301 ta O'zbekistonliklarga «**Sovet Ittifoqi Qahramoni**» unvoni beriladi, 82 ta jangchi «Shuhrat ordeni» bilan taqdirlandilar. O'zbekiston urushdan katta yo'qotish bilan chiqdi. Ya'ni o'zbekistonliklar insoniyatni fashizm bafosidan qutqarishga munosib hissa qo'shdilar. Bunday jasorat bugungi dorulomon kunlarda xalqimiz, davlatimiz tomonidan yuksak olqishlanmoqda. Mustaqillik yillarida urushda halok bo'lganlar xotirasini tiklash va qadrlash maqsadida "Xotira" kitoblari tashkil etildi, poytaxtimiz markazida Xotira maydoni, viloyat va tumanlar markazlarida motamsaro ona yodgorlik majmualari barpo etildi, **9 may "Xotira va qadrlash kuni"** deb e'lon qilindi.

Urush yillarida va urushdan so'ng, dunyoning 2 qutbga bo'linishi aslida G'arbda AQSh va uning monopolistik kuchlari, sharqda esa Sobiq SSSR, Angliya, Fransiya va Sharqiy Yevropa davlatlari, ayniqsa Sovet Ittifoqi va Germaniya o'rtasidagi siyosiy va harbiy jarayonlar keskinlashgan edi. Bu oxir oqibat mazkur urushning kelib chiqishidagi asosiy sabablar va ziddiyatlardan biri bo'ldi. Urushdan so'ng esa dunyo 2 ta: kapitalistik va sotsialistik lager davlatlarga ajralib ketdi, "sovuq urush" siyosati kelib chiqdi.

Urushdan so'ng 1949- yil AQSh tashabbusi bilan "Shimoliy Atlantika bloki – NATO" tashkil topdi. Sobiq sotsialistik lager davlatlari - Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Ruminiya, SSSR va Chexoslovakiya o'rtasida 1955- yil 14 mayda Varshavada Shim. Atlantika pakti (NATO)ga qarshi tuzilgan harbiy ittifoq Varshava shartnomasini tuzdilar. Varshava shartnomasi o'z ustavida BMT Ustavining 51-moddasiga muvofiq, yakka va jamoa bo'lib, o'z-o'zini himoya etish to'g'risidagi qoidaga asoslanib,



Varshava shartnomasiga a'zo davlatlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatishni ko'zda tutgan bo'lsada, aslida sotsialistik tuzumga xizmat qildi. Ammo 1991- yilda 1 iyulda Varshava shartnomasiga a'zo-davlatlar - Bolgariya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, SSSR, Chexoslovakiya ishtirokida Praga shahrida Siyosiy maslahat komitetining kengashida Varshava shartnomasini tugatish haqidagi bayonnoma imzolandi va tashkilot tugatildi.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Fevral burjua-demokratik inqilobi, oktyabr davlat to'ntarishi, Turkiston, "Turkiston Muxtoriyati", TASSR, fan va ta'lim, adabiyot, jadidchilik, istiqloqlchilar, ikkinchi jahon urushi, front va front orti, jasorat, jangchi, qahramonlik, o'zbekistonliklar, harbiy, g'alaba.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Fevral burjua-demokratik inqilobining Turkistonga ta'siri
2. Oktyabr davlat to'ntarishidan so'ng Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.
3. «Turkiston Muxtoriyati». milliy davlatchilikda yangi bosqich.
4. TASSR davrida Turkiston.
5. Turkistonda fan, adabiyot va uning rivoji.
6. XX asr 20-30 yillarida Turkistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot.
7. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston.

### **Nazorat savollari:**

1. Sizningcha 1917- yilgi Rossiyadagi fevral burjua-demokratik inqilobi Turkistonga qanday ta'sir qildi ?
2. Oktyabr davlat to'ntarishining Turkistonga ta'siri va o'lkadagi muhim ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar xususida nimalarni bilasiz ?
3. «Turkiston Muxtoriyati»ni nima uchun milliy davlat deb ataymiz ?
4. TASSR tuzilgandan so'ng o'lkadagi vaziyat qanday o'zgardi ?
5. O'zbekistonda yer suv islohoti va kollektivlashtirish haqida nimalarni bilasiz ?
6. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonning frontga qo'shgan hissasi haqida gapiring.
7. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbekistonliklarning front ortidagi jasoratlari nimalarda namoyon bo'ldi ?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2020 yil 25 yanvar.
3. Ajdodlar jasorati va xotirasiga yuksak ehtirom // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Buyuk g'alabaning 75 yilligi

hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 80. T., 2020 yil. 10 may.

4. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.

5. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq», 2000 y.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: «Sharq», 2000.

7. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q., G'aniev D). T.: «O'zbekiston», 1994 y.

8. Abdullaev M. O'rta Osiyodagi maxsus posyolkalar tizimi va surgan qilingan quloqlar taqdiri. (1930-1954 yillar). Tarix fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi (Phd) avtoreferati. T., 2019.

9. Oblomurodov N. O'zbekistonning fashistlar xurujidan zarar ko'rgan rayonlarga yordami.-T., "Fan", 1985.

10. Oblomurodov N. Front ortidagi jasorat. // "Yangi O'zbekiston". T., 2020 yil. 9 may. №79-son.

**10 mavzu: O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy siyosati (1946-1991 yy)**

**1. O'zbekiston ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida.**

**2. XX asr 50-70 yillarida O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holat.**

**3. 80-yillarning o'rtalari va oxiridagi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi.**

**4. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: I.A Karimov O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.**

**1. O'zbekiston ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida.**

Urushdan so'nggi yillarda O'zbekiston xalqlari oldida xalq xo'jaligini tinch qurilish yo'liga solish, uni urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turar edi. VKP (b) MQning 1945- yil 15 iyuldagi «O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'risida» gi va SSSR XKS ning 1946 yil 2 fevraldagi «1946-1953 yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlarni to'risida» qabul qilgan qarorlar, ham shu maqsadga qaratilgan edi. Markazning bu ko'rsatmalari respublika mehnatkashlari uchun paxta ekin maydonlarini kengaytirish, uning hosildorligini yil sayin ko'paytirib borishda eng muhim dastur bo'lib xizmat qildi.

Urushdan so'ng O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratiladi va uning bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarga sarflanadi. Respublika traktor parklari sezilarli ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTS lar soni 245 taga yetdi, ulardagi traktorlar soni 1950- yilda 29,5 mingtari, paxta terish mashinalari soni 3617 tani tashkil etgan edi. Shu ma'noda respublikada paxtachilik va boshqa sohalar butun choralar bilan rivojlantirib borishga e'tibor qaratildi. 1947-1948 yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmagan edi. 1949- yildan boshlab ahvol ijobiy tomonga o'zgaradi. 1950- yili davlatga 2 mln. 222 ming tonna paxta yetkazib beriladi, hosildorlik gektaridan 20,7 sentnerga yetdi 1950- yildan paxtaning xarid narxi oshirilib, 1 tonnasi 2200 so'm ya'ni avvalgidan ikki baravar oshiriladi. 1950- yilda respublikada jami 2282,4 ming tonna paxta yetishtirilib hosildorlik yanada oshgan.

Ayniqsa respublikada qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish va u yerlarda paxtachilik xo'jaliklarini yangidan tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda Qarshi, Markaziy Farg'ona, Mirzacho'l, Jizzax cho'llarini o'zlashtirish uchun barcha kuchlar safarbar etildi. Bu paytda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirishga va shu asosda paxta va g'alla yetishtirishni ko'paytirish choralari ko'rildi. Xususan, 1953-1955 yillarda 130 ming gektar yangi yerlar o'zlashtiriladi, 1956- yili birgina Mirzacho'lning o'zida sug'oriladigan yerlar

maydoni 205.000 gektarga yetgan edi. Paxta monokulturasining kuchayib borganligi yana shunda ko'rish mumkin, agar 1950 yilda 1,1 mln ga yerga paxta ekilgan bo'lsa, 1985- yilga kelib bu ko'rsatkich 2 mln gektargacha yetgan edi. Hosildorlik har gektar hisobiga 20,1 s dan 27,0 s. ga ko'tariladi.

Natijada g'alla, arpa, sulii, makajo'xori, meva, sabzavot, poliz ekinlari maydonlari qisqarib ketdi. Xususan, g'alladan olinayotgan hosildorlik gektar boshiga atigi 5-8 senterni tashkil etgan, holos. Chorvachilik, parandachilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirishda respublikaning inikoniyat darajasi qanchalik keng va va katta bo'lmasin, biroq bular ham sovetlar davrida yetarli foyda va daromad bilan ishlaydigan xo'jalik tarmoqlariga aylana olmadi.

Sovet ittifoqining tarkibiy qismi bo'lgan, ham siyosiy, ham iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lmagan O'zbekiston Markaz tomonidan ishlab chiqadigan va besh yillik rejalarda aks ettirilgan yul-yo'riqlarga amal qilishga majbur edi. O'zbekiston uchun sanoatni haddan tashqari oshirilgan rivojlantirish hajmlari va sur'atlarida belgilanardi. Ajratilgan kapital (70%gacha) bo'lib, ular asosan og'ir industriya tarmoqlariga mo'ljallanardi. Bu rarsa **og'ir sanoat**da yangi texnikani, ishchi kuchlarini, malakali mutaxassislarni jamlash imkonini berardi.

Urushdan so'ng sanoatni qayta tiklash va rivojlantirishda O'zbekiston metropoliyaning sanoat jihatidan rivojlangan mintaqalariniig paxtaga bo'lgan ortib boruvchi ehtiyojini ta'minlashidek konsepsiyaga qat'iy amal qilinardi. Biroq, O'zbekiston SSR sanoatiga bildirilayotgan yuksak talablar bu yerda yangi (ilg'or) texnologiyalarni, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini joriy qilish bilan hamohang emasdi. Bu esa muqarrar ravishda belgilangan rejaning bajarilmasligiga va boshqa nomutanosibliklarga olib kelardi, bular ayniqsa sanoatning yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarida aniq ko'zga tashlanar edi.

Besh yillik rejalarning bajarilishi bir tomonlama xususiyarga ega edi. Asosiy e'tibor mashinasozlikni, metallurgiya, kimyo sanoatlarini, shuningdek yonilgi-energetika majmui tarmoqlarini rivojlantirishga, ayniqsa, gaz qazib olishni ko'paytirishga qaratilardi. Markazning fikri va mo'ljallariga ko'ra, kelajakda O'zbekiston gaz qazib olish va mineral o'g'itlar ishlab chiqarish bo'yicha ittifoqda uchinchi o'rinni, mashinasozlik va metallga ishlov berish hajmi bo'yicha to'rtinchi o'rinni egallab ittifoqni gaz va boshqa xom ashyo bilan taminlovchi respublikaga aylanishi lozim edi, Respublikaning yetakchi viloyatlari (Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro) hududlarida yagona energetika tizimi yaratilgan bo'lib, u iqtisodiyotni, birinchi navbatda uning ustivor tarmog'i — paxtachilikni yuksaltirish uchun baza yaratishi kerak edi.

Industriyaga moddiy resurslarning qudratli oqim bo'lib kelib turishi, xo'jalik-boshqaruv tuzilmalari mexanizmini isloh qilishga urinishlar, shuningdek qator sotsialistik musobaqalar tizimi va xalqning zo'r benb qilgan mehnati O'zbekiston sanoati potensialini sezilarli sur'atda oshirish imkonini berdi. Urushdan keyingi har bir besh yillikda o'rtta hisobda 100 tagacha va undan ham ko'proq sanoat ob'ekti ishga tushirildi. Bu davrga kelib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1940 yildagiga nisbatan 20 baravardan ziyodroq oshdi.

Fan-texnika taraqqiyotini belgilab beradigan, ayniqsa paxtachilik ehtiyojlariga mo'ljallangan tarmoqlar jadal rivojlantirildi. Umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmidagi salmog'i deyarli 75%ga yetdi. Bular asosan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari sur'atlari va salmog'ini qisqartirish hisobiga sodir bo'ldi, bu tarmoqlardagi ishlab chiqarish belgilangan reja marralariga yetish u yozda tursin, balki amalda turg'unlikka uchradi. Hatto ularni rivojlantirishga ajratiladigan arzimas dotatsiyalar ham vaqt o'tishi bilan olib tashlandi va boshqa (asosan energiya ko'p sarflanadigan) tarmoqlarga berildi.

Ammo O'zbekiston iqtisodiyotida kimyo industriyasi ustivor o'rinlardan birini egalladi. O'zbek kimyosining to'ng'ichi **Chirchiq elektr kimyo kombinati** bo'lib, u urush arafasida (1940- yil) ishga tushirilgan edi. Urushdan keyingi yillarda **Qo'qon superfosfat** zavodi (1947 yy) va **Samarqand superfosfat** zavodi (1955 yy) barpo etildi hamda foydalanishga topshirildi, so'ngra birin-ketin Farg'ona azotli zavodi, Navoiy kimyo kombinati va Olmaliq kimyo zavodi ishga tushirildi.

Kimyo sanoatining rivojlanishi ijobiy natijalar bilan bir qatorda respublika uchun jiddiy salbiy oqibatlar ham olib keldi. Uning ko'pgina ob'ektlari aholi zich yashaydigan shaharlarda joylashgan bo'lib, ayni vaqtda atrof muhitni ifloslantirar, ekologik vaziyatni murakkablashtirar edi. Atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilardan tabiat, o'simliklar va hayvonot dunyosi shikast topardi, havo, suv, qishloq xo'jalik mahsulotlari zaharlanar, bu esa odamlar sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'lim darajasi ortishiga, ayniqsa, bolalar o'limi ko'payishiga olib keldi. Bularning hammasi kimyo korxonalarida chang suruvchi va gazlarni tozalovchi qurilmalarning yetarli emasligi yoki butunlay yo'qligi, aholi xavfsizligi va atrof muhitning tozaligini ta'minlaydigan texnikaviy inshootlarning yo'qligi bilan bog'liq edi.

Respublika sanoat korxonalarini malakali ishchi kadrlar bilan ta'minlash borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirildi. Turli hunar maktablari, fabrika-zavod ta'limi tarmoqlari, temir yo'l bilim yurtlari va maxsus kurslarda 1946-1950 yillarda 216,7 ming ishchi kadrlari tayyorlangan. O'quv yurtlari sanoat, qurilish, transport, aloqa tarmoqlari uchun 2372 ta muxandis, o'rta maxsus o'quv yurtlari esa 5719 ta texnik kadrlar tayyorlab berganlar.

O'zbekiston ittifoqning tarkibiy qismi sifatida boshqa mintaqalarga mineral va strategik xom ashyo, to'qimachilik va boshqa sanoat tarmoqlari uchun zarur asbob-uskunalar yetkazib berish bilan bir qatorda, respublikaga metallga ishlov beruvchi stanoklar va mexanizmlar, neft mahsulotlari, yog'och-taxta, don va boshqa materiallar ham keltirardi. Bu hukmron doiralarning uzoqni ko'zlagan siyosati bo'lib, u xalqlar o'rtasidagi do'stona va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash niqobi ostida haqiqatda respublika industriyasini uning chegaralaridan tashqarida ishlab chiqariladigan butlovchi detallarga (masalan, mashinasozlik va aviatsiya sanoati uchun) butunlay bog'liq qilib qo'yib, bu bilan uni har qanday iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etishni nazarda tutgan edi.

Ammo urushdan keyingi moddiy va moliyaviy qiyinchiliklar tufayli respublikada yangi texnologiyalar joriy etilmadi. Yengil sanoatda «qoldiq prinsipi» bo'yicha munosabatda bo'lish joylarda ishlab chiqariladigan iste'mol mollarining o'sishini tobora qisqartirib, ularni chetdan keltirishni ko'paytirdi. Bu hol ijtimoiy muammolarning, aholi bandligi va milliy munosabatlarning keskinlashuviga shart-sharoit yaratdi.

Xususan, urushdan katta qiyinchiliklar bilan chiqqan ittifoqda mamlakatning moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida korxonalar, yuridik va jismoniy shaxslarga solinadigan solqlar miqdori o'zgartirildi. Urushdan so'ng, ya'ni 1948- yil 13 iyulda Oliy Sovet Prezidiumi "**Qishloq xo'jalik solig'i** 8, 23, 25 moddalarini o'zgartirish to'g'risida"gi ko'rsatmasiga binoan qishloq xo'jalik solig'i stavkalarining oshirilishi va mavjud imtiyozlarning qisqartirilishi aholi moddiy ahvolini yanada og'irlashuviga sabab bo'ldi.

Yuqorida qayd qilinganidek, ikkinchi jahon urushi yillarida davlat byudjetiga kelib tushayotgan soliqlarning aksariyati harbiy maqsadlarda sarflanganligi ayon bo'ladi. Bu ayniqsa, O'zbekistondagi asosiy daromad sohalari hisoblangan qishloq xo'jaligi sohalari va u bilan bog'liq tarmoq ishlab chiqarish, sanoat korxonalari, konchilik, kimyo sanoati va elektroenergetika tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelgan. Zero, urush yillarida hukumat mamlakatdagi har bir respublikaning ichki shart-sharoitlari, ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda soliq tizimini shakllantirmasdan, balki barcha uchun majburiy qonun-qoidalarni tatbiq etishga majbur bo'lgan. Ammo urushdan keyingi yillarda ular qonun asosida birmuncha soddalashtiriladi.

Davlat poshlinasi hujjatlashtirish va hujjatlar berilganligi uchun fuqarolar, tashkilotlar va barcha korxonalardan olingan. Davlat poshlinasi oddiy va proporsional turlarga bo'lingan. Oddiy poshlinalar qat'iy stavkalar orqali belgilansa, proporsional poshlinalar o'zgarib borgan. Davlat poshlinasi 10 so'mgacha bo'lgan to'lovlarda poshlina markasi sifatida, 10 so'mdan yuqori bo'lgan to'lovlarda esa naqd va ko'chirma pullar orqali olingan. Poshlina to'lovlarini Davlat Banki va Omonat kassa bo'limlari qabul qilganlar. Bunda, poshlina kvitatsiyasiga kim, nima uchun, qachon va qancha poshlina to'laganligi, kvitatsiyani beruvchi shaxs imzosi va tashkilotning muhri bo'lgan. Ko'chirma pullarda esa mahalliy byudjetlarning joriy hisob raqamlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi zarur edi. Kvitatsiya yoki poshlina hujjatlari nusxasi bo'lganda va gumonli hujjat bo'lganda poshlina oluvchi tashkilot harakat qilishi mumkin bo'lmagan. Davlat poshlinasi markalari belgilangan tartibda notarial kontoralar va kassalarga berilib, ular davlat banki ko'rsatmalar asosida sotilgan. Sotilgan markalar qaytarib olinmagan va boshqasiga almashtirilmagan.

Urushdan so'ng janubiy hayotida ma'muriy buyruqbozlik tizimi kuchayib bordi. Xususan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy tizimida partiyaning yakka hukumronligi kuchayib bordi. Siyosiy qatag'onlikning yangi bosqichi boshlandi. Agar 30-yillarda qatag'onlikni ichki ishlar xalq komissarlari (NKVD) olib borgan bo'lsa, endilikda bu mudhish ishlarni kommunistik partiyaning markaziy komiteti

va uning quyi tashkilotlari bajardi. 1949- yilning martida chaqirilgan O'zbekiston kommunistlarining X se'zdi respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda zaharlash, milliy qadriyatlarga diniy xurofotga qarshi kurashni kuchaytirish vazifalarni qo'ydi. Bu bilan jamiyatda sotsialistik mafkuraning vayronkorlik roli yana ham kuchaytirildi.

1949-1952 yillarda ko'pgina mashhur o'zbek ijodiy ziyolilari asossiz ravishda ayblanib, qatag'on qilindi. O'zkompartiyaning 1949- yil 25 iyundagi byuro majlisida bir guruh yozuvchilar millatchilikda. Eski feodal madaniyati oldida bosh egish, o'tmishni ideallashtirishda ayblandi. **Oybek, Abdulla Qahhor, Mamarasul Beboev, Mirtemir, Shayxzoda** kabi o'zbek yozuvchilari badnom qilindi. 1951- yili avgustda bir guruh atoqli ijodkor ziyolilar "millatchilar"- deb matbuotda nohaq tanqid qilindi, "buzg'unchilikda" ayblandi. Keyinchalik yozuvchilardan Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Said Ahmad va boshqalar uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etildi.

### 3. XX asr 50-70 yillarida O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holat.

Xalq xo'jaligini rivojlantirish yillarida O'zbekistonda ulkan miqdorda ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Muhimi uklanish davridan so'ng respublikada barcha sohalarini bosqichma bosqich jadallashtirish vazifasi tuzatildi. Bir paytlar faqat xom ashyo yetishtirib kelgan respublikada yengil, oziq-ovqat sanoati, xom ashyo qazib chiqarish rivojlana boshladi.

Shu bilan birga yengil va oziq-ovqat sanoatiga qaraganda ko'p tarmoqli mashinasozlik industriyasi (shu jumladan, uning yangi tarmog'i — traktorsozlik), kimyo, neft, ko'mir, gaz, kon-ruda, oltin qazib olish va ayniqsa energetika sanoatlari jadal rivojlantirildi. 1960—1970 - yillarda O'zbekistonda **Angren, Navoiy, Chorvoq, Toshkent va boshqa yirik elektr stansiyalar** barpo etildi hamda ishga tushirildi. Shuningdek Chirchiq-Bo'zsuvs gidroelektrostansiyalar tiklandi, uning umumiy quvvati 300 ming kvt.dan ortiqroq edi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng yirik bo'lgan va quvvati 5 mln.kvt. bo'lgan **Sirdaryo GRESi** barpo etildi. Natijada respublikada elektr quvvati ishlab chiqarish 1940- yildagiga nisbatan deyarli 180 baravar ko'paydi. O'zbekistonda energetika tarmog'ining bu darajada rivojlantirilishiga sabab Markazning kundan-kunga xom ashyoga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi, respublika hududidagi yer-osti va yer-usti boyliklarini qazib olish va qayta ishlash uchun esa katta miqdorda elektr quvvati kerak bo'lganligida edi.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish O'zbekiston sanoatining eng muhim tarmoqlariga aylandi, ular xalq xo'jaligini texnika bilan qayta qurollantirishda ham yetakchi o'rin egalladilar. Ularning ulushiga respublikadagi yalpi mahsulotning yarmidan ko'prog'i (57,7 %), asosiy ishlab chiqarish fondlarining 1/3 qismidan ko'prog'i — 35,1%i to'g'ri keldi. Sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan aholining 66,3%i mashinasozlik zavodlarida mehnat qildi. Lekin respublikadagi mashinasozlik tom ma'nodagi mashinasozlik emas edi. Mashinasozlik uchun zarur bo'lgan barcha ehtiyot qismlar mamlakatning Yevropa qismidan olib kelinar, O'zbekistonda esa yig'ililar edi. Metallga ishlov

berish sohasi ham shu yo'sinda edi. Metall ham O'zbekistonga asosan Rossiyadan keltiriladi edi.

Ishlab chiqarish korxonalari orasida paxtachilikka mo'ljallangan qudratli traktorlar ishlab chiqaradigan Toshkent traktor zavodi (TTZ), paxta terish mashinalari chiqariladigan «Tashselmash», boshqa qishloq xo'jalik qurollari va asboblari ishlab chiqaradigan «Uzbek selmash» va «Chirchiqselmash», Toshkent ekskavator zavodlari va boshqa ko'pgina korxonalar bo'lib, ularning mahsulotlariga respublikada va uining tashqarisida talab katta edi.

Mashinasozlik korxonalaridan ko'plaining ishi bevosita paxtachilik bilan bog'liq edi. Bu korxonalar asosan paxta yetishtirish, terib olish va birlamchi ishlov berish jarayonlarini bajaradigan mexanizmlar ishlab chiqaradi edi. holos. Respublikaning to'qimachilik sanoati esa, asosan ip-yigiruv, qisman to'quv bilan shug'ullanar buning uchun esa O'zbekistonda yetishtiriladigan paxta tolasining arzimasi qismi ishlatiladi edi. Paxtaga undan keyingi ishlov berib, pirovard mahsulotga aylantirish huquqi metropoliya to'qimachilik sanoati korxonalariga berilgan edi 1970-yillarda O'zbekiston iqtifoqda paxtachilik uchun mo'ljallangan qishloq xo'jalik mashinalarining butun majmuini, to'qimachilik sanoati uchun deyarli 40%ini ishlab chiqardi.

O'zbekiston SSRda bog'dorchilik sabzavotchilik va uzumchilikni qayta ishlab mahsulot chiqarish uchun mo'ljallangan mashinalar, pillachilik va chorvachilikdagi jarayonlarni mexanizatsiyalash mashinalari ishlab chiqarilmas edi. Mashinasozlikning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashga halaqit berardi, bu jarayon boshqa respublikalarga nisbatan ancha-muncha past edi.

O'zbekiston metropoliya uchun boy mineral xom ashyo bazasi ham bo'lib kelayotgan edi. Bu yerda ko'pgina nodir foydali qazilmalar: oltin, mis, ko'rg'oshin, ruh, volfram, uran, tabiiy gaz, ko'mir konlari ochildi. Ana shu konlar negizida zavodlar, neft va gaz sanoati korxonalari qurildi, yangi shaharlar va posyolkalar bunyod etildi. **1960—70 yillarda** respublikada zamonaviy yirik oltin qazib chiqarish sanoati yaratildi va nufuzli tarzda rivojlana boshladi, oltin chiqarish majmualari fabrikalari, oltin saralash kombinatlar, shuningdek mis rudasini qayta ishlash kombinatlari foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, jahon andozalariga javob beradigan yuqori sifatli oltin olina boshlandi. Lekin bu boyliklar to'laligicha markazga olib ketilar, O'zbekistonga esa hech qanday nafi tegmas edi.

Chunki, o'sha nizurning iskanjasida siqib qo'yilgan O'zbekiston o'z zaminidan olinadigan birorta boylikning xojayini emasdi va uining ne'matlaridan mustaqil foydalana olmasdi. O'zbekistonning hayotiy muhim tarmoqlari va yirik korxonalarining aksariyat qismi (qariyb 70%), shu jumladan, rangli metallurgiya korxonalari bevosita ittifoq vazirliklariga bo'ysunardi; respublika o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning egasi emas edi. Oltin, uran, rangli metallar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olish va tashib ketish bilan markaziy organlar



O'zbekiston rahbar organlarining roziligisiz va ularning nazoratsiz o'zlari shug'ullanishar va tasarruf qilishardi. Olinadigan foydaning arzimagan ozgina qismigina nomiga respublika byudjetiga o'tkazilar edi.

1950—60-yillarda O'zbekistonda kimyo **industriyasining yangi tarmog'i** — **gidroliz sanoati** yaratildi. Ana shu yillarda Andijon gidroliz zavodi, Yangiyo'l biokimyo zavodi barpo etildi. 80-yillarning o'rtalariga kelib respublikada plastmassa, sun'iy tolalar, o'simliklarni himoya qilish vositalarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan 20 ta sanoat korxonasi ishlab turardi. O'sha vaqtda birinchi bo'lib Navoiy kimyo kombinatida g'oz zararkunandalari qarsi kurashish uchun samarali vosita ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1985-yilga kelib O'zbekistonning kimyo korxonalari umuman (SSSRda joylashgan korxoralarning 10% ni tashkil etardi). 70-yillar oxirlarida sanoat ishlab chiqarish rivoji, uning hajmi va mehnat unumdorligi sur'atlari pasayib, mahsulotlar sifati, boshqa eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari yomonlashib ketdi.

Markazlashgan rejalashtirish, ishlab chiqarish va taqsimot Markazning qat'i nazoratida bo'lishi xalqning tashabbuskorligi va ijodini tobora bo'g'ib qo'ya boshladi, mavjud qiyinchiliklarni yengish imkonini bermadi, chaqiriqlar, chiroyli shiorlar va majburiyatlar bilan niqoblangan muammolar hal etilmay qolaverdi. O'zbekiston sanoatida va butun iqtisodiyotda **turg'unlik tamoyillari** muqarrar ravishda ortib boraverdi. Umuman, sanoat sekinlik bilan, katta uzilish va tanazzullar bilan ishlayotgan edi.

O'zbekistondagi zavod va fabrikalarning ko'pchiligi davlat ishlab chiqarish rejalarini bajarishni uddalay olmasdi. Birgina 1975-yilda respublikadagi 527 ta korxonalar ishlab chiqarish rejasini bajarmadi. Asbob-uskunalar ko'p vaqt bekor tumb qolar, ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli foydalanilmadi. Sanoat korxonalarining ko'pchiligi bir maromda ishlamas, sifati past mahsulotlar ishlab chiqarar edi. Texnikaviy jihatdan qoloqlik hollari qiyinchilik bilan barham toptirilardi. Mashinasozlik va boshqa zavodlar eskirib qolgan konstruksiyadagi mahsulotlar chiqarishardi. yengil va oziq-ovqat sanoati esa «qoldiq» prinsipiga bog'lab qo'yilgan edi. Bular ko'p jihatdan fan-texnika taraqqiyotiga yetarli baho bermaslik va mustabid tuzumning milliy mustamlakaning mo'l, arzon ishchi kuchidan foydalanishga asoslanishi bilan bog'liq edi.

O'zbekiston sancati ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning juda past darajasi bilan ajralib turardi. Qo'l mehnati bilan band bo'lgan ishchilarning salmog'i o'rta hisobda 48,7%ga yetardi. Ko'pgina korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarining kupi bilan 70% dan foydalanilardi va ular ham to'liq ish bilan ta'min etilmagan edi. Ish vaqtining haddan ortiq bekor sarflanishiga yo'l qo'yildi, kadrlar qo'nimsizligi yuqori edi. Misol uchun, 80-yillarning faqat birinchi yarmida sanoatdagi ish vaqtining bekor sarf bo'lishi oqibatida sanoat o'rta hisobda bir yilda 100 mln. so'mlikdan ortiq mahsulotni kam berdi.

Bu hol sanoatga yo'naltirilgan mablag'lardan samarasiz foydalanishga, mehnat unumdorligining sezilarli pasayishiga olib keldi. Mehnatning energiya

bilan ta'minlanishi soxasidagi yutuqlarga qaramasdan, ko'pgina yangi sanoat ob'ektlari qurilishi va foydalanishga topshirilishi, o'rtacha yillik sur'atlari, mehnat unumdorligining o'sishi 1971 — 1975 yillarda 4,8%ni, 1976-1980 yillarda 2,2%ni tashkil etdi, 1981-1985 yillarda esa 1,3%ga tushib qoldi. O'zbekistondagi 180 ta korxonaning mehnat unumdorligi 1981 — 1985 yillarda oldingi darajada turdi, 270 ta korxonada esa, hatto sezilarli pasaydi. 1970-80-yillarda Markazning buyrug'i bilan paxtaga ixtisoslashuv munosabati bilan O'zbekistonda aholining manfaatlari va ehtiyojlari hisobga olinmay sanoat ishlab chiqarishi tarkibida buzilishlar sodir bo'ldi.

Sanoat qurilishi darajasi respublikaning shimoliy va janubiy viloyatlarida, shuningdek Qoraqalpog'istonda ayniqsa past darajada qolayotgan edi. Bu hududlarda aholining 40%idan ko'prog'i istiqomat qilardi, xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 37% shu yerda edi, lekin bu yerga milliy daromadning bor-yug'i 31%i to'g'ri kelar edi. Holbuki, Toshkent va Farg'ona vodiysi viloyatlariga milliy daromadning deyarli 45%i to'g'ri kelar edi.

Ba'zi viloyatlarning sanoati aniq ifodalangan xom ashyo yo'nalishiga ega edi. Bu yerlarda asosan qishloq xo'jaligi xom ashyosiga birlamchi ishlov beradigan tarmoqlar (paxta tozalash, pillakashlik, ko'nchilik, yog' ishlab chiqarish) joylashgan edi. 80-yillarning o'rtalariga kelib, masalan, paxta tozalash tarmog'iga Qoraqalpog'istonda 50%, Qashqadaryo viloyatida 51%, Surxondaryo viloyatida qayta ishlash sanoati yalpi mahsuloti butun hajmining 56% to'g'ri kelar edi. Mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari yanada past darajada edi.

O'zbekiston sanoatining tuzilishi va hududiga joylashtirilishida yul qo'yilgan nuqsonlar shunga oqib keldiki, 80-yillarda respublika sanoat ishlab chiqarishidagi deyarli barcha o'sishlar xom ashyo va resurs tarmoqlari (**paxta tozalash, yoqilg'i sanoati, qora va rangli metallurgiya**) hisobiga ta'minlandi. Ularning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 60%ga yetdi, holbuki, mashinasozlik va metallga ishlov berish sanoatining salmog'i faqat 16%ni tashkil etgan bo'lib, bu ikki bandedan kamroq ko'tarilganligini anglatar edi. Bu hol respublikalararo noekivalent, nooqilona aloqalarga olib keldi, bunday sharoitda O'zbekistondan xom ashyo va chala mahsulotlar tashib ketilar, bu yerga esa boshqa resurslar va asbob-uskunalar bilan bir qatorda o'zi chiqargan xom ashyo va chala mahsulotlarni tayyor mahsulotlarga aylantirilib kaytarib olib kelinar edi.

O'zbekistonning xalq iste'moli mollariga bo'lgan ehtiyojining deyarli uchdan bir qismi boshqa respublikalardan keltirish hisobiga qondirildi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi bunday bir tomonlamalik ishlab chiqaruvchilarga o'z mehnatlari natijalarini his qilish imkonini bermadi, aholini, ayniqsa, qishloq aholisini ish bilan ta'minlay olmasdi, binobarin, xalq farovonligini oshirish imkonini bermasdi, respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti va izchil rivojlanishi oqsab qolayotgan edi.

Sobiq tuzum O'zbekiston sanoati rivojlanishini belgilashda bir tomonlama yondashib, mintaqaning ana shu demografik rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olmadi. Respublikada aholining o'sish sur'atlari barqaror yuqori (yiliga 2,5—3%)

bo'lgani holda bu yerda bandlikni ta'mirlash va mehnat resurslaridan samarali foydalanish dasturi ishlab chiqilmadi. Shu bilan birga, sanoatning, ko'p mehnat talab qilinadigan tarmoqlarining cheklanganligi, sanoat ishlab chiqarishiga mablag'larning yetarli darajada berilmaganligi mehnat resurslaridan to'liq foydalanmaslikka olib keldi. Bu hol band bo'lmagan aholi soni ko'payishini oldindan belgilab berdi, yangi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi va ilgari mavjud bo'lgan muammolarni yanada keskinlashtirdi.

O'zbekistonda paxta yetishtirish ko'rsatkichlarini yanada oshirish maqsadida yangi ekin maydonlarini ochish, irrigatsiya tarmoqlarini barpo etish kompaniyasi boshlanadi. Bu rejani amalga oshirish maqsadida Amudaryo va Sirdaryoning suv resurslari paxta ekin maydonlarini sug'oritish uchun sarflanib Orol dengiziga suv quyilishi umuman yo'q darajaga borib yetadi.

**Transport tizimi va kadrlar tayyorlash masalasi.** Transport sohasiga alohida e'tibor qaratilib, uzunligi 400 km masofaga ega bo'lgan Chorjo'y-Urganch temir yo'li quriladi. Bu bilan **Ashxobod, Samarqand, Dushanbe, Toshkent** va boshqa shaharlar temir yo'l orqali Rossiya bilan bog'landi. Transport tarmoqlari uzluksiz kengayib bordi. O'zbekistonning Xorazm viloyati, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston hududlarini bog'lovchi Chorjo'y-Qo'nirot temir yo'l magistrali qurilishi muhim voqea bo'ldi.

Lrushman so'ng xalq xo'jaligini mahalliy ishchi kadrlarga bo'lgan talabi qondirilmadi. Natijada kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi, ba'zi sohalarda keragidan ortiq ishchi kadrlar tayyorlandi, boshqa sohalarda, ayniqsa texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda mahalliy kadrlar tanqisligi sezilib qoldi. Aholi tarkibida ishchilar soni anchagina o'sganiga qaramay, respublikamiz bu ko'rsatkich bo'yicha sobiq ittifoq respublikalari ichida 1979-yilgi ma'lumotga ko'ra, 13-o'ringda turar edi. O'zbekiston ishchilar sinfining milliy salmog'i jihatidan orqada qolmoqda edi. Masalan, o'zbeklar 1973-1983 yillarda sanoatda 51,1 foizni, qurilishda 46,5, transportda 38,6, aloqada-40,6 kimyo va neft kimyosida 24,9 foizni tashkil qilgan.

Xizmat ko'rsatish sohasi kam rivojlanganligi ham mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga faol jalb qilinishiga to'skinlik qildi. O'zbekistonga tashqaridan ishchilar va mutaxassislarning oqib kelishi to'xtovsiz o'sib bordi, band bo'lmagan mahalliy aholi soni esa tobora ko'payib bordi. O'zbekistonning industrial rivojlanishi ishlab chiqarishga malakali ishchilar va mutaxassislar doimiy ravishda kelib turishini talab qilardi.

O'quv yurtlarining 2/3 qismi qishloq xo'jaligi uchun ishchilar tayyorlashga yo'naltirilgan edi. Sanoatda malakali ishchi kadrlarning tanqisligi sezila boshladi. Shuning uchun sanoat korxonalari o'zlari uchun bevosita korxonalarda kadrlar tayyorlashga majbur bo'ldilar. 60—80-yillarda ishchilarni ishlab chiqarishda jadallik bilan tayyorlash amalda nazariy bilimlar bermasdi, ishchilar fakat muayyan kasblar bo'yicha shunchaki amaliy ko'nikma olardilar, holos.

Respublika xalq xo'jaligining eng muhim taraqqiyoti shubhasiz elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berishga qaratildi. Shu

maqsadda urushdan so'ng 1-Qoqqovoq, 1-Bo'zsuv, 2-Bo'zsuv va boshqa gidroelektr stansiyalar qurib ishga tushirildi. Jumladan respublikada 1945- yilda 1.187 mln kv/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1950 yilda bu ko'rsatkich 2 681 mln. kv/soatga yetgan.

Albatta, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojida qator rahbaralar kadrlarning o'mi katta bo'ldi. **Usmon Yusupov** - (1900-1966 yy)-davlat arbobi. Farg'ona viloyat, Farg'ona tumanidagi Kaptaxona qishlog'ida tug'ilgan. 1916-yil u Qovunchi (hozirgi Yangiyo'l shahri) dagi paxta tozalash zavodida ishlaydi va turli jamoatchilik ishlarida faol qatnashdi.

U.Yusupov respublika rahbari bo'lib ishlagan yillarida uning tashabbusi asosida O'zbekistonda xalq hashari yo'li bilan yirik suv inshootlari quriladi (Katta Farg'ona kanali, Kattaqo'rg'on suv omboni va b.). Ikkinchi jahon urushi yillarida SSSRning g'arbiy rayonlaridan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan yirik korxonalarni tezkorlik bilan joylashtirish va ishga tushirish, yangi korxonalar qurish, frontni oziq-ovqat, paxta va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan muntazam ta'minlashda faol qatnashdi. O'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safabar etishda, urush tufayli boshpanasiz qolgan aholiga, ota-onasiz qolgan yuz minglab bolalarga mehribonlik va o'zbeklarga xos bo'lgan yuksak insonparvarlik sifatlarini ko'rsatishda bosh-qosh bo'ldi. U.Yusupov 1966- yil 7 mayda Toshkent shahrida vafot etadi.

**Sharof Rashidov** (1917-1983 yy)-taniqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi. Jizzax shahrida tug'ilgan. 1933- yilda Jizzax pedagogika texnikumiga o'qishga kiradi, uni tugatgach, o'zi o'qigan maktabda o'qituvchilik qiladi. 1937-1941 yillarda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiydi. 1941- yil noyabrda frontga chaqiriladi. 1942- yil og'ir yaralanib, Vatanga qaytib keladi va Jizzaxdagi o'rta maktabda direktorlik qiladi. 1943- yil "Lenin yo'li" gazetasida mas'ul muharrir, 1944- yil Samarqand viloyati partiya qo'mitasida kotib lavozimlarida ishlaydi. 1947-1949 yillarda "Qizil O'zbekiston" (hozirgi O'zbekiston ovozi) gazetasini muharriri, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasining boshqaruv raisi (1949-1950 yy), 1950- yil O'zbekiston SSR Oliy Seveti Prezidiumi raisi, SSSR Oliy Soveti Prizidiumi raisi o'rinbosari, 1959- yilda umrining oxirigacha **O'zbekiston SSR KP MQ birinchi kotibi** lavozimlarida ishladi.

Sh.Rashidov ko'pgina muhim obektlar (qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish, suv inshootlari qurish, Toshkent zilzilasi oqibatlarini tugatish va shaharni qayta qurish, Toshkent metropoliteni qurilishini yo'lga qo'yish va h.k.) qurilishi, O'zbekistonning ko'p qirrali salohiyati va rivojlanishi uning nomi bilan bog'liqdir.

Sh.Rashidov "G'oliblar" (1951 yy), "Kashmir qo'shig'i" (1956 yy), "Qalb amri bilan" (1982 yy) qissalari, "Bo'rondan kuchli" (1958 yy), "Qudratli to'lqin" (1964 yy) romanlari, bir qancha publitsistik kitoblar va boshqa asarlar muallifidir.

Urushdan so'ng respublika ma'naviy-madaniy hayotning barcha sohalarida, chunonchi, xalq ta'limi, tibbiyot, ilm-fan, adabiyot, sa'nat sohalarida muayyan

siljishlar qo'liga kiritildi. Eng avvalambor respublikada xalq ta'limini qayta tiklash va rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Umumiy o'rta maktablar soni ortib bordi, ularda faoliyat olib borayotgan kadrlar soni ham son va sifat jihatdan o'zgartirildi.

**Ta'lim, fan va madaniyat.** 1946-47 o'quv yilida respublikada 4483 maktab bo'lib, ularda 212.000 o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1965-66 o'quv yilida 9716 taga undagi o'quvchilar soni 2.476.000 kishiga yetgan. Oliy o'quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga yetgan. 1958- yil «Mamlakatda xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» qonun qabul qilingan edi. Unda o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish, yoshlarga umumiy politexnik ta'lim berish vazifalari ilgari surildi. Bu qonun va undan kelib chiqadigan vazifalar O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining rivojlanishi uchun ham asos qilib olindi. 1962- yilda mamlakatda umumiy majburiy 8 yillik ta'limga o'tish amalga oshirildi.

Xalq ta'liminin yanada rivojlantirish maqsadida 1966- yilda «Respublika umumiy ta'lim maktablari ishini yanada yaxshilash choralarini to'g'risida» va 1969- yilda «Respublika umumiy o'rta ta'limga o'tish munosabati bilan xalq maorifini yanada yaxshilash choralarini to'g'risida»gi qarorlari qabul qilinadi. Maktablar soni tobora ortib borgan. Xususan 1965-1985 yillar davomida respublikada umumiy ta'lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko'paygan, o'quvchilar soni esa 3055,8 ming nafardan 6519,6 ming nafarga ortgan. 1965-1985 yillarda respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni 5,7 mln. kishidan oshib ketgan edi. Mamlakatda madaniy-ma'rifiy ishlar salmog'ini kengaytirish, fuqarolarni kommunistik mafkura asosida tarbiyalashga katta e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda mafkuraviy markazlar, xususan klublar va kutubxonalar salmog'i ortgan. 1960- yillar respublikada 2.977 klub bo'lsa, 1970- yilda ularning soni 3.441 taga yetgan. Shu yillari kutubxonalar soni 3.418 tadan 5.822 taga, muzeylar soni 14 tadan 26 taga yetgan.

Fanning turli yo'nalishlarida mahalliy millat vakillari orasidan turli sohalarida olimlar, kashfiyotchilar yetishib chiqdi. Xususan matematika sohasida T.N.Qori-Niyoziy, T.A.Sarimsoqov, S.X.Sirojiddinov, fizika sohasida U.O.Orifov, S.A.Azimov, kimyo sohasida O.S.Sodiqov, S.Yu. Yunusov, M.I.Nabiev, Texnika sohasida M.T.O'razboev, X.A.Rahmatulin, X.Fayziev, biologiya yo'nalishida A.M.Muzaffarov, K.Z. Zokirov, T.Z.Zohidov, tarix, falsafa yo'nalishlarida I.M.Mo'minov, H.Sulaymonova, Ya.G.G'ulomovlar nomlarini qayd etish mumkin.

Adabiyotda mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroli sifatida qaragan bo'lishiga qaramasdan o'zbek adabiyotining yanada rivojlanishida 60-70 yillar adabiyoti alohida o'rin tutadi. Shunday adiblar orasida Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'limas Umarbekovlar faoliyatini qayd etish lozim. Yosh ijodkorlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shukur Holmirzaev, O'tkir Hoshimov, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi adiblar yetishib chiqdilar.

80-yillarning o'rtalaridan adabiyot xalq hayotini haqqoniy aks ettirish yo'lida yangicha qadamlar qo'ya boshladi. Badiiy asarlarning mavzui doirasiga

Orol fojiasi, o'zbek dehqonining mashaqqatli taqdiri, tabiat, til, madaniyat va tariximizga oid muammolar shiddatliroq kirib keldi. Yangi mazmun ijodda yangicha zamonaviy shakl, xalqona ohanglarda keng yo'l ocha boshladi.

Respublika san'atida, xususan teatr va raqs san'atida ilgari siljishlar yuz berdi. 1947- yili Toshkentda xoreografiya bilim yurti ochildi. 1957 yili mashhur raqqosa M.Turg'unboeva tomonidan "**Bahor**" o'zbek xalq raqs ansambli, 1958-yili G.Rahimova rahbarligida Xorazm ashula va raqs ansambllari tuziladi. Ular o'zbek sahna raqslarini boyitdilar. 1964- yil Toshkentda "**Yosh gvardiya**", 1990-yildan Abror Hidoyatov nomidagi o'zbek drama teatri ochildi.

Ular repertuaridan keng o'rin olgan va 60-70 yillarda teatr sahnalariga olib chiqilgan I.Sultonning «Noma'lum kishi» S.Azimovning «Qonli sarob», M.Oybekning «Qutlug' qon», S.Ahmadning «Kelinlar Qo'zolon» sahna asarlari tomoshobinlar e'tiborini qozondi. O'zbek teatr san'ati dovrug'ini ko'tarish, uni elga manzur qilishda katta ijodiy mehnati singan, unga butun umrini boshlagan M.Uyg'ur, ye.Bobojonov, A.Hidoyatov, S.Eshonto'raeva, O.Xo'jaev, Sh.Burxonov, R.Amraev, N.Rahimov, A.Bakirov, Z.Muhammadjanov, H.Nosirova, S.Qobulova, L.Sarimsoqova, G.Izmaylova, B.Qorieva, Ya.Abdullaeva, S.Xo'jaev, H. Umarov songari san'atkorlar,, aktyorlar, kinematograflar yetishib chiqdilar.

**Paxta monokulturasi va uning oqibatlari.** Uzoq yillik sobiq ittifoq davrida paxtaga faqat bir yoqlama yondashish, uni yetishtirishni "rekord daraja"ga ko'tarish siyosati natijasida qishloq xo'jaligi, ekologiya, aholi turmush tarzida salbiy iz qoldirdi. XX asr 20-30 yillarida boshlab shakllana boshlagan paxta monokulturasi natijasida "Paxta mustaqilligi uchun kurash sotsializm uchun kurash" shiori ostidagi g'ayriekologik siyosat oqibatida havo, suv, tuproq, oziq ovqat kabilarda tuzlar, har xil zaharli birkmalar ortdi. Ayniqsa ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratiladi va uning bilan boliq bo'lgan tarmoqlarga sarflandi.

Yuqorida aytilganidek, shu maqsadda VKP (b) MQning 1945- yil 15 iyuldagi «O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'risida» gi va Sobiq ittifoq XKS ning 1946- yil 2 fevraldagi «1946-1953 yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlarni to'risida» qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi. Markazning bu ko'rsatmalari respublika mehnatkashlari uchun paxta ekin maydonlarini kengaytirish, uning hosildorligini yil sayin ko'paytirib borishni nazarda tutsada, istiqbolda minglab gektar yerlarning meliorativ holatini buzilishiga, aholi salomatligini yomonlashishiga, ekologiyaning ayanchli oqibatlariga olib keldi.

Ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish uchun mineral o'g'itlar, turli pestitsidlardan foydalanishga katta e'tibor qaratiladi. Buning natijasida sun'iy ravishda paxta xom-ashyosi yetishtirish 1946-1985 yillarda 5,5 barovar ko'paydi.

paxta ekiladigan maydonlar 1 mln. gektardan ortdi, tuproqning meliorativ holati buzildi, yerlar sho'rlanib ekologiyaga katta zarar yetkazildi.

Ommaviy ravishda qishloq xo'jaligiga e'tiborning kuchaytirilganligi qo'riq va bo'z yerlarning yuragi hisoblangan Jizzax, Mirzacho'l, Qarshi, Surxon-Sherobod, Farg'ona cho'llaridagi paxta maydonlarini suog'rish uchun suv inshootlaridagi manbalardan keragidan ortiq foydalanishlar natijasida Orol havzasida ekologik vaziyating yomonlashishi, keskin suv tanqisligiga sabab bo'ldi. yer va suvning sho'rlanishi aholi salomatligiga salbiy ta'sir qildi. Shuningdek 1960-1970 yillarda uning suv sathi bir yilda 18 sm, 1971-1980 yillarda 53 sm ga, 1985 yilga kelib esa 87 sm.ga yetgan edi. 1961- yildan 1991 yilgacha dengiz hajmi 3 baravar qisqardi, uning qirg'og'i 75-80, ba'zi joylarda 100 km.ga chekindi. Mintaqada ekologik holat keskinlashdi.

**Orol muammosi.** XX asr Sobiq ittifoqda davom etgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar O'zbekistondagi ekologik holatga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Mamlakatdagi ma'muriy buyruqbozlik tizimi, mafkuraviy hukmronlik mintaqadagi ekologik holatga ham o'z salbiy o'tkazdi. Zero, Sobiq ittifoq davrida totalitar, mustamlakachilik tuzum zo'rovonligi O'zbekistonda yuz bergan ekoijtimoiy inqirozlar o'z mohiyatiga ko'ra ma'naviy fojea handir. Ekologik shovinizm barcha sohalarda siyosiy va iqtisodiy qaramliklar, milliy ma'naviy qadriyatlarining toptalishi, kadrlar tayyorlashning imperiya manfaatlariga moslashtirilishi, tabiiy boyliklarga nisbatan talonchilik siyosati kabilarda namoyon bo'ldi.

Amalga oshirilgan shovinistik siyosat natijasida tabiatga vahshiyona munosabat Orol fojeasiga olib keldi, flora va fauna buzildi, turli xil kasalliklar, jumladan, bepushtlik, ayollar va bolalar o'limi oshdi. Birgina raisol, o'sha paytda AQSh va Yaponiyada tug'ilgan 1000 ta boladan 1-2 tasi yoshiga yetmay o'lgan bo'lsa. bu ko'rsatkich, O'zbekistonda 46 taga yetganligini qanday izohlash mumkin?. Ekoijtimoiy ma'naviy inqirozlar ko'rsatkichi aholining salomatligining yomonlashishida ham o'z aksini topdi.

Jumladan, 1976 yildan 1990- yilgacha faqat O'zbekistonning o'zida katta yoshdagi va bolalar orasida umumiy kasalga chalinish (har 10 ming kishi hisobiga) muntazam o'sib borgan. Respublika bo'yicha kattalar va o'smirlarning umumiy kasallanish intensiv ko'rsatkichi 1976- yilda 2466,5 tadan 1990- yilda 3598,6 taga yetgan. Tashqi muhitning salbiy ta'siri tufayli asab tizimi, teri, teri osti kasalliklari 1989- yilning o'zida - 1,4, qon aylanish tizimi kasallanishi - 1,3 marta ko'paygan. Sil kasalligiga chalinish 3 foizga ko'paygan. Bolalar jumladan, go'daklar o'limi sobiq ittifoqning boshqa hududlaridagi ko'rsatkichidan ikki marta yuqori bo'lgan. Respublikada har yili 200 mingga yaqin kishi gepatit kasaliga duchor bo'lgan.

Yer, suv, havoga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kabi ekoko'nikmalarimiz milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimiz kommunistik mafkura asosida shakllantirilgan sovet udumlarini qaror toptirish orqali unutildi.

Ekomilliy ko'nikmalarimizning unutilishi esa yuz bergan fojearning navbatdagi ma'naviy inqirozi edi.

Ayniqsa ajdodlarimizning tabiat bilan bog'liq an'anaviy odob-axloq qoidalari, milliy an'analari, udum va marosimlari unutildi. Jumladan, ming yillar mobaynida shakllanib, sayqal topib, nishonlanib kelingan "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Gul sayli", "Navro'z" kabi bayram va udumlar unutildi yoki ta'qiqlab qo'yildi. "Navro'z"ning sun'iy ravishda "Navbahor"ga aylantirilishi yoki unga eskilik sarqiti deya qaralishi oqibatida Navro'z bilan aloqador odamlarning tabiatga, o'simliklarga, yerga munosabati o'zgardi, ular bilan bog'liq an'analar unutilish arafasida qoldi.

Xalqimizning ko'proq qishloq xo'jaligi mehnatiga jalb qilinishi, paxta yakkahokimligi kabi salbiy holatlar, o'lka asosan xom ashyo, ayniqsa paxta xom ashyo bazasiga aylantirilishi boshqa qishloq xo'jalik ekin turlariga nisbatan teskari munosabatni shakllanishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi maydonlariga maksimal darajada kimyoviy o'g'itlar berilishi natijasida xalq sog'lom turmush tarzi ayniqsa yosh avlod genofondi uchun xavf paydo bo'ldi.

Keyingi chorak asr davomida muammo bo'lib kelayotgan Orol dengizi muommasini hal etish uchun bir qator loyihalar taklif etilganligiga qaramay, ularning birortasi ham joriy etilmadi. XX asr 60-yillaridan boshlab yangi yerlar keng qo'lamda o'zlashtirilishi, sanoat, chorvachilik komplekslarining ekstensiv rivojlantirilishi, kollektor-zovur tizimlari qurilsada, ular asosan paxtachilik uchun xizmat qildi hamda karta, lotoklar suvlari sug'orish uchun muttasil yuqori hajmlarda olindi. Shu bois havzalardagi suvning salmog'i kamaya boshladi. Orol dengizining qurishi keskin muammo, aytilish mumkinki, milliy ekoinqiroz xavfini kuchaytirdi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xalqning ma'naviy hamda tarixiy an'analarining e'tiborga olinmaganligi va ekoinqirozning kelib chiqish sababalarini quyidagi omillar bilan izohlash mumkin: Birinchidan, ekologiyaga zarar yetkazmaslik nuqtai nazaridan ishlab chiqarish korxonalarining mahalliy shart-sharoitlarga moslab joylashtirilmaganligi; Ikkinchidan, qishloq xo'jaligida suvni va mehnatni ko'p talab qiladigan ekinlarni, ayniqsa, paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi;

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida son ortidan quvilib, sifatiga kam e'tiborberilishi; To'rtinchidan, ekoinqirozning yana muhim ko'rinishi bu, fuqarolar ma'naviyatida tabiatga oqilona munosabat faqatgina sotsializm qaror topgan jamiyatdagina mavjud bo'ladi, degan umuminsoniy qarashlarga zid dunyoqarash shakllantirilishi; Beshinchidan, mintaqani iqtisodiy rivojlantirishda atrof-muhitga salbiy ta'sir etish mumkin bo'lgan jarayonlar e'tiborga olinmaganligi va ilmiy asoslanmaganligi;

Oltinchidan, mahalliy aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy siyosatning kuchsizligi kabilardir.

Bularning barchasi tabiatga nisbatan ma'naviy axloqiy qarashlar, to'g'ri munosabatni aks ettiruvchi odat va marosimlar unutilishiga olib keldi. Bir so'z



bilan aytganda, sobiq ma'muriy buyruqbezlik tizimi, mafkuraviy hukmronlik mintaqadagi ekologik holatga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Bunday siyosat xalqning ming yillar mobaynida shakllanib kelgan atrof muhitga ma'naviy-axloqiy munosabatlarini yo'qolishiga sabab bo'ldi. Faqat mamlakatimiz mustaqilligi tufayli xalqimizning ma'naviy ruhiy tiklanishi insonning tabiatga bo'lgan munosabatini ham tubdan o'zgarishiga imkoniyat yaratdi.

**80-yillarning o'rtalari va oxiridagi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi.** O'zSSRning ijtimoiy-siyosiy hayotida 1984- yil 23 iyunda bo'lgan O'zbekiston Kompartiyasi MK XVI – plenumi alohida voqeya sanaladi. Chunki Moskva tashabbusi va ko'rsatmasi bilan tashkil qilingan mazkur plenumda qabul qilingan hujjatlar respublikada o'zbek xalqi taqdiriga salbiy ta'sir qildi. Sobiq respublika rahbarlari Markazga murojaat qilib O'zbekistonga Markazdan rahbar kadrlarni yuborishni iltimos qildilar.

Markazning tazyiqi ostida 1984 yildan O'zbekistondagi rahbarlik lavozimlariga sobiq ittifoqning har xil joylaridan «kadrlar desanti» kela boshladi. Birgina 1984 – 1987 yillarda Moskva, Leningrad va Rossiyaning boshqa shaharlaridan 400 dan ortiq kishi O'zbekistonning partiya, sovet, ma'muriy-xo'jalik organlariga ishga yuborilgan. Kadrlarni almashtirish siyosati ayanchli tus oldi. Natijada Markazdan o'zbek xalqining urf-odatlari, ana'nalari haqida umuman tasavvurga ega bo'lmagan rahbar xodimlarning respublikaga yuborilishi va mazkur "kadrlar desanti"ning faoliyati ko'plab salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining ikkinchi kotibligiga Anishev, Ministrlar Soveti raisining birinchi o'rinbosari Ogarok, Oliy Sovet Prezidiumi rasning o'rinbosari etib Romanovskiy, Respublika prokurori etib Buturlin, uning o'rinbosarligiga Gaydanov, tergov boshliqligiga Laptev, Ichki ishlar vazirligiga Didorenkolar tayinlandi. Toshkent shahri partiya rahbari etib Satin qo'yildi. Barcha viloyatlarda ham ahvol shunday bo'lib, ular respublikadagi hukmronlikni to'la qo'lga oldilar.

Bundan ko'zlangan maqsad jamiyatni sotsialistik asosda isloh qilish edi. Ammo hukumatning olib borgan ichki siyosati va ko'pmillatli mamlakat fuqarolari qarashlari o'rtasida o'ziga xos nomutanosiblik sodir bo'ldi. Xususan 1987- yildagi mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda, xo'jalik mexanizmini isloh qilish yo'lidagi urunishlar ham samara bermadi.

KPSS MQ ning 1985- yil (aprel) Plenumi mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilib, sovet jamiyatini "qayta qurish" zarurligi borasida ko'rsamalar berdi. Plenum ijtimoiy hayotni "demokratlashirish", "oshkoralikni joriy qilish", milliy siyosatni "takomillashtirish", umuman jamiyat hayotining barcha sohalarini "chuqur isloh qilish" yo'lini e'lon qildi. Lekin amalda bu siyosat islohotlarni amalga oshirishning aniq konsepsiyasi bo'lmasdan, balki chuqur

inqirozga yo'l tutgan sovet mustabid tuzumini saqlab qolishga, markazning milliy respublikalar ustidan nazoratini kuchaytirishiga yo'naltirilgan edi.

O'zbekistonning sobiq partiya va hukumat rahbarlari (R.Nishonov, R. Abdullaeva) sovetlarning ko'zbo'yamachilik, ulug' millatchilik va shovinistik siyosati mohiyatini anglab yetmadilar. Natijada respublikadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat yomonlashib, ziddiyatli tus oldi.

Shunday murakkab ijtimoiy, siyosiy vaziyatda respublikada keng munozaraga sabab bo'lgan muammolardan biri o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi bo'ldi. Ma'lumki, shaxsga sig'inish, turg'unlik yillarida o'zbek tilining mavqeyi qo'llanish doirasi juda ham torayib ketdi. O'zbek tili davlat idoralarida ham, majlislar, yig'inishlarda ham deyarli ishlatilmay deyarli qo'yildi. 80-yillarning o'rtalariga kelib SSSRning parchalanishi real ob'ektiv haqiqatga aylanib qoldi. Xalq milliy ongini o'sishi, jamiyatning ijtimoiy qonuniyatlari va talabi o'zbek tili masalasini ko'rib chiqishni kun tartibiga qo'yilishiga turtki bo'ldi. Shu tarzda hukumat va mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi sayi harakatlari bilan **1989-yil 21 oktyabr**da xalqimiz ma'naviy hayotida muhim voqeya sodir bo'ldi, o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berildi.

"Qayta qurish" va uning cheklanganligi shunda namoyon bo'ldiki, garchanda demokratiya, oshkoralik deya bong unilgan bo'lsada, 1985-1990 yillar oralig'ida respublika hayotida katta siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Asosiy ijtimoiy siyosiy vaziyat keskinlashib, millatlararo nizolar, iqtisodiy muammolar yuzaga kela boshladi. Ana shunday muammolardan biri, shubhasiz paxta monokulturasini va uning oqibatlari bo'ldi.

Respublikada hamon paxta monokulturasini va uning salbiy oqibatlari natijasida kelib chiqqan og'ir vaziyat davom etdi. Mazkur salbiy voqeyalar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar natijasida ko'pgina rahbarlar va oddiy fuqarolar jabr ko'rdilar. Ya'ni "**Paxta ishi**", "**O'zbeklar ishi**" va ular bilan bog'liq ayanchli holat yanada kuchaydi. Sovet tuzumi va u bilan bog'liq Markaz rahbarligida O'zbekistonda navbatdagi oshkora qatag'oular boshlanib ketdi. "Paxta ishi" deb atalgan mash'um siyosat niqobi ostida minglab begunoh kishilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Markaz ko'rsatmasiga ko'ra "Paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" deb nomlangan tergovlar olib borildi. Gdlyan va Ivanovlar guruhi ilg'or paxtakorlar, davlat boshliqlari, umuman o'ylab topilgan va bevosita "paxta ishi" bilan bog'liq minglab kishilarga nisbatan qonunsiz, beshafqat ishlarni boshlab yuboradilar. Ularning zo'ravonligi oqibatida sudlar adolatsiz hukmlar chiqara boshladilar.

Markazdan yuborilgan Gdlyan va Ivanov guruhi ming-minglab rahbarlik mahoratini paxta egallagan rahbar kadrlarga nisbatan turli aybnomalarni o'ylab topdilar, qamash, ozolikdan mahrum qilish kabi hollar kuchaya boshladi. O'zbekistonning mustaqillik sari tashlangan eng muhim qadamlardan biri esa O'zKP Markaziy Komitetining 1989-yil 25 noyabr plenunida O'zbekiston hukumati avvalo paxta monokulturasini oqibatida respublika va o'zbeklar boshiga

yog'ilayotgan malomat toshlariga chek qo'yish, matbuotda paxta monokulturasida va ekologik holatga haqidagi mish mishlarni tugatish haqida edi.

Tarixiy adabiyotlarda qayd tilishicha 1989- yilgacha Respublikamizda mazkur ishlar bo'yicha 4,5 mingdan ko'proq kishi sudlanadi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hisobga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar. O'zbekistonda inson huquqlari behad toptalayotganligi haqida Moskva xatlar jo'natildi. Afsuski, bu xatlar tekshirilmagan, hatto javob yozishga ep ko'rilmadi. Respublikada o'ylab topilgan "Paxta ishlari"ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Komissiya ish faoliyatiga 40 ming tomdan iborat ishni ko'rib chiqish topshirildi. 1990- yilning iyun oyiga kelib, komissiya muhim bir xulosaga keldi. 1990- yil 13 iyun kuni Moskva shahriga SSSR Bosh prokurori, SSSR Oliy sudining raisi va SSSR Adliya vaziri nomiga yozilgan xatda komissiya xulosalari batafsil ko'rsatildi. Bu xatda **"Paxta ishi"** chuqur tahlil qilinib, sudlanganlarni oqlash masalasi qo'yilgan edi. Biroq yuqoridagi tashkilotlar ko'mak o'miga tayz:qni kuchaytirdilar

T.X. Gdlyan va N.V. Ivanov guruhining faoliyati natijasida respublikadagi jamoa xo'jaliklari raislari va savxoz direktorlarining 60%, qishloq xo'jaligi yetakchi mutaxassislarining 45%, paxtachilik brigada boshliqlarining 35%, shuningdek, ko'plab rahbarlar, viloyatlar va tumanlar partiya komiteti kotiblari, respublika miqyosidagi partiya, sovet va xo'jalik rahbarlari o'z vazifalaridan ofib tashlandi va ularga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atildi.

1983- yildan Markazqo'mning ko'rsatmasi asosida rahbarlar ustidan jinoiy ishlar qo'zg'ash boshlandi. 1983-1988 yillarda O'zbekiston bo'yicha jinoiy ish yuzasidan qamalganlarning 600 tasi rahbar xodimlar edi. Ularning 60 foizi kolxoz raislari, savxoz direktorlari, 45 foizi esa yetuk qishloq xo'jaligi mutaxassislari edilar. Bu jarayonda mas'ul, KPSS MQ nomenklaturasidagi 172, O'zkompartiya MQ nomenklaturasidagi 1813 nafar xodim javobgarlikka tortildi. Ularning 70 foizi viloyat, shahar, tuman partiya qo'mitalarining rahbarlari edilar.

O'sha paytda respublikadagi qamoqxonalarda joy qolmagani sababli sudlanganlarning mingdan ortig'i jazoni o'tash uchun Sibir qamoqxonalari jo'natildi. Aybsiz odamlarni, ularning oila a'zolarini qamoqqa olish, jismoniy va ruhiy qiynoqqa solish avj oldi. Hibsga olinganlar tergov usullariga dosh berolmay o'z jonlariga qasd qilishgacha borib yetdilar.

Ana shu tariqa desantchilar o'zbek xalqini ko'zbo'yamachilikda, poraxo'rlikda, qo'shib yozishlarda, boqimandalikda ayblab, partiya va davlat rahbarlaridan tortib oddiy dehqonlarni ham ta'qib ostiga oldilar. Shunday qilib, soxta ayblar natijasida respublikamizning minglab fuqarolari qiynoqlarga solindi, sudsiz, tergovsiz qamaldi. Ularning orasida keksalar, xomilador ayollar, nogironlar ham bor edi. Aybsiz kishilarga jismoniy kuch ishlatib, qo'rqitish yo'li bilan ayblar qo'yildi. Oddiy mehnatkashlardan katta miqdorda pul, o'z rahbarlari to'g'risida noto'g'ri ko'rsatmalar berish talab qilindi.

Bu davrda Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari vafot etib ketgan partiya va davlat arboblari yuklanib, 1980 – yillar qatag'onida nohaq qoralandi. Eng avvalo, qatag'on qilichi Sharof Rashidovga qarshi ko'tarilib, uning nomi ham badnom qilindi. 1959 – 1983 yillarda **Sh.R. Rashidov O'zbekiston Kompartiyasi MQning Birinchi kotibi bo'lib ishlagan va rahbarlik yillarda ulkan islohotlar qilindi, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bunga xolis tarix guvoh.** Ammo markazning tazyiqi bilan qishloq xo'jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Albatta, bunday holatlarni uning faoliyati natijasida yuzaga kelgan deb bo'lmaydi, balki sovet hekimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

«Paxta ishi» oqibatida butun respublikamizda parokandalik, loqaydlik, umidsizlik va ishonchsizlik kayfiyati chuqurlashdi. O'zbekiston fuqarolari o'z xaq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya hamda sovet organlariga murojaat qildilar. 1986-1987 yillarda faqat O'zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi Markazqo'm kotiblari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib, o'zlarining talablarini bildirdilar.

Norozilik, ayniqsa, xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986-1987 yillarda respublikada 270 ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadriyatining toptalashi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan ko'rsatilgan norozilik edi. Haqiqat, adolat, keyinchalik, Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Minglab kishilar oqlandi, bir qismi avf etildi, qolganlarining esa jazo muddatlari kamaytirildi.

Shu tariqa, XX asrning 80-90 – yillarida partiya va sovet davlati tomonidan mavjud turg'unlik holatidan chiqish, shuningdek, sobiq ittifoqdosh respublikalarning mustaqillik yo'lidagi harakatlarini bartaraf etish, sobiq SSSRda yuzaga kelgan inqirozli harakatlar sabablarini ittifoqdosh respublikalardan qidirish, ularni ayblash uchun turli nayranglar, «siyosiy o'yinlar» o'ylab chiqdilar.

Bu davrda ijtimoiy va xo'jalik vazifalarini ma'muriy-buyruqbozlik bilan hal etish mumkin bo'lmay qoldi. Iqtisodiy o'sish esa yildan-yilga kamayib boraverdi. Respublika xalq xo'jaligida unumiy ijtimoiy mehnat unumdorligining pasayishi hisobiga mo'ljaldagidan 4,3 foiz yoki 850,4 million so'mga kam milliy daromad olindi. 1989- yilda O'zbekistondagi har bir kishiga sobiq ittifoqdagi o'rtacha darajadan bir yarim baravardan kam kapital mablag' to'g'ri keldi.

O'sha davrda respublikada milliy ongning o'sishi, o'zlikni anglash darajasining kuchayishi yana ko'plab muammolarning yechimini kun tartibiga qo'ydi. Ammo sobiq respublika rahbarlari bu muammolarni yechish uchun qilinayotgan harakatlarni «jamiyatga qarshi harakat», deb tushundilar.

XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sobiq ittifoqda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy inqiroz chuqurlashib, beqarorlik kuchayib bordi. O'z navbatida necha

yillar davomida hal etilmagan, xalqning sabr kosasini to'ldirgan muammolar oxir-oqibatda ijtimoiy larzalarga, milliy nizolarga olib keldi.

Bunday salbiy holatlar, afsuski, O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 1989-yilning may oyi oxirlari – iyunning boshlari butun **Farg'ona viloyati** millatlararo to'qnashuvlar alangasi ichida qolib ketdi. Dastlab 23 may kuni boshlangan fojea ikki kundan keyin Toshloq tumaniga, undan so'ng esa Marg'ilon va Qo'qon shaharlariga ham yoyildi. Qadimdan o'zining bag'rikenglik, mehmondo'stlik, mehr-shafqatlilik fazilatlarini bilan shuhrat qozongan xalqimiz hych qachon birovga nisbatan adovatda bo'lmagan, qo'l ko'tarmagan. Biroq, sobiq ittifoqdagi buzg'unchi kuchlar ta'sirida ana shunday favqulodda kutilmagan fojea sodir etildi va begunoh insonlar qurbon bo'ldi.

Keyinchalik, aniq tarixiy dalillar asosida ma'lum bo'ldiki, ana shu tartibsizliklarga, xalqimiz, yurtimiz manfaatlariga mutloqo zid bo'lgan harakatlarga milliy kiyimlarni kiyib olgan, aslida boshqa millatlarga mansub bo'lgan, maxsus tayyorgarlik bilan ko'chaga chiqqan kishilar tashkilotchilik qilishgan, ular tinch aholini qo'zg'ab, janjal chiqarishga da'vat etgan. Ular mesxe'i turklari va boshqa millat vakillariga qarshi ig'vo va bo'hton gaplarni tarqatib, sodda olamni g'alayon ko'tarishga chaqirdilar va ba'zi holatlarda bunday yovuz niyatlarini amalga oshirishga erishdilar ham.

Faqatgina O'zbekiston mustaqilligi yillarida paxta monokulturasini oqibatlarini bartaraf etish maqsadida maxsus taftish qilish komissiyasi ikki yildan ko'proq vaqt mobaynida **40 ming tomlik ishni ko'rib chiqdi, paxta tajovuzi oqibatida ayblangan 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi**. Qolganlarning jazo muddatlari kamaytirilib, katta qismi Prezidentimiz farmonlariga binoan avf etildilar. Xulosa qilib aytganda paxta monokulturasini va paxtaga faqat bir yoqlama yondashish, uni yetishtirishni ko'paytirish oxir oqibat o'zining salbiy oqibatlarini qoldirdi. Bunday g'ayriekologik siyosat oqibatida odamlar turmush tarzida salbiy holat vujudga keldi. Yaqin o'tmishning achchiq saboqlaridan yetarli xulosalar chiqarib ish olib borish esa siz va bizning burchimizdir.

**Farg'ona voqyealari.** Ma'lumki, XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sovet tuzumi parchalanishi arafasida mamlakatdagi inqirozli vaziyat millatlararo munosabatlarning keskinlashuvida ham o'z aksini topdi. Chunki, uzoq yillar davomida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida to'planib qolgan muammolar millatlararo munosabatlarga ta'sir etmasdan qolmadi. Bunday nizolar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 1989 yil may-iyun oylarida Farg'ona viloyatidagi millatlararo mojarolar respublikadagi siyosiy vaziyatning keskin tus olishiga olib keldi. Respublikaning o'sha paytdagi O'zbekiston kompartiyasining sobiq birinchi kotibi Rafiq Nishonov boshchiligidagi siyosiy rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmagan uchun, yoshlarning ommaviy chiqishlari, millatlararo to'qnashuvlar sodir bo'la boshladi.

Shu narsa ayonki, deya yozadi Birinchi Prezident Islom Karimov "...o'shanda barcha voqyealarning ildizi - Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bilan chambarchas bog'liq edi. Yuzaga

kelgan qaltis vaziyatni bartaraf etish uchun, eng avvalo, viloyatda, umuman vodiylar viloyatlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, bir so'z bilan aytganda, odamlarga ta'minot va daromad manbaini topib berish zarur edi. 1989 yilning iyul oyiga qadar Farg'ona viloyati aholisining hayot darajasini oshirish, mehnatga yaroqli aholining bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

1989- yil 24 mayda **Quvasoy shahrida** yoshlar o'rtasida bo'lgan bezorilik millatlararo (mahalliy yoshlar bilan mesketi turklar o'rtasida) to'qnashuvni keltirib chiqardi va bu mojaro Farg'ona vodiysida ommaviy tus oladi. O'sha davrdagi respublikaning rahbariyati yuzaga kelgan bu murakkab vaziyatni to'g'ri baholay olmadi. Natijada, oddiy mojaro **Farg'ona, Marg'ilon, Toshloq, Qo'qon, Andijon, Namangan, Toshkent** viloyatida aholining, ayniqsa, yoshlarning ommaviy chiqishlariga aylanib ketdi va millatlararo to'qnashuvlarda namoyon bo'ldi.

Mamlakatimizga rahbar etib saylangan Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, eng avvalo, mamlakatda tartib o'rnatishga kirishdi. O'zbekistonning turli mintaqalaridan chiqqan etnik nizolar va ijtimoiy tanglik o'choqlari shaxsan Prezident ishtirokida bartaraf etildi. Rahbar nafaqat siyosatchi bo'lishi, balki dastlab uning irodali, qo'rqmas shaxs sifatida shakllanganligi ham e'tiborlidir.

1989- yilning 23 iyunida **Islom Karimov mamlakat rahbari** bo'lib saylangan kunining ertasigayoq ya'ni, 24 iyun kuni Ministrlar Sovetida Farg'ona voqyealariga bag'ishlangan katta majlis o'tkazadi. Mazkur majlisdagi chiqishida yangi rahbar siyosiy yetakchiga xos barcha fazilatlarini namoyon etadi. Islom Karimov davlat rahbari sifatida masalani keskin qo'yadi: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi" deya ta'kidlaydi.

Ertasigayoq respublika rahbari janjal-to'polonlar ichida qolib ketgan Farg'onaga boradi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hyech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hyech kim eshitmagan ohu nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi yaralariga malham qo'ygandek be'ladi.

Anmmo voqyelar qaltis tus olgan kezlarda Farg'ona fojialari haqida respublika matbuotida va boshqa ommaviy axborot vositalarida to'g'ri ma'lumot berilmaganligi, bu mojarolarning kelib chiqishida asosan «mahalliy aholi aybdor» deb bir tomonlama va noxolis baholanishi vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Ta'kidlash joizki, 1989- yil 11 iyunda Toshkent shahrida ishlayotgan va o'qiyotgan farg'onalik yoshlardan yuzga yaqini ommaviy axborot vositalarining voqyenlarga munosabati haqida bir qator to'g'ri talablarni qo'yadilar.

Bunday ommaviy chiqishlarga, kommunistik mafkura tartibiga qarshi borishlarga «ko'nikmagan» mustabid tuzum siyosiy rahbariyati namoyishchilarga qarshi harbiy qism tashlaydi. 1989- yil 8 iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar

ana shu harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod namoyishda qatnashgan aholi halok bo'ldi (ularning ko'pchiligi yoshlar edi). 200 dan ortig'i esa yarador qilinadi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar va ularning harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilingan.

Voqyealarning keng miqyos va fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar tomonidan mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga harida Tojikistonning Leninobod (hozirgi Sug'd viloyati) viloyati Asht tumanidagi **Novgarzon posyolkasiga** shoshilinch ko'chiriladi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmaz edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashiriladi.

Zero, o'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqyealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqyealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday buyoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilar bo'lib keldi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimi, kadrlar siyosati, qatag'onlar, sanoat, elektroenergetika, mashinasozlik, asbobsozlik, irrigatsiya, melioratsiya, qo'riq va bo'z yerlar, ijtimoiy hayot, madaniy hayot, fan, adabiyot va san'at, ta'lim-tarbiya, «qayta qurish», paxta ishi», paxta yakka hokimligi, ekologik muammolar.

Respublika rahbarining bunday qat'iyati asossiz ta'na va bo'htonlardan ezilgan, turli tahdidlar oqibatida tahlikaga tushgan xalqning ruhini ko'tardi. Islom Karimov qonli voqyealar haqidagi haqqoniy fikrlari bilan xalqimiz sha'niga otilgan malomat toshlari butunlay bo'hton ekanligini isbotlaydi. Ayni paytda vahshiylik qilgan, odam o'ldirgan, tartibsizliklarni keltirib chiqargan, uylarga o't qo'ygan, transport vosita arni yoqib yuborgan kimsalar o'zbek millatiga mansub emasligini, ularning hammasi ataylab tashkil etilganini markazdagi minbarlardan turib jasurlik bilan aytadi.

Davlat rahbari o'sha davridayoq Farg'ona voqyealarining tub sabablarini quyidagi masalalar bilan bog'liqligini asoslab bergan edi va bu sabablar aniq ifodalangan. Bular quyidagilar:

1. Farg'ona vodiysida yashayotgan aholining og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
2. Odamlarning ta'minoti, daromadi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haddan tashqari pastligi tufayli bunday holat O'zbekistonning boshqa joylarida ham sodir bo'lishi mumkinligi.
3. Ishsizlik, ish o'rinlarining kamligi, ya'ni ortiqcha ishchi kuchining ko'payib borishi.
4. Yoshlar va ularni ishga joylashtirish masalasi jiddiy o'ylab ko'rilmagani kabi sabablar.

O'zbekistonning yangi hukumati Markaz bilan bo'ladigan munosabatlarni o'zgaritmay turib, ijobiy siljishlarga erishib bo'lmashligini va buning uchun

respublikaning to'liq mustaqilligini ta'minlash zarurligini tushunib yetdi. Islom Karimovning tashabbusi bilan O'zbekiston hukumati tomondan 1989- yil 15 avgustda «Kolxozchilar, sovxoz ishchilari, fuqarolar, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari va individual uy – joy qurilishini yanada rivojlantirish to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Garchi bu to'g'riya ittifoq rahbarlariga yoqmagani bo'lsa ham, Islom Karimov o'z fikridan qaytmay, uni jasorat bilan amalga oshira bordi. Natijada o'sha yilning 4 oyida aholi qo'shimcha 90,7 ming gektar yer oldi.

**4. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: I.A. Karimov O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.** XX asr 80 yillarining oxirlari - 90-yillarining boshlarida respublikada ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'z umrini o'tab, bozor munosabatlariga o'tish harakatlari endigina to'y berayotgan bir davrda, O'zbekistondagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda jamiyatni demokratlashtirish, O'zbekistonning haqiqiy suverenitetini o'rnatish, mamlakatda yashayotgan ko'p sonli millatlarning totuvligi va tengligini ta'minlashga erishishga kirishildi. **1989-yil 21 – 23 iyun** kunlaridan O'z KP MQ Birinchi kotibi lavozimiga kirishgan Islom Karimov boshliq siyosiy rahbariyatning asosiy vazifalaridan biri bu, O'zbekiston xalqi respublika rahbariyatining yuzaga kelgan vaziyatni barqarorlashtirish, iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta'minlashdan iboratligi ma'lum bo'ldi. Chunki, O'zbekiston rahbariyati xalqning xohish-irodasini hisobga olib, uning manfaatlarini ko'zlab ish yuritishi lozim edi.

Vujudga kelgan o'ta og'ir sharoit, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchiliklarga, turli to'siqlarga qaramasdan, xalqimiz Islom Karimov boshchiligida o'zining asriy orzusi – O'zbekistonning davlat suvereniteti va mustaqilligi sari dadil va qat'iyat bilan harakat qilishda davom etdi. Shu bilan birga, boshqa respublikalarda xususiy lashtirish to'g'risida gap sotilayotganda, aynan muholidlar tomonidan o'rinsiz tanqid qilinayotgan "konservatorlar respublikasi"da birinchilardan bo'lib xususiy korxonalar paydo bo'ldi. Respublikada do'konlarni va maishiy xizmat ko'rsatish sohasini xususiy lashtirish boshlanib, **1990- yilning o'zida 170 ming gektar yer oilalarga** meros qoldirish huquqi bilan ijaraga berildi. Bu raqamni yarim million gektargacha yetkazish belgilab olindi. So'nggi paytlargacha yerlarning bor-yo'g'i 4,5 foizida dehqonchilik qilgan shaxsiy xo'jaliklar respublikadagi oziq-ovqat resurslarining 40 foiziga qadar bergani hisobga olinadigan bo'lsa, yerlarning umumiy salmog'ida bunday uchastkalar hajmi ikki barobardan ziyod oshganda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi sezilarli darajada oshishi muqarrar.

1990- yil 23 martida O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Plenumi bo'ldi. Unda O'zbekiston SSRning siyosiy suvereniteti masalalariga oid muammolarni tahlil etishga va konsepsiyalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor berildi. Plenum yangilanayotgan siyosiy tizimda respublika Kompartiyasining o'zmi va mavqeyi, uning davlat hokimiyati idoralari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro munosabati prinsiplari to'g'risidagi masalalarni muhokama qilib, buyruqbozlikdan, ma'muriyatchilikdan voz kechish lozimligini uqdirdi. Shu bilan



birga, plenum respublika siyosiy tizimi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni hayot taqozo qilayotganini ko'rsatib, real hokimiyat O'zbekiston Kompartiyasidan, uning barcha darajalaridagi komitetlaridan xalq deputatlari sovetlariga berilishi bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishlari lozimligini ta'kidlab, yuzaga kelgan vaziyatda **O'zbekiston SSR Prezidenti** lavozimini ta'sis etish muhim ahamiyat kasb etadi, deb ta'kidladi.

O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvi masalasining ko'tarilishi prinsipial amaliy va tarixiy hodisa bo'ldi. Respublikada boshqaruvning ayni ana shunday shakli joriy etilishi, avvalo, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, millatlararo va boshqa sohalardagi muammolarni hal qilish jarayonini tezlashtirishga ko'maklashish vositasi sifatida joriy qilindi. Eng muhimi shundan iboratki, Prezident boshqaruvining joriy etilishi – respublika uchun suverenitet va davlatchilikda mohiyat jihatidan yangi bosqichga o'tishni bildirar edi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayni shu paytda keng miqyosda tartib va intizorni, eng avvalo, boshqaruvning barcha darajalarida va jabhalarida ijro mexanizmini qayta qurishni tezlashtirish vazifalarini o'z vaqtida hal etish masalasi, fuqarolar huquqlarini himoya qiluvchi barcha davlat muassasalarini nazorat qilish ham katta ahamiyat kasb etmoqda edi.

Ana shu ob'ektiv holatni hisobga olib, **1990- yil 24 martda XII chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi.** Sessiya O'zbekiston tarixida birinchi marta prezidentlik lavozimini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi. Sessiya yakdillik bilan Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda **Prezident lavozimining ta'sis etilishi** respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi uchun kurash borasida qo'yilgan navbatdagi dadil qadamlardan edi.

Respublikaning Prezidenti sessiyada «Bu katta ishonch uchun o'zimning minnatdorchiligimni bildiraman, men buni, eng avvalo, o'zbek xalqi, O'zbekiston SSRning barcha mehnatkashlari, ishchilar sinfi, dehqonlar, ziyolilar, jumhuriyatimizda yashovchi hamma millat va xalqlar taqdiri uchun o'z zimmaniga tushgan ulkan burch va javobgarlik deb qabul qilaman. Har bir grajdanning konstitutsion huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida katta mas'uliyat deb tushunaman», dedi.

O'z fikrini davom ettirib, Prezident o'z vazifasiga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidladi: «O'zbekiston Prezidenti sifatidagi o'zimning asosiy vazifalarimni nimadan iborat deb bilaman? O'zbekiston SSRning siyosiy mustaqilligini mustahkamlash va yanada takomillashtirish, uni yangi va hayotiy mazmun bilan boyitish, shuningdek, Prezident boshqaruvining muhim vazifalaridan biri respublikaning iqtisodiy mustaqilligini, o'zini o'zi idora qilishga o'tishini ta'minlashdir. Ayni chog'da mehnatkashlarning, aholining hamma tabaqalari farovonligini oshirish, odamlarning talab va ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy sohani tez sur'atlar bilan rivojlantirish – respublika davlat hokimiyati organlaridan, shaxsan mendan, O'zbekiston SSR Prezidentidan doimiy e'tibor

talab qiladigan vazifadir». Shu tariqa Prezident eng qiyin, ziddiyatli, tahlikali bir paytda butun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi. Yana muhim siyosiy voqeealardan biri, bu **1990 yil 20 iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 2-sessiyasida Mustaqillik deklaratsiyasi** qabul qilindi. U 12 bo'limdan iborat bo'lib, unda milliy armiyani shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim bandlar quyidagilardan iborat edi

1. O'zbekiston SSRning demokratik davlat mustaqilligi respublikaning o'z hududida barcha tarkibiy qismlarida va barcha tashqi munosabatlardagi tanho hokimligidir.

2. O'zbekiston SSRning davlat hududi chegarasi daxtsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib, o'zgartirilishi mumkin emas.

3. O'zbekiston SSRda davlat hokimiyati uning hududiga kiradigan barcha tarkibiy va bo'linmas qismlari ustidan amalga oshiriladi va shu hududda yashaydigan aholiga taalluqlidir va h.k.

1991- yil 25 avgustdagi O'zbekiston SSR Prezidentining Farmoniga ko'ra:

1. Respublika hududida joylashgan SSSR IIV va Davlat Xavfsizligi komiteti O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi.

2. Respublika va uning fuqorolari xavfsizligini, manfaatlarini muhofaza qilishni nazarda tutadi.

3. Respublika hududida joylashgan SSSR IIVning ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston SSR Prezidentiga bo'ysundirildi.

4. O'zbekiston SSR IIV, DXQ, prokuraturasi va adliya organlari, shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan holi qilindi va h.k.

Mustaqillik deklaratsiyasida o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi va madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajribasi va an'analari hisobga olinishi uqdirildi.

Mustaqillik deklaratsiyasi kirish qismida quyidagi prinsiplar o'z aksini topdi: «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlarga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi».

Mustaqillik arafasida **1991 yil 19-21 avgust kunlari** Moskvada davlat to'ntarishi sodir bo'ldi. Ya'ni, M.S Gorbachyov hokimiyatdan ketgandan so'ng, uning o'rniga vaqtincha "Favqulotda Holat Davlat Qo'mitasi" keldi. Mustaqillikka erishish yo'lida ayniqsa O'zbekistonning Moskvadagi Davlat to'ntarishi voqeeasi paytidagi qat'iy pozitsiyasi hal qiluvchi rol o'ynadi. Shu kuni O'zbekiston Prezidenti Hindiston safaridan qaytgani hamonoq – 19 avgust kuni kechqurin respublika rahbarlari va Toshkent shahri faollari bilan uchrashib, qat'iy tarzda "Favqulotda Holat Davlat Qo'mitasi" ga munosabat borasida O'zbekiston

nuqtai nazarini ma'lum qildi. Respublika rahbariyati: «Markazdan, kim bo'lishidan qat'i nazar, qonunga xilof ko'rsatmalarni bajarish mumkin emas», deb hisobladi. 20 avgustda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati, O'zbekiston SSR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri rahbarlari ishtirokida qo'shma majlis bo'ldi. Unda O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

Shu kuni Prezident respublika aholisiga murojaat bilan chiqdi. Ushbu murojaatda O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishish yo'li qat'iy ekanini yana bir bor alohida uqtirildi. Jumladan, unda shunday deyildi: «O'zbekiston jumhuriyati, uning rahbariyati qayta qurish davrida ham hech qachon bironvning gapiga kirib ish tutgan emas. Markazdan, boshqa ba'zi bir jumhuriyatlardan qanday qarorlar chiqmasin, va'dalar berilmasin, har qanday chaqiriqlar, da'vatlar, yo'l-yo'riq ko'rsatishga harakatlar bo'lmasin, biz o'zimiz tanlagan yo'limizdan va belgilab olgan maqsadimizdan qaytganimiz yo'q. Bu yo'l bizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga tabiatimiz shart-sharoitlariga, xullas, xalqimiz manfaatlariga mos yo'ldir», - deb qat'iy ta'kidlandi.

Ana shunday sharoitda, ya'ni Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlab qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston mustaqilligi haqida Qonun qabul qilish masalasini keskin qo'ydi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqliligi va mustaqilligi ta'minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Buning uchun mustaqillik yo'lidagi barcha to'siqlar olib tashlanishi, respublika so'zda emas, balki amalda tenglar orasida teng bo'lishi lozim edi.

O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlash lozim. Unda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi hanuda «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Prezident ma'ruzasi tinglandi. U o'z nutqida 1991 yil o'rtalarida markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni tahlil qildi. 1991- yil 19-21 avgust kunlari Moskvada **“Favqulotda Holat Davlat Qo'mitasi”** a'zolarining respublikalar mustaqilligini yana kishanlamoqchi bo'lganini ochib tashladi. Alg'ov-dalg'ovli kunlarda ham O'zbekistonning o'z yo'li va maqsadi borligini, bu xalq manfaatiga mos yo'l ekanini, qanday qilib bo'lmasin, undan qaytmaslik lozimligini aytdi.

Shuningdek, ma'ruzada mustaqil davlatlar maqomiga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidladi: «Bo'lajak Mustaqil davlatlar... erkin, mustaqil va teng huquqli bo'lib qolishlari, o'zlarining milliy davlat tuzish, tashqi bozorga chiqish, o'zi ma'qul topgan barcha mamlakalar bilan xalqaro munosabat o'rnatish, diplomatik va konsullik aloqalari masalalarini mustaqil hal etishlari kerak. Yana ta'kidlab

aytaman, bu hych kinning buyrug'isiz va aralashuvisiz mustaqil amalga oshirilishi kerak. Mana shu sharoitga, sabablarga asoslanib, xalqimiz xohish-irodasini bajo keltirib, Oliy Kengash diqqatiga faqat bir masalani qo'ymaqchiman: O'zbekistonning mustaqilligi haqidagi Qonuni muhokama etish va uni qabul qilishni taklif etaman. Bu qonunda qadimiy va yangilanayotgan diyorumizda istiqomat qilayotgan barcha kishilarning xohish-irodasi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning bu ezgu xohish-irodasi biz uchun muqaddasdır».

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Urushdan so'ng, tiklanish va rivojlanish, sanoat, paxtachilik, yengil sanoat, xom ashyo, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, paxta monokulturasi, qayta qurish, demokratiya, mustaqillik ostonasi, deklaratsiya, ijtimoiy -- siyosiy vaziyat, suverimet, tanazzul, inqiroz.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari**

1. O'zbekiston ikkinchi jahon urushidan so'ng, tiklanishdan rivojlanish sari.
2. Tiklanish va taraqqiyot yillarida O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holat.
3. "Qayta qurish" siyosati va uning natijalari.
4. I.A. Karimov O'zbekistonning Biriuchi Prezidenti.
5. Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar.
6. SSSR ning tanazzulga yuz tutishi va O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishining ahamiyati

### **Nazorat savollari**

1. O'zbekistonning ikkinchi jahon urushidan so'ng tiklanishdan rivojlanish sari yo'l tutganligi xususidagi fikringizni bayon qiling.
2. XX asrning 50-80 yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatiga baho bering.
3. "Qayta qurish" siyosati va uning natijalari xususida mulohazalaringiz.
4. O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvining joriy etilishining tarixiy ahamiyati qanday ?
5. O'zbekiston mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilinishining tarixiy ahamiyati qanday ?
6. 1991- yil avgust voqyealari va uning O'zbekistonga ta'siri qanday sodir bo'lgan. Bu xususda Sizning fikringiz.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, T., 2017 yil 23 dekabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi: "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2020 yil 25 yanvar.

4. Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. "O'zbekiston". NMIU. T., 2012.

5. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: «Sharq», 2000 y.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: «Sharq», 2000.

7. Abdullaev A. Paxta yakkahokimligi oqibat va saboqlar (1917–1991 yy.) – Toshkent: Istiqlol, 2006.

8. Oblomurodov N. Hazaratqulov A, Tolipov F va boshqalar. O'zbekiston tarixi. T., 2011.

9. Mo'minov T. Turkiston ikki asr girdobida. T., 2013

10. Alimardonov To'lqin. O'chmas Sharaf. Sharof Rashidov hayoti va faoliyati tarix ko'zgo'sida: monogr. / – Toshkent., 2017. - 275 b.

**11-mavzu: O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi.  
Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarining  
shakllantirilishi.**

**Reja:**

- 1. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati**
- 2. Siyosiy islohotlar, O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat asoslarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi**
- 3. Respublikada mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari: mohiyati, faoliyati va vazifalari.**
- 4. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning ta'minlanishi**

**1. O'zbekiston davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati.**

Sovet tuzumi davridagi markaziy boshqaruv va yakkahokimlik, siyosiy inqiroz, ijtimoiy muammolarning yetilganligi hamda mavjud iqtisodiyotning oqibatlari avvalo odamlarning turmush tarzida, eng yomoni, ularning jon boshiga to'g'ri keladigan daromad darajasining pastligida, tomorqa yerlarining keskin kamayib borishida, millatning salomatligi, uning genofondiga salbiy ta'sirlarning kuchayishida, o'lkaning ekologik nochor holatida va boshqa ko'plab muammolarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Shunday inqirozli siyosiy keskinliklar avj olgan kezlarda Birinchi Prezident Islom Karimov o'zining o'sha davrdagi faoliyatida O'zbekistonning hayotiga daxlilar bo'lgan har bir masalaga kompleks yondashdi, ularning yagona to'g'ri va muqarrar yechimi – bu mustaqillik va faqat mustaqillik, degan mantiqiy xulosaga keldi. Bunday dadil fikrni sobiq ittifoqning katta-katta minbarlaridan turib bayon etishdan cho'chib ham, tortinib ham o'tirmadi. Jumladan, biz uchun sobiq tuzumning butun davri davomida eng og'riqli masala bo'lib kelgan xomashyo mintaqasi bo'lib kelgan va xalqimiz o'zining mashaqqatli mehnati uchun munosib haq olishi, munosib turmush sharoitiga ega bo'lishi haqidagi talab muallifning Moskvada chop etiladigan "Rabochaya tribuna" gazetasiga bergan intervyusida quyidagicha bayon etiladi:

"Paxta tolasi belgilab qo'yilgan past narxlarda O'zbekistondan tashqariga jo'natildi va hamon jo'natilmoqda. Buning evaziga nima berilmoqda? Paxta yetishtirishda mehnatning 84 foizi bizning zimmamizga tushmoqda va uni qayta ishlashdan keladigan daromadning atigi 16 foizi bizga tegmoqda. Paxtani olayotgan boshqa respublikalarda nisbat aksincha bo'lmoqda. Masalan, aytaylik, Rossiyada to'qilgan va tikilgan tayyor ko'ylak g'oyat katta foyda keltirmoqda. Mehnati - bizga, puli - boshqalarga. Mamlakatning "paxta sexi" bo'lishi, mana, nimanı anglatadi".

Sobiq Ittifoqning rasmiy jihatdan tagatlashida 1991- yil 8 dekabrda Belorussiyaning Beloveje Pushchasida Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari tomonidan imzolangan o'zaro bitim muhim ahamiyat kasb etdi. Bitimda SSSR tugatilganligi va **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** (MDH) tashkil etilganligini rasman e'lon qildilar. XX asr 90-yillari boshiga kelib markaz va Ittifoq respublikalari o'rtasidagi munosabatlar tobora taranglashib, markaz boshqaruv qobiliyatini yo'qotgan, har bir mintaqa, har bir respublika o'z holiga tashlat qo'yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay bilish qobiliyatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O'zbekiston Mustaqilligi haqida Qonun qabul qilishni talab qildi.

Ushbu voqoyalardan ancha oldinroq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991- yil 26 avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash hamda 31 avgustda Oliy Kengash sessiyasini chaqirish yuzasidan qaror qabul qildi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va Markaziy nazorat qo'mitasining 28 avgustda bo'lgan qo'shma Plenumi Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqasini to'xtatishga, KPSSning barcha tashkilotlaridan chiqishga, uning Markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

Ana shunday vaziyatda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991- yil 31 avgustda o'z ishini boshladi. O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyat kasb etdi. Unda **«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»** hamda **«O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»**gi masalalar kun tartibiga qo'yilib, qizg'in muhokama qilindi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'ngi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlana asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi.

Oliy Kengash deputatlari muhokamasidan so'ng «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonunni qabul qildilar. So'ngra «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti» qabul qilindi. Oliy Kengash sessiyasi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida» qaror qabul qilindi Mazkur qarorda:

1) Respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va respublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1 sentyabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lib, bu qonun asosida O'zbekistonning huquqiy holati tubdan o'zgardi. O'z mohiyatiga ko'ra bu hujjat respublika uchun vaktincha konstitutsiya relini ham o'ynaydigan bo'ldi. 17 moddadan iborat ushbu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining asosiy belgalarini aniqlab berdi.

Bunday Qonunning qabul qilinishi Mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarning natijasi hisoblanadi. Bu esa huquqiy, iqtisodiy hamda ma'naviy-axloqiy munosabatlar natijasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mazkur Qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 30 sentyabrda bo'lib o'tgan VII sessiyasida qabul qilingan qarori bilan Konstitutsiyaviy Qonun maqomi berildi. Jumladan, unda shunday deyiladi:

1. «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» **1991-yil 31 avgustda** qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga konstitutsiyaviy maqom berilsin.

2. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalariga «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin», – deb belgilab qo'yildi. Shu tariqa, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston tarixida yangi davr – milliy istiqlol davri boshlandi. O'zbekiston uchun mustaqil ichki va tashqi siyosat yuritish, xalqimiz uchun o'z taqdirini o'z belgilash, o'zlari uchun munosib turmush yaratish imkoniyati vujudga keldi.

Shu tariqa 90-yillar boshidagi muhim siyosiy o'zgarishlardan biri, shubhasiz O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi bo'ldi. Vatanimiz tarixiga zarhal harflar bilan yozilgan o'sha unutilmas kunlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayni o'sha puytda yosh, mustaqil O'zbekiston davlati rahbari tomonidan mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab o'ta muhim hujjatlar qabul qilinganini ko'ramiz. Misol uchun, 31 avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston SSR Oliy Sovetining "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida"gi Qarori va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi Bayonoti hamda "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston erishgan istiqlolni mustahkamlash uchun, avvalo, xalqning fikrini bilish, mustaqillikka munosabatini aniqlash zarur edi. Shu maqsadda **1991-yilning 18 noyabrida** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VSh sessiyasi «O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazish to'g'risida» qaror qabul qildi. Qarorda quyidagilar belgilandi:

1. 1991-yil 29 dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini o'tkazilsin.



2. Referendumda ovoz berish byulleteniga masala quyidagi ta'rifda kiritilsin: «O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?»

1991- yil 18 noyabridagi VSh sessiyasida umumxalq referendumini o'tkazish qarori bilan birga «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonuni, shuningdek, «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlash to'g'risida» qaror qabul qilindi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi 1991- yil 29 dekabr, yakshanba kuniga belgilandi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, 13 ta okrug va qariyb 7 mingta uchastka saylov komissiyalari tuzildi. Oliy lavozimga ikki nomzod – O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi nomzodi Islom Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo'yildi.

**1991- yil 29 dekabrda** bo'lib o'tgan **umumxalq referendumini** yakunlariga ko'ra O'zbekiston mustaqilligi xalq tomonidan ma'qullandi. Ushbu siyosiy tadbirda shuningdek, Respublika Prezidentligiga saylovlar yakuniga ko'ra ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 12,3 foizi Saloy Madaminov nomzodini yoqlab ovoz berdi. 1991 yil 30 dekabrda Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risidagi qonunning 35-moddasiga asosan Islom Abdug'anievich Karimovni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblashga qaror qildi. Shunday qilib, mamlakatimizda birinchi marta yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan to'g'ridan – to'g'ri umumiy va alternativ asosdagi saylovda I.A. Karimov 5 yil muddatga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti eib saylandi.

Davlat ramzlarining qabul qilinishi. Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991- yil 18 noyabr VIII sessiyasida 13 moddadan iborat bo'lgan «O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saftanalar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davori ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalaridagi o'zligini ham aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i yurtimizning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagining yorqin ramzi bo'lib qoldi.

**1992- yil 2 iyulda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 8 moddadan iborat bo'lgan «O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma'noga ega. Gerb rangli tasvirda bo'lib, Xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshloqlar, paxta chanog'i va «O'zbekiston» degan yozuvlar filla rangda, g'o'za shoxlari, barglari va vediyalar yashil rangda, tog'lar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i tasvirlangan lenta to'rt xil rangda berilgan. **1992- yil 10 dekabrda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 12 moddadan iborat

«O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Har bir mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri – milliy valyutasidir. O'zbekiston davlat mustaqilligini ko'lga kiritib o'zining milliy valyutani muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston 1991 – 1993 yillarda sobiq ittifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Ammo sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi.

O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992- yildayoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan so'm – kupon nusxalari tayyorlanadi. Nihoyat, 1993- yil 1 noyabrda O'zbekistonda so'm – kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba o'rtirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994- yil 16 iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq 1994- yil 1 iyulidan boshlab respublika hududda yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valyutasi – So'm muomalaga chiqarilgan.

O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasi **1992- yil 8 dekabrda** “O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish haqida”gi masalani ko'rib chiqdi. Sessiya ishtirokchilari yakdillik bilan yangi Konstitutsiyani qabul qildilar. Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128 modadan iborat qilib ishlab chiqildi. Konstitutsiyaning eng muhim mohiyati shundan iborat ediki, unda “davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat xamda fuqarolar oldida mas'uldirlar” - deyilgan, ya'ni fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan.

Agar Konstitutsiya tarixiga e'tibor qaratsa, SSSR tarixida uch marta Ittifoq Konstitutsiyasi, O'zbekistonda ham uch marta respublika Konstitutsiyasi qabul qilingan va ularning qoidalari haqiqiy ahvolni yashirishga qaralilib, eng adolatli jamiyat haqida puch va soxta tasavvurlar hosil qilar edi, holos. Bundan tashqari, mustabid tuzum davridagi Konstitutsiyalarda dastlab proletariat diktaturasi (zo'ravonligi) bilan, keyinchalik esa umumxalq davlati niqobida ostida bolsheviklar partiyasining yakka hukmronligi ochiqdan-ochiq mustahkamlangan edi.

O'tgan asming 80-yillari oxirida sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalarda o'z mustaqilligi uchun kurashga intilish kuchaydi. Oxir-oqibatda har bir ittifoqdosh respublikaning xalqi o'z davlat mustaqilligiga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

1989 yildan boshlab, xalqimiz endi eskicha yashab bo'lmashligini, birdan-bir to'g'ri yo'l mustaqillik ekanini tushunib yetdi va muhim siyosiy-ijtimoiy

vositalardan foydalanib, mustaqillikka erishish yo'lidagi amaliy harakatlarni boshladi. Bular qatoriga utiftoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib bizning yurtimizda prezidentlik institutining joriy qilingani; o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani; Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilingani; yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun komissiya tuzilgani kabi bir qancha muhim voqeaalarni kiritish mumkin.

Bo'lajak Konstitutsiya o'zbek xalqini, O'zbekistonning kelajagini belgilovchi hujjat bo'lishi, shu bilan birga, mustaqillikni ta'minlashi, uni saqlab, mustahkamlashi kerak edi. Mustaqillik deklaratsiyasida O'zbekistonning davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan an'analari, har bir millat o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega ekani ko'rsatib o'tilgan edi.

O'zbekiston xalqi birinchi marta Konstitutsiya kabi muhim hujjatni o'zi tayyorlash sharafiga muvassar bo'ldi. Shu bilan birga, bu katta mas'uliyat ham edi. Chunki bunday tajriba ilgari bo'lmagan, xalqimiz orasidan hech kim Konstitutsiya ishlab chiqishda ishtirok etmagan edi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqadigan komissiya tarkibiga eng yirik olimlar, mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, jamoatchilik vakillari, amaliyotchilar kiritildi.

Konstitutsiyamizning har tomonlama puxta ishlab chiqilishiga bir necha omillar ta'sir qildi, deb hozir bemalol ayta olamiz. Birinchidan, komissiya oldiga vazifalarning Prezident tomonidan to'g'ri va aniq qo'yilgani; ikkinchidan, komissiya va ishchi guruh a'zolari o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashgani; uchinchidan, Konstitutsiya matnini tayyorlashda dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi, o'zimizning qonunchilik borasidagi milliy an'analarimiz chuqur o'rganilgani, to'rtinchidan, loyihaning umumxalq muhokamasi to'g'ri tashkil etilgani va tushgan taklif-mulohazalarga jiddiy e'tibor bilan qarab, ulardan loyihani yanada takomillashtirishda unumli foydalanilgani ana shunday omillardandir. Shu tariqa mustaqil O'zbekistonning o'z Konstitutsiyasi yaratildi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning mustaqillikka erishishi O'zbekiston xalqi hayotida yangi tarixiy davrni boshlab berdi. Bu davrning ma'no va mohiyati O'zbekistonda milliy va g'oyaviy negizlarga tayanuvchi, demokratik jamiyat qurishning o'ziga xos yo'li bilan bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga ko'ra «**O'zbekiston - suveren demokratik respublika, davlatning «O'zbekiston Respublikasi» va «O'zbekiston» degan nomlari bir ma'noni anglatadi**» deb yozib qo'yilgan. Shu asosda suveren, demokratik respublikaning o'ziga xos taraqqiyoti, uning rivojlanish istiqbollari, biz qurayotgan demokratik jamiyatning boshqa jamiyatlardan tubdan farqlari, o'ziga xosligi va betakrorligi olimlar va mutaxassislarining asalarida ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Har bir mustaqil davlatning asosiy belgilaridan biri – milliy valyutasidir. O'zbekiston davlat mustaqilligini ko'lga kiritib o'zining milliy valyutani muomalaga kiritishga kirishdi. Biroq bu jarayon uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu boisdan O'zbekiston 1991 – 1993 yillarda sobiq ittifoqdan meros qolgan

rubl zonasida bo'lib tirdi. Ammo sovetlardan keyingi ma'xonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi.

O'zbekiston muomalaga yangi **milliy valyuta** kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1992- yildayoq muomalaga chiqarishga mo'ljallangan so'm – kupon nusxalari tayyor anadi. Nihoyat, 1993- yil 1 noyabrda O'zbekistonda so'm – kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994- yil 16 iyunda e'lon qilingan «O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq **1994- yil 1 iyulidan boshlab** respublika hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida **milliy valyutasi – so'm** muomalaga chiqarildi. Muomalaga 1994- yilda 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100 so'mlik, 1997- yil 1 martdan 200 so'mlik, 2000- yil 1 iyuldan 500 so'mlik, 2001- yil 1 sentyabrdan 1000 so'mlik banknotlar chiqarilgan. Keyinchalik, 1, 5, 10, 25, 50, 100 so'm qiymatidagi tangalar muomalaga kiritilgan.

Jamiyatni g'oyaviy ma'naviy isloh qilish, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan, chinakam demokratik jamiyat qurishdek vazifani hal etish bilan bog'liq masala bugungi kun talabidir. Bunda mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy taraqqiyot strategiyasi muhim rol o'ynaydi. Mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishida amalga oshirilayotgan keng ko'lanli islohotlarni, mavjud muammolar va ularning yechimlarini o'rganish uchun uni alohida olingan fan sifatida o'rganilishi dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Bunda O'zbekistonning chinakam mustaqillikka erishishdan iborat o'z yo'li mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga asoslangan quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlari (ya'ni jamiyatimizda ijtimoiy iqtisodiy va g'oyaviy muhit)ni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi:

**Birinchi**dan, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi respublikaning o'ziga xos iqlimi, tabiiy shart sharoitlari, geografik joylashuvi, xalqning tarixiy turmush tarzi va tafakkur darajasidan, an'analari hamd urf-odatlaridan kelib chiqilishidir.

Jumladan, ildizi o'tinishdagi an'anaviy urf-odat va milliy mentalitetga xos xususiyatlarga borib taqaladigan turmush tarzi tarixan o'zbek xalqiga xosdir. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayriahohlik, o'zgarlar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tug'usi jamiyatimizda azaldan kishilar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos an'anaviy tizimi bo'lib kelgan.

**Ikkinchi**dan, Respublikadagi o'ziga xos ijtimoiy-demografik vaziyat – g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Respublikamizda aholi va mehnat resurslari yuksak sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

O'zbekiston O'rta Osiyo mintaqasidagi aholisi eng ko'p respublika hisoblanadi (mintaqa aholisining 60% dan ortig'ini tashkil etadi). Aholi soni bo'yicha MDH davlatlari orasida (Rossiya va Ukrainadan keyin) uchinchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston yoshlar mamlakati. Bolalar, o'smirlar va yoshlarning umumiy salmog'i taxminan 70%, ya'ni respublika aholisining 2/3 qismidan ko'prog'i yoshlardir.

Aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarida yashaydi va asosan dehqonchilik hamda chorvachilik bilan shug'ullanadi. Aholi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi. Doimo o'z ajdodlari qadimdan yashab kelgan joyga bog'langanlik, bir joyda muqim yashashga moyillik Respublika aholisiga xos xususiyatdir.

**Uchinchidan**, Respublikaning yana bir xususiyati aholi tarkibining monoetnik jihatga ega ekanligidir. Aholi tarkibida tub joy aholi ustun mavqeyini egallaydi. O'zbekistonning milliy-madaniy jihatdan rang-barangligi xalqning milliy o'zligini anglashi va ularda yangicha g'oyaviy tafakkurning shakllanishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat, 16 diniy konfessiya vakillari yagona oila farzandlaridek yashab, mehnat qilib kelmoqdalar. Shu boisdan ular ham mamlakatimizning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga ega. Ular uchun O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari, manfaatlari to'liq ta'minlangan. Zero, jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad – ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik masalaridan iborat.

Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi uning farqlanuvchi xususiyatidir. Mamlakatimiz aholisi etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeyini egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining salkam 80 % ni o'zbeklar tashkil etadi. Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdir. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida milliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat barqaror va to'kin-sochin hayotimizning poydevori bo'ldi. Konstitutsiyamizda va barcha qonunlarimizda mazkur siyosat o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlashda Respublika baynalminal madaniyat markazi keng ko'lanli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Respublika baynalminal madaniyat markazi mamlakatimizning barcha hududlarida o'tkazilayotgan yorqin tadbirlari asosida madaniy va ijtimoiy hayotimizni yanada teran ma'no va mazmun bilan boyitmoqda. O'zbekistonda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va bag'rikenglik munosabatlarini mustahkamlamoqda.

**To'rtinchidan**, kishilarning muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi, ongi, ruhiyati ham O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omildir. Bu aholining ijtimoiy tenglik kafolatlangan

barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, yalpi bepul ta'lim olish va tabiiy hamda boshqa ijtimoiy xizmat turlaridan foydalanish kabi yana bir qancha xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Ammo uzoq yillik yakka hokimlikdan iborat ma'muriy-buyruqbozlik tizimi keltirib chiqargan insonning mulkka egaligidan va xo'jayinlik tuyg'usidan begonalashtirilganligi, tayyorga ayyorlik ruhiyati bilan yashash xalq dunyoqarashida salbiy iz qoldirdi. Endilikda ulardan voz kechish va yangicha g'oyaviy dunyoqarash asosida yashashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

Shu boisdan odamlar ongida bozor munosabatlariga xos, yangicha dunyoqarashlarni shakllantirish, mustaqillikni mustahkamlash, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash biz uchun xamisha birinchi darajali ustuvor vazifa bo'lib qolaveradi. Faqat mana shu asosdagina odamlar ongida eskicha dunyoqarashni yo'qotish favqulotda kechiktirib bo'lmas vazifadir. Hyech mubolag'asiz bunday qarash va g'oya shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir insonning qon-qoniga, vujudiga singib ketishi zarur. Bunda mamlakatni demokratlashtirish, ijtimoiy iqtisodiy hamda siyosiy islohotlarni jadallashtirish nuqtai nazaridan mamlakatni strategik rivojlanishini ta'minlaydi.

## **2. Siyosiy islohotlar, O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat asoslarining shakllantirilishi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining o'ziga xosligi.**

Jamiyatdagi muhim ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishda qonun chiqaruvchi hokimiyatning o'rnini katta. Ushbu tamoyilga ko'ra davlat hokimiyatining bo'linish tamoyilida parlament taraqqiyoti muhim o'rin tutadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lining shakllanishi O'zbekistonda qonunchilik tizimini shakllantirishda yangi bosqichni boshlab berdi. Hokimiyatning bo'linish tamoyili Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq qonun chiqaruvchi, ijro hokimiyati va sud hokimiyatidan tashkil topgan. O'zbekistonda qonun chiqaruvchi hokimiyatni Parlament ya'ni, **Oliy majlis** amalga oshiradi.

O'zbekistonda esa Oliy Majlis (1925-1989 yillarda Oliy Sovet, 1990-1994 yillarda Oliy Kengash deb yuritilgan ) deb yuritiladi. Oliy Majlis O'zbekiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. 1992- yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida joriy etilgan va unga birinchi saylov 1994- yil 25 dekabrda bo'lib o'tgan. Ungacha bu vakolatni Oliy Kengash amalga oshirgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan-**Qonunchilik palatasi** va **Senat**dan iborat. Ularning vakolat muddati 5 yil. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan 150 deputatdan iborat. Oliy Majlis Senati a'zolari 100 nafar bo'lib, ular Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlisida deputatlar orasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda, 6 kishidan saylanadi. Senatning qolgan 16

nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida katta analiy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining mutlaq vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddati 5 yil. Ushbu palatani tuzish g'oyasi Birinchi Prezident I.A Karimov tomonidan 2000- yil 25 may 2-sessiyasida ko'tarilgan edi. Shundan so'ng ikki palatali parlamentni tuzish to'g'risida referendum 2002- yil 27 yanvarda o'tkazildi. Demak, ana shu Qonunchilik palatasi mamlakat aholisi vakilligini ta'min etadi, ularning manfaatlari inobatga oladi.

Oliy majlisga nomzodlarni ko'rsatish tamoyili quyidagicha. Bevosita saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan hamda kamida 5 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati etib saylanishi mumkin. Qonunchilik palatasi deputatlari o'z vakolatlari davrida ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Unda qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, palata muhokamasiga kiritiladigan masalalarni ko'rib chiqish uchun qumitalar va komissiyalar tuziladi. Yuqori palata Senatga ham 25 yoshga yetgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga ega.

**Ijro etuvchi hokimiyat. Vazirlar mahkamasi** – O'zbekistonda davlat ijroiya hokimiyatini takomillashtirishda 1992- yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim omil bo'ldi. Konstitutsiyasining XX. – bobida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining konstitutsiyaviy – huquqiy maqomi, uning tashkil etilishi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vakolatlari belgilab qo'yildi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining 1993- yil 6 mayda qabul kilingan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi (yangi tahriri 2003- yil 29 avgust) Qonuni asosida olib boradi.

Mazkur qonunning I – moddasiga ko'ra, «Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasining Hukumati – iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy sohalarning samarali faoliyat ko'rsatishiga, konunlar ijro etilishiga, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari bajarilishiga rahbarlikni ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi».

Vazirlar Mahkamasini faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005- yil 14 fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Reglamentida yanada rivojlantirilgan va mazmunan boyitilgan. Unga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining ishi choraklik rejalarga muvofiq olib boriladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida 1 marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi Vazirlar Mahkamasining Rayosati faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Vazirlar Mahkamasining tarkibi tobora takomillashib, qisqartirib boriladi. 2003- yil 24 – 25 aprel kunlari bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89 – moddasining «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi» deyilgan 2- qismi olib tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari nomzodlarini avval Qonunchilik palatasida, so'ngra Senatda ko'rib chiqiladi hamda tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining boshqa a'zolari esa Bosh vazirning taqdimiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Bu holat mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida quyidagi asosiy konstitutsiyaviy tamoyillarga asoslanadi:

- ✓ kollegiallik;
- ✓ demokratiya;
- ✓ qonuniylik;
- ✓ O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlarini

hisobga olish.

Hozirda Vazirlar Mahkamasining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlari, davlat qo'mitalarining raislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi kiradi.

**Sud hokimiyati** – uchunchi hokimiyat tarmog'i bo'lib, u qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Sud tuzumi 5 yil muddatga saylanadi. Sud faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amaiga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1993- yil 2 sentyabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida"gi qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi.

Sud-huquq tizimini yangi asosda barpo etishning dastlabki yillaridan inson huquqlarini himoya qilishning kafolati sifatida advokatura instituti va advokatlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Shunday qilib, mustaqillikka erishish arafasida va mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilashga va sud-huquq tizimini isloh qilishga kirishildi. Sudlarni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud,



Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Toshkent shahar, tuman, shahar sudlariga bo'linadi.

Aslida amaldagi qonunlarga muvofiq mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senati raisining zimmasiga yuklatiladi, bunda uchl oy ichida, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonunga to'liq muvofiq holda mamlakat Prezidenti saylovi o'tkaziladi."

2007- yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan mamlakat prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanini belgilaydigan normaning chiqarilishi ushbu davrdagi muhim siyosiy-huquqiy voqea'lardan biri bo'ldi. Bugungi kunda Konstitutsiyamizning 89-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hankorligini ta'minlaydi" degan qoida belgilab qo'yilgan.

**Ombudsman.** Mamlakatimizda mustaqillik tufayli boshlangan keng qamrovli demokratik islohotlar insonlarning huquq va erkinliklarini izchil va uzluksiz takomillashtirishda yangi davmi boshlab berdi. Inson erkinliklari va manfaatlarini ifodalashga qaratilgan chora-tadbirlar tufayli bir qator yutuqlarga erishilib, inson huquqlariga oid qonun hujjatlari tizimi izchil takomillashtirildi.

1992- yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Inson huquqlarini ta'minlashning tom ma'nodagi huquqiy asosini yaratdi. Asosiy qonunning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlanib, 18-moddasida Respublikamizdagi barcha fuqarolar huquqlarining tengligi kafolatlandi.

Mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi esa huquqiy - demokratik davlat qurishda yangi bosqichni boshlab berdi. Avvalombor ushbu tuzilmaning shakllanishi va taraqqiyoti xususida so'z yuritishdan oldin, uning mazmun hamda mohiyatiga to'xtalish muhim. Umuman «Ombudsman» so'zi shvedcha "vakil", "agent", "delegat", "advokat" tushunchalariga hamohang, biror kishining vasiysi, biror kishining nomidan ish ko'ruvchi ma'nolarini anglatadi.

Uning mohiyati quyidagicha: "Ombudsman inson huquqlariga amal qilinishini nazorat qiladi. Agar prokuratura organlari inson huquqlariga amal qilinishini faqat qonun asosida nazorat qilsa, Ombudsmanlar maqsadga muvofiqlik, vijdonlilik, adolat nuqtai nazaridan nazorat qiladi".

Oliy Majlisda Inson huquqlari bo'yicha vakillik (Ombudsman) institutini tashkil etish zarurati ilk bor 1995- yil 23 fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ilgari surildi. Shu tariqa mamlakatimiz mustaqillik yillari tarixida ilk bor 1995- yilning 23 fevralida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili tashkil etildi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil zimmasiga yuklangan vazifalarni samarali bajarishga ko'maklashish maqsadida 1995- yil 6 mayda Oliy Majlis tomonidan "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili huzurida Fuqarolarning konstutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi komissiyasini tuzish

to'g'risida"gi 88-1-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra Inson huquqlari bo'yicha vakil huzurida jamoatchilik asosida faoliyat olib boruvchi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha 10 kishidan iborat komissiya tasdiqlandi.

Ombdsman instituti faoliyatining yanada takomillashuvida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999- yil 14-aprelda Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma'ruzasidagi quyidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etdi: "Insoniy mezonlar, hukumatga qarashli bo'lmagan huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish lozim. Respublika mintaqalarida Inson huquqlari bo'yicha vakil samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, Ombudsman institutining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur".

1999- yilning 12 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Kengashining 798-1-sonli "Insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi bo'yicha komissiyasi tarkibiga o'zgartirish kiritish to'g'risida" gi qarori bilan komissiya tarkibiga yana 10 nafar komissiya qo'shilib, Ombudsmaning mintaqalardagi vakillik instituti vujudga kelishi uchun ilk «tamal tosh»i qo'yildi.

Parlament Vakil va Komissiyaning asosiy faoliyati esa Oliy Majlis Kengashi tomonidan 1995- yil 29 avgustda qabul qilingan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili to'g'risidagi nizom bilan tartibga solindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997- yil 24 aprelda bo'lib o'tgan sakkizinchi sessiyasida esa "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 20 moddadan iborat bo'lib, qonun inson huquqlari bo'yicha vakilning huquqiy holatini tartibga soldi va uning asosiy faoliyat sohasi hamda tamoyillarini, lavozimga saylanish, lavozimdan ozod etilish tartibini, fuqarolar shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish bo'yicha vakolatlarini, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi huquq va majburiyatlarini, uning daxlsizligi va moliyaviy ta'minotlari masalasini belgiladi.

Ayniqsa 2001-2010 yillarni o'z ichiga olgan davr Ombudsman instituti faoliyati uchun muhim qadam bo'ldi. Mazkur bosqichda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili institutining oyoqqa turishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Vakil vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish mexanizmlari yanada takomillashtirildi.

Masalan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilib, 2008- yil 25 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, u 2009- yilning 27

martida Senat tomonidan ma'qullandi va 2009- yilning 10 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolandi.

2016- yilda ombudsman tomonidan 3 ta tilda faoliyat oltib boruvchi yangilanga veb sayt, Virtual qabulxona va "1096" raqamli to'g'ridan-to'g'ri aloqa telefoni ishga tushirildi. 2017- yil esa ombudsman hayotida yangi davmi boshlab berdi. Ya'ni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da uning obro'-e'tibori yanada oshganligini ko'rish mumkin. Shu boisdan shu yil 9 avgustda Oliy Majlis tomonidan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonuni e'lon qilindi. Unga ko'ra fuqarolarning murojaatlari ariza va takliflari alohida qonun bilan belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi bilan birga, nafaqat vakilning, balki uning mintaqaviy vakillarining vakolatlari ham belgilandi

Shu tariqa mamlakatimizda Ombudsman institutining shakllanishi va faoliyati mamlakatimizda qonun va inson huquqlari ustivorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa fuqarolarning tengligi, erkinligi kabi tamoyillarning amalda to'liq ta'minlanishi uchun hamda fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlarida har tomonlama boshqa institutlarga nisbatan jamiyat a'zolariga yaqinligi fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga bo'lgan zaruratni oshirishga imkoniyat yaratdi.

#### **O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xosligi.**

O'zbekiston bosib o'tgan ushbu tarixiy davrda ijtimoiy-siyosiy hayotimizda yuz bergan keng qamrovli o'zgarishlarni mushohada qilar ekanmiz, mamlakatda yangi demokratik qadriyatlar ildiz otayotganini, inson haq-huquqlari va erkinliklarining asosi bo'lgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda birmuncha tajribalarga erishganligimizni anglaymiz.

Aslida **demokratiya** (grek. "xalq hokimiyati" ma'nosini anglatadi) – qonun ustuvorligi, xalq hokimiyatchiligi, siyosiy plyuralizm, fuqarolar huquq va erkinligi hamda tengligi, demokratik saylov tizimining mavjudligi, inson huquqlarining himoya qilinishi, so'z, matbuot va din erkinligi, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtiroki, mulk erkinligi va egaligi, millatlararo totuvlik, kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplariga tayanadigan jamiyat va davlatning tashkil etish shaklidir. Demokratiya xalqning davlat organlarini tuzish, ularning ishida ishtirok etishi, davlat organlari ishini tashkil etish, mamlakatda inson huquqlarini ta'minlanishi orqali namoyon bo'ladi. U davlat bilan inson o'ratsidagi munosabatlarni qonuniy ravishda tartibga soluvchi jamiyatni tashkil etishning o'ziga xos shaklidir.

Ammo demokratiya bu, barcha jarayonlarda xohlagancha erkinlik degani emas. Balki barchaning qonunga asoslangan teng faoliyatidir. *Demokratik davlatda davlat organlarini tashkil qilishda, ularning faoliyatida, mamlakat fuqarolari to'liq ishtirok etadilar. Fuqarolarning davlat organlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qonun yo'li bilan kafolatlanadi va ularning ishtirokiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Demokratik davlatda inson manfaatlari, qadr-qimmatlari,*

*viydoni, or nomusi, hayoti, sog'lig'i har narsadan ustun turmog'i lozim. Davlat fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash choralarini doimiy ravishda nazorat qiladi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. fuqarolarning viydon erkinligi, ko'ppartiyaviylik, ommaviy axborot vositalarining erkin bo'lishi, fikrlar xilma-xilligi kabilar ustuvor tamoyillar hisoblanadi.* Demokratik jamiyatda har bir kishining davlat va jamoat ishlarini idora qilishda qatnashish: konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlarida aniq belgilab qo'yiladi.

Dunyo tajribasida demokratik jamiyat qurish bobida barcha davlatlar uchun tayyor qolip va andozalar yo'q. Demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor, ya'ni insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, davlat hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar. O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, xalqimizning necha ming yillik tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilini, milliy davlatchiligimiz negizlarini, buyuk madaniyatimiz tomirlarini, ma'naviy merosimiz ildizlarini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda.

Demokratik jarayonning individualizm falsafasiga tayanuvchi, inqilobiy o'zgarishlarga moyil g'arb namunasi O'zbekistonga unchalik to'g'ri kelavermaydi. Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar O'zbekiston uchun asos qilib olindi. O'zbekistonda shoshma-shosharlikka yo'l qo'yilmasdan, odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va sur'atlari bir-biriga qanchalik mutanosib ekanligi hisobga olinmoqda.

Zero, jamiyatni yangilash jarayoniga odamlarni jalb qilish mamlakatni demokratiyalash orqali amalga oshiriladi. Demokratik jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim sharti esa jamiyatda o'zaro ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash, inson omili va uning mavqeyini oshirishdir. Har xomonlama siyosiy yetuk, barkamol insonlarni tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish va shu kabilarda aks etadi.

Har qanday demokratik jamiyatda davlat hokimiyatining mavjudligi va uning bo'linish prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatning oliy va vakolatli organlari **saylov yo'li bilan shakllantirilib**, unda saylov yoshiga yetgan fuqarolar teng asosida qatnashadilar. Xalq irodasini ifoda etishning shakli bo'lgan referendum ham (davlat ahamiyatiga molik muhim masalani hal qilishni umumxalq ovozigacha qo'yish) demokratiyaning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Uning yordamida xalq rasman ijtimoiy siyosiy jarayonlarda ishtirok etadilar, davlat hokimiyatini shakllantirishda qatnashadilar.

**Referendum** (lot. "referendum" e'lon qilinishi lozim bo'lgan xabar)-jamiyatni demokratik boshqarish jarayonida qo'llaniladigan tadbirlardan biri.

ba'zi muhim masalalarni umumxalq ovozigiga, umumxalq so'roviga, xalq muhokamasiga qo'yib hal etish. Uning mazmun mohiyatiga kengroq to'xtalsak, O'zbekiston Respublikasida referendum o'tkazishning huquqiy asoslari allaqachon yaratilgan.

U 1991- yil 18 noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi qonuni bilan mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasida referendum 1991- yil 29 dekabrda "Davlat mustaqilligini ma'qullaysizmi?", ikkinchi marotaba esa 1995- yil 26 martda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatini 1997 yildan to 2000 yilga qadar uzaytirishga rozimisiz?" va 2002- yil 27 yanvarda "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Parlamenti ikki palatasi qilib saylanishiga rozimisiz?", hamda "Siz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddati 5 yildan 7 yil qilib o'zgartirilishiga rozimisiz?" kabi mavzularda o'tkazilgan.

Demokratiyaning zarur shartlaridan biri – bu **konstitutsiya va qonularning ustuvorligidir**. Bunda fuqarolarning huquq va erkinliklarining ta'minlanishi muhimdir. Huquqiy tenglikka asoslangan, ya'ni fuqarolarning qonun oldida tengligini, shuningdek, jamiyat a'zolarining davlat boshqaruvida va jamoat ishlarida qatnashuvi demokratik davlatning muhim jihatidir. Shu bilan birga, demokratik jamiyat qonun doirasidagi turli uyushmalar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlarning erkin faoliyat ko'rsatishini ham nazarda tutadi.

Hokimiyatlarning bo'linish prinsipi va ularning birgalikda uyg'unlashganligi demokratik tizimga xos. Ular quyidagicha namoyon bo'ladi: o'z-o'zini boshqarish bo'g'inlarida odamlar yuzaga kelgan muammolarni o'zlari mustaqil hal qilishda qatnashadilar, shuningdek, umumiy ishlarni boshqarish, jamiyat manfaati yo'lida harakat qilish uchun davlat fuqarolarga ma'lum shart sharoitlarni yaratib beradi.

Siyosiy faoliyat zaminida ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida hokimiyat va fuqarolar o'rtasida ma'lum munosabatlar yuzaga keladi. Mustaqil siyosiy partiya yoki ijtimoiy guruhlar tashkil etiladi, ko'ppartiyaviylik qaror topadi. Bu yerda o'z hohishini erkin ifoda etishni ta'minlaydigan oddiy o'z-o'zini boshqarish jarayoni shakllanadi. Shunday qilib, mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi yoki boshqa guruhlar bilan hamkorlikda davlat va jamiyat ahamiyatiga daxldor qonun doirasidagi masalalarni hal etishga yo'naltirilgan siyosiy harakatlar shakllanadi. Bu bilan jamiyatda o'zaro ishonch, hamjihatlik yuzaga keladi.

Shunday qilib, demokratiya ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning insonparvarlik yo'nalishida rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratadi. Aynan shunda uning umuminsoniy qimmatini oshadi. Bir so'z bilan aytganda sivilizatsiyaning ulkan tajribasi bo'lgan demokratik tuzumda xalqning hohish irodasi to'la ifodalanadi.

Demokratiya va uning shakllari haqida fikr yuritganda uning g'arb va sharqqa xos jihatlari ("g'arbone va "sharqona" demokratiya) ni qayd etish zarur. Demokratik jarayonlar G'arbda ko'proq qonun ustuvorligiga asoslansa, sharqda bu jarayon asrlar davomida shakllangan an'analar, milliy mentalitet uyg'unligi

asosida kechadi. G'arb namunasi ko'p hollarda individualizm (o'zlik) ga tayandi. U onumaning haddan tashqari siyosiy lashtirilishiga olib kelsa, sharqda demokratiya tushunchasi hamjihatlik g'oyasi, jamoatchilik fikrining ustuvorligi zaminida shakllanadi.

Zero, bizda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos xususiyatlari bor. Ya'ni sharqda demokratik jarayonlar asta-sekin taraqqiy topadi. Bunda jamiyatda inqilobiy o'zgarishlar qilish noxush, fojiali natijalarga olib keladi. Inqilobni g'arb olimlari «ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli» deb ataganliklari bejiz emas. Tabiiyki, bunday yo'l bizning barcha xususiyatlarimizga to'g'ri kelmaydi.

Demokratiya har bir mamlakatning tarixiy an'analari, milliy xususiyatlarini o'ziga singdirgandagina haqiqiy ijtimoiy kuchga aylanadi. O'zbeklarning o'z axloqiy qarashlari, andishi, jamoaga moyilligi, insoniy munosabatlar borasidagi samimiyati, halolligi, oqko'ngilliligi, yoshlar va keksalarga bo'lgan hurmati O'zbekistonda amal qilayotgan demokratiyaning muhim jihati. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilishda ham demokratiyaning ana shu o'ziga xos jihatlari alohida e'tibor berilganligi bejiz emas.

Yuqorida qayd etilganidek, demokratiya "qonun ustuvorligi" ga asoslanadi. Qonun ustuvorligi ta'minlanmasa demokratik jamiyatga erishib bo'lmaydi. Qonun ustuvorligiga amal qilinmasa, yoki inson huquq va erkinliklarining buzilishi bilan bog'liq ayrim nosog'lom holatlarni "milliy hodisa" sifatida baholab bo'lmaydi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishning o'ziga xosligi shundaki, unda O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li qanday bo'lishi, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng muhim nazariy va amaliy xususiyatlar o'z aksini topganligidir. Bu taraqqiyotning Harakatlar strategiyasi deb ataldi. Bu xususiyat 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi**da va Prezidentimizning ma'ruzalarida o'zining mukammal ifodasini topgan. Unda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy konsepsiyasi, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning navbatdagi strategik vazifalari asoslab berilgan. Ana shu masalalarni amalga oshirish demokratik jamiyat qurishning pirovard maqsadidir.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, mulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquqlar davlat tomonidan kafolatlanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratishdir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida demokratik jamiyat qurishda faol ijtimoiy-siyosiy jarayonlar davom etmoqda. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bunga siyosiy modernizatsiya asosida izchillik, tizimlilik

hamda siyosiy demokratik o'zgarishlar chog'ida fuqarolarning siyosiy madaniyati, huquqiy bilimi, xalqning mentaliteti, urf-odatlari va an'alarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, har bir davlat o'tish davrida jamiyatda demokratik o'zgarishlarni o'z ichki imkoniyatlari, shart sharoitlaridan kelib chiqib shakllantirganligi jahon tajribasida sinab ko'rilgan. Ammo demokratik jarayonlarni tashqaridan turib tiqishtirish va sun'iy ravishda tezlashtirishga, demokratiyaning universal modellarini joriy qilishga urinishlar ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga, xavfsizlikka rahna solishi mumkin. Bular ham demokratik jamiyat barpo etishimizda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan muhim jihatlardir.

Umumai, O'zbekistonda amalga oshirilgan demokratik islohotlar natijasida quyidagilar amalga oshirildi. Birinchidan – xalq bevosita, o'z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi;

Ikkinchidan – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlari asosida davlatning milliy boshqaruv tizimi yaratildi;

Uchinchidan – Respublika hokimiyati bilan mahalliy hokimiyatning vakolatlari va vazifalari aniq belgilab berildi.

To'rtinchidan – barcha fuqarolarning qonun oldida huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etishga erishildi;

Beshinchidan – barcha millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlari va an'analari saqlanishi hamda rivojlanishini ta'minlash, davlat tuzilmalarining faoliyatida faol qatnashishga erishildi;

Oltinchidan – mafkura yakkahokimligidan qat'iyon voz kechilib, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi (plyuralizm) ta'minlandi;

yettinchidan – chinakam demokratiyaning zarur va qonuniy tarkibi sifatida ko'ppartiyaviylik qaror toptirildi.

**Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.** O'zbekistonda keyingi yillarda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari jadal shakllandi va rivojlandi. Ular mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuning uchun ham fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ahamiyati borgan sari oshib bormoqda. Chunki ular demokratik qadriyatlar, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanib bormoqda, fuqarolarning o'z iqtidorini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatimizda turli manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanib borgan sari ularning davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi faolligi yanada kuchaymoqda. Aytish mumkinki, jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi bois kishilar qalbi va ongida jamiyatimiz hayotida ro'y

berayotgan tub ijobiy o'zgarishlarga nisbatan kechayotgan xayrixohlik va birdamlik kayfiyati faollashmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muholifat shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunning 12-moddasida O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsip o'z ifodasini topgan.

Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarini tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki ulardan chiqish huquqini qamrab oladi.

Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, mamlakatimizning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi, faoliyati hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.

Hozirgi vaqtda "O'zbekiston Respublikasida **jamoatchilik nazorati** to'g'risida"gi qonunni qabul qilingan. Bu qonunning maqsadi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan fuqarolik jamiyati institutlarining nazoratini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish



bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalardan biri – inson huquq va erkinliklarining samarali ta'minlanishi masalasidir.

Shu munosabat bilan Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasturini ishlab chiqish fursati yetganini ta'kidlash navbatdagi taklif sifatida ma'nodonga chiqadi. Ushbu dastur, avvalo, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga alohida mas'uliyat bilan yondashish lozimligini uqitirish bilan birga bu vazifaning qanday tarzda nazoratga olinishini ham ko'rsatib beradi. Bunda tegishli organlarning inson huquqlari sohasida himoyani qanchalik yo'lga qo'ygani aniqlash maqsadida jamoatchilik monitoringining amalga oshirilishi ko'zda tutiladi. Dastur aynan ana shu sohadagi chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga jamiyat va davlat qurilishi, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlari huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirishni nazarda tutuvchi tegishli normalar kiritilishi fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosi bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu bilan bir qatorda nodavlat notijorat tashkilotlarining quyidagi masalalar yuzasidan ham faol ishtirokining asoslarini ko'zda tutuvchi qonun hujjatlari majmuini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda: sog'liqni saqlash masalalari; atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari; aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash masalalari; ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo'llab-quvvatlash masalalari; katta sotsial ahamiyatga molik boshqa masalalar.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining tabiatni muhofaza qilish borasidagi faoliyatini amalga oshirishda ekologik nazorat muhim o'rin tutadi. Ekologik nazoratni amalga oshirish jamoat tashkilotlari ekologik funksiyasining tarkibiy qismidir. Ekologik-huquqiy mexanizmining ushbu funksiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilish borasida jamoat tashkilotlari faoliyatini amalga oshirishning zaruriy elementi sifatida yuzaga kelgan.

Biz fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati ortib boraveradi. So'nggi yillarda "Jamoat fondlari to'g'risida"gi qonun va "Homiylik to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko'maklashish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa tegishli hujjatlar qabul qilindi va ular fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim omil rolini o'tamoqda.

Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qatori muhim ahamiyat kasb etdi.

Jamoat tashkilotlari faoliyatini huquqiy tartibga solish sohasidagi ijobiy jarayonlarning tamal toshi sifatida 1991- yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonunni ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur qonunda ilk marotaba jamoat birlashmasi (tashkiloti) institutiga huquqiy ta'rif berilishi bilan birga, uni tashkil etish maqsadi, faoliyati prinsiplari hamda huquq va majburiyatlar doirasi belgilab berildi. Qonunda belgilab qo'yilgan shakllardagi har qanday jamoat tashkilotini kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuzish tartibi mustahkamlab qo'yildi.

### **3. Respublikada mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari: mohiyati, faoliyati va vazifalari.**

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida ko'plab vazifalar belgilangan edi. Eng muhim vazifalaridan biri bozer munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan bo'lsa, ikkinchisi respublikada davlat hokimiyatining vakillik va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini yangi sharoitlarga mos keladigan tizimini yaratish edi. Hozirgi amalda bo'lgan mahalliy vakillik organlari yangi organlar bo'lmasdan, xalq deputatlari Sovetlari negizida tashkil qilingan. Ma'lumki, sobiq sovetlar davrida amalda bo'lgan mahalliy xalq deputatlari Sovetlari aniq bir hokimiyatga ega bo'lmay, ular huquqsizligining bosh sababi partiya organlari to'g'ridan – to'g'ri ularning ishiga aralashar va ularga saylanadigan deputatlar partiya organlari tomonidan tanlanar edi.

1992- yil 4 yanvarda «O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Bu qonun mamlakatimizda mahalliy hokimiyatning ikki mustaqil organi – vakillik va ijro organlari tizimiga boshchilik qiladigan hokimlik va hokimlar lavozimi joriy etildi. 1992- yil 14 yanvarda ushbu qonunga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Konstitutsiyaviy qonun maqomini berdi. 1992- yilda Toshkent shahrida va 12 ta viloyatda, 163 ta qishloq tumani va 18 ta shahar tumanida hamda 120 ta shaharda hokimlar tayinlandi va tasdiqlandi, ularning apparati — hokimiyatlar tuzildi.

1992- yildan O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimini shakllantirish sohasida qator normativ – huquqiy hujjatlar qabul qilish borasida amaliy ishlar boshlandi. Bu hujjatlar orasida 1992- yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi va «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunlar, 1994- yil 5 mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to'g'risida»gi Qonun va boshqalar muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari» deb nomlanib, unda mahalliy davlat hokimiyati organlarning tizimi, mavqeyi, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Konstitutsiyaga ko'ra avvalgi mahalliy vakillik organlarining

nomini Kengashlar deb o'zgartildi. Ularning samarali ishlashini ta'minlash uchun viloyat, tuman va shahar Xalq deputatlari Kengashlari vujudga keltirildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, amaldagi O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinguncha mahalliy vakillik organlarining uch bo'g'inli tizimi mavjud bo'lib, ular:

1) viloyatlar hamda Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari - yuqori bo'g'in hisoblanardi.

2) tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari — o'rtta bo'g'in;

3) qishloq, posyolka, ovul xalq deputatlari Kengashlari — quyi bo'g'in;

Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining ikki bo'g'inli tizimini mustahkamladi, ya'ni quyi bo'g'in olib tashlandi. Ular o'miga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tuziladigan bo'ldi. Bu qoida «Mahalliy davlat hokimiyati asoslari to'g'risida»gi Qonunda o'z ifodasini topdi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati hokimiyat organlari ikki mustaqil organlarga – vakillik va ijroiya hokimiyatiga bo'lindi.

«Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida»gi Qonunda vakillik organlariga 21 yoshga to'lgan fuqarolar saylanadi. Saylovlar ko'ppartiyaviylik, muqobillik asosida o'tadi. Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga 60 tadan ko'p bo'lmagan, tuman va shahar Kengashlariga esa 30 tadan ko'p bo'lmagan deputatlar 5 yil muddatga saylanadi.

Ijroiya hokimiyatiga – hokim va uning ijroiya apparati qiradi. Hokim tegishli hududda oliy mansabdor shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 101 -- moddasiga ko'ra hokimlarning vakolat muddati – besh yil. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 102 – moddasiga ko'ra, «Vakillik va ijroiya hokimiyatini tegishliligiga qarab viloyat, tuman va shahar hokimlari boshqaradi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimi **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan** qonunga mavofiq tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysunadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi».

Vakillik organlari tuzilmaydigan shahar tarkibidagi tumanlarda va tumanga bo'ysunuvchi shaharlarda ham hokimiyatlar ta'sis etildi, ularning apparati — hokimiyat tashkil etildi. Viloyat hokimlari va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Prezidentining shu joylardagi vakili hisoblanadi. Toshkent shahar tumanlari hokimlari esa Toshkent shahar hokimining vakillari hisoblanadi.

Mahalliy davlat hokimiyat organlarining faoliyati murakkab tuzilishga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonun va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bu organlar sud hokimiyati organlari, prokuratura, nazorati speksiyasi, ichki ishlar organlari, adliya singari huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari bu sohada o'z vakolatlarini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir xil munosabatda faoliyat ko'rsatishi bilan birga, ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekistonda azaldan o'zini-o'zi boshqarishning o'ziga xos shakli sifatida shakllangan hamda uning mahalliy shart sharoitlar bilan bog'liq o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bugungi kunda mahalla oqsog'li tomonidan boshqariladi va uning vazifalari jamoatchilik asosida olib boriladi. U o'zining yozilmagan ichki tartib qoidalariga ega bo'lib, ularga barcha birdek amal qiladi. Mazkur qonun qoidalar garchand majburiy xarakterga ega bo'lmasada, barcha ularga bo'ysunadilar.

Har bir sohani isloh qilish uchun uning avvalombor huquqiy asosi bo'lishi lozim. Qonunning qabul qilinishi uzoq yillar mobaynida faoliyati to'xtatilgan mahalla tizimining yana qayta tiklanishi uchun asos bo'ldi, o'zini o'zi boshqarish organlarining nufuzini ko'tardi hamda mas'uliyatini oshirdi. Qonunda mazkur tuzilma olib borilgan ishlar yuzasidan o'z hisobotlarini berib borishi belgilab qo'yildi. Bu borada ko'plab qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi jadal o'zgarishlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahalla, uning boshqaruv tizimi, ijtimoiy-huquqiy faoliyatini yangicha mezonlar asosida tahlil etishni, bugungi zamon talablariga javob beradigan o'zini o'zi boshqarish organining yangicha tuzilmasini shakllantirishni, uning ish yuritish tizimini samarali tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu borada mamlakatimiz Prezidentining 2017- yil 3 fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan **«Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni** bu yo'lda muhim qadam bo'ldi.

Uning oldingi qabul qilingan Qonun va me'yoriy hujjatlardan farqi quyidagilardir:

birinchidan, Farmonga muvofiq fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika Kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari tashkil etilishi belgilandi;

ikkinchidan, Respublika Kengashi va hududiy kengashlar huzurida yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari lavozimi;

uchinchidan, Respublika Kengashi va fuqarolar yig'inlari kengashlari huzurida keksalar va faxr ylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlari joriy etiladigan bo'ldi. Ayniqsa 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida

mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va faoliyati samaradorligini, joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirishga katta ahamiyat berilganligi bejiz emas.

O'zbekiston mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida yana o'zining azaliy nomi, «mahalla» atamasi bilan yuritiladigan bo'ldi. Ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan mahalla o'zining butun tarixi mobaynida o'z o'rnini saqlab qoldi. U o'zini-o'zi rivojlantirish borasida boy tajribaga egaligi va demokratik boshqarishning eng maqbul shakli ekanligi bois, mustabid tuzum yillarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. «O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli - mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib borib bormoqda. Ular amalda o'z vakolatlaridagi barcha ishlar uchun mas'uldirlar. Zero, mahallaning qo'lidan kelmaydigan ishning o'zi yo'q».

Jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan jadal o'zgarishlar natijasida barcha shahar, qishloq, va ovullarda yangidan o'zini o'zi boshqarish organlari, ya'ni mahallalar tashkil etilib, ularning soni ortib, nufuzi yanada oshib bormoqda. Xususan, 2009 yilgacha O'zbekistonda 9 mingdan ortiq mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari majud bo'lgan bo'lsa, ularning soni 2018 yilgacha 10 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Ularning har birida o'rtacha uch mingdan o'n ming nafargacha aholi istiqomat qiladi.

2001- yilda respublikada 6790 ta mahallalardagi "Yarashtirish komissiya" lari tarkibidagi 49932 nafar a'zolar yordamida 17939 ta oila-turmush doirasidagi mojarolar yechilgan. Agar ushbu ko'rsatkichlarni Toshkent shahri misolida olib qaraydigan bo'lsak, oila va mahalladagi umumiy holat 2013- yilda, 2012- yildagiga nisbatan ijobiy tomonga o'zgargan. Masalan, noqobil, notinch, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan oilalar soni 2013- yilda, 2012- yilga nisbatan 49 taga (857-808), xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 481 taga (2512-2031), jinoyat sodir etgan xotin qizlar soni 318 taga (2300-1982), jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 58 nafarga (564- 506), xorijiy davlatlardan deportatsiya qilingan ayollar soni 22 taga (27-5), suiqasd holatlari 18 taga (140-122), onalar o'limi 1 taga (9-8), bolalar o'limi 2 taga, (212-210), 15-16 yoshlilar tug'rug'i 7 taga (18-11), abortlar soni 48 taga (724-676) kamaygan.

2017- yilning ikkinchi yarmida Respublikamiz miqyosida 2304 nafar ajralish ostonasida turgan oilalar mahallalardagi "Yarashtirish komissiyasi", jamoatchilik va mahallalarning aralashuvi bilan saqlab qolingan. 2017- yil davomida "Yarashtirish komissiyalari" ning bevosita aralashuvi, oqilona tadbirlar samarasi tufayli 42 ming 837 ta oiladagi munosabatlar barqarorlashtirilib, ajrimlarning oldi olingan.

Shu yili ularga fuqarolardan 85 ming 708 ta murojaat kelib tushgan. Ulardan 57 ming 448 tasi er-xotin, 11 ming 142 tasi qarindoshlar, 11 ming 265 tasi esa qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar tufayli sodir bo'lgan. Yana bir qancha sabablarni bilan shunday salbiy holatlar sodir bo'lish ko'rsatkichlari

quyidagicha. Yoki 1039 holatda erkakning spirtli ichimlik iste'mol qilishi, 114 holatda giyohvandlik moddasiga ruju qo'yishi, 6338 holatda esa, oilaviy hayotga qaynona, qaynota va boshqa shaxslarning aralashuvi sabab bo'lgan.

Bundan tashqari, "Yarashtirish komissiyalari" tomonidan 9 ming 339 ta murojaat asosida qarindoshlar, 8 ming 883 ta holatda qo'ni-qo'shnilar murosaga keltirib, yarashtirilgan. 3477 nafar fuqaro ichki ishlar bo'limlari tomonidan profilaktik hisobga olingan bo'lsa, 13 ming 661 nafar fuqaro esa yig'inlar mutasaddilari nazoratida turipti.

Olib borilgan tashkiliy chora tadbirlar natijasida **2019- yil 1 fevral oyigacha** respublika mahallalarida 12 mingdan ziyod notinch oilalarning muammolari o'rganilgan. Sayi harakatalar natijasida ajralish arafasida turgan oilalarning 25 mingdan ziyodi yarashtirilgan, 4 mingga yaqin kishilar FXDYo va suddan arizalarini qaytarib oldi. Respublikadagi 986 ta mahallada bironta ajralish holati qayd qilinmagan. 2019- yilda ushbu yig'inlarning oilalar bilan ishlash bo'yicha tajribasini boshqa viloyatlarga ham joriy qilish maqsadga muvofiq. Umuman 2018- yilda respublika bo'yicha 35 485 ta qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilaning muammolari tahlil qilindi, 3 ming 500 ta oila nochorlikdan chiqarilgan.

Ammo hamon mahallalarda yoshlar tarbiyasi bilan ishlash masalasida kamchiliklar talaygina. Xususan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, yosh kelin-kuyovlar o'rtasidagi salbiy munosabatlar va ajrimlarni oldini olish, oila va mahalla hamkorligini ta'minlash, oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridagi "Yarashtirish komissiyalari" ning o'ziga xos o'imi bo'lishi lozim.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim bo'g'ini sifatida mahalliy davlat hokimiyati bobida o'rin oldi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mahallalar faoliyatining, ularga berilgan vakolatlarining demokratik, qonuniy asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi<sup>1</sup>, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun hamda Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatining muhim asosi sifatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zini o'zi boshqarish organlarini shakllantirishning huquqiy asoslari o'z ifodasini topdi. Konstitutsiyaning 105-moddasida "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylanishi", belgilab qo'yilgan edi

2019- yil 15 oktyabrdan rais (oqsoqol) ning vakolat muddati **3 yilga uzaytirildi**. Ammo 2020- yilning 12 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligida mahallaning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'imi va nufuzini yanada oshirish, mahallalarda tinchlik va

<sup>1</sup>Узбекистон Республикасининг Конституцияси. Т. 2017. 105-модда. 60-бет.

osoyishtalikni ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mahalla milliy mentalitetimiz ko'zgusi ekanini ta'kidlab, mahalla raislarining **vakolat muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirilishini**, uning 3 nafar o'rinbosari joriy etilishini, profilaktika inspektori endilikda mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlashini, u ham 5 yil muddatga tayinlanishini ta'kidladi.

Mustaqillikning ilk kezzarida, albatta tizimdagi mavjud muammolar, ularning rivojlanish tendensiyalari vaqt o'tishi bilan, xususan mamlakatimiz tarixiy hayotida ro'y bergan tub o'zgarishlarga muvofiq 1997- yil 25 aprelda «Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimчалar kiritildi. Shu boisdan davr taqozosiga ko'ra, bu Qonun 1999- yil 14 aprelda va 2013- yil aprel oyida Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Qonunlarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tarkibida tegishli komissiyalar faoliyat ko'rsatilishi belgilab berildi. Mazkur komissiyalar quyidagilar edi:

- varashtirish komissiyasi;
- ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha komissiya;
- ijtimoiy qo'llab quvvatlash komissiyasi;
- xotin qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
- voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
- tadbirkorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalalari bo'yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish, va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
- jaoatchilik nazorati va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, qabul qilingan huquqiy hujjatlar asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati yanada takomillashtirildi, fuqarolar yig'ini to'g'risidagi, fuqarolar yig'ini huzuridagi "Taftish komissiyasi" to'g'risidagi namunaviy Nizomlar hamda fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyaning Namunaviy nizomlari tasdiqlandi.

Ayniqsa, tizimdagi muhim huquqiy hamda ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlardan biri sifatida, qonunlarga tegishli o'zgartirishlar asosida fuqarolar yig'inlarining 2005- yildan boshlab, "Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchi" lavozimining tashkil etilishi mahallada ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil etish va unga doir chora-tadbirlar ishlab chiqishda, yoshlar hamda xotin-qizlar orasida mafkuraviy profilaktikani olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bular xotin-qizlarga diniy bilimlar va milliy an'analar asolarini egallashda yordam ko'rsatish, xotin-qizlarni diniy tolerantlik, barcha boshqa diniy konfessiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash kabilardan iborat. Jamiyatda diniy va dunyoviy qarashlar qarama-qarshiligiga yo'l qo'ymaslik, diniy ekstremizm va aqidaparastlikning mamlakatimizdagi osoyishta hayot va ijtimoiy siyosiy

barqarorlikni buzishga qaratilgan, g'ayriinsoniy, zararli g'oyalarning jamiyatda tarqalishiga qarshi kurashish vazifalari ham ularning vakolatlar doirasiga kiradi.

Mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatini yanada takomillashtirish, oila, jumladan ota-onalarning oila va mahalladagi o'rnini yuksaltirish maqsadida "Fuqarolar yig'ini huzurida "Ota-onalar universiteti" jamoatchilik tuzilmasi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan mazkur ijtimoiy tuzilmaning vazifalari maxsus Nizomda mustahkamlandi.

Tegishli qonunlarga muvofiq, bugungi kunda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining tizimli ish faoliyatini tashkil etish maqsadida fuqarolar yig'inlarida asosiy shtat birligi "Mahalla raisi", "Diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari buyicha rais maslahatchisi", "Mas'ul kotib" va "Mahalla posboni" jamoat tuzilmasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ayni paytda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishida faoliyatning asosiy turlari bo'yicha komissiyalarga rahbarlik qiluvchi obro'li va hurmatga sazovor fuqarolar jamoatchilik asosida ishtirok etishi belgilab qo'yilgan.

1999- yilda tashkil etilgan Respublika "**Mahalla ziyosi**" o'quv-uslubiy markazi muhim rol o'ynadi. Shu yili mazkur dargohda 450 tasi o'z malakasini oshirgan bo'lsa, 2000- yilda ushbu o'quv markazida 2500 yig'in raislari, 445 ta xotin-qizlar masalalari bo'yicha komissiya a'zolari o'z malakalarini oshirganlar. 2013- yil 10 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning o'zini o'z boshqarish organlari xodimlari malakasini oshirishlarini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq shu yildan boshlab rais, kotib, diniy ma'rifiy, ma'naviy axloqiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari hamda "**Mahalla posboni**" jamoat tuzilmasi o'z malakalarini oshiradigan bo'ldilar.

2016- yilning 24 sentyabridan boshlab tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonalari o'z faoliyatlarini boshladilar. Unga muvofiq Prezidentning Virtual qabulxonasiga 2017- yilning fevral oyigacha fuqarolardan 509122 ta murojaat kelib tushgan va ularning 436408 tasi ko'rib chiqilgan bo'lsa, 2018- yil oxirigacha 2 million 500 ming nafardan ziyod kishi o'zini qiynab kelayotgan muammolarga yechim topganlar. Bu aholining eng dolzarb muammolarini hal etish imkonini berdi, davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmini yaratishga asos bo'ldi.

2019- yil 1 fevraldan boshlab Prezidentning "**Aholi muammolari bilan ishlash yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida**" gi farmoniga ko'ra Xalq qabulxonalarining aholi murojaatlari bilan ishlash bo'yicha amaldagi tizimi bilan bir qatorda, Xalq qabulxonalarining muammolarini uyma-uy yurish orqali aniqlash va hal qilishni, davlat organlarining aholi bilan ishlashini nazarda tutuvchi yangi tizim joriy qilindi.

Ta'kidlash o'rinni, so'ngi yillarda mahalla institutini yanada takomillashtirish yuzasida ko'rilgan chora tadbirlar barcha sohalarda ijobiy siljishlarda o'z aksini topmoqda. Jumladan, bu borada mamlakatimiz Prezidentining 2017- yil 3 fevraldagi yangi tahrirda qabul qilingan «Mahalla



institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni hamda 2018- yil 15 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahalla institutining yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash chora-tadbirlari to'risida» gi qarori qabul qilinishi muhim qadam bo'ldi.

Yangilanayotgan O'zbekiston tarixida **2020- yilga** kelib mahalla taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. O'tgan 2017–2020 yillar oralig'ida aholi muammolarini aniqlash, “Mahalla–sektor–Xalq qabulxonasi–mahalla” tamoyili asosida mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi asosiy ishonchli ko'prik bo'lishini amalda ta'minlash, oila va mahalla hamkorligini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin–qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” gi farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmon asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”** gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkiliy tuzilmasi sifatida quyidagilar belgilandi:

–99 ta shtat birligidan iborat O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi markaziy apparati tuzilmasi tashkil qilinishi;

–336 ta shtat birligidan iborat Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmalari tashkil qilinishi;

–1624 shtat birligidan iborat tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari tashkil etilishi belgilandi.

#### **4. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning ta'minlanishi .**

Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat, 16 diniy konfessiya vakillari yagona oila farzandlaridek yashab, mehnat qilib kelmoqdalar. Shu boisdan ular ham mamlakatimizning barcha fuqarolari qatori bir xil huquq va majburiyatlarga ega. Ular uchun O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan huquq va erkinliklari, manfaatlari to'liq ta'minlangan. Zero, jamiyatni ma'naviy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad –ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik masalaridan iborat.

Respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi uning farqlanuvchi xususiyatidir. Mamlakatimiz aholisi etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeyini egallaydi. Respublikada yashab turgan aholinig salkam 80 % ni o'zbeklar tashkil etadi. Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo va diniy bag'rikenglikni shakllantirishdir. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatimizda nulliy siyosatning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildiki, ayni shu siyosat barqaror va to'kir-sochin hayotimizning poydevori bo'ldi.

Hozirga kelib mamlakatimizda milliy madaniy markazlar a'zolarining faoliyatini muvofiqlashtirishda respublikada tuzilgan 137 ta milliy madaniyat markazlari yetakchi rol o'ynamoqda. Hyech mubolag'asiz aytish mumkinki, bugungi kunda Respublika baynalmilal madaniyat markazi diyorimizda yashayotgan turli millat vakillarining manaviy-ma'rifiy muloqot maskaniga, o'ziga xos do'stlik uyiga aylangan. Bu yerda muntazam ravishda xalq bayramlari, festivallar, barcha millat ardog'idagi ijodkorlar bilan uchrashuvlar, seminarlar va konferensiyalar o'tkazib kelinadi.

O'tgan yillar mobaynida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tomonidan **"O'zbekiston – umumiy uyimiz"** albom kitobi, **"O'zbekiston – bag'ri keng diyor"**, **"O'zbekiston Konstitutsiyasi – buyuk kelajagimiz kafolati"**, **"Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar rivoji"** kabi to'plamlar chop etildi.

Ayniqsa Respublika baynalmilal madaniyat markazi faoliyatining 25 yilligini munosib nishonlanishini yurtimizdagi barcha millat vakillari katta quvonch bilan kutib olishdi. Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoevning tantanali yig'ilish qatnashchilari bilan uchrashuvi muhim voqea bo'ldi.

Bugungi kunda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarida turli millatga mansub talabalar tahsil oladi. Dunyoning kamdan kam mamlakatlarida kuzatiladigan yana bir holat shuki, O'zbekistonda ta'lim 7 ta tilda olib boriladi, 8 ta tilda gazeta va jurnallar chop etiladi, 12 tilda ko'rsatuvlar va 11 tilda radioeshittirishlar efirga uzatiladi.

Tarixdan ma'lumki, xalqimiz boshidan kechirgan og'ir qatag'on yillari va ikkinchi jahon urushi yillari ko'p sitamlarga yuzma-yuz bo'lgan koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatar va boshqa millat vakillari O'zbekistonni Vatan tutdilar. Ularning hozirgi avlodlari uchun esa O'zbekiston ona Vatanga aylandi. Chunki ular shu yerda tug'ilib, kamolga yetdi, hayotda o'z o'rnini topdi.

Milliy markazlar faoliyatining natijasi sifatida "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Shu aziz Vatan barchamizniki", "Qudratimiz-birlik va hamjihatlikda", "Maqsad bir, g'oya bir, Vatan yagona", "Vatan yagonadir – Vatan bittadir" g'oyalarining asl mohiyatini chuqur anglab yetgan holda turli millat vakillarining shu muqaddas Vatanning buyuk kelajagini qurish va uning mustaqilligini yanada mustahkamlash yo'lida fidoyilik bilan sidqidildan qifayotgan mehnat faoliyatlarida, turli sohalarida qo'lga kiritayotgan yutuqlarida yorqin namoyon bo'lmoqda.

Xususan, 1992 yildayoq milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Beynalmilal madaniyat» markazi tashkil etilgani bunga misol bo'ladi. O'sharida 12 ta milliy-madaniy markaz faoliyatini birlashtirgan bu jamoat tashkiloti bugun 100 dan ortiq filiallar ishin muvofiqlashtirib turibdi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun shart sharoitlar yaratish, mamlakatimizni moderrizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish barcha ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida o'z aksini topdi. Unda yaqin besh yil ichida barcha sohalar qatori O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan

Ko'pmillatli mamlakat siyosatining asosiy maqsadi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashdir. Mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlashda Respublika baynalminal madaniyat markazi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqda. Respublika baynalminal madaniyat markazi tomonidan mamlakatimizning barcha hududlarida o'tkazilayotgan tadbirlar ko'pmillatli mamlakatda madaniy, etnik munosabatlarni yanada takomillashtirmoqda.

Shu o'rinda mamlakatimizda shakllangan milliy siyosatning muhimligi alohida o'ringa ega. O'zbekiston Respublikasi milliy (etnik) siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilarda o'z ifodasini topmoqda:

- Millatlar va etnik guruhlar o'zaro munosabatlaridagi o'zaro uyg'unlikni siyosiy barqarorlik omili sifatida rivojlantirish;

- Barcha siyosiy jarayonlarda milliy, etnik guruhlar manfaatlarining aks etishini ta'minlash;

- Milliy o'zlikni anglash jamiyatni demokratlashtirishga undovchi g'oyaviy kuch ekanligini anglash;

- Mamlakatda etnik nizolar va millatchilikka yo'l qo'ymaslik;

- Respublikada milliy totuvlikni va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish;

- Davlat etnik siyosatida shaxs huquqlarining ustuvorligini ta'minlash;

- Siyosiy hokimiyat va jarayonlarda millatlar, etnik guruhlar ishtiroki hamda manfaatlar uyg'unligini ta'minlash;

- Millatlar va etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, ishonch, totuvlikni qaror toptirish, demokratik, kuchli fuqarolik jamiyat qurish va siyosiy barqarorlik omili ekanligini anglash;

- O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston fuqarolari tashkil etishi, kabilardir.

Tilimizda **tolerantlik** so'zi keng qo'llaniladi. Aslida tolerantlik (lot. tolerantia-chidamlilik)-o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik va bag'rikenglik ko'rsatishdir. Tolerantlik, bu-har xil e'tiqodlarga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor,

hamjihab bo'lib yashashni anglatadi. Shu ma'noda tolerantlik milliy g'oyaning muhim belgilaridan biridir.

Tolerantlik, bu xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamjihab bo'lib yashashi, jamiyat va davlat ravnaqi yo'lida birgalikda yashashlikni anglatadi. Bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi.

Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. Qadimdan diyorumizda buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik, yahudiylik, islom dinlari mavud bo'lgan. Shahar va qishloqlarimizda masjidlar, cherkovlar, sinagoglar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub xalqlar, o'z diniy amallarini emin-erkin ado etganlar. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy mojarolar bo'lgan emas. Bu yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega ekanlaridan dalolatdir.

Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihab bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi. Zero, dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas.

Umuman vijdon erkinligi insonning hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hyech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ta'minlovchi xususiyatdir. U BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1981- yil 25 noyabrda qabul qilingan 36-55-Rezolyusiyasida qayd qilingan insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur huquq O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd qilingan va 1998- yil may oyida qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun tomonidan tartibga solinadi. O'zbekistonda din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan. Mamlakatda kuch ishlatishni targ'ib qilish, millatlar va diniy tashkilotlar orasiga nizo solish uchun dindan foydalanish va konstitutsion tuzum asoslariga qarshi qaratilgan harakatlar qat'iyan man etiladi.

Respublikamizda 2017 yilda Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganligining **25 yilligi keng nishonlandi**. Mamlakatda milliy-madaniy markazlarning soni 140 ga yaqin bo'lib, ular respublikaning jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlar faoliyatida millatidan qat'iy nazar barcha yurtdoshlar qatnashishlari mumin. Millatlararo munosabatlar yo'nalishidagi do'zarb masalalardan yana biri aholining milliy tarkibiga mos keladigan ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish edi. Bu borada, respublikada bugungi kunga kelib, 10 mingdan ortiq yaqin maktab faoliyat yuritayotgani, shundan 845 ta maktabda rus tilida, 491 ta maktabda qozoq tilida, 259 ta maktabda tojik tilida, 52 ta maktabda turkman tilida, 40 ta maktabda qirg'iz tilida, 7 ta maktabda koreys tilida ta'lim berish yo'lga qo'yilganini alohida

ta'kidlash zarur. Ular orasida ikki yoki uch tilda o'quv mashg'ulotlari olib borilayotgan maktablar ham bor.

**Dinlararo bag'rikenglik** - xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamjihat bo'lib yashashi, jamiyat va davlat ravnaqi yo'lida birgalikda yashashlikni anglatadi. Bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi diniy konfessiyalar faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishlari uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi. Zero, dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas.

Tarixiy malumotlarga ko'ra mustaqillikning dastlabki yillarida respublikamiz bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 2153 ta diniy tashkilotdan 172 tasi xristian cherkovi 7 tasi yaxudiyalar 6 tasi baxoiy jamoasi, 2 tasi Krishnani anglash jamiyati va 1 tasi buddaviylikka mansubligi ham shuning isbotidir. Ularning emin-erkin faoliyat ko'rsatishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Ya'ni, tarixda birinchi marta Toshkent va O'rta Osiyo yeparxiyasi Boshqarmasi qoshida Toshkent seminariyasi, Samarqandda esa protestantlar seminariyasi faoliyat ko'rsata boshladi. 2020 yilga kelib mamlakatimizda **16 ta diniy konfessiya** faoliyat ko'rsatmoqda.

2018- yil 16 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo'mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi. 2018- yilning 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-sonli Farmoni imzoladi.

Mazkur hujjat O'zbekistonda diniy ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan. Ya'ni, boshlang'ich bosqichdan (o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta'limgacha. 2019- yil 4 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini

muvofiq lashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma'rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta'minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi.

Bundan tashqari, Din ishlari bo'yicha qo'mita tarkibida ayollar bilan ishlash bo'limi tashkil etildi, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlarni nazorat qiluvchi rais o'rinbosari lavozimi ham joriy etildi. Xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiq lashtirish bo'yicha Respublika targ'ibot guruhi tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida Akademiya tarkibidagi malaka oshirish Markazi hududiy filiallari tashkil etildi.

O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi huzurida «Ziyo» media-markazi tashkil etilib, u ajdodlarimizning diniy-ilmiy merosini keng targ'ib qilish, dinning haqiqiy insonparvarlik maqsadini hamda diniy-ma'rifiy hayotda sodir bo'layotgan yangiliklardan keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni ta'minlovchi asosiy media-tuzilma hisoblanadi.

### **Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar:**

Mustaqillik, mustaqillik arafasi, demokratik taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, siyosiy islohotlar, huquqiy-demokratik davlat, mahalliy davlat hokimiyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, mahalla, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik.

### **Mustaqil ta'lirn mavzulari:**

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati
2. Respublikada siyosiy sohada va parlament islohotlari.
3. O'zbekistonda sud tizimi va uning o'ziga xosligi
4. Ijro hokimiyati: mohiyati va vakolatlari
5. O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat asoslarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi
6. Respublikada mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati va vazifalari.
7. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning ta'minlanishi

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati qanday ?
2. Respublikada siyosiy sohada va parlament islohotlariga izoh bering.
3. Sizningcha O'zbekistonda sud tizimi va uning o'ziga xosligi qanday ?
4. O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat asoslarining shakllantirilishi va rivojlantirilishiga izoh bering

5. Mahalla va o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyati va vazifalari haqida gapirib bering.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2017 yil 23 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2018 yil 29 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. "O'zbekiston". NMIU T., 2008.
5. Karimov I. A O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. "O'zbekiston". NMIU. T., 2012.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: «Sharq», 2000.
7. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida (Usmonov Q., G'aniev D). T.: «O'zbekiston», 1994 y.

## **12-mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- madaniy taraqqiyoti. O'zbekiston va jahon hamjamiyati**

### **Reja:**

- 1. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi.**
- 2. O'zbekistonda agrar islohotlar va aholini ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos xususiyatlari.**
- 3. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot, madaniyat, ta'lim va fan.**
- 4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati .**
- 5. Yangilanayotgan O'zbekiston islohotlarning strategik bosqichida: Shavkat Mirziyoevning Prezident etib saylanishi va mamlakat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi.**
- 6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi mamlakat taraqqiyotining yangicha dasturi.**

### **1. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi.**

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, taraqqiyotning eng muhim masalalardan biri, kelajakda o'ziga xos iqtisodiy taraqqiyot yo'lini belgilash bo'ldi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, o'z mustaqilligiga erishgan davlatlarda ilk davrlarda ushbu masalada ayrim muammolarning vujudga kelishi tabiiy hol. Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqilligining qo'lga kiritilishi birinchidan, milliy taraqqiyotimiz yo'lini erkin tanlashda ulkan imkoniyat bergan bo'lsa, ikkinchidan, eski sobiq ma'muriy buyruqbozlik tuzumiga barham berilishi yangi jamiyat qurish uchun shart-sharoit yaratilganligini uzil kesil tasdiqladi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz mustaqilligining qo'lga kiritilishi demokratik jamiyat qurish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratibgina qolmasdan, o'zimizga xos rivojlanish yo'lini ham belgilab olishimizga imkoniyat yaratdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy munosabatlarning keng miqyosli tizimi avvalambor xo'jalik mexanizmlari orqali boshqariladi. Bunday munosabatlarning sub'ekti turli xususiy mulk egalari, jumladan turli uyushmalar, davlat va xususiy sektor egalari, yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

XX asr oxirlariga kelib mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini yagona andozaga solingan qoidalar bilan cheklab bo'lmashligini, taraqqiyot modellarning ancha keng ko'lamga ega ekanligi, ularni tanlashda har bir mamlakat o'z ichki sharoitlaridan kelib chiqib ish olib borish zarurligi ma'lum bo'ldi. Mazkur masalaga mustaqillikka erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda turlicha hal etishga erishganlar. Shu sababli bugun dunyoda ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning «Shved modeli», «Amerika modeli», «Yapon modeli» kabilar keng uchramoqda. Mazkur tamoyillar aslida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy



taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan va qay yo'sinda amalga oshirilishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi.

Umuman, dunyoda taraqqiyot modellarning umuminsoniy va milliy shakllariga xos bir qator tipik milliy modellari ham mavjud. Ular quyidagilar:

Osiyo taraqqiyot modeli, Yevropa modeli, Lotin Amerikasi modeli, Osiyo – Tinch okeani modeli, Afrika iqtisodiy taraqqiyot modeli, Postsovet iqtisodiy taraqqiyot modeli, “Amerika modeli”, “Yapon modeli”, “Shved modeli”, Erxard (nemis) modeli, Turk modeli, “Xitoy modeli”, “Janubiy Koreya modeli” va h.k lar amal qilmoqda.

Mamlakatimiz bugungi kunda o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lida ijobiy natijalarni qo'lga kiritayotgani barchamizga ayon. Bu borada xalqimiz o'tgan davrda o'zining mustahkam irodasi, qat'iyat va matonati bilan jahon maydonida munosib hurmat-e'tibor qozonayotgani ahamiyatga molikdir. Bunda jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy negizlari mustahkamlangani, hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lidagi ishonchli qadamlar dunyo jamoatchiligi, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilayapti.

Mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimidan voz kechib, jahonda «o'zbek modeli» deb nom olgan taraqqiyot yo'lini tanlangani bejiz emas. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan ushbu modelning ma'no-mazmuni — davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilashda o'z ifodasini topdi. Ular quyidagilar edi: Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, ya'ni mafkuradan holi bo'lishi; Davlatning bosh islohotchilik vazifasini bajarishi, ya'ni islohoilar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi; Qonun ustuvorligini ta'minlash; Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; Islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil olib borish tamoyillariga asoslandi.

Ushbu tamoyilning asosiy negizi Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan 2010- yil noyabr oyida e'lon qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi» da yana bir bor e'tirof etildi. Shu o'rinda so'ngi yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot o'sishi va aholining real daromadlari qariyb 4 barobarni tashkil etgani, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan ulkan natijalar, xususan, aholini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobardan ortiqreققa ko'paygani «o'zbek modeli» bejiz xalqaro e'tirofga sazovor bo'lmayotganini anglatadi.

“O'zbek modeli” ning natijalari va taraqqiyotimizning munosib natijalari aholi turmush darajasida ham o'z aksini topdi. Xususan, ushbu modelning hayotimizga joriy etilishi natijasida ijtimoiy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jumladan, aholi turmush darajasining yaxshilangan natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi esa 3 barobarga kamaygani, odamlarning o'rta umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning

o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetgani ham O'zbekistonning XXI asrdagi rivojlanish dinamikasini yanada yaqqolroq namoyon etdi.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari keskin tushib ketgan, ishsizlik eng katta muammoga aylangan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari keyingi besh yilda 8 foizdan ortiqni tashkil etib, har yili bir million atrofida yangi ish o'rni tashkil etilayotgani, rivojlangan mamlakatlarda tashqi qarzlar ko'payib borayotgani jiddiy xavotir tug'dirayotganda esa O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmayotgani, davlat byudjeti yildan-yilga profitsit bilan bajarilayotgani milliy taraqqiyot modelining naqadar hayotbaxshligi va barqaror taraqqiyotning bu boradagi asosiy tamoyilga aylanganidan dalolat beradi.

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida respublikamiz iqtisodiyot bir tomonlama va asosan paxta yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, mash'um salbiy oqibatlariga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjga chiqqan, xalqning qadr-qimmatini toptalib, uning o'zi va kelajagiga ishonchi so'ngan edi. O'sha davrda qoloq ishlab chiqarishga ega bo'lgan, sobiq ittifoqda aholi jon boshiga iste'mol darajasi bo'yicha eng past o'rinda turgan respublikani tarixan qisqa bir davrda mustaqillikka erishib, ulkan marralarni qo'lga kiritadi. Buning natijasida mamlakat qiyofasi butunlay o'zgarib, uning jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksaldi.

Ayni paytda dunyo hamjamiyati yurtimizning o'z yo'lidan og'ishmay, sobitqadamlik bilan borayotgani, fuqarolik jamiyatini barpo etish borasida ulkan yutuqlarga erishayotgani, barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotga asoslangani, demokratik huquqiy davlat va rivojlangan mamlakatimizda inson, uning manfaatlari, huquq va ekinliklari oliy qadriyat darajasiga ko'tarilganini e'tirof etmoqda. Bu, shubhasiz, xalqimizning o'z oldiga qo'ygan yuksak marralar sari muvaffaqiyat bilan ilgariylayotgani natijasidir. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" asosida jahon tajribasidan kelib chiqib O'zbekiston o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Ular quyidagilarda o'z ifodasini topdi:

- 1 O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlarining mavjudligi.
- 2 O'zbekistonda demokratik va ijtimoiy adolat jamiyat qurish.
- 3 Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat olib borish
- 4 Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish – mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizlarining muhimligi.
5. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini rivojlantirish.

Mutaxassislar, ekspertlar tomonidan demokratik huquqiy davlat qurishning jahon tajribasi o'rganilib davlatimiz tomonidan O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslari va tamoyillarini qabul qilish bilan birga, unda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi. Shundan so'ng jamiyatimizda

siyosiy hayotning barcha sohalari, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashirish jadallik bilan olib borilmoqda. Bizningcha, O'zbekiston fuqarolarining mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan rivojlanib borishining siyosiy va iqtisodiy yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekistonning mustaqillik taraqqiyot yo'li bilan «O'zbek modeli» mamlakatimizning ijtimoiy taraqqiyot dasturi bo'lib, bu dastur ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy islohotlarning goyaviy, nazariy negizini tashkil etadi. Mazkur islohotlar mustaqillik yillarida bir nechta bosqichlarni bosib o'tadi. Jumladan, islohotlarning dastlabki bosqichida eski ma'muriy buyruqbozlik tizimi tugatildi va milliy davlatchilikning siyosiy-huquqiy poydevori barpo etildi. Keyingi bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarning huquqiy asosi yaratildi, iqtisodiyotning barqarorlashuviga erishildi.

«O'zbek modeli» O'zbekistonning o'ziga xos bo'lgan taraqqiyot yo'li bo'lib, bu yo'l mamlakatimizning tarixiy milliy xususiyatlarini, geografik va demografik shart-sharoitlarini hisobga olgan, respublikaning bosh, strategik maqsadi sari yo'naltirilgan islohotlarning har bir bosqichida ijodiy rivojlanib boruvchi dasturulamadir.

Fuqarolik jamiyati taraqqiyotning maqbul yo'li va at'zalligi inkor qilib bo'lmaydigan haqiqatdir. Lekin bu uni shunchaki qanday bo'lsa, shundayligicha O'zbekistonga tadbiiq etsa bo'laveradi, degani emas. Aksincha, masalani muvaffaqiyatli yechish uchun xalqning ko'p ming yillik tarixi, siyosiy tajribasi, milliy mentaliteti, aql zakovatiga tayanib ish yuritish muhim. Fuqarolik jamiyatining yurtimiz ravnaqini ta'minlash uchun millatlarning o'ziga xosligi, madaniy va ma'naviy qadriyatlari, mamlakatning geografik joylashuvi, unga monand holda asrlar osha ajdodlar tomonidan shakllantirilgan xo'jalik yuritish vositalari va ko'nikmalari hamda insonlararo aloqalar ham hisobga olinganligi bejiz emas.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Bu barcha tamoyillar demokratik va iqtisodiy qayta o'zgartishlar jarayonlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, hayot sinovidan o'tdi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichining vazifalari bu, mustaqil davlatning amal qilishini ta'minlovchi: infratuzilmani yaratish, bozor iqtisodiyotiga o'tishning qonunchilik asoslarini shakllantirish, narxlarni erkinlashirish, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, inflyasiyaga qarshi kurashish va aholini ijtimoiy himoyalash hisoblanar edi.

Ma'lumki taraqqiyotning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yo'lini tanlagan O'zbekistonda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – jamiyatta ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta mulkdorlar tabaqasining paydo bo'lishi demakdir. Bu borada qator qonunlar qabul qilindi.

Darhaqiqat, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, dastlabki kezlarda, **kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va**

rivojlantirish uchun quyidagi dastlabki normativ-huquqiy normalari va qonun hujjatlari qabul qilindi. Bu borada ayniqsa 1991- yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Mulki davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to'g'risida" gi qonuni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unga ko'ra mulkchilik shakllarini o'zgartirish sohasidagi ishlar respublika hamda hududiy maqsadga bosqichma-bosqich ishlab chiqiladigan va tasdiqlangan maxsus dastur asosida amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Albatta, ushbu qonunning qabul qilinishi sohani bosqichma-bosqich rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Qabul qilingan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, xalq xo'jaligidagi barcha soha tarmoqlarini ommaviy xususiy lashtirish uchun keng imkoniyat yaratildi, bu boradagi cheklashlar olib tashlandi. Birgina 1992-1996 yillarda davlat mulki ob'ektlarini xususiy lashtirish tufayli 1 million 74 ming kishi turar-joy egasi, 2 million kishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida xususiy lashtirilgan korxonalar aksiyalari, paylarining egalari, qishloq joylarida esa, 3 million kishi yordamchi xo'jalik, 19 ming kishi ko'chmas mulk egasi bo'lib qoldilar.

Bu raqamlar, shubhasiz jamiyatda mulkdorlar sinfini shakllantirish yo'lidagi muhim qadamlar qo'yilganligini anglatadi. Amalga oshirilgan dastlabki islohotlar natijasida 1991-1996 yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida salmoqli institutsional o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, turar joylar, savdo xizmat ko'rsatish sohalari, matlubot jamiyati ob'ektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiy lashtirish amalda tugallandi, o'rtacha va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish jarayoni jadal davom ettirildi.

Bu borada mulki davlat tasarrufidan chiqarish va hususiy lashtirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo qilish, qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirish, agrar munosabatlarning yangi tipini yaratish jarayonlari amalga oshirildi. Bu tadbirlarning natijasi o'laroq iqtisodiyotda tub sifat o'zgarishlari vujudga keldi. Davlatga qarashli bo'lmagan, nodavlat, ya'ni xususiy sektorning iqtisodiyotdagi ulushi keskin oshdi. Bu sektor 1995- yilda sanoat mahsulotlarning 44 foizini, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining esa 97 foizini berdi. Barcha kapital mablag'larning 44 foizdan ortiqrog'i uning hissasiga to'g'ri keldi. 2000- yilgacha xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 64 foizi ana shu sektorda mehnat qilgan.

Bu esa o'sha kezlarda bozor munosabatlariga o'tish muammolarini sinchkovlik bilan o'rganib, ularni hal etishda ehtiyotkorlik bilan yondashishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa endigina bozor psixologiyasi odamlar ongida shakllanib kelayotgan bir sharoitda respublikada birinchi navbatda maishiy xizmat, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, mahsulotni qayta ishlovchi kichik korxonalarni ochish zarur edi.

Respublika o'z mustaqilligining dastlabki yillarida, kichik biznesga ko'maklashish maqsadida respublika va hududiy miqyosda faoliyat olib boruvchi – Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (**Biznes fond**,

1995 yil iyul), «Madad» sug'urta agentligi (1995- yil 26 iyun), O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi (1996- yil mart) hamda ularning hududiy bo'limlari tashkil etildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishiga Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, «Hunarmard» uyushmasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi tashkil etildi.

Ammo o'sha kezlarda sohada qator muammolar ham mavjud bo'lib, ularning mavjud holati bir necha yillar taraqqiyotga to'siq bo'lib keldi. Xususan, 1999- yil 1 iyungacha qadar ro'yxatdan o'tgan korxonalar tarkibida kichik va o'rta korxonalar salmog'i kommunal xo'jalikda 42,9%, maishiy xizmat sohasida 85,0%, qurilishda 89,3%, qishloq xo'jaligida 89,9%, sanoatda 93,5%, savdoda 95,3%, umumiy tijoratda 96,6%ni tashkil etgan bo'lsada, amalda esa ro'yxatdan o'tib, o'z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar ulushi 20% ni tashkil etgan holos. Qolganlari esa turli sabalar bilan yopilib ketgan bo'lib, buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, respublika bo'yicha 1996- yilda tashkil qilingan 7400 kichik korxonadan 20%, 1998- yili esa 3700 ta korxonadan 70% tugatilib ketgan. Shu boisdan ko'pgina tadbirkorlar faoliyat bilan shug'ullanishdan sekin-sekin uzoqlashganlar yoki ish boshlab qo'yib, uni oxirigacha yetkazmasdani, javobgarlikni davlatga tashlab qo'yanlar. Masalan, 2000 yilning o'zida faqat Toshkent shahar bo'yicha tugatish jarayonida turgan kichik biznes sub'ektlari 4666 ta bo'lib, ulardan 54,7% yoki 2552 tasida ta'sischi bo'lmagan. Tugatilish holida turgan jami korxonalardan tugatilganlari 25,6% ni tashkil qilgan yoki 1194 ta bo'lgan.

Ushbu muammolarni to'g'ri anglagan va unga tanqidiy asosda yondoshgan **Prezident Shavkat Mirziyoev** 2017- yil 22 dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida "Yurtimizda tadbirkorlik nima uchun kutilgan darajada rivojlanmayapti? Chunki bu soha vakillarini asossiz ravishda tekshirish holatlari ko'p. Ochig'ini aytganda tadbirkorlikning erkin rivojlanishiga o'zimiz, davlat idoralari yo'l qo'ymayapmiz. **Hyech kimga kerak bo'lmagan tartib-tamoyillar hamon saqlanib qolmoqda, joylarda ko'pgina amaldorlar faqat o'z shaxsiy manfaatini o'ylab ish ko'rmoqda. Bundan buyon bu sohani qo'llab-quvvatlash, biznes sub'ektlarini jadal barqaror rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralar ko'riladi**", deya qayd qilganligi bejiz emas, albatta.

Agar yaqin tariximizga murojaat qilsak, 1998- yil 9 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. 2001- yil 22 avgustda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazib va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida» qaror qabul qilindi. Qarorga binoan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi tashkil etildi. Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga

Respublika tovar-xomashyo birjasi, Agrosanoat birjasi, «Oʻzulgurjisavdo» orqali moddiy-texnika resurslari sotildi.

Mustaqillik yillarida soha rivoji tahliliga koʻra yana raqamlarga murojaat etilsa, 2003- yili yurtimizdagi 5 ming 630 ta aholi yashash manzilgohlarida koʻplab kichik va oʻrta biznes korxonalari tashkil etilib, qariyb 155 mingta yangi ish oʻrinlari yaratilgan. Dastur doirasida aholiga 2003 yilda 1 milliard 200 million soʻmlik xayriya yordami koʻrsatilgan. Ikki yoshgacha boʻlgan bolalar tarbiyasi bilan shugʻullanayotgan 400 mingdan ziyod ayolga davlat tomonidan nafaqa puli tayinlangan. 180 ming kam taʼminlangan oilaga qariyb 4 milliard soʻm miqdorida moddiy koʻmaklar berilgan. 2003- yilda 25 mingdan ziyod yolgʻiz pensioner va nogironlarga 630 million soʻmlik moddiy yordamlar koʻrsatilgan.

Soʻnggi yillarda joylarda kichik korxonalar ochish va fermer xoʻjaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007- yildagi 2094,2 ming kishidan 2011- yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga koʻpaygan. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilayotgani bois, bu sohada ish bilan band boʻlgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda. 2007-2011 yillarda respublika boʻyicha yuridik shaxs maqomiga ega boʻlmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band boʻlganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta koʻpaygan.

Dehqon xoʻjaliklarida ish bilan band boʻlgan aholi soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 % ga ortgan. Bu esa amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy tizim tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga koʻmaklashuvchi samarali shakllari rivojlanayotganligini anglatmoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faol qoʻllab quvvatlanishi natijasida uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2000- yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 31 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2008- yilda bu koʻrsatkich 48,2 foizni, 2009- yilda 50,1 foizni, 2010- yilda 52,5 foizni, 2011 yilda esa 54 foizni tashkil etdi yoki 2000- yilga nisbatan 23 foizga oʻsgan. 2010-2016 yillar davomida respublikada tadbirkorlik orqali tashkil etilgan ish oʻrinlari soni 3,9 foizga ortgan.

2017- yilda esa dasturga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 mingta ish oʻrni bilan), qishloq xoʻjaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish oʻrni bilan) va xizmat koʻrsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish oʻrni bilan) rivojlantirish boʻyicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256, 4 mingdan ortiq ish oʻrinlari tashkil etishga erishiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 27 iyundagi **“Obod mahalla”** dasturi toʻgʻrisida”gi PF- 5467-sonli Farmonida **“Obod qishloq”** va **“Obod mahalla”** davlat Dasturini amalga oshirish va unda tadbirkorlar ishtirokiga

oid bo'sh turgan er maydonlarini yoki foydalanilmasdan turgan bino va inshootlarni tadbirkor va hunarmandlarga "nol" qiymatda berish hamda uni amalga oshirishda tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalari "Obod mahalla" jamg'armasining moliyalashtirish manbalari qilib belgilanganligi ushbu tizim qonunchiligidagi muhim voqeyadir. Unga muvofiq, mahalla hududlarida bo'sh turgan yer maydonlarini yoki foydalanilmasdan turgan bino va inshootlarni tadbirkor va hunarmandlarga «nol» qiymatda berish asosida mikro sanoat zonalarini va hunarmandchilik markazlarini tashkil etildi.

O'z navbatida, 2018- yilning O'zbekistonda «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalari va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilinishi tadbirkorlar faoliyatini takomillashtirish yo'lida yana bir katta amaliy qadam bo'ldi hamda iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida innovatsion jarayonlarni jadallashtirishga katta turtki berdi.

Ya'ni, Davlat dasturiga muvofiq, ayniqsa shu paytgacha qadar aholi turmush tarzini yanada yaxshilash, davlat dasturlarini amaliyotga tadbqiq etish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, aholi, ayniqsa tadbirkorlarning tashabbuslarini yanada qo'llab quvvatlash, ularning mulk huquqi bilan bog'liq muammolarini hal etish borasida qator muammolar mavjud edi. Bunda ularni hal etishning huquqiy mexanizmi yo'q edi. Unga ko'ra O'zbekistonda tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni boshqarish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati kompleks tarzda amalga oshirildi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli yuritish uchun respublikada qator farmonlar, qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Prezidentning 2018- yil 1 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5495-sonli Farmoni ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu me'yoriy hujjat mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratishni ta'minlaydigan huquqiy asosni yanada mustahkamladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subektlarini tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida **2020-yil 1 yanvardan boshlab tadbirkorlik faoliyati**- yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatishda, bir yoki bir nechta davriy bosma nashrlarda korxonaning tugatilishi to'g'risida e'lonlar berish talab etilmasligi, bunda tegishli ma'lumotlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organning rasmiy saytiga joylashtirilishi belgilandi. Farmonga ko'ra, davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan boshlab moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan hamda soliq qarzi mavjud bo'lmagan korxonalarning moliya xo'jalik faoliyati tekshirilmagani, davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkaziladigan,

tugatiladigan korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishning eng uzoq davriyligi uch yilni tashkil etishi belgilandi.

Farmonga muvofiq moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun vakolatli davlat organlaridan korxonaga to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni olish tadbirkorlik subektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek korxonani ixtiyoriy tugatishning umumiy muddati ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan kundan boshlab olti oydan oshmasligi kerakligi ko'rsatildi.

Bu borada 2019- yilning 13 avgustida tadbirkorlarning muammolarini qonuniy hal qilish, sohada samarali tizimi yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida" gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar", shuningdek "Tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi.

Yangilanayotgan O'zbekiston tarixida tadbirkorlik sohasidagi muhim yangiliklardan biri, bu 2017- yil 5 maydagi maxsus farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil -"Biznes ombudsman" tashkil qilingan. O'zbekistonda 2019- yilning 1 dekabr holatiga 761 248 nafar tadbirkor ro'yxatga olingan bo'lib, Biznes-ombudsman manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda ishini to'xtatgan 47 304 nafar tadbirkor faoliyatini tiklashga erishgan.

Agar tarixiy raqamlarga murojaat qilinsa, birgina 2019- yilda «Biznes ombudsman» ga tadbirkorlardan jami 3 202 ta murojaat kelib tushgan. 2 706 ta shikoyatda ko'tarilgan masalalar yechimini topgan. Murojaatlarning 33 foizi mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari (xatti-harakatlari), 12,3 foizi yer ajratish, 12 foizi nazorat qiluvchi organlar, 10 foizi banklar faoliyati, 7 foizi soliq sohasiga oid qonun hujjatlari, 6,3 foizi sud qarorlari va ularning ijrosi bilan bog'liq, shuningdek, qolgan 19,4 foizida boshqa turli yo'nalishdagi masalalar bayon etilgan. Tadbirkorlarning qonuniy huquqlarini tiklash yuzasidan 134 ta taqdimnoma, 11 ta xulosa, 66 ta ogohnoma va 138 ta ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, sudlarga yuborilgan. Ta'sir choralari natijasida mansabdor shaxslarning 203 nafari intizomiy, 114 nafari ma'muriy javobgarlikka tortildi, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan noqonuniy qabul qilingan 211 ta qaror bekor qilindi.

2019- yilda nazorat qiluvchi organlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning qonun buzilishi holatlari haqidagi murojaatlari asosida jami 1 248 ta xususiy korxonada tekshiruv o'tkazish bo'yicha buyurtmalar kelib tushgan.



Ulardan 719 tasi 58 foiz) kelishilgan va 529 tasi (42 foizi) tekshiruv o'tkazish uchun yetarli asoslar mavjud bo'lmagani sababli rad etilgan.

## **2. O'zbekistonda agrar islohotlar va aholini ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos xususiyatlari.**

Qishloq xo'jaligida tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida davlat xo'jaliklari tugatilib, jamoa, shirkat xo'jaliklariga aylantirildi, chorvachilik, aksariyat xo'jaliklarning qoramolchilik fermalari xususiyashtirildi, dehqon va chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlandi. Agar ramlaktimizda fermerlik harakatining shakllanish tarixi va rivojlanishiga murojaat qilinsa, fermerlikni shakllantirish chorvachilik sohasi islohotlaridan boshlangan edi.

Yaqin tariximizda bu borada chorvachilik sohasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993- yil 15 martdagi «Respublika chorvachiligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi, 1994- yil 23 fevralda «Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni takomillashtirish hamda **dehqon (fermer)** xo'jaliklari va xususiyashtirilgan fermalar manfaatlarini himoya qilish choralari to'g'risida», 1995- yil 24 martdagi «Chorvachilikda xususiyashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab – quvvatlash chora – tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qarorlarga ko'ra, 1995- yilda jamoa xo'jaliklarining zarar bilan ishlayotgan 1499 ta qoramolchilik fermalari xususiyashtirildi. Natijada respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 75% ni xususiy sektor bera boshladi.

Ushbu davrda agrar soha fermerlik yo'nalishining shakllanishida davlat tasarrufidagi qo'y, echki, qoramollar, yiliqi, tuya kabi hayvonlarni fermerlarga bo'lib berish, davlat mulkchiligini tugatish, ularni xususiyashtirishga katta e'tibor qaratildi. Natijada 1990- yilda respublikada bironta ham fermer xo'jaligi faoliyat yuritmagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xo'jalik shakllari bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratilib, 2000- yilga kelib ular tasarrufidagi yerlar 632,2 ming gektarga, 2010- yilga kelib esa 3 mln 143 ming gektarga yetgan.

Vaholanki 1990- yilda O'zbekistonda sovxozlar, kolxozlar, yordamchi xo'jaliklar maxsus shirkatlar, qorako'lchilik fermalariga tegishli yer maydonlari 3 mln 974 ming gektar bo'lgan bo'lsa, 2000- yilga kelib ularning yerlari fermer xo'jaliklariga bo'lib berilib, o'sha qishloq xo'jalik korxonalarining yirklashtirilishi natijasida 2010- yilda umumiy yer maydonlari qisqartirilib, zarar bilan ishlayotgan yoki dotatsiyaga tushgan xo'jaliklar yerlari 93 ming 900 gektarga kamaytirilgan edi.

2000- yillardan boshlab agrar sohada fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi barqaror va muntazam tus oldi. Fermer xo'jaligining yuzaga kelish asoslari Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 5 yanvardagi 8-sonli «Qishloq xo'jaligi korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

qarori va 2003- yil 27 oktyabrdagi «2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Prezident Farmonida batafsil yoritib berilgan.

Agar 2001- yilda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining soni 55445 birlikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 2006- yilga kelib 189235 birlikka yetgan, yoki 3,4 baravar oshgan. Xo'jaliklar sonining tahlil davridagi o'rtacha yillik o'sishi 40,2 foizni tashkil etgan. Jami 428 ta shirkat xo'jaligi negizida 22 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etiladi.

Respublikamizda fermerlikning kelgusidagi rivojlanishi va yangi imkoniyatlaridagi o'zgarishlar 2000- yillar oxiriga to'g'ri keladi. Puxta o'ylangan dastur asosida 2008-2010 yillar davomida o'tkazilgan maqbullashtirish jarayoni natijalariga ko'ra fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmi kamaytirildi. Amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayoni natijasida, 2011- yil yakuniga ko'ra, respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich o'sha davrda paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'lgan.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish hajmining o'sishi o'rtacha 6-7 foizdan kam bo'lmagan. Birgina 2015- yilda dalalardan 7,3 million tonnadan ortiq don, 12,8 mln tonnadan ziyod sabzavot va kartoshka, salkam ikki million tonna poliz mahsulotlari, qariyb 2,8 million tonna meva, 1,5 million tonnadan ziyod uzum mahsulotlari yig'ishtirib olindi. Go'sht ishlab chiqarish hajmi 2014- yilga nisbatan 106,7, sut ishlab chiqarish 107,1 tuxum ishlab chiqarish 111,1 foizni tashkil yetdi. Bu qishloq mehnatkashlari, soha mutaxassislari va mutasaddillarining qilgan mehnatlari samarasidir.

2017- yilgacha yurtimizda 160 mingdan ziyod fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ularning 36 mingdan ortig'i ko'p tarmoqli yirik sub'ektlarga aylandi. Buning quvonarli jihati shundaki, ayni paytda ular faqatgina dehqonchilik yoki chorvachilik bilan cheklanib qolmasdan, balki zamonaviy texnologiyalar, ixcham qayta ishlash uskunalari jalb yetgan holda, qo'shimcha tarmoqlarni o'zlashtirishga harakat qilishyapti.

O'zbekistonda yetishtirilgan meva sabzavotlariga bo'lgan talab dunyo miqyosida talab ortib bormoqda. Shu bois ham, hukumat tomonidan istiqbolda oziq ovqat yekinlari maydonlarini kengaytirishga jiddiy y'e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Prezidentning 2015- yil 29 dekabrdagi **“2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini qayta shakllantirish va rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”**gi qarori bu boradagi muhim dasturilamadir. Chunki, bu hujjatda tuproq unumdorligi nisbatan past, suv ta'minoti og'ir, kam rentabelli yekin maydonlariga paxta va g'alla o'rni meva sabzavot, kartoshka, moyli, ozuqabop

yekinlar yekish vazifasi belgilab berildi. Ularning amalga oshirilishi natijasida yaqin besh yilda boshqoli don yetishtirish hajmini 8,5 mln tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35% ga, sabzavotlarni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foizga, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 43,7 foizga, tuxum yetishtirishni 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5 martaga oshirish mo'ljallanmoqda. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 40 foizdan ortig'ini chorvachilik mahsulotlari tashkil etadi.

Ushbu sohada ham erkin bozor mehanizmlari shakllantirilgani, ko'plab imtiyozlar berilayotgani natijasida chorva mollari bosh soni va chorvachilik ishlab chiqarish hajmi muttasil ortib boryapti. Chorvachilik fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularda naslli qoramollar podasini ko'paytirish maqsadida keyingi 10 yil mobaynida Polsha, Avstriya, Gollandiya, Germaniya kabi mamlakatlardan 60 mingdan ko'proq naslli qoramollar olib kelindi.

Bugungi kunda agrar sohada salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi ham muhim hisoblanadi va hali bu borada qator muammolar borligi barchaga ayon. Agrar sohada zamonaviy fan texnikani puxta biladigan trener-o'qituvchilarni tayyorlovchi maxsus kurslarning muttasil ishlab turganligiga qaramay, yuqorida ko'rsatilgan o'qitish tizimlarida mahoratli, bilimli pedagog kadrlarning yetishmasligi ham dolzarb muammolardan biridir.

Shu boisdan yoshlarning agrar sohada biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilindi.

Shuningdek, «Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida ularning oila a'zolariga issiqxona tashkil etish, qoramol, parranda sotib olish va tadbirkorlik faoliyati uchun 3 yillik muddatga, 6 oylik imtiyozli davr bilan, yillik 7% stavkasi miqdorida kreditlar qaratilishi o'qituvchilarning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga xizmat qiladi.

**O'zbekistonning kuchli ijtimoiy siyosati. Ijtimoiy himoya tizimi.** XX asming 90-yillari boshida Sovet Ittifoqidan ajralib chiqib, eski tuzumdan voz kechib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosati ishlab chiqildi. Chunki, o'sha paytda respublikada bunday kuchli ijtimoiy himoya siyosatini yo'lga qo'yishning bir qancha sabablari mavjud bo'lib, ular quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, jahon tajribasidan ayonki, davlat boshqaruvi asoslangan sotsialistik tuzumdan, xususiy mulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ko'p hollarda davlat va jamiyat hayotida bir qancha ijtimoiy muammolar yuzaga keladi. Ya'ni, bu jarayon hych qachon oson kechmagan. Bunga taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan jahondagi ilg'or davlatlarning tarixiy tajribasi guvohlik beradi. Bunday sharoitda aholini ijtimoiy

himoya qilish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarga yetarli e'tibor bermaslik, aholining bir qismi turmush tarzining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu boisdan O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoyaga olish tizimini joriy etdi:

Ikkinchidan, o'sha davrda respublikadagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlar, ya'ni o'tish davrida respublikaning ishlab chiqarish salohiyati, geografik o'rni, tabiiy iqlim sharoiti kabilar, barcha joylarda aholining birdek ish bilan band bo'lish imkoniyatini bermagan. Chunki, respublika aholisining katta qismi agrar soha bilan shug'illangan. Ushbu sohalaridan kelayotgan daromadlar chekka joylarida barcha aholi ehtiyojini to'la ta'minlash imkoniyatini bermagan. Shu bois, ko'p bolali oilalarda ijtimoiy himoyaga ehtiyoj tug'ilganligi bejiz emas edi:

Uchinchidan, demografik omilga ko'ra, ya'ni dunyodagi davlatlar orasida O'zbekiston aholi soni muttasil o'sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Ya'ni, respublikada demografik vaziyat mulim mulim bo'lib, har bir oilaga o'rtacha 4-5 ta kishi to'g'ri keladi. O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, aholi, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o'sib bormoqda. Bugungi kunda mamlakat aholisining 32 % ni 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Mamlakat aholisi 2020- yilda 34 mln kishini tashkil qilgan. Agar aholining o'sish dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatda aholi soni so'nggi 35 yil ichida 1,4 barobarga ko'paygan. Aholining taqsimlanishi bo'yicha bir kvadrat kilometrga o'rtacha 56,1 kishi to'g'ri keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish — respublikadagi eng dolzarb muammolardan biridir. Shu bois bunday sharoitda aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, mamlakat aholisining salkam 60 % qishloq joylarida yashaydi. Bugungi kunda aynan qishloqlarda odamlarni ish bilan ta'minlash, daromad manbalarini oshirish keskin muammo bo'lib turibdi. Bu muammo yer va suv resurslarining cheklanganligi bilan bog'liq. Tabiiyki, bu masalani qishloq xo'jaligida o'z holicha hal qila olmaydi. Bu esa o'z navbatida qishloq aholisini ish bilan ta'minlash berasida bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Yuqorida qayd etilganidek, bunday sharoitda qishloq aholisi ijtimoiy turmushini yaxshilashga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Demak, aholi sonining muttasil o'sishi, mamlakatda tug'ilishning yuqori ko'rsatkichi saqlanib qolayotganligi (ayniqsa qishloq joylarida ko'p bolali oilalar nufuzining yuqoriligi), respublikada aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tizimini joriy etishni taqozo etadi;

O'zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibidan ajralib chiqib o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, aynan ushbu omillarni inobatga olingan holda, aholini ijtimoiy himoya qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ijtimoiy himoya tizimiga ko'ra, farzand tug'ilganda beriladigan to'lovlar saqlab

qolinishi bilan birga, nafaqalar va imtiyozlarning quyidagi turlari ham amalga oshirildi. Masalan, bola boquvchi onalarga to'lanayotgan nafaqaning miqdori ko'paytirilib, uning muddati ham uzaytirildi. 1991- yildan boshlab bunday yordam bir yarim yilgacha to'langan bo'lsa, 1994- yildan e'tiboran bu muddat ikki yilga uzaytirildi. Ishlovchi onalar ham, ishlamaydigan onalar ham, bu nafaqani oladiga bo'ldilar.

Ma'lum muddat ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarni, ishsizlarni, daromadi cheklangan shaxslarni, maktab o'quvchilarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, ikki yoshga yetmagan bolalar uchun, shuningdek, kamqonlik kasaliga duchor bo'lgan homilador ayollar uchun bepul ovqat, barcha maktab o'quvchilari va talabalarni imtiyozli ovqatlantirish kabi ijtimoiy imtiyozlar ham byudjet mablag'laridan to'lab turildi. Kommunal xizmatlar to'lovi, shahar transportida bepul yurish imtiyozlari "Qahramon onalar", Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, Afg'onistonda urushda bo'lgan internatsional jangchilarga nisbatan imtiyozlar ham saqlab qolindi.

Shunday murakkab sharoitda rejali yondashuv tufayli sezilarli ijtimoiy ziddiyatlarga duch kelgan O'zbekiston ayrim ijtimoiy muammolarni chetlab o'tishga muvaffaq bo'ldi. Oldindan ko'rilgan chora-tadbirlar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi. Aholida amalga oshirilayotgan islohotlarga va kelajakda ushbu inqirozlardan bemaol chiqib keta olishga nisbatan ishonch hissi paydo bo'ldi.

Ayniqsa bu borada amalga oshirilgan muhim islohotlardan biri, 1994- yil 28 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida"** gi qarorining qabul qilinganligi muhim voqeya bo'ldi. Ushbu qaror asosida "Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" gi Nizom qabul qilindi. Respublika "Mahalla" xayriya jamoat fondi va uning hududiy tuzilmalari joylarda ehtiyojmand va kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz qariya va nogironlar uchun moddiy yordamlar tashkil qilishi belgilandi.

Masalan, 1995- yil ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'ning 3 % onalarga ikki yoshgacha farzandlarini parvarish qilish uchun ajratilganligi buni yaqqol isbotlaydi. Ushbu tizim respublikada nafaqa va ish haqining eng kam miqdori bilan bog'liq holda shakllantiriladigan bo'ldi. Bu, avvalo pulning qadrsizlanishi oshgan sharoitda nafaqalarning ushbu turining indeksatsiyalanishini ta'minlashga xizmat qildi. Ayniqsa bolalarga beriladigan yigirmadan ziyod turli nafaqalar o'miga 1994- yilning sentyabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi. Bu borada 1995- yilda ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'larining 51 % farzandlarning ikki yoshga to'lgunlaricha parvarish qilish uchun ajratilgan.

Albatta, aholining ijtimoiy muhofazaga eng muhtoj qatlamlaridan biri – bu kam ta'minlangan oilalardir. Agar yaqin o'tinishga murojaat qilinsa, ularni davlat

tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996- yil 10 dekabrda "Bolali oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan voyaga yetmagan (16 yoshgacha bolalari bo'lgan, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha bolalari bo'lgan) oilalarga nafaqa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanib kelindi. 1995- yil 20 noyabrda "Bolali oilalarga davlatning ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni aholining zaif qatlamlariga moddiy yordam ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unga muvofiq, 1996- yil 1 apreldan 16 yoshgacha bo'lgan bolali oilalar uchun nafaqalar ota-onasining daromadlari miqdoridan qat'i nazar, barcha oilalarga to'langa boshladi. Ya'ni, 16 yoshgacha bo'lgan bolalarga to'g'ridan to'g'ri davlat yordami beriladigan bo'ldi.

Davlat tomonidan bolalarni boqish va tarbiyalashga qilinadigan sarf harajatlarning bir qismini oilalarga kompensatsiya tarzida berib turildi, ayni vaqtda ota-onalarning masuliyati kuchaytirildi. 5 va undan ko'proq bolali oilalar uchun nafaqaning eng ko'p miqdori eng kam ish haqining yarmi miqdorida, 1996- yilga kelib eng kam ish haqining to'la stavkasi asosida belgilandi.

1997- yil 1 yanvardan boshlab kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularning muhtojlik darajasini aniqlash, serfarzand oilalarga nafaqa belgilash "Mahalla" uyushmasi zirnasiga yuklandi. Mahallalar ko'magida birgina 1998- yilda respublikadagi 700 ming yoki umumiy oilalarning 11,8 foiziga kam ta'minlanganligi uchun moddiy yordam ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan moddiy yordam miqdori har oilaga hisoblaganda har oyda 1730 so'mdan ortiqni tashkil etgan. Shu asosda 1998- yilda bolali oilalarning 36% i nafaqa olgan. O'rtacha nafaqa miqdori bitta oilaga deyarli 1483 so'mga to'g'ri kelgan yoki (1996- yilga nisbatan) besh barobar o'sgan. Bu davrda bir oylik moddiy yordam miqdori 600 so'mdan 8186 so'mga, ya'ni 13,6 barobarga o'sgan. Bu esa aholiga ijtimoiy moddiy yordam samaradorligining yildan yilga oshib borganligini ko'rsatadi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 1992-1996 yillarda sobiq ittifoqning ko'pgina mamlakatlari aholining asosiy qismi yoppasiga qashshaoqlashgan bir paytda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tadbirlar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa odamlarning islohotlarni jadallik bilan olib borishga ishonchini kuchaytirdi.

Bu borada muhim yangiliklardan biri, xarajatlarning bir qismi byudjet mablag'lari hisobidan qoplandi. Shu bilan birga qo'shimcha imtiyozlar ham joriy qilindi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari va yolg'iz pensionerlar uchun bepul nonushtalar, 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bepul ovqat, maktab o'quvchilari va talabalar uchun ovqatlar arzonlashtirildi. Shuningdek, ko'pgina toifadagi fuqarolarga turar-joy shaxsiy mulk qilib bepul berildi, ba'zi turdagi kommunal xizmatlar haqini to'lashda yengilliklar joriy etildi.

Aholining kam ta'minlangan qatlamlarining davlat tomonidan moddiy ta'minlash doimiy ravishda takomillashtirib borilmokda. 1997- yil sentyabr

oyidan boshlab, har yili 1-sinf o'quvchilariga bepul o'quv anjomlari, darsliklarni berish joriy etildi, kam ta'minlangan oilalarning boshlang'ich sinflarda o'qiydigan bolalariga bepul qishki issiq kiyimlar berish yo'lga qo'yildi.

Masalan, 1998- yilda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali respublikadagi 700 ming yoki umumiy oilalarning 11,8 foiziga kam ta'minlanganligi uchun moddiy yordam ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan moddiy yordamlar miqdori har oilaga hisoblaganda bir oyda 1730 so'mdan ortiqni tashkil etgan. Shu asosda 1998- yilda bolali oilalarning 36% i nafaqa olgan. O'rtacha nafaqa miqdori bitta oilaga deyarli 1483 so'mga to'g'ri kelgan yoki (1996- yilga nisbatan) besh barobar o'sgan. Bu davrda bir oylik moddiy yordam miqdori 600 so'mdan 8186 so'mga, ya'ni 13,6 barobarga o'sgan.

Ayniqsa Respublika Prezidentning 1999- yil 13 yanvarda "**Aholini aniq yo'naltirgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda** fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida" gi Farmoniga asosan, 1999- yil 1 martdan boshlab aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi choratadbirlar bilan bir qatorda mahalla o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali ishlamaydigan onalarga, bolasi 2 yoshga yetgunga qadar parvarish qilish bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vakolatlari berildi. Boshqa sohalaridan farqli ravishda davlatning umumiy byudjetidagi katta qismi ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2006- yilda qabul qilingan "Davlat byudjeti" to'g'risidagi Qonunga asosan ijtimoiy himoya uchun 2007- yilda 39103,6 mln so'm miqdorida, 2008- yilda esa 56730,2 mln so'm miqdorda davlat byudjetidan mablag'lar ajratilgan. Ushbu raqamlar keyingi yillarda ham o'sgan. Masalan, faqatgina 2014- yilning o'zida birgina ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi 23,2 foiz, aholining real daromadlari 10,2 foizga ko'paygan. Jumladan, 2016- yilgacha bo'lgan so'nggi besh yil ichida respublika bo'yicha ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash uchun 1 milliard 976,8 million so'm, 6838 nafar fuqaroning salomatligini tiklashga 1 milliard 272 million so'm, 2336 nafar kishining uy-joyini ta'mirlashga 1 milliard 501 million so'm yo'naltirilgan.

Ammo ushbu tizimda ayrim muammolarga yo'l qo'yilganligini ham qayd etish lozim. V. Ishqivatovning yozishicha, qator yillar aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bular, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga nafaqa belgilash va to'lash tizimidagi kamchiliklar, haqiqatdan ham muhtoj oilalarga moddiy yordam ko'rsatish va to'lashda lavozimini suiste'mol qilish (bu ko'rsatkich respublika bo'yicha 0,3 1,4% darajasida) holatlari, muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'larning ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarda ishlatilishi va hokazolardir. Masalan, 1996- yilda Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijasida respublika bo'yicha 26 mahallada 262 iring so'm mablag' qing'ir yo'llar bilan boshqa maqsadlarga o'zlashtirilgani aniqlangan.

Mamlakatda hukumat tomonidan tuzilgan maxsus komissiyalarning 1998 yildagi tekshirishlari shuni ko'rsatganki, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga nafaqa belgilash va to'lash tizimida quyidagi kamchiliklar eng ko'p uchragan. Haqiqatdan ham muhtoj oilalarga moddiy yordam ko'rsatishni asossiz rad etish va lavozimini suiiste'mol qilish, muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish uchun ajratilgan mablag'larning ko'zda tutilgan boshqa maqsadlarida ishlaltilishi shular jumlasidandir.

Agar mazkur kamchiliklarni respublika miqyosida tahlil etadigan bo'lsak, birgina 1997-1998 yillarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalar tayinlash bo'yicha Qashqadaryo viloyatida 629 ta oilaga 2 mln. so'm, Buxoro viloyatida 567 ta oilaga 1,5 mln so'm, Samarqand viloyatida 194 oilaga 992 ming so'm, Namanganda 249 ta oilaga 423 ming so'm, Xorazm viloyatida 82 ta oilaga 304,6 ming so'm pul mablag'lari moddiy yordam tariqasida noqonuniy to'langan.

Vaholanki, O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlashni tashkil etish Boshqarmasi hisobotida davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning o'z egalariga yetkazilishi 1997- yilda 93,1 % ga, 1998 yilda 98,3 % ga, 2001- yilda esa 99,0 % ga bajarilgan, deb ko'rsatilgan.

2016- yildan etiboran Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi natijasida mamlakatda barcha sohalarda jadal yangilanishlar va islohotlarning yangi davriga qadam qo'yildi. Ushbu yo'nalishda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining moddiy ahvolini yaxshilanishiga, ularning murojaatlarini hal qilinishi uchun ko'plab shart sharoitlar yaratib berishga erishildi. Ayniqsa qator yillar bu boradagi kamchiliklarni ariqlash va bartaraf qilish bo'yicha amaliy qadamlar qo'yildi. 2017- yildan boshlab joriy etilgan xalq bilan faol muloqot olib borish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida respublikamiz shahar va qishloqlariga tashriflar uyushtirilishi yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 2018- yil 1 apreldan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika **“Jamoatchilik nazorati ishchi guruhi”** vakillar joylarda ijtimoiy holatni o'rganish maqsadida, aholini qiyinayotgan va “Xalq qabulxona”lariga kelib tushayotgan shikoyatlar yechimi yuzasidan reydlar uyushtirilib, ko'pgina muammolar o'sha yerlarning o'zida hal etilgan. Ushbu tizim bugungi kunda ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoev 2018- yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd qilganidek, “Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, ularni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, 2019- yil – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur”. Buning uchun quyidagi startegik vazifalarni amalga oshirish lozim, deya qayd etadi Prezident.

Birinchidan, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim. Hukumat bir oy muddatda 2019- yil uchun bandlikka



ko'maklashishning yangi davlat dasturini tasdiqlashi kerakligi topshirildi. Bu borada ishsizlarni kasbga o'qitish, ularga huquqiy va boshqa maslahatlar berish hamda boshqa ijtimoiy yordam usullaridan keng foydalanish kerak. Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur. Unga ko'ra eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliqlik va boshqa to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berishligi hamda Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu masalani hal etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarurligi belgilandi. Yangi qabul qilingan Prezident farmoniga ko'ra, 2019- yil 1 yanvardan boshlab, ishlaydigan barcha pensionerlarga ish haqi bilan birga, pensiyalar ham to'liq miqdorda to'lana boshlandi. Zero, ijtimoiy himoyaning yangi tizimiga ko'ra, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etildi.

Ayniqsa so'nggi yillarda fuqarolar farovonligini oshirish, ularning hayot tarzini yaxshilash uchun **"Xalq davlat idoralariga emas balki, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak"**, degan g'oyani hayotga tatbiq etilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, aholining yaxshi yashashi uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham o'z aksini topgan. Unda aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish masalalari ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida **"Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi"**, — deb belgilangan. Davlatning ijtimoiy adolat va demokratiya qoidalariga sodiqligi Konstitutsiyaning **"Muqaddimasi"**da ham qayd qilingan. Lekin faqatgina davlating kuchli ijtimoiy siyosati bilangina jamiyatda adolatni o'rnatib bo'lmaydi. Bunda nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoatchilik, siyosiy partiyalar ham adolat tamoyillari asosida ish olib borishlari muhim.

2020- yil 24 yanvarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Milliy parlament Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ijtimoiy masalalarga ham alohida ahamiyat qaratdi. Ya'ni so'nggi yillarda **"Inson manfaatlari hamma narsadan ustun"**, degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettirish zarur. Bunda, birinchidan, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini

kuchaytirish chekka hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligini inobatga olish lozim

“Hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda kam ta‘minlangan aholi taxminan 12-15 foizni tashkil etadi. Bu kichkina raqamlar emas, balki 4-5 million aholi vakillari haqida ketayapti, deydi Prezident. Ba‘zi odamlar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to‘lash yoki ular miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal qilish mumkin, deb o‘ylaydi. Bu – bir tomonlama yondashuv bo‘lib, muammoni to‘la yechish imkonini bermaydi. Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish zarur. Shuning uchun, Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish Dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag‘allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif qilaman. Bunda xalqaro me‘yorlar asosida chuqur o‘rganishlar o‘tkazib, kambag‘allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash uslublarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim”. degan edi davlat rahbari.

### **3. Mustaqillik yillarida ma‘naviy hayot, madaniyat, ta‘lim va fan.**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng asrlar davomida xalqning orzusi hisoblangan ma‘naviy, milliy va diniy qadriyatlarni tiklandi. Zero, ma‘naviy-diniy qadriyatlar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o‘zligimizni tasavvur eta olmaymiz.

Madaniyat va ta‘lim insonning ma‘naviy dunyosi, saviyasini yuksaltirishga xizmat qiluvchi sohalaridir. Madaniyat va ta‘lim turli usullar orqali insonga singdiriladi. Bular oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari, muzeylar, kutubxonalar, kino teatr va musiqa maskanlari, jamoat tashkilotlari va boshqalardir. Madaniyat va ta‘lim tom ma‘noda inson ma‘naviy faoliyatining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Bu xususda shuni qayd etish zarurki, agar o‘tmishga murojaat qilsak, ma‘naviy madaniyatning asosiy manbalari sifatida zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto», islom dinining muqaddas kitobi Qur‘oni Karim, hadislar, “Qobusnoma”, “Zafarnoma”, “Boburnoma”, “Temurnoma”, Abu Rayhon Beruniyning «O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abu al-Imon Sinoning «Tib qonunlari», Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshbandiylarning tariqatari, Abu Nasr al-Forobiyning falsafiy qarashlari, Sohibqiron Amir Temurning o‘g‘itlari va boshqa manbalarni keltirish mumkin. “Buyuk alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqadigan joyda, avvalo, ilmu ma‘rifat, madaniyat va ma‘naviyat o‘choqlari rivojlangan. Bo‘m-bo‘sh joyda hech qachon buyuk sivilizatsiya paydo bo‘lmaydi. Jahon tarixi buni ko‘p-ko‘p misollarda isbotlab beradi”.

Madaniyat va ta'limning muhim asoslaridan biri bu ilmdir. Ma'rifiy va axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilmi – fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, hunar egallashga ishtiyoq bo'lmaydi. Shu sababli, jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avvalo o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalab, ularni ta'limli qilishga muhim ahamiyat qaratilgan.

Mustaqilligimiz tufayli muhim voqeyelik, bu madaniyat va ta'lim orqali xalq dunyoqarashini kengaytirishga erishildi. Bunda madaniyat va ta'lim maskanlari muhim rol o'ynamoqda. Buning barobarida mamlakatimiz, xususan Toshkent shahrida ko'plab madaniyat va ta'lim maskanlari, koshonalar barpo etilmoqdadiki, biz ular bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Masalan, Toshkent shahrida bunyod etilgan va xalqimizning madaniyat maskanlariga aylangan ulug'vor koshonalar, jumladan Alisher Navoiy nomidagi **Milliy kutubxona va Simpoziumlar saroyini** o'z ichiga olgan **Ta'lim markazi, Yoshlar ijod saroyi, Tasviriy san'at galereyasi**, «Minor» masjidi kabi har biri milliy va zamonaviy me'morchilikning noyob namunasi bo'lgan o'nlab binolar mavjud. Bularning yanabir isboti sifatida o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" kitobida qayd etganidek "Mamlakatimizda 2009-2014 yillarda yangi madaniyat maskanlari ya'ni, 136 ta yangi musiqa va san'at maktabi qurildi. Ayni vaqtda 142 ta ana shunday maktab kapital rekonstruksiya qilinib, qayta jihozlandi. Miqyosi va ko'lamiga ko'ra g'oyat ulkan bo'lgan ushbu ishlarni amalga oshirish uchun 634 milliard 4 million so'm hajmida mablag' sarflangani bu sohaga qanday katta e'tibor qaratayotganimizni ko'rsatadi.

2018- yilgacha mamlakatimizda 3500 dan ortiq madaniy yodgorliklar ro'yxatga olingan bo'lib, birgina Madaniyat ishlari vazirligi tizimida turli sohalar bo'yicha 68 ta muzey mavjud, bular 21 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy, 14 memorial, 5 ta adabiy-memorial, 7 ta badiiy, 1 ta tabiiy-ilmiy muzeylardir. Hukumatimiz tomonidan xalqimizning o'z milliy o'zligini anglashni yanada jadallashtirishni e'tiborga olib, 1994- yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998- yil 12 yanvardagi «Muzeylar faoliyati tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni esa muzeylar ishida tubdan burilish yasadi.

Madaniyat va ta'lim komil insonni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi hisoblanadi. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hua tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Barchamizga ayonki, mustaqillik yillarida ta'lim tizimi faoliyatida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. 1997- yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasining "**Ta'lim to'g'risidagi qonuni**" va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Unda shunday deyiladi: «Inson, uning har tomonlama

uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va unumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir... Ushbu qonun 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonundan o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra tubdan farq qilar edi.

Jumladan 2003- yilda mamlakatda 9702 umumta'lim maktablarida 6 mln. 272000 o'quvchiga 500 ming dan ortiq pedagog o'qituvchilar ta'lim-tarbiya bergan bo'lsa, 51 ta akademik litseylarda 30620 o'quvchi 419 kasb-hunar kollejlari esa 285 685 yigit-qizlar hunar egallaganlar. 1991- yili O'zbekistonda 52 oliygoh bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda ularning soni 63 taga yetgan. 2014- yilda esa hammasi bo'lib 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilangan. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflangan. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi.

2015-2020 yillar oralig'ida esa 500 ta umumta'lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, jumladan, 101 ta yangi maktab barpo etish va 810 ta kasb-hunar kolleji va akademik litseylarni kapital ta'mirlash rejalashtirilganligi xususida ham mazkur kitobda qayd etiladi. Ushbu amalga oshirilayotgan islohotlardan oliy ta'lim tizimi ham mustasno emas, albatta. Mamlakaumiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek "2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

Ta'limga e'tibor, bu madaniyat va ta'limga e'tibordir. "Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish va islox, etishga yunaltilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki maxsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu soxaning davlat byudjeti xarajatlardagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bun- day kursatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNISEF, YUNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmeqda".

**Ma'naviy va diniy qadriyatlar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991- yil 11 aprel va 20 iyundagi farmonlariga binoan "Iyd al-Fitr" (Ro'za) va "Iyd al- Adxo" (qurbon) hayitlari yurtimizda dam olish kunlari deb e'lon qilindi. **Qur'oni Karim** bir necha bor nashrdan chiqarilib 1 million nusxada chop etildi. Qur'oni Karimning o'zbekcha izohli tarjimai musulmonlarga tuhfa etildi. Imom Buxoriyning to'rt jildlik Hadislar kitobi o'zbek tilida nashr etildi.

Bugungi kunda Respublikamizda minglab masjidlar faoliyat olib bormoqda. Har yili minglab yurtdoshlarimiz haj safariga borish imkoniyatiga ega

bo'lmog'dalar. Muqaddas umra va haj amallarini bajarib kelmoq'dalar. XX asrning 80-yillarida sobiq Ittifoq bo'yicha har yili 25-30 kishi haj ziyoratiga borgan bo'lsa, 1991- yilda O'zbekistondan 1500 fuqaro, 2000 yilda esa 4 mingga yaqin fuqaro haj ziyoratiga borib keldi. Bugungi kunda ularning soni 6 mingdan oshib ketdi. Eng asosiysi – bag'rikenglikning muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo va dinlararo totuvlik ta'minlandi.

Mustaqillik yillarida qadimiy ajdodlarimizning ezgu g'oyalari, milliy davlatchilik an'analari, turmush tarzi va mentalitetini aks ettirgan muqaddas "Avesto" o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi. Mustaqillik yillarida birgina Toshkent shahrida "Turkiston" saroyi, Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog', Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Milliy akademik teatr binosi va g'oyat go'zal, mahobatli koshona – O'zbekiston Davlat konservatoriyasi hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat Milliy kutubxonasining yangi binosi, Anjuranlar saroyi kabi ko'plab inshootlar barpo etildi. 2000 yili poytaxtimizning Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi hiyoboni" va keyinchalik shu nomda muzey va jamg'arma tashkil qilindi. 2001- yildan e'tiboran 31 avgust kuni yurtimizda qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida nishonlanadigan bo'ldi.

XX asr oxiriga kelib insoniyat jamiyatda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlarning yangi davriga qadam qo'ydi. Dunyo siyosiy xaritasida O'zbekiston davlati paydo bo'ldi. Kommunistik mafkura barham topib, O'zbekiston vatanimiz tarixining sifat jihatidan yangi davrini boshdan kechira boshladi. Bu avvalombor o'zbek halqiga o'z ona yurtida o'zini chinakam erkin his qilish, barcha halqlarga ularning haqiqiy milliy o'zligini, madaniyatini, milliy an'alarini hamda ma'naviyatini tiklanishiga imkon berdi. Mustabid «kommunistik mafkura»dan voz kechildi. O'zbekiston xalqi o'z milliy g'oyasi negizlariga tayangan holda rivojlanish yo'lini tanladi.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridan boshlab jamiyatni g'oyaviy, mafkuraviy, ma'naviy yo'nalishda isloh qilish muhim strategik vazifa sifatida kun tartibiga qo'yila boshlandi. Bu esa O'zbekistonning ilgangi kommunistik mafkura asosida shakllangan eski qarash va g'oyalardan holi **milliy g'oya** va **milliy mafkurani** shakllantirish vazifasini qo'ydi.

Ammo g'oya o'z-c'zidan inson ongiga, tafakkuriga singib, ishonch va e'tiqodiga aylanib qolmaydi. Bunga har bir inson o'z hissasini qo'shmog'i kerak. Milliy g'oyani mazmun-mohiyati, namoyon bo'lishi, uni xalqimiz qalbiga singdirish yo'llari va usullari ushbu fanning asosiy mohiyatini belgilaydi. Uning tushuncha va nazariyalari hamda kategoriyalari bir butun, yaxlit fan va ta'limot shaklida namoyon bo'ladi.

Agar uzoq va yaqin o'tmishimizga nazar solsak, bugungi yuz berayotgan ma'naviy, ma'rifiy o'zgarishlar, islohotlarning ijobiy natijalariga mustaqillikning ilk kunlaridayoq tamal toshi qo'yilgan edi. Shunday mas'uliyatli paytda mafkura masalalariga qo'l urish va bu xususda bahs yuritish katta jasorat va tinimsiz mehnatni talab etdi. Ta'lim tizimi oldida turgan muhim masalalardan biri esa, o'z g'oyaviy hamda mafkuraviy qarashlariga ega bo'lgan ajdodlarimizdan bizga

meros bo'lib kelayotgan buyuk milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat edi. Bu esa milliy g'oya va mafkura masalalarini alohida olingan predmet sifatida o'qitishni dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ydi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarni qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha respublika muvofiqlashtirish komissiyasi» kengaytirilgan majlisining 2000 yil 30 sentyabrda «Milliy g'oya» fanini uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish haqida»gi Qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra **2000-2001 o'quv yilining** 2-choragidan e'tiboran umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quv rejasidagi 7-9-sinfilar uchun «Ma'naviyat asoslari» o'miga **«Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari»** o'quv fani joriy etildi. 2000 yil 9 oktyabrda Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bu masalani yana bir bor ko'rib chiqib, uni hayotga joriy qilish uchun o'z rejalarni belgilab oldilar.

2001- yil 18 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi. Shuningdek, 2006- yil 25 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi qarori ham e'lon qilindi.

Qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi "Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi" Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan "Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" ga aylantirildi.

Ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar natijasida qator yillar Respublika oliy ta'lim tizimida "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kursi 4-kurs bakalavr va magistraturaning 2-kurslarida o'qitib kelindi. 2010- yildan boshlab barcha ta'lim muassasalarida "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani o'qitib kelindi.

Zero, milliy g'oya birinchidan, g'oyalar to'g'risidagi mavjud qarashlarga, nazariyalarga hamda mamlakatimizning davlatchiligi, xalqimizning tarixiy merosi bilan bog'liq mutafakkirlarning g'oyalariga tayaradi. Ikkinchidan, mustaqillik yillarida milliy ma'naviyatimiz to'g'risidagi muhim konseptual g'oyalar va qarashlarga, unda O'zbekistonning o'ziga xos mafkuraviy taraqqiyoti, hamda xususiyatlariga tayanadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni, o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari ham muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizda milliy g'oyani shakllanishi ijtimoiy hayotimizning biron-bir sohasi bilan chegaralanib qolmaydi. Balki, uning barcha jabhalaridagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi va o'rganadi. Bunda jamiyat ijtimoiy, siyosiy hayotidagi tub o'zgarishlar, milliy ma'naviyatimiz, tariximiz, madaniyatimiz, dinimiz, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlar asosiy o'rin egallaydi.

Milliy g'oyani singdirishning asosiy maqsadi va vazifalari shundan iboratki, fuqarolarga, ayniqsa yoshlarga xalqimizning milliy-ma'naviy negizlari, ya'ni milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari, uning o'ziga xosligi, mazmuni hamda mohiyati, asosiy tamoyillari, hozirgi mafkuraviy xurujlar sharoitida milliy g'oyaga ehtiyojning ortishi, bunyodkor va vayronkor g'oyalarga qarshi kurashning zarurati, bu borada davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamlı chora-tadbirlarni singdirishdan iborat. Shu bilan birga, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning ijtimoiy-siyosiy omillari, oila, mahalla, ta'lim tizimi va boshqa tuzilmalarning g'oya va mafkurani shakllantirishdagi o'rni, g'oyaviy tahdidlar hamda ularning yo'nalishlari mafkuraviy bo'shliq, mafkuraviy immunitet tushunchalari va mazmuni haqida ma'lumotlar haqida keng qamrovli ma'lumot berish, fuqarolarda milliy g'urur, milliy ifxor, vatnparvarlik tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Uning maqsad va vazifalari shu bilan birga fuqarolar ongida tarixiy merosimiz, ma'naviy qadriyatlarimiz, muqaddas dinimizga hurmat hissini shakllantirishda ham o'z aksini topadi.

O'zbekiston ko'p millatli davlat. Jamiyatimizda **millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik** muhim o'rin tutadi. Albatta mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning ham o'z dunyoqarashi, milliy mentaliteti, g'oyaviy va diniy qarashlari mavjud. Shu boisdan biz shakllantirayotgan milliy g'oya o'z mazmunida boshqa xalqlarning ham qiziqishlarini, orzu intilishlarini, maqsad va muddaolarini o'zida aks ettiradi. Shu boisdan 7 ta asosiy tamoyilga tayanuvchi milliy g'oya zahirida millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyilining aks etishi, uning umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi, xalqchil jamiyat mafkurası ekanligidan dalolatdir. Demak, biz shakllantirayotgan g'oya mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning tili, dini, millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar g'oyaviy jihatdan birlashtirishga va tarbiyalashga xizmat qiluvchi jamiyat g'oyasi va mafkurasidir.

Ko'pmillatli mamlakatda milliy g'oya bugungi kunda yanada takomillashtirilib yangicha ruhda **"Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari"** bosh g'oyasiga tayanmoqda. Milliy g'oyaning nazariy vazifasi: jamiyatda g'oyaviy, mafkuraviy masalalarni hal qilish va fuqarolar ongida ilmiy, nazariy tushunchalar va dunyoqarashni shakllantirish hamda mustahkamlashdan iborat. Bunda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oliy Majlis qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va hujjatlari, Prezidentning Milliy g'oyani shakllantirish va targ'ib qilishga oid farmonlari, qarorlari nazariy yo'llanma bo'la oladi. Shu bilan birga tarixiy ma'naviy qadriyatlarimiz, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ulkan ma'naviy merosi ham biz tayanishimiz zarur bo'lgan muhim nazariy yo'llanmadir.

Uning amaliy vazifasi – fuqarolarning o'z dunyoqarashi, g'oyalarni hayotda izchillik va qat'iyat bilan amalga oshirishlari, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularning o'z mustafkam fuqarolik pozitsiyasida tura olishlari uchun xizmat qiladi. Odamlar ongini turli salbiy illatlardan xalos qilishda, bunyodkor g'oyalarni

shakllantirishda va un: amaliyotda qo'llay bilishda, kelajak avlodlarga yetkazishda o'z aksini topadi. Chunki, bu jarayon odamlar ongida amalga oshirilmas ekan, mamlakatimizning, jamiyatimizning, odamlarning tinchligi va totuvligi mustahkam bo'la olmaydi, mamlakat xavfsizligi, barqarorligi va xalq baxt-soodatiga erishib bo'lmaydi.

**Jismoniy tarbiya va sport.** Mustaqillik yillarida davlatimiz barkamol avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning o'rni beqiyosligini inobatga olgan holda bir qator chora-tadbirlarni qo'llab, ularni amalga oshirishga erishdi. Xususan, bu borada eng muhim choralardan biri hukumatimizning 1999- yil 27 maydagi "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yoshlar o'rtasida olib berilayotgan ommaviy sport ishlarining yanada takomillashuviga turtki bo'ldi. Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida bolalar sporti rivojlandi. 545 ta sport seksiyalari tashkil etilib, ularga 224965 nafar o'quvchi yoshlar jalb etildi. Sog'lomlashtirish guruhlariga esa 13760 ta o'quvchilar qatnasha boshladi.

Respublikamiz yoshlarining sport bilan shug'ullanishlari uchun yanada keng imkoniyatlar ochib berishda Prezidentning 2002- yil 24 oktyabrdagi "O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jang'armasini tuzish to'g'risida"gi farmoni ham muhim rol o'ynadi. Davlat rahbari rahnamoligida o'tgan davr mobaynida yurtimizda sport sohaslarini rivojlantirishda ajoyib yutuqlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlar, ayniqsa, boks, tennis, o'zbek kurashi va jahon miqyosida o'tkazilgan shaxmat musobaqalarida yaqqol ko'zga tashlandi.

Masalan, 1998- yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari jahon miqyosida katta yutuqqa erishdilar. Ular Himolay tog' tizimidagi dunyoning eng baland "Everest" cho'qqisiga chiqib, mamlakatimiz dovrug'ini yana bir marta dunyoga tarannun etishdi. Mustaqillik yillarida yurtimizda dunyoda o'xshashi bo'lmagan uch bosqichli sport musobaqalari tizimi yaratildi. An'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" hamda "Universiada" sport musobaqalari yosh avlodni sport sohasida o'z iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarishi, eng muhimi sog'lom va barkamol bo'lib yetishi uchun yangi-yangi imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Mustaqillik imkoniyatlari tufayli Vatanimizda tennis eng ommaviy sport turiga aylandi. Poytaxtimizning "Yunusobod" tennis majmuasida bir necha marta xalqaro Prezident kubogi bo'lib o'tdi. 1999- yilning iyul oyida Londonda yoshlar o'rtasidagi xalqaro musobaqada toshkeatlik sportchi Iroda To'laganova Uimblon uchrashuvining g'olibi bo'ldi.

2000- yil O'zbekiston Respublikasi sporti tarixida muvaffaqiyatli yil bo'ldi. Saralash musobaqalarida g'olib chiqqan 77 sportchimiz 13 sport turi bo'yicha Avstraliyaning Sidney shahrida bo'lib o'tgan XXVII Olimpiada o'yinlarida qatnashishga muayassar bo'ldilar. Olimpiadachilarimiz 1 oltin, 1 kumush va 2 bronza medallarini qo'lga kiritib, 200 mamlakat o'rtasida 41-o'rinni egalladilar.

Sobiq sovetlar davrida shaxmat bo'yicha bitta grossmeyster tayyorlangan bo'lsa, endilikda ularning soni 11 nafar bo'ldi. Shu yili Turkiyada bo'lib o'tgan



Jahon shaxmat olimpiadasida hamyurtlarimiz 120 dan ortiq mamlakatlar ichida fahli 11-o'rinni egalladilar. Respublikamizning shaxmat bo'yicha chempioni Rustam Qosimjonov esa o'z taxtasida bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Albatta o'sha kezlarda bokschilardan Artur Grigoryan, Muhammadqodir Abdullaev, O'tkirbek Haydarov, To'liqinboy Turg'unovning nomlari ham jahon bo'ylab yangradi. Keyinchalik 2000- yilda Avstraliyaning Sidney shahrida o'tkazilgan XXVII yozgi Olimpiada o'yinlarida hamyurtlarimizdan Muhammadqodir Abdullaev oltin, Artur Taymazov kumush, Sergey Mixaylov va Rustam Saidov bronza medaliga sazovor bo'lishdi. O'zbek kurashi bo'yicha jahon chempionati o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Bu musobaqalarda Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvon kabi sportchilarimizning nomlari butun jahonga taraldi.

Muhim yuqulardan yana biri 2008- yildagi Pekin olimpiadasida hamyurtimiz Abdulla Tangriev kumush medali sohibi bo'ldi. Istiqlol yillarida yurtimizda karate federatsiyasi tuzilib, yosh iste'dodlarni jahonga tanitmoqda. Masalan, Bekobodlik Farrux, A'zam va Parviz Abdumavlonovlarning erishgan yutuqlari bilan xalqimiz faxrlanadi

2009- yilda nogironlar o'rtasida o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionatida hamyurtlarimiz faxrli birinchi o'rinni egalladi. Ayniqsa, 2010- yilning iyun-iyul oylarida Janubiy Afrika Respublikasida futbol bo'yicha o'tkazilgan XIX jahon chempionatida hamyurtlarimiz Ravshan Ermatov va Rafael Ilyasovlar chempionatning haqiqiy hakamlari bo'ldilar.

Davlatimiz sog'lom avlod tarbiyasida sportning muhim ahamiyatiga va uni tinimsiz rivojlantirish ishlariga g'amxo'rlikni davom ettirdi. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish ishlariga, bu boradagi islohotlarga shaxsan o'zi rahnamolik qilmoqda. Masalan, **"Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi"** mablag'lari hisobidan 1113 ta bolalar sporti ob'ekti, jumladan, 252 ta yangi sport kompleksi, 861 ta sport zali barpo etilgani, bularning 84 foizi qishloq joylarda qurilganini ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari, faoliyat ko'rsatayotgan 262 ta sport inshooti rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Bu maqsadlar uchun 570 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Navoiy shahrida 10 ming o'rinni yangi stadion, Nukus shahrida tennis maktabi, viloyatlarda 12 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi foydalanishga topshirilganligini aytib o'tish joizdir. Natijada, ayni paytda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan qariyb 1 million 600 ming bola yoki yurtimizdagi bolalarning 35,6 foizi turli sport turlari bilan muntazam shug'ullandi.

2010- yilga kelib yangitdan bunyod etilgan bolalar sporti ob'ektlarida faoliyat ko'rsatayotgan 57,5 mingdan ortiq sport seksiyalarida 1 million 800 ming nafardan ziyod bola sport bilan shug'ullangani va buning natijasida har qaysi sport inshootining kundalik o'rtacha bandlik darajasi 9,2 soatga yetgani, hych shubhasiz, faoliyatimizning eng muhim samarasidir.

2005-2010 yillarda mamlakatimizning barcha viloyatlarida namunaviy loyihalar asosida hajmi 25 metrga 12 metr bo'lgan 14 ta yangi, zamonaviy yopiq

suzish havzasi barpo etildi, 13 ta suzish havzasi qaytadan qurildi, 83 tasi kapital ta'mirlandi. Shu davrda 110 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, ularning umumiy soni bugungi kunda yurtimiz bo'yicha 203 taga yetdi. Yaratilgan bunday keng imkoniyatlar bolalarning suv sporti turlari – suzish, sinxron suzish, suvga sakrash, vaterpol bilan ommaviy ravishda shug'ullanishi uchun xizmat qildi.

Germaniyada bo'lib o'tgan suzish bo'yicha xalqaro musobaqada 2012- yili mamlakatimiz terma jamoasi 9 ta oltin, 9 ta kumush va 6 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Ana shu bellashuvlarda juda faol ishtirok etgan 12 yashar Amirbek Usmonov dunyoning manaman degan davlatlaridan kelgan tengdoshlarini ortda qoldirib, 5 ta oltin va bitta kumush medalni qo'lga kiritgani tahsinga sazavor. O'sha paytlarda mamlakatda **1 million 800 ming** nafardan ortiq bola 30 dan ziyod sport turi bilan muntazam shug'ullangan. Bu raqam, 2003 yilga nisbatan olganda, 1,4 barobar ko'pdir. Shu davrda maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb etish 20,4 foizdan 40,5 foizga, jumladan, qizlar o'rtasida 16,4 foizdan 32,5 foizga o'sgani albatta hammamizni quvontiradi.

So'nggi o'n yilda qishloq joylarda bolalarning sport bilan shug'ullanishi 14,5 foizdan 39 foizga o'sganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda qishloqlarda sport bilan muntazam ravishda shug'ullanadigan bolalarimiz soni 2003- yilga nisbatan ikki barobar ko'pdir. Mamlakatimizda 2003-2012 yillarda 23 mingga sport tadbiri o'tkazilgan bo'lsa, ularning qariyb 17 mingtasi qishloq joylarda tashkil etilganini aytilish lozim. Ana shu tadbirlarda 10,5 milliondan ortiq bola, jumladan, qishloq joylarda yashaydigan 7,6 million nafar o'g'il-qizlarimiz ishtirok etdi. Toshkent shahrida xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy **“Bunyodkor”** va **“Lokomotiv”**, Bekobod shahrida **“Metallurg”** futbol stadionlari bunyod etildi. Sport kurashi bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya xaxiralari maktabi tashkil qilindi.

#### 4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqlilik asosida diplomatik, savdo, iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy hamkertlik qilish yo'lini tutdi. Xususan 2010- yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalari o'rnatdi. Toshkentda 42 ta davlat elchixonasi, 1 ta bosh konsullxona, 9 ta faxriy konsullik, 10 ta xalqaro tashkilot vakolatxonasi, 5 ta xalqaro moliyaviy tashkilot vakolatxonasi, 3 ta savdo tashkiloti vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

Eng muhim voqeyalardan biri 1992- yil 2 martda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'ldi. 1993- yil **BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida** Prezident I.A.Karimov ma'ruza qildi. 1995 yil BMTning 50 yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning tantanali yig'ilishida asosiy e'tibor bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda, yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorism, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratildi. Shu

bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun o'ta dolzarb masala Orol muammosining ko'tarilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga O'zbekiston jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan xalqaro muammolardan biri bo'lgan terrorizm, uyushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashish, diniy ekstremizm masalalariga o'z e'tiborini qaratdi. Davlatimiz rahbari o'tgan vaqt davomida dunyoning ko'pgina notinch mintaqalarida, jumladan, Afg'oniston hududida ildiz otgan diniy aqidaparastlik va terrorizm xavfidan jahon jamoatchiligini birinchilardan bo'lib ogoh etdi. 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida, 1995-yil 2 martida Kopengagendagi xalqaro konferensiyasida bu borada o'z takliflari bilan chiqdi.

1995-yil 15 sentyabrda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent seminar kengashida, 1995-yil 24 oktyabrda BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan maxsus tantanali yig'ilishda, 1999-yil 18 noyabrda YEXHTning Istanbul sammitida, 2000-yili BMT Bosh Assambleyasining sammitida va boshqa nufuzli anjumanlardagi chiqishlarida O'zbekiston rahbari I.A.Karimov Afg'onistonning dahshatli vayronkorlik kuchiga ega xalqaro terrorizm o'chog'iga aylanib qolganidan dunyo jamoatchiligini ogohlantirdi. Bu xatarning oldini olish bo'yicha ko'plab amaliy choralarni taklif qildi.

Birinchi galda xalqaro terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlarni birlashishga da'vat etdi. Aynan ushbu g'oyaning amaliy natijasi o'laroq 2001-yil 28 sentyabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorchilikka qarshi kurash qo'mitasining tashkil etilishi bilan u amalda o'z ifodasini topdi. Afg'oniston mintaq va xalqaro xavfsizligiga eng katta xavflardan biri ekanligini ta'kidlab, uzoq yillardan buyon ushbu masala yuzsidan ilgari surilib kelinayotgan **6+2 dasturini** 6+3 ga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu tashabbus I. Karimovning 2008-yil 3-4 aprel kunlari NATO ning Buxaristdagi samitida ilgari surildi.

O'zbekiston Respublikasi NATO ning kollektiv xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan «Tinchlik yo'lida hamkorlik» loyhasini 1994-yilning iyulida imzoladi hamda 1995 yilning iyul oyida ushbu dasturga qo'shildi. 1995-2001 yillar mobaynida «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida o'tkazilgan harbiy o'quv mashqlarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari bo'linmasining tinchlikni saqlash kuchlari o'ndan ortiq harbiy o'quv mashqlarida qatnashdilar.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1999-yil 23-25 aprel kunlari AQSh ga hamda NATO ning 50 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda ishtirok etishi mamlakatimizning ertangi kuni uchun muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston - NATO munosabatlariga va uning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida hamkorlik qilish, bu NATOga a'zo bo'lish emas. O'zbekiston - NATO munosabatlarining asl mohiyati davlatimizning xavfsizligi va tinchligini ta'minlash, qolaversa nuntaqada barqarorlikni qaror toptirish uchun shart-

sharoitni imkon qadar kengaytirish va mustahkamlashdan iborat ekanligini ta'kidlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" Dasturida ishtiroki Markaziy Osiyo mintaqasida kollektiv xavfsizlik va barqarorlikning keng tizimini vujudga keltirishni rejalashtirishda O'zbekistonning ishtirokini kafolatladı. "NATO bilan hamkorlik qilish harbiy-siyosiy voqعالardan xabardor bo'lib turish, bu uyushma doirasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ishlanmalardan bahramand bo'lish uchun imkon beradi". NATO Bosh ketibi X.Solana va AQShning NATOdagi doimiy vakili R.Xanternig O'zbekistonga tashriflari O'zbekiston va mazkur tashkilot o'rtasidagi tinchlik yo'lidagi siyosatining hamohang ekanligini ham ko'rsatdi.

1992- yil 26 fevralda O'zbekiston yana bir nufuzli tashkilot YEXHT ga a'zo bo'ldi. Shu bois 1994- yildan O'zbekistonning yeXHTdagi vakolatxonasi Venada, 1995-yildan esa yeXHTning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalari bo'yicha byurosi Toshkentda faoliyat yuritdi. 1999- yilda ushbu byuroga yeXHTning mintaqadagi markazi maqom berildi. Markaz faoliyati nazariy jihatdan siyosiy-harbiy, iqtisodiy-ekologik va inson xuquqlari kabi sohalarida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'zbekistonning 1996- yil Lissabon Sammitida ishtiroki respublika rahbariyatining xavfsizlik doirasiga kiruvchi qarashlarini bayon etishga ham imkon berdi. Anjumarda O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi zona deb e'lon qildi. 1999-yil 18-19-noyabr kunlari mazkur tashkilotga a'zo 54 mamlakat rahbarlari uchun Turkiyaning Istambul shahrida Oliy darajadagi uchrashuvda Prezident xalqaro terrorizmga qarshi markazini tuzish taklifi bilan chiqdi.

1996- yilning boshlarida O'zbekistonda Britaniya Kengashi bo'limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytarish yo'lidagi yangi qadam bo'ldi. O'zbekistonning Niderlandiya, Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o'rnatildi va kengayib borinoqda. Shveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo'ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo'lib qolmay, O'zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat - Shveysariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi. 1995- yil oktyabrda Jenevada "O'zbekistonda xususiy lashtirish: hamkorlik uchun imkoniyatlar" mavzusida konferensiya bo'lib o'tdi. Shu yil noyabr oyida esa Londonda o'tgan "O'zbekistonda biznes" konferensiyasida iqtisodiy islohotlarning xususiyatlari muhokama qilindi.

O'zbekiston jahon iqtisodiyotida integratsiyalashish yo'lidan borib, Jahon banki, Xalqaro Valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy

taraqqiyotga ko'maklashuv tashkiloti va boshqa moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Shu bilan birga O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar *Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, BMT ning bolalar fondi, Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro olimpiya qo'mitasi* kabi yana bir qancha tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston 2001- yil «**Shanxay xalqaro hamkorlik tashkiloti**» ga a'zo bo'ldi. Unga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari ham doimiy a'zodirlar. Bugungi kunda izchil faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro siyosiy-iqtisodiy tashkilotlar xaqida so'z yuritilganda, shubhasiz, birinchi navbatda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tilga olinmoqda. Dastlab "Shanxay beshligi" deb nomlangan bu tashkilotga 2001 yilda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lib qo'shilgach, "Shanxay Hamkorlik Tashkiloti" deb ataladigan bo'ldi. Ayni paytda unga Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston Respublikalari rasman a'zodirlar.

Tashkilotning "Terrorizim, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida Shanxay konvensiyasi" imzolangan bo'lib, 2002- yil iyulida Sankt-Peterburgda u yanada mustahkamlandi. 2003- yil may oyida Moskva ShXTning tashkiliy organlari, ramzlari tasdiqlanib, O'zbekiston Tashkilotining yangi raisi etib belgilandi. 2003- yil sentyabrda Pekinda "ShHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi" qabul qilinib, mahsulot, kapital, xizmat va texnologiyalar erkin aylanishi shartlari belgilab olindi, ShHTning moliyaviy byudjeti ko'rildi. 2004- yil iyundan Tashkilot to'la ravishda ishga kirishdi. 2005- yil iyulida Ostona sammitida Mongoliya, Hindiston, Pokiston va Eron kuzatuvchi maqomiga ega bo'ldi. 2010- yilda Toshkentda o'tkazilgan navbatdagi anjuman a'zo davlatlar tashqi siyosatida muhim voqeya bo'ldi.

O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlarida boshlab chet mamlakatlar bilan teng huquqli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ydi. Mustaqillikning dastlabki kunlardan e'tiboran mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga kirishga intila boshladi. Jumladan mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat bu Turkiya respublikasi edi. 1991- yil 16-19 dekabr kunlari O'zbekiston davlat delegatsiyasi Turkiyada bo'ldi. Safar chog'ida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma, konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatdagi yo'nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991 yil dekabrda

1992-yil iyul oyigacha bo'lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O'zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi. Ularning 100 dan ortig'i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Dastlab Toshkentda AQSh, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Malayziya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O'zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari ochildi. O'z navbatida O'zbekistonning elchixonalari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda yaqin va o'rta sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga kirishdi. Negaki, O'zbekistonning ruhi, dini, urf-odatlari va an'analari Osiyodagi musulmon mamlakatlariga yaqindir.

1992-yil 27-28 iyun kunlari Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi. Safar kunlarida O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida shartnoma, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston va Pokiston xalqlari necha asrlardan beri o'zaro aloqada bo'lib kelgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin bu munosabatlar yangicha mazmun kasb etdi. Toshkent bilan Islombod o'rtasida mustahkam va uzoq muddatli aloqa o'rnatilishi O'zbekiston uchun Fors ko'rfazi mamlakatlari bilan, Pokiston uchun esa Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni keng rivojlantirish imkoniyatlarini ochadi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlikni O'zbekiston Prezidenta Islom Karimovning 1992-yil 13-14 avgust kunlari Pokistonga rasmiy tashrifi va unda imzolangan hujjatlar yanada yangi pog'onada ko'tardi. Ikki davlat o'rtasida suv resurslari, elektrlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya sohasida hamkor qilish to'g'risida, pochta va telekommunikatsiya sohasida, davlat banklari va milliy banklar o'rtasida vakolatxonalar ayirboshlash to'g'risida, investitsiyalar va sarmoyalarni himoya qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Benazir Bxutto 1995-yil may va noyabr oylarida O'zbekistonga ikki marta tashrif buyurdi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va Markaziy Osiyo xavfsizligi, Afg'onistonda birodarko'shlik urushini to'xtatish masalalari bo'yicha fikr almashildi. Iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, fan, texnika, sayyohlikni rivojlantirish haqida bitimlar imzolandi. Hozir O'zbekistonda Pokiston sarmoyalari 120 qo'shma korxonaga tuzgan. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2006-yil may oyida Pokistonga, Pokiston Prezidenti Parvez Musharrafning 2005-yil mart oyida

O'zbekistonga tashrifi ikki tomonlama hamkorlikni zamon talablari va milliy manfaatlariga mos tarzda rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Dunyoda energiya zaxiralari talab ortib borayotgan inobatga olinsa, Pokiston energiya manbalariga boy mintaqa hisoblangan Markaziy Osiyodan chiqadigan janubiy yo'nalishdagi yangi transport tarmoqlarining o'z kommunikatsiyalariga tutashuvidan manfaatdor. O'zbekistonning Pokiston yo'llari orqali Arabiston dengizi sohillariga chiqishi esa ikki tomon uchun ham manfaatlidir.

O'zbekiston esa Pokiston bozoriga yo'naltirilgan eksport hajmini (paxta, polietilen, suyultirilgan gaz, kabel, mineral o'g'itlar, g'alla, qishloq xo'jaligi texnikasi) kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Misol uchun, Pokiston O'zbekiston paxtasini uchinchi davlatlar orqali sotib oladi. 2006- yili o'zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki hissa ortib, 20 million AQSh dollarini tashkil qildi. Eron bandargohlari orqali Pokistonga yuborilgan O'zbekiston paxtasining qiymati bu ko'rsatkichdan bir necha karra ortiq.

O'zbekistondagi mavjud qulay sarmoyaviy muhit pokistonlik ishbilarmonlarning yurtimizga qiziqishini tobora oshirmoqda. Hozir O'zbekistonda Pokiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan qirqqa yaqin korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Ular ishlab chiqargan tovarlar va ko'rsatgan xizmatlarning yillik o'rtacha qiymati 20 milliard so'mga, eksporti hajmi 4 million AQSh dollariga yetadi. Ikki tomonlama hamkorlik 2007- yilning 14-16 mart kunlari O'zbekistonga Pokiston bosh vaziri Shavkat Aziziyning tashrifi ham samarali bo'ldi. Muzokaralar yakunlari bo'yicha qator ikki tomonlama hujjadar imzolandi. Jumladan, Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida hukumatlararo shartnoma, Transport va tovarlar tranziti sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim, Toshkent islom universiteti va Islombod xalqaro islom universiteti o'rtasida, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi Toshkent shahar boshqarmasi va Karachi shahar Savdo-sanoat palatasi o'rtasida anglashuv memorandumlari imzolandi.

O'zbekistonning **Hindiston** bilan aloqalari kengayib bormoqda. 1993 yil 23-15-25 may Hindiston Bosh vaziri Narasimha Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munesaboatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida shartnoma, foyda va mulkka ikki tomonlama soliq solmaslik to'g'risida, havo to'g'risidagi va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1993- yil 17-19 avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida **iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik** to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. 1995- yil 25 avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning «TATA Projekte LTD» firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o'rinli salomatlik zali,

majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garaji, sauna barlar qatta restoranlari bo'lgan zamonaviy Mexinonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlari Islom Karimovning 2000-yil 1-3 may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida O'zbekiston Birinchi Prezidenti Hindiston Prezidenti va Bosh vaziri bilan muhokamalar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonot, jinoyat qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bojxona sohalari bo'yicha hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. 2006- yili mamlakatlar o'rtasidagi savdo hajmi 59,4 million AQSh dollarini tashkil qildi. O'zbekistonda Hindiston sarmoyasi ishtirokidagi qirqqa yaqin qo'shma korxonalar hamda to'rtta hind kompaniyasining vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

2005- yil aprel oyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov davlat tashrifi bilan Hindiston Respublikasida bo'ldi. 2006 yilning aprelida Hindiston Bosh vaziri Manmohan Singx O'zbekistonga tashrif buyurdi. Bu sammitlar chog'ida erishilgan kelishuvlar o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi hamkorlikning, ayniqsa, iqtisodiy sohadagi qamrovi keng. Mazkur hamkorlik savdo va sarmoyaga oid ellikdan ziyod hukumatlararo hujjatga asoslangan. Savdo-iqtisodiy aloqalar **O'zbekiston-Hindiston** hamkorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Energetika sohasida "O'zbekneftgaz" milliy holding kompaniyasi bilan Hindiston Neft-gaz sanoati vazirligi, O'zbekiston Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bilan Hindiston Tog'-kon sanoati vazirligi o'rtasida imzolangan hujjatlar O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan Hindiston sarmoyasi hajmini yanada oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston hukumatining 1992- va 2006- yilda **Malayziya** va Malayziya davlat, hukumat rahbarlarining 1993- va 2003- yillarda yurtimizga amalga oshirgan tashriflari doirasida erishilgan bitim va kelishuvlar mazkur munosabatlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur tashriflar davomida har ikki mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy salohiyati haqidagi qimmatli ma'lumotlardan iborat keng ko'lamli axborotlar almashinuvi yo'lga qo'yilayotgani etiborlidir.

Shuningdek, 1998- yilda tashkil etilgan **O'zbekiston-Malayziya** do'stlik jamiyati ham davlatlarimiz o'rtasidagi aloqalarning yanada mustahkamlanishiga o'zining samarali hissasini qo'shib kelayotganini ta'kidlash kerak. O'zbekiston va Malayziya xalqlari o'rtasidagi do'stlik, madaniy-marifiy hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, Malayziya jamoatchiligi o'rtasida O'zbekiston davlati,



yurtimizda ro'y berayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlar jarayoni haqida batafsil va xolis fikrni shakllantirish mazkur tuzilmaning asosiy maqsadlaridan sanaladi.

Mazkur kelishuvga ko'ra 2006-2007 yillar mobaynida Malayziya jamoatchiligiga O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining bir qator telemahsulotlari, jumladan «O'zbekiston surati», «O'zbekiston madaniyati va ananalari», «Bildersoy», «Xiva», «Buxoro», «Samarqand» kabi hujjatli filmlar tuha etildi. Mazkur filmlarda yurtimizning tarixiy shaharlari, eng qadimiy savdo va madaniyat markazlari, yuksak manaviyatimiz va analarimizning chuqur ildizlari, xalqimizning ko'p asrlik bunyodkorona mehnati mahsullari hamda mustaqillik yillarida qo'lga kiritgan olamshumul yutuqlarimiz haqida batafsil va qiziqarli tarzda hikoya qilingan.

O'zbekiston va Malayziya yoshlarining mamlakatlarimiz haqidagi bilim va tasavvurlarini yanada boyitish maqsadida do'stlik jamiyati tomonidan turli marifiy-madaniy tadbirlar ham tez-tez o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2006-yilda O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalari ishtirokida «Malayziyani kim yaxshi biladi?» deb nomlangan viktorina-tanlov bo'lib o'tdi. Unda yurtimiz yoshlari Malayziya geografiyasi, iqtisodiyoti, tarixi va madaniyati, shuningdek, ikki davlat munosabatlariga oid atroflicha bilimlarga ega ekanini namoyish etishdi.

**O'zbekistonning Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari.** O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Sharqiy Osiyo va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan. Bu mamlakatlar orasida **Xitoy Xalq Respublikasi** bilan davlatlararo aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki paytlardayoq, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi. 1992- yil 2-3 yanvar kunlari XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin Toshkentda bo'ldi.

Xitoy Xalq Respublikasi 1991- yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan oldi. **1992- yil yanvarda** esa ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi do'stu-birodar, yaqin qo'shni davlatlar hisoblanib, bu yaqinlik "O'zaro manfaatli munosabatlar, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirishning asosiy tamoyillari to'g'risida"gi Deklaratsiyada o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Xitoyga 3 marta rasmiy safari, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi rahbarining O'zbekistonga tashriflari chog'ida siyosiy muloqotni rivojlantirish uchun asos qo'yildi.

O'zaro manfaatli hamkorlikning bosh yo'nalishlari belgilandi, ikki mamlakat yetakchilari o'rtasida ishonchli aloqalar o'rnatildi. 2004- yilning iyun oyida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintau davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Bu tashrif chog'ida Prezident Islom Karimov va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintau O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida do'stona

munosabatlar, sherikchilik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risidagi deklaratsiyaga imzo chekdilar. Shuningdek, qator hukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolandi.

O'zbekiston "Xavfsizlik belbog'i" tamoyiliga asoslangan Xitoy tashqi siyosatini qo'llab – quvvatlaydi. Bu qo'shma mamlakatlar bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish orqali xavfsizlikni ta'minlash va jarayonini tezlashtirish demakdir. Xitoy Xalq Respublikasi esa O'zbekistonda Prezident Islom Karimov boshchiligida amalga oshirilayotgan islohotlar Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hududga aylantirish, Markaziy Osiyoni umumiy bozorini bunyod qilish bo'yicha davlatimiz tashabusslarini olqishlaydi. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. 2004 yili o'zaro savdo-sotiq hajmi deyarli ikki martaga oshdi va 600 million AQSh dollariga yetdi. Ta'lim, fan, texnika, adliya, madaniyat, naqliyot kabi sohalarda keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Ikkala mamlakat hain aloqalarni yanada kengaytirish uchun zahiralarga ega. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, neft-gaz, kimyo, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik tobora tivojlanib bormoqda. Xusussiy tadbirkorlik va kichik biznes vakillari o'rtasida aloqalarni rag'barlantirish, savdo-iqtisodiy munosabatlarni yanada liberallashtirish yuzasidan choralar ishlab chiqilmoqda, bu yo'nalishda yuzaga kelayotgan to'siqlarni bartaraf etish masalalari ko'rib chiqilmoqda.

2004- yilning noyabr oyida Pekinda savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha **O'zbekiston–Xitoy** hukumatlararo komissiyaning 6 yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda ko'plab yo'nalishlar, xususan, sarmoya sohasida hamkorlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish qayd etildi. Shuningdek, neft-gaz tarmog'i, telekommunikatsiya, qishloq xo'jalik mahsulotlari va ipakni qayta ishlash kommunal xo'jalik borasida Xitoy kompaniyalari ishtirokida qator loyihalar amalga oshirilayotgani qayd etildi. Shu yilning may oyida Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida Konfutsiy nomidagi o'zbek-xitoy instituti ochildi. Xitoy matbuoti ma'lumotlariga ko'ra, Pekindagi Millatlar Markaziy universitetida o'zbek tili bo'limi ochilishi mo'ljallangan. 2005- yilning aprelda esa Pekinda "O'zbekiston Fotosan'atining 125 yilligi" mavzuida fototko'rgazma tashkil qilindi. Unda milliy fotosan'at asoschilari va ustalarining 150 ga yaqin asarlari havola etilgan. Mart oyida "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi chinakkam hamkorlikka xizmat qiluvchi **Toshkent-Shanxay** aviaqatnovini ochildi. O'zbekistonda Xitoy madaniyat kunlari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szintau taklifiga ko'ra, 2005- yilning 25-27 may kunlari shu mamlakatga davlat safari bilan bo'ldi. Safar chog'ida o'tkaziladigan muzokaralardan ikki davlat rahbarlari O'zbekiston-Xitoy munosabatlarini rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari, mintaqaviy xavfsizlik masalalari, ikkala tomonni qiziqtirgan xalqaro muammolarni muhokama qildilar.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, 2016- yilgacha **O'zbekistonda Xitoy** sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 700 dan ortiq qo'shma korxonalar mavjud bo'lgan. Ular asosan yengil sanoat, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ish olib boradi. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Elektron hisoblagich" O'zbekiston - Xitoy qo'shma korxonasi bunga misol bo'la oladi.

2004- yildan buyon faoliyat yuritayotgan "Elektron hisoblagich" qo'shma korxonasi "O'zbekenergo" aksiyadorlik jamiyati hamda Xitoydagi "Holley Group" korporatsiyasi hamkorligining amaliy natijasidir. Mazkur korxonalar sarmoyasining 40 % O'zbekistonga, 60 % Xitoyga tegishlidir. Qo'shma korxonalar elektr energiyasi sarfini hisoblaydigan turli xil va o'lchamdagi bir fazali va uch fazali elektron hisoblagichlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxonada ilg'or texnologiyalar asosida tayyorlanayotgan mahsulotlar xonadonlar va tashkilotlar uchun mo'ljallangan bo'lib, yuqori sifati, qulayligi, xalqaro andozalarga mosligi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda Xitoyning foizsiz (12 million AQSh dollari) va imtiyozli (36,3 million AQSh dollari) kreditlari asosida qator ijtimoiy loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, Xitoy "Eksimbanki" O'zbekistonga 300 million dollarlik eksport krediti ajratgan. O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan Xitoy Eksimbanki o'rtasida telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish hamda To'polang GES iga agregat o'rnatish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish to'g'risida ikkita kredit bitimi, "Farg'onazot" OAJ bilan "Grinkul" kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxonalar tuzish to'g'risida ta'sis hujjatlari, "Motor zavodi" da "Grinkul" kompaniyasi ishtirokida dvigatellar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish to'g'risida hamkorlik memorandumini imzolangan.

So'nggi yillarda ikki mamlakat hamkorligida mobil telefon apparatlari ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlik memorandumini, "Markazsanoateksport" kompaniyasi tomonidan Xitoyga mis yetkazib berish to'g'risida bitim ham olib borilayotgan amaliy ishlar natijasidir. Shuningdek "O'zsesanoatmashimpeks" kompaniyasi tomonidan Xitoyga paxta yetkazib berish to'g'risida bitim, "O'zkimyosanoat" kompaniyasi bilan "Luyang Lanbin" kompaniyasi o'rtasida anglashuv protokoli, "O'zkimyosanoat" kompaniyasi bilan "Grinkul" kompaniyasi o'rtasida qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risida bitim imzolangan.

Bundan tashqari, tomonlar o'rtasida yana bir qator muhim bitimlar bo'lib, ular ikki tomonlarni iqtisodiy hamkorlik rivojiga asos bo'lmoqda. Jumladan, "Xitoy va O'zbekiston hukumatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy bitim", "Ikki tomonlarni soliq solimishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida" bitim, "Xitoy va O'zbekiston o'rtasida investitsiyalarni himoya qilish to'g'risida"gi bitim "Savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy hamkorlikni kengaytirish to'g'risida" memorandum shular jumlasidandir.

Ikki tarafning umumiy sa'y-harakatlari bilan hozirgi vaqtda iqtisodiy hamkorlikning shartnomaviy - huquqiy negizi shakllantirilgan, o'zaro savdo hajmi faol o'sib bormoqda, investitsiyalar sohasida, shu jumladan, iqtisodiyotning neft-gaz tarmog'ida hamkorlik faol rivojlanmoqda, shuningdek, transport - kommunikatsiya jabhasida ham yangi imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Xususan, 2009- yilda ikki mamlakat o'rtasida imzolangan ikkitarafli shartnomalar doirasida O'zbekistonga jami 1,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida Xitoy investitsiyalari jalb qilingan. Mazkur mablag'lar energetika, kimyo sanoati, geologiya qidiruv, kommunal xo'jalik, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi sohalarda loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilmoqda.

XXR kompaniyalari bilan investitsion hamkorlikning muhim yo'nalishi hisoblangan neft-gaz sektorini alohida qayd etish lozim. Mazkur tarmoq bo'yicha hamkorlik ham o'zining evolyusiyasiga ega. Masalan, bu borada 2005-yilda «O'zbekneftgaz» kompaniyasi va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi (NP) o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish bo'yicha hajmi taxminan 600 mln. AQSh dollari bo'lgan qo'shma korxonalar tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. 2006-yilda O'zbekistonda Xitoyning kapitali ulushi 100% bo'lgan «NP Silk Road» sho'ba kompaniyasi tashkil etilib, u O'zbekistondagi Buxoro, Xiva, Farg'ona va Ustyurt neft-gaz mintaqalarida beshta investitsion blokda geologiya - qidiruv ishlarini amalga oshirdi. Bunda Xitoy korporatsiyasi O'zbekistondagi geologiya-qidiruv ishlariga 5 yil mobaynida 208,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni investitsiya qildi.

Birinchi Prezidentning 2005-yil Xitoyga tashrifi chog'ida «O'zbekneftgaz» va Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asosan Buxoro viloyatining Jondor tumanidan boshlanadigan **O'zbekiston - Xitoy gaz quvurini** qurilishi 2008- yilning iyun oyidan boshlandi. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi va 500 kilometrlik ikkita liniyani qurilishini o'z ichiga oladi. Ushbu liniyalarning birinchisi 2009- yilning dekabrda, ikkinchisi 2011- yilda qurib bitkazildi.

Davlatlararo iqtisodiy aloqalarda Buyuk Ipak Yo'lini tklash strategiyasi doirasida **O'zbekiston - Qirg'iziston - Xitoy** temir yo'lini qurish va avtomobil magistralini qayta ta'mirlash loyihasi yaxshi imkoniyatlarga ega. *Tranzit imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish istiqbollari ham Xitoy - Qirg'iziston - O'zbekiston temir yo'li (Qoshg'ar - Irkishtom - O'sh - Andijon -Toshkent)* loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq. Loyihaning dastlabki qiymati 1,2 -1,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, dastlabki bosqichning o'zida tashiladigan yuklar hajmi yiliga 5 mln. tonnani tashkil etdi, keyinchalik esa, 17-20 mln. tonnani tashkil etishi mumkin. Bu yo'l tovarlarni transportda tashish vaqti va masofasini ilgari mavjud bo'lgan yo'llarga taqqoslaganda tegishli ravishda 7-8 kun va 900 km ga kamaytirish imkonini berdi, bu esa yuk tashish qiymatini kamaytiradi.

Ikki davlat o'rtasidagi do'stlik o'zaro ishonch va siyosiy hanjihatlik savdo-iqtisodiy aloqalar rivojida, hamkorlikda ko'plab qo'shma biznes loyihalarini

hayotga tatbiq etishda kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda. O'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichi 2008-yilda 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 2,6 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu borada savdo-iqtisodiy sohadagi o'zaro hamkorlik tobora o'sib bormoqda. 2003- yilda ikki tomon tovar ayirboshlash hajmi 216 mln AQSh dollariga teng bo'ldi. O'zbekistonning Xitoyga qilgan eksport 53 mln, import 163 mln AQSh dollarini tashkil etdi. 2001-2004 yillarda Xitoy bilan tovar aylanish hajmi to'rt marotaba oshdi.

O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxonaro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxonalar, 20 tasi 100% Xitoy sarmoyasi hisobidan Xitoy kompaniyalarining 23 ta korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 2017- yilga kelib Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln AQSh dollarini tashkil etadi.

2011-2017 yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb to'rt barobar oshgan. 2017- yilning birinchi yarmida o'zaro savdo yanada jadallashib, 59 foiz o'sdi va 2,3 milliard dollarni tashkil etdi. Davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz oqibatida jahon iqtisodiyotidagi umumiy pasayishga va muammolarga qaramay, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo barqaror sur'atlarda o'sayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Investitsiyaviy hamkorlik- O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning eng muhim yo'nalishidir. Ushbu hamkorlik ayni paytda har ikki tomon uchun ustuvor loyihalar xisobidan kengayib, eng muhim barcha yo'nalishlar bo'yicha sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan yirik sarmoyadorlardan biridir. O'zlashtirilgan te'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 6,7 milliard dollardan oshdi. Bular qatorida **Qo'ng'iro't soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodini** qurish va ishga tushirish, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi va Angren ko'mir konini texnik qayta jihozlash, Xitoy kompaniyalari bilan hamkorlikda neft, gaz hamda uran konlarini qidirish, razvedka qilish va o'zlashtirishga oid qator qo'shma loyihalar bunday o'zaro manfaatli investitsiyaviy hamkorlikning yaqqol dalillaridir.

2013- yildan boshlab O'zbekistonda "Jizzax" maxsus industrial zonasi tashkil etilib, investorlar uchun misli ko'rilmagan imtiyoz va preferensiyalar joriy qilindi. Bugungi kunda "Jizzax" maxsus industrial zonasida mobil telefonlar, zamonaviy qurilish materaillari va boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

O'zbekiston bilan **Koreya Respublikalarini** umumtan olingan tamoillar va xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan an'anaviy do'stlik va hamkorlik aloqalari bog'lab turadi. Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch Okeani mintaqasi mamlakatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan oldi va bu voqeya 1991- yil 30 dekabrda to'g'ri keldi. 1992 yil 29 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

Koreya Respublikasi mustaqilligimizning ilk davridan boshlab mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni keng qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

O'zaro hamkorlik yildan-yilga mustahkanlanib borayotir. Bunda ikki davlat rahbarlarining o'zaro aloqalarni rivojlantirish borasidagi qarashlari o'xshashligi, bir-biriga ishonch va hurmati, hamkorlikdan ikki tomon ham manfaatdor ekani muhim asos bo'lib xizmat qilayotir.

Mustaqil O'zbekistonning oliy darajada dastlabki halqaro bitimlari qatorida Koreya Respublikasi alohida o'rin tutadi. 1992- yil iyunda Birinchi Prezident Islom Karimov mustaqil O'zbekiston rahbari sifatida rasmiy safar bilan shu mamlakatda bo'ldi. 1994- yil iyun oyida esa Koreya Respublikasi rahbari bunga javoban O'zbekistonda bo'ldi. Mazkur sammit chog'ida imzolangan bitimlar mamlakatimizning siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorligi poydevorining tamal toshini qo'ydi. Ikkala mamlakat ham siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish masalalariga katta e'tibor bilan qaraydi. Barcha sohalarida ikki tomonlama munosabatlarni muvoffaqiyatli rivojlantirishga, mamlakatlar o'rtasida o'zaro biron-bir siyosiy muammolarning yoqligi hamda salmoqli shartnomaviy-huquqiy negiz mavjudligi xizmat qiladi.

Koreya Respublikasi O'zbekistondagi bozor islohotlari va demokratik o'zgarishlar jarayonini faol qo'llab-quvvatlamogda. Shuningdek, mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining muhim dasturlarini amalgam oshirishda keng moliyaviy – iqtisodiy va texnik ko'mak ko'rsatib keladi. Koreya Respublikasi O'zbekistonning savdo hamkorlaridan va yirik sarmoyadorlaridan hisoblanadi. Janubiy Koreya kompaniyalarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo'ygan sarmoyalarining yig'indisi 1 milliard AQSh dollaridan oshib ketdi. Shu sarmoyalar tufayli O'zbekistonda avtomobilsozlik, telekommunikaziya, to'qimachilik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bardavom rivojlanmogda. Koreya Respublikasi O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarning yirik kreditori hamdir. Ikkala tomon o'zaro savdo-sotiq hajmini ko'paytirish faoliyatini ijobiy baholab, uni mustahkamlash va chuqurlashtirish yuzasidan kelgusidagi hamkorlikda choralar qabul qilish tarafdori bo'lmogda.

Koreya Respublikasi Prezidenti No Mu Xyonning 2005- yil may oyida O'zbekistonga tashrifi va davlatimiz rahbarining 2006- yil mart oyida Seulga tashrifi asnosida Strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolani, hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishning huquqiy asosi yaratildi.

O'zbekiston rahbari ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi o'zbek va koreys xalqlari do'stligini mustahkamlash yo'lida qilgan say-barakatlari uchun shunday sharaftga sozovor bo'ldi. Bu safar hamkorlikning huquqiy asosini mustahkamlagani, aloqalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar ochib bergani, ularni yangi mazmun bilan boyitganligi bois ahamiyatli. Savdo-sotiq, sanoat, naqliyot, siyosiy mashvaratlar bo'yicha mavjud hujjatlar prezidentlarning munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma bayonoti bilan boyidi. Turli vazirliklar va idoralar, firma va kompaniyalar o'rtasida, qishloq ho'jaligi, telekommunikaziyalar, ta'lim, turizm va bank-moliya sohasida hamkorlik hususidagi hujjatlar imzolandi.

Bugun biz **“UzDEU”** qo'shma korxonasini zamonaviy mahsulotlarni yangilash bo'yicha to'qimachilik sanoati va ipakchi qayta ishlash sohasida qator loyihalarni amalgam oshirish bo'yicha shartnomalar amalga oshayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Davlat rahbarlarining yakdilligi ikkala mamlakatning aloqalarini mustahkamlashga bo'lgan intilishlarining kattaligi, xalqlarimizning ma'naviy mushtarakligi munosabatlarni rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'ldi. Janubiy Koreya O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi. 2004- yilda undan avvalgi yilga nisbatan o'zaro tovar aylanmasi 41 foizga o'sdi. 904 Million AQSh dollarini tashkil qildi. Koreya Respublikasi O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'ygan sarmoyalari milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Hozirgi paytda O'zbekistonda 127 qo'shma korxonalar, Janubiy Koreya firma va kompaniyalarining 28 vakolatxonalari faoliyat yuritdi. Ko'plab yirik qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda, zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. **“UzDEU”-Avto** qo'shma korxonasining mahsuloti nafaqat O'zbekistonda, balki mustaqil davlatlar hamdo'stligining aksariyat mamlakatlarida xaridorgirdir.

**Yaponiya** O'zbekiston mustaqilligini birinchilar qatorida tan olgan davlatlardan. O'zbekiston istiqbolga erishgan ilk yillardan boshlab u mamlakatimiz bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatib, yurtimizdagi keng ko'lami islohotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bosh vazir Jun'ichiro Koizumining eng ulug' va eng aziz bayramimiz arafasida O'zbekistonga tashrif buyurishida chuqur ramziy ma'no bor. Bu Yaponiyaning O'zbekiston bilan hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga intilishidan, o'zaro munosabatlarni qadrlashidan dalolatdir.

Ta'kidlamoq joizki, O'zbekiston va Yaponiya, jug'rofiy uzoqlikka qaramay, bir-binga ancha yaqin davlatlardir. Yaponiya O'zbekiston orqali Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor. O'zbekiston uchun Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari bilan aloqalami kengaytirishda Yaponiya bilan munosabatlar muhim o'rin tutadi. Kunchiqar mamlakatning yuqori texnologiyalari va sarmoyasi savdo-iqtisodiy aloqalarni ravnaq toptirishda muhim omil bo'ldi.

Yaponiya Bosh vazirining tashabbusi bilan bu mamlakat tashqi siyosatida **«Ipak yo'li diplomatiyasi»**, «Markaziy Osiyo - Yaponiya» muloqot mexanizmi shakllangan. Bu mamlakat Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarini keng qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Yaponiya Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy muloqotlarni faollashtirish, bu yerda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, biznes, madaniyat va ilm-fan namoyandalarning aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bilan qaraydi. Shuningdek, Kunchiqar yurt O'zbekiston rahbarining Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirish tashabbusini ham yuksak baholaydi. Afg'onistondagi tiklanish ishlarida O'zbekiston bilan yaqindan hamkorlik qilish tarafdori.

Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Yaponiya va Yaponiya-O'zbekiston qo'mitalari tuzilgan. Ular har yili qo'shma majlis o'tkazib,

hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, amalga oshirilgan ishlarni sarhiseb qilib, istiqbol rejalarini ishlab chiqadi. Yaponiya-O'zbekiston qo'mitasiga Yosiro Mori, Taro Aso singari taniqli siyosatchilar, «Mitsui», «Toshiba», «Toyota» kabi korporatsiyalarning, yirik bank va moliya muassasalarining rahbarlari a'zo bo'lganini alohida ta'kidlash joiz.

Hozir mamlakatimizda o'ndan ziyod O'zbekiston-Yaponiya qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Tashqi savdo tashkilotining (JETRO), «Mitsui», «Mitsubishi», «Sumimoto», «Nishe Iwai», «NeK», «Toyota Suse» kabi 22 yirik korporatsiyaning vakolatxonalari ochilgan. Yaponiya sarmoyasi ishtirokida mamlakatimizda o'ndan ortiq yirik loyiha amalga oshirilyapti. Masalan, Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lini barpo etish loyihasi uchun Yaponiya hukumati 150 million AQSh dollariga teng miqdorda intiyozli kredit ajratgan, Bog'ot va Qo'qonda tayyor eksportbop mahsulot ishlab chiqaradigan to'qimachilik majmualari qurilishini moliyalashtirish uchun Yaponiya Xalqaro hamkorlik banki (JBIC) bilan jami 90 million dollarlik kredit shartnomalari imzolangan.

Umuman, o'zaro diplomatiya munosabatlari o'rnatilganidan keyingi davrda Yaponiyaning O'zbekistonga kiritgan sarmoyasi hajmi 2 milliard AQSh dollariga yaqindir. Yaponiya hukumatining «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi doirasida 910 million, Yaponiya Xalqaro hamkorlik bankining tijoriy kreditlari orqali yoqilg'i-energetika majmui va to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun 820 million dollar ajratilgan.

Ijtimoiy-madaniy hamkorlik doirasida 2004- yilning martida Yaponiyaning yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri sanalgan Soka universitetida buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyga haykal o'rnatilgani va har yili 9 fevral kuni Navoiy kechasi o'tkazilib, haykal poyiga gullar qo'yilishini, 2001- yili mamlakatimiz poytaxtida Yapon bog'i ochilganini, 2003- yilda «Tinchlik qo'ng'irog'i» majmui barpo etilganini, 2005 yili esa «Xirosima tinchlik toshi» o'rnatilganini, O'zbekistondagi ta'lim va shifo maskanlari zamonaviy texnika va uskunalar bilan ta'minlanib kelayotganini, Yaponiya madaniyati kunlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib borayotgani va bu an'ananing qamrovi yil sayin kengayayotganini, ta'lim sohasidagi yaqin aloqalarni alohida ta'kidlash joiz.

Kunchiqar mamlakat «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish» loyihasi uchun grantlar ajratmoqda. Ko'plab maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida lingafon kabinetlari, kompyuter markazlari ishga tushirilyapti, ta'lim muassasalari zamonaviylashtirilmoqda. Yaponiyaning nufuzli universitetlariga 138 o'zbekistonlik talaba o'qishga yuborilgan. Kunchiqar yurtda malaka oshirgan mutaxassislarimiz soni esa mingga yaqinlashdi. Ayniqsa, Vaseda, Nagoya universitetlari bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Akademik doiralar arxeologik tadqiqotlar o'tkazishda izchil hamkorlik qilib kelmoqda. Jumladan, Dalvarzintepani tadqiq qilish bo'yicha tuzilgan O'zbekiston-Yaponiya qo'shma ekspeditsiyasi katta muvaffaqiyatlarga erishdi.



Bu yerdagi qadimiy Budda ibodatxonasidan chiqqan I-III asrlarga oid topilmalar Yaponiyada o'tkazilgan maxsus ko'rgazmada katta qiziqish uyg'otdi.

Toshkentda Yaponiya madaniyat markazi, «**O'zbekiston-Yaponiya**» do'stlik jamiyati. O'zbekiston-Yaponiya inson resurslarini rivojlantirish markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Yurtdoshlarimiz ularda til o'rganib, kompyuter va biznesga oid bilimni takomillashtirmoqda.

Yaponiyaning Vatauchi maktabida O'zbekistonning bugungi hayoti, tarixi, madaniyati va an'analariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazish an'anaga aylangan. Xususan, O'zbekiston badiiy akademiyasi bilan hamkorlikda yosh o'zbek va yapon rassomlari asarlarining ko'rgazmasi tashkil qilindi. Fukusima shahrida «Fukusima-O'zbekiston» madaniy-iqtisodiy hamkorlik uyushmasi faoliyat yuritmoqda.

Kunchiqar mamlakat urush yillari taqdir taqozosi bilan yurtimizga kelib qolgan va o'zbek zaminida abadiy qo'nim topgan yapon fuqarolariga xalqimiz ko'rsatgan mehr-muruvvatni unutmaydi. Ular xotirasiga atab Toshkentda, poytaxt viloyatining Bekobod, Angren va Yangiyo'l shaharlarida, Buxoro, Andijon va Farg'ona viloyatlarining ayrim shahar va qishloqlarida qurilgan yodgorliklarni har yil ko'plab yaponlar ziyorat qiladi.

2006- yil O'zbekiston-Yaponiya munosabatlari tarixida katta ahamiyat kasb etdi. 2005 yili ikki mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-gumanitar hamkorlik aloqalari har tomonlama rivoj topgani barobarida ana shu maqsadga xizmat qiladigan qator rasmiy tashriflar va uchrashuvlar, xalqaro ko'rgazma va taqdimotlar, seminar va forumlar tashkil etildi.

O'zbekistonning Tinch okeani havzasi mamlakatlari **Indoneziya** bilan davlatlararo aloqalari o'rnatildi. Bu borada O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1992- yil iyun oyidagi Malayziya va Indoneziyaga safari muhim ahamiyatga egadir. Safar kunlarida O'zbekiston va Malayziya o'rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston va Indoneziya o'rtasida diplomatak aloqalar o'rnatish bo'yicha qo'shma axborot, ikki tomonlama munosabatlar bo'yicha qo'shma bayonot, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekiston bilan **Singapur** o'rtasidagi munosabatlar tarixi 1992- yilning aprel oyiga borib taqaladi. O'shanda Singapur O'zbekiston mustaqilligini tan olgan. 1997- yilda mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. Prezidentimizning 2007- yilning 24-26 yanvar kunlari Singapurga davlat tashrifi mana shu voqyeaning o'n yilligiga to'g'ri keldi.

Ikki tomonlama munosabatlarga doir keng ko'lamli masalalar, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi muammolar yuzasidan atroflicha fikr almashildi. Tomonlar bir-birining suvereniteti va hududiy yahlitligini hurmat qilish, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, o'zaro ishonch tanoyillari asosida ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirib borishga kelishib oldilar.

Muzokaralar yakunida qabul qilingan qo'shima bayonotda O'zbekiston va Singapurning xalqaro terrorchilik, narkotrafik, uyushgan transmilliy jinoyatchilik bilan bog'liq muammolarga qarashlari o'xshashdir. Bu muammolarga qarshi kurashda yaqindan hamkorlik qilish mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashning muhim omili ekanligi borasida ham ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, BMT, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi. Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hudud, deb e'lon qilish borasidagi tashabbusini Singapur tomoni qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Ayni paytda Janubi-Sharqiy Osiyoda yadro qurolidan holi hudud barpo etishda Singapur muhim o'rin tutayotgani qayd etildi.

Ikki mamlakat delegatsiyalarining O'zbekiston Prezidentining Singapur Bosh vaziri Li Syan Lun rahbarligida o'tgan kengaytirilgan tartibdagi muzokarasida sanoatga, jumladan, neft-kimyoy, farmatsevtika va elektron mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatiga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni uchinchi davlatlarga eksport qilish bilan bog'liq sohalarida o'zaro hamkorlikni kengaytirish ikki tomon uchun ham foyda keltirishi qayd etildi. Singapur sammitida o'zaro munosabatlarning huquqiy poydevorini mustahkamlashga kelishib olindi. Prezident Islom Karimov va Bosh vazir Li Syan Lun O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Singapur Respublikasi hukumati o'rtasida iqtisodiy va gumanitar sohalarida hamkorlik to'g'risidagi bitimni imzoladilar.

Malumki, 1992- yil 10 mayda Ashgabadda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Turkiya, Pokiston davlat va hukumat rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda TransOsiyo temir yo'lini vujudga keltirish maqsadida **Tajan-Seraxs-Mashhad** temir yo'li qurish haqida bitimni, bojxona xizmatini tashkil etish, shu soha uchun mutaxassislar tayyorlash haqida hujjatlar imzolandi.

**O'zbekiston va AQSh.** O'zbekiston rahbariyatining 1995- yil AQSh vitse-prezidenti Albert Gor bilan uchrashuvi davomida O'zbekiston va AQSh o'rtasida teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar rivojiga hamda MDHdagi xavfsizlikka daxldor masalalar hal etildi. Ayni paytda AQSh O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi yetakchilik rolini tan olib, respublikamiz bilan terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik va I.Karimovning AQShga tashrifi chog'ida muhokama etilgan boshqa masalalar sohasida teng huquqli hamkorlikni rivojlantirish niyatida ekanligini ma'lum qildi.

O'zbekiston rahbarining 1996- yil iyun oyida AQShga qilgan tashrifidan so'ng O'zbekiston tashqi siyosatida AQSh o'ziga xos o'rin tutdi. Mazkur tashrif davomida O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, hamkorlikning huquqiy asoslarini kengaytirish, Markaziy Osiyoda barqarorlik va xavfsizlik masalalarida fikr yuritildi. O'zbekiston Respublikasi bilan Amerika

Qo'shma Shtatlari o'rtasida mintaqa xavsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarga oid masalalarni muhim rol o'ynaydi

**O'zbekiston-Markaziy Osiyo va MDH doirasidagi hamkorlik.** 1991- yil 8 dekabrda Belorusiyaning Belovejskoe Pushche qarorgohida uch davlat Rossiya, Ukraina, Belorusiya Mustaqil Davlatlar hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Shartnomada SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi. 1991- yil 21 dekabrda Almatida Rossiya, Ukraina, Belorus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldaviya davlat boshliqlarining kengashida ushbu davlatlarning MDH ga a'zo bo'lganligi to'g'risidagi bayonot qabul qilindi.

1992- yil 15 may kuni Toshkentda MDH mamlakatlari rahbarlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Toshkent Kengashida bir qator hujjatlar imzolandi. 1993- yil yanvarda Minskda MDH davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'ldi. Unda MDH ning Nizoni imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi. 1993- yil 24 sentyabrda Moskvada MDH davlatlari boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Unda MDH doirasida iqtisodiy ittifoq barpo etish masalasi muhokama etildi va iqtisodiy ittifoqni tuzish haqidagi shartnoma imzolandi. 1994- yil 21 oktyabrda Moskvada MDH davlat boshliqlarining Kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda Iqtisodiy ittifoqning Davlatlararo iqtisodiy qo'mitasi (DIQ) tuzildi.

Shuni qayd etish zarurki 1991-2001 yillarda MDH davlat boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalariga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. 1993- yil MDH davlatlari bilan imzolangan "Iqtisodiy ittifoq" haqidagi shartnoma ham bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyoti va o'zaro hamkorliklarining yanada mustahkamlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Mamlakatimizning yaqin qo'shnichilik aloqalari va hamkorliklari Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan amalga oshirilib bunda **Qozog'iston Respublikasi** muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston bilan Qozog'istonning savdo-iqtisodiy hamkorligi qardoshlik, yaqin qo'shnichilik an'analari asosida izchil rivojlanib bormoqda. O'zaro munosabatlarning huquqiy asosini to'qsondan ziyod hujjat tashkil etadi. Ularning elikdan ortig'i iqtisodiy sohaga taalluqlidir. Bu hujjatlar orasida mamlakatlarimiz o'rtasida erkin savdo, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, ikki tomonlama soliqdan qochishga oid bitimlar bor.

Yillik o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2004- yilda 425,9 million, 2005 yilda esa 516,4 million AQSh dollarini tashkil etdi. Ya'ni, mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-sotiq miqdori ilk bor yarim milliarddan oshdi va yiliga o'rtacha 20 foizdan ko'paymoqda.

2005-yilgacha O'zbekistonda Qozog'iston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 73 korxonalar faoliyat yuritdi. Ularning olitasi to'la qozog'istonlik sarmoyadorlar hisobiga ochilgan. Ushbu korxonalar savdo, qurilish, oziq-ovqat, mashinasozlik,

yengil sanoat, metallni qayta ishlash kabi sohalarda ish olib bormoqda. O'zbekistonda Qozog'istonning 24 firma va kompaniyasi vakolatxonasi bor edi.

O'sha paytda Qozog'istonda O'zbekiston sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 86 korxonalar ishlab turibdi. Ular savdo-sotiq, oziq-ovqat, dori-darmon, qurilish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, mineral o'g'itlar, paxta va paxtadan olinadigan mahsulotlar, yog'ochni qayta ishlash, mebelsozlik, oynasozlik, ko'pchilik singari sohalarda faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakatlarimiz qishloq xo'jaligidan tashqari, yengil va og'ir sanoat, qurilish, mashinasozlik, transport kommunikatsiyalari, neft-gaz va ko'plab boshqa sohalarda hamkorlikni yanada yuqori pog'onaga ko'tarishi mumkin. Masalan, Qozog'iston janubiy viloyatlari uchun yiliga O'zbekistondan 1,5 milliard kub metr gaz oladi. Suv-energetika sohasi ham hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. G'alla, qurilish materiallari, metall buyumlar savdosi ham ikki tomon uchun foydali. Muzokarada O'zbekistonda ham, Qozog'istonda ham barqaror ehtiyoj bo'ladigan tovarlar ro'yxatini tuzib chiqish va bevosita savdo-sotiqni kengaytirishga kelishib olindi.

O'zbekiston va **Turkmaniston** o'rtasidagi munosabatlar yangi davr talablari asosida rivojlanib bormoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasida o'zaro hamkorlikka oid yuzdan ziyod hujjat imzolangan. Xususan, Do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomada (1996- yil), Do'stlik, ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi shartnomada (2004- yil) ikki tomonlama munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan.

O'zbekistonning tinchlikparvar siyosati xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashga, xalqaro integratsiya jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan. Mamlakatimiz dunyoning aksariyat davlatlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Turkmaniston ham tashqi dunyo bilan turli sohalarda hamkorlik uchun ochiqdir.

Mamlakatlarimizda energiya manbalarining yirik konlari bor. Dunyoda neft va gazga talab oshib borayotgan hozirgi sharoitda bunday omil hamkorlikdagi loyihalar uchun yaxshi asos bo'lishi tabiiy. Xususan, 2008 yilning may oyida O'zbekiston, Turkmaniston, Rossiya va Qozog'iston o'rtasida Kaspiy bo'ylab yangi gaz quvuri barpo etish va Markaziy Osiyodan Rossiyaga neft-gaz uzatiladigan mavjud quvurni rekonstruksiya qilish borasida erishilgan kelishuv muvaffaqiyat bilan hayotga tatbiq etilishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'ldi. Zero, mazkur mamlakatlar bir-birini yaxshi biladigan ishonchli sheriklardir. Bunday sharoitdagi hamkorlik ularga nafaqat moliyaviy-iqtisodiy, balki siyosiy va gumanitar manfaatlar ham keltirishi shubhasizdir.

Kaspiybo'yi quvuri Markaziy Osiyodan Rossiyaga uzatiladigan gaz hajmini qariyb ikki barobar oshirish imkonini beradi. Odatda quvur yo'qizish ishlari yirik sarmoiaviy hamkorlikni nazarda tutdi. Bu hamkorlik negizida quvur o'tgan joylarda infratuzilmani, sayyohlik va ekologiya sohasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar ham mavjudligiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston o'z hududi orqali o'tadigan **Turkmaniston-Xitoy** gaz quvurini barpo etish loyihasini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu mamlakatimiz tranzit

salohiyatini oshirish barobarida O'zbekiston gazining eksport yo'nalishlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2007- yil 18 oktabr kuni Turkmanistonga davlat tashrifi, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedovning 2008- yil mart oyidagi O'zbekistonga tashriflari ikki tomonlama hamkorlik rivojiga ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zaro hamkorlik rivojiga Iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi davlatlararo shartnoma, Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi davlatlararo shartnoma, Davlat chegaralari orqali o'tkazish punktlari to'g'risidagi hukumatlararo bitim, 2010- yilgacha mo'ljallangan hukumatlararo madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi, Qishloq xo'jaligi zararkunandalariga hamda o'simliklar kasalliklariga qarshi kurashda o'zaro hamkorlik to'g'risidagi idoralararo bitim, Mamlakatlarimiz o'rtasida hukumat aloqasi sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, Tomonlarning chegarabo'yi hududlarida joylashgan xo'jalik obektlaridan foydalanish va ularda ta'mirlash-tiklash ishlarini o'tkazish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, agrosanoat majmui sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi protokol kabi huquqiy hujjatlar asos bo'lib hizmat qilmoqda.

Ayniqsa, o'zaro hamkorlikning gumanitar sohadagi madaniyat, ta'lim, sayyohlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, O'zbekistonda turkmanlar, Turkmanistonda o'zbeklar istiqomat qilishi, ko'p joylarda ikki xalq vakillari qarindoshlik rishtalari bilan mustahkam bog'langani ham ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. 1997- yilda Xiva shahrida buyuk turkman shoiri Maxtumqulining haykali ochildigani ikki xalq madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi.

2004- yilda O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida fuqarolarning o'zaro qatnovlari va chegarabo'yi viloyatlarida yashovchi fuqarolarga yengillashdirilgan qatnov tartibi to'g'risidagi hamda chegarabo'yi viloyatlari hududida joylashgan ob'ektlarda xizmat qiluvchi shaxslarning O'zbekiston-Turkmaniston chegarasini kesib o'tishi to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar imzolangan. Mamlakatlarimiz ilm-fan va axborot texnologiyalari sohaslarida hamkorlik borasida ham o'zaro kelishuvlarga erishgan.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo respublikalari bilan olib borayotgan o'zaro hamkorligida "**Yagona iqtisodiy hudud**" to'g'risidagi shartnoma muhim rol o'ynaydi. Bu shartnomaga keyinchalik Qirg'iziston va Tojikistonning ham kirishi Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy integratsiya jarayonining chuqurlashuviga katta imkoniyat yaratadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston davlati rahbariyati qat'iyat bilan harakat qilib kelmoqdalar. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993- yil 4 yanvar Toshkentdagi tarixiy uchrashuvi ushbu davlatlar hayotida muhim voqea bo'ldi. Uchrashuvda mintaqqa taqdiriga taalluqli masalalar birinchi marta muhokamaga qo'yildi. Orol dengizini

saqlab qolish bo'yicha xalqaro jang'arma tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Shunday uchrashuvlar bir yilda ikki marta (1993- yil, mart, Qizil-O'rda, 1994- yil, yanvar. Nukus; 1994- yil, aprel. Cho'lpon-ota, 1995- yil, mart. Tashhovuz; 1996- yil, yanvar. Ko'kchatov; 1997- yil, yanvar, Bishkek; 1997- yil dekabr, Oqmola; 1998- yil mart Toshkent) kengashlarida mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar to'g'risida shartnomalar, bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarda 1997 yilda imzolangan Erkin savdo to'g'risidagi bitimga amal qilinar edi. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash ko'rsatkichi jadal o'sib bormoqda. Xususan, 2006- yilda 39,1 foizlik o'sish qayd etilgan bo'lsa, 2007- yilda o'zaro savdo hajmi 63,3 foiz yuksalib, 1 milliard 193,3 million AQSh dollarini tashkil etdi. Ya'ni, 2007- yilda mamlakatlarimiz ilk bor 1 milliardlik dovondan oshdi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bunda O'zbekistonning ijobiy saldosini 129,5 million AQSh dollaridan iborat bo'lgan.

2008- yil 22 -24 aprel kunlari bo'lib o'tgan uchrashuvlar paytida mamlakatlar o'rtasida 2006-2010 yillarga mo'ljallangan Iqtisodiy hamkorlik dasturi va 2007-2016 yillarga mo'ljallangan Iqtisodiy hamkorlik strategiyasi qabul qilingan. Mazkur hujjatlar savdo, suv-energetika majmui, sarmoya, moliya, transport, kommunikatsiyalar, bojxona va innovatsiya borasida ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan.

Islom Karimovning 2007- yil oktabr oyida Ashxobodda bo'lib o'tgan uchrashuvlar va imzolangan hujjatlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi yangicha munosabatlarni qaror toptirish, uni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish uchun poydevor bo'ldi. 2008-2012 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim va dastur ushbu sohadagi istiqbolli vazifalarning ijro etilishini ta'minlashiga shubha yo'q.

Shu bilan birga Markaziy Osiyo mintaqasida Orol dengizi suvidan oqiloana foydalanish, mintaqada ekologik vaziyatni asrashga qaratilgan pozitsiyamiz so'ngi 20 yil mobaynida jahon jamoatchiligining diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. 2009- yil 28 aprel kuni Qozog'iston Respublikasining Olmaota shahrida Orolni qutqarish xalqaro jang'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlarining uchrashuvida u yana bir bor o'z aksini topdi. Sammit ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi va ushbu masala yuzasidan o'zining qat'iy fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mintaqa davlatlarning tarixiy taqdirleri va geosiyosiy holatlarining musharakligi, ularning iqtisodiy, savdo-sotiq, siyosiy va ma'naviy hamkorligini kengaytirish, inqirozli holatlardan tezroq chiqib olish, MDH muammolari bo'yicha o'z vaziyatlarini belgilash yo'llarini axtarishga intilayotganligini anglash lozim. Bu ayniqsa, Tojikistondagi fuqarolar urushini tezroq tinch, kelishuv yo'li bilan bartaraf etish bo'yicha O'zbekistonning sa'y-harakatlari BMT hamda Yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat boshliqlarining oliy darajadagi anjumanlarida so'zlagan nutqlarida o'z aksini topdi.

Markaziy Osiyo respublikalarining diqqat markazida turgan xalqaro terrorizmga qarshi jiplashish masalasi mintaqadagi respublikalar rahbarlarining 2000- yil 20-23 aprel kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvda yana yuzaga chiqdi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash Xalqaro markazi tuzish haqidagi tashabbusini qo'llab-quvvatladilar. To'rt davlat rahbarlari mintaqada xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm va boshqa tahdidlarga qarshi birgalikda harakat olib borish haqida hujjati imzoladilar. Shuningdek, uchrashuvda ikki davlat Qozog'iston va O'zbekiston respublikasi prezidentlari chegaralar masalasida ikkala davlat orasida erkin harakatlanish to'g'risida, yo'lovchi va yuk tashish transportlarini kengaytirish to'g'risida kelishib olindi.

Ushbu mamlakatlarni birlashtirib turgan muhim muammolar qatorida Orol dengizi masalasi katta o'rin tutadi. Shu bois bu masalani to'la qonli hal etish mintaqadagi davlatlarning global muammolari qatoriga kiradi. Prezidentimiz so'zi bilan aytganda "Orol bo'yining barcha ne'matlarini "yagona sovet xalqi" bilan baham ko'rilgan" bo'lsa, "uning achchiq mevasi Orol bo'yi fojiasidan qutulish Markaziy Osiyo xalqlarining ishi bo'lib qoldi."

Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan O'zbekiston tomonidan 2008- yilning aprel oyida Buxarestda bo'lib o'tgan NATO samitidagi ma'ruzasida ilgari surilgan takliflari mohiyatan o'ta dolzarb edi. Unda faqat Afg'oniston emas balki butun musulmon olamida og'ir vaziyat va keskinlikka sabab bo'layotgan islom diniga nisbatan mutlaqo asossiz xuruj va bo'htonlarga yo'l qo'ymaslik muhimligi uqdiriladi.

Markaziy Osiyo davlatlari hududida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi yanada xatarli ekanligi ko'p bora qayd etiladi. Uning ildizlari 1990- yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolar urushi va mojarolar davomida, 1999- yil 19 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg'izistonning Botkent, O'zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004- yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005- yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida, 2010- yil Qirg'izistonning Osh, Jalolobod viloyatlarida amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari, millatlararo nizolar timsolida o'zini ko'rsatdi. Ammo, mamlakat Prezidentining olib borgan oqilona ichki va tashqi siyosati tufayli millatlararo nizolarning oldi olindi, qardosh o'zbek va qirg'iz xalqlari orasiga rahna solishga intilgan ayrim qora niyatli kuchlarning itilishlari asossiz ekanligi namoyon bo'ldi.

O'zbekiston bilan **Ukraina** o'rtasidagi munosabat o'zaro hurmat va teng huquqlilik asosida rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston-Ukraina hamkorligining ko'lami ko'plab yo'nalishlarda yanada kengaydi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi diplomatiya munosabatlari 1992- yil 25 avgust kuni o'rnatilgan. 1993- yilda Toshkentda Ukraina diplomatiya vakolatxonasi ochilgan bo'lsa, O'zbekistonning Kievdagi elchixonasi 1995- yilda faoliyat ko'rsata boshlagan.

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik muvaffaqiyatli tarzda rivojlanmoqda. Oxirgi bir necha yil davomida ikki mamlakat o'rtasidagi tovar aylanmasining hajmi izchil o'sib boryapti. Jumladan, 2004- yilda mazkur ko'rsatkich 280,4 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2005- yilda u 330,8 million dollarga, 2006- yilda esa 615,3 million dollarga teng bo'ldi.

Yurtimizdan Ukrainaga energetika mahsulotlari, paxta tolasi, transport vositalari, rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar, xo'l meva, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, plastmassa buyumlar va xizmatlar eksport qilinadi. O'z navbatida, Ukraina mamlakatimizga mexanika va elektr asbob-uskunalari, qora metallar, farmasevtika mahsulotlari, transport vositalari, qog'oz, karton, kauchuk, rezina va boshqa buyumlarni yetkazib beradi.

2007- yilning 19-20 fevral kunlari Kievda O'zbekiston-Ukraina Hukumatlararo komissiyasining yettinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda iqtisodiy, gumanitar va boshqa sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ayni paytda mamlakatimizda 38 ta **O'zbekiston-Ukraina** qo'shma korxonasi ro'yxatdan o'tgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligida Ukrainaning 11 firma va kompaniyasi akkreditatsiya qilingan. O'z navbatida Ukrainada O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 26 qo'shma korxonada faoliyat yuritmoqda. Mazkur mamlakat bozoriga yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarini yetkazib berish bilan shug'ullanadigan «Ukr-UzAvto» qo'shma korxonasi shular jumlasidandir.

Bugungi kunda Toshkent bilan Kiev o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini barcha yo'nalishlar bo'yicha rivojlantirish uchun qulay-shart sharoit yaratuvchi shartnomaviy-huquqiy asos yaratilgan.

Ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik davomida tomonlar 147 ta hujjat imzolagan bo'lib, ularning 87 tasi davlat va hukumatlararo miqyosda, 32 tasi esa idoralar darajasidadir. Qolgan 28 ta hujjat ikki mamlakat ishbiarmon va jamoatchilik doiralari o'rtasidagi kelishuvlardan iborat. 1998 yil 19 fevral kuni imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi shartnoma hamda 1999- yil 7 oktyabr kungi O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasidagi 1999-2008 yillarda iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi asosiy hujjatlardir.

Mamlakatlarimiz madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlikni ham faol rivojlantirishda. Xususan, ikki davlat vakillarining O'zbekiston va Ukrainada o'tkazilayotgan turli xalqaro tanlov va musobaqalarda ishtirok etishini ta'minlash maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir.

2002- yilda Toshkentda ukrain xalqining buyuk shoiri **Taras Shevchenko**ning haykali ochildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi bilan Ukrainaning mutasaddi tashkilotlari o'rtasida yaqin aloqalar yo'lga qo'yilgan. 1998- yildan buyon O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligining Pediatriya ilmiy-



tadqiqot instituti Ukrainaning bir qator tibbiyot muassasalari bilan sheriklik qilib keladi. Har yili yuz nafarga yaqin o'zbekistonlik pediatri va akusher-ginekologlar Kiev, Xarkov, Zaporozhe shaharlaridagi sog'liqni saqlash muassasalarida malaka oshirib qaytmoqda.

2002- yilda Kievda «Do'stlik» O'zbekiston madaniy-iqtisodiy jamiyati ochildi. Bundan tashqari, Ukraina poytaxtida «O'zbekiston» madaniyat jamiyati faoliyat yuritib kelmoqda.

Toshkent hamda Kiev shaharlari, Toshkent viloyati bilan Xarkov viloyati, Sumsk viloyati bilan Qashqadaryo viloyati, Qrim Avtonom Respublikasi bilan Farg'ona viloyati o'rtasida birodarlik aloqalari mavjud.

Bugungi kunda O'zbekistonda 100 mingga yaqin ukrain millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Ularning 40 mingi Toshkent shahrida. Poytaxtimizda ukrainlarning respublika miqyosidagi «Slavutich» va shahar miqyosidagi «Batkiyvshina» madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu kabi markazlar, shuningdek, Olmaliq va Yangiyo'l shaharlarida ham tashkil etilgan.

Masalan, o'tgan davrlar mobaynida O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq o'zbek-ukraina qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. **O'zbekiston - Belarus** Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar asosida 1991- yildan boshlab ish yuritmoqda. Ikki davlat o'rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o'zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo'l, havo yo'li va pochta aloqasi bo'yicha hamkorligini chuqurlashtirishda yangi bosqich bo'ldi.

O'zbekistonning Gruziya, Moldova davlatlari bilan ikki tomonlama davlat aloqalari yo'lga qo'yilgan. Respublikamiz bilan Gruziya o'rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki mustaqil davlat o'rtasida do'stlik va hamkorlik, samoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof-muhit muhofazasi, pochta aloqasi, soliq, bojxona tizimi, jinoyatchilikka qarshi kurash kabi 30 dan ortiq hukumatlararo va muassasalararo bitim va hujjatlar imzolangan.

O'zbekistonning Boltiq bo'yi davlatlari bilan o'zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. Bunga O'zbekiston bilan **Litva, Latviya va Estoniya** Respublikalari o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyasining imzolanishi bu davlatlar bilan bundan keyingi aloqalarni rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi. O'zbekiston bu davlatlarga rangli metallar, ipak paxta, neft va boshqa mahsulotlar eksport qiladi. Respublikamiz Litva, Latviya va Estoniyadan elektr mashinalari, ularning ehtiyot qismlari, shakar, efir moyi, qora metal, sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib oladi. O'zaro hamkorlikka asosan Toshkentda bu davlatlarning qo'shma korxonalari ish yuritmoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2001- yil 3-5 may kunlari, 2004 yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Prezidenti V. Putinning 2004 yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yangi tog'onaga ko'tardi. 2001- yili MDH tashkil topganligining 10 yilligiga bag'ishlangan yig'ilishda savdo, iqtisodiy, ta'lim, madaniyat, soliq, bojxona sohalarida Rossiya bilan shartnomalar imzolandi. Bugungi kunda MDH davlatlari, xususan Ukraina, Belorussiya, Moldova, Boltiq bo'yi respublikalari ham O'zbekiston bilan teng sherikchilik asosida o'zaro hamkorlik qilmoqdalar.

**O'zbekistonning Rossiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligining mustahkamlanishi va rivojlantirilishi.** O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik barcha sohalarda izchil rivojlanib bormoqda. **O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi** 1992- yil o'tatilgan diplomatik aloqalardan so'ng siyosiy, iqtisodiy sohalarda 150 dan ortiq shartnomalar imzolangan. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri V.Chernomirdin, keyinroq E.Primakov 1998- yil Rossiya Federatsiyasi prezidenti B.yelsin, 1999- yil dekabr va 2000- yil may oyida Prezident V.V.Putinning O'zbekistonga qilgan tashriflari Rossiya va O'zbekistonning o'zaro iqtisodiy hamkorliklarini yo'lga qo'yishda yangi davrni boshlab berdi. 2003-2004 yillarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar yana ham mustahkamlandi. Jumladan, Rossiya davlati xavfsizlik kengashining raisi, Mudofaa, Tashqi ishlar, Transport vazirlari o'zbekistonlik davlat rahbarlari bilan muhim masalalar bo'yicha bitimlar tuzdi. 16 iyun kuni strategik hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi.

**Vladimir Putinning** Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V. Putin qisqa muddatda O'zbekistonda ikki marta – 1999- yil 10-11 dekabrda va 2000- yil 18-19 may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish xarbiy va xarbiy texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muxokama etildi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2000- yilda bir milliard AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tushilgan 250 ga yaqin qo'shma korxonalar mavjud. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va jixozlar, kimyo mahsulotlari va plastmassa, qora metal va boshqa tovarlar sotib olib. Rossiyaga turli mashina va jixozlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mollarini eksport qiladi.

2005- yilda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Rossiya prezidentlarining o'zaro aloqalarni rivojlantirish masalalariga, ko'plab

xalqaro va mintaqaviy nuammolarga qarashlari o'xshashdir. Mamlakatlarimiz Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ham yaqindan hamkorlik qilib kelayotir.

Bugungi kunda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi hamkorlik deyarli barcha yo'nalishlarda, jumladan, energetika, aviasozlik, mashinasozlik, transport va telekommunikatsiyalar, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, oziq-ovqat, yog'ochni qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, elektrotexnika kabi sohalarda izchil rivojlanib bormoqda.

2006- yilda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 42 foiz o'sib, 3 milliard AQSh dollaridan oshdi. 2007- yilning yanvar-avgust oylarida esa ushbu ko'rsatkich 2 milliard 605,1 million AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistondan Rossiyaga transport vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, asbob-uskuna, paxta tolasi, qora va rangli metallar hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar, plastmassa buyumlar va boshqa turdagi yuqori texnologiyali mahsulotlar eksport qilinadi. Rossiyadan O'zbekistonga transport vositalari, metallni qayta ishlash hamda kimyo va selluloza-qog'oz sanoati mahsulotlari import qilinadi. O'tgan yili Rossiya O'zbekistondan bir million tonnadan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oldi. Bu 2005- yildagi ko'rsatkichdan 3 baravar ko'pdir.

O'zbekistonda rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan qo'shma korxonalar soni to'rt yuz ellikdan oshadi. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi bilan tuzilgan uch yuzga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Xonobod shahridagi "Andijonkabel" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi bugungi kunda samarali natijalarga erishayotganini alohida ta'kidlash joiz. U turli xildagi zamonaviy kabellarni tayyorlash borasida yetakchi korxonalardan hisoblanadi.

Yoqilg'i-energetika majmuidagi hamkorlik ham diqqatga sazovordir. Ayni paytda O'zbekistonda "**Gazprom**" va "**Lukoil**" kompaniyalarining 2,5 milliard dollarlik sarmoyasi o'zlashtirilmoqda. Ta'kidlash joizki, soha infratuzilmasini yanada takomillashtirish, magistral quvurlarni rivojlantirish, yangi konlarni o'zlashtirish ishlariga inkon qadar ko'p sarmoya jalb etish O'zbekiston va Rossiyaning jahon energetika bozoridagi o'zini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Aviasozlik sohasida esa hamkorlikda samolyot ishlab chiqarish va eksport qilish ikki mamlakat manfaatlariga mos faoliyatdir. Mamlakatlarimiz iqtisodiyotning deyarli barcha sohaslarida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, neft-gaz, tog'-kon sanoati, qora va rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari ishlab chiqarish, to'qimachilik, sayyohlik sohaslaridagi hamkorlikning istiqboli porloq.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi bitim ham amal qiladi. Bu yo'nalishdagi aloqalar harbiy mahsulotlar yetkazib berish, harbiy texnikani yangilash, tajriba almashish, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatlarimiz kadrlar tayyorlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohaning boshqa yo'nalishlarida ham samarali hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekistonda **G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi filiali** faoliyat ko'rsatayotgani, **M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent filiali** ilk talabalarni qabul qilgani bunga yorqin misoldir. Poytaxtimizda **I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining filiali** ochilgani mamlakatlarimiz o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlik yanada mustahkamlanayotganidan yana bir dalolat bo'ldi.

Madaniyat va san'at namoyandalarining hamkorligi doirasida turli ko'rgazma va gastrollar tashkil etilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasi salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Jamg'armaning tashabbusi bilan o'tgan yili Moskvada O'zbekiston san'ati kechasi, "Iqtisodiy muloqot" O'zbekiston-Rossiya hanjamiyatining ilk tashkiliy majlisi o'tkazildi. Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Antropologiya va etnografiya muzeyida "Sharq haqida orzu: rus avangardi va Buxoro ipagi" mavzuida ko'rgazma tashkil qilindi. Rossiyalik sozanda va xonandalar har ikki yilda Samarqanda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, rassomlar esa Xalqaro Toshkent zamonaviy san'at biennalesida muntazam ishtirok etadilar.

Moskva shahri markazida ulug' bobomiz Alisher Navoiy haykali qad rostlab turgan, u yerda tez-tez o'zbek rassomlarining ko'rgazmalari tashkil etilib turishi, ayni chog'da rossiyalik san'atkorlar yurtimizda ijodiy safarlarda bo'lib turishi kabi ko'plab misollar mamlakatlarimiz, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikning mustahkamligidan dalolatdir.

O'zbekiston bilan **Rossiya o'rtasidagi** munosabatlar bundan buyon ham mamlakatlarimiz va xalqlarimiz manfaatlari yo'lida rivojlanib boraveradi. Ikki davlanning do'stligi va aksariyat masalalarda hamfikrligining samarasi bo'lgan ittifoqchilik munosabatlari kelgusida yanada mustahkamlanishiga, ikki tomon uchun ham foydali natijalar berishiga shubha yo'q. Zotan, mamlakatlarimizning azaliy do'stligi va hamkorligi har jihatdan mustahkamlanib, rivojlanib borishida SHHT doirasidagi munosabatlar ham muhim ahamiyat kasb etayotir.

O'zbekiston tashqi siyosatining Yevropa yo'nalishi qat'iyatlik bilan rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari ikki mamlakat Prezidentlari 2005- yil noyabrda imzolangan **Ittifoqchilik munosabatlari** to'g'risidagi shartnoma ruhida izchil rivojlanib bormoqda. Rossiya Federatsiyasi hukumati raisining mamlakatimizga rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiy hamda siyosiy muloqotning mantiqiy davomi bo'ldi.

Bugun aviatsiya va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik, transport va telekommunikatsiyalar sohasida o'zaro foydali aloqalar izchil rivojlanmoqda. Yoqilg'i-energetika majmuidagi hamkorlik ham tobora kengaymoqda. O'zbekiston boy energiya resurslari zaxirasiga, jumladan, yevroosiyo mintaqasida uglevodorod xomashyosini qidirish, qazib olish va transportirovka

qilish sohasida katta salohiyatga ega mamlakat. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlar doirasida energetika sohasidagi hamkorlik va energiya xavfsizligini ta'minlashga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda Rossiya kompaniyalarining O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuidagi investitsiyasi miqdori qariyb 2,5 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Fan va texnika, ta'lim sohasida ham aloqalar mustahkamlanmoqda.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida savdo aylanmasi jadal o'sib bormoqda va 2006- yilda bu ko'rsatkich 3 milliard dollardan oshdi. Rossiya O'zbekistonga asosan mashinalar, asbob-uskunalar, transport vositalari, metallni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoati mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Bugun mamlakatimiz Rossiya Federatsiyasiga meva sabzavot, poliz maxsulotlari, kimyo, transport vositalari va boshqa yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilmoqda. O'zbekistonda rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan qo'shma korxonalar soni to'rt yuz yellikdan oshadi. 2017- yilgacha Rossiyada O'zbekiston sarmoyasi bilan tuzilgan 284 qo'shma korxonaga faoliyat ko'rsatmoqda. Hamkorlikning asosiy sohalari – savdo, energetika, sug'urta, moliya sektori, oziq-ovqat, farmatsevtika, yog'ochni qayta ishlash, elektrotexnika va sanoatning ko'plab boshqa tarmoqlari.

O'zbekiston bugungi kunda katta ilmiy-tadqiqot salohiyatiga ega. Jumladan, respublikamizda MDH hududida eng yirik astronomiya observatoriyalari, O'zbekiston iqtisodiyoti va jahon fundamental ilm-fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan eng zamonaviy tadqiqotlarni amalga oshirish imkonini beradigan noyob aerokosmik uskunalar samarali ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri **Yevropa Ittifoqi davlatlari** bilan bo'lib, 1996- yilda keng miqyosdagi hamkorlikni ko'zda tutuvchi Sheriklik va Hamkorlik bitimini tuzgan. Bundan tashqari Yevropa Ittifoqi va mamlakatimiz o'rtasida 20 ga yaqin boshqa turdagi shartnomalar mavjud. Ikki tomonlama munosabatlar ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy sohalarda rivojlanib bormoqda.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston orasidagi aloqalar davlatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq kurtak yoza boshlagan edi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi Yevropa Ittifoqi tashkiloti oldiga yosh davlatni tan olish va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish masalasini qo'ydi. 1992- yil 15 yanvarda Lissabon va Bryusselda qabul qilingan «o'n ikkilar» ning ko'shma Deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini e'tirof etdi. Tez orada diplomatik munosabalar o'rnatildi. 1994- yil noyabr oyida Yevropa Ittifoqining mintaqamizdagi birinchi vakolatxonasi ochildi.

O'zbekiston Respublikasi o'rtasida 1993- yil 8 iyun va 1999- yil 15 sentyabrda «To'qimachilik mahsulotlari savdosi bo'yicha bitim», 1996- yil 14 noyabrda narkobiznesga qarshi kurashda hamkorlik qilish te'g'risida bitim va boshqa bir qator shartnomalar imzolandi.

1996- yil 22 iyunda ikki tomonlama munosabatlar rivojida alohida voqeya qayd etildi. Italiyaning qadimiy va go'zal shahri bo'lmish Florensiyada bo'lib o'tayotgan Yevropa Ittifoqiga (yeYY) a'zo davlatlarning navbatdagi Kengashida Yevropa Hamjamiyati va ularga a'zo davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida bitim imzolandi. yeI tomonidan Yevropa Kengashining ijrochi raisi, Italiya Tashqi ishlar vaziri Lamberto Dini va 15 a'zo davlatlarning Tashqi ishlar vazirlari imzoladilar.

Bitim ikki tomonlama munosabatlarning juda keng ko'lamini qamrab olgan. Unda tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, savdo munosabatlarini tartibga solish, ijtimoiy, moliya, ilmfan, texnologiya va madaniy sohalarida hamkorlik qilish uchun mustahkam asos yaratish o'z aksini topgan. Shartnomaning anal qilish muddatini uzaytirish sharti bilan 10 yil qilib belgilandi. U 1999- yil 1 iyuldan amalga kirdi.

«**Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim**»da nazarda tutilgan hamkorlikning ustavor yo'nalishlari xususida qisqacha. Savdo munosabatlarini hyech qanday to'siqlarsiz rivojlantirish maqsadida har ikki tomon o'zaro bojxona soliqlaridan ozod bo'lishga kelishdilar. «Sheriklik va Hamkorlik to'g'risidagi bitim»yaing 10-moddasi bojxona to'lovi va soliqlarini butunlay tugatishni nazarda tutmasada, ma'lum muddatga kiritilayotgan tovarlar ustidan import solig'i va cheklovlarni bekor qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilib, Yevropa Ittifoqi tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar, o'z navbatida, Yevropa Ittifoqida ishlab chiqarilib, O'zbekiston Respublikasi tomonidan import qilinayotgan mahsulotlar har qanday miqdoriy cheklovlar va teng ta'sirli choralaridan holidir. Shu bilan birga, antidempning choralarini zaruriyat taqozo qilganda har ikki tomon 13-moddaga asosan qo'llay olishi mumkinligi ham e'tirof etiladi.

Iqtisodiy hamkorlikning asosiy sohalarini belgilandi. Unga ko'ra «hamkorlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, inson resurslarini quvvatlash, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, turizm, telekommunikatsiya, atrofmuhitni himoya qilish sohalarida kuchaytiriladi».

Atrof muhitni himoya qilish sohasidagi hamkorlik esa bitimning 43, 44 va 54-moddalarida o'z aksini topgan. Siyosiy jabhadagi hamkorlik bitimning 68-moddasida ifoda etilgan. Demokratiya va inson huquqlari sohasida har tomonlama va izchillik bilan islohotlar olib borish, jamoat tashkilotlari, nodavlat uyushmalarning mavqeini oshirish kabi masalalarga keng o'rin berilgan.

Giyohvandlik moddalari savdosiga qarshi kurash Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston uchun ham hamisha dolzarb muammolardan biri sanalgan. Ma'lumki Yevropa Ittifoqi unga qarshi kurash maqsadida 1991- yil 5.5 mln. ekyu ajratgan bo'lsa, 1997- yil bu mab'lag 54 minta yetdi. 2000- yil 14 fevralda bo'lib o'tgan Yevropa kengashi esa 2000-2004 yillarga mo'ljallangan 4 yillik dasturni qabul qildi. Maastrixt Shartnomasining 29-modsasida Yevropa Ittifoqiga narkobiznesga qarshi kurashda bir qator vakolatlar berilganligi ham ma'lum. Shu bois «Sheriklik

va hamkorlik to'g'risidagi bitimning 71-moddasida bu sohadagi hamkorlikka alohida urg'u beriladi.

yel va O'zbekiston munosabatlari qabul qilingan bitim asosida o'zining ixtisoslashgan tuzilmalariga ham ega. Bitimning 78-79 moddalariga muvofiq, «Hamkorlik Kengashi» tashkil etilgan bo'lib, vazirliklar darajasidagi bu kengash yilda bir marta yig'iladi va mavjud muammolarni hal etadi. Uning birinchi majlisi 1999- yil 13 sentyabrda bo'lib o'tdi. Shuningdek, 80-modda asosida faoliyat ko'rsatadigan hamkorlik qo'mitalari kundalik vazifalar bilan shug'ullanadi<sup>2</sup>. Bundan tashqari, Yevropa Parlamenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'rtasida Hamkorlikni ta'minlovchi parlamentlararo qo'mita ham hozirgi kunga qadar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan o'zaro aloqalarda, ayniqsa, iqtisodiy hamkorlikka alohida e'tibor bilan qaramoqda. O'z navbatida bu tashkilot ham O'zbekiston eksporti uchun hamisha muhim bozor hisoblanadi. Chunonchi, Yevropa andozasidagi yuksak sifatli sanoat mahsulotlariga mamlakatimizdagi talabni hisobga oladigan bo'lsak, o'zaro manfaatdorlik mezonini savdo aloqalarining rivojlanishi uchun yetarli asos bo'la olishini tushinish qiyin emas.

#### **5. Yangilanayotgan O'zbekiston islohotlarning strategik bosqichida: Shavkat Mirziyoevning Prezident etib saylanishi va mamlakat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi.**

Barchamizga ma'lumki, 2016- yil 4 dekabrda bo'lib o'tgan Prezident saylovlarida Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasining yangi Prezidenti etib saylandi. Ushbu siyosiy voqeya davlatimiz tarixida yangi davrni boshlab berdi. O'zbekiston va uning xalqi demokratik, ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishning mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoev o'z rahbarlik faoliyatini xalq bilan muloqot va inson manfaatlariga e'tibor berishdan boshladi. Ayniqsa uzoq yillar mobaynida yetilib qolgan ko'plab muammolarni hal qilish, xususan korrupsiya, rahbarlar faoliyatiga tanqidiy tahlil asosida yondashish, har bir rahbarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, xalqning dardu- tashvishlari bilan yashash, oddiy insonlar murojaatlari bilan ishlash tizimini shakllantirish, inson omiliga e'tibor masalalari shular jumlasidandir. Ayniqsa joylarda xalq bilan ishlashning eng ta'sirchan mexanizmi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Xalq qabulxonalari”**, **“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonalari”** tashkil etildi. 2017- yil mamlakatimizda **“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”**, deb e'lon qilindi. **“Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”** degan g'oya kundalik ish mezonimizga aylandi.

2017- yildan boshlab O'zbekiston islohotlar va taraqqiyotning yangi bosqichiga kirdi. Chunki, bu davr yutuqlarni sarhisob qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tahlil qilish hamda mamlakat taraqqiyotining strategik omillarini belgilab bergan davr sifatida tarixga kirdi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa,

**2017- yilning “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”** deb e'lon qilinishi natijasida, shu yilning iyul-dekabr oylari davomida Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy etilgan xalq bilan faol muloqot olib borish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida respublikamiz shahar va qishloqlariga “Sayyor qabullar” uyushtirilgan.

Ochiq muloqotlarda 58 mingdan ortiq fuqaro va tadbirkorlardan turli masalalarga oid 32 ming 176 shikoyat, ariza va takliflar o'rganilgan. E'tiborli tomon shundaki, murojaatlarning eng ko'pi, ya'ni 8 mingdan ziyodi, yoki 25 % asosan tadbirkorlarning bank kreditlari bilan bog'liq muammolardir. Huquqni muhofaza qilish sohasi bilan bog'liq muammolar 7 mingdan ortiq-22%, bandlik va ish haqi to'lovlari 3 ming 973 ta-12 %, tadbirkorlik faoliyatiga to'siq bo'layotgan muammolar 3 ming 350 ta-10%, odamlarga uchastka va uy joy ajratish 2 ming 473 ta-8 % ni tashkil etgan.

Inson omiliga e'tibor, ularning huquqlarini ta'minlash borasida birgina Inson omiliga e'tibor, ularning huquqlarini ta'minlash borasida 2017- yilda yurtimizda yashab kelayotgan, lekin fuqaroligi bo'lmagan 1100 dan ortiq shaxsga O'zbekiston fuqaroligi berildi, mamlakatimiz tarixida ilk bor 2700 ga yaqin fuqarolar Prezidentimiz Farmoniga muvofiq avf etildi.

O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash borasida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Xususan, 2017-2020 yilar oralig'ida **50 mingga yaqin shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilinishi, 3187 nafar fuqaroni avf etilishi** ulkan insonparvarlik ahamiyatiga ega bo'ldi. O'zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyusiyasini qabul qilinishi shuningdek Samarqand shahrida Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumini o'tkazilishi xalqaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqqanligini tasdiqlaydi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan **“Mehr-1” va “Mehr-2”, Mehr-3 va “Mehr-4”** insonparvarlik tadbirlari doirasida Suriyadagi qurolli mojarolar maydonidan va Afg'onistondan 261 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar O'zbekistonga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordamlar ko'rsatildi. So'nggi yillarda O'zbekiston insonparvarlik siyosatining hamda o'zbek xalqiga xos ezgulik va mehr-oqibat, kechirimlilik kabi milliy mentalitetimizning olijanob fazilatlarining amaliy tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan shaxslarni afv etish to'g'risida” bir nechta farmonlari qabul qilinib, **2017-2019 yillarda 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi.**

O'zbekiston mustaqilligi yillarida inson huquqlarini ta'minlash borasida tizimli ishlarning yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy e'tiroziga sabab bo'lib kelgan **“Jasliq”** manzilida joylashgan 19-son ixtisoslashtirilgan “Jazoni ijro etish koloniyasi” tugatildi. Inson huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro tashkilotlarning doimiy



e'tiroziga sabab bo'lib kelgan Jasliq qo'rg'onida joylashgan mazkur ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasini tugatish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilinishi insonparvar siyosatning yana bir amaliy namunasi bo'ldi.

2017- yilning 22 dekabrda Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev Parlamentga qilgan Murojaatnomada, biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylandi.

Prezident davlat xodimlari, avvalo, birinchi **rahbarlar faqat kabinetda o'tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug'ullanishi zarur**, deya ta'kidlab kelmoqda. Shu ma'noda 2017- yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo'yicha yangi tizim yaratilgan yil bo'ldi. Bu tizimning asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasi fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashning o'ziga xos demokratik instituti sifatida amalda o'zini o'qlay boshladi. Yurtimizda so'nggi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yangilanayotgan O'zbekiston tarixidagi muhim yangiliklardan biri, bu ijtimoiy sohani rivojlantirish, xususan ish haq, pensiya va nafaqalar olish tizimini isloh qilingani bo'ldi. Bu borda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 2 fevraldagi "Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" gi PQ-2753 son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra 2017- yilning fevral oyidan boshlab:

-barcha turdagi pensiyalar butun mamlakat hududida hych qanday cheklolvarsiz to'liq hajmda **naqd pulda beriladigan bo'ldi**;

-**58 ta tog'li va olis tumandagi** byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haq to'lash, ijtimoiy to'lovlar hych qanday cheklolvarsiz to'liq hajmda naqd shaklda amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi;

-oliy o'quv yurtlari talabalariga stipendiyalami kamida **50 foizi naqd shaklda** beriladigan bo'ldi.

Xususan, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini, eng avvalo, qishloq vrachlik punktlarini isloh qilish samaradorligi ta'minlanmadi? Bugungi kunda ularda 2 ming 500 nafar vrach yetishmaydi, bu maskanlarni zamonaviy uskunelar bilan jihozlash va dori vositalari bilan ta'minlash darajasi juda past. Diagnostika darajasi pastligi va vrachlarning malakasi yetarli emasligi natijasida yiliga 30 mingdan ziyod yurtdoshimiz davolanish uchun xorijiy mamlakatlarga borishga va oila byudjetidan katta mablag' sarflashga majbur bo'lmoqda.

2018- yilning "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oya va texnologiyalami qo'llab quvvatlash" deb e'lon qilinishi natijasida mamlakat farovonligi va taraqqiyotining asosi bo'lgan tadbirkorlik sohalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, hozirgacha tadbirkorlarga tegishli murojatlarning 96 foizi, ya'ni 30 ming 876 tasi hal etilgan. Ulardan 8 ming 326 tasi sohalar faoliyatiga oid taklif va tavsiyalardan iborat.

Masalan, mamlakat miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yo'nalishlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2017 yilning 1 aprel holatida 4,6 trln so'mni tashkil etmoqda va bu ko'rsatkich 2016- yilning xuddi shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko'p. Uning 1 trln so'mini mikrokreditlar tashkil etadi, bu ko'rsatkich ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobar ko'p bo'lgan.

2018 yil 27 iyundagi «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi PF-5466-sonli farmoniga asosan yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish va qo'llab-quvvatlash, band bo'lmagan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalariga o'qitish, umuman yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilindi.

Davlat dasturi doirasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

a) O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi, shuningdek, uning tuman va shahar filiallari tashkil etildi. Jamg'armaning mablag'laridan Davlat dasturidagi quyidagi tadbirlarni moliyalashtirish uchun foydalanilmoqda:

– yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish;

– Davlat dasturi doirasida olinadigan kreditlar bo'yicha kredit hajmining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kafilliklar berish;

– Davlat dasturi doirasida amalga oshiriladigan tadbirkorlik loyihalarida ular qiymatining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda ishtirok etish, keyinchalik Jamg'arman ulushini 5 yil davomida realizatsiya qilish vazifalari belgilandi.

Ayniqsa davlat-xususiy sheriklik shartlarida yosh tadbirkorlarga imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va sarflash materiallarini ijaraga berish, ularni internet bilan ta'minlash, shuningdek, yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirishga boshqacha ko'mak berish, jumladan biznes-rejalar ishlab chiqish, maslahat, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish, forumlar, master-klasslar va seminarlar tashkil etish uchun «Yosh tadbirkorlar» kovorking-markazlari tashkil etish muhim vazifaga aylandi.

Bu borada savdo-maishiy va kichik ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish uchun mehnat kuchi haddan ziyod qo'p bo'lgan tumanlarda «Yoshlar mehnat guzari» komplekslari qurilmoqda. «**Har bir oila – tadbirkor**», «Yoshlar – kelajagimiz» kabi dasturlar doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, xizmat ko'rsatish sohalarini traqqiy ettirish,

fermerlikni qo'llab quvvatlash va rivojlantirish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat igoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish masalalari 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'rsatib berilganligi ushbu sohalar rivojiga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilayotganligining tasdiq'idir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning bevosita tashabbusi bilan mamlakatda **"Obod qishloq" dasturi** to'g'risida"gi qaroriga ko'ra uzoq yillar og'ir ahvolga tushib qolgan, hatto yashash uchun oddiy sharoitlar ham bo'lmagan qishloqlarni tubdan yangilashga kirishildi. Xususan, 2018- yil fevraldan boshlab Jizzax viloyati, Dstlik tumanidagi "Manas", Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi, "Xovosobod". Samraqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanidagi "Jom" qishloq fuqarolar yig'inlarida keng ko'lami yangitadan qurilish va bunyodkorlik ishlari tufayli aholiga topshirildi. Ular namunali qishloqlar sifatida yangilangandan so'ng, ushbu tajriba respublikaning har bir tuman da har yili 2 va 3 tadan qishloqlar "Obod qishloq dasturi" asosida yangilandi. Ushbu tajriba asosida 2018- yil iyun oyidan e'tiboran "Obod mahalla dasturi" Toshkent shahri misolida ommalashtirila boshlandi.

"Obod qishloq dasturi" doirasida 2018- yilda mamlakatimizning 174 ta tumanidagi 368 ta mahalla fuqarolar yig'ini hududlarini kompleks ravishda yangilash ko'zda tutilgan. Belgilangan ishlarga 3 trillion 40 milliard so'mdan ziyod mablag' yo'naltiriladi. Shu yilning 1 aprelidan boshlab har bir tumanda 2 tadan, 2019- yildan esa 3 tadan mahalla tubdan yangilanadi.

2018- yil 1 apreligacha Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika "Jamoatchilik nazorati ishchi guruhi" vakillari joylarda ijtimoiy holatni o'rganish maqsadida Namangan viloyati Pop, Kosonsoy tumanlarida, Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on va Sariosiyo tumanlarida, Farg'ona shahri va Quva tumanida, Andijon viloyati Qo'rg'ontepa tumanida, Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari va Jizzax shaharlarida bo'lishib, aholini qiynayotgan va "Xalq qabulxona"lariga kelib tushayotgan shikoyatlar yechimi yuzasidan sayyor reydlar uyushtirilib ko'pgina muammolar o'sha yerlarning o'zida hal etilgan.

2017- yilda esa respublikada 789,5 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan bo'lsada, bu borada hali yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi Prezident Shavkat Mirziyoevning **"Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"** nomli risolada o'z aksini topdi. Unda qayd etilishicha yurtimizda yiliga 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj bo'lsa-da, 2016- yili Bandlikka ko'maklashish markazlari atigi 248 ming kishini yoki 16,5 foizini ishga joylashtirgan. Buning asosiy sabablari ish faoliyatidagi eskirgan shakl va usullar hamda bandlik muammolarini hal etishdagi rasmiyatchilik bilan bog'liq bo'lgan deya uqdiradi Prezident.

Qayd etib o'tilgan ijtimoiy himoyaga oid masalalar orasida aholini uy-joy bilan ta'minlash ham dolzarb masalalar sifatida e'tirof etiladi. Shu boisdan

Prezident Shavkat Mirziyoev "... faqat raqamlar ortidan quvish oqibatida bu boradagi ishlarni ham hali ko'ngildagidek, deb bo'lmaydi, deya qayd etadi. Aholimizni, ayniqsa, byudjet sohasi xodimlarini, kam ta'minlangan oilalarni uy-joy muammosi ko'pdan buyon qiynab kelardi. Bu og'ir ijtimoiy muammoga biz deyarli e'tibor bermay kelganimiz ham bor gap. Xalqimizning talab va istaklarini inobatga olib, biz joriy yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyhasini amalga oshirishga kirishdik", deydi. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqamni avvalgi yillarga taqqoslaydigan bo'lsak, 2007 yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010- yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014 yilga nisbatan esa 2 barobar ko'p uy-joy qurilganini ko'ramiz.

2017- yil 22 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek "biz keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'pqavatli uy-joylar qurishni boshladik. 2017- yilning o'zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o'zida joriy yilda 420 ming kvadrat metr ko'pqavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko'pdir. Aholi, ayniqsa, yosh oilalar, eski uylarda yashayotgan va boshqa toifadagi fuqarolarning ehtiyojini hisobga olib, biz arzon va sifatli uy-joylar qurish bo'yicha ishlarni izchil davom ettiramiz, deya o'z fikrini bayon etadi Prezident.

Shu maqsadda 2018- yilda namunaviy va arzon uy-joylar qurish ko'lamini joriy yilga nisbatan 1,5 barobar ko'paytirish bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilgan". Demak, bu borada joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlari o'z navbatida yosh oilalar bilan ishlash tizimini kuchaytirishlari maqsadga muvofiq.

Mahalliy hokimliklar huzurida "Obod qishloq" maqsadli jamg'armalari tuzilib, byudjet, tarmoc korxonalari, xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlar grantlari, tashabbuskor tadbirkorlar mablag'lari, xasharlar va xayriya tadbirlari aynan shunga yo'naltiriladi. "Obod mahalla" dasturi doirasida 2018 yil barcha manbalar hisobidan 3 trillion 40 milliarda so'mdan ziyod mablag' ishonchli va muntazam rashishda yo'naltirilgan. Ushbu loyihalarning me'moriy va texnik jihatdan puxta ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida 190 ga yaqin tajribali va malakali loyiha institutlar jalb etilishi belgilanib, arzon, sifatli qurilish materiallari, ishlab chiqaruvchilar uchun elektr energiyasi va gaz yetkazib berishda pereferehsiyalar nazarda tutildi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish sohasini tubdan isloh qilish borasida Prezident Shavkat Mirziyoev 2018- yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd qilganidek, "Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy himoya o'zaro uzviy bog'liq tushunchalar bo'lib, ularni bir-biridan ajratgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "...endi bironta fuqaro qalbaki dalillar, tuhmat va bo'htonlar asosida javobgarlikka tortilmasligi

**shart. Konstitutsiya va qonun normalari soʻzsiz ishlashi uchun ishonchli kafolatlar yaratishimiz zarur”.**

Prezidentimiz sud, milliy xavfsizlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar ishiga faqat va faqat xalqimizning oʻzi baho berishini, ular uchun yagona va eng qattiq talab – bu fuqarolarning qonuniy manfaatlariga xizmat qilish va ularning huquqlarini har qanday holatda ham himoya qilishdan iboratligi aytiladi. Eng asosiysi, biz bir idora qoʻlida barcha vakolat va resurslar toʻplanib qolishiga, oʻzaro uyib turish va manfaatlar muvozanati prinsipi buzilishiga yoʻl qoʻymasligimiz zarurligi uqdirildi.

Bu oʻzgarishlar inson huquqlari va erkinliklarini taʼminlash, odil sudlovga erishish, huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. 2018- yilda ushbu yoʻnalishda koʻpgina ishlar qilindi. Jumladan, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish maqsadida profilaktika inspektorlari uchun 6 yarim mingdan ziyod xizmat uylari, 1 ming 100 ta shaxsiy uy-joy, 7 mingta shaxsiy avtomobil berildi. Shu bilan birga, Milliy gvardiya xodimlari uchun ham 1 ming 800 ta uy-joy qurildi. 2018- yilda 3 ming 205 ta mahallada bironta ham jinoyat sodir etilmadi.

Soʻnggi 5 yil ichida Mahalla va Fuqarolar yigʻinlari tizimida ham ulkan islohotlar boshlandi. Ayniqsa ushbu tuzilmalar 2018- yildan eʼtiboran oʻz faoliyatining yangi davriga qadam qoʻydi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Vaholanki, mahallaning fuqarolik jamiyati qurish sharoitidagi oʻrni, shubhasiz uning jamoatchilik tuzilmalari bilan faol hamkorligidir.

Yoshlarni kitob oʻqishga qiziqish uygʻotish, ularning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish, “Taʼlim oluvchi”, “Davomat” kabi tezkor tadbirlar, “Futbolimiz kelajagi”, “Ota onam va men-sportchilar oilasi” kabi tadbirlar, “Har bir oila tadbirkor” tamoyilini keng joriy etish borasida ham talay muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal etishda ayniqsa Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017- yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻibot qilish boʻyicha komissiya tuzish toʻgʻrisida” gi farmoyishi va 2017- yil 13 sentyabrdagi **“Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targʻib qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar dasturi toʻgʻrisida” gi qarori** xalqimiz, ayniqsa yoshlar oʻrtasida kitob oʻqishni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qildi.

Shu maqsadda dastlab mahallalarda, soʻngra tuman va viloyatlar miqyosida “Men sevib oʻqigan kitob”, “Eng yaxshi kitobxon” tanlovlari oʻtkazildi. Buning uchun byudjetdan tashqari mablagʻlar va xayriya mablagʻlari hisobidan 160 million soʻm ajratish koʻzda tutildi. Aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual va maʼnaviy ehtiyojlarini yanada toʻlaroq qondirish maqsadida Respublika “Kitob bayrami” oʻtkazila boshlandi.

2019- yil O'zbekistonda **"Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"**, deb e'lon qilindi. Bu borada Davlat Dasturiga muvofiq, manilakatda biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari keng o'rin olganligi istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada taraqqiy ettirish vazifasini qo'yimoqda.

2017- yilda esa ko'zlangan rejaga muvofiq sanoatni (5440 ta loyihada 131 mingta ish o'ri bilan), qishloq xo'jaligini (8430 loyihada 55,8 mingta ish o'ri bilan) va xizmat ko'rsatishni (11 mingta loyiha 69,5 mingta ish o'ri bilan) rivojlantirish bo'yicha viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklarining faoliyati kuchaytirildi. Kelajakda mamlakatda qishloq xo'jalik sohosi bilan bog'liq 25 mingga yaqin investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga, 256, 4 mingdan ortiq ish o'rinlari tashkil etishga erishilishi ko'zlangan.

Vaholanki, mamlakatda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-tamoyillarini qisqartirish hamda soddalashtirish maqsadida 2018- yil 1 avgustda "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Prezident Farmoni e'lon qilindi. Farmonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investitsiyalarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga asosiy urg'u berilgan.

Unda shuningdek, qator yillar mobaynida sohadagi dolzarb muammolar ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular orasida ayniqsa joylarda, investorlarning qo'llab-quvvatlanmasligi, bu borada tegishli vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiq lashtirilmaganligi bilan bog'liq byurokratik to'siq va g'ovlar hali ham mavjudligi, soliq yukini kamaytirish va investorlar uchun soliqqa tortish tizimidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq vazifalar belgilangan.

Agar raqamlarga murojaat qilsak, 2017- yilgacha 90 dan ziyod mamlakatning xorij mablag'lari ishtirokidagi 4 mingdan ziyod korxonalari faoliyat yuritgan edi. 2017- yilgacha O'zbekiston iqtisodiyoti deyarli olti martaga, aholining real daromadlari esa to'qqiz martaga yaqin o'sdi. Aholi jon boshiga ichki yalpi mahsulot ulushi 6,9 martagacha ortdi, bu yesa, O'zbekistonga o'rta darajadagi daromadli davlatlar qatoriga kirish imkonini berdi.

O'shanda jahon banki reytingiga binoan iqtisodiy darajasiga ko'ra, O'zbekiston 190 mamlakat orasida 63 o'rinni egalladi. Butunjahon iqtisodiy forum bahosiga ko'ra, 2014 va 2015 yakuni va 2016-2017 yillar o'sish prognozlarini bo'yicha O'zbekiston dunyoda eng tez rivojlanayotgan beshta davlatdan biri hisoblanishi qayd qilingan. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari

aholi o'rtasida daromadlarni nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlagan edi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, 2002- yilgacha respublikaga 12 mlrd AQSh dollaridan ortiq investitsiya kiritilgan. Yoki xorijlik fuqarolar va tashkilotlar tomonidan tashkil qilingan qo'shma korxonalariga jalb qilingan investitsiyalar ulushi 2000- yildagi 6,9 % dan 2001- yilda 26,0 % ga, ya'ni 3,7 baravar oshgan. Respublika bo'yicha 2007-2011 yillarda umumiy investitsiyalar hamjumida xorijiy investitsiyalar ulushi 22-25% ni tashkil qildi.

Lekin hali ham xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ko'ngilagidek, deb bo'lmaydi. Agar mustaqillik yillaridagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsa, jumladan, 2002- yilgacha respublikaning 31 tumanida xorijiy investitsiyalar ishtirokida birorta ham korxonalar tashkil etilmagan. Agar 2000- yilning boshida 143,5 ming korxonalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2002- yilda yurtimizda 240 mingta o'rtacha va kichik korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Shulardan 85 mingtasi fermer xo'jaliklaridir. Xususiy sektor aholining 30% ni ish bilan ta'minladi. Xususiy korxonalarni YaIMdagi ulushi 35% bo'lgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining roli esa bu borada oshib bormoqda. Jamg'arma tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatilgan. O'zaro tuzilgan shartnomalar asosida 2015- yili qiymati 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilingan. Jamg'arma ko'magida 2016- yilda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzilgan.

Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning bugungi imkoniyatlari nuqtai nazaridan olib qaraganda albatta past. Shu boisdan, Prezident o'zining "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida muhim vazifalardan biri sifatida – «O'z tadbirkoreksport» va «O'z sanoateksport» aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek, Milliy bank huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi yo'nalishi bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksporti bilan bog'liq kamida 1 milliard 500 million dollarlik eksportni ta'minlashi kerakligini uqdirgan edi.

Ayniqsa 2019- yilda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi. Birinchidan, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish, odamlar va oilalarning daromadini oshirish lozim. 2019- yil uchun bandlikka ko'maklashishning yangi davlat dasturini tasdiqlandi. Bu borada ishsizlarni kasbga o'qitish, ularga huquqiy va boshqa maslahatlar berish hamda boshqa ijtimoiy yordam usullaridan keng foydalanish kerak. Xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish uchun mehnatga munosib haq to'lash tizimini shakllantirish va aholi real daromadlarini oshirishimiz zarur. Unga ko'ra eng kam oylik ish haqi miqdorini belgilash tartibini qayta ko'rib chiqish, soliq va boshqa

to'lovlarning eng kam ish haqi miqdori bilan bog'liq bo'lishiga barham berishligi hamda Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu masalani hal etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish vazifasi yuklatilishi belgilandi.

Ikkinchidan, pensiya va nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibini qayta ko'rib chiqish, pensiya tizimini tubdan isloh qilish zarur. Zero, yangi qabul qilingan Prezident farmotiga ko'ra, **2019- yil 1 yanvardan boshlab, ishlaydigan barcha pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanib boshlandi.** Zero, ijtimoiy himoyaning yangi tizimiga ko'ra, pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etilmoqda. Islohotlarning keyingi bosqichida ushbu cheklovlar ham butunlay bekor qilindi. Ayni vaqtda nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolarini, boquvchisini yo'qotganlarni o'n olti yoshgacha ijtimoiy muhofaza qilish masalasi doimo e'tiborimiz markazida turishi kerak. Umrini nogiron farzandiga qarash, uni parvarish qilishga bag'ishlagan onalar uchun alohida ijtimoiy nafaqa turi joriy etildi.

Yangilanayotgan O'zbekiston hayotida sodir bo'lgan muhim voqealardan biri poytaxt Toshkent shahri aholisining transportga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan **2020-yil 29-avgustda Toshkent metropolitenining yer usti xalqa** yo'lining birinchi liniyasi ishga tushurildi. Mazkur transport liniyasining ikkinchi bosqichi 2021 va 2022 yillarda ishga tushirilishi mo'ljallangan. Shu tariqa Toshkent shahrining kata xalqa yo'lida yer usti metrosi paydo bo'ladi. Ushbu noyob yer usti inshooti Markaziy Osiyoda yagonadir.

Shuningdek, aholining uy-joylarga bo'lgan ehtiyojlarini inobatga olib, mamlakatimiz tarixida ilk bor arzon uy-joylar qurish tizimi joriy etildi. Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida ana shunday shinam uy-joylar qurilib, imtiyozli ipoteka kreditlari asosida 35 yillik muddatga imtiyozli ravishda aholiga, avvolombor nogironlar, boquvchisini yo'qotgan shaxslar, shu jumladan buyudjet sohasi xodimlariga topshirilishi yo'lga qo'yildi. Birgina 2019-yilda respublikamizdagi 1 ming 464 nafar og'ir turmush sharoitida yashayotgan nogironligi bo'lgan xotin-qizlarga uy-joy olish uchun 54,6 mlrd so'm boshlang'ich badal pullari to'lab berilganligi Prezidentning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida qayd etildi.

"Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida" gi Prezident farmoni ushbu yo'nalishdagi ishlarni yana bir pog'onaga ko'tardi. Mazkur hujjatga asosan, urush qatnashchilarining ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, xususan, yilda bir marta o'zlari xizmat qilgan shaharlarga borib kelish, o'zlari uchun qulay vaqtda sanatoriy sog'lomlashtirish muassasalarida davlat hisobidan davolanishlari mumkinligi hamda ularga 5 million so'mdan pul mukofotlari berilishi fikrimiz isbotidir.

Jamiyatni g'oyaviy isloh qilishda ta'lim tizimida bu borada zarur o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratish, ilmiy izlanishlar, fundamental tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatning ma'naviy va ilmiy salohiyatini



ko'tarish muhim maqsadlardan biriga aylantirildi. Bu xususda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev **2016- yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan bo'lgan urashuvda** shunday degan edi: "Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilmfansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o'zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi."

2017- yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmonida ilm va fan sohasini, va uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish masalalarining aks etganligi sohaga alohida e'tibor qaratilayotganligidan dalolatdir.

Zero, fan sohasini zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish, zamon talablariga javob beradigan hamda bilimli kadrlar tayyorlash va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirish strategiyada aks etdi.

**O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi** tizimi takomillashtirildi, moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, uning tarkibida bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlar faoliyati tiklandi. Ko'p yillik tanaffusdan so'ng Fanlar akademiyasiga yangidan saylov o'tkazilib, o'zining ilmiy ishlari bilan mamlakatimiz va xalqaro miqyosda nom qozongan iste'dodli olimlar akademik, degan yuksak sharafiga sazovor bo'ldilar. Endi barchamiz Fanlar akademiyasidan yangi ilmiy ishlanmalar, istiqbolli tadqiqotlar yaratish bo'yicha amaliy natijalar kutib qolamiz", degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida.

Jamiyani g'oyaviy, ma'naviy isloh qilish, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga asoslangan, chinakam demokratik jamiyat qurishdek vazifani hal etish bilan bog'liq masala bugungi kun talabidir. Bunda mamlakatning ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasidagi tub islohotlar va yangilanishlari muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan mamlakatimiz ta'lim tizimi bakalavr bosqichida o'quv fanining o'qitilishi va uni o'rganishga alohida e'tibor berilishi bejiz emas. Mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot yo'lidan sobitqadam rivojlanishida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni, mavjud muammolar va ularning yechimlarini o'rganish uchun uni alohida olingan fan sifatida o'rganilishi dolzarb masala sifatida kun tartubiga qo'yilmoqda. Bu boradagi fikrlar 2017- yil 22 aprelda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning **"Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari**

to'g'risida"gi qarorida ham o'z aksini topgan. Qarorda bugungi tez o'zgaruvchan, shiddatli zamonda yoshlarni ma'naviy va g'oyaviy ruhda tarbiyalash masalasi dolzarb ekanligi ta'kidlangan.

Jumladan, unda shunday deyiladi: "Oliy ta'limning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba yoshlarga mustaqillik g'oyalari, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'alariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g'oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkumi mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish zarur".

Bu borada so'nggi yillarda qator tashkiliy chora tadbirlar ko'rilib, amaliy ishlar qilindi. Bular orasida akademik ilm-fanning jamiyatdagi rolini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion ilmiy faoliyatni yanada rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora - tadbirlar alohida e'tiborga molikdir. Bunda 2017- yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «**O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyani haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida**»gi Farmoni qabul qilinganligi muhim voqeya bo'ldi.

Agar yaqin tariximizga murojaat qilinsa, Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zoriga oxirgi saylovlar 1995- yilda o'tkazilgan edi. Shundan buyon bu masala e'tibordan chetda qolib kelgani mazkur sohada yangicha islohotlar boshlashni taqozo etdi. Turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra, o'tgan yillar mobaynida akademiklarning soni ikki martadan ko'proq qisqarganligi hych kimga sir emas edi. Hatto 2017- yil dekabr oyiga kelib akademiyani atigi 63 nafar haqiqiy a'zosi qolgan edi.

Sohaga alohida e'tibor natijasida qisqa vaqt ichida ilmiy tadqiqot faoliyatining normativ-huquqiy bazasi va moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli kompleks chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirildi. **Natijada Respublikada 9 ta ilmiy-tadqiqot muassasi Fanlar Akademiya tarkibiga qaytarildi**, qator ilmiy tashkilotlar qayta tashkil etildi, Fanlar Akademiyani fan yo'nalishi bo'yicha 3 ta bo'limi va Navoiy bo'limi tashkil etildi, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoachilik kengashi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Davlat rahbari tomonidan «2017–2021 yillarda ilmiy tadqiqot muassasalari infratuzilmasini mustahkamlash va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi» qabul qilinib, bu sohada tizimli ishlar amalga oshirilayotganligiga urg'u berildi. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida fan va ta'lim sohalari rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

2017- yilda so'nggi 22 yillik uzoq tanafusdan so'ng Fanlar akademiyaning akademikligiga tasdiqlash uchun eng murosib olimlar tanlov asosida saralab olindi. Prezident Farmoniga muvofiq, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirishda jonbozlik ko'rsatayotgan haqiqiy a'zolari tavsiyasiga ko'ra, Fanlar akademiyaning **32 nafar yangi haqiqiy a'zosi** tasdiqlandi. 2018- yil 1 yanvardan boshlab, O'zbekiston Respublikasi FA ning haqiqiy a'zolari va sobiq O'zbekiston qishloq xo'jaligi fanlar akademiyaning haqiqiy a'zolariga eng kam oylik ish haqining 12 barobari, sobiq O'zbekiston qishloq xo'jaligi fanlari akademiyaning muxbir a'zolariga eng kam oylik ish haqining 8 barobari miqdorida oylik gonorar to'lanmoqda. Ushbu gonorarlar jismoniy shaxslar daromadlariga solinadigan daromad solig'idan ozod qilinganini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda barcha sohalar qatori ta'limning barcha turlari va sohalarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Maktabgacha, o'rta va o'rta maxsus ta'limi hamda oliy ta'limni zamon talablari darajasida yangidan isloh qilish, tubdan qayta qurish ishlari boshlandi. Buning yaqqol isboti sifatida "Ko'plab ota-onalar, o'qituvchi va o'quvchilar hamda keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar asosida **11 yillik ta'lim** qayta tiklandi.

**2020- yil 23 sentabrda** yangilanayotgan O'zbekistonning yangi "**Ta'lim to'g'risida**"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun o'zining mazmun va mohiyatiga ko'ra tubdan farq qiladi. Unda ta'limning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: Ta'limning asosiy turlari esa quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilandi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

- umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:
- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rtta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rtta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch o'rtta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rtta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi. O'rtta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi. Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Umumiy o'rtta ta'lim umumiy o'rtta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. O'rtta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rtta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rtta professional ta'lim;
- o'rtta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'rtta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rtta, o'rtta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rtta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rtta, o'rtta maxsus, boshlang'ich professional va o'rtta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura **falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD))** ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Doktorantura fan doktori (**Doctor of Science (DSc)**) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda **maktabgacha ta'lim tizimini** qayta isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga ham alohida ahamiyat qaratila boshlandi. Buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi. Ya'ni, so'nggi ikki yilda yurtimizda bolalar bog'chalari soni 1 ming 400 taga ortib, 6 ming 367 taga yetdi. Bu xususda shuni qayd qilish lozimki, keyingi davrlarda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladigan bir necha muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2017- yil 30 sentyabrda qabul qilingan qaroriga muvofiq, yurtimizda birinchi marta Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Qisqa davrda 980 dan ortiq bog'cha qurilib, ishga tushirildi, u yerda ta'lim-tarbiya ishlari eng ilg'or usul va vositalar yordamida olib borilmoqda. «Davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etilayotgan xususiy maktabgacha ta'lim maskanlari so'nggi bir yilda ikki barobar ko'paydi va 568 tani tashkil etmoqda. Yana mingta shunday bog'cha ochish bo'yicha amaliy ishlar boshlangan». Ayniqsa davlat rahbarining 2018- yil 30 sentyabrda qabul qilgan «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori muhim rol o'ynadi.

So'nggi yillarda umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12 yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har

tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talabalariga javob bermasligini va tubdan isloh qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi. Ushbu sohadagi mavjud muammolarni tizimli hal etish, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida 2018- yil 25 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy o'rtta, o'rtta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimini, tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Agar raqamlarga murojaat qilinsa, bugungi kunda mamlakatimizda 9,5 mingdan ortiq maktabda 6.5 mingga yaqin o'quvchi ta'lim oladi, o'quv-tarbiya va boshqaruv jarayonida 450 mingdan ziyod xodim mehnat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'qituvchilarning moddiy hayoti va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini oshirish masalalariga ham alohida urg'u bermoqda, ya'ni o'qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish zarurligini alohida ta'kidladi. Dunyo tajribasi ham buni tasdiqlaydi, deydi Prezident. Misol uchun, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Kanada kabi davlatlarda o'qituvchining maoshi mamlakatdagi o'rtacha oylikdan 1,5 barobar ko'p. Mamlakatimizda esa o'qituvchining maoshi umumiy o'rtacha oylikning atigi 79 foizini tashkil etadi. So'nggi ikki yil ichida bu boradagi muhim islohotlar quyidagilarda o'z aksini topdi:

Boshlang'ich va yuqori sinf o'qituvchilarining maoshlari tenglashtirildi. Shu ma'noda, bugun o'qituvchilar uchun barcha qulayliklar yaratish, o'qituvchini uy-joy bilan ta'minlash, ularga avtokreditlar ajratilishi juda katta e'tibor mahsuli bo'ldi. Qarorga binoan, har yili qishloq va shaharlarda namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan arzon uy-joylarning bir qismini xalq ta'limi tizimida mehnat qilayotgan pedagog xodimlarga 20 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr hamda birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz stavkasi bilan va keyingi davrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi nuqtdorida dastlabki baholash darajasi 10 foiz bo'lgan ipoteka krediti sifatida berilishi alohida g'amxo'rlikdir.

Tahlillar va o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, o'qishga va ishga joylasha olmasdan, uyushmagan yoshlar qatoriga tushib qolgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Bizningcha buni hal etishning bosh sababi, avvalombor yoshlarni o'qishga jalb etish muammosidir.

Jumladan, Davlat statistika qo'mitasining 2017- yilgacha bo'lgan ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda 25 va undan katta yoshli aholining har 1000 nafaridan 163 nafari oliy ma'lumotlidir. Umumiy aholining soniga nisbatan mamlakatimiz aholisining bor yo'g'i 12% oliy ma'lumotga ega ekan. Investitsiyalar davlat qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 18, 5 million o'rtta va oliy ma'lumotli kadr bor. Bu ko'rsatkichlar oliy ta'lim qamrovi tor ekanidan dalolatdir.

2018- yil 1 sentyabr holatiga ko'ra, 32 milliondan ortiq aholi uchun 81 ta oliy ta'lim muassasasi, 15 ta hududiy filial, xorijiy universitetlarning 7 ta filiali faoliyat yuritgan. 2018- yil birinchi choragiga muvofiq ulardagi talabalar umumiy

soni 260 ming 905 tani tashkil etgan holos. **Ushbu raqamlar 2018- yilgacha bo'lgan davrda oliy ta'lim qamrovi bo'yicha ko'rsatkichdarmiz anchagina past ekanligini**, aholini, ayniqsa yoshlarni o'qishga ko'proq jalb etish zurratini tug'dirgan edi. Qachonki fuqaro biror mutaxassislikka ega bo'lsagina ish o'rni haqida o'ylashi mumkin. Darhaqiqat, o'qishga kira olmagan yoshlar qanday qilib ish topa olishi mumkin? Bu savol barchani o'ylantirish shubhasiz.

Shu bois mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotasi 20% ga ko'paytirildi, sohada jadal islohotlar amalga oshirilishi natijasida tizimda jiddiy islohotlar qilindi. 2018 yildan j'tiboran mamalkatimizda OTM lar va ular filiallari soni xorijiy OTM lar filiallari soni bilan qo'shib hisoblaganda orta boshladi.

Ta'lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi qator Prezident Farmonlari va Qarorlari qabul qilindi. Ayniqsa "2018-2019 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish to'g'risida" Prezident Qarorida sirtqi va ke'tki ta'lim yo'nalishlarini ochish, ular uchun umumiy kvotaning 30 % gacha belgilanishi, bakalariat bosqicha ayrim yo'nalishlarida 3 yillik ta'limning joriy etilishi va magistratura ayrim yo'nalishlarida 1 yillik ta'limning joriy etilganligi, abituriyentlarga **2020-2021 o'quv yilidan boshlab 5 ta oliy o'quv yurtiga kirish uchun hujjat topshirish** imkoniyatining yaratilgani ulkan islohotlardan biri bo'ldi. 2019 yil 1 sentyabriga kelib O'zbekistonda oliy o'quv yurtlari soni 113 taga yetgani, 2020 yil 1 sentyabriga qadar ular soni 120 taga yetgani ushbu sohada ham jiddiy islohotlar ketayotganligini, sohani jahon ta'lim tizimiga intergatsiyalashayotganligi tasdiqlaydi.

To'g'ri, barchani oliy ta'limga qamrab olish imkonsizligi bois, yurtimizda endi 9-sinfni bitirganlar kollejda majburiy o'qitilmaydi, yoppasiga majburan o'rta maxsus ta'limga jalb etish shu paytgacha o'zini oqlamadi. Shu bois o'quvchi o'rta ta'limni o'tagach, ixtiyoriy ravishda o'ziga kerakli soha bo'yicha kollejda o'qish imkoniyatiga ega bo'ladi. Respublikamızda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi hamda oliy ta'lim qamrovining kengayishi, yoshlarni bo'sh yurishlariga o'rin qoldirmaydi. Eng asosiysi o'quvchi ota-onadan uzoqda emas, balki uning bag'rida o'qib, kasb hunar egallashi mumkin bo'ladi. Bu esa mahallaning oila bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, 15 ta oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan maxsus sirtqi bo'limlarda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 5 mingdan ortiq pedagoglar uchun oliy ma'lumot olish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida barcha sohalar qatori ilm, fan va ta'lim sohalarini tubdan isloh qilish masalasi xususida fikr-mulohazalarini bayon qilib, bu borada qator tashabbuslarni o'rtaga tashladi. Mamlakat rahbari o'z nutqida bu xususda "Ilm – ma'rifat bizga suv va havodek zarur, sharq allomalaridan bizga qolgan eng katta boylik, bu aql, zakovat ilm, eng katta ineros esa bu tarbiyadir"dedi.

Prezident 2019 yil yakunlari bo'yicha o'z mulohazalarini bildirar ekan, yangi 2020 yilda amalga oshiriladigan ishlar va rejalar xususida o'zining jo'shqin

fikrlarni bayon etdi. Bugungi shiddatli va jadal o'zgarishlar sharoitida, dedi Prezident har birimiz mamlakat iqtisodiyoti va taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shishimiz, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotni barpo qilishimiz zarurligini uqdirar ekan, "Raqamli texnologiyalarni o'rganishga intilmagan rahbar vaqtinchalik rahbar, uning kelajagi yo'q", deya qayd etdi. Shu boisdan, **2020 yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"**, deb e'lon qilindi.

Davlatimiz tomonidan sog'lom avlod tarbiyasida sportning muhim ahamiyati va uni tinimsiz rivojlantirish ishlariga g'amxo'rlik ishlari bugungi kunda ham izchil davom ettirilmoqda. Xususan, 2011-2016 yillarda **jismoniy tarbiya va sportni** rivojlantirish, shuningdek, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan 1 trillion 230 milliard so'm ajratilgan. «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada musobaqalari bilan chegaralanib qolish kerak emas. Iqtidori o'smir va qizlarni tanlab olish va tarbiyalash bo'yicha jiddiy seleksiya ishlarini amalga oshirish zarurligiga urg'u berilmoqda. Jumladan, 2018- yilda sport sohaslarini rivojlantirish yo'lida ham muhim qadamlar qo'yildi. Ayniqsa, yurtimiz yoshlari Indoneziyada bo'lib o'tgan navbatdagi **Osiyo va Para-Osiyo** o'yinlarida, Argentinada o'tkazilgan o'smirlar Olimpiadasida yuqori o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish yana bir dolzarb vazifadir. Bu borada sportni jadal rivojlantirish, xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishgan sportchilarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga, yosh avlod o'rtasida sportni ommalashtirish maqsadida eng chekka tumanlarda ham bolalar va o'smirlar sport maktablarini tashkil etish. **2020- yilda Tokioda** o'tkaziladigan yozgi Olimpiadaga puxta tayyorgarlikni boshlash, mamlakatimizda qishki sport turlari bo'yicha xalqaro talablar darajasida sportchilar tayyorlash samarali tizimini yaratish zarurligi Prezident tomonidan 2018 hamda 2019- yillardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida o'z aksini topdi.

2019- yil 15 martda poytaxtimizda "**Humo**" muz sporti saroyi ishga tushirildi. Toshkent viloyatining "**Amirsoy**" dam olish maskanida zamonaviy tog' chang'i sporti majmuasi barpo etildi. **2030- yilgi yozgi Osiyo o'yinlarini** O'zbekistonda o'tkazish belgilandi. Bu esa O'zbekiston tarixidagi muhim voqeya bo'ldi.

**Turizm.** Bugungi kunda yana bir muhim masalaga davlat ahamiyatidagi muhim masala sifatida qaralmoqda. Ya'ni mamlakatda turizmni rivojlantirish, sohaga investitsiyalar jalb etish, kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks choralar ko'rish, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatlardan unumli foydalanish, ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi.



Vaholanki, 2025- yilga borib yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida madaniy meros ob'ektlarini asrash, ularni kelajak avlodlarga yetkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash hamda viloyat hududidagi tarixiy, madaniy va me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni muhofaza qilish, ilmiy, amaliy jihatdan o'rganish maqsadida qator chora tadbirlar ko'rilmogda.

Bu ishlar shubhasiz mamlaktimizda Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-sonli "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo komissiya to'g'risidagi Nizom", "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros ob'ektlari davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi Nizom" va "Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy -madaniy ekspertizasi to'g'risidagi Nizom"lar, Vazirlar Mahkamasining "Tarixiy obidalar, ziyoratgohlar va qadamjolarida aholiga hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatishni yanada yaxshilash choralari to'g'risida"gi majlisi bayonnomasi talablarini bajarish maqsadlariga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010- yil 7 oktyabrdagi **222-sonli** "2010–2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi. **2014- yil 21 iyuldagi 200-sonli "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"** gi, 2018- yil 15 fevraldagi 120-sonli "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarori muhimdir. Shuningdek, 2018- yil 16 yanvardagi F-5181-sonli **"Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to'g'risida"** gi qarori va farmoyishi hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

2013- yilgacha bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamiz hududidagi jami 3000 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari, tarixiy obida va muqaddas ziyoratgohlar, arxeologik manzilgohlar, monumental yodgorliklar YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan" bo'lsa, 2018- yilgacha ular **7 ming 300 dan** ortiqni tashkil etgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2020 yil 9 dekabr kuni turizm va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda 2021 yildagi vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda 2021 yilda 1,7 million xorijiy, 7,5 million mahalliy sayyohni jalb qilish, turizm xizmatlari

eksportini kamida 370 million dollarga yetkazish maqsad qilinganligi ta'kidlandi. Prezident **2021 yilda ziyorat turizmi bo'yicha 5 mingga yaqin** aviaqatnovlarni amalga oshirib, **700 ming** ziyoratchini jalb qilish va **130 million dollarlik** xizmatlar eksportini ta'minlash zarurligini qayd etdi.

Albatta, ziyorat turizmi rivojlanishi uchun o'sha davlatda diniy-ma'rifiy sohalar ham rivojlanmog'i lozim. Bu borada davlatimiz rahbarining 2018 yil 16 apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Hozirda fondga "Payme", "Click" va "M-bank" elektron to'lov tizimlari orqali mablag'larni jalb etishga mo'ljallangan xizmatlar ishga tushirilgan. Berilgan ko'rsatmalarga asosida Toshkent shahridagi 12 ta masjidlar va "Zangota" ziyoratgohi hududiga "Kapitalbank", "Ipotekabank" va "Ipak yo'li bank"larining infokiosklari o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi "Vaqf" xayriya jamoat fondi Nizomidan kelib chiqib, jang'armaga tushgan mablag'larni maqsadli sarflash bo'yicha sarf-xarajalar yo'nalishlari ishlab chiqildi

Jamiyatda milliy g'oyani rivojlantirish, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yurtimiz tarixini o'rganishda o'tgan davrda arxeologik tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi, Fanlar akademiyasining Arxeologiya va San'atshunoslik institutlari faoliyatini, oliy o'quv yurtlari va muzeylardagi arxeologik izlanishlarni chet ellik hamkorlar bilan birga tashkil etish zarurligi belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblارimizning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarurligi shu maqsadda, O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi tarkibida "**O'zbekiston tarixi**" telekanalini tashkil etilishi, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda keng xalq ommasi uchun ham muhim voqeya bo'ldi.

Albatta Prezident Shakvat Mirziyoev rahbarligi yillarida mamlakatning faol tashqi siyosati, ya'ni O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish strategiyasi yangi bosqichga chiqdi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng jahon hamjamiyati orasida munosib o'rin egallashga qarakat qilmoqda. O'zbekistonning o'z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo'g'rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish uchun imkon bermoqda.

Keyingi yillarda mamlakatning faol tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlari yanada kengaydi. Xususan, avvalombor yaqin qo'shni davlatlar bilan barcha sohalarida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi muhim voqeya bo'ldi. Jumladan, **Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston davlatlari**

**bilan uzoq yillar mobaynida yopilgan chegaralar ochildi.** Mazkur davlatlar aholisining chegaradan binalol o'tib, qaytishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik, barqarorlikni ta'minlashdir. Ayniqsa qo'shni Afg'oniston Respublikasida siyosiy barqarorlikka erishish uchun sa'y harakat olib borish, asosiy o'rinda turadi.

Biz xalqaro hamjamiyatni Afg'oniston hukumati rahbarligida tinchlik muzokaralarini boshlash zaruratini qo'llab-quvvatlashga da'vat etdik, dedi Prezidentimiz. Shu munosabat bilan 2018- yilning mart oyida Afg'oniston bo'yicha o'tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg'oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman bo'lganini ta'kidlash lozim. Konferensiya yakuni bo'yicha qabul qilingan, uning barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan «Toshkent deklaratsiyasi» Afg'onistonda tinchlik o'rnatish bo'yicha o'ziga xos dastur bo'ldi. Aynan ushbu konferensiyadan so'ng Afg'onistondagi barcha siyosiy kuchlar, jumladan, «Tolibon» harakati ishtirokida muzokaralar jarayonini boshlashga qaratilgan xalqaro harakatlar yanada faollashdi.

O'zbekiston Afg'oniston rahbariyati va mamlakatning yetakchi siyosiy kuchlari, jumladan «Tolibon» harakati vakillari bilan bir qator muhim muzokaralar o'tkazdi. Ushbu siyosiy kuchlar afg'on muammosini hal qilishda O'zbekiston samarali vositachi bo'la olishi mumkinligini e'tirof etdi. Biz uchun eng muhim pirovard natija – Afg'onistonda tinchlik muzokaralarini boshlash va milliy yarashuvga erishishdan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – **«Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» rezolyusiyasi** qabul qilindi. Ushbu rezolyusiyani qabul qilish tashabbusi 2017- yil sentyabr oyida Bosh Assambleyaning 72-sessiyasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. Bizning taklifimizni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan 193 ta davlat keng qo'llab-quvvatlagani jahon hamjamiyati tomonidan O'zbekistonning sa'yharakatlariga berilgan yuksak baho va e'tirof sifatida barchamizga katta mamnuniyat va g'urur-iftixor bag'ishlaydi. 2018- yilda jahonning yetakchi davlatlari bilan ham o'zaro manfaatlari aloqalar sezilarli darajada jadallashdi.

Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashriflari va xorijiy davlatlar rahbarlari bilan muzokaralari natijasida Rossiya, Belarus, AQSh, Xitoy, Fransiya va boshqa Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya, Misr, hamda Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Yaqin Sharq davlatlari bilan strategik sheriklik munosabatlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi.

**Rossiya Federatsiyasi** Prezidenti Vladimir Putinning yurtimizga amalga oshirgan davlat tashrifi (2018- yil 19–20 oktyabr) davomida o'tkazilgan muhokamalar yakunlari bo'yicha yadro energetikasi va kosmos sohasidagi hamkerlikni o'z ichiga olgan turli yo'nalishlarda umumiy qiymati 26 milliard dollarlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha 20 ta hukumatlararo

hujjat imzolandi. Bu tashrif asosida tuzilgan shartnomalar asosida 79 ta O'zbekiston–Rossiya qo'shma korxonalari, 23 ta yangi savdo uylari, 20 ta ulgurji va chakana savdo markazlari ochilishi rejalashtirilgan. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'onning O'zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida (2018- yil 29 aprel – 1 may) oliy darajadagi O'zbek–Turk strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Tomonlar yaqin yillarda o'zaro tovar ayraboshlash hajmini 5 milliard dollarga yetkazish bo'yicha aniq radbirlar yuzasidan kelishib olishdi.

Prezidentimizning AQS<sup>h</sup> ga rasmiy tashrifi (2018- yil 15–16 may) O'zbekiston – Amerika strategik hamkorligini rivojlantirishga kuchli turki berdi. Tarixiy tashrif davomida savdo, fan, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan qator hujjatlar imzolandi. Ikki mamlakat kompaniyalari qiymati 4,8 milliard dollarlik 20 dan ortiq yirik shartnomalarni imzolashdi. Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh Said Husayn Halil as-Sisi 2018- yil 4–5 sentyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

Davlatlarimiz o'rtasida yoshlar, sport, investitsiya, qishloq xo'jaligi sohaslarida hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumlari, ta'lim, turizm, arxeologiya, madaniy meros va muzeyshunoslik sohaslarida hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga doir bitimlar, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2019–2020 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi va adliya vazirliklari o'rtasida hamkorlik memorandumi singari jami 12 ta hujjat imzolandi. Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning O'zbekistonga rasmiy tashrifi davomida (2018- yil 12–14 sentyabr) 19 ta kelishuv va umumiy qiymati 263 million dollarlik 56 ta savdo shartnomasi imzolandi. Prezidentimizning Hindistonga davlat tashrifi davomida (2018- yil 30 sentyabr – 1 oktyabr) 20 dan ziyod hukumatlararo hujjatlar va qiymati 3 milliard 200 million dollarlik shartnomalar imzolandi. Prezidentimizning Fransiyaga rasmiy tashrifi (2018- yil 8–9 oktyabr) O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoev Yevropa Ittifoqi davlatlariga qilgan birinchi safari bo'ldi.

Tashrif yakunida 10 ta hukumatlararo shartnoma va umumiy qiymati 5 milliard yevroga teng bo'lgan investitsiyaviy loyihalar bo'yicha bitimlar imzolandi. Umuman olganda, 2018 yil mobaynida 30 dan ortiq davlatlararo va halqaro tuzilmalar rahbarlari bilan oliy darajadagi muzokaralar olib borildi, 180 ta ikki tomonlama shartnoma hamda kelishuvlar tuzildi.

Shuningdek, hukumat, vazirlik, idoralar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari darajasida 360 ta tashrif amalga oshirildi. O'zbekiston diplomatiyasining yutuqlaridan biri o'zbekistonlik taniqli diplomat **Vladimir Norovning** 2019- yil 1 yanvardan boshlab **ShHT Bosh kotibi** lavozimiga tasdiqlanganligi ham tarixiy voqea bo'ldi. 3 yanvarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev V. Norovni ShHT Bosh kotibi sifatida qabul qildi. O'zbekiston tashqi siyosatidagi ijobiy o'zgarish va natijalarni yana boshqa ma'lumotlar misolida ko'rish mumkin.

Faol tashqi siyosat tufayli mamlakati mizning xalqar obro' -e'tibori 2018- yil – «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash

yili) O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev dunyoning turli mamlakatlariga 30 ga yaqin oliy darajadagi tashriflar bilan bordi hamda nufuzli tashkilotlarning sammitida qatnashdi. Keyingi ikki yil ichida xorijiy mamlakatlar prezidentlari mamlakatimizga 16 ta tashrifni amalga oshirdi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. Unda bildirilgan takliflar xalqaro hamjamiyat tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi; Prezidentimiz tashabbusi bilan, ilk bor Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvi tashkil etildi; Afg'oniston bo'yicha «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusidagi yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi o'tkazildi; Prezidentimiz Xitoyning Sindao shahrida SHHT Davlat rahbarlari Kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi; BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondi faoliyati yo'lga qo'yildi va hokazo.

2018- yil 22 sentyabr kuni Toshkent shahridagi «Miran International» mehmonxonasida xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida tashkil etilgan «O'zbekistonning Harakatlar strategiyasi doirasidagi tashqi siyosiy faoliyati» mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi. Unda tashkilotchi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti vakillari bilan bir qatorda AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Belgiya, Fransiya, Xitoy, Yaponiya, Pokiston va Hindistondan tashrif buyurgan, jami 26 nafar ekspert ham ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT minbarida so'zlagan ilk nutqidan so'ng tashkil etilishi ramziy ma'noga ega bo'lib, O'zbekistonning xalqaro maydonda ijobiy imijini oshirish, olib borilayotgan islohotlar bilan jahon hamjamiyatini xolisona tanishtirish kabi tashabbuslar kelgusida yanada qo'payishi tabiiydir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar, birinchi navbatda, Rossiya Federatsiyasi bilan, shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Koreya Respublikasi va Yaponiya bilan munosabatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan faol tashqi siyosat olib borishda muhim rol o'ynadi. O'zbekiston 2017- yildan boshlab Xitoy tashabbusi bilan tashkil qilingan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumining ishtirokchisidir. Mazkur hamkorlik ikki yo'nalish- quruqlik va dengiz orqali davlatlararo hamkorlikni musathkamlashga qaratilgan. U hozirgi kunda Osiyo, Afrika va Yevropadagi 65 mamlakatni qamrab olgan. **2019- yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumi** mazkur forumda nutq so'zlab, O'zbekiston va Xitoy sheriklik aloqalarini yuksaltirishdan minnatdorligini qayd qilgan edi. Umuman, qayd qilingan ma'lumotlarga tayanib, O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanayotganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu esa kelajakda har ikki davlat o'rtasidagi sherikchilik aloqalarining strategik imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda respublikamizda ta'lim sohasida ham xalqaro hamkorlikda sezilarli ijobiy siljishlarga erishildi. Agar raqamlarga murojaat qilinsa, birgina

2018- yilda mamlakatimizda jami 13 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, Samarqandda «Ipak yo'li» turizm xalqaro universiteti, Rossiya Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi «Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti»ning Olmaliq shahridagi filiali, Toshkent shahrida Janubiy Koreyaning Puchon universiteti filiali faoliyat boshladi.

Davlatimiz rahbarining 2018- yil 25 sentyabrdagi Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida «**El-yurt umidi**» jamg'armasi tashkil etildi. 2018- yilda ilk bor xalqaro tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi yaratildi, ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlari tahlil qilindi. Mamlakatimizda o'nga yaqin oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari tashkil etildi. Masalan, Olmaliq shahrida Moskva po'lat va qotishmalar institutining, Toshkent shahrida esa AQShning Vebster universitetining filiali ochildi.

O'zbekistonning faol tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarildi. Buning yaqqol isboti sifatida 2018- yilda tashkil qilingan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvi muhim rol o'ynamoqda. Unda mintaqaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, atrof muhti hamda xavfsizlik masalalariga oid o'nga yaqin masalalar muhokam qilinishi belgilanganligi muhim rol o'ynadi. Jumladan, uning birinchi uchrashuvi dastlab Qozog'iston poytaxti Nursulton shahrida bo'lib o'tgan bo'lsa, **“Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuvi” 2019- yil 29 noyabrda** Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Sammitda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport kommunikatsiya, madaniy gumanitar va boshqa sohalarida mintaqaviy hamkorlikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda tomonlar shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir dolzarb masalalar yuzasidan kelishib oldilar. Uchrashuv so'nggida yakuniy hujjat qabul qilindi.

Ayniqsa so'nggi yillarda, xususan 2020- yilning birinchi yarmi jahon xalqlari tarixida mashaqqatli va o'ta murakkab sinov davri bo'lganligi, Xitoyda vujudga kelgan koronavirus infeksiyasi butun dunyoga tarqalib, barcha sohalar qatori ayniqsa jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qilganligi sir emas. Bu esa yirik iqtisodiyotga ega davlatlarda ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishi, global ishlab chiqarish zanjirlari va savdo aloqalarining izdan chiqishi, dunyo moliya bozorlarida xom ashyo tovarlari narxining pasayishi va konyukturaning yomonlashuvini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan **2020- yil 19 martda** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”** gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonga ko'ra O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi huzurida Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil qilindi. Barcha tarmoqlar singari jamg'armaning vazifalari qatorida quyidagilar tadbirkorlikni va aholi bandligini qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2021 yil. 22 apreldagi** “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga

ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmonini qayd etish o'rinni. Mazkur farmonga ko'ra, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni doimiy ish bilan band qilish, qo'shimcha daromad olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha quyidagi tartiblar joriy qilindi:

a) 2021 yil 1 maydan boshlab, 2023 yil 1 yanvargacha qadar ish beruvchilarga ular tomonidan 25 yoshdan oshmagan xodimlar uchun to'langan ijtimoiy soliq summasi Davlat byudjetidan to'liq qaytarib berilishi, bunda, ijtimoiy soliq summasi yosh xodimlar 6 oy davomida uzluksiz mehnat faoliyatini amalga oshirishi sharti bilan yettinchi oydan boshlab qaytarilishi ko'zda tutildi;

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollarini xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan subsidiyalar ajratish belgilandi;

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan ishsiz yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlik sub'ektlariga davlat mulkini ijaraga olishda ijara to'lovlaridan quyidagi imtiyozlar taqdim etildi:

- 2021 yil 1 iyundan boshlab, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun bino va inshootlarni ijaraga olgan yosh tadbirkorlarga bir yillik ijara xarajatlarining 30 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha bo'lgan miqdori «Yoshlar daftari» jamg'armalari hisobidan kompensatsiya qilinishi qayd etildi. Ushbu farmonning qabul qilinishi yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning bandligiga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish, ular munosib daromad olishi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, bu borada olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

2021 yil birinchi choragida mamlakatimiz bo'yicha 648 ming nafar ishsiz yoshlar «Yoshlar daftari»ga kiritilgan bo'lsa, birinchi chorakda shundan 283 mingining bandligi ta'minlangan. Xususan, 175 ming nafar yoshga qishloq xo'jaligida bandlikni ta'minlash va tadbirkorlik qilish uchun **45 ming gektar yer maydoni ajratilgan.**

Yana bir muhim huquqiy hujjat 2021 yil 22 aprelidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbiarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori qabul qilinganligini qayd etish o'rinni. Unda biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirishga e'tibor qaratildi. Unga ko'ra **2021 yil 1 maydan boshlab** tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi qo'shimcha choralari joriy etilishi belgilandi:

-tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan, Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmagan miqdordagi foiz

stavkasi bilan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga milliy valyutada beriladigan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun kompensatsiya, uning belgilangan miqdorlarini saqlab qolgan holda, taqdim etiladigan bo'ldi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'lmagan uljorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik berilishi belgilandi<sup>2</sup>.

**6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi mamlakat taraqqiyotining yangicha dasturi.** 2017- yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni imzolandi. Farmonda belgilangan strategiya loyihasi va unda ko'zda tutilgan muhim strategik masalalar respublikamiz ekspertlari hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi.

Strategiya loyihasi o'ta dolzarb, ya'ni aholining turmush tarzini yanada yaxshilash masalalarini kompleks o'rganish, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, mamlakatda qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahtil qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan edi. Harakatlar strategiyasini kelajakda beshta ustuvor yo'nalish bo'yicha amalga oshirish ko'zda tutildi. Ular quyidagilar:

**Birinchi ustuvor yo'nalishda** davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish, xususan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;

**Ikkinchi ustuvor yo'nalishda** qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

**Uchinchi ustuvor yo'nalishda** iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish;

**To'rtinchi ustuvor yo'nalishda** mamlakatda ijtimoiy sohani rivojlantirish;

**Beshinchi ustuvor yo'nalishda** xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi muhim vazifalar belgilandi.

Ma'lumki so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyada qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

---

<sup>2</sup> Ўша қарор.



Inson va uning manfaatlarini ko'zlab ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishi bu, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ya'ni davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirishga e'tibor qaratdi.

Harakatlar strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan dastur bu ikkinchi yo'nalish hisoblanadi. Ya'ni sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish belgilab berildi. Uning muhimligi shuningdek sud tizimini isloh qilish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Uchinchi ustuvor yo'nalish**, strategik dasturning yana muhim ustuvor jabhasi bu, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirishni ko'zlaydi. Strategiyada xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish masalalari ham keng o'rin olgan.

**To'rtinchi muhim ustuvor yo'nalish** etib belgilangan keyingi masalalar ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilganligi aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish inson manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Unga barcha ijtimoiy sohalarni modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ham belgilandi.

**Beshinchi ustuvor yo'nalish** bu, davlatimiz xavfsizlik tizimi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik,

barqarorlik va ahil qo'shniichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash beshinchi ustuvor yo'nalishda belgilab berildi.

2017- yildan e'tiboran barcha sohalarda davlatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Barcha sohalarda keng ko'lami qayta qurish va islohotlarning yangi davri boshlandi. O'zbekiston tubdan yangilana boshladi. Barcha rahbarlar faoliyati qaytadan ko'rib chiqildi, tanqidiy tahlil qilindi, ularga xalq oldida shaxsiy javobgarlik yuklandi. Asosiy e'tibor ancha yillar mobaynida yetilib qolgan masalalarni hal qilish, xalq manfaatlarini va muammolarini hal qilishga qaratildi.

Yuqorida qayd qilinganidek, 2020- yil 19 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" farmoniga ko'ra barcha tarmoqlar singari jamg'armaning vazifalari qatorida quyidagilar tadbirkorlikni va aholi bandligini qo'llab-quvvatlashga qaratildi:

-kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan birinchi navbatda ijtimoiy ahamiyatga ega iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, sotish va sotish uchun berilgan kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplashga kafillik hamda kompensatsiya taqdim etishni kegaytirish;

- uch yilgacha bo'lgan muddatda foizsiz soliq to'lash muddatlari bo'yicha kechiktirish taqdim etilishi hamda tadbirkorlik faolligini sustlashishi munosabati bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarida olimmay qolinadigan daromadlar o'rni to'ldirish;

- inqirozga qarshi kurashish jamg'armasini tashkil etish hamda tadbirkorlikni va aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab quvvatlash uchun xarajatlarni oshirish;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliqning oylik eng kam summasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qadar kamaytirish;

- 2021- yil 1 yanvarga qadar tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini soliq auditidan o'tkazish jarayonini to'xtatib turish vazifalari belgilandi.

### **O'zbekistonning dunyo miqyosida reytingining oshib borishi.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev olib borayotgan uzoq ishtirokni ko'zlovchi pragmatik siyosat natijasida keyingi qisqa davr mobaynida mamlakatimizning xalqaro maydandagi obro'-e'tibori ancha mustahkamlandi. Dadli islohotlar, kreativ yondashuvlar, kutilmagan qarorlar va shiddatli odimlar tufayli O'zbekistonning tashqi siyosati jahon hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarimiz keskin kengayib, yurtimizning dunyo miqyosidagi ijobiy imiji shakllandi. Ta'kidlash joiz, bu o'rinda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda yuqori o'rinlarni egallashiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular quyidagilarda aks etmoqda:

- xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholash -- iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida dunyoda umum qabul

qilingan vosita hisoblanadi. Bugunga kelib bu kabi reyting va indekslar nafiqat eksperdlar, balki davlatlar darajasida ham islohotlar va iqtisodiy siyosatning muvaffaqiyati mezonlari sifatida qo'llanila boshlandi. BMTning Inson kamoloti indeksi (Human Development Index), Jahon iqtisodiy forumning **Global raqobatbardoshlik indeksi** (Global Competitiveness Index), Jahon bankining biznes yuritish reytingi (Doing Business) va shu singari boshqa cator omillar bo'yicha natijalar davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda turli darajadagi dasturlar ishlab chiqilishida maqsadli yo'nalish sifatida xizmat qilmoqda.

Jahon miqyosidagi xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy reytinglar orasida, birinchi navbatda, Jahon bankining **"Biznes yuritish"** reytingini qayd etish lozim. "Biznes yuritish" reytingi hisoboti Jahon bankining har yili o'tkazadigan tadqiqotlari natijasi hisoblanib, unga ko'ra, 190 mamlakatda 10 ko'rsatkich bo'yicha biznes yuritish qulayligi baholanadi. Hisobot kichik va o'rta biznesning hayotiy faoliyati davomida uni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni baholashga, amaliyotda qo'llash tartibiga yo'naltirilgan. Ushbu hisobot Jahon banki tomonidan 2003 yildan beri tayyorlanib kelinadi va har yili kuzda e'lon qilinadi.

Quyvonarlisi shundaki, keyingi 5 yil davomida "Biznes yuritish" reytingida O'zbekiston jahonning 190 mamlakati orasida 2012- yildagi 166-o'ringandan 2017- yilda 74-o'ringa ko'tarilib, biznes yuritish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish ko'rsatkichi bo'yicha islohotchi mamlakatlarning birinchi o'rtaligidan joy oldi. O'zbekiston 2022- yilgacha Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" hisobotidagi jahon mamlakatlarning birinchi yigirmataligi darajasiga mos keladigan eng qulay shart-sharoitlarni yaratishga intilmoqda. Bu maqsad Prezidentimizning 2018- yil 13 iyuldagi **"Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"**gi Qarorida o'z ifodasini topgan.

Biroq, shu kunga qadar bizda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi yaratilmagani sababli mamlakatimiz xalqaro reytinglarda pastki o'rinlarni egallab kelayotganini ham yodda tutishimiz lozim.

Misol uchun, BMT tomonidan ishlab chiqilgan, inson salohiyatining asosiy xususiyatlari sifatida turmush darajasini, savodxonlikni, ta'limni va uzoq umr ko'rishni o'zaro taqqoslash va baholashni o'z ichiga oluvchi Inson kamoloti indeksida O'zbekiston o'tgan yili 189 davlat orasida 105-o'ringa munosib topilgan. Vaholanki, bu hisobotda Rossiya Federatsiyasi – 49, Qozog'iston – 59-pog'orada turibdi. Yoki Meros jamg'armasining Iqtisodiy erkinlik indeksi bo'yicha 2016- yilgi hisobotida O'zbekiston 178 davlat ichida 166-o'rinni band qilib, erkin iqtisodiyotga ega bo'lmagan davlat sifatida baholangan. Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksida esa, O'zbekiston mavjud emas edi.

Shunday ekan, mamlakatimizda iqtisodiy o'sishning ishonchli bazasini yaratish va aholi farovonligini oshirish biz uchun, hozirgi kundagi jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy jarayonlar fonida, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega. Binobarin, investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirish, institutsional va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasidagi muammolarni hal qilishning samarali usullaridan biri bu yurtimizning umume'tirof etilgan xalqaro reytinglarda faol ishtirokini ta'minlash va ushbu tadqiqotlarda muayyan natijalarni qo'lga kiritishdir. Bu, o'z navbatida, nafaqat O'zbekistonga bo'lgan ishonchning ortishiga, balki dolzarb masalalarni aniq belgilab olib, eng maqbul xalqaro amaliyotga asoslangan biznes va innovatsion faoliyat sharoitlarini shakllantirish borasida ham muvaffaqiyat omili bo'ladi.

Shuning uchun ham 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida "O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish" nazarda tutilgan.

Yana shuni ham qayd etish lozim, mamlakatimizda xalqaro reyting va indekslarda ildamlash maqsadida, ushbu reyting va indekslar doirasidagi indikatorlar bilan cheklanib qolmay, balki parallel ravishda Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan barcha sohalardagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha aniq maqsadli ishlar amalga oshirilmog'da. Jumladan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorning rolini kuchaytirish, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish va boshqa masalalarda qator chor-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq qilinib kelinmog'ga. Ayniqsa, kichik biznes sub'ektlarining muammolarini hal etishda sudlar tomonidan adolat o'rnatish, iqtisodiy sudlar faoliyatini takomillashtirish, umuman, aholining sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash davlat faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etmog'ga.

Mamlakatimizda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, dunyoning yetakchi xalqaro tahlil va ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish muassasalari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada yuksaltirish dolzarb masaladir. Bu borada samarali va keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, milliy turistik brendni yaratish, xorijiy nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishish, xalqaro tashkilotlar vakillarini yurtimizga taklif qilish va ularni yuz berayotgan o'zgarishlar bilan tanishtirish kabi jihatlar alohida o'rin tutadi. Zero, O'zbekistonni dunyoga ko'rsatish, xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rinni yuksaltirish faqat va faqat xalqimiz farovonligi, mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti hamda davlatimiz kuch-qudratining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan uzoq istiqbolni ko'zlovchi pragmatik siyosat natijasida keyingi qisqa davr mobaynida mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori ancha mustahkamlandi. Dadil islohotlar, kreativ yondashuvlar, kutilmagan qarorlar va shiddatli odimlar tufayli O'zbekistonning tashqi siyosati jahon hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi. Xorijiy davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarimiz keskin kengayib, yurtimizning dunyo miqyosidagi ijobiy imiji shakllandi.

Ta'kidlash joiz, bu o'rinda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda yuqori o'rinlarni egallashiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro reyting va indekslar dunyodagi institutsional muhitning sifatini baholash – iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida dunyoda umum qabul qilingan vosita hisoblanadi.

Dunyodagi nufuzli **“Fitch Ratings”** va **“Standart & Poor's”** reyting agentliklari birinchi marta mamlakatimizning xalqaro suveren kredit reytingini belgiladi, respublikada uning faoliyati butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladigan ushbu sohani rivojlantirish zarurini yaratganligini ko'rish mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotda O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora tadbirlari to'g'risda” gi qarori elon qilindi.

Yaqin tariximizga murojaat qilsak, 2017- yilda O'zbekiston biznes yuritishining yengilligi bo'yicha jahon reytingida 74-o'ringa ko'tarilib, korxonalarni ro'yxatga qo'yish bo'yicha 11-o'rin, elektr tarmoqlariga ulanish bo'yicha 27-o'rin, kreditlash bo'yicha 55-o'rin, xususiy mulkni ro'yxatga olish bo'yicha 73-o'rinni egallagan. Iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari aholi o'rtasida daromadlarni nisbatan mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlagan edi.

Ayniqsa soliqqa tortish ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatimiz reytingining sezilarli yaxshilanishiga sabab bo'ldi (138-o'ryildan 78-o'ringa). “Biznesni yuritish” jamoasi ekspertlari baholariga ko'ra, O'zbekistondagi tadbirkorlik sub'ektlariga soliq yuki darajasi AQSh, Avstraliya, Germaniya, Shvetsiya, Turkiya, Xitoy va Rossiya kabi davlatlardagidan ancha pastdir. Ushbu reytingda mamlakatimizning sezilarli darajada o'sishi “soliq” baholash ko'rsatkichi hisobidan ta'minlangan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2015- yilda 61-pog'onaga, 2016- yilda esa yana ikki pog'onaga ko'tarilganligini ko'rish mumkin.

Prezidentimiz Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada mamlakatimizda biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ahamiyatli ishlar olib borilayotganiga qaramasdan, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha hamon jahon mamlakatlari o'rtasida past o'rinlarni egallab kelayotganimizga o'z e'tiborini qaratdi. Xususan, «Jahon banking biznes yuritish sohasidagi reytingida mamlakatimiz qurilish bo'yicha 134-o'rinni egallagan. Bu esa sohada ko'plab muammolar borligidan dalolat beradi. Misol uchun, qurilish sohasida ruxsat

berishga oid 17 ta tartib mavjud bo'lib, ularni olish uchun o'rtacha 246 kun sarflanadi, deya qayd qiladi davlat rahbari.

Shu boisdan tadbirkorlik sub'ektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari faoliyatini samaradorligini alohida qayd etish zarur. Ularning faoliyati ruhsatnomalar va litsenziyalarni rasmiylashtirishning oshkorligi va tezkorligini ta'minlash, davlat organlari o'rtasida o'zaro hamkorlikning elektron shakllarini joriy etish, qolaversa, byurokratik to'siqlar va ariza beruvchilarning moliyaviy harajatlarini sezilarli ravishda qisqartirish imkonini bermoqda. Bu borada "Yagona darcha" markazlari orqali amalga oshiriladigan mulkni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston o'z mavqeyini mustahkamlab, jahon reytingida 73-pog'onani band etdi. Ijobiy tajribalarni inobatga olgan holda 2017- yilda faqat "Yagona darcha" markazlari orqali ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 2 martaga, ya'ni 16 tadan 34 tagacha oshirildi.

Yana shuni ham qayd etish lozim, mamlakatimizda xalqaro reyting va indekslarda ildamlash maqsadida, ushbu reyting va indekslar doirasidagi indikatorlar bilan cheklanib qolmay, balki parallel ravishda Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan barcha sohalardagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha aniq maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorning rolini kuchaytirish, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish va boshqa masalalarda qator chor-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq qilinib kelinmoqda. Ayniqsa, kichik biznes sub'ektlarining muammolarini hal etishda sudlar tomonidan adolat o'rnatish, iqtisodiy sudlar faoliyatini takomillashtirish, umuman, aholining sud-huquq tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash davlat faoliyatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish, dunyoning yetakchi xalqaro tahlil va ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish muassasalari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi imijini yanada yuksaltirish dolzarb masaladir. Bu borada samarali va keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish, milliy turistik brendni yaratish, xorijiy nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishish, xalqaro tashkilotlar vakillarini yurtimizga taklif qilish va ularni yuz berayotgan o'zgarishlar bilan tanishtirish kabi jihatlar alohida o'rin tutadi. Zero, O'zbekistontni dunyoga ko'rsatish, xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rinni yuksaltirish faqat va faqat xalqimiz farovonligi, mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti hamda davlatimiz kuch-qudratining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

### **Mavzu yuzasidan tayanach soʻz va iboralar:**

Bozor iqtisodiyoti, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, iqtisodiyot, qishloq xoʻjaligi, aholini ijtimoiy himoyalash qilish, maʼnaviy hayot, din, madaniyat, taʼlim va fan, millat, milliy. Oʻzbekiston va jahon hamjamiyati, hamkorlik, Yangilanayotgan Oʻzbekiston, strategiya.

### **Mustaqil taʼlim mavzulari:**

1. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish va uning oʻziga xosligi
2. Mustaqillik yillarida Oʻzbekiston iqtisodiyoti.
3. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimidagi islohotlar.
4. Mustaqillik yillarida maʼnaviy hayot, madaniyat, taʼlim va fan.
5. Shavkat Mirziyoevning Prezident etib saylanishi va mamlakat strategik taraqqiyotning yangi bosqichiga koʻtarilishi.
6. Yangilanayotgan Oʻzbekiston - islohotlarning yangi bosqichida.
7. Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi yangicha islohotlar va yangilanishlar.
8. Oʻzbekiston ilm va fani taraqqiyotining yangi bosqichida.
9. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish strategiyasi.

### **Nazorat savollari:**

1. Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish va uning oʻziga xosligi xususida maʼlumot bering.
2. Mustaqillik yillarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qanday ishlar qilindi va sohada qanday muammolar yuzaga keldi ?
3. Aytinch, mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoyalash sohasida qanday muammolar yuzaga keldi ?
4. Mustaqillik yillarida maʼnaviy hayot, madaniyat, taʼlim va fan sohalaridagi oʻzgarishlar xususida gapiring.
5. Shavkat Mirziyoevning Prezident etib saylanishi va Yangilanayotgan Oʻzbekistonni qurishdagi tashabbuslari xususida bilimlaringizni bayon qiling.
6. Oʻzbekiston islohotlarning yangi bosqichiga koʻtarilgani haqida gapirib bering.
7. Davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi yangicha islohotlar va yangilanishlarga baho bering.
8. Yangilanayotgan Oʻzbekistonda ilm va fan ravnaqiga qaratilayotgan alohida eʼtibor xususida maʼlumot bering.
9. Oʻzbekistonning jahon hamjamiyatiga tobora integratsiyalashuvi va rivojlanish strategiyasi nimalarda oʻz aksini topmoqda ?

### **Adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. 2019.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. T., 2020 yil 25 nvar.

3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi. // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga l-ilova. T., 2017. 7 fevral.

4. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. T., 2017. 167-bet.

5. Oblomurodov N. Hazaratqulov A, Tolipov F va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (Oliy o'quv yurti talabalari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma). T., 2011. 286-287 – betlar.

6. O'zbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob, Mustaqil O'zbekiston tarixi. T.: «Sharq», 2000.

7. Usmonov Q, Sodiqov M, Burlonova S. O'zbekiston tarixi : oliy o'quv yurt. (tarix yo'nal. tashqari) bakal. uchun darslik /; O'zR OO'MTV. - 2- nchi qayta ishlangan nashri. - Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2016. - 496 b.

8. Aliev B. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti : o'quv qo'll. / . - Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.

9. Tolipov F, Isroilov B va boshqalar. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. // O'quv- uslubiy qo'llanma. T. 2017. 5-bet.



## Tarixiy atamalar izohi

**Avesto** – Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. «Avesto» qadimgi kitob bo'lib, uning dastlabki qismi miloddan avvalgi, ya'ni qariyb ikki ming yil avval vujudga kelgan. Zardushtiylik dinining vatani sifatida O'rta Osiyo qayd qilinadi. «Avesto»da Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona singari davlatlar va tarixiy madaniyat o'choqlari to'g'risida ko'plab qimmatli malumotlar mavjud. Manbalarda aytilishicha, «Avesto» 21 qismdan iborat bo'lgan. Katta «Avesto»dan ayrim muhim oyatlar tanlab olinib, «Kichik Avesto» yaratilganligi qayd qilinadi. «Avesto» O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon mamlakatlari xalqlarining qadimgi davrlarini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi.

**Avtoxton (gr.)** – tub joyli aholi, mamlakatlarning yerli xalqiga nisbatan tarixiy-etnografik adabiyotlarda ushbu so'z qo'llaniladi.

**Aymoq (t.-m.)** – o'rta asr mo'g'ullarida bir hududda yashovchi, bir-biriga qarindosh oilalar birlashmasi aymoq deyilgan. O'rta asrlarda turkiy xalqlarda ham bir necha qabila yoki urug' birlashmasi aymoq deb atalgan. Bu atama hozir ham o'z urug'larini yaxshi bilgan o'zbek xalqi ichida keng qo'llaniladi.

**Ayg'oqchi (t.-m.)** – o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududlarida asosan harbiy atama sifatida qo'llanilgan bo'lib, qo'shinning ma'lumot olib keluvchi darakhilari hamda qo'shinning darakchi bo'limlari ma'nosida keng qo'llanilgan. Shuniigdek, ushbu atamaning yolg'on gap yoyuvchi, ig'vo, tuhmat qilib kun ko'ruvchi shaxs ma'nosida ham qo'llanilgani ma'lum.

**Alaf puli (ar.f.-t.)** – O'rta Osiyo xonliklarida yaylov, bedazor, mevali bog' va uzumzorlardan olinadigai soliq ushbu atama bilan yuritilgan.

**Alloma (ar.)** – O'rta Osiyo xalqlarida ilm-fanning bir yoki bir necha sohasini mukammal egallagan kishi, bilimdon shaxs alloma deb yuritilgan.

**Amin (ar.)** – bir necha xil ma'nomani anglatadi. 1. Buxoro amirligida tuman yoki qishloq oqsoqoli. 2. Bozorda sotuvchilardan soliq undiruvchi mansabdor. 3. Chorizm davrida Farg'ona vodiysi, Samarqand, Kattaqo'rg'on uezdlarining ayrim volostlarida xalq tomonidan saylanib bir yoki bir necha kichik qishloqni boshqaruvchi amaldor. Buxoro amirligida amin amlokdorga, Turkiston harbiy gubernatorligida esa volost boshlig'iga itoat etgan.

**Amir (ar.)** – Islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nomani bildirgan. Arablar ko'p joylarni bosib olib, o'z dinlariga o'tkazgandan so'ng Arab xalifaligiga qaram bo'lgan mamlakatlarni boshqarish uchun tayinlangan hokimni, qo'shun qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan. Mo'g'ullar istilosidan so'ng Oltin O'rdada, keyin O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul va turk qabilalari birlashmasi – ulus boshlig'ining unvoni ham amir deb atalgan. Sahibqiron Temurning unvoni ham amir bo'lib, tarixda Amir Temur deb yuritilgan. XVIII asr o'rtasidan boshlab, Buxoroda mang'it sulolasiga mansub bo'lgan hukmdorlar ham o'zlarini amirlar deb yuritishgan.

**Amir al-mo'minin (ar.)** – mo'minlarning hukmdori. Ilk islom davrida xalifalarning keng qo'llanilgan unvoni. Bu unvonni dastlab xalifa Umar olgan. Keyingi barcha xalifalar ham shu unvon bilan yuritilgan.

**Amirlik (ar.t.)** – dastlab musulmon mamlakatlari, so'ngra O'rta Osiyoda amir tomonidan boshqarilgan mamlakat. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb yuritilgan.

**Amir ul-umaro (ar.)** – amirlar amiri, oliy amir degan ma'noni anglatgan. Oltin O'rda, Chig'atoy ulusida butun harbiy ishlar uning tasarrufida bo'lgan. Bundan tashqari, Amir ul-umaroga hukumatning barcha bosh ijroiya idoralari ham bo'syungan. Amir Temur va temuriylar davrida amir ul-umaro faqat oliy bosh qo'mondonlik, ayrim hollarda, hukmdorning xudaychisi bo'lgan.

**Amiri lashkar (ar.f.-t.)** – Temuriylar davlatida keng tarqalgan eng yuqori oliy harbiy unvon.

**Amlok (ar.)** – katta yer egaligi, mulklar, yer-suv amlok deyilgan; Buxoro amirligida soliqni taqsimlash birligi hisoblangan; XVI – XIX asrlarda Buxoro va Qo'qon xonliklarida feodal yer egaligining bir turi bo'lib, davlat oldidagi xizmatlari uchun shahzodalar, lashkarboshilar va amaldorlarga in'om qilingan yer-suv amlok deyilgan.

**Amlokdor (ar.f.-t.)** – Buxoro amirligiga qarashli eng kichik bo'linma – amlokni boshqaruvchi kishi. Amlokdor to'y tabaqa vakillaridan bo'lib, bek tomonidan tayinlangan. Amlokdorga bir necha qishloq qaram bo'lgan. Amlokdor qo'lida kotib, mirob, amin, oqsoqollar xizmat qilganlar. Amlokdorlar o'z yerlarini dehqonlarga ijaraga berganlar. Amlokdorlar xiroj yig'ish, dehqonlar yetishtirgan hosilni hisobga olish, soliq to'lamaganlarni jazolash, jarima solish kabi ishlar bilan shug'ullanganlar.

**Amlok yerlar (ar.)** - Buxoro amirligida feodal yer mulkining asosiy shakli. Amlok yerlar amir ixtiyorida bo'lib, dehqonchilik qilish uchun ayrim kishilarga berilar edi. Amlok yerlarga ekin ekan dehqonlar davlatga feodal rentasi – xiroj va boshqa soliqlar, yig'imlar to'laganlar.

**Anbar bibi maqbarasi** - Zangi ota majmuasi tarkibidagi maqbara. Toshkent yaqinidagi Zangi ota qishlog'ida barpo etilgan (15-a. boshlarida). Zangi ota maqbarasi qatori bu yodgorlik ham Amir Temur zamonasi me'morlik an'anasining yorqin namunasidir. Rivoyatlarga qaraganda, maqbara Zangi otaning xotini Anbar bibining qabri ustiga qurilgan. Maqbara ichidagi ikkinchi qabr Anbar bibining avvalgi qaynonasi Ulug'poshshoniki. A.b.m. keyingi asrlardagi ta'mirlanish oqibatida hozir o'zining asli holatini deyarli yo'qotgan. Anbar bibi xalq orasida afsonaviy shaxsga aylangan. U kishining ruhiga bag'ishlab o'tkaziladigan urf-odat va marosimlarning ko'pchiligi suv toshqini, bola tug'ilishi va hosildorlik b-n bog'liq bo'lgan.

**Ark** – qadimgi davr, o'rta asrlarda hamda so'nggi davrda O'rta Osiyo hududida shaharlarning hokimlar joylashgan ichki qismi, ya'ni «o'rda» yoki "ark" deyilgan. Asosan hokimlar, podshohlar, xonlar, amirlar, ularning saroy amaldorlari

va lashkarboshilarining uylari, hukumat idoralari, devonxona, tanga zarb etadigan zarbxcnalar ark ichida bo'lgan. Ark asosan shaharning to'rida joylashgan.

**Axuramazda** – zardushtiylik xudosi. Zardushtiylik dini qadim zamonlarda va ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda va Ercnda keng tarqalgan edi. Bu dinning muqaddas kitobi «Avesto»da saxiy xudo Axuramazda yorug'lik, obodonlik, farovonlik, salomatlik kabi hamma ezguliklarni yaratuvchi va boshqaruvchi xudo sifatida ifodalangan. Shuningdek ushbu asarda Axuramazdaning barcha yovuzliklarni – zulmat, qurg'oqchilik, ochlik, vabo, sovuq, zaharli jonivorlarni yaratuvchi va boshqaruvchi — Ahriman xudosi bilan doim kurash olib borganligi bayon etilgan.

**Ashtarxoniyalar** – Movarounnahmi idora qilgan sulola (1599-1753 yy). 1556- yilda Astraxan (Hoji-Tarhon) xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, Jo'chixon nasliga mansub bo'lgan Astraxan xoni Yormuhammad o'z oilasi a'zolari va qarindoshlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro xoni Iskandar Yormuhammad va uning hamrohlariga o'z mamlakatidan boshpana beradi. Yormuhammadning o'g'li Jonibek Sultonga o'z qizi Zuhriani xotinlikka beradi. Shu nikoqdan uch ug'il (Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammad) duryoga keladi. Buxoro xoni Abdulmo'min o'ldirilgandan so'ng shayboniyalar naslidan valiahd yuqligi uchun Jonibekning o'g'li Boqimuhammad xon taxtiga ko'tariladi. Shundan so'ng Buxoro xonligida ashtarxoniyalar sulolasining hukmronligi boshlangan.

**Barlos (t.-m.)** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. Barloslar tog'li va tog rayonlarida yashab, asosan chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Barloslar tarixda mashhur urug'lardan biri bo'lib, sohibqiron Amir Temur ham shu urug'ga mansub. Temuriylar davrida bu urug'dan ko'plab bek va amirlar yetishib chiqqan. Hozirgi davrda barloslarning avlodlari respublikamizning Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Koson, Boysun, Denov, Sariosiyo, Forish, Jizzax, Zomin, Marhamat, Xo'jaobod, Ishtixon, Navoiy, Nurota, Urgut, G'allaorol tumanlarida hamda Tojikiston, Qirg'iziston Respublikalarida va Afg'oniston hududlarida ham yashaydi.

**Bahrin (t.)** – turk-mo'g'ul, turkiy urug'lardan birining nomi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida bahrinlar Dashti Qipchoqqa kelib o'mashgan, XVIII-XIX asrlarda bahrinlarning katta qismi Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysiga, bir qismi esa Zarafshon vohasiga ko'chib kelib o'mashgan. Bahrinlar bir qancha urug'larga bo'lingan. Shulardan eng yiriklari bag'onali, qoraqalpoq, uali edi.

**Begor, begar (f.-t.)** – O'rta Osiyoda o'rta asrlarda mavjud bo'lgan majburiy ishlab berish majburiyati bo'lib, meqnatkash xalq xon va mahalliy hukmdorlar tarafidan davlat va

**Bek (t.)** – O'rta Osiyo xonliklaridagi shahar yoki viloyat boshlig'i. *Masalan:* Buxoro xonligi bir necha beklklarga bo'lingan. Har bir beklkni amir tomonidan tayinlagan bek boshqargan. Bek o'zi boshqaradigan beklkda cheksiz huquqqa ega bo'lib, u faqat amirga bo'ysungan. Shuningdek, bek so'zi aslzoda, hukmdor, janob ma'notlarida ham ishlatilgan.

**Beklik (t.)** – Buxoro amirligida bek tomonidan idora etiladigan ma'muriy hudud. Buxoro amirligi XX asr boshlarida 27 ta beklididan iborat bo'lgan.

**Beklarbegi (t.)** – O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan yuqori ma'muriy unvon va lavozim. Viloyat, katta shahar hokimlari ana shu unvonga ega bo'lishgan. Bu unvon ko'chmanchi xalqlar orasida ko'p ishlatilgan. Beklarbegi lavozimi O'rta Osiyoda XIX asr oxirigacha saqlangan. Beklarbегining asosiy vazifasi soliq va turli boshqa feodal majburiyatlarning o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash, xon farmonlarini amalga oshirish, tegishli masalalarni biy, otaliqlar, oqsoqollar kengashi bilan kelishib hal etishdan iborat bo'lgan. Beklarbegilar qo'l ostidagi viloyatlarda alohida vazir, shayxulislom, sadr, jonishin (beklarbегining muovini) kabi mansablar ham bo'lib, ular bevosita beklarbegiga bo'ysunganlar.

**Biy** – turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbeklarning urug' oqsoqollariga berilgan unvon. Biylar XVIII – XIX asrlarda yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hukumatga itoat etgan. O'rta Osiyo xonlari qabila va urug' boshliqlarini itoatda saqlash uchun ularga unvonlar berib mansablarga tayinlaganlar. Biy unvoni avloddan-avlodga meros bo'lib qoldirilgan.

**Boburiylar** – Hindistonda 1526- yildan 1858- yilgacha hukmronlik qilgan sulola. Unga temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur asos soldi. Chet ellarda, Hindistonda, uzoq vaqtlar bizda ham Boburni va uning avlodlarini "Buyuk mo'g'ullar" deb atash odat bo'lib qolgan. Bu noto'g'ri g'oya asosan Yevropalik olimlar tomonidan Temur va uning avlodlari mo'g'ullardan tarqalgan degan g'oya ilgari surilib. Bobur saltanati uchun «Buyuk mo'g'ullar» degan nom qo'llanilgan, ularning asarlari orqali shu nazariya to' Hindistorgacha kirib borib, uzoq vaqtlargacha noto'g'ri talqin etilib keldi. Aslida esa Temur ham, uning avlodlari ham, shu jumladan, Bobur ham mo'g'ullardan tarqalgan emas. «Buyuk mo'g'ullar» degan ibora Chingizxon va uning avlodlariga nisbatan qo'llanilsa, to'g'ri bo'ladi. Boburiylar, aslida Temur xonadoni vakili bo'lmish Bobur avlodlaridandir. Ular, manbalarning guvohlik berishicha, o'zlarini "Boburiy mirzolar" deb yurtitishgan.

Boburiylar Hindistonda 332- yil hukmronlik qilishgan. Boburiylar sulolasining vakillari: 3. M. Bobur (1526-1530 yy), Humeyun (1530-1539 y va 1555-1556 yy), Akbarshoh (1556-1605 yy), Jahongir (1530-1627 yy), Shoh Jahon (1627-1658 yy), Avrangzeb Olamgir (1658-1707 yy), Bahodirshoh I (1707-1712 yy), Jahondirshoh (1712-1713 yy), Farux Siyar (1713-1719 yy), Muhammadshoh (1719-1748 yy), Ahmadshoh (1748-1754 yy), Olamgir II (1754-1759 yy), Shoh Olam II (1759-1806 yy), Akbar II (1806-1837 yy), Bahodirshoh II (1837-1858). *Izoh:* Humoyun afg'on sur qabilasining yetakchisi Sherxondan mag'lubiyatga uchragach, to' 1555- yilgacha hokimiyat Sherxon qo'liga o'tdi, faqat 1555- yilda Humoyun afg'on, chig'atoy, eron, turkman va ko'chmanchi o'zbeklardan katta kuch to'plab hokimiyatni qaytarib oldi.

**Boj (qad. eron)** – 1. Sokinlik, xomushlik, g'usl, yemoq va ibodat vaqtidagi zardushtlarning odati. 2. Bir davlat tomonidan ikkinchi davlatga to'lanadigan yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga, feodal ichki kurashlar kuchaygan vaqtlarda

esa bir viloyatdan boshqa viloyatga o'tish uchun, shuningdek, shahar va qishloq bozorlarida savdogarlardan olinadigan maxsus to'lov. O'rta Osiyoda boj olish o'rta asrlardan boshlab davom etib kelgan. Boj oluvchi mansabdor tusqovul deb atalgan.

**Botmon** – Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyoda qadimgi davr va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan og'irlik o'lchovi birligi. Botmon turli davrlarda turli joylarda miqdori o'zgarib turgan. Masalan: XIX asrda bir botmon Xivada 20,16 kgdan 40,95 kggacha, Buxoro va Samarqandda – 8 pud (1 pud-16 kg.), ya'ni 131,44 kg, Farg'onada – 8 – 10 pud, ya'ni 131,44 kgdan 163,800 kggacha, Toshkentda – 10,5 pud, ya'ni 171,99 kggacha teng bo'lgan. Shuningdek, O'rta Osiyoda botmon yer o'lchovi sifatida qam qullanilgan, ya'ni bir botmon og'irlikdagi bug'doy sepilishi mumkin bo'lgan yer bir botmon hisoblangan. Bu taxminan bir gektarga teng sath o'lchov belgisi bo'lgan.

**Buddaviylik, buddizm** – uch jahon dinlaridan (buddaviylik, xristianlik, islom) biri, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarida Hindistonda paydo bo'lib, so'ngra Markaziy Osiyo, Janubiy – Sharqiy Osiyo va Uzoq Sharqda yoyilgan. U buddaviylik degan nom bilan ham ataladi. Bugungi kunda buddizm Shri-Lanka, Birma, Tailand, Laos, Kambodja, Vetnam kabi davlatlarning asosiy dinidir. Buddizmda Txeravada (oqsoqollar yo'li yoki qadimgi an'analarga sodiqlik) va Maxayana (katta arava yoki yangicha yondoshuv) yo'nalishlari mavjud. Maxayana juda ko'p sekta va mazhablarga bo'linadi.

Buddaviylik 2500 yildan ziyod tarixni o'z ichiga oladi. Unga dastlab braxmanizm va jaynizمنىing ta'siri kuchli bo'lgan. Imperator Ashoka (miloddan avvalgi III asr) davrida mustaqil din sifatida shakllangan. Buddaviylik Hindistonda to'qqiz asr ustuvor bo'lgan keyin inqirozga yuz tutgan va pirovardida bu yerda uning o'imini hinduizm egalladi. Shri-Lanka va Janubi-Sharqiy Osiyoning quruqlik qismida buddaviylikning Txeravada, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Tibetda esa Maxayana kabi yo'nalishlari ildiz otgan. Hozirgi paytda, AqShga ko'plab yapon va tibet rohiblari hamda olimlarning kirib kelishi natijasida, mamlakat bo'ylab yirik buddaviylik jamoalari tashkil topdi. Buddizmning bir necha xalqaro tashkilotlari ham mavjud.

Boshqa dinlardan farqli o'laroq buddaviylikda hyech bir o'zgarmas narsa yo'q, hatto xudo ham o'zgaruvchan, degan g'oya ilgari suriladi. Faqat lahzalar silsilasi mavjud bo'lib, ularning har biri muayyan davrda yo qolib, keyingisiga o'rin bo'shatib beradi. Buddha ta'limotiga ko'ra, inson doimo azob-uqubatga mahkum va bunga uning o'zi sabab bo'ladi. Chunki u, garchand befoyda bo'lsada, o'z hayoti va farovon turmushini saqlab qolishga harakat qiladi. Azob-uqubadan xalos bo'lish uchun ko'ngil xush ko'rgan barcha narsalardan tiyilish darkor. Yolg'onidan, o'g'irlikdan, boshqaga zarar yetkazishdan, zinodan muntazam ravishda o'zni tiyib borish hamda meditatsiya (ongni oliy haqiqatga yetishishga qaratish) "bodxi", ya'ni xotinjamlikka, oxir-oqibatda nirvanaga (azob-uqubaning tugashiga) olib keladi.

Nirvanaga yetishish uchun talab qilinadigan axloqiy barkamollik bir emas, bir necha hayotni taqozo etishi mumkin. Buddaviylik zaminida uch narsa Buddha, Dharma va Sangxaga e'tiqod mavjud. Buddaning o'zi – Siddharta Gautama ismli tarixiy shaxs. Buddaviylik esa – Dharma-Gautama qoldirgan ta'limotdir. Ushbu ta'limotning eng qisqa bayoni quyidagi "to'rt oliy haqiqat"dan iborat: azob-uqubat mavjud; azob-uqubatning sababi (istak) mavjud; azob-uqubatning tugashi (nirvana) mavjud; azob-uqubatning tugashiga olib keluvchi sakkiz bosqichli yo'l mavjud.

Sangxa-Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi tor ma'noda "oliy haqiqat"ga yetishgan ko'plab avliyolardir. Sangxa jamoasiga qabul etilgan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qiladi: hyech kim yoki hyech narsani hayotdan judo qilmaslik; yolg'on so'zlamaslik; o'g'irlik qilmaslik; jinsiy aloqa qilmaslik; mast etuvchi ichimlik ichmaslik; peshindan to ertasi kun sahangacha tanovul qilmaslik; uch kiyimdan boshqa hyech narsa bilan tanani bezamaslik; ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va hatto tomoshabin sifatida ham qatnashmaslik; baland va yumshoq o'rinda yotmaslik; pul ishlatmaslik. XX asrda bu dunyo jahon bo'ylab kishilarni buddaviylikka jalb etish odat tusiga kirdi. Hatto Hindistonning o'zida ham buddizm dunyoviy shaklda qayta tiklanmoqda. Yaponiyada dunyoviy kishilar "sinsyuko" (yangi dinlar) deb atalgan oqimga asos solmoqdalar. Amerikadagi "yangi buddizm" jamoalari asosan dunyoviy kishilardan tarkib topgan. O'zbekistonda ham hozirgi kunda bitta buddaviylik jamoasi rasmiy ravishda faoliyat ko'rsatmoqda.

**Burj (ar.)** – 1. Quyoshning yillik harakat yuli bo'lib joylashgan o'n ikkita yulduzlar turkumining majmui va ularning nomi Hamal (Quyq), Savr (Sagir), Javzo (Egizak), Saraton (Qisqichbaqa), Asad (Sher), Sunbula (O'toq), Mezon (Tarozu), Aqrab (Chayon), Qavs (Yoy), Jaddiy (Echki), Dalv (Qovg'a), Hut (Baliq), 2. Minora shaklidagi qarovullar yoki yo'l masofasini ko'rsatadigan bino. Qal'a devorining har joylarida qurilgan minoraga o'xshagan qurilma.

**Buxorxudot** – VII-VIII asrlarda Buxoroda mavjud bo'lgan kichik feodal davlati hukmdorlarining nomi. Buxoroni arablar bosib olganidan keyin Buxorxudot hukmdorligi o'z mavqeyini yo'qotdi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, VII asrning 80-yilidan va VIII asrning o'rtalarida Buxoroda Bicun, Tug'shoda, Buniyot va Sukun ismli buxorxudotlar hukmronlik qilganlar. Arablar Buxoroga bostirib kirganda Buxoroda Tug'shodaning onasi buxorxudot bo'lgan.

**Vazir** – arabcha so'z bo'lib, yordam ko'rsatuvchi, yordamchi degan ma'noni anglatadi. Birinchi bor vazir unvoni VIII asrda abbosiylar sulolasi davrida paydo bo'lgan. Shundan boshlab musulmon davlatlarining hukumatlari tarkibida oliy mansab egasi sifatida vazirlar faoliyat ko'rsatishgan. Ular podshohlar, xonlar va viloyat hokimligiga tayinlangan shahzodalarning yordamchilari hisoblangan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Hukumatı tarkibida Bosh vazir va har

soha bo'yicha ish olib boruvchi vazir lavozimi mavjud bo'lib, keng faoliyat ko'rsatmoqda.

**Vaziri a'zam (ar.)** – ulug' vazir, ya'ni vazirlar boshlig'i degan ma'noni anglatadi. Ilk va so'nggi o'rta asrlarda hukumatning oliy idoralari boshqargan yuqori mansabdagi shaxs bo'lib, vazirlar ish faoliyatini boshqarib turgan.

**Valiahd (ar.)** – podsho yoki xonning tiriklik chog'ida o'z o'miga tayinlab qo'ygan taxt vorisi. Valiahd podshoh yoki xonning qaroridan keyin maxsus davlat kengashida tasdiqlangan. Chingizxon va Amir Temur zamonida valiahd tayinlashda ularning yoshiga emas, balki davlatni boshqara olish qobiliyatiga e'tibor berilgan. Amir Temur o'g'illari Mironshoh yoki Shoxruhni emas, balki nabirasi Muhammad Sultonni, u vafot etgach, Mirzo Jahongirning o'g'li Pirmuhammadni valiahd qilib tayinlagan edi.

**Vassal** – ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi qul, xizmatkor, boshqa shaxsga tobe bo'lgan erkin xizmatchi, feodalizm davrida esa katta yer egasiga qaram bo'lgan feodalga nisbatan ishlatilgan atama. So'nggi feodalizm davrida, jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida bir davlat tomonidan ikkinchi davlatni siyosiy jihatdan o'ziga to'la qaram qilib olib, u yerda o'z siyosatini yurgizish vassallik deb atalgan. Rossiya imperiyasi tomonidan 1868-yil iyun oyida Zirabuloq tepaligida Buxoro qo'shinlari tor-mor etilgach, ikkala o'rtada shartnoma imzolaniib, ushbu shartnomaga muvofiq Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylantirilgan.

**Vaqf (ar.)** – davlat tomonidan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk, ya'ni yer-suv, bino va boshqalar vaqf deyiladi. Vaqfdan keladigan daromadlar o'sha diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan.

**Vaqfnoma (ar.f.-t.)** – mulk egalari o'z yer-suvi, xo'jalik binolari va daromad keltiradigan boshqa mulklarini diniy muassasalar – masjid, madrasalar hamda ayrim ruhoniylarga – eshon, muftiyarga, so'fiylik jamoalari izmiga ixtiyoriy suratda o'tkazganligi to'g'risidagi hujjat. Vaqfnomada mulkning vaqfqa o'tkazilish sababi, mulk egasining nomi, vaqf qilingan mulkning mutavallisi (boshqaruvchisi), vaqf mulkidan foydalanish tartibi, guvohlar aniq ko'rsatilgan. Vaqfnoma qozi tasdig'idan keyin qonuniy kuchga kirgan.

**Volgabo'yi o'zbeklari** – VI-XIX asrlarda Volga bo'ylarida yashagan o'zbeklarga nisbatan ishlatilgan atama. Asrlar mobaynida Volga bo'ylaridagi shaharlar O'rta Osiyo mollari uchun muhim bozor qisoblangan. Xorazm, Buxoro va boshqa shaharlardan Volga bo'ylariga mol olib boruvchi maxsus savdogarlar bo'lgan. O'rta Osiyo hududida yashagan aholining ma'lum qismi ixtiyoriy ravishda Volga bo'ylariga borib o'mashib qolgan. VI asr oxirida Volganing quyi oqimida vujudga kelgan Xazar podshohligiga O'rta Osiyoliklardan 20 mingga yaqin kishi ko'chib kelib o'mashganligi qayd etiladi. Ularning ko'pchiligi xorazmliklar bo'lishgan. Xorazmliklar Xazar podshohligining ichki va tashqi

savdosida muhim rol o'ynaganlar. Podshohlik vaziri xorazmliklardan tayinlanganligi e'tiborga molikdir.

Hatto podshohlikning 1200 kishidan iborat gvardiyasi ham xorazmliklardan tashkil topgan, degan fikrlar mavjud. Xorazmliklar Xazar podshohlighining siyosiy va ijtimoiy hayotida katta mavqe egallaganlar. Mo'g'ullarning Oltin O'rda davlati barpo etilgandan keyin ham Volgabo'yi o'zbeklari davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqeyini saqlab qolgan. Ular Oltin O'rda davlatining Saroy Botu va Saroy Berkadagi poytaxt shaharlarida istiqomat qilib, savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. Ular Oltin O'rda davlatida nafaqat arxitektura, naqqoshlik, hunarmandchilik taraqqiyoti va madaniy yuksalishga, balki Oltin O'rda adabiyoti va adabiy tilining rivojiga ham muhim hissa qo'shganlar. Volgabo'yi o'zbeklari uzoq vaqtlar o'z urf-odatlarini, tili va dinini saqlab qolgan. XIX asr o'rtalariga kelib, ularning ma'lum qismi o'z vataniga qaytgan, qolgan qismi esa hozir ham Astraxan yaqinida yashab kelmoqda.

**Gyeopolitika** - (grekcha geo-yer, politika – davlatni boshqarish san'ati)- tashqi siyosatda biror davlat yoki mintaqaning geografik o'rimi, hududiy joylashishi, kommunikatsion imkoniyatlarini hisobga olib yuritiladigan faoliyat. Tarixda geopolitika jamiyat taraqqiyotida geografik sharoitlarning o'rnini yuqori darajada mutlaqlashtiruvchi qarash tarzida namoyon bo'ldi. "Hayotiy makonning torlik qilayotgani" "tabiiy sarhadlarni kengaytirish zarurati" singari da'volar geopolitikani va ekspansiyani asoslovchi siyosiy konsepsiya deb baholanishiga olib keldi.

Geopolitika atamasini fanga shvetsiyalik siyosatshunos olim R.Chellen kiritgan. Bu atama I jahon urushi arafasida keng qo'llanila boshladi. O'sha davrda yashagan nemis olimi F.Retsel davlatlar muayyan joy va kududda mavjud bo'ladi, bu esa o'z navbatida ularni zarur kuduqlarni egallashga majbur qiladi, deb kisolagan. Bunday qarash reaksiyon bo'lib, dunyoni qayta bo'lib olish uchun kurashga o'tlangan Kayzer Germaniyasining urushga shaylanayotgan siyosatchilari uchun maqbul bo'lgan.

XX asr boshlaridan geopolitika mustaqil fan va siyosat sohasi, deya talqin etila boshlandi. 1923-1927 yillarda chop etilgan "Geopolitika" jurnali geografik omilning davlatlar, xalqlarning mavjud bo'lishiga ta'sirini mutlaqlashtirish yo'lidan bordi. Bunday qarash Germaniya, so'ngra Italiyada hamda Yaponiya davlati siyosatining asosiy doktrinasiga aylandi. O'zga hududlarga nisbatan bosqinchilik siyosatining ustuvor qo'yilishi o'sha paytdagi mustamlakachilik siyosatini oqlashga, milliy ozodlik harakatlarini bostirishga qaratilgan edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ba'zi yirik davlatlar dunyodagi qator mamlakatlarni o'z manfaatlarini doirasiga kiritib, ularda mustahkam o'rnatish va shu asosda o'zlarining ta'sir doiralari kengaytirishga intildilar. Natijada dunyo siyosiy xaritasida qarama-qarshi ikki qutb yuzaga keldi. XX asming 60-yillariga kelib geopolitika ikki qarama – qarshi sistema, ko'proq AQSH va sobiq Ittifoq orasidagi kurashni asoslashga yo'naltirildi. Sovuq urush siyosati geosiyosiy yo'llar va usullarga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.



Bugungi dunyodagi geosiyosiy jarayonlar, ularning mintaqamiz va mamlakatimizga ta'siri masalalarining mazmun-mohiyati, bu borada respublikamiz amal qiladigan tamoyillar hozirgi davrdagi mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga xos asosiy geosiyosiy tamoyillar ana shu asosda amalga oshirilmoqda. Jahon hamjamiyatida O'zbekistonning o'z o'rnini bor. Uning yer usti va yer osti boyliklari, G'arb va Sharq orasidagi aloqalar markazi bo'lish imkoniyati, Markaziy Osiyoda aholi, ishlab chiqarish imkoniyatlari, ilmiy salohiyat va boshqa jihatlardan yetakchi mamlakat ekanligi rivojlangan mamlakatlarning geosiyosatida O'zbekiston bilan hisoblashish, u bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarni uzoq muddatli ko'zlab o'tatish zaruratini tug'diradi.

**Geostrategik manfaatlar** – muayyan mamlakat yoki mintaqaning jug'rofik joylashuvi bilan belgilanadigan ehtiyoj va intilishlari. U istiqbolni anglash bilan bog'liq holda ro'yobga chiqadi. O'zbekiston Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, u jug'rofiy jihatdan juda qulay geostrategik mavqegaga egadir. Qadimdan Sharq bilan g'arbni bog'lagan Buyuk ipak yo'li aynan O'zbekiston hududidan o'tgani savdo-sotiq, madaniy-ma'rifiy aloqalarni keng rivojlantirishga sabab bo'lgan. 1991- yilda Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishganidan keyin bu boradagi qadimiy aloqalar qaytadan jonlandi.

Markaziy Osiyoda O'zbekiston alohida o'ringa ega. Chunki O'zbekiston kuchlar muvozanatini ta'minlash, mintaqada hamkorlikni mustaqamlash sohasida muhim o'rin tutishi uchun hamma imkoniyatlarga ega. Chunki u ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan katta kuch-qudratga ega bo'lgan mamlakatdir. Bularning barchasi O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi, chet el investitsiyalarini jalb qilishi, yurtimizni davlatlar o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning, tovar va kapital tranzitining o'ziga xos mintaqaviy markaziga aylantirdi. Buning natijasida transport, sayyohlik va moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda.

O'zbekistonning noyob va boy tabiiy xomashyo zaxiralariga ega ekani, qulay iqlim sharoiti va qishloq xo'jaligi taraqqiyotidagi ulkan salohiyat uni dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishi uchun sharoit yaratadi. Bularning barchasi O'zbekistonning geostrategik jihatdan buyuk mamlakatlar qatoridan joy olishi uchun hamma imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

**Davlat mafkurasi** - muayyan davlatda amal qiladigan, ba'zan rasman belgileb qo'yiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar, mafkuraviy tamoyillar tizimi. Ayni paytda "davlat mafkurasi" deganda davlatning jamiyat hayotini boshqarish, davlat apparati ishini tashkil etishning g'oyaviy-nazariy, siyosiy-huquqiy asoslari tizimini tushunish keng tarqalganini ham esdan chiqarmaslik zarur.

Bunday mafkuraning ishlab chiqilishi, rivojlantirilishi va ijtimoiy ongga singdirilishida davlatning ahamiyati nihoyatda katta bo'ladi. U yoki bu mafkuraning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilishi esa fikr erkinligining bo'g'inishiga, jamiyat hayotining barcha sohalarini total nazorat qilinishiga olib kelishi mumkin. o'z vaqtida Germaniyada fashizm, bir qator mamlakatlarda

marksizm-leninizmning davlat mafkurasiga aylanishi oqibatida kelib chiqqan turli salbiy jarayonlar buni yaqqol tasdiqlaydi

**Darakchi (ar. f.-g.)** – Qadimgi Sharq davlatlari armiyalarida maxsus topshiriqlarni ado etadigan va turli xabarlarini yetkazib turadigan shaxs. Darakchilar savdogar, qalandar, tuyakash qiyofasida uzoq o'likalarga borib, chet mamlakatlarning harbiy qudrati, urushga tayyorgarligi, chet el ayg'oqchilari, o'z mamlakatidan qochgan siyosiy aybdorlar haqida darak (ma'lumot) topib kelib, hukmdorlarga yetkazganlar.

**Darvish (f.-t.)** – tasavvuf maslaklaridan biriga mansub kishi, so'fiy. Islomda tasavvuf yo'liga kirib mehnat qilmay darbadarlikni, gadolik va xayr-ehson bilan kun kechiruvchi, tarki dunyo qilgan shaxs. Darvishlar turli so'fiylik tariqatlariga mansub bo'lganlar. Darvishlarni O'rta Osiyoda qalandarlar deb ham atashgan.

**Darvozabegi (darvozabon)** – O'rta Osiyo xonliklarida shahar, qal'a va xon saroylari darvozalarini qo'riqlovchi soqchi. Ilgari bu maxsus lavozim hisoblangan.

**Dashti qipchoq** – Sirdaryoning quyi oqimi hamda Balxash ko'lidan Dnepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hududlarning XI-XVI asrlardagi nomi. Bu yerlarda ko'chmanchi qipchoq qabilalari yashagani uchun u yerlar shunday deb atalgan. Dashti Qipchoq atamasini dastlab Nosir Xusrav (1003-1088 yy) qo'llagan. Shu davrdan boshlab arab va fors tillaridagi asarlarda bu atama keng qo'llanilgan. Dashti Qipchoq ikki qismdan: 1) Sharqiy qism – Yoyiqdaryosidan to Sirdaryoning quyi oqimi va Balxashgacha bo'lgan yerlar; 2) G'arbiy qism – ya'ni Yoyiq va Volgadan to Dneprgacha bo'lgan yerlardan iborat bo'lgan. Dashti Qipchoqning bir qismini XIII asrning 20-yillarida Jaba Nuyon va Subutay bahodir boshchiligidagi mo'g'ullar bosib olgan.

1236-yili Dashti Qipchoqni Chingizxonning nabirasi Bo'rxon egallaydi va bu ulkan hududda tarixda Jo'chi ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan Oltin O'rda davlati tashkil topadi. XIV asrning boshlarida Jo'chi ulusi ikki qismga bo'linib ketadi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topdi. XIV asrning 60-yillaridan boshlab Dashti Qipchoqning sharqiy qismidagi bu Oq O'rda davlati tarixiy manbalarda «o'zbeklar mamlakati» deb, uning aholisi esa «o'zbeklar», aniqrog'i «Dashti qipchok, o'zbeklari» deb atala boshlandi.

XV asrning 20-yillaridan boshlab, Sharqiy Dashti Qipchoqni asta-sekin Abulxayrxon egalladi va u bu hududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Abulxayrxon vafotidan keyin (1468-yil) Sharqiy Dasht, Qipchoqda uning avlodlari va qarindoshlar hukmronlik qildilar. Dashti Qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va o'vchilik, daryo va ko'l bo'ylaridagi aholi esa dehqonchilik, shaharlardagi aholi hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

**Diniy jamoa** - diniy tashkilotlarning boshlang'ich, asosiy va eng ommaviy turi. Dj.lar dindorlarning ibodatda, diniy marosimlar va rasm-rusumlarda birgalashib ishtirok etishlari jarayonida ularning diniy ehtiyojlarini bevosita qondiradi.

**Diniy marosimlar** - fuqarolarning diniy ta'limotlari, ularning qonun-qoidalar va e'tiqodlaridan kelib chiqadigan diniy faoliyat va xatti-harakatlari yig'indisi. D.m. har qaysi din vakillarining o'z diniy ta'limotlaridan kelib chiqadi.

**Diniy tashkilot** - diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma. D. t.lar adliya boshqarmalar tomonidan ro'yxatga olinadi. D. t. ro'yxatga olingandan so'ng u yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. D. t.lar tasarrufida binolar (masjidlar), transport vositalari, pul va b. mulklar bo'lishi mumkin.

**Devonbegi (f.t.)** – devon boshlig'i. O'rta asrlarda soliq yig'uvchi muassasa boshlig'i bo'lib, keyinchalik unga mamlakatning barcha moliya ishlari yuklatilgan. Buxoro amirligida devonbegi turli davlat ishi sohalari bo'yicha devonlar hamda viloyatlardagi devonlarni boshqargan. Qo'qon xonligida devonbegi biror viloyat hokimi ixtiyorida bo'lib, chetdan keladigan savdo karvonlaridan boj to'plagan. Xiva xonligida esa devonbegilar ko'p bo'lib, ular elchilik, yasovullik va boshqa ishlarni boshqargan. *Masalan*, Muhammad Rahimxon I davrida (1806-1825 yy) saroydagi mehtar, qo'shbegilarning har biri ixtiyorida bir nechta devonbegi bo'lgan.

**Degrez (f.t.)** – qezon quyuvchi. Umuman, cho'yandari turli buyumlar quyuvchi temirchi usta o'rta asrlarda shunday atalgan.

**Diyemokratiya** – (grekcha "demos" - xalq va "kratos" - hokimiyat) – xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga asoslangan siyosiy tuzum shakli. Tarixiy taraqqiyot davomida demokratiya tushunchasi shaklan va mazmunan boyib borgan. Bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Zero, demokratiya eng rivojlangan davlatlarda ham yuqori takomil nuqtasiga, ideal darajasiga erishgani yo'q. Har bir millat va jamiyat, ayni paytda har bir davr o'z demokratiyasiga ega. Boshqacha aytganda, uni tushunish, talqin etish va amaliyotda qo'llashda o'ziga xoslikka barcha davrlarga xosdir. Bu o'ziga xoslik xalqning bosib o'tgan tarixiy yo'li, milliy mentaliteti, an'analari, amaldagi ijtimoiy munosabatlarning xarakteri kabi bir qator omillar bilan belgilanadi.

Shunday bo'lsada, barcha millatlar va jamiyatlar, davrlar va davlatlar uchun mavjud tuzumning demokratik xarakterini belgilovchi umumiy mezonlar bor. Bu ham bo'lsa demokratiya tamoyillari (prinsiplari)ga rioya qilinishi, demokratik institutlarning mavjudligi va ularning faoliyati bilan bog'liqdir. Ana shu mezonlar asosida demokratiyaning real yoki formal xarakteri xaqida gapirish mumkin bo'ladi. Demokratiya mohiyatan insonning har tomonlarni kamol topishi uchun berilgan imkoniyat, shaxs bilan jamiyat manfaatlaridagi uyg'unlikni ta'minlovchi omildir. Ayni paytda demokratiya qabul qilingan qonunlar, amaldagi tartib-qoidalar yordamida shaxs hayoti va faoliyatini tartibga soluvchi mexanizm hamdir. Bugungi kunda aksariyat mamlakatlarda demokratiya jamiyatning yashash mezoniga aylanib qoldi. Odatda vakillik demokratiyasi va bevosita demokratiya bir-biridan farqlanadi.

Vakillik demokratiyasida fuqarolar qonunchilik, ijroiya va boshqa funksiyalarni bajaruvchi organlarni saylaydilar. Boshqacha aytganda, fuqorolarning o'zlari bu funksiyalarni amalga oshirishda bevosita ishtirok etmaydilar. Bevosita demokratiya shaklida esa fuqorolar u yoki bu masalalarni o'zlari to'g'ridan-to'g'ri hal qildilar. Plebessit, referendumlar bevosita demokratiyaning namoyon bo'lish shakllaridir.

Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni mutanosiblashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. Shu ma'noda demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar qilishga xizmat qiladi. Ko'rinib turibdiki, demokratiya insoniyat bugungi kungacha o'ylab topgan, ijtimoiy muammolarni hal etishning eng oqilona yo'lidir.

**Demokratik institutlar** - ijtimoiy hayotning demokratik tamoyillarga asoslanishiga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmui. Ularni demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari) hamda mavjudligi va faoliyati faqat demokratik jamiyat sharoitidagina mumkin bo'lgan maxsus institutlar (inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalari) kabi shartli ikki guruhga ajratish mumkin.

Demokratik jamiyatda davlat hokimiyati o'zining asosiy tarmoqlari - qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud organlariga ajratilgan holda amal qiladi. Oliy qonun chiqaruvchi organ umumdavlat miqyosida qonunlar chiqarish huquqiga ega. qonun chiqaruvchi hokimiyat doirasida hokimiyatning barcha tarmoqlari mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatadi. Ular bir-birini qisman to'ldirib va tenglashurib turadi. Ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi va sud idoralari tomonidan nazorat qilinadi. Ayni vaqtda ijroiya hokimiyati qonunlarning amal qilinishini ta'minlaydi. Sudga esa qonunlarning konstitutsiyaga mos kelishini nazorat etish, jamiyat a'zolari va tashkilotlar tomonidan unga rioya etilishini ta'minlash yuklanadi. Bu jarayonda keng vakolatlar doirasiga ega bo'lgan o'z-o'zini boshqarishning mahalliy idoralari ham muhim o'rin egallaydi.

Jamiyatning eng faol va uyushgan qismini, uning ijtimoiy qatlam va guruhlarini birlashtiruvchi siyosiy partiyalar demokratik jamiyatning muhim instituti hisoblanadi. Saylovlar siyosiy partiyalar raqobatining, ularning hukumat tizimiga ta'siri va o'rnini aniqlab beruvchi bosh maydon hisoblanadi. Siyosiy partiyalar demokratiya sharoitida, jamiyatdagi xilma-xil qarashlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'p partiyali tizim sharoitida demokratik institutlarning muhim qismi bo'lgan siyosiy oppozitsiyaning mavjudligi ta'minlanadi.

Ijtimoiy harakat va tashkilotlar (ijodiy uyushmalar, yoshlar tashkilotlari, xayriya jamg'armalari kabi) demokratik jamiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu tashkilot va birlashmalar turli ijtimoiy guruhlarning xilma-xil manfaatlarini namoyon qiladi, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligining shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Ular o'zlarining real mavqeidan kelib chiqqan holda davlat va jamoat ishlarida, ijtimoiy-siyosiy muammolarni yechishda ishtirok

etadi. Axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish ishlari bilan shug'ullanayotgan ommaviy axborot vositalari va tashkilotlar borgan sari jamiyatning eng faol, mustaqil demokratik intitutiga aylanib bormoqda.

Ommaviy axborot vositalarining davlat va jamiyat hayotidagi muhim o'rini hisobga olgan holda, ular "to'rtinchi hokimiyat" deb atalayotgani ham bejiz emas. Inson huquqlari va erkinligiga amal qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydigan davlat va nodavlat tashkilotlari (Ombudsman instituti, qonunni himoya qiluvchi idoralar) muhim demokratik institutlar hisoblanadi. Jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolarning hal etilishi demokratik institutlarning qanchalik rivojlangani va ular faoliyatining qanchalik samaradorligiga bog'liq bo'ladi.

**Dinor (ar.)** – o'rta asrlarda Arab xalifaligi hududida ishlatilgan tilla pul. XIV asrda Movarounnahrda bir dinor ikki misqol kumushga teng bo'lgan. Bir misqol 4,53-4,55 grammni tashkil qilgan.

**Dirham (yun.)** – o'rta asrlardagi arab kumush tangasi. XIV asrda Movarounnahrda dirham 1/3 (uchdan bir) misqol og'irlikdagi kumush tanga bo'lgan. Og'irlik o'lchovi 3,12 gr. teng.

**Dodhoh (f.-t.)** – O'rta Osiyo xonliklarida yuqori martabalaridan biri bo'lgan. Buxoro amirligida amir saroyining yuqori lavozimlaridan biri bo'lib, u Buxorodagi yuqori xizmat doirasidagi 10 toifa (darajali) dagi amal yoki mansab hisoblangan. Uning vazifasiga xon qabul qilgan va farmon etgan qaror va farmoyishlardan norozi bo'lib, xon oldiga kelgan odamlarni qabul qilish kirgan. Odatda, amir nomiga yozilgan iltimosnoma va arznomalarni qabul qilib olar va ularning egalariга yozma yoki og'zaki javob qaytarar edi.

**Dorug'a (m.)** – ushbu atama ikki xil ma'noni anglatadi. 1. Hokim. Mo'g'ullar, temuriylar va shayboniylar hukmronligi davrida dorug'alar viloyat, shahar hokimi bo'lishgan. Ularning zimmasiga viloyat va shaharni idora qilish, aholi ro'yxatini olish, uni hisob-kitob qilish va ulardan soliq undirish vazifalari yuklatilgan. 2. Mirshablar boshlig'i. So'nggi feodalizm davrida O'rta Osiyo xonliklarida mirshablar boshlig'i dorug'a deb yuritilgan.

**Yevroosiy**o – yer sharidagi materik. Ikki qit'adan – Yevropa va Osiyodan iborat. Quruqlikning yaxlitligi, ko'pgina iqlimiy jarayonlarning umumiyligi, organik dunyo taraqqiyotining va boshqa tabiiy-tarixiy hodisalarning o'xshashligi Yevropa bilan Osiyoni yagona nom bilan atash zaruratini keltirib chiqardi. 1883-yilda E. Zyusso tomonidan geologiya va geografiyaga kiritilgan «yevroosiy» tushunchasi ma'qul keldi va shu davrdan boshlab hozir-gacha keng qo'llanilib kelinmoqda. yevroosiy o eng qadimiy madaniyat maskanidir. yevroosiy geografik joylashishi, iqlimi, tabiatining o'xshashligi, morfologiyasi, gektonikasi hamda bir-biriga yaqinligi jihatidan quyidagi rayonlarga bo'linadi: 1. Atlantika bo'yi o'lkalari. 2. Shimoliy Yevroosiy. 3. Tog'-orolli Arktika 4. Baland Sibir va Mo'g'uliston. 5. Ichki Yevroosiy. 6. Sharqiy Osiyo. 7. Janubiy Osiyo. 8. O'rta dengizning Yevropa sohili. 9. Old-Osiyo yassi tog'liklari va Kavkaz. 10. Janubi-G'arbiy Osiyo.

**Yetti urug'** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lar guruhi. Asosan Zarafshon daryosining o'rta oqimida, qisman Toshkent vohasida yashagan, yetti urug' oytamg'ali, qo'shtamg'ali, sirg'ali, qamchili, juvonli, samanotli, cho'michli kabi urug'lardan iborat bo'lgan. yetti urug' tarkibidagi bu urug' nomlari o'zbeklarning boshqa yirik qabilalari tarkibida ham uchraydi. *Masalan:* oytamg'ali urug'i qo'ng'iroq, do'rmon, qurama qabilalarida, qo'shtamg'ali urug'i esa nayman, yuz, qo'ng'iroq urug'lari tarkibida ham uchraydi. yetti urug' qozoq va qirg'izlar tarkibida ham bo'lgan. yetti urug' bugungi kunda o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan.

**Yoyiq (t.)** – Ural daryosining qadimgi va o'rta asrlarda atalgan oldingi nomi. Yoyiq aslida turkiy so'z bo'lib, «keng» degan ma'nou bildiradi. Yoyiq daryosining nomi 1785- yili Rossiya imperatori yekaterina II tomonidan chiqarilgan farmon asosida Ural deb o'zgartirilgan.

**Yom (jom) (t.)** – yo'lovchilar, choparlar to'xtaydigan, ot almashtiradigan joy, bekating qadimgi nomi. Yomda doimo otlar tayyor turgan. Yomda yo'lovchilarga, choparlarga doimiy xizmat ko'rsatish uchun bir necha kishi xizmat qilgan. Dastlab yom XIII asrda paydo bo'lgan. Chingizxonning kichik o'g'li O'qtoy qoon yom kurishiga katta ahamiyat bergan. Taxminan har 5 farsahda yom qurilgan. Mo'g'ullar o'zlari bosib olgan hududlarda, xususan, O'rta Osiyoda ham ko'plab yomlar qurganlar. Yom xizmatchisi chopar yoki yomchi deb atalgan. Yom, jom kabi joy nomlari yom o'rnida vujudga kelgan toponimlardir.

**Yosh buxoroliklar** – Buxoro jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan guruh, partiya bo'lib, taraqqiyparvar va mahalliy burjuaziya vakillaridan tashkil topgan. Yosh buxoroliklar dastlab mavjud feodal tuzumga qarshi demokratik islohotlar o'tkazish tarafdori bo'lganlar. Yosh buxoroliklar amir hokimiyatiga qarshi kurashda muayyan tajriba o'rtirib, o'zbek va tojik tillarida jumal tashkil etganlar.

**Yosh xivaliklar** – Xiva jadidlarining so'l oqimidan tashkil topgan guruh, partiya. O'z safida savdogarlar, mayda dindorlar va xon xizmatida bo'lgan ayrim amaldorlarni birlashtirgan. Uning ilg'or qismi feodal aristokratiya hokimiyatini cheklaydigan islohotlar o'tkazish, ommani ma'rifatli qilish tarafdori bo'lgan. Umuman yosh xivaliklarning maqsadi xon hokimiyatini cheklab, konstituiyali monarxiyaga o'tish, amaldorlarga oylik tayinlash tartibini joriy etish, «shariat bo'yicha tenglik», ya'ni burjuaziyaning huquqlarini hukmron sinf bo'lgan feodallar bilan tenglashtirish edi.

**Jabg'u (yabg'u)** – G'arbiy turk xoqonligida qabila, ulus boshlig'iga berilgan unvon. Jabg'u atamasi O'rxun -yenisey yozuvlarida, Qultegin obidalarida, Tabariy va Yoqubiy asarlarida ko'p uchraydi.

**Jadidchilik** – arabcha so'z bo'lib, usuli jadid, ya'ni "yangilik", "yangicha" iborasidan kelib chiqqan bo'lib, yangilik uchun kurashganlar va ularning g'oyasi shunday atalgan. Jadidchilik XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiyada vujudga kelgan bo'lib, tatar burjuaziyasi orasida keng tarqalib, ular orqali XIX asrning 90-yillaridan boshlab O'rta Osiyoga kirib kelgan. Jadidchilik oqimining dastlabki

tarafdorlari musulmoncha o'qitishni Yevropacha ta'lim berish yuli bilan isloh qilish, kapitalizmning rivojlanishiga to'sqin qilayotgan bir qator feodal sarqitlarni bartaraf etish va ma'rifatparvarlik g'oyalari ilgan surishgan.

**Jadid maktablari** – eski musulmon diniy maktablarini isloh qilib yangicha usulda ta'lim bergan va jadidchilik g'oyalari ilgari surgan maktablar. Dastlab XIX asrning 80-yillarida tatar burjuaziyasi orasida paydo bo'ldi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadid maktablari Turkiston o'lkasida ham paydo bo'la boshlagan. Bu maktablarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi. Bunday maktablar dastlab Samarqandda, so'ng Farg'ona vodiysida, Toshkentda ochilgan.

**Jayhun (ar.)** – VIII asrdan boshlab, hozirgi Amudaryo arab manbalarida shu nom bilan yuritilgan.

**Jaloyir** – turk va mo'g'ul qabilalarining aralashishi natijasida tashkil topgan yirik urug' uyushmalaridan biri. Ular o'rta yirik uyushmaga bo'lingan bo'lib, har bir jamoaga sarkarda, ya'ni qabila boshlig'i boshchilik qilgan. Chingizxon saltanatida jaloyirlardan chiqqan bir qator bklar va sarkardalar xizmat qilganlar. Jaloyirlar XII asr oxiri – XIII asr boshlarida Yettisuv va O'rta Osiyoga ko'chib kelgan. O'rta Osiyoda yashaydigan jaloyirlar o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va qirg'izlar tarkibiga kirganlar.

**Jihad (ar.)** – musulmonlarning g'ayridinlarga, ya'ni kofirlarga qarshi olib borgan muqaddas urushi "jihad" deb atalgan. Jihodda halok bo'lgan kishi shahid hisoblanib, unga jannat va'da etilgan. G'alaba qilgan musulmon esa g'oziy hisoblanib, har qanday gunohlardan xalos bo'lgan.

**Joniylar** – Buxoro xonligini 1599-yildan 1753-yilgacha idora qilgan sulola. Tarixda u ashtarxoniylar sulolasi deb ham yuritiladi.

**Juzya** – dastlab Arab xalifaligida, keyinchalik boshqa musulmon davlatlarida shariat me'yorlariga ko'ra musulmon bo'lmagan fuqarolardan olinadigan jon solig'i. Juz'ya balog'atga yetganlarga solingan. Qariyalar va ayollar, bolalar, qul va gadolar esa undan ozod qilingan. Juz'ya asosan pul va natura tarzda undirilgan.

**Jo'chi (Jo'ji) ulusi** – Chingizxon imperiyasining bo'linishi natijasida 1224-yili uning o'g'li Jo'chixonga tekkan mulk, ulus shunday atalgan. Jo'chi ulusi Irishdan Ural (yo'yoq) tog'larigacha va g'arbda mo'g'ul oti to'yoqlari yetgan yergacha bo'lgan o'lkalarni qamrab olgan. Janub tomondan Chig'atoy ulusi bilan chegaradosh bo'lgan. Botuxonning harbiy yurishlari (1238-1242 yy) natijasida Sharqiy Yevropa ham Jo'chi ulusiga vassal sifatida bo'ysundirilgan. Unga Janubiy Rossiya, Qrim va Kyavkazorti kirgan. XIII asr o'rtalaridan boshlab Jo'chi ulusi Oltin O'rda deb atalgan.

**Zakot (ar.)** – Islom dinining besh asosiy talablaridan biri bo'lib, mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehson, soliq. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka ega bo'lgan katta yoshdagi musulmon zakot beradi. Zakot miqdori pul daromadlarining qirqdan bir ulushiga teng. Dehqonlar va cho'ponlardan olinadigan zakot miqdori birmuncha yuqori bo'lgan. Zakot

kambag'allar, yetim-yesirlar, kasallar va hyech kimi yo'q ayollar o'rtasida taqsimlanishi lozim bo'lgan.

**Zardushtiylik** – miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Qadimgi Eron va O'rta Osiyo hududlarida paydo bo'lgan din. Uning nomi shu dinga asos solgan afsonaviy payg'ambar Zardusht nomi bilan bog'liq. Zardushtiylikning asosiy muqaddas kitobi Avestodir. Zardushtiylikning asosiy g'oyalari dunyodagi hamma tartiblar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorongulik, hayot va o'lim o'rtasidagi kurashga bog'liq deb tushuntiriladi. Zardushtiylik dunyoni yorug'lik va ezgulik xudosi Ahuramazda bilan yovuzlik xudosi Anxra-Manyo (Axuramazda) o'rtasidagi kurashdan iborat, deb ta'kidlaydi. Zardushtiylik o'tmisida O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjonda keng tarqalgan. Bu hududlar arablar tomonidan bosib olingach, Zardushtiylikka sig'inuvchilar majburan islom diniga o'tkazilgan.

**Zaxira (f.-t.)** — ehtiyot qilib, uzoq muddatga mo'ljallab saqlangan narsalar. Zaxira oziq-ovqat, pul, buyum, qurol-aslaqa, mollar uchun yem-xashak ko'rinishlarida tayyorlangan. O'rta asrlarda qo'shin ehtiyohlari uchun g'amlangan narsalar ham zaxira nomi bilan yuritilgan.

**Ibn (ar.)** — Sharq xalqlarida erkaklar ismlari tarkibida keluvchi so'z. XX asr boshlarigacha O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida ham keng qullanilgan. O'g'li degan ma'noni ifodalaydi. *Masalan*, Olim ibn Zoir. Zoir o'g'li Olim.

**Iloq** – hozirgi Toshkent viloyatining janubida, Ohangaron daryosi vohasida joylashgan qadimgi davlat XIII asr boshlarigacha Iloq deb atalgan. Poytaxti Tunkat shahri bo'lgan. Ilk o'rta asrlarda mustaqil davlatga aylangan. Iloq hukmdorlari «Iloq dehqonlari» unvoni bilan yuritilgan va katta iqtisodiy hamda siyosiy kuchga ega bo'lgan-lar. Poytaxt shaharda tanga pul chiqaradigan davlat zarbxonasi bo'lgan. X asr oxirlarida Iloq Qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan. Chingizxon istilosidan so'ng Iloq yerlari jaloyirlar qabilasi tasarrufiga o'tgan.

**Inoq (m.-t.)** – turkiy so'z bo'lib, do'stona, yaqin odam, inoq, ishonchli vakil, ishonchli mansab egasi yoki mansabdor hamda o'z ishiga ishonchli va sadoqatli degan ma'nolarni anglatgan. Odatda, inoqlar eng qudratli o'zbek urug'lari amirlaridan tayin etilgan va ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lgan. Buxoro amirligida inoq yuqori 11- toifadagi martabalardan hisoblangan bo'lib, uning ikki xil toifasi, ya'ni katta inoq (inoqi kalon) va kichik inoq (inoqi hurd) mavjud bo'lgan. Xiva xonligida inoklar yirik amaldor, ya'ni qabila boshlig'i hisoblangan. Inoqlar huzurida qushbegi, mehtar va otaliqdan iborat kengash bo'lgan hamda ular amaliy tadbirlar ishlab chiqishga yordamlashgan.

**Islom dini**– (arabcha – bo'ysunish, itoat etish, o'zini Olloh irodasiga topshinish) dunyoda eng keng tarqalgan uch din(buddizm va xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga jahonda qariyb 1,3 mlrd. kishi e'tiqod qiladi. Islom dinining paydo bo'lishi xususida islom manbalariga asoslangan diniy an'anada u ilohiy hodisa, insonlarni to'g'ri yo'lga solish uchun Alloh tomonidan yuborilgan oxirgi ta'limot deb uqitiriladi. qur'onga ko'ra, arablar va yahudiylarning umumiy



bobokaloni Ibrohim Allohga birinchi bo'lib imon keltirgan. Demak, islom batamom yangi e'tiqod emas, balki Ibrohimning qayta tiklangan dimidir.

Islom dinining kelib chiqishi tarixi (genezisi)ni o'rganishda o'sha davrdagi ijtimoiy, iqtisodiy, diniy va madaniy omillarning barchasini hisobga olish kerak. Islom dini vujudga kelgan 6- asrning oxiri – 7- asr boshida Arabistonni birlashtirib, xalqaro savdoni barqaror qiladigan, fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qodir harbiy kuchga ega bo'lgan yagona mamlakatga aylantirish davr talabi bo'lib qolgan edi. Markazlashgan davlat tuzish bilan bir qatorda Arabiston yarim orolidagi qabilalarning etnik va madaniy jihatdan birlashuvi, yagona arab tili, og'zaki va yozma adabiyot, umumiy fikrlashning shakllanishi va nihoyat, arablarning diniy tafakkurida o'zgarish jarayonlari kechayotgan edi. Bunday harakatni boshqargan kishilar o'z faoliyatlarini ilohiy ilhom bilan asoslay olgan holdagina muvaffaqiyatga erisha olardi. Shunday qilib, Muhammadning diniy va siyosiy faoliyati yuqoridagi umumiy jarayonlarning ko'rinishi bo'lgan. Bu faoliyatni yuritishda u yakka emasdi. Arabistonda o'ziga xos uyg'onish davri boshlangan edi.

Shunday vaziyatda Muhammad 610- yil, ya'ni 40 yoshida o'zining diniy faoliyatini boshladi va vahiy (ilohiy ilhom) olayotganini e'lon qildi. Ammo bir necha nufuzli kishilar va yaqin qarindoshlarni hisobga olmaganda Makkaning ko'pchilik aholisi, ayniqsa, quraysh qabilasining zodagonlari uning targ'ibotlariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdilar. Muhammad o'ziga yerlarda tarafdorlar izlashga majbur bo'ldi. Dastlab bir guruh musulmonlar Habashistonga ko'chdi, so'ng Makka zodagonlari bilan ma'lum davrdan buyon raqobatlashib kelayotgan Yasribdagi banu Avs va banu Xazraj qabilalarining vakillari 622- yil Musulmon jamoasini o'ziga qabul qilish, Muhammadni umumiy rahnamo sifatida tan olishga rozi bo'lishdi. Madina va Makka o'rtasida boshlangan kurash 8 yil davom etdi. 630-yil musulmonlar qo'shini hych qanday qarshiliksiz Makkaga kirib bordi. Makka aholisi yoppasiga islom dinini qabul qildi va Muhammad (Sav.)ni Allohning elchisi (Rasuli) deb e'tirof etdi. Ana shundan boshlab Makka Islom dinini markaziga, qadimgi Ka'ba ibodatxonasi esa musulmonlarning muqaddas ziyoratgohiga aylandi.

Muhammad (Sav.) vafotidan so'ng Abu Bakr, Umar ibn Hattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib payg'ambarning o'rinbosari (xalifa) sifatida hukmronlik qildilar va islom dinini yoydilar.

Islomning asosiy aqidasi – "Allohdan boshqa iloh yo'q va Muhammad uning rasuli". Islom dini 5 "asos" yoki "ustun" (arkon ad-din al-islomiy)ga ega: 1) kalima keltirish; 2) namoz o'qish; 3) ro'za tutish; 4) zakot berish; 5) imkoniyat topilsa haj qilish. Shulardan birinchisi imon va qolganlari ibodat deb e'tirof etilgan. Imon 7 aqidani – Allohga, uning farishtalariga, muqaddas kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, taqdir (yaxshilik va yomonlik Allohning irodasi bilan bo'lishi)ga va o'lgandan keyin tirilishi ga ishonishni o'z ichiga oldi. Islomda o'ziga xos diniy marosimchilik tarkib topgan. Bundan tashqari, ko'pgina hollarda

mahalliy xalqlarda islomgacha mavjud bo'lgan urf-odatlar ham islom marosimchiligiga moslanib ketgan.

Ilk islomda diniylik va dunyoviylik bir-biridan ayri bo'lmagani bois g'oyaviy bahslar diniy-siyosiy tus oldi. Dastlab sunniylik va shialik yo'nalishlari vujudga keldi. Ikki taraf ("sunna" va "shia") o'rtasidagi kurash asnosida "xorijiyalar" deb atalgan uchinchi yo'nalish ham paydo bo'ldi. Ammo islom tarixi uzra "sunna" asosiy yo'nalish bo'lib keldi. Hozirgi kunda ham sunniylar musulmonlarning mutlaq ko'pchiligini (90% dan ortiq) tashkil etadi.

**Iqto (Iqta) (ar.)** — o'rta asrlarda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida hukmdor tomonidan feodalga katta xizmatlar evaziga inom qilingan chek yer. Odatda, iqta umrbod berilmay, hukmdor uni istagan vaqtda qaytarib olib, boshqa kishiga tortiq qilishi mumkin bo'lgan. Iqta haqidagi dastlabki ma'lumotlar VII asr oxiriga mansub arab manba, amiriga idora qilish uchun berilgan viloyatlar ham iqta deb atala boshlagan. Amir o'zi hukmronlik qilayotgan ushbu viloyatlar solig'ini butunlay yoki qisman o'zlashtirish huquqiga ega bo'lgan. Iqta yerlari davlat mulki hisoblangan. Lekin IX asrdan boshlab feodalning xususiy mulkiga aylana boshlagan. Temuriylar davrida iqta o'rta tiyul va suyurg'ol, boburiylar saltanati davrida esa jogir atamaları qo'llanilgan.

**Kaltatoy** – o'zbek xalqining tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Kaltatoy o'zbeklar tarkibidagi «turk» deb ataluvchi etnik guruhning bo'linmalaridan biri bo'lgan. Kaltatoy yana bir qancha kichik urug'lar (muazzamini, maxatori, mirza kaltatoyy)ga bo'lingan. Sho'rolar istibdodi o'rnatilganga qadar kaltatoylar Farg'ona vodiysida, Nurota va Molguzar (Morguzar) tog'larining yon bag'irlarida, Zarafshon vodiysining o'rta oqimlarida, Surxon-Qoratog' daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida yashaganlar. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida kaltatoylar baramom o'troqlashib o'z urug' nomini unutganlar. Hozir keksalargina o'timishda kaltatoy urug'iga mansub bo'lganlarini eslaydilar.

**Kenagas, (Kenegas)** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. Kenagas tarkibida bir qancha kichik qabila va urug'lar bo'lgan. Shulardan eng yiriklari ochamaili, kirey, abak kirey, ovoqli, taroqli, chuyut, qayri solilardir. Kenagaslarning asosiy qismi XVII-XIX asrlar davomida Qashqadaryoning yuqori havzasida yashab, Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Amirlik tobeligidan chiqish va o'z mustaqil bekligini o'rnatish uchun kurash olib borganlar. Bu kurash mang'itlar sulolasi hukmronligi o'rnatilgach, yana ham keskinlashdi. Mang'itlar sulolasining birinchi xoni Muqammad Rahimxon (1753-1759 yy) bir necha o'zbek qabilalarini, jumladan, kenagaslarning katta bir qismini o'z yerlaridan majburan Hisor viloyatiga ko'chirgan.

Amir Nasrullo hukmronligi davrida (1826-1860 yy) feodal janjallar oqibatida kenagaslar yashagan Shahrisabz va Kitob beklilari mustaqillikka erishdi. Kenagaslar o'z mustaqilligini saqlab qolish niyatida 27 yil davomida amir askarlari bilan kurashdilar. 1856- yilda Amir Nasrullo qushinlari Shahrisabz va Kitobni oladi, kenagaslarni rahmsiz qiradi. Omon qolganlari toqqa qochib jon

saqlaydilar. Nasrullo vafotidan so'ng, 1860 yilda kenagaslar yana qo'zg'olon ko'taradilar. Bu kurashga Shahrisabz hokimi Bobobek hamda Kitob hokimi Jo'rabek boshchilik qiladi. Kenagaslar Shahrisabz va Kitobni egallaydilar. Biroq 1870-yilda Rossiya hukumati qo'shinlari yordamida bu shaharlarda Buxoro amiri hukmronligi qaytadan o'rnatiladi.

**Kubraviylik** – o'rta asrlardagi so'fizm oqimlaridan biri. Najmiddin Kubro asos solgan. O'rta Osiyoda, qisman, Eronda tarqalgan kubraviylik oqimiga mansub so'fiylar o'rtasida ovoz chiqarmasdan zikr qilish amalda bo'lgan. Ularning tariqati Qur'oni Karimni majoziy va mistik talqin qilishga asoslangan.

**Laylat ul-qadr (ar.)** – ramazon oyining 27-kunga o'tar kechasi. Islom diniga sig'inuvchilar har yili shu kechada Alloh har bir insonning ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri qaqida hukm chiqaradi deb tasavvur qiladilar. Mana shuning uchun ham Laylat ul-qadr kechasini Qur'on o'qib, Allohga iltijo qilib, duo va ibodat qilib o'tkazish rasm bo'lgan.

**Mazdakiylik** – diniy-falsafiy ta'limot. Asoschisi – Mazdak. Mazdakiylar harakati Eronda keng tarqalgan. Mazdakiylik ta'limoti ijtimoiy tengsizlikni yo'qotish uchun kurashga da'vat etgan. Shuning uchun u mazdakiylik harakatining mafkurasi sifatida xizmat qidgan. Mazdakiylar harakati bostirilgan bo'lsa ham (VI asr), mazdakiylik ta'limoti keyingi asrlar davomida Eron, O'rta Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlarning va shahar kambag'allarining (Muqanna, Bobak qo'zg'olonlari) kurash bayrog'i bo'lib qolgan.

**Mazhab (ar.)** – shariat mazhablari; islomda diniy huquq tizimlari va yo'natishlari. VIII-IX asrlarga kelib, shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik – fiqh sohasida juda ko'p mazhablar yuzaga kelgan. Hozirgi vaqtda sunniylikda 4 ta mazhab – xanafiya, malikiya, shofi, hanbaliya; shialikda bitta mazhab – jafariya saqlanib qolgan. Shariat mazhablari diniy sektalardan farq qiladi. Mazhablar umuman diniy huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir O'rta Osiyoda hanafiya mazhabi hukmron.

**Maroqand** – Samarqandning yunoncha nomi. Milod. avv. VII-VI asrlarda Maroqanda o'mida mudofaa devorlari bilan o'ralgan qishloq bo'lgan. Yunon tarixchilari Arrian, Kvint Kursiy Ruf va Strabonning ma'lumoglariga ko'ra, Aleksandr Makedonskiy milod. avv. 329-yilda So'g'diyona poytaxti Maroqandni zabt etib, vayron qilgan, so'ngra o'zining harbiy garnizoni uchun qal'ani qaytadan tiklagan. So'g'diylar Spitamen boshchiligidagi bu bosqinchilarga qarshi mardlaracha kurashgan. Strabonning ma'lumotlariga ko'ra, qo'zg'olon bostirilgandan so'ng Aleksandr Makedonskiy Marokandani yana vayron qilishni buyurgan. Maroqand keyinchalik Simizkent, Samarqand nomini olgan.

**Markaziy Osiyo** - Osiyo materigining ichki qismidagi tabiiy-geografik viloyat. Maydoni 6 mln. km.2. Shim. va g'arbiy chekkasi Mongoliya, XXR b-n RF o'rtasidagi davlat chegarasigacha bo'lib, sharqi Katta Xingan, jan. esa Tibet hududidagi Sangpo (Brahmaputra) daryosi va Hind daryosining yuqori qismi bilan o'ralgan. Markaziy Osiyo dengiz sathidan ancha baland joylashgan. Reliefi

kenglik bo'ylab cho'zilgan tog' tizmalari (Mongoliya Oltoyi, Xangay, Xentey, Tyan-shan, Nanshan, Kunlun) va keng hamda ancha chuqur botiqlar (Jung'oriya, G'arbiy Mongoliyadagi Katta Ko'llar soyligi, Tarim, Saydam)dan iborat. Ayrim joylarida mutlaq balandlik dengiz sathidan past (mas. Turfon botig'i —154 m). Qum va shag'alli baland tekisliklar, kichik tog'lar ko'p.

Iqlimi hamma yerda keskin kontinental, cho'l iqlimi; yog'in kam, yiliga o'rtaicha 100—200 mm, markaziy qismlarida 10—30 mm, chekkalarida 300—400 mm, jan.-sharqida, Tibet tog'larining chetlarida 1000 mm va undan ham ko'proq. Qishda antitsiklon ta'sirida qattiq sovuq bo'ladi, yanv.ning o'rtaicha t-rasi —10°, —25°, eng past t-ra —50°, —52°. Tyanshan, Nanshan, Qoraqurum tog'larida muzliklar bor. Selenga, Irtish, Xuanxe, Yanszi, Brahmaputra, Hind, Mekong, Tarim, Xaydikgol, Kobdo, Tes, Manas, Urungu, Edzin-gol daryolari tog'lardan boshlanadi. Chuchuk suvli eng katta Xubsugul oqar ko'lining mayd. 2620 km. 2, eng chuqur joyi — 238 m. Markaziy Osiyoda Gobi, Taklamakon, Alashan va boshqa cho'llar katta maydonni egallagan. Cho'l va chala cho'llar baland tog'largacha ko'tarilib boradi. Balandlik mintaqalari Nanshanning sharqiy qismida, sharqiy Tyanshanning shim. yon bag'irlarida va Mongoliya Oltoyining jan.-g'arbiy yon bag'irlarida uchraydi. Xangay, Xentey tog'lari va Tibet tog'ligining jan.-sharqiy chetlarida anchagina o'rmonlar bor.

**Markaziy Osiyo hamkorligi** tashkiloti — davlatlararo mintaqaviy tashkilot. 1993- yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida 1994—2000 yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida bitim imzolandi. Integratsiya jarayonlariga sharoitlar yaratish maqsadlarida 1994- yil 10 yanvarda O'zbekiston va Krzog'iston o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risida Shartnoma tuzildi. Shartnomaga 1994- y. 16 yanvarda Qirg'iziston qo'shildi. 1996- y. 23 avgustda Olmaota shahrida o'tkazilgan Davlatlararo kengash majlisida Tojikiston Respublikasi kuzatuvchi (1998 y. 26 martdan a'zo) sifatida tashkilotga qabul qilindi. 1998- yil 17 iyulda Cho'lponota shahrida (Qirg'iziston) Yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma ishtirokchilari — Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy birlashmasi «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati» nomini oldi.

1999- yildan davlatlararo kengashda Gruziya, Turkiya, Ukraina kuzatuvchi maqomida ishtirok eta boshladi. Mintaqa mamlakatlarining yagona iqtisodiy makonni shakllantirish, mintaqa xavfsizligi va barkarorligi masalalarida, mintaqa mamlakatlarining o'zaro hamkorligini yanada chuqurlashtirish, integratsion jarayonlarni, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijti-moiy madaniy va b. sohalarda o'zaro manfaatli xamkorlikni rivojlantirishning muhimligini xisobga olgan holda

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan hamjamiyat faoliyati doirasini kengaytirish va uni «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti deb atash taklif etildi va bu taklif Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston Respublikalari davlat boshliklarining Toshkent bayonotida (2001 y. 28 dek.) o'z ifodasini topdi. Davlat boshliklarining Olmaota uchrashuvida (2002- yil 28 fevral) «**Markaziy Osiyo hamkorligi**» (MOH) tashkilotini tuzish haqida

Shartnoma imzolandi. Milliy muvofiklashtiruvchilar instituta tashkil etildi. MOHni tashkil etishning asosiy maqsadlari: qatnashuvchi mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika resurslaridan va suv xo'jaligi ob'ektlaridan ratsional foydalanish; transport tizimining umummintaqaviy infratuzilmasini barpo etish (q. Yevropa—Osiyo transport yo'lagi); ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy hamkorligini har tomonlama rivojlantirish; gumanitar sohada va ekologik muammolarni hal etishda o'zaro hamkorlik; mintaqa xavfsizligini mustahkamlashda hamkorlikni kuchaytirish.

2002- y.da MOH davlat boshliqlarining 4 marta uchrashuvi bo'lib o'tdi (Olmaota — 28 fev.; Oqtov — 6—7 iyul; Dushanba — 5—6 oktyabr; Ostona — 27 dekabr.). 2002- yil 18 noyabrda Toshkentda MOH tashkiloti mamlakatlari parlamentlari a'zolarining davlatlar qonunchilik bazalarini yaqinlashtirishga qaratilgan uchrashuvi, 2002- yil 28—29 noyabrda MOH tashkilotiga a'zo davlatlar ishbilarmon doiralari va tadbirkorlarning Markaziy Osiyo hamkorligi — iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mavzuida biznes forumi o'tkazildi. MOH tashkiloti doirasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etilgan.

**Marg'iyona** – Murg'ob daryosi vodiysidagi qadimiy viloyat. Marg'iyona haqidagi dastlabki ma'lumotlar ilk yozma manbalar - «Avesto» va «Bihustun» qoyatosh yodgorligida keltirilgan. Marg'iyona g'arbda Parfiya, shimoli-sharqda – So'g'd, sharqda – Baqtriya, janubda – Ariya bilan chegaralangan. Poytaxti Qadimgi Marv hududida joylashgan. Milod. avv. VI asr o'rtalarida Marg'iyonani ahamoniylar istilo qiladi. Doro I hukmronligi davrida Marg'iyona aholisi o'zi saylagan Frada ismli lashkarboshi rahbarligida ahamoniylar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Doro I qo'shinlari qo'zg'olonchilarning ko'pini qirib tashlab, qo'zg'olonni bostirgan. Marg'iyonaning markazi vayron qilingan. Mil. avv. 328- yili Marg'iyonani Aleksandr Makedonskiy istilo qilgan. Milod. avv. III asr o'rtalarida Marg'iyona Grek-Baqtriya podsholigiga tobe bo'lgan. Oradan 100 yilcha o'tgach, bu yerni Parfiya davlatining podshosi Mitridat I egallagan. Milodiy asrdan Marg'iyona Kushon podsholigi tarkibiga kirgan. I asrda Eron bosib olgan. Keyingi yozma manbalarda Marg'iyona Marv viloyati va vohasi nomi bilan tilga olinadi.

**Massagetlar** – Kaspiy orti va Orol dengizi yaqinida Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimida milod. avv. V-IV asrlarda yashagan urug'-qabilalar guruhining umumiy nomi. Massagetlar to'g'risida fanda har hil qarashlar mavjud. Ayrim olimlarning fikricha, massagetlar nomi «masuo» - «baliq» nomidan kelib chiqqan bo'lib, «baliqxo'rlar» ma'nosini bildirishi qayd etiladi. Keyingi tekshirishlar natijasida massagetlarning «mas», «saka» va «ta» so'zlaridan iborat bo'lganligi va saklarning katta uyushmasi degan ma'noni bildirishi aniqlangan. Yunon tarixchisi Gerodotning ta'riflashicha, massagetlar piyoda va otda jang qilganlar, ular otlarning ko'kraklariga sovut kiydirganlar. Massagetlar o'z podshosi To'maris boshchiligida Eron bosqinchilariga qarshi qahramonlarcha kurashganlar.

**Mahalla** – (arabcha –joy, o‘rin, makon) kishilarning muayyan hududda birgalikda yashashlari tufayli yuzaga kelgan birligi, uyushmasi, jamoasi. Dastlab shaharlarda shakllangan birlik. Mahalla –yirik jamoadir. o‘tmishda mahallalarda asosan ma‘lum bir kasb-kor odamlari istiqomat qilishgan. Mahallalalar ham shunga qarab aytaylik “Zargarlik”, “Misgarlik”, “Temirchi”, kabi nomlar bilan atalgan. Hozirgi kunda mahallalarda bunday “ixtisoslashuv” yo‘q. Shu bilan birga, hamkasblar ko‘pchilikni tashkil etadigan mahallalar ham yo‘q emas. Buni poytaxtdagi “Professorlar”, “Shifokorlar”, “Ishchilar” kabi mahalla nomlarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishida ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o‘mi katta. Zero, o‘smirlar odobni, muomola madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada o‘rganadilar. Xalqimizda qo‘shnilar bilan tinch –totuv yashash azaldan qadrlanib keladi. “qo‘shning tinch – sen tinch”, “Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo‘shning afzal”, “Hovli olma –qo‘shni ol” kabi maqollar ana shundan dalolat beradi. Mahalla-ko‘y, qo‘shnilar yaxshiyomon kunlarda doimo yondoshdir.

Bu borada respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasi (keyinchalik jamoat fondi) ning tuzilishi mahallaning an‘anaviy tarbiya o‘chog‘i ekanini yana bir bor tasdiqladi, uning zimmasiga zamon talablaridan kelib chiqib, yangi vazifalar yukladi. Ko‘p qavatli binolar joylashgan hududlarda ham yangi-yangi mahallalar tuzilgani, respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillari orasida ham mahalla udumlarining keng yoyilgani quvonarli holdir. Endilikda ilg‘or fikrli kishilar boshchilik qilayotgan mahallalardagi jamoatchilik fikri muayyan ma‘naviy kuch bo‘lib qolmoqda. o‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an‘analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezigulik g‘oyalari singdirib boriladi.

Mahalla – avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma‘naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma‘noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha‘ni uchun kurash kabi fazilatlarini kamol toptirishda mahallaning o‘mi beqiyos.

**Mahalliychilik** - kishilarda o‘zlari tug‘ilib o‘sgan joy bilan bog‘liq holda shakllanadigan hududiy yaqinlik tuyg‘usining salbiy shaklda namoyon bo‘lishi. U kishilarning urug‘-aymoqchilik va qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog‘langan birligini ham anglatadi. Mahalliychilikning eng nomaqbul tomoni mahalla, hudud mintaqa manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishdadir. Jamiyatda bunday qarash va munosabatlar tizimining mavjud bo‘lishi davlatning hududiy yaxlitligi, barqarorligi, va taraqqiy etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mahalliychilikning kuchayishi o'z navbatida hududlarning o'zini-o'zi chegaralab qo'yishiga, mavjud xo'jalik va ijtimoiy aloqalar tizimining kuchsizlanishiga, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy tanazzuliga olib kelishi ham mumkin. Shuningdek, davlat ichida muayyan hudud o'zining ustunligini ta'minlash maqsadida, o'zlariga buzg'unchilik g'oyalari shior qilib hokimiyat uchun kurashadigan ekstremistik va qo'poruvchilik guruhlari vujudga keltirishi ham mumkin.

Mahalliychilikning har qanday ko'rinishi jamiyat uchun xavfliligini tushungan holda uning kelib chiqishini oldini olish va binobarin, bu illatga yo'l qo'ymaslik muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda milliy istiqlol mafkurasining o'rni beqiyosdir. Bu mafkura o'z ahamiyatiga ko'ra jamiyatimizda yashovchi barcha xalqlar, millatlar va elatlarning asosiy maqsadlari va orzu-umidlarini amalga oshirishga xizmat qiladi, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik g'oyalari qarshi kurasha oladi. U xalqning ma'naviy kamolotiga, ma'rifatiga asoslanib, kishilar ongida umummilliy g'urur tuyg'usi bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida yashaydigan vatandoshlarimizning madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilinishini ta'minlashga davlat etadi.

**Mehtar (ar.)** – Buxoro amirligida zakotchilar boshlig'i. Qo'qon va Xiva xonliklarida davlat xizmatchisi. Shuningdek o'tmishda sarey sozandalarning boshlig'i, yetakchi sozanda. Temuriylar zamonida mehtarlar nog'orachilardan, keyinchalik sumaychilardan tayinlangan.

**Ming (t.)** – O'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. Samarqand viloyati, shuningdek Farg'ona vodiysi hamda Buxoro volhasida, ayrim guruhlar tarqoq holda Surxondaryo viloyatining Boysun, Muzrobd, Denov tumanlarida yashaganlar. Minglar uchta yirik urug'ga bo'linganlar: 1. Tug'ali. 2. Bog'lon. 3. Uvoq tamg'ali. Bu urug'lar o'z navbatida yana bir necha mayda urug'larga bo'lingan. Minglar Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmida ko'chib kelganlar hamda O'rta Osiyo xonliklarining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashganlar. Minglarga mansub yirik feolalar 1709 yilda Farg'ona vodiysida yangi davlatga – Ko'qon xonligiga asos solganlar. Minglar sulolasi hukmronligi 1876 yilga qadar, ya'ni Rossiya imperiyasi Ko'qon xonligini bosib olgunga qadar hukm surgan.

**Mingboshi (t.)** – harbiy va ma'nuriy unvon. Qo'qon xonligida xondan keyingi mansab. Asosan harbiy ishlar bilan shug'ullangan. Xiva xonligida mingboshilik eng kichik amal hisoblangan. O'rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilgunga qadar Toshkent, Oqmachit kabi shaharlarning hokimlari ham mingboshi deb atalgan. Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida Toshkent dahalarining boshliqlari ham mingboshi deyilgan. Daha mingboshisi aholi tomonidan saylanib, viloyat begi tarafidan tasdiqlangan. Keyinchalik mingboshi oldi-soldi ishlarini nazorat qiladigan mansabga aylanib qolgan.

**Miroxur (ar.f.-t.)** – Buxoro amirligida yuqori bosqichdagi 6-darajali mansab bo'lib, xon otxonasining boshlig'i bo'lgan. U saroydagi otxonalar va ot-

ulov mahkamasiga javobgar bo'lib, dasturxonchi va parvonachidan keyingi mansabdor shaxs hisoblangan.

**Misqol (ar.)** – og'irlik o'lchovi. Sharq mamlakatlarida qimmatbaho toshlarning vazirini aniqlash uchun ishlatilgan o'lchov birligi. VI-VIII asrlarda Samarqandda bir misqol 4,6 grammga, o'rta asrlarda O'rta Osiyo hududida bir misqol 4,25 grammga teng bo'lgan. XIX-XX asrlarda Farg'onada bir misqol 4,53-4,55 grammga teng bo'lgan og'irlik o'lchovi hisoblangan.

**Movarounnahr (ar.)** – arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi daryo orqasidagi yer degan ma'noni bildiradi. Arablar O'rta Osiyoni bosib olgandan keyin Amudaryodan shimolgacha qarab cho'zilgan O'rta Osiyo yerlarini "Movarounnahr" deb atashgan.

**Muhtasib (m.-t.)** – musulmon mamlakatlaridagi amaldor. Ko'pincha sayidlardan tayinlangan. U aholining urf-odatlariga amal qilishi hamda bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilib turgan XIX-XX asrlarda Buxoroda muhtasib rais deb ham atalgan.

**Nayman** – o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, no'g'oy va oltoy xalqlarining tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. O'zbek naymanlari Zarafshon vodiysi, Farg'ona vodiysi va Xorazmda yashaganlar. O'zbek naymanlari XIX asr oxirida 3 ta yirik urug'ga bo'lingan: qushtamg'ali, sadirbek va uvox tamg'ali. Bulardan tashqari, naymanlarda quyidagi urug' bo'linishlari ham mavjud bo'lgan: ag'ron, ayronchi, badir, biya, bog'onali, boltali, buqalay, burunsov, jag'albayli, jastovon, jiloili, jumaloq bosh, olti ota, olti o'g'il, oq tunli, po'lotchi, sagiz uruv, sari nayman, to'rtuul, to'rt tamg'ali, urguch, changali, cho'michli, g'ozoyoqli, qora nayman, qora gadoy, qora sirak, qarg'ali, qil tamg'ali, qo'l tamg'ali va boshqalar.

**Oytamg'ali** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan do'rmon, qipchoq, qurama, qo'ng'iroq, nurota turkmanlari va boshqa yirik qabilalar tarkibiga kirgan yirik urug'laridan biri.

**Oltin o'rda** – tarixiy manbalarla Jo'chi ulusi deb ham yuritiladi. XIII asrnish 40-yillarida Chingizxonning nabirasi Jo'chixonning o'g'li Botuxon (1208-1255) tomonidan bosib olingan Sharqiy Yevropa Jo'chi ulusiga qo'shilgach, tashkil topgan davlat Oltin O'rda deb atalgan. Oltin O'rdaga Quyi Dunay va Fin qultig'idan to Irtish havzasi va Obning quyi oqimigacha, Qora, Kaspiy, Orol dengizlarni hamda Balxash ko'lidan Novgorod yerlarigacha bo'lgan joylar kirgan. Rus yerlari Oltin O'rdaga vassal, ya'ni qaram bo'lgan. Oltin O'rdaning poytaxti dastlab hozirgi Astraxan shahri yaqinidagi Saroy Botu, keyinroq esa hozirgi Volgograd yaqinidagi Saroy Berka shaharlari bo'lgan. XV asrnin 20-yillarida Oltin O'rdadan Sibir xonligi, Qozon xonligi (1438 yy), Qrim xonligi (1443 yy), No'g'oy xonligi (1440 yy) va Astraxan xonliklari ajralib chiqqan.

**Otaliq (t.)** – dastlab saljuqiylar sulolasi davrida (1038-1194 yy) xon e'tiborini qozongan kishilarga berilgan mansab. Otaliq «Ota o'rmiqa ota» degan mazmunga ega bo'lib, uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarni tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog'atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo'lgan. Tarixda ba'zi otaliqlar hokimiyatini o'z qo'llariga olgan hollar ham



bo'lgan. Chunonchi, ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida (1599-1753 yy) Balxda Mahmudiy otaliq (XVIII asr boshlari), Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida (1753-1920 yy) Buxoroda Muhammad Rahim otaliq (1753—1758 yy) mana shunday yo'l orqali hokimiyatni egallagan.

**Podshoh (qad. er.)** – 1. Yaqin va O'rta Sharqdagi ba'zi mamlakat hukmdorlarining unvoni. Dastlab qadimgi Eronda qo'llanilgan. Podshohlar cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan, ammo XX asrning boshida ularning avvalgi mavqeyi yo'qolgan. 2. O'rta Osiyo va Eronda yozilgan tarixiy manbalarda va har xil adabiy tazkira va risolalarda qayd qilinishicha, O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan turkiy xalqlarning lavlat boshliqlari.

**Ponsad (t.)** – O'rta Osiyo xonliklarida qo'llanilgan harbiy unvon. Ponsad 500 kishidan iborat otryadga qo'mondonlik qilgan. Qo'qon xonligida mavjud bo'lgan mansablar ichida 16-o'rinda, harbiy unvonlar orasida esa mingboshidan keyingi o'rinda turgan. Ponsad odatda, xon va bek tomonidan tayinlanib, ba'zi soliqlardan qisman yoki butunlay ozod qilingan hamda unga har yili ikki marta ma'lum miqdorda g'alla, pul va sarpolar berilgan.

**Panturkizm (panturkchilik)** – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiyada tashkil topgan siyosiy oqim. Panturkizm Bolqon yarim oroli, o'rta Osiyo va Qozog'iston, Kavkazorti va Volga bo'ylarida yashab, turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarni Turkiya himoyasi ostida birlashtirish va «Ulug' Turon» davlatini tuzish g'oyasini olg'a surgan. O'rta Osiyo, Kavkazorti va Tatariston jadidlari panturkizm g'oyasidan turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarni mustamlakachilikka qarshi kurash yulida foydalanishga harakat qilganlar, ammo bu harakat natijasiz tugagan. Keyinchalik ko'pgina mahalliy ziyolilar sovet hukumati tomonidan panturkchilik tamg'asi bilan qatag'on qilingan.

**Rais (ar.)** – O'rta Osiyo xalqlarida XX asrning birinchi choragigacha mavjud bo'lgan mansab. Rais ba'zida boshqacha ibora bilan ham yuritilib, u muxtasiblik deb yuritilgan. Buxoro amirligida dindorlar rayosatida rais lavozimi qozikalondan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Raisning vazifasiga bozorlarning narx-navosi, torozi va a'shinlarning to'g'riligini nazorat qilish, hisob-kitobini aniqlash, shahar atrofidagi aholining shariat qonun-qoidalariga qanday rioya qilayotganligini tekshirish, da'volarini eshitish, namozxonlar va qimorbozlarning sonini aniqlash va ular bilan ishlash, muazzinlarni vazifaga tayinlash, yo'llarni tuzatishlar kirar edi.

**Raiyat (ar.)** – Sharq mamlakatlarida feodalizm davrida dastlab barcha fuqaro. keyinchalik soliq to'lovchi tabaqalar – deqqon va shaharliklar; undan keyingi davrda feodallarga tobe, feodal yeriga birlashtirilgan xiroj to'lovchi dehqonlar guruhi. Dehqonlarning bu toifasi avvalo Misrda, III asrda O'rta Osiyo, Eron, Iroqda, XVI asrda Usmonli turk imperiyasida rasman erkin hisoblangan bo'lsada, bir feodaldan ikkinchisiga o'tish huquqidan mahrum bo'lgan.

**Rum** – Rim imperiyasining o'tmishda Sharq va O'rta Osiyoda keng tarqalgan nomi. Milod. avv. IV asrda Rim imperiyasi parchalangach, «Rum»

atamasi Vizantiyaning bir qismiga nisbatan qo'llaniladigan bo'ldi. XIII-XV asrlarda musulmon tarixchilari Vizantiyani Rum deb ataganlar

**Saklar** – milod. avv. I-mingyillik va milodning boshlarida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning shimoli-sharqiy rayonlarida yashagan chorvador qabilalar. Massagetlar va skiflarga qardosh. Qadimgi fors manbalarida saklar uch guruhga bo'linganligi ko'rsatilgan: 1) saka-xaumavarka – O'rta osiyo vohalarida, dasht va tog'larida o'troq yashagan; 2) saka-tigraxauda (cho'qqi qalpoqli saklar) hozirgi Qozog'istonning janubi-sharqiy qismlarida yashagan; 3) saka-tiy-taradarayya – Sirdaryoning quyi oqimi, Orol va Kaspiy dengizi shimolida yashagan. Ahamoniy podshohlaridan Kir II va Doro I saklarning turli qabilalari bilan urush olib borgan. Saklar forslar armiyasi tarkibida yunon-fors urushlarida qatnashgan, Aleksandr Makedonskiy, so'ngra salavkiylar o'zlarining O'rta Osiyodagi mulklariga xavf solgan saklarga qarshi kurash olib borganligi manbalarda qayd qilingan. Milod. avv. II asr o'rtalarida saklar boshqa ko'chmanchi qabilalar bilan birga Parfiya podsholigi yerlariga bostirib kirganlar. Ammo ular qattiq qarshilikka uchrab Darang'iyonaga siqib chiqarilgan. Saklar Darangiyonada o'troq joylashganligi uchun unga Sakiston, ya'ni saklar mamlakati deb nom berilgan.

**Sohibqiron (ar.)** – 1. Quyosh tizimidagi katta sayyoralardan ikkitasining bir-birini to'sishi paytida tug'ilgan odam. Rivoyatlarga qaraganda, Amir Temur ikki sharofati yulduz – Zuhro va Mushtariy sayyoralari bir-birlariga yaqinlashgan paytda tug'ilgan ekan. Munajjmlarning fikriga ko'ra, bunday odam baxtli, ulug' martabali bo'lishi muqarrar sanalgan. Amir Temurning Sohibqiron deb atalishi ham shundan. Sohibqiron so'zining asl ma'nosi «baxtiyor podshoh», «qudratli podshoh» demakdir. 2. Sharq mamlakatlarida obro'li, g'olib podshohlarga berilgan unvon. O'rta Osiyoda dastlab Amir Temurga shunday unvon berilgan.

**Suyurg'ol (m.-t.)** – biror hukmdor yoki davlat tomonidai alohida xizmat ko'rsatgan shaxslarga berilgan in'om. Suyurg'olga berilgan yer nasldan-naslga meros bo'lib o'tgan. Uning egasi davlat sol.iqlaridan ozod etilib, olgan daromadi va mahalliy aholidan o'z uxtiyoricha foydalanish huquqiga ega bo'lgan. O'rta Osiyoda suyurg'ol Amir Temur hukmronligi davrida (1370-1405 yy) keng tus olgan. Amir Temur zabt etgan mamlakatlarning ayrim viloyatlarini shu yerlarning sobiq egalariga, o'z o'g'illariga, nevaralariga, shu yerlarning sobiq egalariga, o'z o'g'illariga, nevaralariga, ba'zan alohida xizmat ko'rsatgan amirlariga, qo'shin boshliqlariga suyurg'ol qilgan. XVI asrdan boshlab suyurg'olning avvalgi tartibi o'zgardi. Shayboniylar hukmronligining so'nggi yillari va ashtarxoniyalar hukmronligi davrida ayrim qishloqlar, yer maydonlari, hatto shu yerlardan undirilsak soliqlarning bir qismi ham suyurg'ol tariqasida beriladigan bo'ldi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida suyurg'ol xarakteri tubdan o'zgarib, uning faqat merosiyliqi saqlanib qolgan.

**Tavochi (m.)** – XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo va Eronda xon va podshohlar saroyida xizmat qilgan oliy harbiy mansabdor. Tavochi zimmasiga harbiy yunsh ko'zda tutilganda tobe viloyatlardan oziq-ovqat, kurol-aslaha, ot-ulov bilan belgilangan miqdorda lashkar to'plab kelish, harbiy yurish oldidan hamma

qo'shnlarni ko'rikka hozirlash, harbiy yurish vaqtida dam olish va uni o'tkazish uchun qo'shinni qulay o'ringa joylashtirish, dushman qarorgohiga yaqinlashib, uni qamal qiluvchi qo'shnlarni joy-joyiga qo'yish, asirlar va jinoyatchilarning jazolanishini nazorat qilish, qamal xavfi tug'ilganda tevarak atrofdagi qishloklar aholisini qal'aga ko'chirib kelish kabi vazifalar yuklangan.

**Tariqat (ar.)** -- so'fiylikka xos atama bo'lib, uch ma'noda ishlatilgan: 1) umuman so'fiylik yo'li, 2) so'fiylikning muayyan tarmog'i, yo'nalishi; 3) so'fiylik bosqichlaridan biri. Tariqatni so'fiylik yo'nalishlari, tarmoqlari ma'nosida qo'llash kengroq tarqalgan. Tariqatga qadam qo'yish -- tirkchilikning barcha tashvishlaridan voz kechish hamda ixtiyorni pirga topshirishdan boshlanadi. O'rta Osiyoda naqshbandiylik, kubraviylik, yassaviylik tariqatlari tarqalgan.

**Temur tuzuklari** - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi, uning davlat tuzilishi va uni boshqarish xususidagi qarashlari bayon etilgan manba. Asar ikki qismdan tarkib topgan. Birinchi qism Temurning davlatni barpo etish va mustahkamlash, qo'shnlarni tashkil etish yuzasidan tuzuklari, rejalaridan iborat. qo'shinning jangovar tartibi jadvallar vositasida ifodalangan. Ikkinchi qismdagi 13 kengash va uning bo'laklarida Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va harbiy yurishlari tafsilotlari beriladi. Asar muallifi zukko siyosatdon va yirik davlat arbobi sifatida o'z davlatining tuzilishini, mansabdorlarning huquq va burchlarini belgilab beradi. „Temur tuzuklari“ muallifining fikriga ko'ra, har bir tojkor o'z davlatining tayanchi bo'lgan ijtimoiy - siyosiy guruhlariga suyanagan holda ish olib borishi, ularning yordamida raiyat, qo'shin va davlatni idora qilishi zarur.

Amir Temur davlatni boshqarishda vazirlar, amirlar va viloyat voliyalariga alohida ahamiyat bergan. Vazirlar, asar muallifining fikricha, quyidagi to'rt sifatga ega bo'lishlari shart: 1) asillik va toza nasllik, buyuklik; 2) aqllu farosat; 3) sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik va ularga xushmuomalada bo'lish; 4) sabru bardoshlilik va muloyimlik.

Amir Temur obochonchilik, qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirganlarni rag'batlantirishga katta e'tibor bergan. Xususan, asarda "Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (davlat yerlarini boshqaruvchi mahkama) tarafdan obod qilinsin, agar egasi bo'lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amir qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda qorizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustida ko'priklar so'lsinlar, yo'l ustida, har bir manzilgohga rabotlar qursinlar". -- degan fikrlarni o'qiyamiz. "Temur tuzuklari"ni o'qib Amir Temurga xos bo'lgan muhim fazilatlar bilan ham tanishish mumkin. Jumladan, "Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim", - deb yozadi u. Asarda bunday misollarni ko'plab topish mumkin.

Bugungi kunda - milliy istiqloq g'oyasini shakllantirishda "Temur tuzuklari" muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

**Totalitarizm** (totalitare- butunlik, to'lalik, mukammallik, totalis jami, to'la) – jamiyat hayotining barcha sohalarini davlat tomonidan to'la nazorat qilish, demokratik tashkilotlarni ta'qib qilish, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni tugatish, har qanday shaxs, ijtimoiy qatlam guruh, manfaatlarini davlat manfaatlariga bo'sundirilishini talab qiladigan siyosiy g'oyalar tizimi va ular asosida shakllanadigan davlat tuzumi. Totalitar boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatiladi, oshkora ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi, demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo'yiladi. Bu g'oya tarafdorlari o'ta markazlashgan hokimiyat tizimi o'rnatilgan kuchli davlatni tashkil qilish, mamlakatni boshqarishda yakkayu yagona kuch yoki partiyaning hukmronligini ta'minlashga, alohida e'tibor berdilar. Jamiyatda barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar faoliyati va omma hayoti ustidan to'la nazoratni o'rnatish, davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini markaziy tashkilot tomonidan belgilab berilishi, davlatga rahbarlik qilishni yakka shaxs qo'lida to'plashdek g'oyalar ustuvor qiladi, Tarixdan ma'lum bo'lgan fashistik tuzumlar va sobiq Sovet Ittifoqi va uning ittifoqdoshlari bunga misol bo'lishi mumkin. Totalitar boshqaruv tizimidagi davlatda jamiyatning barcha sohalarida muayyan mafkuraning yakka hokimligi mavjud bo'ladi.

Totalitar tuzum hukmron bo'lgan sobiq ittifoq o'rnida yuzaga kelgan, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan davlatlarning barchasi bu tuzumdan, davlatni totalitar boshqaruv shaklidan voz kechdi. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekiston o'z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib qo'ygan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalash va himoya qilishga qodir bo'lgan parlament turkumidagi qator siyosiy partiya va harakatlar, turli jamg'arma va institutlar faoliyati ko'rsatilmoqda. Har qanday demokratik jamiyat totalitar tuzumga va uning mustabid mafkurasiga tubdan qarama-qarshidir. Demokratik jamiyatda hech qanday mafkura davlat mafkurasiga sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Bu tamoyil O'zbekistonda ham qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Milliy g'oya totalitarizmga zid bo'lib, fikrlar xilma-xilligiga asoslangan holda, butun O'zbekiston xalqining umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga tayanadigan maqsad va muddoalarni, orzu-umidlarni, ehtiyoj va manfaatlarini ifodalaydi. U xalqimizni sobiq totalitarizm asoratlaridan, turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlik va boshqa asoslarda dunyoni bo'lib olishga urinayotgan zararli va buzg'unchi mafkuralardan muhofaza qila oladi.

**Totemizm** (Janubiy Amerika hindulari tilida uning urug'i ma'nosini anglatadi) – odamning ko'pincha biror hayvon, parranda yoki afsonaviy mavjudot bilan aloqasi borligi, ba'zan ulardan tarqalgani haqidagi ishonch-e'tiqoddan kelib chiqqan diniy tasavvurlar majmui.

Qadimiy xalqlar ot, ho'kiz, ilon, bo'ri, it va boshqa hayvonlarga e'tiqod qilganlar va o'z ajdodlari bilan aloqador deb bilganlari tufayli ulardan g'uyoki kuch, ruhiy madad olganlar. Shu tariqa bu jonzoqlar urug' yoki qabila, keyinchalik butun bir xalqning sig'inish ob'ekti - totemiga aylangan. Totemistik tasavvur, avvalo, xalq irimlarida, urf-odatlarida o'z aksini topadi. Xalqimizda bo'riga bo'lgan munosabat ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Masalan, bolaga Bo'rirov deb ism qo'yiladi yoki biror yaqin kishisi muhim bir ish bilan bir yerga (masalan, sovcilikka) borib qaytayotgan odamga "Bo'rimi, tulkimi?!"-deb murojaat qilinadi. "Bo'ri!"- degan javob ishning natijasi ko'ngildagidek bo'lganidan darak beradi.

Xalqimizdagi ot, humo qushi, baliqlarga topinish bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarda ham aynan shu kabi qarashlar mujassam. Bunday qarashlar ba'zan, boshqa xalqlar e'tiqodlaridan farq qilishi ham mumkin. Uning mohiyatini anglash, urf-odatlar, rasm-rusmlarni bilishga, milliy tafakkur va xalq psixologiyasini o'rganishga yordam beradi.

**Ulamo (ar.)** – Islom ilohiyotchilari va huquqshunoslari, shuningdek diniy muassasalarga, qozilik mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha musulmon dindorlari ulamolardir deb yuritilgan. Ulamo so'zi faqat din sohasidagi bilimdon kishilarga nisbatan ishlatilgan va ishlatilmoqda. Dunyoviy fanlar bo'yicha bilimdonlarga nisbatan esa olim iborasi qo'llaniladi.

**Ummaviylar** – arab xalifalari sulolasi (661 – 750 yy). Asoschisi makkalik yirik savdogar va qurayshiyalar zodagoni Abu Sufyonning o'g'li Muoviyadir. Muoviya xalifa Ali hokimiyatini tan olishdan bosh tortib, Damashqda o'zini xalifa deb e'lon qilgan. 658- yili ular o'rtasida urush boshlangan. Uch oy davom etgan jang natijasiz tugagan. Ali vafotidan (661 yy) so'ng arab zodagonlari va harbiy boshliqlar yordamida Muoviya yagona hukmron bo'lib qoladi. Shu bilan ummaviylar xalifalik taxtini egallaydi. Ummaviylar poytaxti Damashq bo'lgan, Ummaviylar davrida arablar sharqda Tabariston, Jurjon, Movarounnahr va Sindni, g'arbda Shimoliy Afrika va Ispaniyaning katta qismini bosib olganlar. 747 - 750 yillarda Abu Muslim rahbarligidagi qo'zg'olon natijasida ummaviylar sulolasi vakili xalifa Marvon II taxtdan tushiriladi va hokimiyat abbosiyalar qo'liga o'tadi.

**Fuqarolik jamiyati** - iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushuncha. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati tashkilotlar haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Ular so'nggi yillarda davlat sektori va xususiy tijorat sektori bilan bir qatorda ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning tamoman yangi bir qismi sifatida shakllandi.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, kooperativlar, ishbiarmonlar uyushmalari, klublar va boshqalar fuqarolik jamiyatining yadrosini tashkil etadi. Hukumat tarkibiga kirmaydigan minglab ixtiyoriy guruhlar nedavlat tashkilotlar

deb nomlansa, fuqarolik jamiyati tashkilotlari mahalliy fuqarolarning minglab turli guruhlarini - klublar, jamoat uyushmalari, fuqarolar harakatlari, xizmat ko'rsatish markazlari, jamg'armalar manfaatlarini himoya qilish tarmoqlarini tashkil etishlarida ko'rinadi. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy taraqqiyot muammolarini hal etish yo'lida tarmoqlar tashkil etish, moliyalashtirish, xizmat ko'rsatish va himoya qilish masalalari ustida ma'lum fuqarolar guruhlari nomidan faoliyat yurituvchi minglab qo'shimcha nodavlat, notijorat tashkilotlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Demak, fuqarolik jamiyati tashkilotlari o'zining tarkibiga davlat va tijorat sektorlaridan tashqaridagi "uchinchi sektorga" tegishli bo'lgan barcha tashkilotlarni qamrab oladi. Shunday qilib, kishilar o'z turmush tarzlarini yaxshilash maqsadida tashkil etilgan barcha turdagi an'anaviy uyushmalar, jumladan sport musobaqalan, hududiy va madaniy uyushmalar fuqarolik jamiyati tashkilotlari tarkibiga kiradi.

**Xonaqoh (f.t.)** – shayx va darvishlar zikru samo qiladigan xona, masjid. Islom dini tarqalishi bilan yuzaga kelgan. Darvishlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida qurilgan. Darvishlar uyushmalarining markazi sifatida qurilgan yirik xonaqohlarning katta zallari, ularning atroflarida esa ziyoratchilar uchun hujralar bo'lgan. Keyinchalik mahalla, qishloq masjidlarining namoz o'qiladigan xonasi ham xonaqoh deb agalgan.

**Chig'atoy ulusi** — Chingizxon tomonidan Chig'atoy va uning avlodlariga meros qilib berilgan viloyatlarning umumiy nomi (1224- yildan boshlab). Hududi Movarounnahr, Yettisuv va Qashqardan iborat bo'lgan. Ko'chmanchi tarzda hayot kechiruvchi mo'g'ullar o'troq aholini boshqarish uchun tajribaga ega emas edilar. Shuning uchun Chig'atoy o'z ulusini boshqarishni xorazmlik Mahmud Yalavoch (1225 – 1238 yy) va uning o'g'li Ma'sudbekka (1238 – 1289 yy) topshirgai. O'zi esa ulusdan keladigan daromadlarning asosiy qismini olish bilan qanoatlangan. Chig'atoy vafot etgach (1242 yy), Munke Gilan Botuxon Chig'atoy ulusini mulk sifatida tugatishga qaror qilgan. 1251-yili imperiyada qurultoyi chaqirilib Munke taxtga o'tirgach, Chig'atoy avlodlarining ko'pchiligi qatl qilingan. Chig'atoy ulusini esa Munke va Botuxon o'zaro bo'lishib olganlar. Movarounnahr Botuxon qo'lga o'tgach, XIII asming 60-yillarida Chig'atoyning nabirasi Olg'u chig'atoylar hokimiyatini tiklagan. Olg'u vorislari Muborak va Baroq mahalliy aholi bilan yaqinroq aloqada bo'lish uchun islom diniga kirganlar. Xon qarorgohi hamda ba'zi mo'g'ul urug'lari Yettisuvdan Movarounnahr ga ko'chirib keltirilgan. Temuriylar davlati tashkil topishi bilan chig'atoylar hokimiyati tugagan.

**Choryorlar (f.t.)** – Muhammad Payg'ambar vafotidan so'ng Arab xalifaligida hokimiyat tepasida turgan dastlabki to'rt xalifa - Abu Bakr, Umar, Usmon, Alifarni Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoda musulmonlar orasida choryorlar, deb atash rasim bo'lgan. Ular «Xulafo ar-roshidun», ya'ni to'g'ri yo'ldan yuruvchi xalifalar deyilgan.

**Qavchin (qovchin)** – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan urug‘lardan biri. Qavchinlar XIII asr o‘rtalarida arlot, barlos, jaloyirlar bilan birga Mo‘g‘uliston hududidan Amudaryoning o‘rta va yuqori oqimiga hamda Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelishganligi aytiladi. Qavchinlar asosan yarim o‘troq holda yashab, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular bir qancha urug‘larga bo‘lingan. Shulardan eng yiriklari beguzuv, balxi, ko‘rpachuvish, bo‘zchi, kashmiri, sulaymon, imom, bo‘yin, tutal, po‘la, sherali, tuyabo‘yin kabilardir.

**Qalandar** – so‘fizm yo‘liga kirib, mehnat qilmasdan dardbadarlik, gadoylik va xayr-ehson yo‘li bilan kun kechiruvchi kishilar faoliyati. Qalandardar muayyan jamoa (suluk)ga birlashib, uning g‘oyalarini targ‘ib etadilar. Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya, Qadariyada qalandarlikning mashhur suluklari mavjud bo‘lgan.

**Qang‘li** – turkiy urug‘lardan biri. O‘rxun-Yenisey yozuvlarida «kanxaras» deb atalgan. Qang‘lilar milod. avv. III asr oxirlarida Sirdaryo bo‘ylarida yirik Qang‘ davlatini paydo qilgan. X asr oxirida ularning katta bir qismi shimoli-g‘arbiga siljib, Emba va Ural (Yoyiq) daryolari oralig‘ida joylashgan. XI asrda ularning ko‘pchiligi Kichik Osiyo, Bolgariya va Vengriya yerlarigacha o‘tib mahalliy aholiga, ayrim guruhlar esa Volga bo‘ylariga kelib boshqird, tatar xalqlariga qo‘shilib ketganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. XI asming oxiri – XII asming boshlarida qang‘lilarning katta guruhi Sirdaryo bo‘ylariga qaytib kelgan. O‘rta asrlarda qang‘lilar O‘rta Osiyo davlatlarining ichki siyosatida faol ishtirok etishgan. Qang‘lilar yarim o‘troq holda yashab dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishgan. Ular bir necha urug‘larga bo‘linishgan. Jumladan, sari-qang‘li, qora-qang‘li, qizil-qang‘li, bobo-qang‘li, oltmish-qang‘li, bo‘ka-qang‘li va boshqalar.

**Qarluqlar** – qadimiy turkiy urug‘lardan biri. IV-V asrlargacha Oltoyning g‘arbida yashaganlar. VI-VII asrlarda qarluqlar Turk xoqonligi tarkibiga kirgan. VII asr o‘rtalarida qarluqlarning bir qismi Yettisuv hududiga kelib joylashganlar. VIII asr oxirlarida bu yerda Qarluqlar davlati vujudga kelgan, X asrda Qoraxoniylar davlatida qarluqlarning vakillari hukmron mavqevga ega bo‘lganlar. X asr oxirlarida qoraxoniylar Movarounnahrni egallagach, qarluqlar Toshkent vohasiga, Farg‘ona va Zarafshon vodiylariga ko‘chib kelishgan. Keyinchalik qarluqlar mahalliy xalqlar tarkibiga kishgan. O‘zbeklar tarkibidagi qarluqlar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Zarafshon daryosining o‘rta va quyi oqimlarida, hozirgi Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Sho‘rchi tumanlarida yashaganlar.

**Qiyot** – Qadimgi turkiy urug‘lardan biri. O‘g‘uzlar tarkibida bo‘lgan. VIII-X asrlarda Dashti Qipchoqda yashab, ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanganlar. O‘g‘uzlar davlati yemirilgach, XI asrda qiyot qabilalari ham bo‘linib ketgan. Ularning katta qismi Turkmaniston hududiga siljib mahalliy aholiga, boshqa bir qismi esa Bolqon yarim orolidagi xalqlar tarkibiga singib ketgan. Dashti Qipchoq cho‘llarida qolgan qismi keyinchalik o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlarining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Qoraqalgyuqlar

tarkibidagi qiyotlar uchga bo'lingan (uchtamg'ali, taroqli, bolg'ali). Qashqadaryoning yuqori oqimi Xorazm va Buxoro vohalari, shuningdek Zarafshonning o'rta oqimida yashovchi qiyotlar XIX asr oxirlarida qoraqalpoqlar tarkibiga kirgan. Qiyotlar XX asr boshlarida asosan o'troqlashib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

**Qipchoqlar** – turkiy xalqlarning eng yirik urug'laridan biri. Qipchoqlar rus solnomalarida «polovetslar», Yevropaning ba'zi xalqlarida va Vizantiya solnomalarida «kumanlar» deb atalgan. Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk» asarida qipchoqlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Qipchoqlarning ilk ajdodlarining bir qismi VI asrda G'arbiy Oltoydan chiqib, Mo'g'uliston va Tuva orlarig'iga kelib o'mashgan. Ikkinchi qismi esa Irush daryosining yaqinidagi dashtlarga ko'chib o'tib, kimaklarga tobe bo'lgan.

**Qirq** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. Tarqoq holda Samarqand atrofida, Panjikentniig janubida, hozirgi G'allaorol, Jizzax, Zomin va O'ratepa hududlarida yashaganlar. Ko'pincha o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri – yuzlar bilan aralashgan holda yashaganlar. Shuning uchun ham ko'pchilik manbalarda «qirg-yuz» nomi bilan ham ma'lum, Qirq, yuz va ming qabilalari marqa degan umumiy nom bilan atalgan. Qirqlarning etnogenezi Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklari bilan bog'liq. Qirqlar o'tmishda bir qancha urug'larga bo'lingan. Shulardan eng yiriklari oq-qo'yli, qora-qo'yli, qora-sirak, qoracha, olmasaun, chaperashli va boshqalar. Ular XX asr boshlariga qadar yarim o'troq holda yashab, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Bir qismi tog' yon bag'rida, adirlarda yashab, lalmikor va qisman sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

**Qurama** – o'zbek xalqi tarkibidagi etnik guruhlardan biri. Quramalarning ayrim guruhlari qozoq, qirg'iz va turkman xalqlarining tarkibiga ham kirgan. O'tmishda quramalarning ko'pchiligi o'zbek xalqi bilan aralashib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ularning salmoqli qismi XX asr boshlariga qadar moddiy madaniyati, turar joy va kiyimidagi ayrim xususiyatlari hamda ba'zi urf-odatlarini bilan o'zbeklardan farq qilib, o'zlarini azaliy etnik nomlari - «qurama» nomi bilan atab kelganlar. Quramalarning ajdodlari XV asr - XVI asrning birinchi yarmiga qadar Dashti Qipchoqda yashab kelganlar. Ularning katta bir qismi XVII-XVIII asrlar davomida O'rta Osiyoga ko'chib o'tgan. Dashti Qipchoqda qolgan qurama guruhlari qozoq xalqi tarkibiga kirib, ularga aralashib ketganlar. Quramalarning kichik bir qismi Chu daryosining yuqori oqimlariga ko'chib borib o'mashib, astasekin qirg'iz xalqi bilan aralashib ketganlar. Qizilqum orqali siljib o'tgan quramalarning katta bir guruhi Amudaryo qirg'oklarigacha borib, ko'pchiligi turkmanlar tarkibiga kirgan. O'zbek xalqi tarkibiga kirgan quramalarning asosiy qismi hozirgi Toshkent viloyatidagi Oqqo'rg'on, Bo'ka, G'alaba, Oqangaron va boshqa tumanlarda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan.

**Qur'on (ar.)** – musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Muhammad Payg'ambaring Makka va Madinada olib borgan og'zaki diniy targ'ibotlari to'plamidan iborat. Qur'onida islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy



normalari o'z ifodasini topgan. Islom an'anasida Qur'on Alloh tomonidan Muhammad Payg'ambarga ramazon oyining 27-kuni kechasi vahiy qilingan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib ro'za tutilgan. Uning 27-kuni kechasi «daylat ul-qadr», ya'ni qudrat kechasi, ilohiyot qudrati namoyon bo'lgan kecha deb ulug'lanadi. Qur'on kitobini «Qur'oni Karim», «Qur'oni Masjid» deb sifatlashadi.

**Qutvol (f.-t.)** – Buxoro xonligida davlat tomonidan tayinlangan maxsus mansabdor bo'lib, davlat qurilishlariga javobgar shaxs bo'lgan. U ark qurilishlari, qala devorlari va imoratlarini ta'mirlash ishlari bilan shug'ullangan va unga javob bergan.

**Qutchi** – qadimgi turkiy urug'lardan biri. Qutchilarning ilk ajdollari Janubiy Sibirida, X-XIII asrlar davomida esa Qashg'arda va Yettisuvda yashab kelganlar. XIII -XIV asrlarda qutchilarning katta bir qismi hozirgi O'zbekiston hududiga kelib joylashganlar va o'zbeklar tarkibiga kirganlar. Bir qismi qirg'izlar tarkibida ham mavjud bo'lgan. O'zbeklar tarkibidagi qutchilar allaqachon o'troqlashib, o'zbek xalqi bilan aralashib ketgan. Ozroq qismi esa o'z nomlarini XX asr boshlarigacha saqlab kelganlar. Bular asosan Zarafshon tizma tog' etaklarida, Urgut atroflarida Shahrisabz vohasida, Qashqadaryoning yuqori oqimlarida joylashgan. Qutchilar bir necha urug'larga bo'lingan. Eng yiriklari: shix-sayot, moli, movar, qashqari. Qutchilar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganlar.

**Qushbegi (t.)** – XV-XVI asrlarda podshoh va xonlar qushxonasining mutasarrifi bo'lgan. Uning zimmasiga ovni tashkil qilish va o'tkazish vazifalari yuklatilgan.

**Qo'ng'iroq** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan yirik urug'lardan biri. XX asr boshlarida o'zbeklar tarkibida bo'lgan qo'ng'iroqlar O'zbekistonning janubiy hududlarida, shuningdek Zarafshon vodiysida, Mirzacho'l, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yashaganlar. Qo'ng'iroqlar qozoq, qeraqalpoq, qirg'iz, boshqird, no'g'oy va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga ham kirganlar. XIV asrda qo'ng'iroqlarning katta bir qismi Xorazm hududiga ko'chib o'tgan va Xorazmning so'fiylar sulolasi faoliyatida faol ishtirok etgan. XIV-XV asrlar davomida qo'ng'iroqlarning ayrim g'uruhlari Xurosonga, Shimoliy Afg'onistonga va Hisor - Sherobod vodiysiga kelib o'mashganlar. Qo'ng'iroqlar keyinchalik Xorazmning siyosiy hayotida faol ishtirok etganlar. XVIII asrning ikkinchi yarmi - XIX asr boshlarida Xiva xonligini o'zbek qo'ng'iroqlari sulolasi boshqargan. Ularning ko'pchiligi XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar yarim o'troq, holda yashab, xo'jaligida chorvachilik muhim rol uynagan. Avlodlari asosan tog'li hududlarda joylashgan.

**Qo'shchi (qutchi)** – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug'lardan biri. Qo'shchi qabilalari XIV-XV asrlar davomida Dashi Qipchoqda yashab, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanganlar. XVI asrda qo'shchilar boshqa o'zbek urug'lari bilan bir qatorda Movarounnahrda kelib joylashganlar. XVI-XVII asrlar davomida qo'shchilar o'troqlashib, keyinchalik o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan.


**G'aznaviylar** – X-XII asrlarda O'rta Sharqda mavjud bo'lgan feodal davlatning va uni boshqargan sulolaning nomi. G'aznaviylar davlatida turkiy sulola hukmronlik qilgan. Asoschisi – somoniylar lashkarboshisi Alptakin. U 962 yili qo'l ostidagi g'ulomlarga tayanib, G'azna viloyatida o'z hokimiyatini o'rnatdi. Sulola hukmdorlari: Ayaptakin (962 yy), Sabuktakin (977-997 yy), Ismoil (997-998 yy), Mahmud G'aznaviy (998-1030 yy), Muhammad (1030), Ma'sud I (1030-1041), Mavdid (1041-1048), Ma'sud II (1049), Ali Abulhasan (1049-1051 yy), Abdurashid (1051-1099 yy), Ma'sud III (1099-1115 yy), Sherzed (1115-1116 yy), Arslon (1116-1117 yy), Baxromshoh (1117-1153 yy), Xusravshox, (1153-1160 yy), Xusrav Malik (1160-1186/87 yy).

**Hadis (ar.)** – Islom dini talimoti bo'yicha Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad Payg'ambarning hayoti va faoliyati, shuningdek uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad Payg'ambar biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoxud boshqalarning o'zlariga qilayotgan biror ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shu xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dini ahkomi, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, axloq-odobga doir ko'rsatmalar ham talqin etiladi. IX-X asrlarda dindorlar orasida obro'li deb tanilgan Hadisning oltita to'plami vujudga kelgan. Bulardan ayitqsa ikkitasi - «Sahih Buxoriy» va «Sahih Muslim» ko'proq e'zozlanadi. Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar muhaddis deb atalgan, Islom olamida taniqli muhaddislardan Ismoil al-Buxoriy, imom at-Termiziylar vatandoshimiz hisoblanadi.

**Harakatlar strategiyasi** – 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonnini keng ko'lamli rivojlantirishga mo'ljallangan istiqbolli maxsus Dastur. 2017- yilning 7 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shaykat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni imzolandi. Farmonda belgilangan strategiya loyihasi va unda ko'zda tutilgan muhim strategik masalalar respublikamiz ekspertlari hamda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tdi. Strategiya loyihasi o'ta dolzarb, ya'ni aholining turmush tarzini yanada yaxshilash, mamlakatni yaqin besh yilda tizimli, kompleks rivojlantirish, davlat boshqaruv tizimini isloh qilish, mamlakatda qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyotiga asosan mahalliy shart sharoitlar va xorijiy tajribani tahlil qilishga asoslarga holda ishlab chiqilgan.

**Hijriy yil hisobi (ar.)** - musulmonlar yil hisobi. Muhammad Payg'ambarning Makkadan Madinaga ko'chishi bilan bog'liq. Hijriy yil qamariya (hijriy-qamariy yil) va shamsiya (hijriy-shamsiy yil)ga bo'linadi. Qamariya bo'yicha yil hisobi 622- yilning 16 iyulidan boshlangan bo'lib, 12 oydan iborat, bir qamariy yil 354 kunga teng, Qamariy yilda 1, 3, 5, 7, 9 va 11 oylar 30 kundan, qolganlari 29 kundan butun qilib olingan. Oylar tartibi bilan muxarram, safar, rabiul-avval, rabiul oxir, jumodil avval, jumodil oxir, rajab, shabon, ramazon,

shavval, zulqada va zulhijja deb ataladi. Qamariy yil tropik yildan, ya'ni hozirgi grigoriy kalendaridan 10-12 kun qisqa. Shamsiya bo'yicha yil qisobi 622 yilning bahorgi tengkunlik kuni, ya'ni 21 martdan boshlab hisoblanadi. Keyingi yil boshlari esa 20-21 yoki 22 martga to'g'ri keladi. Davomiyligi jihatdan grigoriy kalendaridagi kabi 365 yoki 366 kundan iborat. Shamsiya bo'yicha oylarning nomlari hut, hamal, savr, javzo, saraton, asad, sumbula, mezon, aqrab, qavs, jaddi va dalv bo'lib, bu oylar doimo yilning bir vaqtlarida keladi. O'rta Osiyoda oldin qamariy hisobi ham, shamsiya hisobi ham ishlatilib kelingan.



**Oblomurodov Natim Xalimovich** - tarix fanlar doktori. 1952 yil Samarqand viloyati, Urgut tumani Quyi qishlog'ida tug'ilgan. Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakultetini tamomlagan. 1981 yil nomzodlik, 1994 yilda doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli yoqlagan. 4ta monografiya, 2ta darislik, 13ta o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalar xamda o'zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi, soliqlar tarixi, ta'lim tizimida yangi edagogik texnologiyalarga bag'ishlangan 100ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. 1996-2000 yillar Toshkent moliya instituti Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha birinchi prorektor bo'lib

faoliyati ko'rsatgan.

2001 yil - Davlat soliq qo'mitasi xuzuridagi Soliq va bojxona organlari akademiyasi boshlig'i birinchi o'rinbosari. 2002 yildan Davlat qo'mitasi Soliq akademiyasi rektori vazifasini bajaruvchi. 2003 yildan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Soliq akademiyasi "Ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha" birinchi prorektor lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Xozir Toshkent Moliya Instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.



**Tolipov Fayzulla Saidovich** -1971 yil 19 yanvarda Jizzax viloyati, Forish tumanidagi Garasha qishlog'ida tug'ilgan. Tarix fanlari nomzodi, dotsent. 2006 yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan, 2008 yildan dotsent lavozimida faoliyat yuritadi.

Olim shu kunga qadar "Moziyga bo'ylashgan maskan" risola (2008 yil), "O'zbekistonda soliqlar tarixi" monografiya (2009 yil), "O'zbekiston tarixi" o'quv-uslubiy qo'llanma (2009 yil), "O'zbekiston tarixi" o'quv qo'llanma (2011 yil), "Ma'naviyat asoslari" o'quv qo'llanma (2011 yil), "Mahalla: o'tmishda va bugun" monografiya (2014 yil), "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" o'quv-uslubiy qo'llanma (2018 yil), "O'zbekiston tarixi" o'quv-uslubiy qo'llanma (2019 yil), "O'zbek oilasi: tarixi va tunnush tarzi" monografiya (2020 yil) lari hamda 100 ga yaqin ilmiy va ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi hamda hammuallifidir. Olim 2 ta respublika va 1 ta xorij (AQSh) ilmiy jurnallari tahrir hay'ati a'zosisidir

## MUNDARIJA

Kirish.....3-5

**1-mavzu. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari, manbalari va ahamiyati. Markaziy Osiyo - jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi .....6-43**

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, ob'ekti, uni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari. O'zbekiston tarixining jahon xalqlari tarixi bilan bevosita uyg'unligi.

2. O'zbekiston tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev barkamol avlod va ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarix fanining o'rni va sabablari xususida

4. Insonlarni har tomonlama yetuk, ma'naviyatli va komil etib tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining ahamiyati

5. O'zbekiston qadimgi sivilizatsiya beshiklaridan biri. Qadimgi davr (paleolit, mezolit, neolit va eneolit) odamlarining turmush tarzi va madaniyati.

6. O'zbekiston tarixida bronza, temir davri va ilk shahar madaniyati hamda davlatchilikning vujudga kelishidagi omillar.

7. Avesto qadimgi ajdodlarimiz ma'naviy hayotini o'rganishda muhim manba.

**2-mavzu. O'zbek xalqi davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari.....46-75**

1. O'rta Osiyoda ilk davlatchilikning shakllanishidagi asosiy omillar va boshqaruv.

2. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'd (So'g'diyona) va qadimgi Farg'ona davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot.

3. Eron Ahamoniylari va Yunon Makedon qo'shinlarining O'rta Osiyoga hujum va ularga qarshi milliy ozodlik kurashlari

4. O'rta Osiyoda antik davr davlatlari va ular rivoji

5. Qadimgi savdo yo'llari va Buyuk ipak yo'lining shakllanishi hamda rivojlanishi.

6. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi. O'zbekiston milliy mustaqilligi yillarida etnik holat, millatlara o'rdo'stlik va hamjihatlik.

**3-mavzu. Ilk o'rta asrlarda davlatchiligi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (V-IX asrlar). .....76-91**

1. Kidariylar, Xioniyalar va Eftaliylar (eftalit)lar hukmronligi davrida O'rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

2. Turk hoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlari.

3. O'rta Osiyo arab xalifaligi davrida. O'lkada islom dinining keng tarqalishi va arablar yurishlarining natijalari.

4. Arablar bosqinidan keyin Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, soliqlar.

**4-mavzu. IX–XII asrlarda o'zbek davlatchiligi. Ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....92-110**

1. Tohiriyalar, Semoniyalar va Qoraxoniylar hukmronligi davrida Movarounnahr.

2. Movarounnahrda G'aznaviylar va Saljuqiylar hukmronligi.

3. Xorazmshohlar hukmronligi davrida o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi.

4. IX–XII asrlarda Movarounnahrda uyg'onish davri, ilm-fan, madaniyat va diniy ta'limot.

**5-mavzu. Mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi kurash. Jaloliddin Manguberdi mard va jasur ajdodimiz.....111-122**

1. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi arafasida Mo'g'uliston va Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Chingizxon va Xorazmshoh munosabatlari.

2. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi, Jaloliddin Manguberdi qahramonligi

3. Mo'g'ullar istilosidan so'ng o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Chig'atoy ulusida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot.

**6-mavzu. Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot.....123-146**

1. XIV asr birinchi yarmida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish uchun kurashlari.

2. Amir Temur Movarounnahr hukmdori.

3. Temuriylar davrida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot.

4. Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan va madaniy hayot.

**7-mavzu. O'rta Osiyo hududlarining xonliklarga bo'linib ketishi, uning sabablari va oqibatlari.....147-177**

1. XV asr oxiri - XVI asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Shayboniylarning Movarounnahrda yurishi va bosib olinishi
2. Buxoro xonligi va amirligida ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Ashtarxoniylar sulolasi.
3. Xiva xonligining tashkil topishi va ravnaqi
4. Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli

**8-mavzu. O'rta Osiyo xonliklarining Rossiyasi imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy - ozodlik harakati. Jadidchilik.....178-205**

1. XIX asr o'rtalarida o'zbek xonliklarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati.
2. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi.
3. Rossiya imperiyasi tajovuziga qarshi Turkistonda milliy-ozodlik harakatlari.
4. O'lkada jadidchilik harakati va milliy uyg'onishning shakllanishi.

**9-mavzu. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy siyosati.....206-249**

1. 1917 yil fevral burjua-demokratik inqilobining va oktyabr davlat to'ntarishining Turkistonga ta'siri, o'lkada ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar.
2. «Turkiston Muxtoriyati»: milliy davlatchilikda yangi bosqich. TASSR davrida Turkiston.
3. Turkistonda fan, adabiyot, ma'rifat va uning rivoji.
4. XX asr 20-30 yillarida Turkistonda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayot.
5. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston. O'zbekistonliklarning front va front ortidagi jasoratlari.

**10 mavzu: O'zbekistonda sovet davlatining amalga oshirgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy siyosati (1946-1991 yyy).....250-276**

1. O'zbekiston ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillarida.
2. XX asr 50-70 yillarida O'zbekiston: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holat.
3. 80-yillarning o'rtalari va oxiridagi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. "Qayta qurish" va uning cheklanganligi.

**11-mavzu: O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi. Huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllantirilishi.....277-310**

1. O'zbekistonda davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishining tarixiy ahamiyati
2. Siyosiy islohotlar, O'zbekistonda huquqiy-demokratik davlat asoslarining shakllantirilishi va rivojlantirilishi
3. Respublikada mahalliy davlat hokimiyati va o'zini o'zi boshqarish organlari: mohiyati, faoliyati va vazifalari.
4. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning ta'minlanishi

**12-mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- madaniy taraqqiyoti. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.....311-399**

1. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlantirilishi.
2. O'zbekistonda agrar islohotlar va aholini ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot, madaniyat, ta'lim va fan.
4. O'zbekiston va jahon hamjamiyati.
5. Yangilanayotgan O'zbekiston islohotlarining strategik bosqichida Shavkat Mirziyoevning Prezident etib saylanishi va mamlakat taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi mamlakat taraqqiyotining yangicha dasturi.

**Tarixiy atamalar izohi.....400-434**





















**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Ofiy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi**

**Toshkent moliya instituti**  
**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

**Naim Oblomuradov**  
**Fayzulla Tolipov**

# **O‘zbekiston tarixi**

(Darslik)

*Редактор: Х. Умаров*  
*Корректор: Х. Умаров*  
*Компьютерная верстка: Х. Умаров*

Лиц. изд. № 6578-3160-98с5-739с-4d73-8486-3262. 10.05.2021г

Подписано в печать 07.01.2021.

Формат 60x84 1/16. Усл.печ.л. 34,1. Уч.-изд.л. 35,5.

Тираж 100 экз.

Издательство ХК «NUR DURDONALARI».  
100194. Ташкент, ул. Янгишахар 15-9  
+998 90 989-75-07

63.3/50



9 789943 737259